

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA DERIVATSION QONUNIYATLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI

Samarqand shahri, 2025-yil, 16-oktabr

Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Samarqand: SamDCHTI nashri, 2025. – 241 bet.

Ushbu to‘plamdan “Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani ishtirokchilarining maqolalari o‘rin olgan bo‘lib, undan barcha tilshunos, adabiyotshunos va pedagoglar foydalanishi mumkin.

Tahrir hay’ati:

| | |
|---------------------------|------------------|
| Professor v.b.B.A.Xolikov | rais |
| Professor O.G‘aybullayev | rais o‘rinbosari |
| Professor Sh.S.Safarov | a‘zo |
| Professor T.A. Bushuy | a‘zo |
| Professor X.Z.Xayrullayev | a‘zo |
| Professor A.M.Turobov | a‘zo |
| Dotsent B.Turniyozov | a‘zo |
| Dotsent Sh.N.Turniyazova | a‘zo |
| Dotsent D.Sh.Mamirova | a‘zo |
| O‘qituvchi M.A.Rustamov | mas‘ul muharrir |
| O‘qituvchi O.S.Eshboyeva | mas‘ul kotib |

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas‘ul.

I SHO‘BA

TIL TARAQQIYOTINING DERIVATSION QONUNIYATLARI

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
SamDChTI professori,
filologiya fanlari doktori,
Guljanat Kurmangaliyeva Ercilasun
Prof.Dr., Hoji Bayram Vali universiteti,
Turkiya

FONEMATIK VA MORFEMATIK SATH BIRLIKLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada fonematik va morfematik sath birliklari yoritib berilgan. Fonematik sath birligi fonema o‘zining differensial belgilari orqali morfemaning tovush qobig‘ini tashkil etadi va bu bilan ma’no ifodalanishi uchun xizmat qiladi. fonematik sath birliklari morfematik sath doirasida qo‘llanishi jarayonida o‘zaro bog‘lanishi barobarida ana shu morfematik sath birligini shakllantiradi.

Kalit so‘zlar: fonematik sath, morfematik sath, pog‘onalilik, allofon, morfonologiya.

Fonematik sath birliklari bilan morfematik sath birliklari o‘rtasidagi munosabat tilning ma’no anglatmaydigan unsurlarining ma’noli unsurlar sathiga kirishini taqozo etadi. Bu jarayonda fonematik sath birligi fonema o‘zining differensial belgilari orqali morfemaning tovush qobig‘ini tashkil etadi va bu bilan ma’no ifodalanishi uchun xizmat qiladi.

Fonemalarning real qo‘llanishida bo‘g‘in tushunchasining ham o‘z o‘rni bor. Biroq bo‘g‘inni biz til sathi yoki fonematik sath ichidagi mikrosath sifatida talqin etishni maqsadga nomuvofiq deb bilamiz. Bo‘g‘in morfemalar va so‘zlar sathida o‘z maqomiga ega bo‘luvchi fonetik hodisadir. Uning ba’zi paytlarda morfemalar bilan shaklan bir xil bo‘lib kelishi ham, bizningcha, til birliklarining pog‘onali munosabatini o‘rganishga daxli yo‘q. Pog‘onalilik (sathlararo ro‘y beruvchi) munosabati tilning quyi sathi bilan morfematik sathi o‘rtasida boshlanadi. Fikr dalili uchun quyidagi morfemalarning tovush jihatlariga ahamiyat beraylik: -
ning,-ni, -da,-dan.

Ayni paytda kelishik qo‘shimchalari grammatik ma’nosiga ega bo‘lgan affiksall morfemalarni ko‘ramiz. Birinchi morfema tarkibida *n, i, ng* fonemalari, ikkinchisida *n, i*, uchinchisida *d, a* va to‘rtinchisida *d, a, n* fonemalarining sintagmatik munosabati shakllanib, ularning barchasi fonemadan katta til birligi – morfemaning tovush qobig‘i vositasida berilgan morfemalarni bir-biridan farqlamoqda. Bundan tashqari, mazkur fonemalar shu morfemalarning ma’no xususiyatlari shakllanishi uchun ham faol xizmat qilmoqda. Demak, bu o‘rinda

fonematik va morfematik sathlar birliklari o'rtasida vujudga kelayotgan pog'onali munosabat fonemalarning differensial belgilari (unli-undosh), ma'no farqlovchi tovush qobig'ini shakllantirishida ko'zga tashlanadigan funksional qiymati hamda ma'no hosil qiluvchi sintagmatik bog'lanishi orqali voqyelanmoqda. Shu narsa xarakterliki, fonematik sath birliklari morfematik sath doirasida qo'llanishi jarayonida o'zaro bog'lanishi barobarida ana shu morfematik sath birligini shakllantiradi. Boshqacha aytganda, quyi sath birliklari yuqori sath birligi vujudga kelishi uchun asosiy material bo'lib keladi¹. Ingliz tili misolida: **-s, -es, -er, -ive, -ment**, xuddi shunday sintagmatik munosabat mavjud bo'lib, sintagmatik bog'lanish voqyelanadi.

V.M.Solnsevning to'g'ri izohlashicha, fonema invariant holatdagi abs-trakt birlikni, uning konkret qo'llanishi esa allofonni taqozo etadi. Allofonlarning fonemadan farqi ularning real qo'llanishidadir. Bu esa allofonlarning konkret fonemalar ekanligini ko'rsatadi. Fonema va allofon tushunchalari ma'lum bir til birligining turlicha nomlanishi bilan bog'liqdir². Ana shu asosda ba'zi tilshunoslarning fon va fonema, morf va morfemalar alohida sathlar birliklari tarzida o'rganilmog'i lozim, degan g'oyalarining haqiqatdan yiroq ekanligini dalillash mumkin. Amerikalik tilshunos S.Lemning fikriga ko'ra, fon yoki allofonlar, morf yoki allo-morflar, fonema yoki morfemalardan farqli ravishda, alohida til stratum-larini (sathlarini) tashkil etadi³. Dj.Treyger esa til stratumlari sonini 27 ta hisoblaydi. Bu orqali, albatta, masala mohiyati soddalashtirilmaydi, balki chigallashadi⁴.

Pog'onalilik nuqtai nazaridan qaraganimizda fonema morfema ichida yashaydi. Bu jarayonda fonemalar doirasida tovush almashinuvi hodisasi ro'y berishi mumkin. Masalan, **tinchligimiz** so'zi tarkibidagi uchinchi morfemada buni kuzata olamiz. Ayni paytda -lik morfemasi sathidagi **k** fonemasi =**g** bilan almashmoqda. Bunday hodisa **q-g'** fonemalari misolida ham voqyelanadi: **o'rtoq-o'rtog'i, soliq-solig'i, qiziq-qizig'i**. Bundan tashqari, g'g'-qq (bog'ga-boqqa, yog'ga-yoqqa), gg-kk (bargga-barkka, eggan-ekkan) tovushlari o'rtasida ham shu xildagi almashinuv ro'y beradi⁵. Ingliz tilida, **wife-wives, knife-knives, cherry-cherries** tarzida kechadi.

A.Nurmonovning ta'kidlashicha, bunday holatda morfemaning ma'lum vaziyatga xoslangan turli variantlari (morflari) shakllanadi. Bu o'rinda tovush almashinuvi hеч qanday fonologik vazifa bajarmaydi⁶ va shu bois, mazkur hodisani fonologiyada o'rganish uchun ilmiy

¹Қаранг: Демьянков В.З. Теория языка и динамика американской лингвистики на страницах журнала «Language» (К 65-летию основания журнала) // Вопросы языкознания, 1989, №4. -С.143.

²Қаранг: Солнцев В.М. О понятии уровня языковой системы // Вопросы языкознания, 1972, №3.-С.15.

³Қаранг: Lamb S.M. Outline of the stratificational grammar. -Washington, 1966. -P.20.

⁴Қаранг: Trager G.L. Lingvistics is linguistics.-Buffalo - New.York, 1963.-P.24.

⁵ Қаранг: Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. -Тошкент, 1990, 21-бет.

⁶ Қаранг: Ўша асар, ўша бет.

asos yo‘q, zotan, bunda tilning fonologik birliklarini morfologik nuqtai nazardan o‘rganish talab qilinadi. Ana shu sabablarga ko‘ra, tilshunoslik faniga **morfonologiya** tushunchasi iste‘molga kiritildi. Uning asoschilaridan biri N.S.Trubeskoy bo‘lib, u morfonologiyani (yoki morfofonologiyani) fonologik vositalarning morfologik maqsadda qo‘llanilishi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni o‘rganuvchi grammatikaning ma‘lum bir sohasi sifatida izohlaydi¹.

Amerikalik tilshunos M.Xalle esa morfonologiya tushunchasiga me‘yoridan ortiq darajada ta‘rif beradi. Uning nazarida fonologik tushunchalar lingvistik tadqiqotlarda ortiqchadir. Shu bois transformasion grammatika taksonomik fonologiyani (tasnifiy) chetlab o‘tib, faqat morfonologik hamda fonetik sathlar yordamida ish ko‘rmog‘i lozim. Nazarimizda, M.Xalle morfonema bilan arxifonema tushunchalarini qorishtirib yubormoqda². Vaholanki, morfonema va arxifonema tushunchalari tubdan farqlanadi. N.S.Trubeskoy arxifonema deganda, ikki fonema uchun xos bo‘lgan sifatlardan tuzilgan birlikni nazarda tutgan. Shu bois G.S.Nebiyeridze M.Xalle nazariyasini va mazkur nazariyaning tarafdorlari bo‘lgan N.Xomskiy, P.Postal kabi tilshunoslar tomonidan aytilgan taksonomik fonologiyani inkor etuvchi mulohazalar asossiz ekanligini alohida ta‘kidlaydi³.

Y.Kurilovich morfonologiya tushunchasini mutlaqo rad etadi⁴. T.Y.Yelizarenkova esa morfonologiya tushunchasidan foydalanish bir tomon-dan, qandaydir qulayliklarga ega ekanligini, ikkinchi tomondan esa, nazariy jihatdan ancha izohtalabligini va shu bois ba‘zi tilshunoslar uni mutlaqo inkor etayotganini aytadi. Uning fikriga ko‘ra, morfonologiya tushunchasi haqida A.A.Reformatskiyning tasavvuri ilmiy asoslidir⁵.

A.A.Reformatskiy morfonologiya haqida mulohaza yuritganida uni tilshunoslikning alohida bir sohasi sifatidagi maqomga ega bo‘la olishini tan oladi. Bunda morfonologiyaning fonologiya bilan morfologiyani tutashtiruvchi xizmati mavjudligi eslatiladi. Biroq shunday bo‘lsa ham, A.Reformatskiy morfonologiya til sathi sifatida alohida maqomga ega bo‘lolmasligini, buning asosiy sababi uning o‘z birligi yo‘qligida ekanligini ta‘kidlaydi⁶.

Darhaqiqat, “morfonema” termini morfonologiyaning birligi bo‘lishi qiyin. Chunki fonema fonologik birlik hisoblansa, morfema morfologik birlikdir. Ularni chatishtirib sun‘iy ravishda gibrit til birligini ixtiro qilib bo‘lmaydi. Fikrimiz dalilini A.Abduazizovning quyidagi

¹ Қаранг: Трубецкой Н.С. Некоторые соображения относительно морфологии// Пражский лингвистический кружок. –М., 1967. –С.115-118.

² Қаранг: Халле М. Фонологическая система русского языка. Лингвистико-акустическое исследование// Новое в лингвистике, вып.2. –М., 1962.–С.310-314.

³ Небиеридзе Г.С. Трансформационная генеративная фонология и её отношение к классическим фонологическим теориям// Вопросы языкознания, 1978, №2, -С.69-75.

⁴ Kurylowicz J. Phonologie und Morphologie // Phonologie oder Gegenwart, Wien, 1967. -S.169.

⁵ Қаранг: Елизаренкова Т.Я. О морфологии хинди (К постановке проблемы)// Вопросы языкознания, 1988, № 1.

⁶ Реформатский А.А. Фонологические этюды. –М., 1975.–С.99.

soʻzlarida ham koʻrishimiz mumkin: "...morfonologiya grammatikaga ham, fonologiyaga ham kirmaydi, lekin ularning birligi boʻlgan fonema va morfemadan foydalanadi, ...Morfonologiyaning oʻz birligi yoʻq boʻlganligi uchun morfe-malardagi fonetik holat bilan bogʻliq boʻlmagan fonologik oʻzgarishlarni oʻrganadi"¹. Ingliz tilida **organisation-to organize, die- death- dead, introduction-introduce**, misollarida fonologik **s-z, ie-ea**, oʻzgarishlarni kuzatishimiz mumkin. A.Abduazizov bunga quyidagi misollarni keltiradi: bu kun–bugun, past–pasaymoq, ong–angla, tara–taroq, oʻqi–oʻquv; qorin–qorni, ogʻiz–ogʻzi va h.k.²

Mazkur ishimizda biz **morfonema** tushunchasini prof. A.Abduazizov-ning bu haqda aytilgan quyidagi mulohazalari asosida oʻrgandik: "Oʻzak va affiksial morfemalarning birikuv natijasida hosil boʻluvchi morfologik maʼnoni ifodalovchi morfonologik alternasiyalarda qatnashuvchi alternant fonemalar guruhi **morfonema** deb ataladi. Morfonema morfologik funktsiya bajaruvchi bir necha fonemalarning yigʻindisi hisoblanadi. Oʻzbek tilida oʻzak morfemaning oʻzida hosil boʻluvchi morfonologik alternasiyalar juda kam hisoblanadi. Masalan: ang-la – ong, tara – taroq, sez – ses/kanmoq, son – san/a, toʻs – toʻgʻon, qara- qaro-v – qarovul... va h.k"³.

V.A.Migachev tilshunoslikda morfonologiya tushunchasi bilan bogʻlab oʻrganilib kelinayotgan morfema sathida roʻy beruvchi fonologik oʻzgarishlarni **fonomorfoligiya** muammosi deb qarash lozimligini, morfonologiya tushunchasi esa morfema doirasida morfologik vazifa bajaruvchi fonologik oʻzgarishlar bilangina bogʻliq boʻlishi lozimligini taʼkidlaydi⁴.

Bizningcha, morfonologiya oʻrganishi lozim boʻlgan fonologik oʻzgarishlar morfemaning struktur salmogʻiga taʼsir etadi, ammo bu bilan fonematik hamda morfematik sathlar oʻrtasida pogʻonali munosabat shakllanishiga taʼsir koʻrsata olmaydi. Boshqacha aytganda, morfema doirasidagi fonemalarning sintagmatik munosabatida oʻzgarish roʻy berishi yoki muayyan bir fonemaning oʻrniga nutqda muqobil allofonning qoʻllanilishi fonematik sath birliklari bilan morfematik sath birliklarining pogʻonali munosabatiga daxlsizdir. Masalan: **oʻtgan–oʻtkan, tara–taroq, burun–burnim**. Ingliz tilida bunda cat-cats[s], pet-pets[s], pens[z], beds[z]

Shunday qilib, fonematik sath birliklarining sintagmatik munosabati ularning morfematik sath tarkibiga kirishini va bir paytning oʻzida quyi hamda yuqori sathlar unsurlari oʻrtasida pogʻonali munosabat shakllanishini koʻramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

¹ Абдуазизов А. Морфонология// Баскаков Н.А., Содиқов А.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 1979, 70-бет.

² Қаранг: Ўша асар, ўша бет.

³ Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Тошкент, 1992, 92-93-бетлар.

⁴ Қаранг: Мигачев В.А. О реконструкции морфологических процессов // Вопросы языкознания, 1991, №5. -С.60-61.

1. Абдуазизов А.А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992, 135 б.
2. Герд А.С. Морфемика в её отношении к лексикологии // Вопросы языкознания, 1990, №5. с. 5-11.
3. Климов Г.А. Фонема и морфема. –М.: Наука, 1967, 127 с.
4. Левковская К.А. Теория слова, принципы её построения и аспекты изучения лексического материала. –М.: Высшая школа, 1962, 294 с.
5. Мухин А.М. Части речи и морфемы (в связи с проблемой уровни языка)//Уровни языка и их взаимодействие. –М.:Изд. МГПИИЯ, 1967, (108-112), 182 с.
6. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1990, 46 б.
7. Соссюр Ф.де. Избранные труды по языкознанию. –М.:Прогресс,1977,695 с.
8. Турниёзов Н. Тил ва нутқ бирликлари ҳақида баъзи мулоҳазалар// Хогііу филология, 2006, №1, 28-30 б.
9. Turniyozov N., Turniyozova K., Xayrullayev X. Struktur sintaksis asoslari //Samarqand: SamDCHTI. – 2009.Хайруллаев Х. З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати //Номзод. дис автореферати. Тошкент. – 2001.
10. Хайруллаев Х. О лингвистической природе уровней языка и речи //Вопросы филологических наук. – 2009. – №. 2. – С. 78-79.
11. Хайруллаев Х. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. – 2002.
12. Khayrullaev K. Z. The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness //Abstract of candidate dissertation.–Tashkent. – 2001.
13. Хайруллаев Х.З. Нутқ бирликларининг поғонали муносабати. –Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2008, 80 б.
14. Халле М. Фонологическая система русского языка. Лингвистико-акустическое исследование //Новое в лингвистике, вып.2.–М.:Изд иностр.лит., 1962, (299-339), 685 с.

Бушуй Татьяна Анатольевна
д.ф.н., профессор СамГИИЯ

ДЕРИВАЦИЯ В РУССКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ процессов деривации в русском и английском языках с точки зрения различных теоретических подходов. Рассматриваются основные модели словообразования, такие как морфологическая, семантическая и функциональная деривация, и их реализация в анализируемых языках.

Ключевые слова: деривация, морфология, семантика, русский язык, английский язык, морфема, словообразовательная модель, продуктивность.

Деривация, или словообразование, является фундаментальным процессом, посредством которого язык расширяет свой лексический запас, создавая новые слова на основе существующих. Изучение деривации предоставляет ценную информацию о грамматической структуре языка, его семантических ресурсах и когнитивных процессах, лежащих в основе формирования новых концептов [1, 23; 2, 4]. Данная статья посвящена сравнительному анализу деривационных процессов в русском и английском языках, с акцентом на теоретические подходы, определяющие понимание механизмов словообразования и их реализации в конкретных языковых системах.

В лингвистике существует несколько основных теоретических подходов к изучению деривации, каждый из которых акцентирует внимание на определенных аспектах этого процесса. Так, морфологическая деривация фокусируется на морфологической структуре производных слов, рассматривая их как результат комбинации морфем. При этом предполагается, что производные слова образуются путем присоединения аффиксов (префиксов, суффиксов, инфиксов) к основе, изменяя ее значение и/или категориальную принадлежность [17, 6].

Семантическая деривация рассматривает деривацию как процесс семантического расширения, когда значение производного слова выводится из значения производящей основы и значения аффикса. В этом случае подчеркивается роль семантических отношений между производящим и производным словами, таких как гипонимия, метонимия и метафора [4, 10].

Функциональная деривация акцентирует внимание на функции производных слов в тексте и дискурсе. Такой подход рассматривает деривацию как способ приспособления лексического запаса к конкретным коммуникативным потребностям, таким как выражение эмоций, оценка и категоризация [18, 24; 19, 355].

Каждый из этих подходов предоставляет ценную перспективу на процесс деривации, и их комбинация позволяет получить более полное и глубокое понимание механизмов словообразования [15, 28].

Проведем сравнительный анализ деривации в русском и английском языках.

Одним из ключевых различий между русским и английским языками является их морфологическая структура [5, 21]. Русский язык является флективным языком с богатой системой падежных окончаний, глагольных спряжений и видов. Английский язык, напротив, относится к аналитическим языкам, где грамматические отношения выражаются в основном порядком слов и использованием вспомогательных слов [8, 128].

Это различие оказывает существенное влияние на процессы деривации. В русском языке морфологическая деривация осуществляется главным образом путем добавления аффиксов к основе. Богатая система аффиксов позволяет образовывать широкий спектр производных слов, выражающих различные семантические оттенки [3, 7]. Например, от глагола *читать* можно образовать такие существительные, как *читатель*, *чтение*, *читчик*, *зачитывание* и т.д., каждое из которых имеет свое собственное значение и употребление.

В английском языке морфологическая деривация также играет важную роль, но система аффиксов значительно беднее, чем в русском. Многие английские аффиксы имеют латинское или греческое происхождение, что делает их менее продуктивными в

образовании новых слов от исконно английских основ. Например, от глагола *read* можно образовать такие существительные, как *reader* и *reading*.

Продуктивность словообразовательной модели определяется ее способностью образовывать новые слова в языке. В русском языке многие словообразовательные модели отличаются высокой продуктивностью, что позволяет легко создавать новые слова для обозначения новых понятий и явлений [13, 22]. Например, модель образования существительных с суффиксом *-ист*, *-щик* (таксист, программист, сварщик) является очень продуктивной и используется для обозначения лиц, занимающихся определенной деятельностью [12, 23].

В английском языке продуктивность словообразовательных моделей может варьироваться в зависимости от происхождения аффиксов и типа основы. Некоторые модели, такие как образование существительных с суффиксом *-er* (*writer, teacher, worker*), являются достаточно продуктивными, в то время как другие, например, модели с латинскими префиксами (*pre-, re-, in-*), могут быть менее продуктивными в образовании новых слов от исконно английских основ [14, 202].

Семантическая прозрачность производного слова определяется степенью ясности связи между его значением и значением производящей основы. В русском языке многие производные слова обладают высокой семантической прозрачностью, что облегчает их понимание и запоминание. Например, значение слова *подводный* легко выводится из значений слов *под* и *вода*.

В английском языке семантическая прозрачность производных слов может быть менее очевидной, особенно в случае слов с латинскими или греческими корнями [11, 59]. Например, значение слова *subterranean* может быть не сразу понятно для носителя языка, не знакомого с латинским корнем *terra* (земля).

В отличие от русского языка, в английском языке широко распространена конверсия, или безаффиксное словообразование, когда слово меняет свою категориальную принадлежность без добавления аффиксов. Например, глагол *to email* образован от существительного *email*. В русском языке конверсия встречается значительно реже [7, 192].

Оба языка используют сложные слова для обозначения новых понятий. В русском языке сложные слова обычно образуются путем соединения двух или более основ (*водопровод, самолет*). В английском языке сложные слова могут быть образованы путем соединения основ (*sunflower, bedroom*), а также путем соединения слов разных категорий (*blacklist, software*) [9, 540].

Деривация является важным механизмом расширения лексического запаса как русского, так и английского языков [6, 99]. Несмотря на общие принципы словообразования, в этих языках наблюдаются значительные различия, обусловленные их морфологической структурой, продуктивностью словообразовательных моделей и семантической прозрачностью производных слов [16, 337]. Русский язык с его богатой системой аффиксов и высокой продуктивностью словообразовательных моделей позволяет создавать широкий спектр производных слов, выражающих различные семантические оттенки. Английский язык, напротив, характеризуется более ограниченным набором аффиксов и широким распространением конверсии [10, 99].

Дальнейшие исследования деривации в русском и английском языках могут быть направлены на изучение когнитивных процессов, лежащих в основе словообразования, анализ изменений в словообразовательной системе языка под влиянием внешних

факторов и разработку эффективных методов обучения деривации для изучающих эти языки.

Литература:

1. Бушуй Т.А. Язык в системной структуризации. – Издательство "Fan", 2014. – 232 с.
2. Бушуй Т. Языкознание: прошлое, настоящее и будущее // Т.: Янги аср авлоди. – 2020. – 184 с.
3. Бушуй Т.А. Neolexicography: Problems and Prospectives // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 7-15.
4. Бушуй Т.А. Современный словарь как продукт определенной научной концепции // IQRO. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 10.
5. Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование. – М.: Флинта: Наука, 2006. – 328 с.
6. Фалеева А.В. Трансформационные возможности коллоквиального предложения в английском языке // Иностранная филология: язык, литература, образование. – № (62), 2017. – С. 99-105.
7. Фалеева А.В. Отражение лексико-семантических особенностей скрытого смысла коллоквиализмов-зоонимов в лексикографических источниках // Вестник Челябинского государственного университета. – 2021. – №. 9 (455). – С. 192-199.
8. Фалеева А.В. Тематическая дифференциация коллоквиализмов с имплицитным значением в лексикографических источниках // Вестник Челябинского государственного университета. – 2022. – №. 7 (465). – С. 128-136.
9. Фалеева А.В. Лексико-семантические и деривационные особенности коллоквиальных акронимов и бэкронимов в современных печатных и электронных лексикографических источниках // Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 35. – С. 540-543.
10. Faleyeva A.V. Derivational peculiarities of colloquial words in modern English dictionaries // Язык и культура. – 2021. – С. 99-104.
11. Faleyeva A.V. Investigation of the Colloquial Formation of Modern English Language // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 59-67.
12. Bushuy T.A. (2023). Language in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 39, P. 23–26. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1678>
13. Bushuy T. Features of Representation of Some Word Forms and Meanings of Phraseological Units in Contrastive Lexicographical Sources // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – 22 с.
14. Faleyeva A.V. Grammatical, Semantic and Structural Features of English Colloquial Words and Expressions // International Journal of Language Learning and Applied Linguistics. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 202-206.
15. Faleyeva A. Theoretical and Practical Research of the Formation of Colloquialisms of the English Language in Level Interpretation // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 28-36.
16. Faleyeva A.V. Traditions and Innovations in the Study of English Colloquialisms in the Perspective of Modern Printed and Electronic Lexicographical Sources // Academic research in educational sciences. – 2024. – Т. 5. – №. CSPU Conference 1. – С. 337-341.
17. Plag I. Word-Formation in English. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 317 p.
18. Spencer A. Morphological Theory. – Oxford: Blackwell, 1991. – 448 p.

19. Vadimovna, Faleeva Anastasiya. "Theoretical Experience and Representation of English Colloquial Lexis in Dictionary Interpretation (Based on the Concise New Partridge Dictionary of Slang and Unconventional English)." *Miasto Przyszłości* 56 (2025): 355-359.

Turniyazov Behzod Ne'matovich
f.f.d., dots. SamDCHTI

KAUZATOLOGIYANING TARIXIY ILDIZLARI

Annotatsiya. *Kauzativlik falsafiy, mantiqiy va psixologik jihatdan keng ko'lamda tadqiq etilgan bo'lib, bugungi kunda ham jamiyatshunoslik va insonshunoslikda (falsafa, mantiq, psixologiya, adabiyot, tilshunoslik, san'at va h.k.) o'z aktualligini yo'qotgan emas. Zero, bizni qurshab turgan olamda sodir bo'layotgan turli voqealar, tabiiy hodisalar, jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlari boshqa jarayon va hodisalarga bog'liq ravishga sodir bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, ozmi-ko'pmi ma'lum bir sabablarga ko'ra amalga oshadi. Shunday ekan, kauzativlik, qaysi davr bo'lishidan qat'i nazar, kun tartibida o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Maqolada ana shu masalalar xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *kauzatsiya, pratitya-samutpada, ashariylik, implikatsiya.*

Kauzatologiya sohasi tarixiy jihatdan shakllanib, tilshunoslik fanida o'rganilguniga qadar ham ancha yo'lni bosib o'tdi. Buddashunos olim V.G.Lisenkoning ta'kidlashicha, buddaviylik ta'limoti zamirida (miloddan avvalgi 1-ming yillik o'rtalari) qadimgi Hindistonda *pratitya-samutpada* (o'zaro bog'liqlik asosida shakllanish) nazariyasiga asos solindi. Mazkur nazariya sabab va oqibat munosabatlarini falsafiy jihatdan talqin etib, undan saboq beruvchi dunyodagi eng birinchi *sutra* (yo'l, ta'limot) edi.

Pratitya-samutpada falsafasida «Agar biror narsa bo'lsa, unda bu ham bor»; «Agar bu bo'lmasa, unda bunday narsa ham yo'q»; «Bu bor bo'lganda, u ham paydo bo'ladi»; «Bu yo'qolsa, u ham yo'qoladi» tamoyiliga asoslanuvchi konsepsiya ustuvorlik qiladi. Bunda o'zaro bog'liqlik ta'sirini tasvirlashning klassik namunasi urug' misolida bayon etiladi: «Bir urug' yerga ekilgach, u o'simlikka aylanishi va meva berishi mumkin, biroq buning bir qancha shartlari mavjud: urug' sog'lom, zararlanmagan, chirimagan bo'lishi va uni ekish jarayoni to'g'ri amalga oshirilishi kerak.

Undan so'ng urug'ni muntazam parvarish qilish zarur. Masalan, vaqtida sug'orish, og'ir ob-havo sharoitidan himoya qilish darkor. Yer ham munosib, to'yimli bo'lishi kerak. Agar ushbu shartlardan birortasi bajarilmasa, o'simlik zaif bo'ladi yoki umuman o'smaydi. Bundan tashqari, urug'ning mavjudligi bilan bir qatorda, o'simlikning paydo bo'lishi ham o'ziga xos shaklda bir-biriga bog'liq bo'lgan turli xil shartlarni o'z ichiga oladi. Bu sabablarning barchasi ikki toifaga bo'linadi: to'g'ridan to'g'ri (*xetu*) va yordamchi (*pratyaya*). Urug'ning ekilishi to'g'ridan to'g'ri sabab, yer, quyosh va boshqalar esa yordamchi sabablar hisoblanadi»[1.327-328].

Davrlar o'tishi bilan sabab va oqibat munosabatlari nazariyasi falsafa hamda mantiqshunoslikda keng o'rganila boshlandi va mazkur fanlarda asosiy kategoriya sifatida o'rin oldi. Falsafada sababiyat mohiyatini izohlash xususidagi dastlabki qarashlar Platonning mazkur hodisa haqidagi g'oyalarni rivojlantirgan Arastu tadqiqotlarida o'z ifodasini topadi. U materiyaning mohiyati uning o'zida deyish bilan birga, shu mohiyatni bilish uchun sababiyat qonuniyatini yaratadi va sababiyatning to'rt xil ko'rinishi mavjudligi haqida mulohaza yuritadi: 1) harakatdagi yaratuvchan sababiyat (farzand ota-onadan ilgari dunyoga kelishi mumkin emas,

ya'ni ota-ona shu farzandning vujudga kelishidagi zaruriy shart hisoblanadi); 2) moddiy sababiyat, ya'ni materiya sababiyati (haykal yasalishi uchun marmar yoki mis kabi moddiy jismlar zarur bo'ladi); 3) maqsadli sababiyat (sog'lom bo'lish uchun jismoniy harakat qilish lozim); 4) formal yoki shakily sababiyat (namuna hamda shakl mutanosibli)[2.37-39].

Sabab va oqibat munosabatlarining izohlanishi o'rta asrlarda arab falsafasida ham o'z ifodasini topadi. Jumladan, *ashariylik* ta'limotining asoschisi basralik Abul Hasan al-Ashariy diniy tamoyillarga tayanuvchi sababiyat nazariyasini yaratadi. Ashariyning fikricha, barcha narsa, voqea va hodisalarning yagona sababchisi Allohdir. Boshqa hech qanday narsa, voqea va hodisa biror narsa, voqea va hodisaning sababi bo'la olmaydi. Zero, tabiatdagi narsalar biror oqibatni keltirib chiqaruvchi kuchga ega emasdir. Garchi bu holat insonlarga shunday bo'lib ko'rinsa-da, aslida, u soxta tasavvurdir, xolos. Alloh ozoddir. U insonlardek biror maqsadni ko'zlab harakat qilmaydi[3.70-72].

Sabab va oqibat haqidagi mukammal mulohazalar talqini sharq mutafakkirlari tomonidan ham ilgari surilgan bo'lib, biz uning izohini buyuk allomalarimiz asarlaridan topamiz. Jumladan, Abu Ali ibn Sino «Tib qonunlari» da shunday deydi: «Sabablar, keltirib chiqaradigan narsalariga nisbatan, turli holatlarda bo'ladilar. Ko'pincha, sabab bitta bo'lsa ham, turli vaqtlarda turli kasalliklarni (oqibatlarni) keltirib chiqaradi»[4.32].

Olimning eng so'nggi yirik falsafiy asari «Al-ishorot va-t-tanbihot» («Ishoralar va tanbihlar») bo'lib, unda ustoz falsafaning asosiy masalalariga to'xtalib, sababiyat talqiniga bag'ishlangan fikrlarini bayon etgan: «Har qanday umumiylikning sababi, avvalo, uning tarkibiy qismlarining sababi bo'ladi. Faqat keyingina umumiylikka sabab bo'lishi mumkin. Har qanday umumiylik, o'z navbatida, sabab va oqibat qurshovida bo'ladi»[5.327-328].

Jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ham sabab va oqibat haqida mulohaza yuritib, unga: «Shartli hukmning birinchi qismi asos (sabab) bo'lib, ikkinchisi - bu oqibat», - deb baho bergan edi[6.289].

Keyinchalik, mazkur kategoriya haqida yevropalik mumtoz faylasuflardan F.Bekon, D.Yum ham o'z mushohadalarini asarlarida batafsil bayon etib o'tdilar. Jumladan, ingliz faylasufi Frensis Bekon Arastuning sababiyat haqidagi to'rtta ta'limotini tahlil qilib, o'z ilmiy g'oyalari nazarini material sabablarni aniqlashga qaratdi, zero, ular tabiatni eksperimental tadqiq qilinishida aniq belgilangan natija berishi mumkin deb hisobladi[7.192].

Sababiyat haqidagi ta'limotni o'rganishda yana bir mashhur ingliz faylasufi David Yumning falsafiy qarashlari ham diqqatga sazovordir. Olim sabab va oqibat haqidagi ilmiy mulohazalarini «Inson tabiatiga oid risola» asarida bayon etadi. D.Yum mazkur asarida sababiyatni e'tirof etishning umumiy qoidalarini belgilab beradi. Jumladan, sababiyat to'g'risidagi yettinchi qoidada olov va suv, issiqlik va sovuqlik kabi tushunchalarning bir-biriga nisbatan zidlanishi ma'lum sabablar va tajribalar asosida aniqlanishini e'tirof etadi[8.42].

Kauzal munosabatlar tahlili formal mantiq qonuniyatida ham izolangan bo'lib, bu haqda ilk bor nemis olimi Gotlob Frege ilmiy qarashlarini fanga ma'lum qiladi. U kauzal munosabatlar moddiy implikativlik asosida shakllanadi, degan xulosaga keladi[9.]. *Implikatsiya* lotincha so'z bo'lib, falsafada «chambarchas bog'langan», degan ma'noni anglatadi[10.205]. Implikatsiya belgisi o'zbek tilidagi «*agar ... bo'lsa, ... bo'ladi*», degan ifodaga to'g'ri keladi. Masalan, «*Agar akang kelsa, issiq xonani ishga solamiz*» kabi. Agar A mulohazaning chinligidan V mulohazaning chinligi kelib chiqsa, A mulohaza V mulohaza uchun asos bo'ladi. Oqibatning asosga bog'liqligi obyektiv borliqning tafakkurda in'ikosi hisoblanadi, jumladan, hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqadorligi ham shunga taalluqlidir. G.Frege mantiqiy semantikaning asoschisi hisoblanadi. Uning «Ma'no va denotat» nomli maqolasida nomlar nazariyasi

izohlanadi. Aynan ana shu nazariya «*semantik uchburchak*» yoki «*Frege uchburchagi*» ning asoslanishiga sabab bo'ldi[11.181-210].

Xullas, sabab va oqibat munosabatlari falsafiy, mantiqiy va psixologik jihatdan keng ko'lamda tadqiq qilinganligining guvohi bo'lamiz[12.13-14;70-150;30-51]. Bugungi kunda ham sabab va oqibat munosabatlari mohiyatini o'rganish jamiyatshunoslik va insonshunoslikda (falsafa, mantiq, psixologiya, adabiyot, tilshunoslik, san'at va h.k.) o'z aktualligini yo'qotgan emas. Zero, bizni qurshab turgan olamda sodir bo'layotgan turli voqealar, tabiiy hodisalar, jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlari boshqa jarayon va hodisalarga bog'liq ravishga sodir bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, ozmi-ko'pmi ma'lum bir sabablarga ko'ra amalga oshadi. Shunday ekan, sabab va oqibat qonuniyati, qaysi davr bo'lishidan qat'i nazar, kun tartibida o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. A.A.Potebnya ta'kidlaganidek, harakat tushunchasi subyekt va obyekt munosabatlari ifodasida sabab tushunchasidan xoli emas. Boshqacha aytganda, sababiyat subyekt harakati va obyekt holatidan tarkib topadi[13.7]. Darhaqiqat, til sistemasi belgilarining asosiy sifatlaridan biri ifodalanuvchi tomonidan yanada yuqoriga qarab borar ekanmiz, cheksiz ravishda shakllanishi mumkin bo'lgan xabar paradigmalarga ega bo'lamiz. Bu esa til hodisalariga subyektiv omilning ta'siri kuchining oshib borayotganligini ko'rsatadi[14.43]. Mazkur ta'sir esa, o'z navbatida, qandaydir voqea-hodisa, harakat va jarayonlarning voqelanishiga sabab bo'ladi.

Bu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, fanimizning zamonaviy yo'nalishlarida sabab va oqibat munosabatlari turli belgilariga ko'ra tasnif qilinmoqda. Masalan, o'zaro munosabatlar tabiatiga ko'ra *moddiy, ideal, kimyoviy, biologik, ijtimoiy*; aloqadorlik xarakteriga ko'ra *dinamik va statik*; turli ta'sirlarning bog'liqligiga ko'ra *oddiy, tarkibli, yagona yoki ko'p faktorli, tizimli yoki tizimdan tashqari* kabi. Shuningdek, *tashqi va ichki, asosiy va asosiy bo'lmagan, obyektiv va subyektiv, umumiy va xususiy* sabablarga bo'linadi.

Shunday qilib, sabab va oqibat munosabatlarini ifodalovchi kauzal ma'no materiya harakatining barcha formalarida o'z aksini topadi, shu jumladan, tilshunoslik sohasida ham u muhim omillardan biri bo'lib gavdalanadi. Ana shu tarzda sababiyat tushunchasi falsafa va mantiqdan andaza olgan holda lingvistika sohasiga ham qadam qo'ydi.

Ushbu tushuncha bugungi kunda lingvistika sohasida ham keng ko'lamda o'rganilmoqda. Sabab va oqibat munosabatlari talqini tilshunoslarda til falsafasiga asos solgan atoqli nemis mutafakkiri V.fon Humboldt ta'limoti orqali qiziqish uyg'ota boshladi. «Siyosat, san'at va ilm-fanning hozirgi holatiga nazar tashlasak, ularning asrlar davomida sayqal topishi asosida sabab va oqibat munosabatlarining uzun zanjiri yotganini ko'ramiz», – degan edi Vilgelm Humboldt «Uber die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues und ihren Einfluss auf die geistige Entwicklung des Menschengeschlechts» («Tillar tuzilishining farqi va uning insoniyatning ma'naviy rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri») nomli asarida[15.47].

Grammatikada sababiyat haqidagi dastlabki mulohazalar rus tilshunoslari N.I.Grech, A.X.Vostokov, I.I.Davidov, F.I.Buslayevlarning tadqiqotlarida ifodalandi. Bu xususda N.I.Grech fikr yuritir ekan, «Практическая русская грамматика» («Amaliy rus grammatikasi») asarining ikkinchi qismida gapning mantiqiy maqomini izohlab, quyidagilarga to'xtaladi: «...Зависимыя предложія: выражающія *дѣйствительную* причину; на примѣръ: *рѣка стала отъ того, что на дворѣ холодно*; въ превратномъ порядкѣ: *на дворѣ такъ холодно, что рѣка стала; на дворѣ слишкомъ тепло, чтобъ рѣка стала. Заключение*; на примѣръ: *рѣка стала, слѣдственно на дворѣ холодно. Цѣль, намѣреніе* (конечную причину); на примѣръ: *онъ топить печь для того, чтобъ въ комнатѣ было тепло*»[16.384-385]. — («...Tobe gap: *tom* ta'nodagi sababni ifoda etuvchi; masalan: *daryo tashqari sovuq bo'lganligi uchun...*; teskari

tartibda: *tashqari shunday sovuqki, shuning uchun daryo...; tashqari juda issiq, daryo... (bo'lishi) uchun*. Xulosa; masalan: *daryo...aylandi, binobarin tashqari sovuq*. Maqsad, niyat (yakuniy sabab); masalan: *xona issiq bo'lsin deb, u pechkani yoqmoqda*»).

A.X.Vostokov esa «Русская грамматика» («Rus grammatikasi») asarining birinchi qismining yettinchi bobida bog'lovchilar haqida fikr yuritib, ularni o'n bir turga bo'lib o'rganadi. Olim shulardan o'ninchisini «Винословные или причину показывающие» («Sabab so'zlar yoki sabab (ko'rsatuvchilar) ifodalovchilar») deb atab, ularga *ибо, поелику, понеже, а какъ, такъ какъ, потому что, для того что, за тѣмъ что, за то что* (chunki, modomiki, negaki, uchun, zero, shuning uchun) kabilarni kiritadi [17.216-219].

Keyinchalik, 1853-yilda, I.I.Davidov «Опытъ общесравнительной грамматики русскаго языка» («Rus tilining umumqiyosiy grammatikasidan tajriba») nomli asarini yozadi [18]. Mazkur asarda u ham sabab ma'nosini izohlashda «винословные» [19.61] («sabab so'zlar») terminini qo'llaydi hamda sabab va oqibat munosabatlarining sintaktik rejada ifodalanishini ta'kidlaydi. Bu o'rinda olimning fikrini aynan keltirmoqchimiz: «Въ совмѣстномъ соединеніи могутъ находиться и такія предложенія, изъ которыхъ послѣдующее показываетъ причину и основаніе или слѣдствіе предъидущаго. Союзы, служащіе соединеніемъ, поэтому называются *винословными*: *ибо, поелику* (hozirgi kunda *поскольку*), *для того что, и заключительными*: *слѣдовательно, стало быть, посему, и такъ*. «Ртуть въ термометрѣ повысилась, *потому что* въ комнатѣ стало теплѣе». «Въ барометрѣ ртуть упала: *слѣдовательно* надобно ожидать дождя». – («O'zaro bog'lanishda shunday gaplar ham hosil bo'lishi mumkinki, bog'langan gaplarning keyingisi o'zidan avvalgi gapning sababini va vajini yoki oqibatini ifodalashi mumkin. Shuning uchun ham bunday gaplarni bog'laydigan bog'lovchilar *sabab so'zlar* deyiladi: *chunki, modomiki, uchun* va xulosalovchi: *binobarin (shunday qilib), demak, xullas (shunday ekan)*. «Termometrda simob ko'tarildi, *chunki* xona isiy boshladi». «Barometrda simob tushib ketdi: *binobarin* yomg'irni kutish kerak»).

Aytish kerakki, bu borada rus tilshunosi akademik F.I.Buslayevning asarlarida kengroq ma'lumotlar borligini kuzatamiz. Olim «Опытъ исторической грамматики русскаго языка. Этимология» («Rus tilining tarixiy grammatikasidan tajriba. Etimologiya») nomli asarida bog'lovchilar haqida to'xtalib, ularning yasama yoki murakkab bo'lishi haqida fikr bildiradi. Masalan, sabab ifodalovchi *понеже, поелику* (negaki, modomiki) kabilar murakkab bog'lovchilar sanalib, ularning olmosh hamda predlogdan tarkib topganini va shu davrgacha adliyaviy hujjatlarni rasmiylashtirish uslubida qo'llanganligini aytadi. Ammo V.A.Jukovskiy Gomerning «Odisseya» eposini tarjima qilganida mazkur bog'lovchilarni qo'llaganini va shundan e'tiboran bu bog'lovchilar barcha uslublarda ishlatilayotganligini ta'kidlaydi.

F.I.Buslayev «Учебникъ русской грамматики» («Rus tili grammatikasi darsligi») nomli asarida sabab ifodalovchi gaplar haqida ham ma'lumot keltirib, quyidagi mulohazalarni bildiradi: «Fikrlarning sababiyat ma'nosi orqali birikuvida sabab va oqibat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mavjudligi aniqlanadi. Bu munosabatlar ikki shaklda namoyon bo'ladi:

1) agar oqibat havola etilib, undan sabab yuzaga chiqsa, sabab shakli hisoblanadi. Masalan, quyidagi gapga e'tibor qarataylik: *Ilmlar foydalidir, zero ular aqlni yoritadi (Науку полезны, потому что онѣ просвѣщаютъ разумъ*. — Польза наукъ есть слѣдствіе того, что онѣ просвѣщаютъ). Bunda ilmlarning foydaliligi aqlning charxlanishi sababidan yuzaga chiqqan oqibatdir. Tobe gapning hokim gapga *chunki, negaki* kabi bog'lovchilar orqali birikuvidan sabab munosabati ifodalanadi.

2) agar sabab havola etilib, undan oqibat yuzaga chiqsa, xulosalangan shakl hisoblanadi: *Ilmlar aqlni yoritadi: shuning uchun ular foydalidir (Науку просвѣщаютъ разумъ: потому*

онб полезны). Bunday gaplar *shuning uchun, shunday qilib, demak* kabi xulosalovchi bog'lovchilar yordamida birikadi».

Kauzativlikning fe'l orqali ifodalanishi haqida rus tilshunosi, prof. N.P.Nekrasov o'zining «О значении формь русского глагола» («Ruscha fe'l shaklining ma'nosi to'g'risida») nomli asarida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: «Grammatikada sabab ma'nosi bilan aloqador fe'llar ham mavjud bo'lib ular «*sabab so'zlar*» («*винословное*») deb ataladi. Bu orqali biror harakatni bajarishga majburlash yoki undash ma'nosi anglashiladi. Masalan, «*qurish*» («*строить*») fe'lini olaylik. Darhaqiqat, uyni kishining o'zi qurmaydi, balki uni duradgorlar, tosh yo'nuvchi ustalar va hokazolar qurishadi. Boshqacha aytganda, uy egasi quruvchilarga buyurtma beradi. Demak, «*qurish*» fe'li orqali uyni qurish uchun kimnidir majburlash ma'nosi anglashiladi. Shu bois bunday fe'llar boshqa tillar grammatikasida «*de verbus causalibus*» («*kauzal fe'llar*») deb yuritiladi. Menimcha, rus tilidagi fe'l nisbati kategoriyasini kengaytirish ma'nosida bu kabi fe'llarni e'tiborga olsa bo'ladi. Biroq «*ichirish*» («*пить*»), «*ovqatlantirish*» («*кормить*») singari fe'llarni bu turkumga qo'shib bo'lmaydi. Chunki majburlab suv ichirish yoki ovqatlantirish kabi tushunchalar mantiqan to'g'ri emas»[20.42].

Shuni aytish kerakki, bizningcha, olim kauzativ fe'llarning buyurish ma'nosi bilan ham bog'lanishini nazardan chetda qoldirgan ko'rinadi. Chunki «*ichirish*» («*пить*»), «*ovqatlantirish*» («*кормить*») fe'llari buyruq ma'nosida kauzativ hisoblanadi. Aksincha, «*qurish*» («*строить*») fe'li ifodalayotgan ma'no orqali kimgadir buyurtma berish nazarda tutilmasa, uni kauzativ deb bo'lmaydi. Bu haqda keyingi sahifalarda batafsilroq to'xtalamiz.

Shunday qilib, kauzativlik tushunchasining lingvistika sohasiga kirib kelganining va uning tilshunoslar tomonidan ham tadqiq qilinganining guvohi bo'lamiz. Keyinchalik mazkur hodisa tilshunoslikda o'rganilishi muhim bo'lgan dolzarb mavzulardan biriga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Новая философская энциклопедия. Том III // Пратитья-самутпада (Лисенко В.Г.). – М.: Мысль, 2010.
2. Аристотель. Метафизика (Перевод с греческого П.Д.Первова и В.В.Розанова). – М.:Институт философии, теологии и истории св.Фомы, 2006.
3. Вольф М.Н. Средневековая арабская философия: ашаритский калам. – Новосибирск: Институт философии и права СО РАН, 2008.
4. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: (Uch jildlik saylanma). I jild. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
5. Ибн Сина. Избранные философские произведения. Указания и наставления. – М.: Наука, 1980.
6. Аль - Фараби. Логические трактаты. – Алма-ата: Наука, 1975.
7. Антология мировой философии в четырех томах. Том II. – М.: Мысль, 1970.
8. Юм Д. Сочинения в двух томах. Том I (Перевод с английского С.И.Церетели). – М.:Мысль, 1996.
9. Фреге Г. Логические исследование. – Томск: Водолей, 1997.
10. Философский энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1983.
11. Фреге Г. Смысл и денотат (перевод с немецкого Е.Э.Разлоговой) // СиИ, №8, 1977.
12. Субботин А.Л. Джон Стюарт Милль об индукции. – М.: Институт философии РАН, 2012; Вригт Г.Х.фон. Логико-философские исследования. Избранные труды. – М.: Прогресс, 1986; Скиннер Б.Ф. Наука и человеческое поведение (Перевод с английского А.А.Фёдорва и А.И.Васильева). – Новосибирск: НГУ, 2017.

13. Потенбня А.А. Из записок по русской грамматике. Том III. – М., 1968.
14. Вендина Т.И. Словообразование как источник реконструкции языкового сознания // Вопросы языкознания, № 4, 2002.
15. Гумбольдт В.фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 2000.
16. Гречъ Н.И. Практическая русская грамматика. – Санктпетербургъ: въ типографіи Императорскаго Санктпетербургскаго воспитательнаго дома, 1827.
17. Востоков А.Х. Русская грамматика. – Санктпетербург: въ Типографіи И.Глазунова, 1831.
18. Давыдов И.И. Опытъ общесравнительной грамматики русскаго языка. – Санктпетербургъ: изданный вторымъ отдѣленіемъ Императорской Академіи Наукъ, 1853.
19. Qarang: Ушаков Д.Н. Толковый словарь современного русского языка. – М.: Аделант, 2013.
20. Некрасов Н.П. О значеніи формъ русскаго глагола. – Санктпетербургъ: въ Типографіи и литографіи И.Паульсона, 1865.

Ne'matova Niginabonu Alisherovna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti o'qituvchisi
zi.wei@mail.ru

O'ZBEK VA XITOIY TILLARIDA PREDIKATIV TUZILMALAR DERIVATSIYASI: SINTAKTIK, SEMANTIKA VA FUNKSIONAL JIHLATLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va xitoy tillarida predikativ tuzilmalar hosil bo'lishining (derivatsiyasining) sintaktik, semantik va funksional xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikkala tilning tipologik tuzilishiga asoslangan holda predikativlikning grammatik ifodalanish mexanizmlari aniqlanadi hamda ularning semantik invariantlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: predikativlik, derivatsiya, sintaksis, semantika, valensiya, modallik, izolyativ til, agglutinatив til.

Kirish. Til tizimining markaziy kategoriyalaridan biri bo'lgan predikativlik — fikrni grammatik shaklda ifodalashning asosiy vositasidir. Bu hodisa deyarli barcha tillarda uchraydi va aynan u orqali subyekt hamda predikat o'rtasidagi grammatik munosabatlar yuzaga chiqadi. Boshqacha aytganda, predikativlik tildagi “fikrning jonlanish nuqtasi”dir: u grammatik shakl, ma'no va funksiyani bir butun tizimga birlashtiradi.

Har bir tilda predikativ tuzilmalar o'ziga xos formal, semantik va funksional mexanizmlar orqali hosil qilinadi. O'zbek va xitoy tillari bu jihatdan bir-biridan ancha farq qiladi. O'zbek tili agglutinatив tuzilishga ega bo'lib, grammatik ma'nolar asosan qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Xitoy tili esa izolyativ tipga mansub bo'lib, bunda grammatik munosabatlar so'z tartibi va yordamchi birliklar orqali belgilanadi. Shu sababli, har ikki tilda predikativlikning hosil bo'lish mexanizmlari bir xil emas: o'zbek tilida grammatik ko'rsatkichlar hal qiluvchi rol o'ynasa, xitoy tilida bu vazifani sintaktik tartib va kontekst bajaradi.

Ushbu farqlarni chuqurroq o'rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Chunki predikativlikni faqat sintaksis darajasida emas, derivatsion jarayon nuqtayi nazaridan ham ko'rib chiqish orqali ikki tildagi tizimli tafovutlar va ularning universalligini yanada aniqroq ochish mumkin.

Metodologiya. Tadqiqot qiyosiy-tahliliy, struktur-sintaktik, funksional-semantik va tipologik yondashuvlar asosida olib borildi. Ushbu yondashuvlarning uyg'unligi ikki til tizimidagi predikativlik hodisasini nafaqat grammatik darajada, balki ma'no va funksional jihatdan ham kengroq o'rganish imkonini berdi.

Material sifatida o'zbek tilidagi zamonaviy badiiy matnlar — A. Qahhor, O'. Hoshimov va T. Malik asarlari — tanlab olindi. Ushbu mualliflarning matnlari o'zbek tilidagi tabiiy sintaktik jarayonlarni, xususan, fe'l markazli predikativ birliklarning qo'llanilish holatlarini aniq ko'rsatib beradi. Xitoy tili materiali sifatida esa “现代汉语语法研究资料” (“Zamonaviy xitoy tili grammatikasi bo'yicha tadqiqotlar to'plami”) hamda “新使用汉语” (“Yangi amaliy xitoy tili”) darsligidagi matnlar asos qilib olindi. Ushbu manbalar xitoy tilidagi sintaktik tuzilmalarning normativ hamda amaliy ko'rinishlarini tahlil qilish uchun qulay ilmiy asos yaratdi.

Tahlil jarayonida har bir tildagi predikativ tuzilmalar morfologik va sintaktik darajada ko'rib chiqilib, ularning derivatsion bosqichlari aniqlangan. Natijada quyidagi umumiy model shakllandi:

O'zbek tilida: *fe'l negizi* → *grammatik affikslar* → *predikativ markaz*;

Xitoy tilida: *so'z tartibi* → *ohang va fe'l ko'rsatkichlari* → *predikativ markaz*.

Bu sxema har ikki tildagi predikativ tuzilmalarning shakllanish jarayonida asosiy grammatik mexanizmlarni aniq ko'rsatadi. O'zbek tilida grammatik affikslar predikativlikni shakllantiruvchi markaziy vosita sifatida namoyon bo'lsa, xitoy tilida bu vazifani so'z tartibi va tonal ko'rsatkichlar bajaradi.

Natijalar. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek va xitoy tillarida predikativlikning derivatsion mexanizmi uch asosiy darajada — sintaktik, semantik va funksional qatlamlarda shakllanadi.

Sintaktik daraja

O'zbek tilida predikativ markaz, odatda, shaxs va son affikslari orqali mustahkamlanadi: *Men keldim, u o'qiydi* kabi misollarda fe'lga qo'shilgan affikslar predikativ markazni aniq ko'rsatadi.

Xitoy tilida esa predikativlik so'z tartibi va fe'lning sintaktik pozitsiyasi orqali yuzaga chiqadi:

我看书 (Wǒ kàn shū) — “Men kitob o'qiyman”.

Bu tilda grammatik belgilar emas, balki so'zlar ketma-ketligi gapning markaziy tuzilmasini belgilaydi.

Semantik daraja

O'zbek tilida predikativlik valensiya nazariyasi asosida tashkil topadi — ya'ni fe'lning ma'nosi unga bog'langan argumentlar soniga qarab shakllanadi. Masalan, *bermoq* fe'li ikki argumentli (subyekt va obyekt) tuzilmani talab qiladi.

Xitoy tilida esa predikativlik kontekstual ma'no asosida yuzaga chiqadi. Gapning qismlari ko'pincha tushirib qoldiriladi, lekin ma'no kontekstdan kelib chiqadi. Masalan, *看过了* — “o'qib bo'ldim” shaklida subyekt ko'rsatilmasa-da, predikativlik to'liq namoyon bo'ladi.

Funksional daraja

O'zbek tilida modallik va zamon kategoriyalari (masalan, *edi, bo'lgan, kerak*) predikativlikni mustahkamlaydi.

Xitoy tilida esa bu vazifani fe'l ko'rsatkichlari (了, 过, 着) hamda modal so'zlar (会, 能, 要) bajaradi.

Bu jihatdan qaraganda, o‘zbek tili predikativlikni sintetik vositalar orqali, xitoy tili esa analitik vositalar orqali ifodalaydi.

Muhokama. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, har ikkala til predikativlikning umumiy mohiyatini saqlagan holda, uni turlicha grammatik mexanizmlar orqali amalga oshiradi. O‘zbek tilining agglutinatив xususiyati tufayli, predikativ markaz affiksatsiya orqali qat’iy grammatik shaklga ega bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, fe’lning semantik va kommunikativ aniqligini ta’minlaydi.

Xitoy tilida esa predikativlik so‘z tartibi va fe’l ko‘rsatkichlari orqali yuzaga chiqadi. Bunday tuzilma sintaktik moslashuvchanlikni oshiradi, biroq semantik aniqlik ko‘proq kontekstga bog‘lanadi.

Derivatsion nuqtai nazardan, xitoy tili minimal shakl – maksimal ma’no tamoyiliga amal qiladi, o‘zbek tili esa morfologik shakl – sintaktik aniqlik tamoyiliga tayanadi. Demak, predikativlikning shakllanish modeli har ikki tilda “shakl va ma’no” o‘rtasidagi muvozanatning turlicha ifodasini ko‘rsatadi.

Bu farqlar tarjima nazariyasi nuqtai nazaridan ham muhim. O‘zbek tilidan xitoy tiliga tarjimada affiksial grammatik kategoriyalar ko‘pincha sintaktik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan:

Men yozayotgan edim — xitoy tilida 我在写 tarzida ifodalanadi, bunda zamon va davomlilik ma’nosi fe’l ko‘rsatkichlari orqali emas, balki sintaktik konstruktsiya orqali beriladi.

Xulosa. Yakuniy natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va xitoy tillaridagi predikativ tuzilmalar derivatsiyasi struktur jihatdan farqli, funksional jihatdan esa universal hodisadir.

O‘zbek tilida morfologik vositalar, xitoy tilida esa sintaktik tartib asosiy rolni bajaradi. Shu bois, til tipologiyasi darajasida predikativlikni hosil qiluvchi vositalar kompensator xususiyatga ega — ya’ni, bir tilda grammatik ko‘rsatkichlar yetishmasa, boshqasida so‘z tartibi bu bo‘shliqni to‘ldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Meillet, A. (1921). *Linguistique historique et linguistique générale*. Paris: Champion.
2. Tesnière, L. (1959). *Éléments de syntaxe structurale*. Paris: Klincksieck.
3. Li, Charles N., & Thompson, Sandra A. (1981). *Mandarin Chinese: A Functional Reference Grammar*. Berkeley: University of California Press.
4. Nurmonov, A. (2008). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili sintaksisi*. Toshkent: Fan.
5. Rahmatullaev, Sh. (1990). *O‘zbek tili sintaksisi masalalari*. Toshkent: O‘zbekiston.
6. 刘月华, 潘文娉, 敬文东 (编著). (2001). 《现代汉语语法研究资料》 [Zamonaviy xitoy tili grammatikasi bo‘yicha tadqiqotlar to‘plami]. 北京: 商务印书馆.
7. 刘珣 (主编). (2001). 《新使用汉语》 [Yangi amaliy xitoy tili]. 北京: 北京语言文化大学出版社.

I.Yo.Beknazarova- Samarqand davlat chet tillar instituti assistent-o‘qituvchisi

D.U.Jo‘rayeva - Samarqand davlat chet tillar instituti 4-kurs talabasi

E-mail: irodabeknazarova77@gmail.com

BILVOSITA NOMLANISHNING TIL VA TAFAKKURDAGI O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bilvosita nomlanish (metafora, metonimiya, perifraza) ning kognitiv-funksional xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib tahlil tilshunoslikning an-

tropotsentrik paradigmasi doirasida olib borilgan Kognitiv lingvistika va Pragmatika tamoyillarini birlashtiradi. Bilvosita nomlanish kontseptual modellarni yaratish, kognitiv tejamkorlikni ta'minlash va idrokni faollashtirish kabi kognitiv funksiyalarga xizmat qilishi, pragmatik jihatdan ekspressivlik va baho berishi, eufemizm va noziklikni saqlashi shuningdek, matnning kogeziyasini ta'minlash kabi muhim vazifalar tahlil qilinadi.

Kalit so'z va iboralar: bilvosita nomlanish, kognitiv lingvistika, pragmatika, kontseptual metafora, metonimiya, kognitiv-funksional yondashuv, antropotsentrik paradigma, matn kogeziyasi, eufemizm, ekspressivlik

Bilvosita nomlanishning kognitiv-funksional xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan umumiy yondashuv tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasi doirasida, ya'ni tilni inson tafakkuri va faoliyati bilan uzviy bog'liq holda tadqiq qilishni nazarda tutadi [1-3]. Ushbu integrativ yondashuv Kognitiv lingvistika va Pragmatika tamoyillarini birlashtiradi; bir tomondan, kognitiv lingvistika bilvosita nomlarning borliqni kontseptsiyalashtirish (masalan, metafora orqali) mexanizmlariga asoslangan aqliy asosini tahlil qilsa, ikkinchi tomondan, pragmatika ularning matn ichida kommunikativ maqsadlarga (masalan, eufemizm orqali noziklikni saqlash yoki ekspressivlik orqali ta'sirni kuchaytirish) xizmat qilishini o'rganadi.

Kognitiv yondashuv bilvosita nomlarning insonning borliqni qanday tushunishi va konseptsiyalashtirishi bilan bog'liq tomonlarini tahlil qiladi.

Kontseptual mexanizm bilvosita nomlanish (xususan, metafora va metonimiya) ni shunchaki lug'aviy hodisa sifatida emas, balki inson tafakkurining asosiy negizi sifatida ko'radi [2]. Bu mexanizm orqali, bir kontseptual sohani boshqa, ko'pincha konkret va jismoniy soha orqali idrok etish va til orqali ifodalash ta'kidlanadi. Matnda yashiringan kontseptual modellarni aniqlash va tahlil qilish, muallif va o'quvchining dunyoqarashidagi umumiylikni ochib beradi, masalan, *muhabbat – yo'l, sayohat* degan ma'nolarni anglatadi. Bu modelda "*muhabbat*" harakat yoki jismoniy joy o'zgartirish orqali konseptuallashtiriladi. Ifodalarni tahlil qilsak, "*Bizning munosabatlarimiz chuqur ildiz otgan*" (O'simlik metaforasi); "*Ularning sevgisi yangi bosqichga ko'tarildi*" (Harakat metaforasi); "*Ularning munosabatlari bir joyda turib qoldi*" (To'xtalish metaforasi); "*Bizning muhabbatimiz qiyin sinovlardan o'tdi*" (Sayohatdagi to'siqlar); "*Bu ishq adashgan yo'llarga boshladi*" (Noto'g'ri yo'nalish) kabi izohlanadi.

Jahl – issiqlikdir bu inson tanasidagi qon bosimining ko'tarilishi, qizib ketish kabi fiziologik reaksiyalarning ruhiy jarayon (g'azab, jahl-maqсад)ga tenglashtiriladi, masalan, "*uning jahli qaynab ketdi*", "*vaziyat qizigandan-qizidi*", "*g'azab olovidek yondirdi*" kabi iboralar bilan ifodalanadi. Jahlni *funksional (pragmatik) asosda* tahlil qilsak, bu iboralarning asosiy vazifasi jahlning shiddatini xavfligini (olov kabi kuydirishi) yuqori ekspressivlik bilan yetkazishdir.

G'oya – o'simlikdir, ifodalarda tahlil qilsak, "*aqlidan yangi g'oya unib chiqdi*", "*bu loyiha endi meva bera boshladi*", "*uning rejaları hali nihol*" bu yerda g'oyaning (maqсад soha) rivojlanish jarayonini, uning o'sish, yetilish va natija berish xususiyatlarini o'simlik (manba soha) hayoti orqali tasvirlangan. Bu kabi tahlil matnning faqatgina yuzaki ma'nosini emas, balki uning ortida yashiringan chuqur kognitiv tuzilmalarini va muallifning konseptsiyalash usulini ochish imkonini beradi.

Ikkilamchi nominatsiya asoslari bu birlamchi (to'g'ridan-to'g'ri) nom o'rniga ikkilamchi (bilvosita) nomning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan aqliy assotsiatsiyalar (bog'lanishlar)ni o'rganadi. Bu assotsiatsiyalar, asosan, o'xshashlik, yaqinlik, birga mavjudlik kabi inson idrokidan kelib chiqadi. Bu jarayon tilni nafaqat boyitadi, balki kognitiv tejamkorlikni ham aks ettiradi; ya'ni, bir necha so'z bilan ifodalash mumkin bo'lgan tushunchani bitta obrazli so'z yoki

qisqa ibora orqali yetkazishga imkon beradi [1,2]. Quyida ikkilamchi nominatsiyaning asosiy kognitiv mexanizmlarini keltiramiz:

O'xshashlik asosi (metafora) bu asosda obyektlar o'zlarining shakli, rangi, funksiyasi yoki ta'siri bo'yicha o'xshashligi sababli nomlanadi va bir obyektning xususiyatlari ikkinchisiga ko'chiriladi. Masalan, *"tulki"* (hayvon nomi) - ayyor, makkor odam (inson xususiyatini nomlash). Tulki kabi hiyla ishlatuvchi shaxsni qisqa va ta'sirchan nomlash orqali vaqt tejaladi; *"kozok"* (kiyim turi) – "yengsiz kiyim" yoki "issiq kiyim" ning universal nomi.

Yaqinlik va birga mavjudlik asosi (metonimiya va sinekdoxa)da obyektlar bir-biri bilan aloqadorligi, joylashuvi, qismi va butuni munosabati orqali nomlanadi. Obyektning nomi unga yaqin bo'lgan boshqa obyektga ko'chiriladi, masalan, *"kema"* (butun) – *"yelkan"* (qism, ya'ni sinekdoxa), endi matndagi misollarni tahlil qilamiz, *"ufqda yelkan ko'rindi"* (bu yerda faqat yelkan emas, balki butun kema nazarda tutilgan); *"stol"* (joy/asbob) – "ovqat" (natija/jarayon), matndan keltirilgan holatini tahlil qilsak *"stolga marhamat qiling."* (stol ustidagi taomga taklif nazarda tutilgan bu gapda).

Kognitiv tejamkorlik bu bilvosita nomlanishdagi kognitiv tejamkorlik fikrni tez va ixcham ifodalashda namoyon bo'ladi, masalan, bir kishining xarakterini ya'ni *"u juda hiylagar va o'z maqsadiga erishish uchun barcha vositalardan foydalanadi"* deb aytish o'rniga, *"u - chindan ham tulki"* deyish orqali ham aqliy kuch ham vaqt tejaladi, biroq ma'no qisqarishiga qaramay, ma'lumotning ta'sirchanligi kuchayadi [1].

Idrok va xotira nuqtai nazaridan, bilvosita nomlarning (metafora, metonimiya va boshqalar) matnni qabul qilish (resepsiya) jarayoniga ta'siri shundan iboratki, ular tufayli tasvir boyiydi va ma'lumot assotsiativ xotirada yanada mustahkam saqlanadi. Bu mexanizm matnning persuasiv (ishontirish) va emotsional ta'sirini oshiradi. Birlamchi nomlanish oddiy ma'lumot uzatish vazifasini bajarsa, bilvosita nomlar ayni ma'lumotni o'quvchi ongida konkret, jonli obraz orqali kodlaydi, bu esa chuqur ishlov berish (deep processing) ga olib keladi.

Obrazlilikni kuchaytirish bilvosita nomlar mavhum tushunchalarni sensor ma'lumotlar bilan bog'laydi, natijada matn quruq faktlar to'plami emas, balki jonli vizual yoki hissiy tasvir sifatida idrok etiladi. Oddiy ifodada, masalan, *"u juda g'azablangan edi"*, bu yerda bilvosita nomlanish *"uning jahli olov kabi ichidan chiqayotganday edi"* (o'quvchi "olov" assotsiatsiyasi orqali g'azabning issiqligi, qizilligi va xavfini his qiladi).

Assotsiativ bog'lanishni tahlil qiladigan bo'lsak, ular o'quvchining aqliy lug'atida mavjud bo'lgan kontseptual bilimlar zanjirini ishga tushiradi. Yangi ma'lumot eskisi bilan bog'lanib, xotirada joylashadi. Masalan, matnda *"siyosat qozoni"* iborasi ishlatilsa, o'quvchining ongida darhol qozon bilan bog'liq bo'lgan *"qaynoqlik, xavf, pishirish/qaynatish jarayoni"* kabi assotsiatsiyalar uyg'onadi. Siyosatdagi murakkablik va xavf bir zumda anglanadi. Qisqa qilib aytganda, obrazli ifoda uzun tavsifga qaraganda tezroq tushuniladi va yaxshiroq eslab qolinadi. Bilvosita nomlar yordamida o'quvchi ma'lumotni to'liq *"kod"* kabi yodga oladi.

Funksional yondashuv bilvosita nomlarning kommunikativ vaziyat va matn kontekstida bajaradigan amaliy maqsadlari (funksiyalari)ga qaratilgan. Pragmatik maqsad nuqtai nazaridan, bilvosita nomlanishning o'rganilishi til birliklarining nutq akti doirasida aniq maqsad (intensiya) bilan qo'llanishini tahlil qiladi. Bilvosita nomlar bu yerda shunchaki ma'lumot uzatuvchi vosita emas, balki kommunikatorning munosabatini boshqarish va o'quvchi/tinglovchiga ta'sir o'tkazish uchun tanlagan ongli strategiyasi sifatida namoyon bo'ladi [1,5,6-9]. Asosiy ikki funksiyasi quyidagilardan iborat: Bu funksiya matnning ta'sirchanligini oshirishga, shaxs, predmet yoki hodisaga nisbatan muallifning sub'yektiv bahosini (ijobiy yoki salbiy) kuchli va obrazli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Muallif to'g'ridan-to'g'ri baho berishdan ko'ra, kuchli

metaforik yoki metonimik obrazni tanlaydi, bu esa ma'noni yanada hissiy va yorqin qiladi. Masalan, salbiy baho: "*U — bo'ri niqobidagi odam*" (Odamning yirtqich, xavfli ekanligini anglatuvchi kuchli ekspressivlik). Ijobiy baho: "*Uning ovozi — bulbul navosi*" (Ovozning jozibali va yoqimli ekanligini ifodalaydi).

Eufemizm va Noziklik (Politeness/Face-saving) bu funksiya noqulay, dag'al, qo'pol yoki ijtimoiy taqiqlangan (tabu) tushunchalarni yumshoq va nozik (face-saving) tarzda bilvosita nomlash uchun qo'llaniladi. Bu, asosan, muloqotdagi munosabatni buzmaslikka yoki o'quvchi/tinglovchining his-tuyg'ularini himoya qilishga qaratilgan. Yoqimsiz voqea yoki holatni uni bevosita nomlash o'rniga, uning ta'siri kamroq bo'lgan boshqa bir tushuncha yoki ibora orqali almashtirish (parafraza, metonimiya) nazarda tutiladi, masalan, "*o'lim*" o'rniga "*u oxirgi manziliga yetdi*" yoki "*Olloh rahmatiga o'ldi*" (noziklik va diniy ehtirom); "*ishdan haydaldi*" o'rniga "*u o'z xohishi bilan ishdan ketdi*" yoki "*unga qo'shimcha imkoniyatlar berildi*" (vaziyatning dag'alligini yumshatish maqsadida ishlatiladi).

Uslubiy shakllantirish nuqtai nazaridan, bilvosita nomlarning (metafora, metonimiya, perifraza kabi) matnning uslubiy bo'yog'ini belgilashdagi va estetik qiymatini oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Bilvosita nomlanish turli janr va uslublar talabiga moslashib, matnning kommunikativ vazifasini kuchaytiradi. Uslubiy bo'yoqni belgilash bilvosita nomlar matnning qaysi funktsional uslubga mansubligini ko'rsatib beradi va unga o'ziga xos rang beradi, masalan, badiiy (poetik) janrda yuqori obrazlilik, sub'yektivlik, hissiyotga boylikni ko'rsatib beradi. Obrazlilikni va estetik ta'sirini oshirish, ruhiy holatini keng yoritib beradi, masalan, "*yurakning qahqahasi*", "*armonning bo'g'zi*" (metafora); kumushning go'zalligini "*yuzning oyi*" kabi perifrazalar orqali tasvirlash mumkin. Publitsistik bu ta'sirchanlik, baho berish, ommaga murojaat, keskinlik degan ma'nolarni ham anglatadi yana shuningdek, baho berishni kuchaytirish, tushunchani keskin, ijtimoiy-siyosiy rangda nomlash, masalan, "*xalq dushmani*", "*iqtisodiyot lokomotivi*" (metafora/metonimiya) kabilarni ifodalaydi. Misollarda ko'rib chiqamiz "*Fidokorona mehnati uchun sharaflangan qahramonlar*" (perifraza) o'rniga "*Mamlakatimizning oltin kadrlari*" (publitsistik ekspressivlik) iborasi ishlatiladi. Ilmiy/rasmiy - betaraflik, aniqlik deganda faqatgina terminologik yoki qisqartma funksiyasida (masalan, metonimik yoki sinekodoxik qisqartmalar) va faqat zarurat tug'ilganga ishlatiladi, masalan, "*qora o'lim*" (vabo/o'lat) kabi tarixiy eufemizmlar.

Matnning *kogeziyasi* (bog'liqligi) nuqtai nazaridan, bilvosita nomlar matnni bir butun qilib turuvchi asosiy funktsional vosita hisoblanadi. Ular matnda oldingi elementlarga qayta ishora (referensiya) vazifasini bajarib, matnning uzviyligi va bog'liqligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [6,7-10]. Bu orqali muallif takrorlanishning oldini oladi va o'quvchi diqqatini saqlab qolgan holda matnning uslubiy jozibasini oshiradi. Bilvosita nomlar leksik referensiya (bir so'z yoki tushunchaning o'rniga unga bog'liq boshqa so'zni qo'llash) vositasi sifatida ishlaydi. Bu, ayniqsa, perifraza va metonimiya orqali yuzaga chiqadi. Ob'yektni har safar uning asosiy nomi bilan atamasdan, balki uning funksiyasi, xususiyati yoki eng mashhur belgisi bilan nomlash orqali matn zanjirini mustahkamlaydi. O'quvchi bilvosita nomni o'qigan zahoti, uni matnning avvalgi qismidagi ma'lumot bilan bevosita bog'laydi, bu esa matnni qayta ishlash va tushunish tezligini oshiradi, masalan, "*oy*" - osmon malikasi. Ushbu nomni matnda ishlashini ko'rib chiqadigan bo'lsak, matnda "*osmonga qaradim, oy yarim edi. Go'yo osmon malikasi olis yulduzlarga qarab kulayotgandek*" (takrorlanishdan qochiladi va obraz boyitiladi) deb tahlil qilinadi.

Bilvosita nomlanishni (metafora, metonimiya, perifraza) kognitiv-funksional nuqtai nazardan o'rganish, tilning ongda joylashgan bilish mexanizmlari (kognitiv) va ijtimoiy

muloqotdagi samaradorligi (funksional) o'rtasidagi bog'liqlikni kompleks tarzda tahlil qilishni talab qiladi. Ushbu yondashuv tilni aqliy harakat va ijtimoiy amaliyot o'rtasidagi ko'prik deb biladi: biror narsani qanday atashimiz (kognitiv tanlov) doimo uning yordamida nimaga erishmoqchiligimiz (funksional maqsad) bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan: *kognitiv tanlov* (metonimiya)da muallif "Toshkent" so'zi o'rniga uning poytaxt ekanligini anglatuvchi "Hukumat qo'rg'oni" degan bilvosita nomni ishlatadi, bu esa tanlov yaqinlik (metonimiya) kabi aqliy mexanizmga asoslanadi. Funksional maqsad (ekspressivlik)ni ko'rib chiqamiz, bu nomni qo'llashdan maqsad esa, shaharning o'zini ta'riflash emas, balki markaziy hokimiyatni ifodalash va matnga siyosiy keskinlik (ekspressivlik) berishdir. Bunday kompleks tahlil til birligining ortida yotgan konseptual asosni (qanday tushunilganlini) va uning muloqotdagi pragmatik vazifasini (nima maqsadda qo'llanganini) bir butun sifatida ochib berish imkonini beradi [2,5,7-11].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bilvosita nomlanish - bu tilning ongda mexanikasi (kognitiv tanlov) va ijtimoiy amaliyoti (funksional maqsad) o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning yorqin namunasi. U til birligini tanlash jarayoni shunchaki tasodifiy emas, balki biror narsani qanday atashimiz (ya'ni, tafakkurimizdagi kontseptual model) doimo u orqali nimaga erishmoqchiligimiz (ya'ni, pragmatik niyatimiz) bilan chambarchas bog'liqligini isbotlaydi. Bu jarayon shuni anglatadiki, nutq jarayonida kommunikator har bir bilvosita nomni qo'llash orqali ikki yo'nalishda maqsadga erishadi: birinchidan, kognitiv jihatdan u mavhum tushunchalarni (masalan, *vaqt, his-tuyg'u*) aniq va hissiy obrazlar orqali konseptsiyalashtiradi va o'quvchi ongida tezda kodlaydi (kognitiv tejamkorlik). Ikkinchidan, funksional jihatdan u matnga ekspressivlikni (ta'sirchanlik) bag'ishlaydi, sub'yektiv baho beradi yoki eufemizm (yumshoqlik) orqali muloqotdagi noziklikni saqlaydi. Shu sababli, bilvosita nomlanish tilning shunchaki ma'lumot uzatuvchi vositasi emas, balki ta'sir o'tkazuvchi kuch, kommunikativ strategiya va tafakkur asosi sifatidagi rolini mustahkamlaydi, uning estetik va pragmatik salohiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Croft, W. and Cruse, D. A. (2004). *Cognitive Linguistics*. Cambridge University Press.
2. Lakoff, G. and Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
3. Langacker, R. W. (1987). *Foundations of Cognitive Grammar: Vol. 1, Theoretical Prerequisites*. Stanford University Press.
4. Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In P. Cole & J. Morgan (Eds.), *Syntax and Semantics 3: Speech Acts*. Academic Press.
5. Leech, G. N. (1983). *Principles of Pragmatics*. Longman.
6. Brown, P. and Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press.
7. Halliday, M. A. K. and Hasan, R. (1976). *Cohesion in English*. Longman.
8. Beknazarova, I.Yo., & Jo'rayeva, D.U. (2024). General Theoretical Problems of Indirect Naming (Using the Example of English). *Scientific Bulletin of Samarkand State University*, Issue 6 (148/2), Humanities Series, 76–84.
9. Beknazarova, I.Yo., & Jo'rayeva, D.U. (n.d.). Problems of Indirect Naming Related to Metonymy in English. *Journal of Science, Education, Culture and Innovation*, 4(2), 61–64.
10. Beknazarova, I., & Jo'rayeva, D. (2025). Lexical Structure and Semantic Components of Language. *Young Scientists*, 3(1), 108–115.
11. Beknazarova, I. (2024). International Scientific and Practical Conference "Methodology

Ochilova Gulnoza Farxod qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti
gulnoza.ochilova@internet.ru
99 035 54 47

TIL VA NUTQ BIRLIKLARINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDA BELGILANISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va nutq tushunchalari yoritilib o‘tiladi. Ularning o‘rtasidagi tafovutlar va o‘xshashliklar tahlil qilinadi. Umumiy tilshunoslikda nutq birliklariga taaluqli masalarning o‘rganilganlik darajasi haqidagi ma‘lumotlar o‘z aksini topadi.

Kalit so‘zlar: til, sistema, struktura, nutq, til birliklari, nutq birliklari, umumiy tilshunoslik.

Tilning ilk qayd etilgan namunasi 900-yillardan avvalgi davrlarga taqaladi. O‘rta ingliz tilida «speche», eski ingliz tilida esa «spaec» deb atalgan. Bu «sprecan» (gapirish) so‘zining o‘zgarishi bo‘lib, nemis tilidagi «sprache» so‘zi bilan o‘zakdoshdir.

Til nima?

Til - bu insonlar ijtimoiy guruh a‘zolari va o‘z madaniyatida ishtirokchilar sifatida o‘z fikrlarini ifodalash uchun foydalanadigan an’anaviy og‘zaki, qo‘l (ishora) yoki yozma belgilar tizimidir. Tilning vazifalari kommunikatsiya, o‘zlikni ifodalash, o‘yin-kulgi, badiiy ifoda va hissiy bo‘shashishni o‘z ichiga oladi¹.

Quyidagi mulohazalar tilni fan sifatida to‘g‘ri tushunishga yordam beradi:

Har bir fiziologik va ruhiy jihatdan tipik inson bolaligida aloqa tizimidan - muayyan belgilardan (masalan, tovushlar, imo-ishoralar yoki yozma yoki bosma belgilar) ham jo‘natuvchi, ham qabul qiluvchi sifatida foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Og‘zaki tilda bu belgilar to‘plami tomoq va og‘iz ichidagi ayrim organlarning harakatidan kelib chiqadigan shovqinlardan iborat. Ishora tillarida bu belgilar qo‘l yoki tana harakatlari, imo-ishoralar yoki yuz ifodalari bo‘lishi mumkin. Ushbu belgilar yordamida odamlar axborot berish, his-tuyg‘ularini ifodalash, boshqalarning faoliyatiga ta’sir o‘tkazish va deyarli bir xil belgilar to‘plamidan foydalanadigan odamlarga nisbatan do‘stona yoki dushmanona munosabatda bo‘lishlari mumkin.

Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishining ehtimoliy sharoitlari haqidagi asosli tadqiqotlarni nemis faylasufi Iogann Gotfrid fon Gerderning 18-asr oxiridagi «Abhandlung über den Ursprung der Sprache» («Tilning kelib chiqishi haqida insho») asarida va boshqa ko‘plab traktatlarda ko‘rish mumkin. Ammo odamlar yanada uzoqroqqa borishga, birinchi tilning haqiqiy shakllari va tuzilishiga o‘xshash narsalarni topishga yoki qayta tiklashga harakat qilishgan. Bu fan uchun abadiy erishib bo‘lmaydigan narsa, chunki og‘zaki til qandaydir shaklda Homo sapiens bilan deyarli tengdoshdir. Insoniyat umid qilishi mumkin bo‘lgan yagona lingvistik qoldiq - yozma tilning eng qadimgi yozuvlari atigi 4000-5000 yilga borib taqaladi. Ba’zi odamlar hayvonlar va qushlarning qichqiriqlari yoki hayajon yoki g‘azabning nonleksik ifodalari inson nutqiga aylangan deb da’vo qilishga harakat qilishdi, go‘yo onomatopiya tilning mohiyati bo‘lganidek;

¹ Maka Kirvalidze. Language and speech. Tbilisi, 2022. – P. 2-3.

bu da'volar ularning nomuvofiqligi uchun (masalan, Oksford filologi Maks Myuller tomonidan 19-asrda) masxara qilindi va «vov-vov» va «pux-pux» nazariyalari kabi laqablarga ega bo'ldi¹.

NUTQ NIMA?

Nutq ishlab chiqarish - bu eng murakkab inson faoliyatlaridan biridir. U ko'plab mushaklarni va murakkab kognitiv jarayonlarni muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi. Nutq ishlab chiqarish sohasi Artikulyatsion fonetika, Akustik fonetika va Nutqni idrok etish bilan bog'liq bo'lib, ularning barchasi tilning turli elementlarini o'rganadi va Lingvistikaning kengroq sohasining bir qismidir. Joriy mavzuning fanlararo xususiyati tufayli u odatda bir nechta darajalarda o'rganiladi: nevrologik, akustik, motor, evolyutsion va rivojlanish. Ushbu darajalarning har biri o'z adabiyotiga ega, ammo nutq ishlab chiqarish adabiyotining aksariyat qismida bu elementlarning har biri mavjud bo'ladi². Tegishli adabiyotlarning katta qismi ushbu bibliografiya asoslangan nutqni idrok etish bo'limida yoritilgan. Ushbu bo'lim umumiy nutq ishlab chiqarish mexanizmlari va nutq buzilishlarini qamrab oladi. Biroq, ikkinchi tilni o'rganuvchilar yoki ikki tillilarning nutq ishlab chiqarishi alohida xususiyatlarga ega bo'lib, ular tillararo nutqni idrok etish va ishlab chiqarish bo'yicha alohida bibliografiyada tasvirlangan. Nutq tovushlarni hosil qiladi va tovushlar fonologiya uchun o'rganish mavzusidir.

Til va nutq hodisalarga boshqacha yondashuv Arab tilshunosligida VIII-IX asrlarda, keyinchalik V.Gumboldt, A.Shteyntal va Boduen de Kurtene ta'limotlarida kuzatilgan³. Biroq, nutq hodisalarini til va ularning birliklari bilan ilmiy-nazariy va amaliy farqlash; til va nutq birliklarining asosiy maqsadini ochib berish yo'llari, «til» va «nutq» tushunchalariga to'liq yangi mazmun berish Ferdinand de Sossyur va uning izdoshlari yaratgan asarlari bilan bog'liq.

Ferdinand de Sossyurning ilmiy qarashlari tilning murakkab, ziddiyatli, ko'p tomonlama hodisa ekanligiga asoslanadi. Ferdinand de Sossyur tilshunoslikning ta'rifini, chegarasini, obyektini aniqroq kashf etish maqsadida Vilgelm fon Gumboldt ishlatgan antinomiya (oppozitsion) usulidan foydalandi hamda til va nutqni ularni bir-biriga qo'yib ajratdi. Uning fikricha, til nutq faoliyatining faqat bir tomonini tashkil qiladi. Til nutqqa ziddir⁴. Til va nutq o'rtasidagi eng asosiy farq shundaki, til ijtimoiy hodisa, nutq esa individual hodisadir. Olim til va nutq o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va munosabatni inkor qilmasdan ko'rib chiqadi, bu ikki hodisani alohida o'rganishni tavsiya qiladi. Til va nutq tilshunosligi atamalari Ferdinand de Sossyur bilan bog'liq, chunki u ularni fanga olib kirgan⁵.

Adabiyotlar/Литературы/References:

1. Фердинанд де Соссюр. Труды по языкознанию. М., 1977. 689 с.
2. Abram M.H. A Glossary of Literary Terms. India: Thompson Wordsworth Akash Press Eighth Edition, Print, 2005. – 386 p.
3. Barry, Peter. Beginning Theory: An Introduction to Literary and Cultural Theory. Viva Books Pvt. Ltd: new Delhi, Print, 2011. – 285 p.
4. Greenblatt, Stephen, et al. The Norton Anthology of English Literature, Vol. D. (9th ed.). Norton Web, 2012. – 3214 p.

¹ Greenblatt, Stephen, et al. The Norton Anthology of English Literature, Vol. D. (9th ed.). Norton Web, 2012. – P. 450-453.

² Simpson, Paul. Stylistics: A Recourse Book for Students. Taylor and Francis Group, 2004. – P. 66-68.

³ Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. Toshkent: O'qituvchi, 1993. B. 7-8.

⁴ Ochilova, G. Interpretation of the problem of speech units in general linguistics. Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 2025. P. 313–316.

⁵ Фердинанд де Соссюр. Труды по языкознанию. М., 1977. С. 75.

5. Krishnaswami N, John Varghese, Sunita Mishra. Contemporary Literary Theory: A Students Companion. India: Macmillan, Print, 2011.
6. Maka Kirvalidze. Language and speech. Tbilisi, 2022. – 9 p.
7. National Academies of Sciences, Engineering, and Medicine. 1994. Voice Communication Between Humans and Machines. Washington, DC: The National Academies Press.
8. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. Toshkent: O'qituvchi, 1993. 32 b.
9. Ochilova, G. Interpretation of the problem of speech units in general linguistics. Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 2025. P. 313–316.
10. Simpson, Paul. Stylistics: A Recourse Book for Students. Taylor and Francis Group, 2004. – 262 p.

Ziyadullayeva Madina Mahmarejab qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

TIL BIRLIKLARINING IERARXIK MUNOSABATI

Annotatsiya: Mazkur maqolada til birliklarining ierarxik munosabati zamonaviy tilshunoslik nazariyalari asosida tahlil qilinadi. Fonemadan matngacha bo'lgan sathlar o'zaro vertikal bog'liqlikda bo'lib, har bir sath yuqori sathdagi birlikni hosil qilishda ishtirok etadi. O'zbek, ingliz va rus tillari misolida qiyosiy tahlil orqali ierarxik tuzilmaning umumiy va milliy xususiyatlari aniqlanadi. Ferdinand de Saussure, Viktor Vladimirovich Vinogradov, Lev Vladimirovich Shcherba, Noam Xomskiy kabi klassik va zamonaviy tilshunoslar qarashlari asosida nazariy asoslar mustahkamlanadi. Misollar orqali derivatsion qonuniyatlar, sintaktik tartiblar, semantik bog'lanishlar va metodologik yondashuvlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: ierarxik munosabat, til birliklari, fonema, morfema, sintaksis, qiyosiy tahlil, derivatsion qonuniyat, Ferdinand de Saussure, V.Vinogradov, N. Xomskiy, o'zbek tilshunosligi.

Til — inson tafakkuri va jamiyat hayotining eng muhim vositasi bo'lib, uning ichki tizimi turli birliklarning o'zaro munosabatlari orqali shakllanadi. Til birliklari — fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi, gap va matn — alohida mavjud bo'lishi mumkin emas, balki ular o'zaro paradigmatic, sintagmatic va ierarxik bog'lanishlar orqali hosil bo'ladi. Ana shu munosabatlarni o'rganish tilning strukturaviy yaxlitligini anglash, semantik yukni aniqlash va kommunikativ jarayonni to'liq tushuntirish uchun muhim hisoblanadi. Paradigmatic munosabat tanlov asosida bir sathdagi birliklar o'rtasidagi bog'lanishni bildirsa, sintagmatic munosabat ketma-ketlik asosida nutqdagi birliklar o'rtasidagi bog'lanishni anglatadi. Ierarxik munosabat esa turli sathdagi birliklarning vertikal tuzilmasini ifodalaydi. Bu munosabat tilning strukturaviy yaxlitligini ta'minlaydi va tilshunoslikda nazariy hamda amaliy tahlil uchun muhim vosita hisoblanadi. Til birliklari o'zaro subordinatsiyalangan: pastki sathdagi birliklar yuqori sathdagi birliklarni hosil qilishda xizmat qiladi. Masalan, fonemalar morfemani, morfemalar so'zni, so'zlar esa gapni tashkil etadi. Bu munosabat strukturaviy qatlamlar orqali tilning ichki tizimini aniqlashga yordam beradi

Ferdinand de Saussure tilni belgilar tizimi sifatida ta'riflab, paradigmatic va sintagmatic munosabatlarni ajratgan. Garchi u “ierarxik” terminini bevosita ishlatmagan bo'lsa-da, til birliklarining sathlararo bog'lanishini sinxron tahlil orqali ko'rsatgan [1]. Ferdinand de Sossyur paradigmatic va sintagmatic munosabatlarni ajratish orqali tilning ichki tizimiy bog'lanishlarini ochib bergan. Olim garchi “ierarxik” atamasini o'z asarlarida ishlatmagan bo'lsa-da, uning

sinxron tahlili til birliklari o'rtasidagi vertikal munosabatni tushunishda nazariy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Bizningcha, bu yondashuvni zamonaviy tilshunoslikdagi ierarxik modellarning metodologik ildizi sifatida xizmat qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Viktor Vladimirovich Vinogradov rus tilining morfologik va sintaktik tuzilmasini tahlil qilib, til birliklarining funksional darajalari haqida fikr bildirgan. U gapni tilning eng muhim kommunikativ birligi deb hisoblaydi va gap tarkibidagi birliklarning subordinatsiyasini ierarxik munosabat sifatida ko'radi [2]. Vinogradovning gapni kommunikativ birlik sifatida belgilashi, meningcha, o'zbek tilidagi gap tuzilmasining semantik yukini tushunishda muhim nazariy tayanch bo'la oladi. Olimning gapni kommunikativ birlik sifatida belgilashi gap tuzilmasining semantik yukini tushunishda, gaplarning kontekstga monand pragmatik ma'nosini tahlil qilish uchun muhim nazariy tayanch bo'la oladi. Albatta, Ferdinand de Sossyur ierarxik terminini ishlatmaganligi sababli, uning nazariyasi to'liq emasdek ko'rinishi mumkin. Ammo meningcha, bu bo'shliq keyingi tilshunoslar — Vinogradov, Shcherba va Xomskiy tomonidan to'ldirilgan. Shu jihatdan Sossyur nazariyasi boshlang'ich nuqta sifatida ahamiyat kasb etadi.

Lev Vladimirovich Shcherba fonema va morfema o'rtasidagi bog'lanishni differensial birliklar asosida izohlab, fonemani semantik yukga ega bo'lmagan, lekin morfemani shakllantiruvchi minimal birlik sifatida belgilaydi [3]. Bizningcha, Shcherbaning fonemani semantik yukdan xoli, ammo morfemani shakllantiruvchi minimal birlik sifatida belgilashi, tilning ierarxik tuzilishini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki bu yondashuv fonema va morfema o'rtasidagi subordinatsiyani aniq ko'rsatib beradi. Ammo olimning nazariyasi zamonaviy fonosemantik yondashuvlar bilan boyitilishga ehtiyoj sezadi. Chunki L.V.Shcherba fonemani semantik yukdan xoli birlik sifatida belgilagan, lekin fonemalarning fonosemantik tadqiqotlarga ko'ra ma'lum darajada assotsiativ yuk kasb etishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin.

Noam Xomskiy tilni generativ tizim sifatida ko'rib, sintaktik tuzilmani ierarxik daraxt shaklida modellashtiradi. Uning “deep structure” va “surface structure” tushunchalari til birliklarining ierarxik joylashuvini aniqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [4]. Ushbu nazariya til birliklarining ierarxik joylashuvini tushuntirishda eng samarali nazariy modellardan biridir. Ayniqsa, sintaktik daraxt orqali tilning ichki qatlamlarini ko'rsatishi ierarxik munosabatni vizual va mantiqiy jihatdan aniq ifodalab beradi. Olimning bu modeli, albatta, sintaktik ierarxiyani chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ammo, u semantik va pragmatik omillarni yetarlicha hisobga olmaydi. Shu bois, uni qo'llashda semantik qatlamni ham qo'shib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek tilshunosligida Ravshanxo'ja Rasulov va Hamid Ne'matov ierarxik munosabatni paradigmatic va sintagmatic munosabatlar bilan bog'liq holda tahlil qilgan. Ular til sathlarining o'zaro bog'liqligini derivatsion qonuniyatlar orqali izohlab, fonemadan matngacha bo'lgan tuzilmani modulli tizim sifatida ko'rsatgan [5][6]. Rasulov va Ne'matovning ierarxik munosabatni paradigmatic va sintagmatic munosabatlar bilan bog'liq holda tahlil qilishi, til sathlari o'rtasidagi murakkab bog'lanishlarni yaxlit ko'rishga imkon beradi. Lekin, bu yondashuvni diskurs darajasida yanada kengaytirish mumkin. Chunki gaplararo bog'lanish va matnning semantik yaxlitligi ham ierarxik munosabatning muhim qismi hisoblanadi.

O'zbek tilida “kitob” so'zi /k/, /i/, /t/, /o/, /b/ fonemalaridan tashkil topgan. Ingliz tilida “book” — /b/, /o/, /k/, rus tilida “книга” — /к/, /н/, /и/, /г/, /а/. Fonemalar semantik yukga ega emas, lekin morfemani hosil qilishda xizmat qiladi.

O'zbek tilida “o'quvchi” so'zi “o'q-” asosiy morfema va “-uvchi” affiksidan iborat. Ingliz tilida “teacher” — “teach” + “-er”, rus tilida “учитель” — “уч-” + “-итель”. Morfemalar

birlashib leksik birlikni hosil qiladi, lekin har bir tilning morfologik tuzilmasi — agglutinatív (o‘zbek), analitik (ingliz), fleksiýali (rus) — ierarxik munosabatni shakllantirishda turlicha rol o‘ynaydi.

O‘zbekcha gap: “O‘quvchi kitob o‘qiydi.” (SOV) Inglizcha gap: “The student reads a book.” (SVO) Ruscha gap: “Студент читает книгу.” (SVO)

Referens va zamon ifodasi har bir tilda turlicha beriladi. Bu matn darajasidagi ierarxik bog‘lanishning semantik va grammatik jihatlarini ko‘rsatadi.

Iyerarxik munosabat tilshunoslikda:

Lingvistik modellashtirishda (masalan, korpus tuzishda),

Tarjima nazariyasida (sathlararo ekvivalentlikni aniqlashda),

Til o‘rgatish metodikasida (bosqichma-bosqich o‘rgatishda),

Multimodal ilovalar yaratishda (interaktiv til resurslari tuzishda),

Diskurs tahlilida (gaplararo bog‘lanish va matn tuzilmasini aniqlashda)

asosiy nazariy tayanch sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘zbek tilining agglutinatív tuzilmasi ierarxiklikni aniq ko‘rsatadi.

Til birliklarining ierarxik munosabati tilning strukturaviy va funksional yaxlitligini ta‘minlaydi. Bu munosabat paradigmatic va sintagmatic munosabatlar bilan birgalikda tilshunoslikning nazariy asoslarini tashkil etadi. Ferdinand de Saussure, Viktor Vladimirovich Vinogradov, Lev Vladimirovich Shcherba, Noam Chomsky va o‘zbek tilshunolarining qarashlari bu munosabatning ilmiy asoslarini mustahkamlab beradi. Qiyosiy tahlil esa turli tillardagi umumiylik va farqlilikni aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv zamonaviy tilshunoslikda derivatsion qonuniyatlarni tushunish, lingvistik modellashtirish va amaliy til o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ferdinand de Saussure. (1916). *Cours de linguistique générale*. Paris: Payot.
— Tilni belgilar tizimi sifatida tushuntirgan, paradigmatic va sintagmatic munosabatlarni ajratgan klassik asar.

2. Viktor Vladimirovich Vinogradov. (1955). *Russkiy yazyk: Grammaticheskoe uchenie o slove*. Moskva: Nauka.
— Rus tilidagi morfemik va sintaktik ierarxiyani tahlil qilgan fundamental ish.

3. Lev Vladimirovich Shcherba. (1974). *Yazykovaya sistema i rechevaya deyatel'nost*. Leningrad: Nauka.
— Fonema va morfema o‘rtasidagi munosabatni differensial birliklar asosida izohlagan.

4. Noam Chomsky. (1965). *Aspects of the Theory of Syntax*. Cambridge, MA: MIT Press.
— Sintaktik tuzilma va til birliklarining generativ modeldagi ierarxik holatini tahlil qilgan.

5. Ravshanxo‘ja Rasulov. (2021). *Til birliklarining o‘zaro munosabati: sintagmatic, paradigmatic va ierarxik tahlil*.

6. Arxiv.uz.

7. Retrieved from <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/til-birliklarining-o-zaro-munosabati-sintagmatic-paradigmatic-va-ierarxik-munosabatlar>

8. Hamid Ne‘matov. (2019). *Til sathi birliklari o‘rtasidagi paradigmatic, sintagmatic va ierarxik munosabatlar*.

II SHO‘BA

SISTEM VA STRUKTUR TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
SamDChTI professori,
filologiya fanlari doktori

MORFEMA VA SO‘Z O‘RTASIDAGI POG‘ANALI MUNOSABAT

Annotatsiya: Ushbu maqolada morfema bilan so‘z o‘rtasidagi pog‘anali munosabat yoritib berilgan. So‘z tilning ma‘no anglatuvchi ana shu kichik birligidan tashkil topadi va buning natijasida morfemadan tubdan farq qiluvchi yangi birlik vujudga keladi. Morfema bilan so‘z o‘rtasidagi pog‘onalilik ham aynan ana shunga asoslanadi. Ayni paytda so‘z o‘zining mustaqil til birligi ekanligi bilan nomustaqil til birliklari fonema va morfemalarga qarama-qarshi qo‘yiladi. Morfema ma‘lum bir ma‘no ifodasiga ega ekanligi bilan so‘zga yaqinroq turadi.

Kalit so‘zlar: morfema, fonema, pog‘anali munosabat, deskriptiv munosabat, morfematik sath, fonematik sath, fonologiya.

Morfema nafaqat o‘zining funksional faolligini ta‘minlash uchun, balki so‘zning shakllanishi va funksional qimmatga ega bo‘lishi uchun ham xizmat qiladi. Zotan, so‘z tilning ma‘no anglatuvchi ana shu kichik birligidan tashkil topadi va buning natijasida morfemadan tubdan farq qiluvchi yangi birlik vujudga keladi. Morfema bilan so‘z o‘rtasidagi pog‘onalilik ham aynan ana shunga asoslanadi. Ayni paytda so‘z o‘zining mustaqil til birligi ekanligi bilan nomustaqil til birliklari fonema va morfemalarga qarama-qarshi qo‘yiladi. Ravshanki, fonema mustaqil ma‘no anglatmaydi va u so‘zning yoxud morfemaning tovush qobig‘ini tashkil etadi. Morfema esa ma‘lum bir ma‘no ifodasiga ega ekanligi bilan so‘zga yaqinroq turadi. Bir qarashda, o‘zak morfema o‘z ifoda planiga ko‘ra real voqyelikni aks ettirgandek ko‘rinadi. Biroq grammatik jihatdan to‘laqonli emasligi uning real voqyelik ifodasini berishiga monelik qiladi, zotan, grammatik jihatdan to‘liq shakllangan til unsurinigina leksema maqomida deya olamiz¹. Shu bois so‘zning asosini tashkil etuvchi o‘zak morfemalarni, garchi ular konkret ma‘no ifodasini bersa ham, leksema bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Bu o‘rinda ham morfema bilan so‘z o‘rtasida mavjud bo‘lgan qarama-qarshilikka duch kelamiz. Agar ta‘bir joiz bo‘lsa, mazkur hodisani til qonuniyatlaridan biri va asosiysi deb atash mumkin. Bunga F.de Sossyur ham ishora qilgan edi: “...v yazyke net nichigo, krome razlichiy”².

¹ Қаранг: Левковская К.А. Теория слова, принципы её построения и аспекты изучения лексического материала. –М., 1962. -С.80-81.

² Соссюр Ф.де. Труды по языкознанию. –М., 1977.-С.152.

Morfema morfologiyaning eng kichik birligidir. R.Yakobson ta'biri bilan aytganda, morfema grammatikaning minimal abstrakt birligi sanaladi¹. Ana shu jihatiga ko'ra morfema o'zining ishtirokida tashkil topayotgan ontologik ma'no anglatuvchi so'zdan keskin farq qiladi. Y.Nayda bu xususda mulohaza yuritganida, tilning biror hodisasini ham boshqalarining ishtirokisiz tavsiflab bo'lmashligini, bu esa, o'z navbatida, fonematik, morfologik va sintaktik hodisalar har birini ikkinchisining ishtirokisiz o'rganish qiyinligini ko'rsatadi. Zotan, til biri ikkinchisidan ajratilgan strukturalarni taqozo etmaydi. U funksional yaxlitlikdan tashkil topgandir². Deskriptiv tilshunoslikda tilning har bir sathining voqyeli o'zidan oldingi sath birliklariga bog'liq ekanligi masalasiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Unga ko'ra, morfematik sath fonematik sath terminlari orqali, so'z sathi esa morfematik sath terminlari vositasida talqin etilishi lozimligi alohida ta'kidlanadi³.

Ingliz tilshunoslari U.S. Allen, S. Bayzell, R.F. Palmer, M. Xallidiylar esa har bir sath materiali tahlili o'zicha avtonom xarakterda bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar. Shu bois ular grammatika bilan fonologiya o'rtasida bevosita aloqa yo'q, degan g'oyani olg'a suradilar⁴. Bizningcha, mazkur g'oya bilan qo'shilish qiyin. Agar bunga amal qilinadigan bo'lsa, til sistemasining yaxlitligi masalasiga qarshi borgan bo'lamiz. To'g'ri, fonologiya bilan grammatika bir xil hodisalar talqini bilan shug'ullanadi deyish, haqiqatdan yiroqdir. Lekin shuni ham nazarda tutmog'imiz lozimki, fonologik unsurlar tilning har bir sathi, hatto nutqiy sathlar materiali doirasida ham yashaydi. M.Xallidiy morfemaning fonemalar majmuasidan yoki fonologik materialdan tashkil topishi uning lingvistik tahlili uchun asos bo'la olmasligini va umuman, fonologiya bilan grammatika o'rtasida bog'lanish mavjudligini inkor etadi⁵. Mazkur mulohazani ma'qullagan G.A.Klimov esa quyidagi xulosaga keladi: "Muayyan lingvistik sath birligi tabiatini ikkinchi sath birligi terminlari vositasida talqin etish maqsadga nomuvofiqdir"⁶. G.A.Klimov o'z fikri dalilini V.V.Ivanov tomonidan bu haqda aytilgan mulohazalar bilan himoyalamoqchi bo'ladi. Vaholanki, V.V.Ivanov til sathlari munosabati xususida boshqacharoq fikr bildirganini ko'ramiz: "Morfologik kodning har bir birligi (morfema) yo fonologik kod (fonema) birliklari majmuasi tarzida, yoki grafik kodning birliklari (grafemalar) ketma-ket kelishi tarzida talqin etilishi mumkin"⁷.

¹Қаранг: Новак Л. Основная единица грамматической системы и типологии языка// Пражский лингвистический кружок. –М., 1967.-С.210.

² Қаранг: Nida E. Morphology: the descriptive analysis of words.2 ed. Ann Arbor, 1949.-P.2-3.

³ Қаранг: Bloch V. and Trager G. Outline of linguistic analysis. –Baltimore, 1942. -С.53.

⁴ Қаранг: Климов Г.А. Фонема и морфема. –М.,1967.-С.65.

⁵ Қаранг: Halliday M.A.K. Categories of the Theory of Grammar. "Word", v. 17, 1961, №3. -P.281.

⁶ Климов Г.А. Фонема и морфема.-С.107.

⁷ В.В.Ивановнинг фикри Г.Климовнинг кўрсатилган асаридан олинмоқда (80-бет).

N.D.Arutyunova deskriptivistlar tomonidan iste'molga kiritilgan morf(a) tushunchasiga ijobiy baho bermaydi¹ hamda morfemaning fonemalardan tashkil topishi haqida tilshunoslikda mavjud fikr va mulohazalarga ham qarshi chiqadi. Uning ta'kidlashiga ko'ra, fonematik sath morfematik sathdan tilning gorizontol modelida oldin kela olmaydi. Amaldagi "...dan tashkil topadi" tushunchasi ana shu bois fonema bilan morfemaning munosabatini xarakterlay olmaydi².

M.M.Guxmanning tadqiqotlarida asosiy e'tibor so'z bilan morfema o'rtasidagi iyerarxik munosabat masalasiga qaratilganini ko'ramiz. M.M. Guxman mazkur masala tavsifini morf va so'zshakl materialini asosida yoritishga harakat qiladi. Bunda olimning quyidagi mulohazalari e'tiborga molikdir: "...morfologik sathning birligi sifatida faqat morfemaning o'zini belgilash so'z yasovchi va shakl yasovchi formalarni farqlash imkoniyatini chegaralab qo'yadi. Ikkinchi tomondan esa, fonologik sath doirasida differensial belgi elementar birlik sifatida emas, balki mazkur sathdan yuqori turuvchi sath birligi morfemaning elementar birligi komponenti fonema bo'lganidek, so'zshakl ham o'zidan yuqori sintaktik sath elementar birligi – so'z birikmalari komponenti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ammo grammatik birliklar ikki o'lchamli bo'lganligi bois, grammatik sistemani fonologik sistemaga nisbatan murakkab iyerarxik xarakter kasb etishga olib keladi"³.

Ko'p paytlarda so'z o'zak morfema tarzida qo'llanishi ham mumkin. Bunday vaziyatda morfema bilan so'z o'rtasida sodir bo'luvchi pog'onali munosabat mavhumlashganga o'xshab ko'rinadi. Biroq masala mohiyatiga jiddiyroq yondashganimizda, morfema bilan so'z o'rtasida ayni paytda ham to'laqonli pog'onali munosabat shakllanayotganini kuzatamiz. Masalan, ingliz va o'zbek tillaridagi *happy- baxt* so'zining lingvistik holatiga e'tibor beraylik. Mazkur so'z ayni paytda o'zak morfema talabiga ham to'liq javob bera oladi, zotan, uni ma'noli qism-larga ajratib bo'lmaydi. Ammo bir paytning o'zida u so'z maqomiga ham egadir. Demak, mazkur ikki tushunchaning har biri tilning alohida sathlari birliklari sanaladi. Bundan tashqari, **baxt** so'zining (yoki o'zak morfemasining) nol morfemalar bilan munosabati ham mavjud bo'lib, bu munosabat orqali differensial belgilar ifodalanishini kuzatamiz: Baxt – o'zak morfema; baxt=ot, baxt–mavhum ot, baxt–birlik tushunchasi, baxt–bosh kelishik. Bu belgilar, albatta, so'zga tegishli bo'lib, uning grammatik ma'nolarini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, ayni paytda so'z sathida ichki pog'onalilik hodisasi sodir bo'lmoqda.

So'zshaklda nol ifodali morfemalar orqali anglashilishi mumkin bo'lgan grammatik ma'nolar haqida I.I.Revzin va G.D.Yuldashevalarning tadqiqot ishlarida berilgan ma'lumot diqqatga sazovordir. Bunda **yo'z** fe'l shaklida nol morfema vositasida ifodalanayotgan

¹ Арутюнова Н.Д. О значимых единицах языка // Исследования по общей теории грамматики. –М., 1968. - С.71;99.

² Арутюнова Н.Д. Курсатилган иш, 88-бет.

³ Гухман М.М. Грамматическая категория и структура парадигм// Исследования по общей теории грамматики. –М., 1968.-С.123.

differensial belgilar quyidagi tartibda ko'rsatib beriladi: yoz+ θ_1 + θ_2 + θ_3 + θ_4 + θ_5 + θ_6 + θ_7 . Ayni paytda ma'no ifodalanishi o'zak bilan bog'liq bo'lgan barcha nollar o'ziga xos tushuncha berayotgani, aniqrog'i, 1,2,3,4,7 holatlarda nol orqali inkor, 5,6 holatlarda esa bo'lishlilik ma'nosi ifodalanayotgani eslatiladi¹.

Mazkur ma'no ifodalarining o'zbekcha tavsifini berish ancha murakkab. Shu bois bu o'rinda V.B.Kasevichning ularga bergan izohini keltiramiz: θ_1 –neintinsivnost (inkor), θ_2 –nevozvratnost(inkor), θ_3 –nekauzativnost (in-kor), θ_4 –neotrisatelnost (inkor), θ_5 –povelitelnost(tasdiq), θ_6 –2l. yed. chis. (tasdiq), θ_7 –nevoprositelnost (inkor)².

Ko'rinadiki, berilgan so'zshaklni o'zak morfema deb oladigan bo'lsak, ayni paytda, abstrakt holatda bo'lsa-da, so'zshakl bilan nol morfemalar o'rtasida sodir bo'layotgan ichki pog'onalikni kuzatamiz.

Ravshanki, morfema strukturasi o'rganishimizda so'zga emas, balki fonemalarga murojaat etamiz. Zotan, til birliklarining pog'onali munosabati ana shu tartibdagi bog'lanishni taqozo etadi. Bu o'rinda A.M.Muxinning quyidagi mulohazasini keltirish maqsadga muvofiqdir: "Gap strukturasi talqin etishda tilshunos so'z turkumlari tushunchasiga murojaat etishi mumkin. Biroq so'z turkumlarini o'rganishda gap tushunchasiga ehtiyoj sezilmaydi. Ana shuning o'zi ham muayyan ketma-ketlikni taqozo etuvchi iyerarxiya tushunchasi haqida tasavvur uyg'otadi"³.

Albatta, so'z komponentlari uning struktur ko'rinishlarini tashkil etuvchi morfemalar sanaladi⁴. Biroq ba'zi morfemalar shaklan so'zga tengdir. Ular jumlasiga grammatik ma'no ifodalovchi ko'makchi va bog'lovchilar-ni, so'z qolipida keluvchi o'zak morfemalarni kiritish mumkin. Bunday vaziyatda mazkur unsurlar bir paytning o'zida so'zni ham, morfemani ham taqozo eta oladi. Bu haqda A.S.Gerd quyidagilarni ta'kidlaydi: "Tilda muayyan birliklarning goh morfema, goh so'z sifatida kelishi biror muammo paydo bo'lishiga sabab bo'lolmaydi. Zotan, bir fonemadan tashkil topgan morfemalar bo'lganidek, bir morfemadan tashkil topgan so'zlar ham bor"⁵.

B.S.Xaymovich so'z morfemalar haqida mulohaza yuritganida Ye.Kurilovich ortidan borib, ayni paytda shakliga ko'ra muayyan bir sathga, mazmuniga ko'ra esa boshqa bir sathga tegishli bo'lgan oraliq birlik vujudga kelishini aytadi⁶. Darhaqiqat, so'zni taqozo etuvchi

¹ Қаранг: Ревзин И.И., Юлдашева Г.Д. Грамматика порядков и её использования// Вопросы языкознания, 1969, №1. -С.52.

²Қаранг: Касевич В.Б. Семантика. Синтаксис. Морфология. –М., 1988.-С.158.

³ Мухин А.М. Части речи и морфемы (в связи с проблемой уровни языка) // Уровни языка и их взаимодействие. –М.,1967.

⁴ Қаранг: Герд А.С. Морфемика в её отношении к лексикологии// Вопросы языкознания, 1990, №5.-С.7.

⁵ Герд А.С. Ўша мақола, 9-бет.

⁶ Қаранг: Хаймович Б.С. Уровни языка и разделы лингвистики//Уровни языка и их взаимодействие. –М., 1967.-С.161.

morfemalar shaklan morfema, mazmunan esa soʻz vazifasida keladi. Koʻp komponentli soʻzlarda esa morfemalarning qoʻllanilishi tartibi oʻzak morfemaga nisbatan belgilanadi. Bu jarayonda morfemalarning distributiv munosabatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, -ga morfemasining -ka, -qa allomorflari qoʻllanilishida allomorflarning soʻz sathidagi faoliyati qoʻshimcha distribusiya qoidasiga boʻysunadi. Zotan, ularning biri qoʻllanilgan qurshovda ikkinchisi qoʻllana olmaydi: bargga, bugʻga, tokka, yoʻlakka, qishloqqa, buyruqqa va h.k. Baʼzi holatlarda soʻz sathida morfemalar almashinib qoʻllanadi. Bunday vaziyatda ular erkin almashinuv distribusiya-si taʼsirida faollik koʻrsatadi: *moshdek – moshday, odamday – odamdek, zich-lan-moq, zich-lash-moq, non-paz – nov-voy* va h.k. Kontrast distribusiya taʼsi-rida boʻlgan morfemalar esa oʻzakka nisbatan bir xil qurshovda kelib, turli-cha maʼno ifodalarini beradi: *maktab-ga, maktab-da, maktab-dan* va h.k. Ingliz tilida team [tʰi:m] va steam [sti:m].

Shuni taʼkidlash lozimki, soʻz sathida morfemalar qaytartibda qoʻlla-nilgan boʻlsa, shu holatda soʻz bilan pogʻonali munosabat tashkil etadi. Bu xususda oʻzbek tili materiali asosida mulohaza bildirganida N.K.Yakubova quyidagilarni qayd etadi: “Oʻzbek tilida har qanday soʻzshakl birinchi oʻzak morfema va undan soʻng affiks morfemalar ketma-ketligini taqozo etadi”¹.

Shunday qilib, morfema bilan soʻz oʻrtasidagi pogʻonali munosabatni soʻz doirasida belgilay olamiz. Bunda soʻz sathiga kirayotgan har bir morfemaning shu obyektida tutgan oʻrni ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Герд А.С. Морфемика в её отношении к лексикологии // Вопросы языкознания, 1990, №5. с. 5-11.
2. Климов Г.А. Фонема и морфема. –М.: Наука, 1967, 127 с.
3. Левковская К.А. Теория слова, принципы её построения и аспекты изучения лексического материала. –М.: Высшая школа, 1962, 294 с.
4. Мухин А.М. Части речи и морфемы (в связи с проблемой уровни языка)//Уровни языка и их взаимодействие. –М.:Изд. МГПИИЯ, 1967, (108-112), 182 с.
5. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1990, 46 б.
6. Соссюр Ф.де. Избранные труды по языкознанию. –М.:Прогресс,1977,695 с.
7. Турниёзов Н. Тил ва нутқ бирликлари ҳақида баъзи мулоҳазалар// Хогʻijiy filologiya, 2006, №1, 28-30 б.
8. Turniyozov N., Turniyozova K., Xayrullayev X. Struktur sintaksis asoslari //Samarqand: SamDCHTI. – 2009.

¹ Якубова Н.К. Правила формального синтеза узбекских словоформ // Система и уровни языка. –М.,1969.- С.141.

9. Хайруллаев Х. З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати //Номзод. дис автореферати. Тошкент. – 2001.
10. Хайруллаев Х. О лингвистической природе уровней языка и речи //Вопросы филологических наук. – 2009. – №. 2. – С. 78-79.
11. Хайруллаев Х. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. – 2002.
12. Khayrullaev K. Z. The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness //Abstract of candidate dissertation.–Tashkent. – 2001.
13. Хайруллаев Х.З. Нутқ бирликларининг поғонали муносабати. –Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2008, 80 б.

A.Turobov SamDCHTI
professori, filologiya fanlari doktori

“YOSH GRAMMATIKACHILAR” MAKTABI TADQIQI XUSUSIDA

XIX asrning oxirlarida Leypsig universitetida shakllangan “Yosh grammatikachilar maktabi” tilshunoslik tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu maktab vakillari A.Leskin (1840-1916) K.Brugman (1849-1919), G.Ostgof (1842-1907), G.Paul (1946-1921), B.Delbryuk (1842-1922) kabi nemis tilshunos olimlari qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda shakllangan umumiy nazariy tamoyillarni qayta ko‘rib chiqib, tilni o‘rganishda empirik va eksperimental metodlarga asoslanish zarurligini ilgari surdilar. Ular o‘zlarini “eski grammatikachilar”ga qarshi qo‘ygan holda, til taraqqiyotini inson psixologiyasi va individual nutqiy faoliyat bilan bog‘lashga intildilar.

Yosh grammatikachilik qarashlari jahon tilshunosligida keng tarqalgan. Ularni Fransiyada M.Breal, Shveysariyada F.de Sossyur, Rossiyada F.F.Fortunatov va I.A.Boduen de Kurtene kabi bir necha tilshunoslarning asarlarida ko‘rish mumkin. Yosh grammatikachilik tarixiy fonetikalarda va muayyan tillarning grammatikalarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Yosh grammatikachilar ta’limotining asosiy g‘oyasi til o‘zgarishlari tasodifiy emas, balki qat’iy qonuniyatlarga bo‘ysunadi, degan tamoyildir. Ularning fikricha, fonetik o‘zgarishlar istisnosiz qonunlar asosida yuz beradi va bu qonunlar barcha nutq egalariga teng ta’sir etadi. Shu jihatdan ular tarixiy fonetika va qonuniy o‘zgarishlar nazariyasini ishlab chiqdilar. Bu yondashuv qiyosiy-tarixiy metodni yanada aniqlashtirdi va til o‘zgarishlarini ilmiy kuzatish asosida izohlash imkonini berdi.

Shuningdek, yosh grammatikachilar til taraqqiyotida individning rolini yuqori baholadilar. Ular til o‘zgarishining manbai jamiyat emas, balki yakka shaxsning nutq faoliyati ekanligini ta’kidladilar. Bu g‘oya keyinchalik psixologizm oqimi, shuningdek, F. de Sossyurning “til va nutq” konsepsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Tilni o‘zgaruvchan, har bir nutq jarayonida yangilanib boruvchi tizim sifatida talqin etish yosh grammatikachilar ta’limotining muhim natijalaridan biri bo‘ldi.

Bu maktabning ta’siri Yevropa tilshunosligidan tashqarida ham sezilarli bo‘ldi. Masalan, Fransiyada M.Breal, Shveysariyada F. de Sossyur, Rossiyada F.F.Fortunatov va I.A.Boduen de Kurtene singari olimlar ularning ilmiy yondashuvlaridan ijodiy foydalandilar. Natijada yosh grammatikachilar qarashlari struktur, funksional va psixolingvistik yo‘nalishlarning shakllanishi uchun tayanch bo‘ldi.

Yosh grammatikachilar maktabi tilshunoslik tarixida empiriklik, qonuniylik va individual psixologik faoliyatga tayangan ilmiy paradigmani yaratdi. Ularning faoliyati natijasida til o'zgarishlari bevosita kuzatuv va tajriba asosida izohlanadigan, qat'iy qonunlarga bo'ysunadigan tabiiy jarayon sifatida talqin qilina boshlandi. Shu bilan birga, ularning metodologiyasi keyinchalik Sossyur asos solgan struktur tilshunoslikning shakllanishiga ilmiy asos bo'lib xizmat qildi.

K.Brugman va G.Ostofning "Morfologik tadqiqotlar" nomli to'plamga yozgan "So'z boshi" yosh grammatikachilarning yo'l xaritasi vazifasini bajaradi (1878).

B.Delbyurning "Hind-Yevropa tillarini o'rganishga kirish" (1880). G.Paulning "Til tarixi prinsiplari" (1880, ruscha tarjimasini 1960), K.Brugman va B.Delbryurning "Hind-Yevropa tillari qiyosiy grammatikasining asoslari" (1886-1900), A.Leskining "Qadimgi bolgar (cherkov-slavyan) tilining grammatikasi" (1909-1915) Yosh grammatikachilarning asosiy asarlari hisoblanadi. Bulardan G.Paulning "Til tarixi prinsiplari", "Yosh grammatikachilarning ensiklopediyasi"dir.

Yosh grammatikachilar tilni individual psixofiziologik faoliyat sifatida tushuntiradilar. Shuning uchun ular tildagi barcha o'zgarishlarni ham yakka shaxsning "odatdagi nutq faoliyati" misolida ko'radilar.

Yosh grammatikachilar tilda ikki xil faoliyat borligini ko'rsatadilar:

- a) tilning individual psixologik faoliyati;
- b) tilning fiziologik faoliyati, fonetik faoliyati o'zgarishlarda ko'rinadi [A.Turobov, 2020: 94].

Shuning uchun ular, F.M.Berezinning ko'rsatishicha, tilshunoslikni psixologiya, fiziologiya, logika va sotsiologiya kogniomeratidan, ya'ni quramasidan iborat deb bilganlar [F.M.Berezin, 1984: 263].

Shuning uchun ular nashr qildirgan tarixiy grammatikalar ham asosan mazmunan tarixiy fonetikadan iborat bo'lgan.

Yosh grammatikachilar til sistemasiga yetarli e'tibor bermas edilar.

Hatto ular tildagi ayrim hodisalarni boshqa hodisalardan ajratgan holda tekshirishni tavsiya qilar edilar. Til elementlariga bo'lgan bunday munosabat yosh grammatikachilar ta'limotida "atomizm" deyildi [A.Turobov, 2010: 93].

Atomizm atom o'zagidan olingan bo'lib tildagi bir hodisani boshqa hodisalarga qo'shmasdan ajratib o'rganish demakdir.

Berilgan matnga ilmiy nuqtayi nazardan yondashilsa, yosh grammatikachilar maktabining "atomizm" tamoyiliga asoslangan metodologiyasi o'z davrida muhim tarixiy bosqich bo'lganini e'tirof etish lozim. Biroq bu yondashuv til tizimini yaxlit hodisa sifatida ko'rish imkonini cheklagan. Ularning tildagi har bir unurni alohida, izolyatsiyada o'rganish tamoyili, bir tomondan, tilshunoslikni empirik asosda chuqurlashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, tilning ichki tuzilmasi, tizimliliigi va o'zaro bog'liqlik xususiyatlarini inkor etgan.

Yosh grammatikachilar tildagi o'zgarishlarning sababini tashqi – ekstralingvistik faktorlardan emas, balki ichki – lingvistik faktorlardan qidirish lozimligini alohida qayd etdilar [R.Rasulov, 2017: 91]. Yosh grammatikachilar tomonidan tildagi o'zgarishlarning sababini ichki – lingvistik omillar bilan izohlash zarurligi haqidagi qarash o'z davrida tilshunoslikdagi yirik burilish nuqtasi bo'lgan. Chunki bu yondashuv tilni tashqi omillar (ijtimoiy, siyosiy, madaniy) ta'sirida shakllanadigan hodisa sifatida emas, balki o'z ichki tizim qonuniyatlariga ega mustaqil tizim sifatida tushunishga imkon berdi. Shunday qilib, yosh grammatikachilar til o'zgarishining

tizimiy sabablarini — fonetik muvozanat, paradigmatic va sintagmatic bog‘lanishlar, analogiya, assimilyatsiya kabi struktur qonuniyatlar bilan izohlashga e‘tibor qaratdilar.

Biroq bu yondashuvning cheklangan jihati shundaki, ular tilni ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rishni deyarli rad etdilar. Natijada, tilning kommunikativ va ijtimoiy funksiyalari, ya‘ni nutq faoliyati, sotsiokultural omillar, til o‘zgarishining tashqi motivatsiyasi yetarlicha inobatga olinmadi. Shu bois yosh grammatikachilar maktabi til tizimining ichki mexanizmlarini chuqur tahlil qilishda katta yutuqqa erishgan bo‘lsa-da, ularning nazariy qarashlari keyingi strukturalizm va funksionalizm oqimlariga o‘tish uchun tayanch bo‘lib xizmat qilgan, ammo o‘zi mustaqil holda kompleks til hodisalarini to‘liq tushuntirib bera olmagan.

Til o‘zgarishini ichki lingvistik sabablar orqali izohlash g‘oyasi bilan til tizimining mustaqilligi va qonuniyatligini isbotlab bergan, yosh grammatikachilar tahlilida til “mexanik birliklar majmui” sifatida tasavvur qilingan, bu esa keyinchalik struktur tilshunoslik tomonidan tanqid qilinib, “til – bu tizim” degan tamoyilning shakllanishiga zamin yaratgan.

Yosh grammatikachilar maktabi XIX asr oxirida tilshunoslik tarixida muhim burilish yasagan oqimlardan biridir. Bu maktab vakillari: A.Leskin, K.Brugman, G.Paul, G.Ostgof, B.Delbryuk kabi olimlar tilni tarixiy hodisa sifatida izchil qonuniyatlarga bo‘ysunuvchi tizim deb qaragan bo‘lsalar-da, ularning asosiy e‘tibori tilning fonetik rivojlanishiga qaratilgan edi. Ular “har bir tovush o‘z qonuni asosida o‘zgaradi” degan tamoyilni ilgari surib, tarixiy fonetika sohasini mustaqil yo‘nalish sifatida shakllantirdilar.

Biroq yosh grammatikachilar tildagi murakkab munosabatlar tizimini yetarlicha inobatga olmaganlar. Ularning “atomistik” yondashuvi tildagi hodisalarni bir-biridan ajratib o‘rganishga olib kelgan, natijada tilning tizimliliigi, sotsial va psixologik omillar bilan bog‘liqligi e‘tibordan chetda qolgan. Shu sababli ularning nazariyasi keyinchalik neogrammatizmga tanqidiy munosabat bildirgan struktur tilshunoslikning shakllanishiga turtki bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, yosh grammatikachilar maktabi o‘z davrida tilshunoslikni empirik asosda chuqurlashtirgan, fonetik qonuniyatlarni ilmiy asoslashga erishgan va tarixiy-lisoniy tadqiqotlarga metodologik aniqlik kiritgan oqim sifatida baholanadi. Shu bilan birga, bu maktab tilning ijtimoiy, semantik va tizimli xususiyatlarini yetarli darajada qamrab ololmagani sababli, uning g‘oyalari keyingi davrda yangicha ilmiy paradigmalarga, xususan, strukturalizm va funksionalizmga yo‘l ochib bergan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Березин Ф.М. История лингвистических учений. – М. 1984. – 319 с.
2. Turobov A. Umumiy tilshunoslik. – Samarqand: SamDCHTI nashri, 2020 - yil, 240 b.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017 yil, – 312 b.
4. Туробов А. Атомар предикат ҳақида баъзи қайдлар / Систем-структур тилшунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. СамДЧТИ нашри, 2010 йил, 93-95 б.
5. Лингвистический энциклопедический словарь/ гл. ред. В.Н. Ярцева. – 2-е изд., доп. –М. : Большая рос. Энцикл., 2002. – 709 с.

Фалеева Анастасия Вадимовна
PhD, и.о. доц. СамГИИЯ
faleyevanastya97@mail.ru

ЭКСКУРС В ПРОБЛЕМУ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ И ФОНЕТИКО-ФОНОЛОГИЧЕСКОЙ УРОВНЕВОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ БРИТАНСКОГО ВАРИАНТА РАЗГОВОРНОГО АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В статье проводится краткий анализ современного состояния лексико-семантических особенностей британского варианта разговорного английского языка на примере эвфемизации и обходных формул. Исследование также охватывает фонетико-фонологический структурный уровень языка на базе региональных акцентов и интонационных паттернов.

Ключевые слова: британский английский, лексико-семантический уровень, фонетико-фонологический уровень, коллоквиализмы, сленг.

Актуальность исследования обусловлена: необходимостью переоценки роли разговорной лексики в современной языковой системе, растущим интересом к включению коллоквиальной лексики в электронные и корпусные словари, потребностью в разработке новых лингводидактических подходов, ориентированных на реалии живой разговорной речи;

Лексико-семантические особенности разговорного английского языка

Особое место в этой системе занимает коллоквиальная лексика – один из наиболее динамичных и социокультурно нагруженных компонентов национального языка [20, с. 22; 23, с. 204].

Коллоквиализмы представляют собой лексические единицы, используемые преимущественно в неофициальной устной речи [7, с. 42; 19, с. 24], которые обладают высокой прагматической ценностью [1, с. 25; 11, с. 193] и культурной метафоричностью [3, с. 72, 25, с. 29].

Эти единицы не только выполняют функцию экспрессивной экономии [16, с. 10], но и служат важными идентификационными и социально-маркирующими инструментами, отражающими принадлежность говорящего к определённой возрастной, профессиональной или региональной группе.

В британском английском коллоквиализмы охватывают широкий спектр семантических полей – от эмоциональной оценки до выражения повседневного опыта – и демонстрируют сложную систему регионального варьирования.

В последние десятилетия наблюдается значительный рост интереса к коллоквиальной лексике как к предмету самостоятельного исследования. Тем не менее, многие работы ограничиваются описанием отдельных лексем или их тематической группировкой.

Системная же уровневая интерпретация коллоквиализмов остаётся на периферии лингвистического анализа. Между тем, именно такой подход позволяет рассматривать коллоквиализм как языковое явление не только с лексико-семантической точки зрения, но и как элемент более широкой языковой структуры – фонетико-фонологической, морфологической, прагматической и дискурсивной.

Британский вариант английского широко использует эвфемизмы, особенно в темах, связанных с болезнями, смертью, телесностью, финансами или выражением недовольства. Это выражается в подмене «неудобных» или потенциально грубых слов нейтральными или иносказательными выражениями:

He passed away (вместо *he died*) [27, с. 356];

Between jobs (вместо *unemployed*) [17, с. 63];

Let go (вместо *fired*) [8, с. 8];

Use the loo (вместо *go to the toilet*) [10, с. 13].

Эвфемизация является не просто речевой практикой, но частью прагматического кода вежливости, встроенного в национальное сознание. Неспособность распознать или использовать такие формы может привести к социокоммуникативной неадекватности,

Региональные акценты и их признаки

Британский английский включает десятки региональных акцентов, каждый из которых может быть идентифицирован по ряду фонетических параметров. Некоторые из них:

Cockney (восточный Лондон): глоттализация: *butter* → ['bʌʔə]; *h-dropping*: *house* → [aʊs]; *th-fronting*: *think* → [fɪŋk], *three* → [fri:] [6, с. 20].

Scouse (Ливерпуль): специфическое поднятие гласных: *book* → [bu:k] [9, с. 10]; характерная ротация интонационных контуров; лингвистическая интенсификация согласных: *going* → ['gɔɪŋg] [2, с. 26].

Geordie (Ньюкасл): сохранение rhoticity: *car* → [ka:l]; замена /ʌ/ на /ɒ/: *love* → [lɒv] [13, с. 541]; лексико-фонетические архаизмы.

Estuary English: промежуточный акцент между *RP* и *cockney*; использование *glottal stops* [12, с. 129], *yod-coalescence* [22, с. 60], *vowel fronting* [4, с. 47] распространён в южной Англии и в среде образованной молодёжи.

Brummie (Бирмингем): носовая окраска гласных; *distinctive intonation patterns* [21, с. 101]; сохранение /ŋg/ в глагольных формах: *singing* → ['sɪŋgɪŋ] [26, с. 338].

Фонетическая вариативность делает британский английский особенно богатым материалом для социофонетического анализа. Коллоквиализмы нередко привязаны к региональному акценту, формируя акцентные маркеры групповой принадлежности.

Так, *innit* [15, с. 89] вместо *isn't it* [14, с. 72] активно используется в Cockney, а *chuffed* [28] – в северных графствах.

Просодика и интонационные паттерны

Просодический строй британского английского также варьирует в зависимости от регистра. В коллоквиальной речи наблюдается: повышенная мелодическая вариативность (высокая интонационная амплитуда в эмоциоэкспрессивной речи); *final rise* [18, с. 20] – восходящая интонация на конце утверждения, особенно в молодёжной речи и в диалогах [5, с. 50]; ужатие ударных слогов с удлинением финального, особенно в полуинтонационных паузах.

RP [24, с. 46] же характеризуется строгой ритмической структурой, чёткой реализацией фразового ударения и плавным падением интонации в нейтральных утверждениях.

Таким образом, фонетико-фонологический уровень BrE демонстрирует двойственную природу: с одной стороны, наличие нормативного, стандартизированного акцента RP, с другой – широкое и стилистически продуктивное поле коллоквиальной и региональной фонетики, обеспечивающей богатство идентификационных, экспрессивных и прагматических функций в рамках национального варианта английского языка.

Список использованной литературы

1. Бушуй Т.А. Фразаографирование в контрастивном лексическом словаре методом гнездообразования // Филологические науки. - Тамбов: Грамота, 2010. - № 2 (6). - С. 25.
2. Бушуй Т.А. Язык в системной структуре. – Издательство "Fan", 2014. – 232 с.

3. Бушуй Т.А. Открытость и динамичность системы языка // *Современные гуманитарные исследования*. – 2015. – №. 2. – С. 70-73.
4. Бушуй Т.А. Опыт преподавания языковедческих дисциплин в вузах Узбекистана // *European Research: Innovation in Science, Education and Technology*. – 2018. – С. 46-48.
5. Бушуй Т.А. Проблема языка и нации в лингвокультурологическом аспекте // *International scientific review*. – 2019. – №. LVI. – С. 48-50.
6. Бушуй Т. Языкознание: прошлое, настоящее и будущее // Т.: Янги аср авлоди. – 2020. – 184 с.
7. Бушуй Т.А. Краткий экскурс в современную немецкую лексикографию // *Язык и культура*. – 2021. – С. 40-46.
8. Бушуй Т.А. Neolexicography: Problems and Prospectives // *Международный журнал языка, образования, перевода*. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 7-15.
9. Бушуй Т.А. Современный словарь как продукт определенной научной концепции // *IQRO*. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 10.
10. Бушуй Т. Когнитивные особенности функционально-тематических групп арготизмов русского языка // *Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков*. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 12-17.
11. Фалеева А.В. Отражение лексико-семантических особенностей скрытого смысла коллоквиализмов-зоонимов в лексикографических источниках // *Вестник Челябинского государственного университета*. – 2021. – №. 9 (455). – С. 192-199.
12. Фалеева А.В. Тематическая дифференциация коллоквиализмов с имплицитным значением в лексикографических источниках // *Вестник Челябинского государственного университета*. – 2022. – №. 7 (465). – С. 128-136.
13. Фалеева А.В. Лексико-семантические и деривационные особенности коллоквиальных акронимов и бэкронимов в современных печатных и электронных лексикографических источниках // *Miasto Przyszłości*. – 2023. – Т. 35. – С. 540-543.
14. Фалеева Е.В. Неологический бум в английском языке: проблемы и перспективы // *International scientific review*. – 2022. – №. LXXXVI. – С. 70-74.
15. Фалеева Е.В. Неологопроцессы Современного Английского Языка // *Miasto Przyszłości*. – 2023. – Т. 39. – С. 88-92.
16. Bushuy T. Contextual actualization of phraseology in English expressions // *Scientific Enquiry in the Contemporary World: Theoretical Basics and Innovative Approach*. – 2015. – С. 81.
17. Bushuy T.A. The Emergence of Language Multitude // *Scientific reports of Bukhara State University*. – 2018. – Т. 1. – №. 3. – С. 62-67.
18. Bushuy T., & Khayrullaev K. Life of Word during Coronavirus. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(8), 2022. – С. 19–28. URL: <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/2613>.
19. Bushuy T.A. (2023). Language in Modern Linguistics. *Miasto Przyszłości*, 39, P. 23–26. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1678>
20. Bushuy T. Features of Representation of Some Word Forms and Meanings of Phraseological Units in Contrastive Lexicographical Sources // *Международный журнал языка, образования, перевода*. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – 22 с.
21. Faleyeva A.V. Derivational peculiarities of colloquial words in modern English dictionaries // *Язык и культура*. – 2021. – С. 99-104.

22. Faleeva A.V. Investigation of the Colloquial Formation of Modern English Language // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 59-67.
23. Faleeva A.V. Grammatical, Semantic and Structural Features of English Colloquial Words and Expressions // International Journal of Language Learning and Applied Linguistics. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 202-206.
24. Faleeva A.V. Theoretical Interpretation of American Colloquialistics in Lexicographical Sources // Илм-фан yangiliklari konferensiyasi. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – P. 45-48
25. Faleeva A. Theoretical and Practical Research of the Formation of Colloquialistics of the English Language in Level Interpretation // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 28-36.
26. Faleeva A.V. Traditions and Innovations in the Study of English Colloquialistics in the Perspective of Modern Printed and Electronic Lexicographical Sources // Academic research in educational sciences. – 2024. – Т. 5. – №. CSPU Conference 1. – С. 337-341.
27. Vadimovna, Faleeva Anastasiya. "Theoretical Experience and Representation of English Colloquial Lexis in Dictionary Interpretation (Based on the Concise New Partridge Dictionary of Slang and Unconventional English)." Miasto Przyszłości 56 (2025): 355-359.
28. Urban Dictionary Online URL: <https://www.urbandictionary.com/>

D.Sh.Mamirova SamDCHTI dotsenti

OLMOSH SO'Z TURKUMINING REKLAMA MATNLARIDA QO'LLANILISHI

Annotatsiya. Maqolada reklama matnlarida olmosh so'z turkumining qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlari misollar asosida asoslab yoritilgan. Olmoshlarning ma'no turlaridan shaxs o'rnida almashinib qo'llanuvchi olmoshlar faol ekanligi isbotlangan.

Kalit so'zlar: almashinish, obyekt, shaxs, predmet, pragmatik ma'no, ekspressivlik.

Jahon va o'zbek tilshunosligida yaratilgan boy nazariy ma'lumotlarga tayangan holda reklama tilining grammatik xususiyatlarini o'rganish reklama matnini yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning ifodali vositalari reklama qilinayotgan mahsulotning muhim qirralarini ochish uchun zarurdir.

Har qanday reklama matni reklama qilingan tovarlar yoki xizmatlar, ishlab chiqaruvchilar yoki yetkazib beruvchilar to'g'risida ma'lumot beradi. Shuning uchun tegishli olmoshlardan foydalanish axborot funksiyasini amalga oshiradigan vosita hisoblanadi.

Reklamada oz miqdorda olmosh so'z turkumi ham qo'llanadi. Olmosh turkumiga mansub so'zlar obyektlarni, ularning belgilarini, miqdorini yoki sanash tartibini bildirmaydi, ularga faqat ishora qiladi, xolos. Olmoshning ma'no turlaridan kishilik olmoshlari reklama matnlarida keng qo'llaniladi. Kishilik olmoshlari shaxs bildiradi (siz, biz, ular, siz); o'zlik olmoshi belgi bilan shaxsning aloqasini bildiradi va shaxsga tegishli bo'lgan so'zlar o'rnida almashinib keladi (meniki, seniki, bizniki); ko'rsatish olmoshlari obyektlarni, ularning sifatini yoki miqdorini ko'rsatadi (bu, shuncha, bunday, shunday); so'roq olmoshlari shaxs, predmet, belgi (kim, nima, qanday) haqidagi savollarni o'z ichiga oladi; jamlovchi olmoshlar umumlashtirilgan xususiyatini bildiradi (barchasi, har biri, har xil); gumon olmoshlari noma'lum, noaniq shaxslarni, obyektlarni, ularning belgilarini (biror narsani, kimnidir, nimanidir) bildiradi; bo'lishsizlik olmoshlari shaxsning, narsaning mavjud emasligini yoki ularning belgisini bildiradi (hech narsa, hech kim, hech qanday).

Reklama matnida olmoshlarni tanlab qo'llash bir qator omillarga, shu jumladan, mahsulot

toifasiga va maqsadli auditoriyaga tegishli bo'lishiga bog'liq. Masalan, «siz» olmoshi ishlab chiqaruvchi va xaridor o'rtasidagi rasmiy munosabatni belgilaydi, muloqot natijasida hurmat va ikkinchisiga xizmat qilishga tayyorligi namoyon bo'ladi: Siz ma'lum darajaga yetganingizda, ko'zdan yashirilgan narsalarni qadrlay boshlaysiz. Yangi Cadillac SRX sizga yo'lda butunlay yangi tajriba beradi (mashina reklamasi). Bundan tashqari, «siz» olmoshi mahsulot yaratuvchisini xaridorga yaqinlashtiradi: BUKVA UZ reklama agentligi - biz har doim sizning biznesingiz rivojlanishi va gullab-yashnashi uchun, sizga keng reklama xizmatlarini taklif qilishdan xursandmiz!

Reklamalarda kishilik olmoshining birinchi shaxs birlikda qo'llanilishi reklama belgilarining aniq tajriba asosida tavsifiya qilinayotganligini belgilaydi: Men shunchaki pushti rang (lab bo'yog'i)ni sevib qoldim; Loreal. Axir men bunga loyiqman! Mening lablarim - bu ajoyib san'at asari! Olmoshlarga qo'shiladigan -dek, -day affikslari narsa-hodisalarga birikib kelgan mazkur affikslar kabi o'xshatish-qiyoslashni sof holda ifodalamaydi, ularda o'xshatish va ta'kid yonma-yon ifodalangan bo'ladi.

Mazkur matndagi birinchi shaxs mahsulotni muvaffaqiyatli ishlatgan odam borligini anglatadi, bu ko'rinish taniqli kishilarning so'zlari bilan asoslanadi. Reklama obyektini olmosh so'z turkumi yordamida mijozga yetkazishning pragmatik ma'nosi shu tarzda amalga oshiriladi. Bir tomondan, biz so'zini qo'llash orqali adresat o'zini ma'lum bir ijtimoiy guruh vakili deb ko'rsatsa (Biz dunyoni yanada yaxshi joyga aylantiramiz), boshqa tomondan ishlab chiqaruvchi o'zini ko'proq anglatadi va o'zi haqida gapiradi (Biz bu g'oyani amalga oshirdik. G'oya bir kishiga tegishli). «Reklama beruvchilar olmoshlarda nutqni ifodalashning o'ziga xos manbalarini qidirmoqdalar, ularga murojaat qilish ko'pincha o'ziga xos uslubiy qiziqish uyg'otadigan estetik motivlar bilan belgilanadi»¹. Ekspressiv ranglarning boyligi jihatidan birinchi o'rinda kishilik olmoshlari turadi. Kishilik olmoshlarining ishlatilishi muallifning bayonini subyektivlashtirishga olib keladi. Ushbu uslubiy qurilma yozuvchilar va publitsistlar tomonidan kamtarlik ma'nosida ham keng qo'llaniladi: Biz bu tahlildan shu xulosaga keldik (aslida bir kishi).

Kishilik olmoshlari tasvirlangan vaziyatda o'quvchining (iste'molchining) mavjudlik belgisini bildiradi: «... bu sizga qulay, obro'li va foydalidir!» («Rymzhan» firmasi); «Sizning rasmingiz! Sizning xarakteringiz! Sizning erkinligingiz!» («Style» erkaklar va ayollar kiyimlari do'koni); «Mening bankim, mening shahrimda!» (Bank reklamasi).

Bundan tashqari, tashqi reklama tilida ham kishilik olmoshlaridan samarali foydalanish mumkin, bu reklama matniga samimiylilik bag'ishlaydi, iste'molchini reklama qilingan mahsulotni sotib olish mumkinligiga asoslantiradi, odamni unga ishonishini, ushbu mahsulotni (yoki xizmatni) sotib olishga intilishini kuchaytiradi. Tasvirlar esa so'zlarning mohiyatiga singdirilgan, chunki ular harakatlar, holatlar, xususiyatlarning sifat belgilarini aniqlaydi. Matnlar tarkibida kelgan qulay, obro'li va foydali, tez va sodda kabi so'zlar miqdor jihatidan boshqalardan ustun turadi va uslub nuqtai nazardan yetakchi rol o'ynaydi, nutqda yorqin ifoda manbai bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida aytib o'tilganidek, kishilik olmoshlari tashqi reklama matnlarida tasvirlangan vaziyatda o'quvchining (iste'molchining) mavjudlik belgisini anglatadi, xaridorni reklama qilinayotgan mahsulot haqiqatan ham unga tegishli bo'lishini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

¹ <https://articlekz.com/article/13381/>. Филиппова Д.Н., Антонова П.Н. Лексикология. Реклама. Художественный текст. Вестник Инновационного Евразийского университета. –Павлодар, 2012.

1. <https://articlekz.com/article/13381//>. Филиппова Д.Н., Антонова П.Н. Лексикология. Реклама. Художественный текст. Вестник Инновационного Евразийского университета. – Павлодар, 2012.
2. <https://classes.ru/grammar/> /Л.Теньер и его структурный синтаксис.
3. Тоҳиров З. Сўз туркумлари услубияти // Ўзбекистонда хорижий тиллар. –Тошкент, 2017. -№5-6. – Б.55.

Nurmanov Furqat
Samarqand davlat chet tillar instituti
Email: furqatnx@gmail.com
Telefon: +9989334243565

QIPCHOQ LAHJASIDAGI YORDAMCHI SO‘ZLARNING O‘RNI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilining qipchoq lahjasi, uning ayrim o‘ziga xos xususiyatlari, shu bilan birgalikda bu lahjada yordamchi so‘zlarning qo‘llanilishi va tutgan o‘rni, adabiy til va boshqa lahjalardagi yordamchi so‘z turkumlaridan farqli xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Qipchoq lahjasiga oid dialektologik materiallardan olingan misollar bilan izohlangan.

Kalit so‘zlar: Lahja, dialekt, sheva, qipchoq, ko‘makchilar, bog‘lovchilar, yuklamalar.

Аннотация. В данной статье рассматривается кыпчакский диалект узбекского языка, его специфические особенности, а также использование и роль вспомогательных слов в этом диалекте, их отличительные черты от вспомогательных частей речи в литературном языке и других диалектах. Это объясняется примерами, взятыми из диалектологических материалов, относящихся к кыпчакскому диалекту.

Ключевые слова: диалект, наречие, говор, кыпчакский диалект, вспомогательные слова, союзы, частицы.

Annotation. This article examines the Kipchak dialect of the Uzbek language, its specific features, as well as the use and role of auxiliary words in this dialect, their distinctive features from auxiliary parts of speech in literary language and other dialects. This is explained by examples taken from dialectological materials related to the Kipchak dialect.

Key words: dialect, adverb, dialect, Kipchak dialect, auxiliary words, conjunctions, particles.

O‘zbek dialektologiyasida shevalarning fonetik tizimi va singormanizm hodisasi, ular leksikasi va leksikografiyasi bilan birga grammatik qurilishi – morfologiyasi va sintaksisi, jumladan, yordamchi so‘z turkumlari ham tadqiq qilingan. Hududlararo sheva va lahjalar grammatikasini o‘rgangan har bir tadqiqotchi so‘z yoki jumлага qo‘shimcha ma’no beradigan, fikrni bir-biriga uyg‘unlashtiradigan yordamchi so‘zlarni ham tahlil qilgan va shevalar o‘rtasidagi shakliy va ma’noviy farq va o‘xshashliklarga e’tibor qaratgan. Tilshunoslikda yordamchi so‘zlar va ularning tildagi o‘rni va vazifasi haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan va bizningcha, nazariy fikrlar uyg‘unlashtirilgan. Jumladan, professor A.Pardayevning tadqiqotida quyidagicha ifodalangan: “Umumlingvistik qonuniyat sifatida yordamchi so‘zlarning quyidagi xususiyatini sanash mumkin: Grammatik ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladigan va so‘zlovchi ongida alohidalik sifatida mavjud bo‘lgan birlik (ya’ni so‘z). Grammatikalizatsiya tabiati esa tilning sintetik yoki analitik, flektiv yoki agglyutinativligi, unda morfologik va sintaktik sathlarning rivojlanganlik darajasi, shuningdek, har bir til uchun o‘ta xususiy bo‘lgan

qonuniyatlar bilan belgilanadi va bunda umumiy, yagona mohiyat umumlashmalik darajasidir. Ayrim hollarda bunday umumlashmalik universallik, umumlisoniylik darajasida bo‘lishi ham, chunonchi, birikuv (aniqrog‘i, joylashuv, lokalizatsiya) dunyoning barcha tillari uchun eng kuchli atributiv aloqa shakli, har bir til uchun o‘ta xususiy va ayrim, ba‘zan sanoqli holatlarga aloqador bo‘lishi ham (chunonchi, o‘zbek yoki rus tilida jamlovchi son) mumkin. Bu tilning ichki, tizimiy xususiyatlari bilan bog‘liq. Yordamchi so‘zlarning ichki bo‘linishi ham shunday. Unda ko‘makchi va bog‘lovchilarning sintaktik (bog‘lash) vazifaga ixtisoslashganligi, yuklamalar esa qo‘shimcha ma‘no ifodalash vazifasini bajarishi umumlingvistik qonuniyat sifatida amal qiladi”¹. Sodda qilib aytganda, “mustaqil holda gap bo‘lagi vazifasida kela olmaydigan, turlicha yordamchi ma‘no va vazifalarda qo‘llanadigan so‘zlar”² yordamchi so‘zlar deb ataladi. Darhaqiqat, bunday so‘zlarning leksik ma‘no anglatmasligidan kelib chiqib lingvomadaniy yoki lingvokonseptual tahlillar olib borish yuzasidan biron bir nazariy yoki amaliy ishlar olib borilmayotgani, olamning lisoniy manzarasidagi o‘rni hali belgilanmaganligi zamonaviy tilshunoslikda muammoli masala. Ammo ularning grammatik vazifasi muhim ekanligidan kelib chiqqan holda funksional so‘zlar sifatida ham izohlanadi.

O‘zbek shevashunosligida qipchoq shevalaridagi yordamchi so‘zlar masalasida boshqa sohalarga nisbatan kam ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada olib borilgan ishlar, bizningcha, yetarli emas.

O‘zbek tilining G‘allaorol shevasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan tilshunos olim, professor Vahob Egamov o‘z ishida qipchoq lahjasiga oid bog‘lovchi va yuklamalarni hudud shevasi materiallari misolida tadqiq qilgan³.

Samarqand viloyat Jo‘sh shevasini tadqiq qilgan Majid Ahmedovning tadqiqotida Jo‘sh shevasining o‘ziga xos grammatik, morfologik xususiyatlarini atroflicha tahlil qilib o‘tadi⁴.

Fattoh Abdullayevning 1961-yilda nashr etilgan “O‘zbek tilining Xorazm shevalari” nomli tadqiqotida Xorazm qipchoq shevalarida yordamchi so‘z turkumlaridan faqat *bilan* ko‘makchisi haqida tahlillarini keltirib o‘tgan. Bizga ma‘lumki, Xorazm hamda Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida ko‘p sonli o‘g‘uz shevalari bilan birga qipchoq shevasi vakillari ham yetarlicha mavjud. Shu sababli bu hudud bo‘yicha ham qipchoq, ham o‘g‘uz lahjasi yuzasidan alohida-alohida tadqiqotlar bilan birga, har ikkala dialekt bo‘yicha umumiy tekshirishlar ham yaratilgan. Yuqorida ta‘kidlaganimiz, taniqli tilshunos F.Abdullayevning tadqiqoti umumiy planda bajarilgan ishlar sirasiga kiradi. Bir hududda qo‘llaniladigan ikki lahja materialini bir tadqiqot doirasida tahlil qilishning yutuqli jihatlari ko‘p, nazarimizda. Bu ikki dialekt materialini bir ishda qiyoslab o‘rganish imkonini yaratadi hamda kerakli ilmiy xulosa chiqarishni yengillashtiradi. Bu shakldagi ilmiy ishlar o‘zbek dialektologiyasida sanoqli: o‘g‘uz-qipchoq, qipchoq-qarluq, qarluq-o‘g‘uz kabi. Bir hududdagi aralash lahjalar haqidagi amalga oshirilgan tadqiqotlar bo‘yicha sirasi kelganda fikrlarimizni bayon etamiz. Yuqorida qayd etganimiz Xorazm qipchoq lahjasida qo‘llaniladigan ko‘makchilarning variantlari quyidagilar: *bilan (minän), üçin, arqali, qarši, bet, qarap, qarayanda, körä, yaraša, jaq (tomon), sari, sajın, ilgari, tarap, burin, äväl, kijin, soñ, berı, körä, bijaq, başqa, ald//äld, arqa, jan, orta, ara, tiš, ič, tüv (tag), ast, üst, tepä, haq, tuvri, tuvralı*. Olim Xorazm qipchoq shevalarida qo‘llaniladigan

¹ Пардаев А.Б. Ёрдамчи туркумларнинг субстанциал ва прагматик хусусиятлари. Монография. – Тошкент, 2013. – Б. 11.

² Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2002, – Б. 38.

³ Эгамов В. Самарқанд область Ғаллаорол шеvasи. – Самарқанд: Морозов, 1970. – 137 б.

⁴ Ахмедов М. Джушский говор узбекского языка. АКД. – Ашхабад, 1962. – 24 с.

ko‘makchilar biroz fonetik farq bo‘lsa-da, adabiy tilga ma‘no va funksional jihatdan mos kelishini, shevalarda ko‘makchili konstruksiyalar nihoyatda keng tarqalganligini ta‘kidlab o‘tadi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda yuklamalar haqida ham fikr bildirilib, bu shevalardagi yuklamalar adabiy tildan fonetik va vazifa bajarishi jihatdan farqlanishini qayd etadi. 10 dan ortiq yuklamalarni lisoniy tadqiq qilar ekan, faqatgina adabiy tilda ta‘kid ma‘nosini ifodalaydigan *-ku* yuklamasi Xorazm qipchoq shevalarida *-yo, -yu* shaklida yoki adabiy tilda so‘roq mazmunini ifodalaydigan *-mi // -mī* yuklamalari *-ma // -mä* ko‘rinishida ifodalanishini qayd etadi¹.

Navoiy viloyati shevalarini o‘rgangan tadqiqotchi N.Raxmonov o‘zining dissertatsiyasida qipchoq shevalaridagi yordamchi so‘zlarni ham tahlil qilgan. Tadqiqotchi tadqiqotida kuzatishimiz mumkinki, unda *bilan, uchun, qadar, keyin, so‘ng* kabi shevada uchraydigan fonetik va morfologik variantlarini tahlil qilgan va misollar asosida izohlashga harakat qilgan.

Navoiy viloyat shevalarida qiyoslash, o‘xshatish, ma‘nolarini anglatadigan *kabi, singari* ko‘makchilari o‘rnida kishilik olmoshlaridan so‘ng *-dāj* qo‘shimchasi bilan birga [*-kičin/-kičīn*] shakli qo‘shilishidan hosil bo‘lgan murakkab qo‘shimchalar ishlatiladi. Masalan: *mandajkičīn/mendajkičīn, šundajkičīn, siladajkičīn, unāqičīn, šunāqičīn* kabi. Bu Shahrisabz shevalarida boshqacharoq qo‘llaniladi: *bizadačīkin, mennāxčīkin, sennāxčīkilladdi ektasini burozi* (bir o‘zi) *uradi*².

Turkologiya va o‘zbek tilshunosligida shakllantirilgan areal lingvistikaning nazariy asoslari, uni o‘zbek tili maydonini mintaqalashtirish, shu jumladan, yordamchi so‘z turkumlarini mamlakatimizning dialektal mintaqalari bo‘yicha mazkur hududlardagi tegishli aholi manzillaridan to‘plangan materiallar birlashtirilib, tegishli jadvallarda izohlandi va xaritaga tushirildi. Xaritalarda dialektal lisoniy birliklarning muayyan bir hududda qanday tarqalganligi geometrik belgilar tizimi yordamida xarita tuzish tamoyili asosida joylashtirildi.

O‘zbek tilining qipchoq lahjasida qo‘llanilgan yordamchi so‘z turkumiga oid birliklar turkiy tillarning asl lisoniy tabiatiga mosdir. Ularning aksariyat qismi o‘zbek milliy tilida faol qo‘llaniladi. Ifodalanish o‘rni va tabiati, fonetik shakl-shamoyili, morfologiyasi, o‘rin va vazifaviy almashinib qo‘llanilishi kabi jihatlari bilan adabiy til va boshqa lahjalardan farqli xususiyatlarga ega.

Qayd etish lozimki, o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlar guruhining o‘zida bir-biridan nutqdagi o‘rni hamda funksional farq qiluvchi ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama kabi vakillarining mavjudligi va lisoniy tizimda amalda bo‘lishi turkiy tillarning grammatik qurilishiga asosan mos keladi. O‘zbek tilining qipchoq shevasidagi ko‘makchilar qatorining paydo bo‘lishi, nutqda qo‘llanilish xususiyati turkiy tillarning agglyutinativ tabiati hamda ularda yordamchi so‘z turkumlarining asosiy so‘z (mustaqil) turkumlaridan desemantizatsiya va grammatikalizatsiya hodisalari orqali til tadriji davomida shakllangan. Bu jarayonning o‘zini til birliklarining konversiyasi deb ham baholash mumkin. Masalan, o‘zagi son (bir)ga bog‘lanuvchi birlan (bilan) ko‘makchisining semantik va shakliy differensiyasi tufayli *billä, minän // minäm, -man* shakllarini olishi, bunga mos ravishda shevalarda semantikaning kengayishi kuzatiladi. *-man* (bilan-minan *-man*) shaklining so‘nggi ko‘rinishi tilimizning qipchoq shevalarida qipchoq tillarida, aytaylik, qozoq tilidagi birgalik kelishigi (*kømektes septik*) kabi qo‘llanadi: *atamman bardim, ertämän turdim, qalamman jazdim, mašinman bardim* kabi. Shuningdek, qipchoq shevalaridagi *šoniñ üčün, ošanñ üčün* kabi ergashtiruvchi bog‘lovchilar ham adabiy tildagi

¹ Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари, I луғат, II Хоразм шеваларининг таснифи. – Тошкент: Фанлар академияси, 1961. – Б. 153-154; 175.

² Раҳмонов Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шевалари морфологик хусусиятларининг лингвоареал тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2019. – Б. 56-57.

sintaktik qoliplarni nutqda qo‘llash natijasida shevada shakllangan va hakozi.

Umuman, o‘zbek tilining qipchoq lahjasidagi yordamchi so‘z turkumlariga oid birliklar qo‘llanilish jihatdan o‘zbek, umuman, turkiy tillar tabiatiga mos hisoblanadi. Ular asosan adabiy tildan fonetik, funksional vazifasi va soni jihatdan farq qiladi. Shuningdek, ko‘makchi, yuklama va bog‘lovchilar o‘zaro o‘rin va vazifa bajarish yuzasidan almashinib ifodalanish holatlari bilan ham farqlanadi. Shuningdek, boshqa shevalarda uchramaydigan ba‘zi yordamchi so‘zlar ham bor. Ushbu yordamchi so‘zlarning nutqda bajaradigan vazifasiga qarab ham o‘ziga xosliklarni kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари, I луғат, II Хоразм шеваларининг таснифи. – Тошкент: Фанлар академияси, 1961. – 238 б.
2. Ахмедов М. Джушский говор узбекского языка. АКД. – Ашхабад, 1962. – 24 с.
3. Пардаев А.Б. Ёрдамчи туркумларнинг субстанциал ва прагматик хусусиятлари. Монография. – Тошкент, 2013. – 178 б.
4. Раҳмонов Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шевалари морфологик хусусиятларининг лингвоареал тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2019. – 152 б.
5. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2002, – 218 б.
6. Эгамов В. Самарқанд область Ғаллаорол шеваси. – Самарқанд: Морозов, 1970. – 137 б.

**Rustamov Mirjalol Azamat o‘g‘li,
SamDCHTI, O‘zbek tili, jurnalistika va
kompyuter lingvistikasi kafedrasi o‘qituvchisi,
mirjalolrustamov9696@gmail.uz**

MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLAR ATAMASI VA TUSHUNCHASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilida sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalar tahlil qilingan. Bundan tashqari murakkablashgan sodda gaplarni yuzaga keltiruvchi birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilish tadqiqi xususida bahs-munozaralar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *uyushiq bo‘laklar, undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo‘laklar, sifatdosh va ravishdosh o‘ramlar, harakat nomli tizimlar.*

Sodda gapning tarkibidagi bo‘laklar, undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo‘laklar, undalmalar, sifatdosh, ravishdosh o‘ramlar, harakat nomli tizimlar qatnashib, sodda gapni ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan murakkablashtiradi. Bunday gaplar murakkablashgan sodda gaplar deb ataladi.

Prof. G.Abduraxmonov tomonidan ilmiy adabiyotlarga olib kirilgan murakkablashgan sodd gaplar atamasi ostida gaplar bilan qo‘shma gaplar oralig‘idagi gaplar ekanligi ta‘kidlanadi.

Murakkablashgan gaplarning sodda va qo‘shma gaplardan farqli, o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

Murakkablashgan gaplar orqali birgina maqsad ifodalanmay, murakkab fikr o‘z ifodasini topadi.

Murakkablashgan gapni tashkil etgan bo‘laklar gapning umumiy mazmuni bilan izohlash munosabatida bo‘ladi.

Murakkablashgan gapga ikki xil predikativ birlik, hukm bo‘ladi. Bu predikativ birlikning biri asosiy bo‘lib, ikkinchisi to‘liq bo‘lmagan hukmdir. Asosiy hukm gapning umumiy mazmunidan anglashilsa, to‘liq bo‘lmagan hukm gapning uyushiq, ajratilgan bo‘laklari, undalma va kirish bo‘laklar orqali ifodalanadi.

Murakkablashgan gapni tashkil bo‘laklar asosiy gapning umumiy mazmuni munosabatga kirishadi.

Murakkablashgan gapni tashkil qiluvchi bo‘laklar o‘ziga xos intonatsiya bilan talaffuz etiladi. Bu intonatsiya boshqa gap bo‘laklari intonatsiyaga o‘xshamaydi, ular gap bo‘laklaridan pauza bilan ajralib turadi.

Murakkablashgan gaplarda shakliy va mazmuniy murakkablashuv va munosabat mavjud. Mazmuniy munosabatda obyektiv, subyektiv, vokativ va modal munosabat o‘z ifodasini topadi.

Murakkablashgan gaplar o‘ziga xos sintaktik qurilmalardan iborat bo‘lib, shuning uchun ular sodda va qo‘shma gaplardan farqlanadi.

Til birliklarining semantikasiga qiziqishning kuchayishi natijasida sodda gaplarning murakkablashuvi masalasiga e‘tibor ham kuchaydi. Murakkab mazmunning murakkab shaklda emas, balki sodda shaklda ifodalanishi til vositalarini tejash tamoyilining tilda yaqqol namoyon bo‘lishi shakllaridan biri ekanligi tilshunos olimlar tomonidan qayd etiladi. Mualliflar sodda gap tarkibiga turli sifatdash, ravishdash, harakat nomi, shart maylidagi fe‘lli o‘ram (oborot)larni kiritish ham shakl, ham mazmun jihatidan murakkablashishi, bunday holatlarda ikkinchi darajali predikatsiyaga ko‘ra gaplar predikativ jamlanish yuzaga kelishi asoslab berildi. Bunday murakkablashtiruvchi vositalarda muayyan propozitsiya ifodalanadi. Tabiiyki, propozitsiyaning birdan ortiq bo‘lishi sodda gaplarning mazmunan murakkablashuviga sabab bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida murakkablashgan gaplar haqidagi tadqiqotlar ichida A.Navoiy asarlarining tilini o‘rganishga qaratilgan ishlar ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, S.Ashirboyevning doktorlik ishi Navoiy asarlaridagi sodda gaplarning tarkibiy va ma‘noviy xususiyatlariga bag‘ishlangan. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalardan yana biri kiritma qurilmalar bo‘lib, bu masalaga dastlab I.Toshaliyev e‘tibor qaratgan. “Kiritmalar grammatik jihatdan shakllangan tayyor gap strukturasi kiritilib, gapdagi grammatik aloqani ham, tugal intonatsiyani ham uzib qo‘yadi, uni murakkablashtiradi”. Tadqiqotchi mazkur ishda kiritmalarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq masalalarga, xususan, so‘z, birikma, gap va murakkab kiritma, belgi kiritma sifatida tasnif qiladi. Tadqiqotchi kiritma konstruksiyalarning gap strukturasi kiritilish o‘rni, kiritmalarning o‘zlari aloqador qismga nisbatan o‘rinlashish tartibi kabi masalalarga oydinlik kiritgan. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalardan yana biri undalmalar bo‘lib, tilshunoslikda bu masala nisbatan keng o‘rganilgan. N.Ahmedovning tadqiqotida murojaat birliklari sifatida baholanib, murojaat birliklari tarkibida ham ma‘lum propozitsiya ifodalovchi sifatdashlar orqali ikkinchi darajali predikatsiya ifodalanishi, asosiy predikat ifodalagan propozitsiyaga qo‘shimcha tarzda murojaat birligidagi propozitsiya hisobiga gapning semantik tarkibida murakkablashish, ya‘ni semantik-sintaktik nomuvofiqlik yuzaga kelishi tadqiqotda asoslab berilgan. Tadqiqotchi N.Ahmedova murojaat birliklarining pargmatik xususiyatlariga ham e‘tibor qaratgan. “Propozitsiya ifodalovchi murojaat birligi tarkibida asosiy

propozitsiyadan tashqari yashirin propozitsiya – presuppozitsiya ham ifodalanishi mumkin: Seni ko‘rgim kelar, omon bormisan, Mening tushlarimda qolgan kelinchak (I.Mirzo). Ushbu she‘riy ifodadagi murojaat birligi (mening tushlarimda qolgan kelinchak) quyidagi presuppozitsiyalarga yo‘l ochadi: 1. So‘zlovchi – erkak. 2. U bir paytlar bir qizni sevgan. 3. Qiz hozir boshqaga turmushga chiqqan, ya‘ni kelinchak. 4. So‘zlovchi hali ham uni sevadi. 5. Sevgani sababli hali ham tushlarida ko‘radi.

Murakkablashtuvchi vositalarning pragmatik xususiyatlariga monografik aspektda to‘liq tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, munosabat bildirilgan tadqiqotlar yetarli. M.Mamadaminova monografiyasida murakkablashgan sodda gaplarning grammatik pozitsiyasida lingvopragmatik belgilar xususida to‘xtalib, undalma, kirish, kiritmalarning pragmatik imkoniyatlariga umumiy tarzda baho berib o‘tadi

Tilshunoslikda yangicha yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi bilan murakkablashgan sodda gaplarga yondashuvlar ham o‘zgara boshladi. D.Boymatova murakkablashgan sodda gaplarda aksiologik modallikning semantik-pragmatik tadqiqini amalga oshirgan. Mazkur tadqiqotda aksiologik modallikning murakkablashgan sodda gaplarda ifodalanish darajasi aniqlangan, lingvistik birliklarning aksiologik mazmunini izohlashga e‘tibor qaratilgan.

Ko‘rinib turibdiki, sodda gaplarning murakkablashuvi haqida qator tadqiqotlar qilingan bo‘lsa-da, uning pragmatik xususiyatlari to‘liq ochilmagan. Misollarga e‘tibor beramiz.

Amri ma‘ruf musohabalariga intiq jon do‘stlari bilan birga qozonda allaqachon dam yegan quling o‘rgilsin palovni mahtal qildi (Asad Dilmurod). Keltirilgan ushbu sodda gapda bir necha propozitsiya ifodalangan. Amri ma‘ruf musohabalariga intiq jon birikmasida kimdir amri ma‘ruf musohabalarini intiqlik bilan kutgan, allaqachon dam yegan quling o‘rgilsin palov birikmasida esa palov pishgan propozitsiyalari ifodalangan. Sodda gap tarzida tuzilgan ushbu misolda pragmatikaning muhim masalaridan biri subyektiv baho ham ifodalangan bo‘lib, do‘stlarni kuttirmaslik kerak degan ma‘no yashiringan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тили грамматикаси. 2 том. Синтаксис. Т. : Фан, 1976, 208б.
2. Гуломов А, Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т. : Ўқитувчи, 1987, 140 б.
3. Абдурахмонов. Ўзбек тили грамматикаси. Т. : ўқитувчи, 1996, 47 б
4. Н. Маҳмудов, А. Нурмонов. ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Т. : 1995, 97 б.
5. Б. Ўринбоев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Самарқанд, 2006, 120 б.
6. Фитрат А. Танланган асарлар. Наҳв. (IV жилд) –Тошкент: Маънавият, 2006. –Б. 197-200.
7. Гуломов А. Содда гап. –Тошкент: ЎзФА, 1955. –Б. 92-97.
8. Ашурова Д. , Убаева Ф. , Болтабоева Х. Гапнинг уюшган ва ажратилган бўлаклари. – Тошкент: Ўзфанакаднатр, 1962. – Б. 179.
9. Холиқов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тилидамураккаблашгансодда гаплар услубияти (А. Қаҳҳор асарлари материаллари асосида). Филол. фанлари номзоди. . . дис. автореф. – Тошкент, 1993. –Б. 8-10.
10. Тожиев Ё. Туркий тилларда гап бош бўлақларининг кенгайиш имкониятлари ва қонуниятлари // Тил илмига садоқат. (Тўплам) –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 3-9.

Sanobar Abdullayeva

Samarkand State Institute of Foreign Languages

MATERIAL STATUS OF PERSON IN ENGLISH PHRASEOLOGICAL UNITS AND PROVERBS

Abstract: The article devoted to the linguocultural analysis of English phraseological units and proverbial expressions reflecting economic position of individual.

Keywords: phraseological unit, proverbial expression, linguoculture,

Economic position of person is one of the main indicators of person's social status. Idiomatic expressions reflecting poverty and wealth are fixed in many cultures including English speaking ones. They reflect the national, cultural and spiritual values and mentality of people.

Idiom *to climb on the bandwagon* means to cause for personal profit or advantage. The origin of that idiom is election campaign in the United States. It has been historically boisterous events. In the past, particularly in southern states, a political rally would be announced by a band playing from a large, horse-drawn wagon which travelled through the town streets. The candidate would ride on the wagon with the band, and as enthusiasm grew, members of the public would join them to demonstrate support. Naturally only some of those who "jumped on the wagon" were genuine supporters; others simply want to reward if the candidate won.

Next phraseological unit *on one's beam ends* [1, 17] expresses having nothing left to live on, in a difficult financial position. The idiom is derived from marine sphere. In wooden sailing ships, the "beams" were the massive horizontal timbers that stretched across the ship's width. Their crucial role was to brace the sides of hull from the collapsing inward and to provide a foundation for the deck. The abovementioned phrase, describing a ship tilted to the point of nearly capsizing, was later used as a metaphor for a person in dire financial straits.

Expression *best bib and tucker* [1, 24] describes one's best clothes. The term "bib" originally refers to the protective cloth of infants, but by the late 1600s, adults also wore similar garments to shield their clothing from spills. A "tucker", on the other hand, was a delicate lace or muslin accessory worn by women to fill the neckline of low-cut dresses. As fashion changed the meaning of the original items fell out of use, the meaning of words was forgotten and the expression gradually began to be applied to men as well.

Word combination *on the breadline* [1, 40] means "very poor", "almost nothing to eat". The expression originated in America during the last century. Impoverished people waited in queue to receive free or low-cost bread. This image led to the expression acquiring its broader meaning of being extremely poor and on the verge of starvation. A notable account attributes the term's origin to the Fleishmann family's bakery in New York during the 1870s. To maintain their reputation for selling only fresh bread, they distributed all unsold loaves to the needy at the end of each day. The line that formed outside of their bakery every evening became locally known as "the breadline", cementing the term in the language.

Idiomatic expression *to be taken to the cleaners* [1, 54] denotes to lose all one's money, to be ruined. In the last century people were 'cleaned out' when they were stripped clean of everything of value, either through gambling or as victims of dishonest practice. This use is still

current. To be taken to the cleaners is a more recent term which expresses exactly the same thing.

English proverb *money does not grow on trees* means that money needs to be earned, not received easily, and therefore it should be spent with caution, as its quantity is limited. The expression has structure of the simple sentence. Although the exact origin is unknown, the phrase became widely used in late 19th century literature, such as in the Statesville Landmark newspaper in 1891.

The conducted linguistic and cultural analysis of English phraseological units and proverbs reflecting a person's financial situation allows us to conclude about the deep interrelation of language, history and social values.

Thus, phraseological units and proverbs related to the material status of a person are the most valuable material for studying not only the language, but also the cultural identity of the people. Their further research may be useful in the framework of cultural linguistics, cognitive linguistics and intercultural communication, as well as in the practice of teaching English as a foreign language.

References:

1. Flavell L., Flavell R. Dictionary of Idioms and their Origins. London: Kyle Cathie Ltd. 1994, - 224 p.
2. Nyambura R., Nyamache T. Evolution of Handbags Culture // Journal of Education and Social Sciences. – Thika: Mount Kenya University, May 2012. – Vol.1. – No. 2. – P.22-32.
3. Xamrakulova S.F. Linguo-pragmatic features of idioms with age-related semantics in English. // International Multidisciplinary Journal for Research and Development Volume 12, issue 05 (2025) – pp.41 – 44

Daminova Sevinch,
SamDCHTI Sharq tillar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
daminovasevinch911@gmail.com
+99891. 317-72-12

SO‘Z BIRIKMASINING PREDIKATIVLIKKA MUNOSABATI

Annotatsiya: Maqolada so‘z birikmasining sintaktik tuzilma sifatidagi xususiyatlari va uning predikativlik bilan bog‘liq munosabatlari tahlil qilinadi. Asosiy e‘tibor so‘z birikmasi va gap o‘rtasidagi grammatik chegaralarni belgilash, predikativlik kategoriyasining lingvistik mohiyatini aniqlash, shuningdek, predikativlikning yuzaga kelishida so‘z birikmasining tutgan o‘rni va roli bilan bog‘liq nazariy qarashlarga qaratiladi. Shuningdek, so‘z birikmasining gapga aylanish jarayonida predikativ munosabatning yuzaga chiqish shartlari ko‘rib chiqiladi. Mazkur tadqiqot nazariy tahlillar hamda mavjud til materiallari asosida olib borilgan bo‘lib, natijada so‘z birikmasining predikativlikka munosabati bo‘yicha xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: So‘z birikmasi, predikativlik, sintaksis, gap tuzilishi, grammatik munosabat, predikativ konstruktsiya, til birligi

Аннотация: В статье анализируются синтаксические особенности словосочетания как языковой единицы и его отношение к предикативности. Основное внимание уделяется

разграничению грамматических границ между словосочетанием и предложением, определению лингвистической сущности категории предикативности, а также теоретическим подходам, связанным с ролью и значением словосочетания в формировании предикативных отношений. Кроме того, рассматриваются условия возникновения предикативной связи в процессе преобразования словосочетания в предложение. Исследование основано на теоретическом анализе и существующих языковых материалах, в результате чего сформулированы выводы о взаимосвязи словосочетания с предикативностью.

Ключевые слова: Словосочетание, предикативность, синтаксис, структура предложения, грамматическое отношение, предикативная конструкция, языковая единица

Annotation: This article analyzes the syntactic features of word combinations as linguistic units and their relation to predicativity. The main focus is on distinguishing the grammatical boundaries between word combinations and sentences, identifying the linguistic essence of the category of predicativity, as well as theoretical perspectives concerning the role and function of word combinations in the formation of predicative relations. The study also explores the conditions under which predicative relations emerge when a word combination transforms into a sentence. The research is based on theoretical analysis and available linguistic data, resulting in conclusions regarding the relationship between word combinations and predicativity.

Keywords: word combination, predicativity, syntax, sentence structure, grammatical relation, predicative construction, linguistic unit

So‘z birikmasi muammosi umumiy tilshunoslik doirasida eng muhim o‘rinlardan birida keladi. ¹O‘zbek tili sintaksisida so‘z birikmasi va gap tushunchalari muhim o‘rin tutadi. Har ikkala birlik nutqda ma‘lum bir fikrni ifodalashda, mazmuni tashkil qilishda xizmat qiladi. Biroq ularning mohiyati, vazifasi va tuzilish mexanizmlarida sezilarli farqlar mavjud. Ayniqsa, so‘z birikmasining gapdan asosiy farqlovchi belgisi sifatida predikativlik hodisasi alohida ahamiyat kasb etadi. Predikativlik gapning mazmuniy markazi bo‘lib, unda voqelik va nutqning muayyan bir davrga, shaxsga bog‘lanishi ifodalanadi. So‘z birikmasida esa bunday xususiyat kuzatilmaydi. Shu jihatdan so‘z birikmasining predikativlikka munosabati masalasi tilshunoslikda eng muhim va qiziqarli nazariy muammolardan biridir. So‘z birikmasi — ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning ma‘lum grammatik qonuniyat asosida birikib, bir butun sintaktik birlik hosil qilishi natijasida yuzaga keladi.

Masalan: yangi kitob, tez yugurmoq, oq uy, yaxshi o‘qituvchi.

So‘z birikmasining asosiy belgilaridan:

1. Mustaqil so‘zlar asosida hosil bo‘lishi;
2. Sintaktik jihatdan bir butun bo‘lishi;
3. Ma‘lum bir so‘roqqa javob berishi;
4. Predikativlik belgisi mavjud emasligi.

Gap — nutqning asosiy birligi bo‘lib, u voqelik haqida fikr bildiradi. Gapning boshqa sintaktik birliklardan farqlovchi belgisi predikativlikdir.

Predikativlik – bu:

- gapning mazmunini muayyan zamonga (hozirgi, o‘tgan, kelasi);
- shaxsga (men, sen, u);
- voqelikning mavjud yoki mavjud emasligiga bog‘lab ifodalashdir.

¹ X.Хайруллаев. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. Самарқанд – 2002 28-б

Masalan:

- Men kitob o'qiyman – predikativlik mavjud.

- Yangi kitob – bunda esa predikativlik yo'q.

Tilshunoslar ta'kidlaganidek, so'z birikmasi gap hosil qilish uchun asosiy qurilish materiali hisoblanadi. Biroq u predikativlikka ega emas, chunki so'z birikmasida tasdiq yoki inkor mazmuni, shaxs-zamon munosabatlari mavjud bo'lmaydi.

1. So'z birikmasi – nomlash vositasi (oq uy, yaxshi inson, yangi bilim).

2. Predikativlik – fikr ifodalash vositasi (Uy oq rangda).

3. So'z birikmasidan gap hosil bo'lishi (yangi kitob → Bu yangi kitobdir).

O'xshashliklar:

- Har ikkisi ham nutqning sintaktik birliklari hisoblanadi.

- Har ikkalasi ham mustaqil so'zlar asosida hosil bo'ladi.

- Semantik jihatdan bir butunlik kasb etadi.

Farqlar:

1. So'z birikmasi predikativlikka ega emas, gap esa predikativlikning mavjudligi bilan ajralib turadi.

2. So'z birikmasi hukm bildirmaydi, gap esa hukmni ifodalaydi.

3. So'z birikmasi asosan gap qurilishida xizmat qiladi, gap esa nutqiy muloqotning mustaqil shaklidir.

O'zbek tilshunosligida bu masalaga turli olimlar e'tibor qaratgan:

A. G'ulomov fikricha, so'z birikmasi nutqda ma'no bo'laklarini aniqlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi, ammo u predikativlikni o'zida mujassamlashtirmaydi.

Sh. Rahmatullayev ta'kidlaganidek, gap bilan so'z birikmasini ajratuvchi eng asosiy mezon bu predikativlikdir.

A. Nurmonov esa so'z birikmasi bilan gap o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka e'tibor qaratib, predikativlik gapning asosiy grammatik belgisidir, deb qayd etadi.

1. So'z birikmasi: yangi kitob – faqat narsaning belgisi haqida tushuncha beradi.

2. Gap: Yangi kitob juda qiziqarli – bunda predikativlik mavjud.

3. So'z birikmasi: tez yugurish – harakatning sifati haqida tushuncha beradi.

4. Gap: U tez yuguradi – shaxs, zamon va harakatning mavjudligi aniq ifodalanadi.

So'z birikmalari gap qurilishida asosiy material vazifasini bajaradi. Nutq jarayonida ular gapga aylanishi orqali predikativlik mazmuniga ega bo'ladi. Shunday qilib, so'z birikmasi bevosita predikativlikka ega bo'lmasa-da, predikativlikning yuzaga kelishida poydevor hisoblanadi. So'z birikmasi va gap o'rtasidagi munosabat o'zbek tili sintaksisining eng muhim masalalaridan biridir. Ularni farqlovchi asosiy belgilaridan biri – predikativlikdir. So'z birikmasi voqelikni bevosita ifodalamasdan, uni nomlash bilan chegaralanadi. Gap esa predikativlik orqali voqelikni tasdiqlaydi yoki inkor qiladi, shaxs va zamonga bog'laydi.

Demak, so'z birikmasining predikativlikka munosabati shundaki, u predikativlikka ega emas, ammo gapda predikativlikning yuzaga kelishi uchun zaruriy tayanch material bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. X.Хайруллаев. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. Самарқанд – 2002

2. Karimov N. *So'z birikmalari va gap: grammatik tahlil*. Toshkent: O'qituvchi. 2004

3. Jo'raev M. *Predikativlik va uning grammatik ifodalanishi*. – O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2012 №3, 34–39-betlar.

4. Qodirov A. *O'zbek tilida predikativlik kategoriyasi*. – Toshkent: Fan. 2001

Suyunova Gulzoda Baxriddin qizi
Independent researcher (PhD) at
Samarkand State Institute of Foreign Languages
+998991567010
gulzodasuyunova888@gmail.com

THE HISTORICAL AND LINGUISTIC EVOLUTION OF THE ENGLISH VERB *HAVE*: FROM PROTO-INDO-EUROPEAN *KEH₂P*

Abstract

As a lexical and auxiliary verb, the English verb *have* is one of the most basic and adaptable components of the language. The significant morphological, semantic, and phonological changes that influenced the English language are reflected in its lengthy and intricate history. The Old English word *habban* comes directly from the Proto-Indo-European root *keh₂p-*, which means "to seize, to hold." It has since developed through the Proto-Germanic *habjaną* as well as West Germanic *habbian*. Its meaning evolved throughout time, moving from tangible possessions to abstract ownership, duty, and grammatical purpose. Its current form is influenced by phonological rules like Grimm's Law, systematic vowel changes, and the move from synthetic to analytical verbal constructs. This research shows how the word "have" evolved from a verb of physical ownership to a key auxiliary verb in modern English grammar by following its etymological, phonetic, and grammatical development.

Keywords: Proto-Indo-European, Proto-Germanic, Old English, *habban*, *have*, etymology, phonological change, Grimm's Law, morphological evolution, grammaticalization, auxiliary verb, historical linguistics, semantic shift

Introduction

A key place in the English language's lexical and grammatical systems is held by the verb *have*. It is one of the most often used verbs, fulfilling a variety of syntactic and semantic functions, including constructing perfect tenses and modal formulations, as well as signifying possession and experience. Because of its adaptability, it is a crucial part of English syntax and a significant topic for diachronic linguistic studies. The word "have" has a millennium-long history and comes from the Proto-Indo-European (PIE) root *keh₂p-* or *kap-*, which means "to grasp," "to seize," or "to hold." Physical control or possession, which subsequently developed into abstract concepts of ownership, duty, and relation, was articulated by this ancient root as a basic human experience. The root evolved into the Modern English *have* by a sequence of morphological and phonetic changes, including Proto-Germanic *habjaną*, West Germanic *habbian*, and Old English *habban*. The study of this verb offers important insights into the larger historical processes that influenced English, such as the grammaticalization of lexical verbs into auxiliaries, morphological simplification, and regular sound change.

Literature reviews and methods

The Origin and development of the English verb *Have*

The English verb "have" holds a significant place in the language's lexical and grammatical structures. In addition to being a significant auxiliary in the building of perfect tenses and other modal formulations, it is one of the most common and versatile verbs in the English language. It provides important insights into the historical development of English from

its Proto-Indo-European origins to its current forms due to its diverse variety of meanings and grammatical functions. "Have" comes from the Proto-Indo-European (PIE) root *kap-* [Matveeva, E. A. 2006: 42]. According to Watkins, the English word "have" comes from the Proto-Indo-European (PIE) root "*keh₂p-*". The original meanings of this ancient root were "to take," "to hold," or "to seize," suggesting an early mental connection between possession and actual clutching. As *keh₃p-*'s semantic range grew and changed throughout time, several cognates in various important Indo-European language branches emerged Watkins, C. 2000: [29]. Posner asserts that the PIE root *keh₂p-* has an impact on the Germanic family as well as the Italic, Indo-Iranian, and Hellenic languages. The Latin word *capere*, for example, reflects the root's original meaning of gaining possession, meaning "to seize" or "to hold." This semantic core is also maintained in Sanskrit in *ká pate*, which means "to grasp" or "to obtain." The Ancient Greek word *καθέπω* (*kathépō*), meaning "to hold fast," expresses the same sense. The idea of possession was strongly associated with physical control or mastery over an item, as evidenced by these concurrent developments throughout disparate branches of the Indo-European family [Posner, R. 1996: 369].

The Proto-Germanic period

Kroonen, G. said that from the Proto-Indo-European (PIE) period, the Proto-Germanic stage saw a substantial phonological and semantic development of the verb that would eventually become English. Linguists agree that *habjaną*, the reconstructed Proto-Germanic word, signified "to have," "to hold," or "to carry". The verb's progression from its PIE predecessor *keh₃p-*, which originally meant to grip or seize, is significantly influenced by this form. The shift from *keh₂p-* to *habjaną* shows how early Germanic speakers started to rethink possession as a more comprehensive idea of ownership and control, rather than only as an act of physical holding. Throughout the early Germanic dialect continuum, the verb *habjaną* was frequently used. It served as the basis for cognate verbs in the East Germanic, North Germanic, and West Germanic branches of the Germanic family. Similar to its Proto-Germanic origin, the term *haban* in Gothic, an East Germanic language, meant "to have, to possess." The verb occurred as *hafa* in Old Norse, which represented the North Germanic branch, and *habban* in Old English, which represented the West Germanic branch. This root's importance in the grammatical and semantic systems of early Indo-European communities in northern Europe is demonstrated by its broad prevalence across the Germanic languages [Kroonen, G. 2013: 414]. In addition to being a lexical verb, *habjaną* also started to gain grammatical functions around this time, which would influence subsequent English development. The usage of it as a secondary verb in periphrastic constructions, especially in perfect tenses, began in Middle English and has persisted in current English (e.g., "I have seen"). This functional expansion reflects an abstract expansion from being in physical possession to temporal or experiential possession, and it reflects a larger pattern in language change: verbs that imply "to hold" or "to possess" frequently develop into auxiliary markers of accomplished action. As Proto-Germanic developed into its daughter languages, *habjaną* had predictable phonological modifications. Although the internal consonants gradually became simpler, the original /h/ sound was retained in the majority of early forms [Chamonikolasová, Jana 2014: 28].

The West Germanic period

Baugh, A. C. showed that the verb *habban*, the inherited form of the Proto-Germanic *habjaną*, appeared throughout the West Germanic era, according to Baugh. This verb's original, tangible sense of possession, "to have" or "to hold," was preserved at first. It mostly refers to the act of possessing or maintaining anything under one's control, whether it be a material item or an

intangible idea like duty or responsibility. *Habbjan*, however, started to assume more intricate grammatical and syntactic functions as the West Germanic dialects' linguistic system advanced, progressively changing from a straightforward lexical verb to a multipurpose component of the verbal system [Baugh, A. C 2002: 125]. Old English, Old High German, and Old Saxon were among the first West Germanic languages to use *habban* as a primary verb, meaning "to possess" or "to keep." For example, the phrase *habban* was employed in Old English to denote possession explicitly in lines like *ic haebbe gold* ("I have gold"). Old High German *habēn* and Old Saxon *hebban* also maintained this fundamental idea. But as time went on, speakers started using *habban* in more ethereal ways, designating not just material ownership but also emotional states or connections, such as "to have faith," "to have hope," or "to have fear." This change from concrete to abstract use is indicative of a more general semantic evolution that is common for many Indo-European verbs that indicate possession. The progressive linguistic transformation of *habban* into an auxiliary verb was a noteworthy innovation of the West Germanic era. According to linguists like Baugh, this process started when *habban* was employed to denote finished or perfective activities in periphrastic formulations. The verb began to express the sense of owning an action or event rather than the possession of an item. The Old English *ic haebbe gesewen*, which means "I have seen," for instance, literally translates to "I hold having seen," signifying wholeness. Later English's verbal system was greatly influenced by this development, which became a critical auxiliary in the construction of perfect tenses. In terms of morphology and phonology, the West Germanic *habban* differs from its Proto-Germanic predecessor *habjaną* in distinctive ways. As is common in West Germanic phonology, the subsequent -j- sound had an impact on the development of the medial consonant -bb-. As seen by Old English *haefde* ("had"), the verb was of the weak class and formed its past tense with a dental suffix (-de or -te) [Barkhudarov, L. S., Shtel, D. A. 1960: 363].

Results and discussions

Brugmann emphasizes that the word *habban*, which means "to have" or "to hold," was firmly entrenched as the main verb during the Old English era. The form *habban*, which was a continuation of the Proto-Germanic *habjaną*, was the immediate ancestor of this one. The Old English word, which denoted both the more abstract sense of ownership, responsibility, or experience as well as the more concrete sense of possession, kept a large portion of the previous semantic range. *Habban* demonstrates how linguistic and phonological advancements influenced the early English verbal system and serves as a powerful sign of continuity across the Germanic languages. *Habban* was a first-class weak verb in Old English that was routinely conjugated by person, number, and tense. It appears, for instance, as *ic haebbe* ("I have"), *þu hæfst* ("you have"), and *he hæfþ* ("he/she/it has") in the present tense, and as *ic hæfde* ("I had") and *we hæfdon* ("we had") in the past tense. The verb's morphological system, which was successfully incorporated into Old English grammar, is stable, as seen by this regularity. The phonological process known as i-mutation (or i-umlaut), which is typical of the early Old English era, causes the vowel *æ* to front out in forms like *hæbbe* and *hæfde*. These changes in phonetics helped the contemporary English language gradually evolve over time [Brugmann, K. 2011: 35].

In Old English, *habban* still denoted physical possession, but it also had new grammatical and philosophical meanings. As in *haefde lufe* ("had love") or *hæfde wisdom* ("had wisdom"), it might allude to mental or emotional states, demonstrating that the word had already started to signify non-material ownership. *Habban* also contributed significantly to the development of periphrastic perfect constructions, a significant syntactic breakthrough. *Habban* no longer denoted possession but rather the accomplishment of an activity in words such as *ic hæbbe*

geseah (“I have seen”). The present English perfect tense was directly derived from this grammatical use. Habban gradually became simpler phonetically when Old English gave way to Middle English. Through the process of lenition, a softening of voiced consonants common in Middle English phonology, the geminated consonant -bb- started to diminish to a single -v-sound. Similar to this, the vowel ae changed from a to an or an e, creating transitional forms like have(n) and haue before stabilising as have in modern English. The natural development of English following the Norman Conquest was marked by larger patterns of vowel reduction and consonant weakening, which are reflected in these sound alterations [Qo’ldoshev A. 2011: 26].

Phonological and Grammatical development

In the opinion of Algeo, the Latin habēre's stress pattern represents the early Indo-European languages' free accent, where the location of stresses can change based on syntactic or morphological criteria. A fixed stress system, on the other hand, was formed by the Germanic languages, where the first syllable of a word was always the principal emphasis. In addition to simplifying word forms and sound patterns, this phonological change was a significant structural breakthrough in the Germanic branch. The fact that the stress is still on the first syllable in all contemporary variants of the verb has shows how persistent this Germanic prosodic pattern has been . In terms of grammar, they have developed into one of the English language's most important auxiliary verbs. The perfect aspect, which conveys a finished activity with respect to a reference time, is one of the main analytic tense constructions constructed in modern English using the auxiliary had. The use of have to construct the perfect tense is demonstrated, for example, by the sentence "I have seen." This evolution is a characteristic of Germanic syntax, which often prefers the production of periphrastic (analytic) tenses over the synthetic forms found in other Indo-European languages. Laudāvī, which means "I have praised," is an example of how Latin expresses the perfect tense morphologically through inflection. English and other Germanic languages' typological structure underwent a fundamental transition from synthetic to analytic constructions, reflecting their propensity for increased grammatical transparency and decreased inflectional complexity [John Algeo 2010: 70].

In terms of phonology, the historical development of the Germanic branch also is influenced by the main sound rules. One of the fundamental sound correspondences revealed in historical linguistics, Grimm's Law, caused the Proto-Indo-European root kap- to undergo a systematic transformation. This law states that in early Germanic languages, the voiceless plosive /p/ of PIE changed into a voiceless fricative /f/. The result was a variety of variants, including Proto-Germanic hafjan, Old English habban, and finally Modern English have. The regularity and predictability of phonetic development within the Indo-European family are exemplified by this sound change, which also offers compelling evidence of the genetic relationships among its members. The contemporary verb have has its direct historical origin in the Old English habban. The current form was progressively moulded by phonetic and orthographic modifications during the Middle English era. Habban's short vowel [a] was fronted and partially raised to [æ], and then it changed into the [æ] or [a] pronunciation in Modern English through additional phonological changes [Matveeva, E. A. 2006 :87].

Conclusion

To sum up, this study has shown that the English verb has undergone a remarkable linguistic journey from its Proto-Indo-European roots to its current English form. Proto-Germanic habjana, West Germanic habbjjan, and Old English habban are the verb's intermediate phases, each of which reflects unique phonological, morphological, and semantic modifications. The verb was originally derived from the PIE root keh₂p- ("to take, to hold, to seize").

They changed from signifying material property to communicating abstract connections like finished activities and emotions throughout the Proto-Germanic and West Germanic eras. Habban, a syntactic element that is still essential to Modern English, evolved from a sign of possession in Old English to a grammatical auxiliary in perfect formulations. Its current pronunciation and form are a result of frequent sound changes throughout the ages, such as vowel fronting and consonant lenition.

References

1. Baugh, A. C. *A History of the English Language*. Routledge. 2002, 459p.
2. Brugmann, K. *Grundriss der vergleichenden Grammatik der indogermanischen Sprachen*. Strassburg: Trübner. 1911
3. Chamonikolasová, Jana. *A concise History of English*. Masarykova Univerzita, 2014, 95p.
4. Jespersen, O. *Language: Its Nature, Development and Origin*. George Allen & Unwin. 1922. 446p.
5. John Algeo. *The Origins and Development of the English Language: Sixth Edition* 365 p. Boston, USA. 2010. 365p.
6. Kroonen, G. *Etymological Dictionary of Proto-Germanic*. Brill. 2013. 794p.
7. Posner, R. *The Romance Languages*. Cambridge University Press. 1996. 400p.
8. Qo'ldoshev A. *Ingliz tili tarixi. O'quv qo'llanma*. Toshkent, 2011, 84 bet
9. Watkins, C. *The American Heritage Dictionary of Indo-European Roots*. Houghton Mifflin Harcourt. 2000.
10. Бархударов Л. С., Штель Д. А. *Грамматика английского языка*. — Москва: Издательство литературы на иностранных языках, 1960. 425с.
11. Матвеева Е.А. *История английского языка: Уч. пос.* - М.: НВИ-ТЕЗАУРУС, 2006. - 104 с.

Dilnoza Sokhibova

Termez university of economics and service

Teacher of the department of foreign language and literature

HEADWEAR TERMS WITHIN ENGLISH AND UZBEK IDIOMATIC EXPRESSIONS

This thesis examines the integration of headwear terms into the phraseological systems of English and Uzbek languages. The study highlights how elements like hat, cap, do'ppi, and salla carry symbolic meanings that reflect social values, identity, emotions, and cultural traditions in figurative expressions. Comparative analysis reveals that while English focuses on individual action and secrecy, Uzbek emphasizes respect, social dignity, communal and identity.

Keywords: *headwear, phraseology, idioms, symbolism, English, Uzbek, cultural linguistics*

Introduction

Phraseological units—idioms, proverbs, and sayings—are fundamental to understanding the worldview of a speech community [[1, Jackson & Amvela, 2007, p. 121]]. Among them, headwear terms serve as rich symbolic elements. Studying how such terms are embedded into figurative language reveals the deep intertwining of material culture and semantics.

Main Analysis

English Phraseological Usage of Headwear Terms

In English, the word hat appears in many idiomatic expressions, symbolizing action readiness, secrecy, or humility:

- At the drop of a hat – Acting instantly without hesitation [[2, McArthur, 1992, p. 431]].
 - Keep it under your hat – Keeping something secret.
 - Throw your hat into the ring – Declaring one's candidacy [[3, Kövecses, 2000, p. 98]].
- Here, hats metaphorically represent individual action, confidentiality, and ambition.

Uzbek Phraseological Usage of Headwear Terms

In Uzbek, do'ppi and salla frequently appear in phraseological units, carrying cultural weight:

- Do'ppisini ko'tarmoq – To express admiration or respect [[4, Sharifov, 2015, p. 71]].
- Do'ppisini o'ynatmoq – To boast or show excessive pride.
- Salla o'rash – To take on a religious or authoritative role.

In Uzbek culture, headwear idioms are closely tied to social status, honor, and community relationships [[5, Alimov, 2009, p. 115]].

Contrastive Observations

| ASPECT | ENGLISH | UZBEK |
|-------------------------------|---|--|
| Dominant Headwear Term | Hat, Cap | Do'ppi,salla,kalpak,qo'llob |
| Main Semantic Fields | Speed (at the drop of a hat), Secrecy (keep it under your hat), Retirement (hang up one's hat), Competition (throw one's hat into the ring) | Respect (doppi ustidan o'pmaq), Anger (do'ppisini yerga urmoq), Honor (kalpakni o'ynatmoq), Religious duty (salla o'ramoq) |
| Additional Expressions | Old hat (something outdated), Cap in hand (showing humility), Hat trick (three successes) | Kalpakni ag'darib tashlamoq (disrespect someone), Sallasi yerda qolmoq (lose respect or prestige) |
| Cultural Emphasis | Action, Social behavior, Quick decisions, Personal initiative | Social hierarchy, Honor and shame culture, Religious affiliation, Emotional display |
| Phraseological Richness | High — active, behavior-related idioms with hats and caps | High — strong ties to cultural traditions, regional identity, religious norms |
| Typical Functions of Headwear | Symbol of activity, competition, secrecy, aging | High — strong ties to cultural traditions, regional identity, religious norms |
| Linguistic Features | Frequent metaphors: quick action, secrecy, initiative | Rich metaphorical and emotional meanings linked to social respect and reputation |

Both languages employ metaphorical thinking based on actions associated with headwear. In English, the focus is more on action and social dynamics, while in Uzbek, the emphasis is on respect, emotion, and tradition.

Thus, headwear-related phraseology in English reflects a culture of individualism, whereas in Uzbek it projects collectivism and social roles [[6, Crystal, 2003, p. 189]].

Conclusion

The figurative use of headwear terms in English and Uzbek phraseologies reveals cultural priorities and social values encoded within each language. Headwear is not merely functional but is deeply symbolic, shaping idiomatic expressions that highlight differing views of selfhood, respect, secrecy, and honor. A broader cross-linguistic study can further enrich intercultural communication and translation practices.

References

1. Jackson, H., & Amvela, E. Z. (2007). *Words, Meaning and Vocabulary: An Introduction to Modern English Lexicology*. London: Continuum.
2. McArthur, T. (Ed.). (1992). *The Oxford Companion to the English Language*. Oxford: Oxford University Press.
3. Kövecses, Z. (2000). *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Sharifov, M. (2015). *O‘zbek tilining frazeologik boyligi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Alimov, Sh. (2009). *O‘zbek tilining leksikologiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
6. Crystal, D. (2003). *English as a Global Language*. Cambridge: Cambridge University Press.

Anorqulov Sanjar Iskandarovich
Samarqand davlat chet tillar instituti
PhD, dotsenti
E-mail: s.anorqulov@gmail.com

O‘ZBEKISTON TOPONIMIK QATLAMLARINING MILLIY- MADANIY O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada toponimik qatlamlarning o‘ziga xosligi, o‘zbek madaniyati bilan uyg‘unlashuvi haqida fikr yuritiladi. Toponimik qatlamlar va ularning tadbiiq qilinishi, shakllanishi va ommalashishi bilan bog‘liq tizim tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Toponimika, toponimik qatlam, joy nomlari.

O‘zbekiston toponimikasida oromiy (Nanáy), sug‘diy (Névich, Parként), turkiy (Tashként, Aksú), xitoy (Osh), mo‘g‘ul (Buká, Durmén), arabiy (Pop), forsiy (Shash) va slavyan tillari (Soldatskoye, Mayskiy) va hatto turli tillardan tarkib topgan gibridlarning ta’siri o‘z ifodasini topgan (Красный Aksú, Brichmullá). [E.Begmatov]. V.A. Juchkevich qayd qilib o‘tganidek, O‘zbekiston hududida toponimlarning to‘rt qatlamini farqlash mumkin, biroq ular haqiqiy toponimik qatlam xususiyatiga ega emas. U qadimiy (aralash kelib chiqishga ega) qatlamlarni qayd qiladi: eroniy, turkiy, rus. Bizningcha, O‘zbekistonda turkiy (o‘zbek) toponimik tizim shakllangan.) Ular nafaqat toponimik lug‘at tizimini, balki ijtimoiy-siyosiy, biogeografik lug‘at tizimini ham qamrab oladi.

O'zbekiston toponimikasida so'g'diy elementlar qadimgi Baqtriya podsholigi O'rta Osiyodagi qadimgi davlat birlashmasi hisoblangan. Milloddan avvalgi 7-6 asrlarda Qadimgi Baqtriya podsholigi Marg'iyona va Sug'diyonani o'z ichiga olgan holda Surxon, Qashqadaryo va Zarafshon vohalarini qamrab olgan. Millodiy V asrda sug'd tili sohiblari Farg'ona vodiysi, Choch va Yettisuv vohasida yashay boshlaganlar. Arablar istilosiga qadar sug'd tili Zarafshon daryosidan Issiq Ko'lgacha bo'lgan hududlarda hukmronlik qildi, so'g'd savdo-sotiq vakillari doimiy ravishda Xitoy va Yettisuvda bo'lib turishgan, faol sug'd savdo-sotig'i sababli sug'd tili Markaziy Osiyo hududida lingua franca maqomiga ko'tarilgan. Boshqa o'rta eroniy tillarning ko'pchiligi singari sug'd tili ham oromiy yozuviga asoslangan.

Sug'd tili – eron tillarining sharqiy-eron guruhiga mansub o'lik til bo'lib, unda Zarafshon daryosi bo'yida (zamonaviy O'zbekiston va Tojikiston hududida), shuningdek, “Buyuk Ipak Yo'li”da joylashgan ko'p sonli qishloqlardagi sug'diyonaliklar so'zlashishgan. Tojikistonning Yag'nob daryosi bo'yidagi aholi gapiradigan zamonaviy yag'nob tili sug'd tiliga juda yaqin bo'lgan dialektga borib taqaladi, shu bois ba'zan “yangi sug'd” tili deb ham ataladi.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, sug'd toponimikasi quyidagi komponentlari bilan ajralib turadi: pada - joy, sera – yuqori qism, asp - ot, vara – deyarli har doim madaniy o'simlik yoki butalarning nomini o'zida ifodalovchi formantlar bilan qo'llanadi, gar - dovon, tog', gov - sigir, gur – katta dumaloq tosh, darv - taroq, dor – tog' jinsi, zoy – yer maydoni, itk - ko'prik, kat - uy, kash – tog' havzasi, kul - yaylov, kutan – podani haydash joyi, marg - o'tloq, nov, nau – jarlik, jar, rovtut, raut - dara, cap – yuqorigi qism, sang, sank, sanko – yakka tosh, tak - past, chor – tor dara, choshtepa – uyilgan tepalik, chug – toshlardan hosil bo'lgan fakl, cap – nimadandir baland joy, hudud. Ular orasidan bugungi kunda bir nechta asosiylari saqlanib qolgan bo'lib, ular toponimning sug'diy etimologiyasidan dalolat beradi:

Vara, var – inshoot, qishloq, qasr, qal'a. Var – atrofi devor bilan o'ralgan qurilish, qasr, qal'a, mustahkam aholi punktlariga ega mamlakat.

Masalan, qadimiy shahar “Xorazm” nomi quyidagi komponentlardan tuzilgan (xu + vara + zam) bo'lib, “mustahkam qurilish va inshootlarga, chegaralangan qishloqlarga ega mamlakat” degan ma'noni anglatadi, bunda zam – yer degani.

Yana boshqa misollar sifatida quyidagi toponimlarni keltirib o'tish mumkin: Dalvarzin “Tepalikdagi qal'a”; Vardanza – “O'ralgan joy”. Varaxsha, Vardana toponimlari ham shular jumlasidandir. Kat, kent, kant – shahar, uy. Dastlabki ma'nosi – “mustahkam, kuchli, asosli”. Shu ma'nosiga ko'ra “uy” tushunchasining belgilanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. X-XI asrlargacha “uy” ma'nosida ishlatilgan. XIX asrgacha Buxoroda yer bilan bog'liq hujjatlarda saqlanib qolgan. “Katxudo” termini hanuzgacha toshkentliklar va farg'onaliklarga “oila, uy boshlig'i” ma'nosida tanish (Nanay, Brichmullo, Xo'jakent, Parkent, Pskent, So'qoq, Chodoq, Chuyet i t.d.).

Abayev V.I. kat, kata asosi kan – qazish, kavlash, ko'mish, yuklash o'zagi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqadiki, kata - uy va kanta -shahar. Aves. kata – yerto'la, xona, ombor. Forsiy kada, kad - uy. Afg'oncha kand – chuqur, xandak. Shundan kelib chiqib, Mirzayevning qayd qilishicha, atrofi devor, xandaq bilan o'ralgan inshoot, shahar tushunchalariga o'tilishini tasavvur qilish oson.

O'zbekistonda – kat – Kyat (Xorazm), Kat - Qashqadaryoda, Tunket, Tukket, Shashket, Daxket, Nuket, Navkat; kent, qand: Zarkent, Tashkent, Pskent, Binkent, Samarqand, Paykend va boshq. Dunyoning qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Samarqand ikkita sug'diy komponent: samara “tosh” va kand – “shahar”dan tashkil topgan sug'diy toponimdir.

Sugʻdiy toponimik qatlamning yana bir namunasi tariqasida “Buxoro” toponimini keltirib oʻtish mumkin. Buxoro nomi ilk bor 830 yildagi yozma manbada tilga olingan boʻlib, Akademik V.V. Bartold mazkur nomni sanskritcha vixara – “Buddaviylik monastiri” bilan bogʻlaydi.

Biroq nisbatan keyinroq VIII asrda topilgan sugʻdiy hujjatlarda Puxar (sr. uzb. dial. Pukara, Pukar – “Buxara”) shaklida qayd qilinadi va yuqorida qayd qilinganidek sanskritcha vixaradan hosil boʻla olmaydi. A.Muxammadjanovning taxmin qilishicha, sugʻdiy Bugoro – “Olloh jamoli” asos boʻlgan va bu, uning fikricha, hudud tabiatiga doir qadimiy taʼriflarga mos keladi.

Quyidagilar ham sugʻdiy toponimlar sirasiga mansub: Darxon, Gartepa, Samarqand, Shofirkon, Armidjan, Gijduvan, Varganza, Varaxsha, Afshona, Romitan, Zandoni, Bagani, Amankutan, Duvolli, Zargus, Marvzor, Rudaku, Chovdi, Chorbor, Pudkna, Depkamar, Davtosh, Pashob, Tagob, Xomkon, Ruljoti, Arnoli, Duroba, Langarbuloq, Tangsat, Aylangar, Parnavat, Kengsat, Navkat, Toxk, Pushtikat, Oʻratepa. Kuzatishlarning dalolat berishicha, sugʻd davriga oid geografik nomlar asosan yirik aholi markazlari oykonimlarida saqlanib qolgan. Sugʻdiy toponimlarning katta qismi keyinchalik shahar shakllanishi uchun asos boʻlgan atrofi oʻralgan aholi hududlari bilan bogʻliq.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006.
2. Ashurova D.U, Galieva M.R. Cognitive Linguistics. – Tashkent: VneshInvestProm, 2018.
3. Reformatskiy A.A. Vvedeniye v yazykovedeniye. – M.: Aspekt Press, 2005.
4. Begmatov E. Joy nomlari maʼnaviyat kuzgusi – Toshkent: Maʼnaviyat, 1998.
5. Nafasov T, Nafasova V. Oʻzbek tili toponimlarining oʻquv izohli lugʻati.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
6. Xasanov X. Geografik nomlar siri. T. «Uzbekiston». 1985
7. Sagdullayev A. Uzbekiston ilk yozma manbalarda. T. «Fan». 1996.

Sodiqov Lazizjon Muso oʻgʻli
Samarqand davlat chet tillar instituti
tayanch doktoranti.
Email: lazizjon@mail.ru
Tel: 998993111618

NEMIS VA OʻZBEK MAQOLLARINING STRUKTUR TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis va oʻzbek tillaridagi maqollar struktur jihatdan tahlil qilinadi. Maqollar xalq ogʻzaki ijodining eng qadimiy va boy janrlaridan biri boʻlib, ularning grammatik va sintaktik qurilishi milliy tafakkur hamda madaniy qadriyatlarni ifodalaydi. Nemis va oʻzbek maqollari struktur jihatdan oʻxshashlik va farqlarga ega boʻlib, ular koʻpincha qisqa, ritmik va parallel tuzilmalar orqali shakllanadi. Tadqiqotda maqollarning morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlari tahlil qilinib, ikki tildagi oʻxshashliklar hamda milliy xususiyatlarni namoyon etuvchi farqlar yoritiladi.

Kalit soʻzlar: maqol, nemis tili, oʻzbek tili, struktur tahlil, sintaksis, xalq ogʻzaki ijodi.

СТРУКТУРНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НЕМЕЦКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦ

Аннотация. В данной статье немецкие и узбекские пословицы анализируются с точки зрения их структуры. Пословицы являются одним из самых древних и богатых жанров устного народного творчества, а их грамматическое и синтаксическое построение отражает национальное мышление и культурные ценности. Немецкие и узбекские пословицы имеют как структурные сходства, так и различия, при этом они зачастую

формируются посредством кратких, ритмичных и параллельных конструкций. В исследовании рассматриваются морфологические, синтаксические и семантические особенности пословиц, выявляются сходства и различия, отражающие национальную специфику двух языков.

Ключевые слова: пословица, немецкий язык, узбекский язык, структурный анализ, синтаксис, устное народное творчество.

STRUCTURAL INTERPRETATION OF GERMAN AND UZBEK PROVERBS

Abstract. This article analyzes German and Uzbek proverbs from a structural perspective. Proverbs are among the oldest and richest genres of folk oral literature, and their grammatical and syntactic structure reflects national thinking and cultural values. German and Uzbek proverbs demonstrate both structural similarities and differences, often being formed through short, rhythmic, and parallel constructions. The study examines the morphological, syntactic, and semantic features of proverbs, highlighting similarities as well as differences that reveal the national characteristics of the two languages.

Keywords: proverb, German language, Uzbek language, structural analysis, syntax, folk oral literature.

Maqollar xalqning ma'naviy merosini, hayotiy tajribasini, donishmandligini ifodalovchi janr sifatida lingvistik jihatdan ham qiziqish uyg'otadi. Ular nafaqat mazmun, balki shakl jihatidan ham xalq tafakkurining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Shu bois maqollarni struktur jihatdan tadqiq etish ularning grammatik qurilishi, sintaktik imkoniyatlari hamda milliy madaniyat bilan bog'liq jihatlarini aniqlashda muhimdir. Nemis va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lsa-da, ulardagi maqollarda umumiylik va milliylikni ko'rsatadigan jihatlar mavjud.

Qardosh bo'lmagan tillarda maqollarning umumiy struktur xususiyatlari

Maqollar qisqa va lo'nda ifoda shaklida bo'lib, ko'pincha ikki qismdan tashkil topadi. Ularning struktur qurilishi sintaktik parallelizm, ritmik bo'linish, antonimik qarama-qarshilik va takroriylik asosida shakllanadi.

O'zbek maqollarida qo'shma gaplar va parallel konstruksiyalar keng qo'llanadi:

“Yaxshilik qil — daryoga ot, baliq bilmasa, Xudo bilar.”

“Odam bo'lsin — odamga odam bo'lsin.”

Nemis maqollarida esa qisqa sodda gaplar, qarama-qarshi munosabatni bildiruvchi konstruksiyalar ustuvor:

„Ende gut, alles gut.“ (Yaxshi tugagan ish – hammasi yaxshi.)

„Wie der Vater, so der Sohn.“ (Ota qanday bo'lsa, o'g'il ham shunday.)

Maqollarning morfologik xususiyatlar. O'zbek maqollarida fe'l shakllari va affikslar muhim rol o'ynaydi: **-sa, -mas, -dir** kabi qo'shimchalar tez-tez uchraydi.

Nemis maqollarida esa fe'l zamonlari va modal fe'llarning qo'llanilishi ustunlik qiladi: *muss, soll, darf* kabi birliklar ko'p qo'llanadi.

Sintaktik tuzilma. O'zbek maqollarida ergash gapli qo'shma gaplar ko'p uchraydi:

“Mehnat qilgan – to'q, mehnat qilmagan – och.”

Nemis maqollarida esa qisqa jumlar va koordinativ bog'lovchilar orqali qurilgan gaplar keng tarqalgan:

„Aller Anfang ist schwer.“ (Har qanday boshlanish qiyin.)

Tilshunoslikda maqollardagi parallel va antonimik strukturalar. Har ikki tilda ham maqollar ko'pincha parallel tuzilmaga ega.

O'zbekcha: “El bilan yegan halvo — halvo, yolg'iz yegan — zahar.”

Nemischa: „Ohne Fleiß kein Preis.“ (Mehnatsiz mukofot yo‘q.)
Bu hol maqollarning ta‘sirchanlik va ritmik ohangini kuchaytiradi.

Xulasa qilib aytadigan bo‘lsak nemis va o‘zbek maqollari struktur jihatdan qisqa, lo‘nda va ifodali bo‘lishi bilan o‘xshashlikka ega. Har ikkala tilda ham maqollar parallelizm, antonimlik va sintaktik ixchamlik asosida shakllanadi. Biroq, o‘zbek maqollarida ergash gapli qo‘shma gaplar ko‘proq uchrasa, nemis maqollarida sodda gaplar ustuvorlik qiladi. Bu esa har bir tilning grammatik tizimi va milliy tafakkur xususiyatlarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev, M. (2015). *O‘zbek maqollari tili va uslubi*. Toshkent: Fan.
2. Mieder, W. (2004). *Proverbs: A Handbook*. Westport, Connecticut: Greenwood Press.
3. Ahmedov, A. (2019). *Tilshunoslikda maqollar va ularning tahlili*. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
4. Röhrich, L. (1991). *Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten*. Freiburg: Herder.
5. Karimov, S. (2020). “Nemis va o‘zbek maqollarining lingvistik qiyosiy tahlili”. *Filologiya masalalari*, №2, 45–52.

Gafurova Umida Kadirxanovna
University Business and Science
o‘qituvchisi
O‘zbekiston, Namangan
umidaqodirxanovna@gmail.com

STRUKTUR TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTI VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA UNING SHAKLLANISHI

Annotatsiya: Maqolada XX asr boshlarida shakllangan struktur tilshunoslikning nazariy asoslari va uning o‘zbek tilshunosligida shakllanish jarayoni yoritilgan. Boduen de Kurtene va Ferdinand de Sossyur qarashlari asosida tilni tizimli yaxlitlik sifatida o‘rganish g‘oyasi keng tahlil qilinadi. Shuningdek, Praga lingvistik maktabi, rus strukturalizmi va ularning fonologiya, sintaksis hamda semantika sohalariga qo‘shgan hissasi ko‘rsatilgan. O‘zbek tilshunosligida esa G‘ozi Olim Yunusovdan boshlab N. Mahmudov, A. Nurmonov, R. Sayfullayeva kabi olimlar tadqiqotlari asosida strukturalizmning rivoji va metodologik tamoyillari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: struktur tilshunoslik, paradigmatic munosabat, sintagmatik munosabat, fonologiya, sistem-struktur yondashuv, o‘zbek tilshunosligi, Saussure, Boduen de Kurtene, Praga maktabi, funksional strukturalizm.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы структурной лингвистики, возникшей в начале XX века, и процесс её формирования в узбекском языкознании. Подробно анализируются идеи И.А. Бодуэна де Куртенэ и Ф. де Соссюра о языке как о целостной системе. Отражено влияние Пражской лингвистической школы и российского структурализма на развитие фонологии, синтаксиса и семантики. В узбекской лингвистике раскрыт вклад Гози Олим Юнусова, Н. Махмудова, А. Нурмонова, Р. Сайфуллаевой и других учёных в развитие структурного подхода и его методологических принципов.

Ключевые слова: структурная лингвистика, парадигматические отношения, синтагматические отношения, фонология, системно-структурный подход, узбекское языкознание, Соссюр, Бодуэн де Куртенэ, Пражская школа, функциональный структурализм.

Abstract: The article explores the theoretical foundations of structural linguistics that emerged in the early 20th century and its development within Uzbek linguistics. It highlights the ideas of Baudouin de Courtenay and Ferdinand de Saussure, who conceptualized language as a systematic whole. The influence of the Prague Linguistic School and Russian structuralism on phonology, syntax, and semantics is examined. In Uzbek linguistics, the works of G‘ozi Olim Yunusov, N. Mahmudov, A. Nurmonov, R. Sayfullayeva, and others are presented as key contributions to the advancement of structuralism and its methodological principles.

Keywords: structural linguistics, paradigmatic relations, syntagmatic relations, phonology, systemic-structural approach, Uzbek linguistics, Saussure, Baudouin de Courtenay, Prague School, functional structuralism.

O‘zbek tilshunosligi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon tilshunosligi taraqqiyotida shakllangan sistem-struktur (yoki struktural) yo‘nalish bilan bevosita uzviy aloqada rivojlandi. Bu nazariya o‘zbek tilshunosligida til hodisalarini butun bir tizim sifatida o‘rganish, til birliklari o‘rtasidagi paradigmatic, sintagmatic va assotsiativ munosabatlarni aniqlashga qaratildi.

XX asr boshlarida dunyo tilshunosligida shakllangan struktur tilshunoslik yo‘nalishi tilni yaxlit tizim sifatida o‘rganishga qaratilgan yondashuv sifatida maydonga chiqdi. Bu g‘oya, avvalo, Ivan Aleksandrovich Boduen de Kurtene fonema nazariyasi orqali nazariy jihatdan asoslangan bo‘lsa, Ferdinand de Sossyur uni umumiy tilshunoslikning ilmiy paradigmasiga aylantirdi. Boduen de Kurtene tilni o‘zgarimas hodisa emas, balki doimo rivojlanib, yangilanib boruvchi dinamik sistema sifatida ko‘rsatdi. Bu qarash strukturalizmga tilni ichki qonuniyatlarga ega bo‘lgan yaxlitlik sifatida tushunishga zamin yaratdi. Uning fonemaga tilning ijtimoiy-psixologik hodisasi sifatida qarashi esa keyinchalik struktural fonologiya rivojiga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. Shuningdek, ayrim grammatik hodisalarini paradigmatic qatorlar doirasida ko‘rib chiqqanligi til birliklarini qarama-qarshi qo‘yish orqali tushunishga yo‘l ochdi.

Shveysariyalik buyuk olim Ferdinand de Sossyur (1857–1913) yaratdi. U o‘zining Jeneva universitetida o‘qigan ma‘ruzalarida tilni an‘anaviy grammatik ta‘riflardan tubdan farqli tarzda izohlab berdi. Olimning vafotidan keyin shogirdlari Sh. Balle va A. Sechehe tomonidan tuzilib, 1916-yilda nashr qilingan “Umumiy tilshunoslik kursi” asari butun dunyo lingvistikasida yangi ilmiy davrni boshlab berdi. Mazkur asar o‘z davrida tilshunoslik fanining yo‘nalishini tubdan o‘zgartirgan manba sifatida e‘tirof etiladi. An‘anaviy tilshunoslikda til ko‘proq nutqiy hodisalar majmui sifatida qaralgan bo‘lsa, Sossyur tilni jamiyat tomonidan yaratilgan va har bir kishining nutqiy faoliyati orqali ro‘yobga chiqadigan ijtimoiy hodisa sifatida talqin qildi. Shu asosda tilning ijtimoiy va individual tomonlarining birligi konsepsiyasi ilgari suriladi. Sossyur tilni faqat so‘zlar yig‘indisi emas, balki birliklar o‘rtasidagi munosabatlar tarmog‘i deb hisoblagan. Uning ta‘limotiga ko‘ra til birliklari o‘zaro paradigmatic, sintagmatic va assotsiativ munosabatlarda bo‘ladi:

paradigmatic munosabat – bir xil tizimga mansub elementlarning o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilishi (masalan, ot turkumidagi so‘zlarning o‘zaro almashishi: kitob – daftar – daftarlar);

sintagmatic munosabat – nutq oqimida til birliklarining bir-biriga bog‘lanishi (yangi kitob o‘qidim);

assotsiativ munosabat – inson ongida yaqin ma‘noli yoki shakldosh birliklarning bir-birini eslatishi (kitob – daftar – qalam).

Til o‘zining ichki qonuniyatlariga ega bo‘lgan struktur yaxlitlik sifatida mavjuddir. Sossyur tilni mustaqil, ichki tizimga ega bo‘lgan, tashqi omillardan nisbatan mustaqil holda rivojlanadigan struktur hodisa sifatida belgilaydi. Tilning mohiyatini aniqlash uchun uni tarixiy

o'zgarishlardan (diaxroniya) farqlab, sinxroniya asosida o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Ya'ni tilning hozirgi holatini tizim sifatida tahlil qilish, keyingi taraqqiyot bosqichlarini tushunishga yordam beradi. Bu yondashuv keyinchalik butun struktural lingvistikaning metodologik asosi bo'lib xizmat qildi. Sossyur nazariyasi nafaqat tilshunoslik, balki semiotika, falsafa, adabiyotshunoslik kabi boshqa fanlarga ham ta'sir ko'rsata oldi. Ayniqsa, belgi nazariyasi strukturalizmning keyingi rivojida, jumladan, Praga lingvistik maktabi, Kopengagen glossologik maktabi, amerika deskriptiv lingvistikasi va rus strukturalizmi uchun nazariy asos vazifasini bajardi.

Ferdinand de Sossyur tomonidan ishlab chiqilgan struktural yondashuv 1920–30-yillarda Yevropada faoliyat yuritgan Praga lingvistik maktabi (Cercle Linguistique de Prague) vakillari tomonidan yanada rivojlantirildi. Ushbu maktab tilshunoslikka funksional strukturalizm tamoyilini olib kirdi. Uning asoschilari va yetakchi vakillari – Vilem Mathesius, Roman Jakobson, Nikolay Trubetskoy, Sergey Karchevskiy va boshqalar tilni dinamik, ijtimoiy-kommunikativ tizim sifatida o'rganishni maqsad qildilar. Praga maktabining eng katta ilmiy yutug'i – fonologiya fanining mustaqil bo'lim sifatida shakllanishidir. N. Trubetskoyning mashhur “Grundzüge der Phonologie” (1939) asari fonologiya nazariyasining poydevorini qo'ydi. U fonetika va fonologiyani qat'iy farqlab, fonetikani tovushlarning fizik–fiziologik jihatlarini, fonologiyani esa tovushlarning til tizimidagi funksional vazifasini o'rganuvchi fan sifatida belgiladi. Praga maktabi nafaqat fonologiyada, balki sintaksis va stilistikada ham funksional yondashuvni ilgari surdi. Masalan, Mathesius “tema – rema” nazariyasini ishlab chiqib, gap strukturasi va uning kommunikativ vazifasini bog'lab izohladi. Bu yondashuv keyinchalik matn lingvistikasi va funksional grammatikaning rivojlanishiga zamin yaratdi.

XX asrning 20–30-yillaridan boshlab rus tilshunosligida ham strukturalizm g'oyalari faol rivojlandi. Ferdinand de Sossyurning struktural tamoyillari keyingi bosqichlarda Rossiya lingvistikasida yangi tahliliy yondashuvlarni vujudga keltirdi. Rus tilshunosligida bu yo'nalish bir qancha tilshunos olimlar tomonidan tizimli va eksperimental usullar bilan rivojlantirildi.

Rus tilshunos olimi Lev Vladimirovich Shcherba (1880–1944) fonetika va fonologiya sohasida katta ilmiy ishlar qildi. U fonema tushunchasini («sound type» — tovush turlari) aniqlash va eksperimental fonetik tadqiqotlarni tashkil etishda yetakchi bo'lish bilan birga tilni «til tizimi — nutq faoliyati — til materiali» kabi uch obyekt orqali tadqiq etib, Sossyurdan farqli ravishda til obyektlarini yana bir darajaga chiqardi. Shcherba Leningrad (so'ngra Moskva) fonetika maktabini asoschisi sifatida tilshunoslikda empirik metodlarni keng joriy etdi.

Viktor V. Vinogradov (1895–1969) esa leksik-semantik va grammatik kategoriyalarni tizimli jihatdan o'rganishda muhim rol o'ynadi. Uning “Russkiy yazyk. Grammaticheskoe uchenie o slove” (1947) asari so'zning grammatik va semantik xususiyatlarini paradigmatic va sintagmatik munosabatlarda tahlil etish bo'yicha klassik manba sifatida qadrlanadi. Vinogradov leksika va grammatikaning struktural bog'liqligini ilmiy asosda ko'rsatib bergan rus olimidir.

Rus tilshunoslarining ilmiy yutuqlari strukturalistik metodologiyaning tilning fonetik, leksik va grammatik qatlamlarini tizimli, bir-biri bilan bog'liq darajada tahlil qilishiga xizmat qildi. Natijada strukturalizm XX asr lingvistik fikrining yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu esa fonologiya, grammatik tadqiqotlar, semantika va leksikografiyada o'z aksini topdi.

XX asr boshlaridan boshlab o'zbek tilshunosligida ham struktural yondashuv elementlari asta-sekin shakllana boshladi. Avvaliga bular alohida ko'rinishlar sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik mustaqil ilmiy maktab darajasiga ko'tarildi. O'zbek tilshunosligida struktural qarashlar dastlab G'ozzi Olim Yunusov, Hamid G'ulomov, Qayum Ramazon kabi olimlar ishlarida namoyon bo'ldi.

G'ozim Olim Yunusov (1893–1938) o'zbek tilshunosligining ilk namoyandalaridan biri sifatida tilni tizimiy asosda o'rganishga intildi. U 1920–30-yillarda yozgan “O'zbek tilining qisqa morfologiyasi” (1926), “O'zbek urug'lari va ularning shevalariga oid qisqacha qo'llanma” (1926) kabi ishlarida o'zbek tilining morfologik va sintaktik tizimini yagona butunlik sifatida talqin qilishga harakat qildi. Olimning qarashlarida morfema va grammatik kategoriyalarning paradigmatic bog'liqligi, tilning ichki tizimiylik tamoyillari ilg'or fikr sifatida namoyon bo'ldi. Shu jihatdan uning izlanishlari o'zbek strukturalizmining dastlabki poydevorlaridan hisoblanadi.

Sh. Shoabdurahmonov va A. G'ulomov 1950–60-yillarda o'zbek tili grammatikasini tizimli asosda tadqiq etishga katta hissa qo'shdilar. Xususan, ular hammualliflikda yaratgan “Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsligida (1961, 1965 va keyingi nashrlar) tilning fonetika, leksika, morfologiya va sintaksis bo'limlari o'zaro bog'langan ichki sistema sifatida yoritildi. Bu yondashuv o'zbek grammatikasining nazariy asosini mustahkamlab, struktural talqinning ta'lim tizimiga kirib kelishiga zamin yaratdi.

1980–90-yillardan boshlab N. Mahmudov va A. Nurmonov bu yo'nalishni yangi bosqichga olib chiqdilar. Ularning tadqiqotlarida o'zbek tilining paradigmatic va sintagmatic aloqalari, tizimlilik va funksionallik tamoyillari chuqur tahlil qilindi. A. Nurmonovning “Til va nutq munosabati” (1990), “O'zbek tilining sistem-struktur xususiyatlari” (1990-yillar) tadqiqotlarida Sossyur ilgari surgan g'oyalar o'zbek tilshunosligi uchun qayta ishlab chiqildi. Nurmonov tilni tizimli butunlik sifatida o'rganish bilan birga, uni nutq jarayonidagi dinamik hodisalar bilan qiyosiy tahlil qildi.

N. Mahmudovning “O'zbek tilining nazariy grammatikasi” (1995, 2005) asarida til birliklarining paradigmatic va sintagmatic aloqalari chuqur asoslangan, grammatik kategoriyalar tizim sifatida qaralgan. U fonema, morfema, so'z turkumlari va sintaktik birliklarning o'zaro munosabatini struktur birliklar sifatida ta'rifladi.

Keyingi yillarda A. Mirzayev, S. Karimov, R. Sayfullayeva kabi olimlar fonologiya, sintaksis va nutq madaniyati doirasida struktural qarashlarni yanada rivojlantirdilar.

Shunday qilib, struktur tilshunoslikning nazariy asoslari o'zbek tilshunosligida ham o'ziga xos maktabni shakllantirdi. Bugungi kunda ham morfologiya, sintaksis, leksikologiya va uslubshunoslik tadqiqotlarida sistem-struktur yondashuv asosiy metodologik tamoyillardan biri sifatida qo'llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boduen de Kurtene, I.A. (1963). *Izbrannyye trudy po obshchemu yazykoznaniyu*. Moskva.
2. Saussure, F. de. (1916/1983). *Course in General Linguistics*. London: Duckworth.
3. Trubetzkoy, N.S. (1939). *Grundzüge der Phonologie*. Prague.
4. Bloomfield, L. (1933). *Language*. New York: Holt.
5. Yunusov, G'. (1927). *O'zbek tilining qisqa morfologiyasi*. Toshkent.
6. Ramazon, Q. (1940). *O'zbek tili grammatik kategoriyalari*. Toshkent.
7. G'ulomov, H. (1941). *O'zbek tili fonetikasi masalalari*. Toshkent.
8. Shoabdurahmonov, Sh., G'ulomov, A. (1965). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: O'qituvchi.
9. Nurmonov, A. (1990). *Til va nutq munosabati*. Toshkent: Fan.
10. Mahmudov, N. (1995; 2005). *O'zbek tilining nazariy grammatikasi*. Toshkent: Fan.
11. Mirzayev, A. (1971). *O'zbek fonologiyasi masalalari*. Toshkent.
12. Karimov, S. (2002). *O'zbek tilining sintaktik tizimi*. Toshkent.

Yodgorova Nafisabonu Yodgor qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
yodgorovanafisa89@gmail.com

BADIIY MATNLARDA SUBYEKTIV MODALLIKNI IFODALASHDA KICHRAYTIRISH-ERKALASH SHAKLLARINING O‘RNI

Manbalarda baho formalari¹, kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari² deb nomlanadigan ot so‘z turkumiga xos bo‘lgan, ot, sifat, ba‘zan boshqa so‘z turkumlariga ham qo‘shilib kelishi mumkin bo‘lgan *-cha, -choq, -chak, -gina, -jon, -xon, -oy, -bek, -boy, -voy, -toy, -loq, bibi, -poshsha* kabi grammatik vositalarning badiiy matn va uning turlarida qo‘llanilishi o‘ziga xosdir. Chunki bu shakllar badiiy asarlarda kichraytirish, erkalash, suyish, kinoya, kamsitish, hurmat, ulug‘lash, kuchaytiruv kabi modal munosabatlarni ifodalash bilan birga qahramon xarakteri yoki ma‘lum vaziyatdagi holatini ochib berishda, individual nutq yaratishda yoki janr talabi bilan qo‘llanilishi mumkin. Mazkur qo‘shimchalarning semantik va stilistik xususiyatlarini atroflicha o‘rgangan R.Qo‘ng‘urov badiiy adabiyotda qo‘llanilishi xususida quyidagi fikrlarni keltiradi: “...shoir va yozuvchilar obrazlar xarakteri, xususiyatini ochishda, ularning odatlari, xatti-harakatini, xarakterini baholashda subyektiv baho formalariga tez-tez murojaat qilib turadi. Umuman, subyektiv baho formalari ko‘proq badiiy nutq, kamroq so‘zlashuv nutqi uchun xarakterli tasviriy vositadir”. Olim baho formalari lirik janrda yozilgan poetik asarlarda, dramatik va prozaik asarlarda ishlatilishini aytib o‘tadi³. Haqiqatan ham, badiiy asarlar, ayniqsa, nasriy asarlarda yozuvchi maqsadini amalga oshirishda, qahramonlar nutqining tabiiyligi, jonliligini ta‘minlashda kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari alohida vazifa bajaradi. Bu mulohazani O‘tkir Hoshimovning “Ikki karra ikki besh” qissasida qo‘llanilgan subyektiv baho shakllari orqali izohlashga harakat qilamiz. O‘tkir Hoshimovning “Ikki karra ikki besh” asari qahramon tilidan hikoya qilingani sababli kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari barcha subyektiv ma‘nolari bilan juda ko‘p qo‘llanilgan. Masalan, *-jon* erkalash qo‘shimchasi poetik individuallikni ta‘minlash (*E, do‘xtirjon! Qiynab nima qilasiz, odamni!*), erkalash (*O‘zing esli bolasan-ku, Qo‘shajon. –Sabzing muncha chiroyli, Qo‘shajon! –dedi ovozi tovlanib*), yalinish-yolvorish (*Qo‘shajon jon ukam! Baraka topkur ukam, bo‘ldi sekinroq*), hurmat, samimiylilik (*Endi, domlajon, bizlar o‘qiy olmadik!*), g‘ururlanish (*mana-da, dadajonimning bo‘lajak kelini!*) kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Ba‘zan matndan, asarning tabiatidan kelib chiqib, shu kontekstgagina xos ma‘no ifodalashi mumkin. Masalan, imtihon topshirayotgan paytda, (kirish imtihonida insho yozishayotganda) asar qahramoni va do‘stining oldiga kelayotgan domla holati yengil kulgi bilan tasvirlanadi. Bu tasvirga yumor ruhini berayotgan vosita esa *-jon* qo‘shimchasi: *Voy-bo‘! Domlajonning achchig‘i yomon ekan-ku! Bir mahal qaragam, domlajon biz tomonga bostirib kelyapti* (“Ikki karra ikki besh”, 259). R.Qo‘ng‘urovning “Subyektiv baho formalarini semantik

¹ Турсунов У., Мухторов А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, 1975. –Б. 140; 154.

² Фуломов А. Ўзбек тили дарслиги. –Тошкент, 1977. –Б. 66.

³ Қўнгулов Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. –Б.48.

va stilistik xususiyatlari” asarida *-boy*, *-bek*, *-qul* affikslari erkalatish ma’nosini berishi yoki kishilar o’rtasidagi amal va ijtimoiy o’rin bilan bo’g’liq bo’lgan farqlarni ko’rsatish uchun ishlatilishi, ba’zan kinoyali salbiy munosabatni bildiruvchi ma’no hosil qilishi aytib o’tilgan.¹ “Ikki karra ikki besh” qissasida ham **-boy** affiksi kishi otlariga, asosan, erkaklar ismiga qo’shib, hurmat, erkalash kabi ma’nolarni ifodalagan: *Qo’shoqboy! – dedi tantanali ohangda. – O’z ishlaringiz haqida ikki og’iz gapirib bersangiz (“Ikki karra ikki besh”, 272)*. Ba’zan kinoya, piching, tahdid ma’nolarini ifodalash uchun ham *-boy* affiksi ishlatiladi: Garchi tahdid, piching matnda ham anglashilib tursa-da, biroq *-boy* affiksi ham bu ma’nolarni ko’payishida o’ziga xos o’rin egallaydi. *-boy* affiksi ayrim turdosh otlarga ham qo’shib, so’zlovchining, qahramonning o’ziga xos nutqini aks ettirishi mumkin. Ba’zan erkalash ma’nosidan tashqari so’zlovchining nutq qaratilgan *-boy* affiksining *-voy* dialektal varianti ham ekspressiv ma’no berish uchun qo’llaniladi. Shuni aytib o’tish kerakki, bu affiks haqida manbalarda deyarli ma’lumot uchramaydi. Lekin tilda, xalq shevalarida o’zaro murojaatda kishi ismlariga asosan, erkaklar ismiga qo’shib keladi: *O’qituvchi opa yana boshimni siladi. -Oting. -Qo’shavoy! -Qo’shavoy degin...Yaxshi. Yoshing nechada? (“Ikki karra ikki besh”, 183); Buni qarangki, birinchi kundanoq Shodivoy bilan bitta partada o’trib qoldik (“Ikki karra ikki besh”, 184)*. Qahramonning o’ziga xos nutqini ochib berish uchun ham *-voy* qo’shimchasi qo’llaniladi: *Dadavoy, mana, kelingiz bilan tanishib qo’ying! – deymiz (“Ikki karra ikki besh”, 256)*.

-gina erkalash ma’nosini ifodalashdagi eng mahsuldor bo’lib, bu qo’shimcha erkalash, kichraytirish, sevish ma’nosida asosan, og’zaki so’zlashuv va badiiy uslubda keng qo’llaniladi. Ot, sifat va ravishlarga qo’shib, predmet belgisini bir oz pasaytirish, harakat belgisini pasaytirish, shu bilan birga ma’noni kuchaytirish, so’zlovchining o’ziga xos nutqini ifodalashda boshqa bir shaxsga nisbatan subyektiv fikrini, ya’ni achinish, qayg’urish alomatini aks ettirishda, sifatlarda modallik ma’nosini ifoda etishda faol ishtirok etadi. *-gina* affiksining hissiy-ta’siriy bo’yoqdorlikni ifodalashida gapning umumiy ruhi va matn muhim o’rin egallaydi: *Xudoga shukur. Ukam bor! Jiyaningni to’yiga bittagina ho’kiz, to’rttagina qo’y to’yana qil desam, bo’yin tovlamas. (“Ikki karra ikki besh”, 305)*. Ba’zan *-gina* affiksi erkalash, kichraytirish ma’nolari bilan bir qatorda yengil kinoya ma’nosini ham o’zida tashiydi: *Begmatov degani yuzi qoshiqdekkina, ko’zoynagi piyoladekkina kishi ekan (“Ikki karra ikki besh”, 258)*. Xullas, kichraytirish-erkalsh shakllari vaziyatni ochib berishda, qahramonning eng nozik tuyg’ularini aks ettirishda, asar uchun zarur bo’lgan soddalik, ravonlik, tabiiylikni vujudga keltirishda, jonlilikni ta’minlashda yozuvchiga yordamga keladi.

Adabiyotlar:

1. Karimov S. O’zbek tilining morfologik stilistikasi. – Samarqand: Fan bulog’i, 2022. – 187 b.

2. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 399 б.

3. Кўнгулов Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. – 168 б.

4. Хошимов Ў. Умр савдоси. Сайланма. Икки жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Шарк, 1998. – 687 б.

¹ Кўнгулов Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. – Б.47.

Nazarov Sardor Shamurodovich
Karshi Economics and Pedagogy University
Assistant Lecturer at the Department of Russian Language and Literature

THE STRUCTURAL FEATURES OF MULTI-COMPONENT TERMS AND THE ROLE OF COMPOUND WORDS IN MODERN TERMINOLOGY

Abstract: This paper investigates the structural and semantic characteristics of multi-component terms and compound words within the framework of modern terminology. It examines the interrelation between morphological composition and semantic coherence in terminological systems, emphasizing the role of compound terms in the evolution of scientific and technical discourse. A comparative study of Uzbek and English terminological units is carried out to identify the morphological patterns and functional mechanisms underlying the formation of multi-component terminological structures. The study also explores the productivity, stability, and systematizing role of compound terms in various domains such as technology, medicine, and information sciences. The results demonstrate that compound words and multi-component terms serve as key linguistic tools in enriching, structuring, and standardizing scientific language.

Keywords: term; compound word; multi-component structure; morphology; semantics; terminology; linguistic modeling; comparative analysis.

The terminological system of a language reflects the intellectual, scientific, and cultural development of a nation. Terms represent linguistic manifestations of scientific and technological progress, providing precision and standardization in specialized communication. Consequently, the study of their structural and semantic nature has become one of the core directions in modern linguistics.

Multi-component terms and compound words occupy a central place in scientific discourse, as they encapsulate complex conceptual meanings within compact linguistic forms. Both Uzbek and English languages make extensive use of such terms consisting of two or more components. For example, in English: *data processing system*, *artificial intelligence model*, *language acquisition theory*; and in Uzbek: *sun'iy intellekt tizimi* (“artificial intelligence system”), *ma'lumotlar bazasi* (“database”), *tarmoq xavfsizligi* (“network security”).

Multi-component terms are linguistic formations based on syntactic and semantic interdependence. Each component contributes a distinct semantic element, and together they form a coherent terminological unit.

For instance:

in English: *renewable energy source*, *natural language processing*, *information retrieval system*;
in Uzbek: *qayta tiklanuvchi energiya manbai*, *tabiiy tilni qayta ishlash*, *ma'lumotlarni izlash tizimi*.

In English, the predominant model is analytical, typically structured as **modifier + head**, whereas in Uzbek, a **determiner–determined** pattern (*aniqlovchi–aniqlanmish*) is preferred. These differences reflect broader typological contrasts between analytic and synthetic language systems.

Compound words are among the most productive mechanisms of term formation in scientific and technical vocabularies. They enable the creation of concise and semantically complete terms that encapsulate complex ideas efficiently.

Examples include:

English: *blackbox*, *database*, *keyboard*, *bloodstream*;

Uzbek: *so'zboshi* ("preface"), *quyoshbatareyasi* ("solar panel"), *dasturiyta'minot* ("software").

Such compounds ensure morphological economy and communicative efficiency within terminology. Structurally, a compound term consists of lexical bases that form a unified semantic field, thus functioning as a linguistic "short code" for scientific concepts.

While the terminological systems of Uzbek and English share certain universal principles, their structural organization differs due to typological contrasts. English, being analytic, favors **noun + noun** constructions (e.g., *power plant*, *control unit*), whereas Uzbek, a synthetic language, often employs compound words or multiword expressions (*elektr stansiyasi*, *boshqaruv bloki*).

Additionally, English terminology frequently uses abbreviations and acronyms (*CPU*, *AI*, *HTML*), while Uzbek terminology tends to adopt equivalent compound or translated forms (*markaziy protsessor bloki*, *sun'iy intellekt*). These differences illustrate how language structure influences terminological formation and lexical economy.

In multi-component terms, semantic harmony and morphological consistency among the components are essential. Terminological clarity and stability depend on the logical interrelation of constituent elements. Each component must maintain a well-defined semantic scope while contributing to the overall conceptual unity of the term.

For instance, in *machine learning algorithm*, the components *machine*, *learning*, and *algorithm* jointly construct a precise conceptual model. The Uzbek equivalent, *mashinali o'rganish algoritmi*, follows the same structural logic but reflects a different morphosyntactic pattern.

In conclusion, multi-component terms and compound words represent fundamental structural elements of modern terminology. They ensure precision, conciseness, and semantic stability in expressing scientific concepts. The morphological typology of a language significantly affects the structural form of its terms: analytic languages tend to favor multi-component expressions, while synthetic languages employ more compact compound formations. A comprehensive understanding of these features contributes to improving terminological standardization and cross-linguistic translation practices. Therefore, the analysis of terminological structures must integrate morphological, semantic, and functional perspectives to reveal the dynamic interplay between language structure and scientific thought.

References

1. Kaplan, M. (1998). *Terminology and the Systematization of Scientific Language*. Moscow: Nauka.
2. Kuznetsova, N. I. (2005). *Linguistic Foundations of Terminology*. St. Petersburg: SPbGU Press.
3. Khojiev, Sh. (2016). *Formation and Development of Uzbek Terminology*. Tashkent: Fan.
4. Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, Methods, and Applications*. Amsterdam: John Benjamins.
5. Temmerman, R. (2000). *Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach*. Amsterdam: John Benjamins.

6. Nematov, A. (2021). *Language and Terminology: Linguistic and Cognitive Perspectives*. Tashkent: National University Press.

**Samarkand State Institute of Foreign
Languages,
The Department of
English Lexicology and Stylistics,
Teacher
Bakhrilloeva Nargiza Bakhtiyorovna
tel: +998972858878
nbahrullayev@mail.ru**

LOGICO-SEMANTIC RELATIONS IN PARATAXIS IN ENGLISH LANGUAGE

Abstract. This article examines the concepts which govern the interdependence of clauses in complicated sentences, with an emphasis on the taxis concept—the degree of dependence between clauses. According to Halliday, there are two forms of taxis: parataxis, in which phrases have equal status and can be considered distinct propositions, and hypotaxis, in which one clause is reliant on another and serves as a qualifier. Clause complexes differ from coherent sequences in both written and spoken forms, as illustrated by linguistic examples. The debate focuses on how sentence linking adds to discourse's logical and rhetorical order, allowing speakers and writers to portray temporal, functional, and elaborative relationships within text.

Абстракт. В данной статье рассматриваются концепции, определяющие взаимозависимость частей сложноподчинённых предложений, с акцентом на концепции таксиса — степени зависимости между частями предложения. По мнению Холлидея, существует два вида таксиса: паратаксис, при котором фразы имеют равный статус и могут рассматриваться как отдельные предложения, и гипотаксис, при котором одна часть предложения зависит от другой и служит квалификатором. Комплексы частей предложения отличаются от связных последовательностей как в письменной, так и в устной форме, что иллюстрируется лингвистическими примерами. В центре дискуссии — то, как связь предложений способствует логическому и риторическому порядку дискурса, позволяя говорящим и писателям отображать временные, функциональные и содержательные отношения в тексте.

Key words. Parataxis, hypotaxis, logico-semantic relation, relational structure, degree of interdependency, elements, clauses, complex clause, nominal group.

Ключевые слова. Паратаксис, гипотаксис, логико-семантическое отношение, реляционная структура, степень взаимозависимости, элементы, придаточные предложения, сложноподчинённое предложение, именная группа.

According to British linguist Halliday all clauses linked by a logico-semantic relation are interdependent: that is the meaning of relational structure — one unit is interdependent on another unit. Two clauses related as interdependent in a complex may be treated as being of equal status. Here there are two clauses that are potentially independent of one another. For example, each constitutes a proposition in its own right and could thus be tagged — Kukul crouched low to the ground, didn't he? and he moved slowly, didn't he? They could in fact select

for different moods; for example, Kukul crouched low to the ground but did he move slowly? There is a closely agnate version where the two clauses are not brought together structurally in a clause complex but rather form a cohesive sequence: Kukul crouched low to the ground. He moved slowly. In this version the elliptical Subject of the second clause has to be reinstated, since such subject ellipsis is not possible outside the domain of a clause complex. The two versions are treated differently in the graphology: in the cohesive sequence, the two clauses are separated by a full stop; but in the clause complex, there is no full stop separating the clauses (though there could have been a comma or even semi-colon). This reflects the typical realization in the phonology: in the cohesive sequence, the first clause would be spoken on tone 1 (falling), and then followed by the second clause also on tone 1; but in the clause complex, the first clause would be spoken on tone 3 (level), and then followed by the second clause on tone 1. Here tone 3 indicates that there is more to come — by the expansion of the clause to form a clause complex. Alternatively, two clauses related as interdependent may be treated as being of unequal status, as in: “As he came to a thicket, he heard the faint rustling of leaves”. Here there is only one clause that could stand on its own — he heard the faint rustling of leaves. This is treated as the ‘main’ clause, and the other clause is related to it as a (temporal) qualification, as in the case of the “Head + Modifier structure” of the nominal group. While the main clause constitutes a proposition in its own right and can thus be tagged (he heard the faint rustling of leaves, didn’t he?), the qualifying clause does not and cannot be tagged (we would not expect to find as he came to a thicket, didn’t he, he heard the faint rustling of leaves). This combination of clauses would typically be spoken as a sequence of tone 4 (falling-rising) and tone 1, with the qualifying clause thus marked off in the same way as a marked Theme. There is no closely agnate non-structural, cohesive version; or rather, such a version is agnate only via an intermediate version where the two clauses are related as having equal status within a clause complex: (clause complex, equal status:) He came to a thicket and at that time he heard the faint rustling of leaves — (cohesive sequence:) He came to a thicket. At that time he heard the faint rustling of leaves. Interestingly, the qualifying clause can be placed either before or after the “head” clause: as he came to a thicket he heard the faint rustling of leaves: he heard the faint rustling of leaves as he came to a thicket. The choice is determined by textual considerations. The version that appears in the original text presents the temporal qualifying clause as thematic within the clause complex. Degree of interdependency is known technically as taxis; and the two different degrees of interdependency as parataxis (equal status) and hypotaxis (unequal status). Hypotaxis is the relation between a dependent element and its dominant, the element on which it is dependent. Contrasting with this is parataxis, which is the relation between two like elements of equal status, one initiating and the other continuing. The distinction between parataxis and hypotaxis has evolved as a powerful grammatical strategy for guiding the rhetorical development of text, making it possible for the grammar to assign different statuses to figures within a sequence.

Here the main sequence is represented paratactically as two clauses of equal status and the second clause is qualified hypotactically by a purpose clause. This purpose clause has a “lower” status; it is brought in to support its main clause. This can also be seen very clearly in procedural texts, as in the following examples from a walking tour in Sydney: “If you are feeling a little more energetic, walk up Kirribilli Road, turn right into Waruda Avenue, then right again into Waruda Street where you will find Mary Booth Reserve. In this example, the procedure is represented by the paratactic sequence walk up Kirribilli Road + turn right into Waruda Avenue, then right again into Waruda Street. This is supported by two hypotactically related clauses. The first is a conditional one and introduces the sequence as a choice in the walking tour.

References:

1. M.A.K. Halliday and Christian Matthiessen, "An introduction to functional grammar", Oxford University Press Inc., 2004.-689p.
2. Morten Gylling, "The structure of discourse", 2013.
3. <https://www.researchgate.net/signup.SignUp.htm>

Ruziyeva Nasiba Kenjayevna

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: ruziyevanasiba24.02gmail.com

FRANSUZ TILIDAGI SIYOSIY TERMINLARNI TARJIMASI RUS VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima bo'yicha V.G.Gak asarlari orasida haqli ravishda "Tarjima kursi. Fransuz tili. Ijtimoiy-siyosiy leksika" asarida siyosiy lug'at va grammatika o'rtasidagi mavjud munosabat muammosini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratgan. Ushbu darslik SSSRda ikki tomonlama tarjimaning tizimli kursini yaratishga qaratilgan birinchi urinish bo'ldi. Darslik ijtimoiy-siyosiy materiallarni rus tilidan fransuz tiliga va fransuz tilidan rus tiliga tarjima qilish usullarini o'rgatishga mo'ljallangan. Uning maqsadi tarjima ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, talabalarni asosiy ijtimoiy-siyosiy lug'at, gazetalardagi iboralar va fransuz jurnalistikasining eng muhim stilistik xususiyatlari bilan tanishtirishdan iborat edi.

Kalit so'zlar: leksik, grammatik, stilistik, morfologik

Аннотация: В данной статье, среди работ В.Г. Гака по переводу, он справедливо уделил серьёзное внимание изучению проблемы соотношения политической лексики и грамматики в своём труде «Курс перевода. Французский язык. Общественно-политическая лексика». Этот учебник стал первой в СССР попыткой создания систематического курса двустороннего перевода. Учебник был предназначен для обучения приёмам перевода общественно-политических материалов с русского на французский и с французского на русский язык. Его целью было развитие навыков перевода, а также ознакомление студентов с основной общественно-политической лексикой, газетными фразами и важнейшими стилистическими особенностями французской публицистики.

Ключевые слова: лексический, грамматический, стилистический, морфологический

Abstract: In this article, among V.G. Gak's works on translation, he rightly paid serious attention to the study of the problem of the relationship between political vocabulary and grammar in his work "Course of Translation. French Language. Socio-Political Lexicon". This textbook was the first attempt in the USSR to create a systematic course of two-way translation. The textbook was intended to teach methods of translating socio-political materials from Russian into French and from French into Russian. Its aim was to develop translation skills, as well as to introduce students to basic socio-political vocabulary, newspaper phrases and the most important stylistic features of French journalism.

Keywords: lexical, grammatical, stylistic, morphological

Bugungi globalashgan dunyoda fransuz tiliga ixtisoslashgan tarjima va tarjimonlarga talab katta. Fransuz tili dunyodagi eng keng tarqalgan tillardan biri bo'lganligi sababli, korxonalar, tashkilotlar va jismoniy shaxslar fransuz tilida to'g'ri va samarali muloqot qila oladigan mutaxassislarni izlashlari ajablanarli emas. Tarjimonlar yozma hujjatlarni bir tildan

boshqa tilga o'tkazish uchun javobgardir. Ular har ikki tilni chuqur bilishlari va asl hujjatning ma'nosini to'g'ri yetkaza olishlari kerak. Shu o'rinda V.G.Gak til o'rgatish va tarjima faoliyati nafaqat o'quvchilarning bilimni o'zlashtirishga, ularning asl tilda bayon etilgan fikr mazmunini to'g'ri yetkazish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga, balki o'rganilayotgan til yordamida barcha matnlarni xabar uslubi va shaklining xususiyatlari qayta yaratishga qaratilishi kerak, deb hisoblagan. Malakali tarjima tilni o'qitishning asosi bo'lishi hamda bu mazmun va shakl birligini qayta yaratish muammosini hal qilishi lozim. Avvalo, asl nusxani to'g'ri tushunishni ta'minlash kerak, ammo bu malakali tarjima uchun yetarli emas. Turli tillarning elementlari o'rtasidagi yozishmalarni tanlash bosqichida qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Muammo shundaki, matnni tushunishga qaramay, tarkibni boshqa tilda yetkazish – tillararo yozishmalarni topish oson emas. Shunday ekan, tarjima qilish tayyor tillararo yozishmalarni o'zlashtirishga, shuningdek, muayyan holatda mos keladigan ekvivalentlar bo'lmasa, ularni tanlash ko'nikmalarini shakllantirishga asoslanishi kerak¹.

Tarjima qilish imkoniyatining o'zi ikki til elementlari o'rtasida to'liq yozishmalar imkoniyatini ko'rsatadi. Muayyan kontekstda funksional muvofiqlikka ega bo'lgan turli tillarning elementlari tarjimaning vaziyatli ekvivalentiga aylanadi. Kontekstdan qat'iy nazar tarjima qilinishi mumkin bo'lgan manbaning maqsadi til elementlarining doimiy ekvivalentlarga ega ekanligidir. Doimiy ekvivalentlar, masalan, maxsus atamalar va aniq ma'noga ega bo'lgan keng tarqalgan individual so'zlar bo'lishi mumkin. Bu holda, kontekst muhim ahamiyatga ega, chunki u so'zning umumiy va terminologik qo'llanilishi o'rtasidagi farqni aniqlashga va ushbu atama ishlatiladigan bilim sohasini aniqlashga imkon beradi. Kontekst (asl nutqning bir qismi, buning yordamida so'z ma'nosini yaxshiroq tushuniladi va uning tildagi ekvivalenti tanlanadi) boshqa hajmga ega bo'lishi mumkin. Xususan, tor kontekst tarjima qilinaotgan atamaga qo'shni bo'lgan bitta iborani nazarda tutadi, lekin ko'p hollarda so'zning ma'nosi jumlada, paragrafda yoki butun asl matnda aniqlanishi mumkin. Ba'zan matnni to'g'ri tarjima qilish uchun ma'lum bir sohada maxsus bilim va undagi vaziyatning rivojlanishini tushunish kerak. Bunday holda, kontekst haqida fikr yuritish har jihatdan to'g'ri. Masalan, *salaries- yollanib ishlaydigan ishchi, salarial esa – oylik maosh olib ishlaydigan ishchi, la masse salariale- umumiy oylik fondi*.

Tarjimon mavhum so'zlar va jumlar bilan emas, balki so'zlar va grammatik shakllar nutq aktida atrofda voqelikning o'ziga xos tushunchalari va aloqalarini ochib berganda aniq bayonotlar bilan ishlaydi. Tarjimaning qiyinligi shundaki, ekvivalentlarning o'zgarishligi turli darajalarda o'rnatiladi va lingvistik shakllarning o'xshashligi tasvirlangan vaziyatda namoyon bo'ladi:

1) rasmiy ekvivalent, ikki tildagi umumiy ma'nolar o'xshash til shakllarida namoyon bo'lganda;

2) semantik ekvivalent, bir xil ma'nolar ikki tilda turli yo'llar bilan paydo bo'lganda;

3) vaziyatli ekvivalent, lisoniy shakllar va ular ifodalagan elementar ma'nolar bir xil holatni tavsiflovchi ikkita gapda farq qilganda. Masalan, *prochain, dernier*- sanalarda, haftaning oylari va kunlarini belgilashda *prochain* -yaqin kunlarni ifodalashda qo'llanilsa, *dernier* esa - oxirgi oy, kunni; yoki, *mars dernier*- shu yilning mart oyi, *mars prochain* – kelgusi yilning mart oyi; Rus tilidagi “*работник*” so'zi fransuz tiliga “*travailleur*” deb tarjima qilinsa, muayyan kasb, yoki kasbga doir so'zlarni tarjima qilishda *научный работник savant, chercheur, scientifique, работники просвещения- enseignants Работники юстиции - juristes*,

¹ Гак В.Г. Языковые преобразования. М.: Международные отношения, 1998. – С. 301.

работники кооперации-coopérateurs, работники сельского хозяйства-agriculteurs, ответственный работник-responsable deb tarjima qilinadi.

Rus tilidagi “*познакомиться*”, “*ознакомиться*” fe’llari - o‘zbek tiliga “tanishmoq” deb tarjima qilinadi. V.G. Gakning “Tarjima kursi” nomli asarida esa bu fe’llar quyidagicha talqin qilingan: *faire connaissance avec, prendre connaissance de*, hamda kontekstda *exposer, parler, presenter* kabi ekvivalentlar orqali ifodalangan. Masalan, *За время пребывания делегация ознакомилась с деятельностью нескольких частных банков.*

Durant son séjour la délégation a pris connaissance des activités de plusieurs banques privées.

В ходе беседы мэр ознакомил гостей с перспективами развития города.

Au cours de l’entretien le maire a exposé aux invités des projets urbanistiques pour la ville.

Tarjimadagi jiddiy qiyinchiliklar tarjima qilingan so‘zning polisemiyasi va omonimiyasi, shuningdek, ko‘rsatilgan tilda ko‘p sonli sinonimlarning mavjudligi bilan bog‘liq. Asl tildagi so‘z ko‘plab sinonimlarga ega bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri tarjima qilish uchun ma’lum bir kontekstdagi so‘zning ma’nosini aniqlash va sinonimlar orasidan birini tanlash kerak, ammo lug‘atda so‘zning barcha ma’nolari berilgan bo‘lishi mumkin emas, shuning uchun tarjimon bir tilli izohli lug‘atga murojaat qilishi kerak. Ba’zan lug‘atda kerakli ma’no taqdim etiladi, ammo sinonimlar ma’lum bir kontekstda bir-biriga mos kelmaydi, shuning uchun tarjimon tilni bilish asosida mustaqil ravishda adekvat sinonimni tanlashi kerak. Masalan, *entretien (m)* so‘zi rus tilida – *беседа нескольких, чаще двух лиц по определенному вопросу- bir necha, odatda, ikki kishining muayyan masala yuzasidan suhbat, pourparlers- беседа, совещание между двумя или несколькими лицами с целью обсудить или решить деловые или политические вопросы - suhbat, ish yoki siyosiy masalalarni muhokama qilish yoki hal qilish uchun ikki yoki undan ortiq shaxslarning uchrashuvi ; sommet (m) – встреча, переговоры на высшем уровне- eng yuqori darajadagi uchrashuv, muzokaralar. Masalan, **Un entretien amical a eu lieu entre Président de Russie et le Président du Mexique reçu au Kremlin le 29 juin. Le ministre des Affaires étrangères de Russie a pris part à cette conversation.** 29-iyun kuni Kremlda Rossiya Prezidenti bilan Meksika Prezidenti o‘rtasida do‘stona uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Bu suhbatda Rossiya tashqi ishlar vaziri ishtirok etdi.*

Les pourparlers portent sur ce problème- Muzokaralarda aynan shu muammoga e’tibor qaratiladi. Rus tilidagi *вести переговоры, обсуждать* – so‘zlari fransuz tilida *s’entretenir de, conférer, négocier, traiter, mener des pourparlers, avoir des négociations, discuter, se pencher sur, examiner, étudier (à fond, en profondeur), passer en revue, survoler, parcourir, analyser, mettre sur tapis* kabi sinonimlar qo‘llanilgan;

Завершить (переговоры)-acheiver, terminer; успешно завершить – mener à bien, faire aboutir; переговоры прошли в теплой (дружеской, деловой) обстановки- Les pourparlers se sont déroulé dans une ambiance amicale, chaleureuse, cordiale, d’affaire, constructive tahlil qilingan.

Shunday qilib, V.G. Gakning “Tarjima kursi” kitobining asosiy qoidalari o‘z mohiyatiga ko‘ra tarjima san’atining barcha qirralarini ochib beradi va maktab o‘quvchilari va talabalari, shuningdek, tegishli bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish istagida bo‘lganlar uchun mo‘ljallangan. V.G. Gak ilm-fan tarixida tarjimaning adekvatligi va ekvivalentligini saqlagan holda, eng murakkab matnlarni ham o‘ziga xos lug‘at bilan tarjima qilish imkonini beradigan chuqur va innovatsion uslubiy ishlanmalarni qoldirgan taniqli tilshunos va tarjimonlardan biri sifatida e’tirof etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гак В.Г. Языковые преобразования. М.: Международные отношения, 1998. – С. 301.
2. Рузиева Н.К. Общая характеристика лингвистических и лингвометодических трудов В.Г.Гака// Research and Education. – Tashkent, 2023, Issue: 4, Volume:11. – P.158-166. (№23. Impact Factor SJIF 2023: 5.789).
3. Ruzieva N.K. Issues of spelling, stylistics and language teaching methodology in the works of V.G.Gak // Innovative trends in Science, Practice and Education. – Ankara, Turkey, 2024 y, 30th January. – P.98-105.
4. Ruzieva N.K. Umumiy va Roman tilshunosligi//Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari nomli ko'p tarmoqli Respublika ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyasi. – Toshkent, 2024, 1-fevral. – B.17-21.

Sayfiyeva Komila Kamolidinovna
Tayanch doktorant
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
sayfiyeva.komila@bk.ru, 901105171

FITONIM KOMPONENTLI O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING MADANIYATLARARO QIYOSIY TADQIQI

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'simlik nomlari (fitonimlar) ishtirok etgan o'zbek va ingliz maqollari madaniyatlararo hamda lingvokulturologik nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilinadi. Daraxt, gul va mevalarga oid paremiologik birliklar tanlab olinib, uch turdagi muvofiqlik — to'liq ekvivalentlik, qisman ekvivalentlik va madaniyatga xos noyoblik — ajratib ko'rsatiladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda mehnat, kamtarlik, jamoaviylik va oqibat kabi umuminsoniy qadriyatlar fitonimik obrazlar orqali ixcham tarzda kodlanadi; ekologik muhit esa obraz tanlovini (masalan, o'zbekda uzum va tut, inglizda atirgul va eman) belgilaydi. Natijalar maqollarni tarjima qilish, o'qitish va madaniyatlararo muloqotda ekvivalentlik mavjud joyda ko'prik, noyoblik ustun bo'lgan holatda esa izohiy vosita zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot o'zbek tilining xalqaro ilmiy diskursda ko'rinishini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: maqol, fitonim, xalq maqollari, lingvokulturologiya, metafora, milliy mentalitet, qiyosiy tahlil, o'zbek tili, ingliz tili, madaniy konnotatsiya

МЕЖКУЛЬТУРНОЕ СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ПОСЛОВИЦ С ФИТОНИМИЧЕСКИМИ КОМПОНЕНТАМИ

Аннотация: В статье проводится межкультурный и лингвокультурологический сопоставительный анализ узбекских и английских пословиц с фитонимическими компонентами. На материале пословиц о деревьях, цветах и плодах выделяются три типа соответствий: полная эквивалентность, частичная эквивалентность и культурно-специфичная уникальность. Показано, что универсальные ценности — трудолюбие, скромность, общинность и причинно-следственная ответственность — лаконично кодируются фитонимическими образами в обеих традициях, тогда как локальная экология (напр., виноград и тут у узбеков; роза и дуб у англичан) определяет расхождение метафорических средств. Результаты уточняют, когда такие пословицы служат «мостами»

межкультурного взаимопонимания и когда требуют пояснительного посредничества в переводе и обучении. Исследование способствует развитию перевода пословиц, фразеодидактики и укрепляет видимость узбекской лингвокультуры в международном научном дискурсе.

Ключевые слова: пословица, фитоним, лингвокультурология, метафора, национальный менталитет, сравнительный анализ, узбекский, английский, культурная коннотация.

INTERCULTURAL COMPARATIVE STUDY OF UZBEK AND ENGLISH PROVERBS WITH PHYTONYMIC COMPONENTS

Abstract: This article offers an intercultural, linguocultural comparison of Uzbek and English proverbs that contain plant names (phytonyms). Using a focused corpus of tree-, flower-, and fruit-based paremiological units, it distinguishes three correspondence types: full equivalence, partial equivalence, and culture-specific uniqueness. The analysis shows that universal axioms—industry, humility, community, and consequence—are compactly encoded through phytonymic imagery in both traditions, while local ecologies (e.g., vine and mulberry in Uzbek; rose and oak in English) motivate divergent metaphorical vehicles. The findings clarify when phytonymic proverbs function as bridges to intercultural understanding and when they require explanatory mediation in translation and pedagogy. The study contributes to proverb translation and phraseodidactics, and supports the broader aim of enhancing the global visibility of Uzbek linguoculture

Keywords: proverb; phytonym; linguoculturology; intercultural pragmatics; equivalence; Uzbek; English; paremiology.

1. Introduction

Proverbs are compact repositories of collective experience, stabilizing moral and practical knowledge across generations [Mieder, 2004: 3–5]. When proverbs include plant names—trees, flowers, grains, fruits—the imagery is rarely incidental: it encodes culture-specific ecologies, livelihoods, and aesthetic canons. In Uzbek and English paremiologies, phytonyms are among the most productive image domains, yet their intercultural comparability remains unevenly mapped. This paper, aligned with the author’s PhD project, addresses the intercultural linguoculturological profile of Uzbek and English phytonymic proverbs, asking: (i) which values are jointly foregrounded; (ii) how ecological salience shapes imagery; and (iii) where translation requires cultural mediation. We argue that phytonymic proverb imagery simultaneously indexes habitat (material environment) and habitus (normative social expectations), and thus functions as an effective diagnostic for cultural proximity and distance.

2. Materials and Method

A representative bilingual corpus (≈ 120 items) was compiled from authoritative Uzbek proverb collections and standard English proverb handbooks, complemented by recent comparative studies on phytonyms [Mirzayev et al., 2005; Mieder, 2004; Abdullayeva & Kholmurodova, 2024; Samadova & Suyunov, 2025]. Items were grouped by semantic fields—trees, flowers/herbs, fruits/grains—and analyzed for: (1) proverb meaning; (2) image vehicle; (3) pragmatic function; (4) equivalence type (full / partial / culture-specific). We also noted morpho-syntactic packaging and mnemonic devices (alliteration, rhyme). Interpretation follows linguoculturological and cognitive-metaphorical principles [Lakoff & Johnson, 1980; Norrick, 1985].

3. Analysis

3.1. *Trees: character, consequence, and stability*

Full equivalence. “A tree is known by its fruit” ↔ “Daraxt mevasi bilan tanilir” (Uzbek variants). Both encode moral evaluation by outcomes—a pan-cultural axiom [Mieder, 2004: 52]. Partial equivalence. “A rolling stone gathers no moss” aligns with Uzbek “Daraxt bir joyda ko‘karar.” Shared ethics (steadfastness) persists, while vehicles diverge (stone/moss vs. rooted tree), reflecting different ecological imaginations. Culture-specific. Uzbek “Mevali daraxt egilar” profiles humility of the accomplished via orchard imagery; English often encodes the same moral with non-phytonym vehicles.

3.2. *Flowers and herbs: beauty, limits, and inference*

Full equivalence. Uzbek “Gul tikansiz bo‘lmas” ≈ English “Every rose has its thorn.” Partial equivalence. Uzbek “Bir gul bilan bahor bo‘lmas” vs. English “One swallow does not make a summer.” Culture-specific allusion. Uzbek “Dur — sadafsiz bo‘lmas” adds a classical Eastern poetic intertext; English retains the rose–thorn paradigm. Floral imagery foregrounds aesthetics and ephemerality, guiding pragmatic inferences about evidence sufficiency.

3.3. *Fruits and grains: labor, rewards, and socialization*

Full equivalence. “You reap what you sow” ↔ “Nima eksang, shuni o‘lasan.” Partial equivalence. Uzbek “Uzum uzumga qarab rang oladi” ↔ English “A man is known by the company he keeps.” Cross-cultural pair. “The apple doesn’t fall far from the tree” resonates with Uzbek lineage maxims but retains English-specific apple imagery. Pedagogically, fruit/grain metaphors support tasks around causation and responsibility.

4. Equivalence Typology and Intercultural Implications

We employ three correspondence types: Full equivalence (shared proposition + similar plant imagery). Partial equivalence (shared moral, divergent vehicles). Culture-specific uniqueness (local moral + local vehicle). For intercultural communication, phytonymic proverbs act as cognitive shortcuts to value systems—bridges where equivalence holds, gateways requiring cultural literacy where uniqueness prevails. For Uzbek visibility, annotated Uzbek–English proverb clusters enhance intelligibility and showcase ecolinguistic creativity.

5. Discussion: Ecology, Economy, and Ethos

Mappings reflect ecological salience (vine, mulberry; rose, oak), moral economy (industry, humility, solidarity, consequence), and didactic pragmatics (rhythm, parallelism, vivid plant imagery). Phytonyms index habitat and habitus simultaneously, explaining stability of morals and plasticity of vehicles. Phraseological economy aligns with pedagogic efficiency: short, image-rich units aid L2 transfer and intercultural comprehension.

6. Applications to Teaching, Translation and Policy

Teaching. Build bilingual proverb portfolios by equivalence type; use contrastive noticing and matching tasks. Translation. Favor functional equivalents; add concise cultural glosses for unique items. Policy/visibility. Integrate annotated Uzbek–English proverb sets into digital repositories to strengthen Uzbek language presence in international scholarship and cultural diplomacy.

7. Limitations and Future Work

The corpus is compact and cannot exhaust regional variants. Polysemy and contextual fluidity complicate annotation. Future work will expand coverage across Turkic and Indo-European families, test psycholinguistic transfer, and explore computational clustering of phytonymic imagery.

8. Conclusion

Uzbek and English phytonymic proverbs converge on universal ethical schemas while diverging in ecological imagery. A triadic equivalence model supports translation, pedagogy, and intercultural dialogue. Curated parallel sets with cultural glosses will aid learners and amplify Uzbek linguoculture internationally.

Appendix A. Illustrative Uzbek–English Parallel Set (Selected)

- 1) Gul tikansiz bo‘lmas. — Every rose has its thorn. (trade-off)
- 2) Bir gul bilan bahor bo‘lmas. — One swallow does not make a summer. (no hasty inference)
- 3) Nima eksang, shuni o‘rasan. — You reap what you sow. (consequence ethics)
- 4) Uzum uzumga qarab rang oladi. — A man is known by the company he keeps. (peer influence)
- 5) Daraxt mevasi bilan tanilir. — A tree is known by its fruit. (outcome-based evaluation)
- 6) Mevali daraxt egilar. — (\approx) Empty vessels make the most noise. (humility vs. boastfulness; image shift)
- 7) Daraxt bir joyda ko‘karar. — A rolling stone gathers no moss. (stability/prosperity; vehicle shift)
- 8) Dur — sadafsiz bo‘lmas. — (\approx) No rose without a thorn. (family of metaphors; intertext)
- 9) Arpa eksang — arpa, bug‘doy eksang — bug‘doy. — As you sow, so shall you reap. (causality)
- 10) Yaxshi daraxt — yaxshi meva. — The bad tree bears bad fruit / good tree good fruit. (moral taxonomy)

References:

1. Abdullayeva, N. R., & Kholmurodova, N. P. (2024). Proverbs and sayings with phytonyms and their analysis in compared languages. *Emergent Science Journal*, 2(1), 14–17.
2. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
3. Mieder, W. (2004). *Proverbs Are Never Out of Season: Popular Wisdom in the Modern Age*. New York: Oxford University Press.
4. Mirzayev, T., Musoqulov, A., & Sarimsoqov, B. (2005). *O‘zbek xalq maqollari*. Toshkent: Sharq.
5. Norrick, N. R. (1985). *How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverb*. Berlin: Mouton.
6. Samadova, V. B., & Suyunov, Sh. Y. (2025). Phytonyms in English and Uzbek: A comparative analysis. *Western European Journal of Historical & Social Sciences*, 3(2), 11–15.

Фалеева Екатерина Вадимовна
самостоятельный соискатель СамГИИЯ
faleevakatya93@mail.ru

АНГЛИЙСКИЕ НЕОЛОГИЗМЫ В СОВРЕМЕННОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация: В статье проводится краткий анализ современного состояния лексико-семантических особенностей британского варианта разговорного английского языка на примере эвфемизации и обходных формул. Исследование также охватывает фонетико-фонологический структурный уровень языка на базе региональных акцентов и интонационных паттернов.

Ключевые слова: британский английский, лексико-семантический уровень, фонетико-фонологический уровень, коллоквиализмы, сленг.

Неологизмы представляют собой динамичный пласт лексической системы, отражающий процессы развития языка под воздействием социокультурных, технологических и глобализационных факторов [2, с. 49].

Английский язык, выполняющий функцию мирового средства коммуникации, является особым пространством активного неологического словообразования [12, с. 63].

Новые слова возникают в результате стремительных изменений в цифровой сфере, политике, культуре, экологии и межличностной коммуникации, что делает исследование английских неологизмов значимым не только для лингвистики, но и для смежных дисциплин – социологии, культурологии, психолингвистики и медиакоммуникации.

Цель данной статьи заключается в выявлении теоретических аспектов функционирования неологизмов в современном английском дискурсе, а также в анализе факторов, определяющих их семантическую и прагматическую специфику.

Теоретические основы изучения неологизмов

Термин “неологизм” традиционно понимается как новое слово или устойчивое выражение, недавно вошедшее в язык и не закрепившееся окончательно в системе (А. А. Реформатский, В. В. Виноградов) [16, с. 29]. В современной лексикографии выделяются два типа неологизмов:

1. Собственно-неологизмы – слова, недавно созданные и отражающие новые реалии (например, *doomscrolling* [5, с. 10], *finfluencer* [4, с. 8]).

2. Семантические неологизмы – уже существующие единицы, приобретающие новые значения (например, *cloud* [7, 193], *virus* [11, с.89] в компьютерном дискурсе).

Современные исследователи (J. Algeo, P. Stockwell, R. Fischer) подчеркивают, что процесс неологизации в английском языке тесно связан с креативным потенциалом носителей и междискурсивным взаимодействием: научный, медийный, молодежный и интернет-дискурс служат основными генераторами новых слов.

Английские неологизмы в современном дискурсе

Современный дискурс представляет собой совокупность коммуникативных практик, в которых язык отражает актуальные социальные, культурные и технологические изменения. Английские неологизмы в нем выполняют ряд функций:

1) Номинативную, фиксируя новые явления (*metaverse*, *NFT* [1, с. 72]).

Идентификационную, маркируя принадлежность к определённой социальной или профессиональной группе (*stan*, *soft skills* [17, с. 338]).

Оценочную, выражая эмоционально-прагматические установки (*woke*, *cringe* [19]).

2) Игровую, реализуя потенциал языковой креативности (*adulthood*, *unfriend* [19]).

Анализ показывает, что главным источником неологизмов становится интернет-пространство и цифровая коммуникация. Социальные сети (*Twitter/X*, *TikTok*, *Instagram* [6, с. 13]) формируют активный словотворческий контекст, где новые единицы быстро распространяются и закрепляются.

Так, слова *doomscrolling* [8, с. 129] («навязчивое пролистывание негативных новостей») и *cancel culture* [3, с. 19] («практика публичного бойкота») стали маркерами целых социальных феноменов.

Неологизмы, связанные с глобальными вызовами, также активно интегрируются в дискурс. В период пандемии получили распространение *covidiot*, *lockdown*, *quarantine*

fatigue [14, с. 24], демонстрирующие прямую связь языка с экстралингвистическими факторами.

Теоретический анализ семантики и прагматики неологизмов

Анализ современного неологического фонда английского языка позволяет выделить несколько тенденций:

1. Метонимическое и метафорическое переосмысление. Расширение значений уже существующих слов (*cloud* [10, с. 72] как «облачное хранилище»).

2. Агглютинация и аффиксация. Активное образование слов с помощью суффиксов и префиксов (*selfie, wannabe, microplastics* [15, с. 22]).

3. Слияние и сокращение (*blending, clipping* [9, 541]). *Brunch* [13, с. 20] → классический пример, современный аналог – *bromance, glamping* [19].

4. Интернационализация лексики. Проникновение англицизмов в другие языки, что отражает глобальный характер английских неологизмов.

5. Медиатизация языка. Зависимость появления новых слов от темпов развития медиаплатформ и сетевых сообществ.

Прагматический анализ показывает, что неологизмы служат маркерами социальной идентичности. Употребление слов типа *stan, simp, FOMO* («*fear of missing out*» [18, с. 356]) демонстрирует принадлежность говорящего к молодежному интернет-сообществу и актуализирует культурные коды цифровой эпохи.

Таким образом, английские неологизмы в современном дискурсе выступают не только средством номинации новых реалий, но и мощным инструментом социальной идентификации, оценивания и культурного кодирования.

Их активное распространение обусловлено цифровизацией общества, глобализацией коммуникации и ускорением языковых изменений.

Теоретический анализ позволяет заключить, что неологизация представляет собой естественный и неизбежный процесс в развитии английского языка, отражающий его высокую адаптивность и открытость к внешним влияниям.

Изучение данного феномена имеет значительную ценность для лексикологии, социолингвистики и медиалингвистики, поскольку именно в сфере неологизмов наиболее отчетливо проявляются взаимосвязь языка и социокультурной динамики.

Список использованной литературы

1. Бушуй Т.А. Открытость и динамичность системы языка // Современные гуманитарные исследования. – 2015. – №. 2. – С. 70-73.
2. Бушуй Т.А. Проблема языка и нации в лингвокультурологическом аспекте // International scientific review. – 2019. – №. LVI. – С. 48-50.
3. Бушуй Т. Языкознание: прошлое, настоящее и будущее // Т.: Янги аср авлоди. – 2020. – 184 с.
4. Бушуй Т.А. Neolexicography: Problems and Prospectives // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 7-15.
5. Бушуй Т.А. Современный словарь как продукт определенной научной концепции // IQRO. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 10.
6. Бушуй Т. Когнитивные особенности функционально-тематических групп арготизмов русского языка // Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 12-17.

7. Фалеева А.В. Отражение лексико-семантических особенностей скрытого смысла коллоквиализмов-зоонимов в лексикографических источниках // Вестник Челябинского государственного университета. – 2021. – №. 9 (455). – С. 192-199.
8. Фалеева А.В. Тематическая дифференциация коллоквиализмов с имплицитным значением в лексикографических источниках // Вестник Челябинского государственного университета. – 2022. – №. 7 (465). – С. 128-136.
9. Фалеева А.В. Лексико-семантические и деривационные особенности коллоквиальных акронимов и бэкронимов в современных печатных и электронных лексикографических источниках // Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 35. – С. 540-543.
10. Фалеева Е.В. Неологический бум в английском языке: проблемы и перспективы // International scientific review. – 2022. – №. LXXXVI. – С. 70-74.
11. Фалеева Е.В. Неологопроцессы Современного Английского Языка // Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 39. – С. 88-92.
12. Bushuy T.A. The Emergence of Language Multitude // Scientific reports of Bukhara State University. – 2018. – Т. 1. – №. 3. – С. 62-67.
13. Bushuy T., & Khayrullaev K. Life of Word during Coronavirus. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(8), 2022. – С. 19–28. URL: <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/2613>.
14. Bushuy T.A. (2023). Language in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 39, P. 23–26. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1678>
15. Bushuy T. Features of Representation of Some Word Forms and Meanings of Phraseological Units in Contrastive Lexicographical Sources // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – 22 с.
16. Faleeva A. Theoretical and Practical Research of the Formation of Colloquialisms of the English Language in Level Interpretation // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 28-36.
17. Faleeva A.V. Traditions and Innovations in the Study of English Colloquialisms in the Perspective of Modern Printed and Electronic Lexicographical Sources // Academic research in educational sciences. – 2024. – Т. 5. – №. CSPU Conference 1. – С. 337-341.
18. Vadimovna, Faleeva Anastasiya. "Theoretical Experience and Representation of English Colloquial Lexis in Dictionary Interpretation (Based on the Concise New Partridge Dictionary of Slang and Unconventional English)." Miasto Przyszłości 56 (2025): 355-359.
19. Urban Dictionary Online URL: <https://www.urbandictionary.com/>

Xasan Buriyev, Tohir Turopov

Samarqand davlat chet tillar instituti stajyor-o‘qituvchilari

hasanburiyev816@gmail.com

LEKSIKOGRAFIYA VA TILNI AVTOMATIK LUG‘AT TUZISH: TADQIQOTLAR, METODLAR VA AMALIY QO‘LLANILISHLAR.

Annotatsiya: Leksikografiya, an’anaviy ravishda, tilshunoslikda so‘zlarning ma’no, shakl, aloqalar va frazeologik birliklar orqali tizimli ravishda tasniflanishi bilan shug‘ullanadi. Kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) kontekstida, leksik resurslar yaratish

va avtomatik lug‘at tuzish masalalari yangi usullar va metodlarni talab etmoqda. Bugungi kunda, leksikografiya va avtomatik lug‘at tuzish masalalari, tilni qayta ishlash tizimlarining ajralmas qismi bo‘lib, ular tahlil, tarjima, qidiruv tizimlari va dialog tizimlarida keng qo‘llaniladi.

Ushbu maqolada, leksikografiya va avtomatik lug‘at tuzishning asosiy metodlari, O‘zbek tilida mavjud resurslar va tizimlar hamda amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, kelajakdagi tadqiqotlar va yangi yondashuvlar ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Leksikografiya, kompyuter lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), morfologik tahlil, semantik tahlil, leksik resurslar, so‘z ma‘nosi, so‘z shakllari, chuqur o‘rganish, statistik metodlar, til texnologiyalari.

Leksikografiya – bu tilning leksik tizimini o‘rganish va tashkil etishga qaratilgan ilmiy sohadir. Asosan, leksikografiya tilshunoslikning so‘zlarni, frazeologik birliklarni va ularning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini tahlil qilish bilan bog‘liq qismidir. Klassik leksikografiyada so‘zlarning izohlari, ularning shakllari va kontekstdagi ma‘nolari aniq belgilangan bo‘lsa, kompyuter lingvistikasi sohasida bu jarayonlarni avtomatlashtirish vazifasi qo‘yiladi. Kompyuter yordamida so‘zlarni avtomatik tarzda tahlil qilish va tasniflash uchun samarali metodlar ishlab chiqilgan.

Leksikografiyani tushuntirgan va uni yangi texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirgan tadqiqotlarda, tilni qayta ishlashda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni ham ko‘rsatadi. **M. Y. Zeldovich** va **I. M. Shternberg** (1984) tomonidan yozilgan "Leksikografiya: nazariya va amaliyot" asarida, so‘zlarni tasniflashda, asosan, tilning morfologik va semantik tuzilmasi hisobga olinishi kerakligi ta’kidlanadi[1].

Avtomatik lug‘atlar yaratish uchun turli metodlar qo‘llaniladi. Ushbu metodlar yordamida, katta hajmdagi matnlar asosida so‘zlar va ularning ma‘nolari aniqlanadi.

Asosiy yondashuvlar quyidagilardan iborat:

- **Morfologik tahlil.** Morfologik tahlil so‘zlarning tarkibini va uning qo‘shimchalarini ajratish orqali amalga oshiriladi. **Y. A. Zhidkovning** (2001) ta’kidlashicha, agglutinativ tillarda (masalan, O‘zbek tilida) morfologik tahlilni to‘g‘ri amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Morfologik tahlil tizimlari so‘zning ildizini va unga qo‘shilgan qo‘shimchalarni aniqlashda yordam beradi[2]. Bu metod, lug‘at tuzish jarayonida so‘z shakllarini to‘g‘ri kiritish va tahlil qilishda zarurdir.
- **Statistik metodlar.** Statistik metodlar yordamida so‘zlarning o‘zaro aloqalarini aniqlash uchun katta hajmdagi matnlar tahlil qilinadi. Ushbu metodlarda so‘zlarning kontekstual aloqalari asosida statistik tahlil amalga oshiriladi. Masalan, **B. K. Sokolov** (2010) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, so‘zlar

o'rtasidagi statistik bog'liqliklarni aniqlash uchun n-gram modellaridan foydalanish mumkinligi ta'kidlangan[3].

- **Chuqur o'rganish metodlari (Deep Learning).** Chuqur o'rganish metodlari (Deep Learning) yordamida, so'zlar vektorli ifodalarga aylantiriladi va ular orasidagi semantik aloqalar aniqlanadi. **Word2Vec**, **GloVe** va **BERT** kabi modellar, so'zlar o'rtasidagi semantik o'xshashlikni aniqlashda samarali ishlaydi. **V. M. Pustovoytov** va **A. G. Karamov** (2017) bu metodlar yordamida tilning morfologik va semantik tahlilini avtomatlashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqqan[4].

O'zbek tilida lug'at tuzish uchun morfologik va semantik tahlil metodlarini ishlab chiqish talab etiladi. O'zbek tilining agglutinatив xususiyatlari, ya'ni so'zlarning turli shakllari va qo'shimchalar yordamida yangi ma'no hosil bo'lishi, bu jarayonni murakkablashtiradi. O'zbek tiliga moslashtirilgan **morfologik parserlar** va **lemmatizatsiya tizimlari** yordamida, so'zlar va ularning shakllari avtomatik tarzda tahlil qilinishi mumkin. **A. T. Salimov** (2020) O'zbek tilida morfologik tahlilni amalga oshirishda mavjud qiyinchiliklarni va ular yechimini ta'kidladi[5].

So'zlar orasidagi semantik munosabatlarni aniqlash va ularning o'zaro aloqalarini tushunish, avtomatik lug'at tuzishda muhim ahamiyatga ega. **Word2Vec** va **BERT** kabi metodlar yordamida so'zlar vektorlar yordamida tasvirlanadi va semantik aloqalar o'rganiladi. **S. D. Kharitonov** (2019) o'zining ishlarida semantik tahlilning NLP tizimlarida qanday qo'llanilishi mumkinligi haqida fikr bildirgan[6].

Avtomatik lug'atlar qidiruv tizimlarida, tarjima tizimlarida, va chat-botlarda keng qo'llaniladi. **Google Translate** kabi mashhur tarjima tizimlari avtomatik tarzda so'zlarni morfologik va semantik tahlil qiladi. Shuningdek, **chat-botlar** va **virtual yordamchilar** foydalanuvchi bilan samarali muloqot qilish uchun leksik resurslardan foydalanadi. **L. A. Gusev** (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, avtomatik lug'atlarning virtual yordamchilarda qanday ishlatilishi ko'rsatilgan[7].

Avtomatik lug'at tuzishda, morfologik, sintaktik va semantik tahlil metodlari birlashishi kerak, bu esa tilning murakkab tuzilmasi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. O'zbek tilining morfologik va semantik xususiyatlari, ayniqsa, qo'shimchalar bilan bog'liq holatlar, lug'at tuzishda qo'shimcha qiyinchiliklar yaratadi. Kelajakda, **zero-shot learning** va **transfer learning** kabi ilg'or metodlarni qo'llash orqali ko'p tilli lug'atlar va tizimlar yaratish imkoniyatlari mavjud.

Adabiyotlar

1. Зельдович, М. Я., & Штернберг, И. М. (1984). Лексикография: теория и практика. Москва: Педагогика. (с. 56)

2. Жидков, Ю. А. (2001). Морфология и методы обработки языка. Санкт-Петербург: Изд. СПбГУ. (с. 32)
3. Соколов, Б. К. (2010). Статистические методы и обработка естественного языка. Москва: Языки славянских культур. (с. 78)
4. Pustovoytov, V. M., & Karamov, A. G. (2017). Chuqur o'rganish metodlari va tilni qayta ishlash. Toshkent: Fan va texnologiya. (s. 45)
5. Salimov, A. T. (2020). O'zbek tilining morfologik tahlili va lug'at tuzish. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti. (s. 112)
6. Харитонов, С. Д. (2019). Семантический анализ и лексические отношения. Москва: Наука. (с. 23)
7. Gusev, L. A. (2018). Virtual yordamchilar va leksik resurslar. Kazan: Kazan universiteti nashriyoti. (s. 60)

III SHO‘BA

KOGNITIV, PRAGMATIK TILSHUNOSLIK MASALALARI

Shomurodova Shaxlo Jaxonovna
Samarqand davlat chet tillar instituti professori

DISKURS TAHLILIDA KOGNITIV-PRAGMATIK YONDASHUV: MA‘NO HOSIL BO‘LISH JARAYONLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada diskursni o‘rganishda kognitiv va pragmatik yondashuvlarning uzviy bog‘liqligi hamda ular orqali ma‘no shakllanish mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida inson ongida nutqni anglash va talqin etish bosqichlari, kontekstning o‘rni, kognitiv modellar hamda pragmatik strategiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, diskursni shakllantirishda konseptual aralashuv nazariyasi, ijtimoiy-madaniy omillarning ta‘siri va ularning ta‘lim, tarjimashunoslik hamda kommunikatsiyada qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Natijada, mazkur yondashuvlar diskursning mazmuniy qatlamlarini chuqurroq anglash va ularni amaliyotda samarali qo‘llashga xizmat qiladi.

Kirish. Hozirgi zamon tilshunosligida diskurs faqatgina matn yoki nutq sifatida emas, balki inson tafakkuri, ong faoliyati hamda ijtimoiy-madaniy tajriba bilan bevosita bog‘liq murakkab hodisa sifatida izohlanadi. Uni o‘rganishda kognitiv va pragmatik yondashuvlarning uyg‘un qo‘llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazmun faqat til belgilaridan emas, balki ongda yuz beradigan modellashtirish jarayonlari, kontekstni anglash va turli nutqiy strategiyalar orqali shakllanadi.

Kognitiv-pragmatik yondashuv diskursni tahlil qilishda insonning mavjud bilimlari, tajribasi hamda kommunikativ niyatini uyg‘unlashtiradi va ma‘no yaratilishini kengroq talqin etishga imkon beradi. Bu yondashuv mental modellar, konseptual integratsiya, hamkorlik tamoyillari hamda relyevantlik nazariyasi orqali izohlanadi. Shuningdek, nazariy tadqiqotlar bilan bir qatorda, chet tillarni o‘qitish, tarjimashunoslik, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va tanqidiy diskurs tahlilida ham amaliy qo‘llanish imkoniyatlari uning dolzarbligini oshiradi.

Asosiy qism

Diskurs tilshunoslikda faqatgina matn yoki nutqiy hodisa sifatida emas, balki inson tafakkuri, psixologiyasi va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab hodisa sifatida izohlanadi. Muloqot jarayonida so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida shakllanadigan ma‘no nafaqat til birliklari orqali, balki ongda yuz beradigan **kognitiv jarayonlar** va **pragmatik strategiyalar** orqali vujudga keladi.

Diskursni tushunishda **mental modellar nazariyasi** (Johnson-Laird, 1983) muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, inson nutqni qabul qilganda vaziyatni ongida qayta tiklaydi va bunga shaxsiy tajribasi hamda bilimlarini qo‘shadi. Masalan, “yomg‘ir yog‘moqda” degan jumla oddiy ma‘lumot bo‘lib ko‘rinsa-da, uni eshitgan inson darhol shu vaziyat bilan bog‘liq turli ehtimoliy oqibatlarini — soyabon olish, yo‘lning sirpanchiligi yoki namlik tufayli noqulayliklarni ongida modellashtiradi.

Pragmatika nuqtayi nazaridan esa, diskursning mazmunini tushuntirishda **hamkorlik tamoyillari** (Grice, 1975) va **relyevantlik nazariyasi** (Sperber va Wilson, 1995) asosiy nazariyalar hisoblanadi. Hamkorlik tamoyillari suhbatdoshlarning aniqlik, qisqalik va dolzarblik qoidalariga amal qilishini taqozo etadi. Biroq amaliy nutqda ushbu qoidalar ko‘pincha buziladi

va natijada yangi ma'no, ya'ni **implikatura** paydo bo'ladi. Relyevantlik nazariyasi esa, ma'no hosil bo'lishini inson ongida yuz beradigan inferens va kognitiv hisob-kitoblar orqali izohlaydi.

Diskurs tahlilida keng qo'llaniladigan yondashuvlardan yana biri — **konseptual aralashuv nazariyasi** (Fauconnier va Turner, 2002). Bu yondashuvga ko'ra, inson ongida turli sohalarga oid bilimlar birlashib, yangi ma'no hosil qiladi. Masalan, "hayot — safar" kabi metaforalarda ikki konseptual maydon birlashadi va yangi tushuncha shakllanadi. Shu bois metafora va boshqa badiiy vositalar diskurs mazmunini boyituvchi muhim mexanizm sifatida qaraladi.

Diskursni shakllantirishda **madaniy va ijtimoiy omillar** ham muhimdir. Clark (1996)ning "umumiy bilimlar maydoni" nazariyasida qayd etilganidek, suhbatdoshlar muloqot jarayonida faqat so'zlardan emas, balki o'zaro umumiy tajribadan ham foydalanadilar. Masalan, bir xalq uchun oddiy bo'lgan maqol boshqa madaniyat vakiliga tushunarli bo'lmasligi mumkin. Bu holat diskursni tahlil etishda kognitiv-pragmatik yondashuvning zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur yondashuv amaliy sohalarda ham samarali qo'llaniladi. Avvalo, chet tillarni o'rgatishda grammatik bilim bilan birga, talabalar yashirin ma'noni anglash va kontekstdan ma'no chiqarib olish ko'nikmalarini ham egallaydi. Tarjimashunoslikda esa, matnni faqatgina so'zma-so'z emas, balki muallifning maqsadi, konteksti va pragmatik jihatlari inobatga olinib tarjima qilinadi. Bundan tashqari, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda suhbatdoshning niyatini tushunish va unga mos ravishda samarali javob berish ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Tanqidiy diskurs tahlilida kognitiv-pragmatik yondashuv ijtimoiy va siyosiy nutqlarni o'rganishda qo'llaniladi. Masalan, siyosiy yetakchilarning nutqlarida auditoriyani muayyan g'oyaga yo'naltirish, manipulyativ strategiyalar va psixologik ta'sir mexanizmlari tahlil qilinadi (Cap, 2014). Bu esa tilning jamiyatdagi ijtimoiy rolini chuqurroq ochib beradi. Kognitiv va pragmatik yondashuvlar uyg'unligi diskursni anglash va talqin etishda nazariy hamda amaliy imkoniyatlarni yanada kengaytiradi.

Xulosa

Kognitiv-pragmatik yondashuv diskursni inson ongida kechadigan murakkab fikrlash jarayonlari, ijtimoiy tajriba va madaniyat bilan bog'liq holda o'rganadi. Mazkur yondashuv yordamida nutqni faqat til birliklari yig'indisi sifatida emas, balki kontekst, bilim va maqsadlar uyg'unligi sifatida tushuntirish mumkin. Uning amaliy qo'llanilish doirasi ta'lim, tarjima, kommunikatsiya va tanqidiy diskurs tahlilini qamrab olishi, bu yondashuvning zamonaviy tilshunoslikdagi dolzarbligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cap, P. (2014). *Applying Cognitive Pragmatics to Critical Discourse Studies: A Proximization Approach*. Amsterdam: John Benjamins.
2. Carston, R. (2002). *Thoughts and Utterances: The Pragmatics of Explicit Communication*. Oxford: Blackwell.
3. Clark, H. H. (1996). *Using Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Fauconnier, G., & Turner, M. (2002). *The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities*. New York: Basic Books.
5. Gibbs, R. W. (2020). *Pragmatics Always Matters: An Expanded Vision of Experimental Pragmatics*. *Journal of Pragmatics*, 170, 1–12.
6. Grice, H. P. (1975). *Logic and Conversation*. In P. Cole & J. Morgan (Eds.), *Syntax and Semantics, Vol. 3*. New York: Academic Press.
7. Johnson-Laird, P. N. (1983). *Mental Models: Towards a Cognitive Science of Language, Inference, and Consciousness*. Cambridge: Harvard University Press.

8. Levinson, S. C. (2000). *Presumptive Meanings: The Theory of Generalized Conversational Implicature*. Cambridge, MA: MIT Press.
9. Mazzone, M. (2018). *Cognitive Pragmatics: Mindreading, Inferences, Consciousness*. Berlin: De Gruyter.
10. Sperber, D., & Wilson, D. (1995). *Relevance: Communication and Cognition* (2nd ed.). Oxford: Blackwell.

Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti

Turniyazova Shaxnoza Nigmatovna

turniyazova2019@gmail.com

+998 97 394 40 23

ICHKI NUTQ XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

***Annotatsiya.** Ichki nutq inson tafakkuri va ruhiy holatining asosiy ifodalaridan biri sifatida tilshunoslik, psixologiya va falsafa sohalarida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ichki nutqning asosiy shakllari — ichki monolog, ichki dialog hamda individning o‘z-o‘ziga qilgan murojaatlari tahlil qilindi.*

***Kalit so‘zlar:** ichki nutq, format yondashuvi, faoliyat yondashuvi, Dialog, monolog, kognitiv funksiya, interpersonal nitq, tafakkur.*

***Аннотация** Внутренняя речь представляет собой одну из основных форм выражения человеческого мышления и психоэмоционального состояния, играя особую роль в лингвистике, психологии и философии. В данной статье рассмотрены основные формы внутренней речи — внутренний монолог, внутренний диалог, а также обращение индивида к самому себе.*

***Ключевые слова:** внутренняя речь, формальный подход, деятельностный подход, диалог, монолог, когнитивная функция, интерперсональная речь, мышление.*

***Abstract.** Inner speech represents one of the fundamental forms of expressing human thought and psychological state, playing a significant role in linguistics, psychology, and philosophy. This article examines the main forms of inner speech — inner monologue, inner dialogue, and the individual's self-directed speech.*

***Keywords:** inner speech, formal approach, activity-based approach, dialogue, monologue, cognitive function, interpersonal speech, thinking.*

Ichki nutq odatda insonning o‘ziga-o‘zi unsiz murojaat qilishi, ya’ni o‘z-o‘ziga ichki gapirish tajribasi sifatida tavsiflanadi. U fenomenologik jihatdan vizual obrazlar, hissiyotlar yoki Hurlburt va Akhter [1.] tomonidan tilga olingan belgisiz fikrlash kabi boshqa tajribalardan farq qiladi. Ichki nutqda “format yondashuvi” va “faoliyat yondashuvi” kabi ikki yondashuvni ajrtamiz.

Format yondashuv ichki nutqni asosan ma’lum bir shakl va tuzilishga ega mahsulot sifatida talqin qiladi, faoliyat yondashuvi esa uni jarayon va faoliyat sifatida talqin qiladi. Ularning farqlari dastlab yuzaki ko‘rinishi mumkin, zero, format yondashuvi ichki nutqning faoliyat shakli ekanini tan olishi mumkin, o‘z navbatida faoliyat yondashuvi ham uni shaklga ega emas deb inkor etmaydi. Biroq bu farqlar har ikkala yondashuv mazkur hodisaning mohiyati haqida har xil asosiy qarashlarga tayanishini ko‘rsatadi.

Xususan, bu ikki yondashuv ichki nutqning kognitiv funksiyalarini o‘rganadi hamda ongli fikrlash uchun ichki nutq zarurmi yoki yo‘qmi, degan masalada turlicha fikr bildiradi.

Mazkur yondashuvlar, falsafiy xarakterga ega bo'lsa-da, ular empirik ma'lumotlar bilan asoslangan.

Shunisi ahamiyatliki, bir tomondan, ichki nutq til hodisasi sifatida tilni ishlab chiqarish va qabul qilishning aniq modellariga tayanishni keltirib chiqaradi; boshqa tomondan esa, uni kognitiv hodisa sifatida to'laqonli tushunish, hozirgi mavjud bilimlarimizdan ko'ra ko'proq ma'lumotni talab qiladi. Shu sababli, ichki nutq mohiyatini qanday tasavvur qilish masalasida mavjud nazariy yondashuvlarning asosiy prinsip va oqibatlarini ochib berish muhimdir. Ayniqsa, bu metodologik jihatdan ichki nutqning qaysi jihatlarini o'rganish lozimligini belgilashda foydali bo'ladi.

Ko'pincha ichki nutq orqali inson tafakkuri va nutqi orasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik adabiy matnda o'zining eng yorqin ifodasini topadi. Ichki nutq – bu inson ongida kechadigan, tashqi ifodaga ega bo'lmagan, ammo mantiqiy va semantik jihatdan aniq shakllangan fikrlar oqimidir. U o'z-o'zini anglash, his-tuyg'ularni tahlil qilish, qaror qabul qilish hamda ichki ziddiyatlarni bartaraf etish jarayonlarida muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu xususiyatlari tufayli ichki nutq badiiy adabiyotda qahramonning ichki dunyosini yoritish, ruhiy kechinmalarini ochib berish va psixologik portretini yaratishda keng qo'llaniladi.

Ichki nutq o'zining shakllanishiga ko'ra bir nechta turga ajraladi: **ichki monolog**, **ichki dialog** va **oddiy ichki replikatsiya**. Ular har biri o'ziga xos uslubiy va semantik xususiyatlarga ega bo'lib, matnning umumiy mazmuni va kompozitsion tuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [2]. Mazkur intrapersonal muloqot shakllarining har biri o'ziga xos strukturaviy va semantik xususiyatlarga ham bo'lib, ular individning hayot faoliyati davomida bajaradigan funksiyalarida o'z ifodasini topadi.

Masalan, oddiy ichki replikatsiya, odatda nutqqa bog'liq bo'lmagan vaziyatlarda yuzaga keladigan, qisqa va o'zaro bog'lanmagan alohida ichki ifodalar bo'lib, u ko'pincha shaxs tomonidan tashqi nutqni idrok etish jarayonida yuzaga keladigan ichki izoh shaklida namoyon bo'ladi. Shaxslararo muloqot jarayonida oddiy ichki replikatsiya individning boshqalarning nutqini idrok etishdagi faol ishtirokini ifodalovchi belgi sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu ichki nutq shaklining asosiy pragmatik funksiyasi individ tomonidan berilayotgan keng ko'lamdagi emotsional bahoni ifodalashdan iborat. Bu baho, odatda, qisqa ichki replikalar orqali ifodalanadi va ularning yo'naltirilgan obyekti sifatida butun kommunikativ vaziyat yoki uning shaxsda eng kuchli emotsional reaksiyani chaqirgan alohida jihati maydonga chiqadi.

Ko'plab hollarda esa emotsional baholash obyekti bevosita suhbatdoshning o'zi bo'lib qoladi, ya'ni ichki replikatsiya orqali individ tinglayotgan shaxsga nisbatan o'zining ijobiy yoki salbiy munosabatini unsiz bildiradi.

Ichki monolog — bu individning o'zi bilan bir tomonlama murakkab nutqiy muloqot shakli bo'lib, tafakkur jarayonining yakuniy natijalarini ichki nutq vositasida ifodalashga xizmat qiladi.

Ko'pincha, ichki monologlar orqali individ o'zining aqliy faoliyati yakunida hosil bo'lgan xulosalarni ongida mustahkamlab boradi. Shu sababli, ichki monologlarga odatda mazmuniy yaxlitlik va nutqiy uzluksizlik xos bo'ladi. Ushbu yaxlitlik esa, avvalo, mavzu birligi orqali ta'minlanadi [3].

Ichki monolog bilan bir qatorda, ichki nutqning yana bir shakli — bu ichki dialog bo'lib, u shaxs tomonidan yaratilgan va bevosita uning o'zi tomonidan qabul qilinadigan, dialogik tarzda o'zaro bog'langan fikr ifodalaridan tashkil topgan nutqiy ketma-ketlikdir.

Ichki dialog intrapersonal kommunikatsiya jarayonida shakllanadi va ichki monologdan farqli o'laroq, ekstravert kommunikativ akt sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, u tashqi tomonga

yo'naltirilgan bo'lib, nutqiy o'zaro subyektlararo aloqani o'rnatish va uni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'ladi.

Mazkur holatda bunday aloqa ikki yo'nalishda amalga oshadi:

1. Shaxslararo muloqot (ya'ni, boshqa odamlar bilan fikriy munosabat shaklida);
2. Shaxs ongida mavjud bo'lgan turli jihatlar (ipostazlar) o'rtasidagi muloqot, ya'ni shaxsning o'zi bilan o'ziga yo'naltirilgan ichki suhbat shaklida yuzaga keladi.

Ichki dialogning semantik tuzilishi kamida ikki tomonning faoliyati natijasi bo'lib, bu tomonlar sifatida individ ongida obyektivlashtirilgan nutq pozitsiyalari namoyon bo'ladi. Shu tariqa, ichki dialog — bu shaxs tomonidan o'z nutqida turli ma'noli pozitsiyalarni o'zaro ma'lum bir tarzda o'zaro ta'sir qiluvchi shaklda aks ettirishdir. Ushbu o'zaro ta'sir, avvalo, ularning mosligi va o'zaro bog'liqligida namoyon bo'ladi, ya'ni shaxsning nutq pozitsiyalari uning ongida hech qachon to'liq mustaqil bo'lmaydi, chunki ular yagona nutq-tafakkur jarayoni doirasida yuzaga keladi.

Ushbu o'zaro ta'sirning turli shakllari ichki dialogning turli turlarini keltirib chiqaradi. Formal ko'rinish nuqtai nazaridan, ichki dialogning ikki asosiy turi ajratiladi: **ochiq ichki dialog** va **yashirin ichki dialog**.

Ochiq ichki dialog shaxsning nutqida to'g'ridan-to'g'ri va bevosita ikki yoki undan ortiq nutq pozitsiyalarining ifodalanganini nazarda tutadi. U shaxs tomonidan yaratilgan, mazmunan bir-biri bilan bog'langan va dialogik tarzda munosabatda bo'lgan fikrlar ketma-ketligidan iborat bo'lib, faqat shaxsning o'zi tomonidan qabul qilinadi va unga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. To'liq ichki nutqda amalga oshiriladigan ochiq ichki dialog ba'zan baland ovozda o'ylash (oshkora fikr yuritish) shaklida ham ifodalanishi mumkin.

Yashirin ichki dialog esa intrapersonal muloqotning shunday aktidirki, bunda bir nutq pozitsiyasi ichki nutqda aniq ifodalanadi, ikkinchisi esa faqat ongda tasavvur qilinadi. Badiiy asarlarda (faqat shu asosda biz ushbu intrapersonal muloqot shaklini baholay olamiz) ikkinchi nutq pozitsiyasini aks ettiruvchi javoblar yo'q, ammo mavjud replikalarning xususiyatlariga qarab osonlik bilan tiklanishi mumkin [4].

Xulosa qilib aytganda, ichki nutq inson tafakkuri va ruhiy holatining til orqali ifodalanadigan noverbal shakli bo'lib, uning ichki monolog, ichki dialog hamda individning o'z-o'ziga murojaat shakllarida namoyon bo'lishi murakkab psixolingvistik jarayon ekanligini ko'rsatadi. Ichki monolog subyektiv fikr oqimining uzviyligi bilan ajralib turadi, ichki dialog esa inson ongining turli darajalari o'rtasidagi muloqotni aks ettiradi. O'z-o'ziga murojaat esa tilning reflektiv xususiyatini namoyon etib, insonning o'z shaxsiyati bilan ichki muloqotga kirishish ehtiyojidan dalolat beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Hurlburt, R. T. & Akhter, S. A. *Unsymbolized thinking. Consciousness and Cognition*, 2008.
2. Синельникова Л. Н. Жизнь текста, или Текст жизни // - Луганск: Знание, - 2005. - 455с
3. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность // - М.: Наука, - 1987. - 145с.
4. Гируцкий А. А. Общее языкознание: Учеб. пособие для студентов вузов // - Мн.: Тетра-Системс - 2003. -125с

FRAZEOLOGIZMLAR QADRIYAT IFODALOVCHI LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning lingvomadaniy mohiyati hamda ular orqali milliy va ma'naviy qadriyatlarning in'ikos etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Frazeologizmlar nafaqat tilning bezagi, balki xalqning dunyoqarashi, milliy mentaliteti va ijtimoiy xulq me'yorlarini ifodalovchi barqaror birlik sifatida talqin etiladi. Oila, mehnat, e'tiqod, saxovat, sabr, matonat, do'stlik kabi asosiy qadriyatlar bilan bog'liq o'zbek frazeologik birliklari lug'aviy-semantik jihatdan tahlil qilinib, ularning konseptual mohiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, qadriyat, lingvomadaniyat, milliy mentalitet, o'zbek tili, konseptual tahlil.

Аннотация. В данной статье анализируется лингвокультурная сущность узбекских фразеологических единиц и механизмы отражения через них национальных и духовно-нравственных ценностей. Фразеологизмы рассматриваются не только как художественные элементы языка, но и как устойчивые единицы, выражающие мировоззрение народа, его менталитет и социальные нормы поведения. Путем лексико-семантического анализа фразеологизмов, связанных с такими ценностями, как семья, труд, вера, щедрость, терпение, мужество и дружба, раскрывается их концептуальное содержание.

Ключевые слова: фразеологизм, ценность, лингвокультура, национальный менталитет, узбекский язык.

Annotation. This article examines the linguocultural nature of Uzbek phraseological units and the mechanisms through which they reflect national and spiritual values. Phraseological expressions are interpreted not only as decorative elements of language but also as stable linguistic units that embody the worldview, mentality, and social ethics of the people. By conducting lexical-semantic analysis of phraseologisms related to key values such as family, labor, faith, generosity, patience, bravery, and friendship, the study reveals their conceptual meanings.

Keywords: phraseologism, value, linguoculture, national mentality, Uzbek language.

Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixi, dunyoqarashi va qadriyatlar xazinasi hisoblanadi. Ayniqsa, frazeologik birliklar tilda mujassam bo'lgan milliy-madaniy tafakkurning eng ixcham va obrazli ko'rinishidir. Har bir frazeologizm ortida ma'lum bir xalqning hayot tajribasi, dunyoqarashi, e'tiqodi, axloqiy me'yorlari va qadriyatlari mujassamdir. Demak, frazeologizmlarni faqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki lingvomadaniy birlik sifatida o'rganish bugungi tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Mazkur maqolaning maqsadi o'zbek tilidagi frazeologizmlar tarkibida aks etgan qadriyatlar konseptual sistemasini aniqlash, ularning madaniy-semantik vazifasini tahlil qilish va lingvomadaniy birlik sifatidagi ahamiyatini asoslashdan iboratdir.

Frazeologizmlar tilda tayyor holda qo'llaniladigan, ko'chma ma'noga ega bo'lgan barqaror birliklar bo'lib, xalq tafakkurining muzlatilgan shakli, milliy mentalitetning kodlangan namunasi sifatida baholanadi. Sh. Rahmatullaev ta'kidlashicha, frazeologizmlar «tilning eng obrazli va mazmunan teran qatlamidir»¹.

Qadriyat esa falsafiy-aksiologik kategoriya sifatida shaxs yoki jamiyat uchun muhim bo'lgan axloqiy, madaniy, ma'naviy mezonlarni ifodalaydi. Demak, frazeologizmlar qadriyatlarning lingvistik tashuvchisi, xalqning etik-estetik mezonlarini saqlovchi kod sifatida namoyon bo'ladi.

O‘zbek xalqining mentaliteti ko‘proq mehr-oqibat, saxovat, sabr, mehnatsevarlik, or-nomus, kamtarlik, diniy e‘tiqod kabi qadriyatlar asosida shakllangan. Ushbu qadriyatlar frazeologizmlarda quyidagicha ifodalanadi:

| Qadriyat turi | Frazeologik birliklar |
|---------------------------------|--|
| Mehr-oqibat, hamjihatlik | <i>qo‘l uzatmoq, ko‘nglini ovlamoq, bir nonni bo‘lib yeyish</i> |
| Sabr-toqat | <i>tishini tishiga qo‘ymoq, sabr kosasi to‘lmoq</i> |
| Saxovat va ehson | <i>qo‘li ochiq, dasti uzun, nonini bo‘lishmoq</i> |
| Or-nomus va vijdon | <i>yuziga oyoq bosmoq, yuzi yorug‘, nomusini toptamoq, vijdoni qiynalmoq</i> |
| Mehnatsevarlik | <i>peshona teri bilan topmoq, qozonini qaynatmoq, bel bog‘lamoq, qo‘l qovushtirib o‘tirmoq</i> |

Bu birliklarning har biri o‘zbek xalqining axloqiy idealini aks ettiradi. Masalan, *qo‘li ochiq* iborasi nafaqat saxiylikni, balki insoniylikning mezoni sifatida talqin qilinadi. *Peshona teri bilan topmoq* mehnat qadriyatini sharaflaydi. *Nomusini yerga urmaslik* esa o‘zbek jamiyatida shaxsning eng oliy axloqiy mezoni sanaladi.

O‘zbek frazeologiyasida yaxshi va yomon xulqni baholash mezonlari ham aniq ifodalangan. Masalan, *tilidan bol tomadi* (yaxshi muomala qadriyat sifatida); *ko‘ngli qora* (yovuzlikka nisbatan rad etuvchi baho); *ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar* (bexabar, loqayd odamga nisbatan qoralovchi pozitsiya); *ko‘nglini og‘ritmoq* (ruhiy jarohatga jiddiy baho); *guruch kurmaksiz bo‘lmaydi* (hayotiy jarayon ifodalovchi xalqcha qadriyat) kabi.

Frazeologizmlar qadriyat yuklangan birlik sifatida ko‘pincha metaforik konseptlar asosida shakllanadi. Bu metaforalar xalq tafakkuridagi assotsiativ aloqalar, mifologik qarashlar, urf-odatlardan kelib chiqqan obrazlar orqali vujudga kelgan bo‘lib, ular tilda qadriyatni yashirin shaklda kodlash vazifasini bajaradi. O‘zbek tiliga oid frazeologik birliklarda qadriyatlar ko‘pincha tabiat, tana a‘zolari, taom, hayvonot, diniy tushunchalar orqali metaforik tarzda ifodalanadi.

Birgina “ko‘ngil” va “bosh” komponentli iboralar asosidagi metaforik modellarga e‘tibor qaratsak:

| Frazeologizm | Metaforik asos | Qadriyat |
|------------------------|-----------------------|------------------------|
| “Ko‘ngli daryo” | Ko‘ngil = daryo | Saxovat, bag‘rikenglik |
| “Ko‘ngli tosh bo‘lmoq” | Ko‘ngil = tosh | Mehrsizlik |
| “Ko‘ngli yayramoq” | Ko‘ngil = maydon | Quvonch, erkinlik |

Bu yerda “ko‘ngil” konsepti mavhum tuyg‘u emas, balki fizik makon sifatida tasavvur qilinadi. Bu qadimiy xalqona dunyoqarashning mahsulidir.

| Frazeologizm | Metaforik asos | Qadriyat |
|-------------------------|-------------------------------|---------------------|
| “Bosh egmoq” | bosh – ramziy irodaviy markaz | hurmat, itoat |
| “Bosh ko‘tarmoq” | bosh – itoatsizlik ramzi | g‘urur, jur‘at |
| “Boshlari omon bo‘lsin” | bosh – hayot markazi | duogo‘ylik, ezgulik |

Bu metaforik model orqali itoat, hurmat, duo, marhamat kabi qadriyatlar ifodalanadi. Demak, frazeologik metaforalar orqali qadriyatlar ramziy-majoziy shaklda kodlanadi. Bu esa frazeologizmlarni nafaqat lingvistik birlik, balki kognitiv-madaniy fenomen sifatida talqin etish zaruratini tug‘diradi. O‘zbek frazeologik tizimini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, til birliklarida xalqning dunyoqarashi konseptual qadriyatlar ko‘rinishida mustahkam joylashgan.

Shunday qilib, o‘zbek tilidagi frazeologizmlar xalq dunyoqarashining lingvistik xaritasi vazifasini bajaradi. Ular orqali o‘zbek xalqining axloqiy modeli, qaysi xatti-harakat ma’qullanishi yoki qoralanishi, qaysi fazilatlar ustun qo‘yilishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Frazeologizmlar — bu xalq xotirasining aksiologik aksidir. Ular o‘zbek xalqining hayotiy qarashlari, axloqiy normalari, estetik didi, diniy e’tiqodi, ijtimoiy idealini mujassam holda ifodalaydi. Ularni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, psixologiya va pedagogika uchun ham muhim manbadir. Demak, frazeologizmlar lingvomadaniy birlik sifatida xalqning o‘tmishini emas, balki bugunini ham aks ettiradi, chunki qadriyatlar zamonga mos tarzda yangi ma’nolar kasb etib boradi. Demak, frazeologik tizimni o‘rganish orqali biz nafaqat tilni, balki xalq ruhiyatini ham anglaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Д. Тил маданиятида соматик фраземаларнинг вазифадошлиги хусусида // Хорижий филология, 1(38) 2011. 9-11 б.
2. Зияев А.И. Инглиз тилида сўз маъноларини кучайтиришнинг лингвокогнитив аспекти. Номзодлик дисс. автореф. Самарқанд, 2009.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология. –М.: Академия, 2001. -208 стр.
4. Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. –М.: Наследие, 1997. -207 стр.
5. Махмуд Саттор. Ўзбекнинг гапи қизиқ. – Тошкент: Фан, 1994. 172 б.
6. Суколенко Н.И. Отражение обыденного сознания в образной языковой картине мира. –Киев: Наукова думка. 1992. 164 стр.
7. Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры // Фразеология в контексте культуры. –М.: Языки русской культуры, 1999. С.13-25

Sadinova Nigina Safarovna
Samarqand davlat chet tillar instituti “O‘zbek tili, jurnalistika va
kompyuter lingvistikasi kafedrasida dotsent v.b.
niginka9090@gmail.com

SO‘Z O‘YINI YUMORISTIK DISKURS VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘z o‘yining yumoristik diskursdagi kommunikativ-pragmatik ahamiyati tahlil etiladi. So‘z o‘yini til birliklarining ko‘p ma’nodligi, omonimlik, paronimlik, frazeologik birliklarning semantik imkoniyatlaridan foydalanish orqali hazil va kinoya yaratish vositasi sifatida o‘rganiladi. Tadqiqotda so‘z o‘yining lingvopragmatik va stilistik xususiyatlari, shuningdek, ularning auditoriyada kulgi, istehzo yoki iroda ta’sir uyg‘otishdagi roli yoritilgan. Maqola natijalarida so‘z o‘yining tilning estetik va emotsional imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim pragmatik vosita ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: yumor, diskurs, so‘z o‘yini, qochiriq, hazil-mutoyiba, qora yumor, kontekst, hissiy axborot almashinuvi, kommunikativ strategiya.

Аннотация: В данной статье анализируется коммуникативно-прагматическое значение игры слов в юмористическом дискурсе. Игра слов изучается как средство создания юмора и иронии посредством использования многозначности языковых единиц, омонимии, паронимии, семантических возможностей фразеологических единиц. В исследовании освещены лингвопрагматические и стилистические особенности игры слов,

а также их роль в возбуждении смеха, иронии или волевого воздействия на аудиторию. В результате статьи обосновывается, что игра слов является важным прагматическим инструментом, демонстрирующим эстетические и эмоциональные возможности языка.

Ключевые слова: юмор, дискурс, игра слов, ирония, юмор, черный юмор, контекст, обмен эмоциональной информацией, коммуникативная стратегия.

Abstract: This article analyzes the communicative-pragmatic significance of wordplay in humorous discourse. Wordplay is studied as a means of creating humor and irony through the use of polysemy of language units, homonymy, paronymy, semantic possibilities of phraseological units. The study examines the linguopragmatic and stylistic features of wordplay, as well as its role in provoking laughter, irony, or volitional influence on the audience. As a result of the article, it is substantiated that wordplay is an important pragmatic tool that demonstrates the aesthetic and emotional possibilities of language.

Keywords: humor, discourse, wordplay, irony, humor, black humor, context, emotional information exchange, communication strategy.

Ma'lumki, diskurs lingvistik va kognitiv jarayonni va mazkur jarayonning hosilasi hisoblangan matnni ham o'z ichiga oluvchi tushuncha hisoblanadi. Shuningdek, muloqotning og'zaki yoki yozma shakli bo'lgan nutq, bu nutqni shakllantirishdan ko'zda tutilgan maqsad hamda mazkur matnning mazmuni, nutq voqelanadigan ijtimoiy va madaniy kontekstlar ham ushbu tushuncha doirasida qaraladi. Diskurs murakkab kommunikativ hodisa bo'lib, u matndan farq qiladi. U matnga qo'shimcha ravishda uni tushunishda zarur bo'lgan fikrlar, dunyo haqidagi bilimlar, qabul qiluvchining maqsadi va munosabati kabi qo'shimcha lingvistik omillarni o'z ichiga oladi.¹ L. A. Sharikova tilshunoslikda haliga qadar diskurs tushunchasi o'zining tugal, yagona ta'rifiga ega bo'lmaganligini qayd etib, pragmalingvistikada diskurs muloqot ishtirokchilarining o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi faoliyatini, aloqa o'rnatish va uni saqlab qolishni, hissiy va axborot almashinuvini, bir-biriga ta'sir o'tkazishni, o'zgaruvchan kommunikativ strategiyalar va ularning muloqot amaliyotidagi verbal hamda noverbal ifodalari chatishmasini, kommunikativ harakatlarni ularning aniq va yashirin mazmuni birligi sifatida belgilashni ifodalashini ta'kidlaydi.² Diskurs tiplari bo'yicha kuzatish olib borgan V.I.Karasik quyidagi diskurs turlarini ajratib ko'rsatadi: 1) diskursning sotsiolingvistik turlari o'z ichiga quyidagilarni oladi: institutsional, pedagogik, tibbiy, ilmiy, siyosiy, diniy va kundalik turmush diskurslari; 2) diskursning pragmalingvistik turlari: hazil-mutoyiba va marosim diskurslari.³ Olimning fikrlaridan anglashiladiki, yumoristik diskurs kulgi vaziyatiga singdirilgan matnni aks ettiradi.⁴ Lug'atlarda yumorga quyidagicha ta'rif berilgan: 1. Yumor – insonning biror hodisa yoki voqeaning kulgili tomonini ilg'ay olish va uni hazil-mutoyiba tarzida ifodalash qobiliyatidir. Biror narsa haqida hazil-mutoyiba bilan so'zlamoq. 2. Yumor – biror hodisaning kulgili, komik jihati. *Butun vaziyatning hazili endi ayon bo'lardi.* 3. Agar insonda hazil tuyg'usi bo'lsa, u kimdadir yoki nimadadir kulgili jihatni ko'ra oladi va uni komik tarzda tasvirlay oladi. *Hazilkash odam. U kuchli hazil tuyg'usiga ega edi.* 4. Agar siz biror narsa haqida hazil-mutoyiba bilan gapirsangiz, bu haqda kulgili, hazilomuz ohangda so'zlayotgan bo'lasiz. *U bir firibgarning qilmishlari haqida g'oyat hazil-mutoyiba bilan, hech qanday malomatsiz so'zladi.* 5. Agar siz

¹ file:///C:/Users/Domlabobo/Downloads/diskurs-tushunchasi-va-unga-lingvistik-yondashuvlar.pdf

² Шарикова Л. А. Основы теории дискурса: словарный дискурс. Вестник КемГУ.

³ Карасик В. И. О типах дискурса / В. И. Карасик // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс : сб. науч. трудов. - Волгоград : Перемена, 2000.с.5.

⁴ Карасик, В. И. О типах дискурса / В. И. Карасик // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс : сб. науч. трудов. - Волгоград : Перемена, 2000.с.10.

biror narsaga yoki vaziyatga hazil bilan yondashsangiz, bu degani siz odatda noxush bo'lgan holatda ham quvnoq tomonni topishga intilasiz. *U bo'layotgan barcha voqealarga hazil bilan qarashga harakat qilardi.* 6. Hazil deganda quvnoq so'zlar yoki askiyalar tushuniladi. O'tkir, o'ynoqi, beozor hazil. *U tayyorlagan bayram nutqi nozik hazilning namunasi bo'lishi kerak edi.* 7. Qora hazil – noo'rin vaziyatlarda, masalan, kimningdir kasalligi yoki vafoti munosabati bilan hazillashishdir. *U hazillashmoqchi bo'ldi, ammo bu qora hazilga o'xshab ketdi.* 8. Hazil – san'atda biror narsani kulgili, hajviy tarzda tasvirlashga asoslangan badiiy usul. Teatr hazili. Hazil va hajv. 9. Hazil – gazeta yoki jurnaldagi askiya, hazil-mutoyiba va latifalar to'plami.¹

Yumorning o'ziga xos xususiyatlari badiiy matnlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Badiiy matnda personajlar xarakter-xususiyatini yoritishda, ular orasida munosabatlar dialektikasi, o'zaro ziddiyatli vaziyatlarning yumshashi, ijobiy tomonga o'zgarishini ko'rsatishda yumor muhim ahamiyat kasb etadi. Yumorning o'ziga xos xususiyatlari kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot jarayonida, ularning o'zini tutishi, muomala madaniyatiga qay darajada amal qilishiga bog'liq holda namoyon bo'ladi. V.I.Karasik o'zining “Diskurs turlarida xushmuomalalikning o'ziga xosligi” maqolasida xushmuomalalikni namoyon etishning uch asosiy usuliga (betaraf, xushmuomala va qo'pol xatti-harakatlar) asoslangan standart xushmuomalalik modeli yana uchta qo'shimcha usul, ya'ni o'ta xushmuomala, soxta xushmuomala va hazil-mutoyibali qo'pol xatti-harakatlar bilan to'ldirilishi mumkinligini qayd etadi. Odatiy xushmuomalalik ko'rinishlari: tanishlar bilan uchrashganda salomlashish, kechirim so'rash, minnatdorchilik bildirish, odob-axloq qoidalariga mos imo-ishoralar. Qo'pollikning odatiy ko'rinishlari: hurmatsizlikni turli usullarda namoyish etish (masalan, kattalar o'rtasidagi muloqotda notanish odamlarga nisbatan “sen” olmoshini ishlatish), og'zaki va og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlarda tajovuzkorlikni namoyon qilish. O'ta xushmuomala xatti-harakat: xushomadgo'ylik ifodasi, ba'zan kinoyaga, hazil-mutoyibaga yoki sahnaviy harakatga taqlid qilishga aylanib ketadi.²

Yumorga asoslangan san'at turlaridan biri so'z o'yini hisoblanadi. N.Hotamov va B.Sarimsoqovlar tomonidan yaratilgan “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati”da bu usulga shunday izoh berilgan: Igra slov – so'z o'yini, qochiriq. Nozik badiiy usullardan bo'lib, unda ijodkor ba'zan so'z shakldoshligidan, ba'zan so'zning majoziy yoki ramziy ma'nolaridan foydalanib, o'zi xohlagan ma'nolarni anglatishi mumkin. Masalan, Sharq poeziyasida so'z o'yini ko'proq so'zlarning omonimlik, ko'p ma'noliligi asosida quriladi. Shulardan bir tajnis san'ati deb yuritiladi. Bunda so'zning shakldoshligiga qarab, shoirlar turli misralari turlicha ma'no ifodalovchi, biroq yaxlit g'oya anglatuvchi, yaxlit kompozitsiyaga ega bo'lgan asarlar yaratganlar. Ba'zan bir so'z ishlatilgan holda, shu so'zning boshqa shakldoshlari ham nazarda tutilib, nozik so'z o'yinlari – iyhomlar yaratilgan”³

Badiiy matnda so'z o'yinidan foydalanishda ma'lum bir kommunikativ maqsad ko'zda tutiladi. Bu holatni Abdulla Qahhorning “San'atkor” hikoyasida kuzatamiz. Adib san'atkor bilim saviyasini ko'rsatishda bu vazifani obrazning o'ziga yuklab qo'ya qoladi. San'atkor nutqida uning fe'l va ot so'z turkumiga oid so'zlar ma'nolarini farqlamasligi so'z o'yinini yuzaga keltirgan. Muallif ana shu holat tasviri orqali kulgili vaziyatni yuzaga keltirgan:... *San'atkor tajang edi: tanaffus vaqtida zalga chiqqan edi, bir traktorist uni savodsizlikda aybladi... San'atkor uyiga ketgani izvoshga o'tirganida yana tutaqib ketdi: “Hech bo'lmasa, aytadigan ashulangni o'rgan, so'zlarini to'g'ri ayt” emish... — Xizmatchisi savod maktabida o'qiyotgan*

¹ <https://rus-dmitriev-tolk-dict.slovaronline.com/5985-%D1%8E%D0%BC%D0%BE%D1%80>

² https://eprints.tversu.ru/id/eprint/14296/1/ФИЛОЛОГИЯ_4_2024_В%20ПЕЧАТЬ-153-166.pdf

³ Хотамов Н., Саримсоқов Б. “Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати”, Тошкент: Ўқитувчи, 1983. Б.129.

bir kishini traktorist savodsiz desa, alam qilmaydimi? — dedi san'atkor o'zicha bo'g'ilib, - "labingdan bo'lsa olsam, e shakarlab" deganim u kishiga yoqmapti, "bo'lsa" emas, "bo'sa" emish! O'zi bilmaydi-yu, menga o'rgatganiga kuyaman! Senga o'xshagan savodsizlar "bo'sa, bo'masa" deydi. Artist kulturniy odam — gapni adabiy qilib aytadi – "bo'lsa, bo'lmasa" deydi. (A.Qahhor. "San'atkor")

Yozuvchi Ne'mat Aminovning "Qahqaha" asaridan olingan quyidagi parchada personajning "tif" va "tip" so'zlarining ma'nosini farqlamasligi so'z o'yinini yuzaga keltirgan:

Xo'jaqulova juda uzoq gapirdi. Bashirjonning xum kallasi ko'ksiga solingan, kichik, ensiz bag'baqasi ikki buklanib, osilib turardi. U ichida: "E, xudoyim-ey, iloyo qasd qilgan past bo'lsin!" deb pichirlab qo'yardi.

– *Bashir Zaynishev, - deya so'zida davom etdi Xo'jaqulova, Bashirjon yer ostidan unga mung'ayib qaradi, – haqiqatan ham bizning ishonchimizni oqlamadi. Mahalliy sanoat kombinatida planni barbod qildi, talon-tarojlikka yo'l qo'ydi... Xullas, hali yuqorida aytganimday, Bashir Zaynishev o'ziga xos, antiqa bir tipki, usta bir yozuvchining...*

– *O'rtoq Xo'jaqulova! – deya o'tirgan yeridan sapchib turdi Bashirjon. – Nega muncha "tif", "tif" deysiz? Axir men umrim o'tib "tif" kasalining ko'chasidan o'tmagan bo'lsam...*

Hamma Bashirjonga angrayib qaradi. Yakka-yarim kulgu yangradi.¹

Yuqorida keltirilgan matnlardan ma'lum bo'ladiki, so'z o'yini yumoristik diskursning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ular personajlar xarakter-xususiyati, bilim saviyasini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Шарикова Л. А. Основы теории дискурса: словарный дискурс. Вестник КемГУ.
2. Карасик В. И. О типах дискурса / В. И. Карасик // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. трудов. – Волгоград : Перемена, 2000. с.5.
3. <file:///C:/Users/Domlabobo/Downloads/diskurs-tushunchasi-va-unga-lingvistik-yondashuvlar.pdf>
4. Карасик, В. И. О типах дискурса / В. И. Карасик // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс : сб. науч. трудов. - Волгоград : Перемена, 2000. с.10.
5. <https://rus-dmitriev-tolk-dict.slovaronline.com/5985%D1%8E%D0%BC%D0%BE%D1%80>
6. https://eprints.tversu.ru/id/eprint/14296/1/ФИЛОЛОГИЯ_4_2024_В%20 ПЕЧАТЬ -153-166.pdf
7. Хотамов Н.,Саримсоқов Б. “Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати”, Тошкент:Ўқитувчи,1983.Б.129.
8. Аминов Н.Қаҳқаҳа: қиссалар ва ҳикоялар.Тошкент:Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.

Orzibekov Fazilbek Ulugbekovich
Toshkent Kimyo xalqaro
universiteti mustaqil tadqiqotchisi
fozilbek319@gmail.com

MULOQOTDAGI NUTQIY AKTLAR TAHLILI

¹ Аминов Н.Қаҳқаҳа: қиссалар ва ҳикоялар.Тошкент:Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.

Mazmuniy grammatikada sintaktik paradigmalarning muloqotdagi nutqiy aktlari tahlili tadqiqiga kognitiv va pragmatik nuqtayi nazardan yondoshganimizda inson omili g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda mulohaza bildirganida E.A.Popova quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: Bugungi kunda tilshunoslik fanining inson omilini hisobga olmasdan taraqqiy etgan o'tgan davrini tasavvur etish qiyin. Bu davrda tilshunoslik inson omilidan mutlaqo xoli edi [1: 69]. E.A.Popovanning tilshunoslikda inson omili haqidagi fikri zamonaviy lingvistikaning eng muhim an'alaridan biri – antropotsentrik paradigmaning shakllanishi va ustuvor yo'nalish sifatida rivojlanganini yorqin ifodalaydi. Tilni faqat shakl va tuzilish nuqtayi nazaridan emas, balki so'zlovchi va tinglovchi ya'ni inson omilidan tashqariga chiqmasdan antropotsentrik nuqtayi nazaridan tahlil qilish kerakligini bildiradi. E.A.Popovanning to'g'ri qayd etishiga ko'ra, avvalgi formalistik va strukturalistik yo'nalishlar tilni subyektisiz, ya'ni faqat tuzilish sifatida qoliplarga solib o'rganishga intilishgan. Bu esa tilning jamiyatdagi ijtimoiy vazifasini, individual hodisaligini, kommunikativ xususiyatlarini inkor etishga olib kelgan.

Bugun esa tilshunoslik insonni nutq faoliyatining manbayi sifatida o'rganishni asosiy vazifalardan biri qilib olgan.

Mazmuniy sintaksisda sintaktik paradigmalarning kognitiv tahlili insonga iltimos, buyruq, kinoya kabi nutqiy ta'sir ko'rsatishini aniqlaydi.

Bu tahlillarda inson faol ijrochi, ma'no yaratuvchi, muloqot subyektlari sifatida ko'riladi. E.A.Popova tanqid qilgan "insonsiz tilshunoslik" tajribasi endilikda amaliy jihatdan samarasiz deb baholanmoqda. Chunki til insonga xizmat qiluvchi uning ehtiyojlarini qondirish, aytmog'chi bo'lgan fikrini ifodalash vositasi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

E.A.Popovanning fikri zamonaviy tilshunoslikdagi inson markazidagi tahlilga o'tish jarayonini aniq va teran ifoda etadi. Bugungi kunga kelib global lingvistikada tilni faqat shakl sistemalar emas, inson faoliyati, psixologiyasi, niyati, maqsadi bilan bog'liq ijtimoiy-pragmatik hodisa sifatida o'rganish zarurligi sezildi.

Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojayeva S. "O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi" asarida modal ma'nolar ham nutqiy akt bilan aloqador ekanligi haqida quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: Nutqda qo'llangan har bir gap muayyan modal-zamon ma'nosiga egadir: gap u yoki bu zamonga oid real fakt (nutqiy akt – "nutq momenti" bilan aloqador fakt) ma'nosini yoki noreallik ma'nosini (istak yoki buyruq ma'nosini) ifodalaydi. Modal ma'nolar ham nutqiy akt bilan aloqador. Modal ma'nolar nutqiy akt bilan "nutq momenti" orqali emas, balki so'zlovchining pozitsiyasi orqali bog'lanadi. Ular so'zlovchi nuqtayi nazaridan gap mundarijasining voqelikka munosabatini aks ettiradi [2: 14]. Nutqiy faoliyatda har bir gap faqat grammatik birlik emas, balki kommunikativ hodisa hamdir. Bunda zamon gapda ifodalangan fikrning nutq momentiga qanday aloqasi borligini bildiradi. Zamon va modallikning nutqiy akt bilan bog'lanishini turlicha mexanizmda izohlaydi. Zamon bevosita, ya'ni nutq momenti orqali. Modallik bilvosita, ya'ni so'zlovchining psixologik-epistemik pozitsiyasi orqali bog'lanadi.

Zamonga nisbatan modallik semantik jihatdan ko'proq sotsiopsixologik omillarga tayanadi, bu esa uni nutqning faqat semantik emas, pragmatik kategoriya sifatida ham ko'rishga asos bo'ladi.

"Bugungi kunda kommunikatsiya jarayonida tilni so'zlovchilarning til haqidagi amaliy bilimisiz, uni e'tiborga olmasdan to'g'ri va to'liq o'rganib bo'lmazligi aniq bo'lib qoldi" [3: 50-54]. A.Nurmonovning fikri shuni anglatadiki, modallik til vositasi bo'lish bilan birga, so'zlovchining voqelik bilan bog'liq subyektiv nuqtayi nazarini aks ettiradi va shuning uchun u pragmatik vazifani ham bajaradi.

Nutqiy aktlar bo'yicha maxsus tadqiqot olib borgan taniqli olim M.Hakimov quyidagilarni yozadi: "Nutqiy aktning yashirin ifodasida so'zlovchining ichki maqsadi, aytmoqchi bo'lgan fikrining tinglovchi tomonidan qanday anglanishi va bu axborotni u qanday kayfiyat bilan qabul qilinishi nazarda tutiladi" [4: 24]. Atoqli olim M.Hakimovning bu fikrlariga to'liq qo'shilgan holda quyidagi o'z mulohazalarimizni bildiramiz. Nutqiy akt chiroyli amalga oshirilishi uchun so'zlovchi nafaqat o'z fikrini yetkazishi, balki u hali aytilmasdan oldin auditoriyada qanday qabul qilinishini ham nazarda tutishi kerak. Bu so'zlovchining kelajakni bilishi yoki psixologik prognozi, ichki intuitsiyasi, ya'ni tinglovchining ehtimoliy reaksiyasini oldindan his qilish qobiliyatiga ham uzviy bog'liq.

Bu holat pragmalingsvistikada retseptiv mexanizm sifatida tushuntiriladi. So'zlovchi nutqni tuzayotgan paytda birinchi galda uni eshitayotgan auditoriyadagi tinglovchining yoshi, bilimlari, qiziqishi, kayfiyati, madaniyati kabi omillarni inobatga olishi kerak bo'ladi.

M.Hakimov ta'kidlayotgan "*yashirin ifoda*" – ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri aytilmaydigan, ammo qo'shimcha ma'nolarni, holatni anglatuvchi ifodadir. Bu turdagi ifoda evfemizmlar, kinoya, ironiya, yumor, majoziy ifoda, yashirin ma'no va implitsit ma'lumotlar turlari tarzida bo'lishi mumkin.

Ya'ni, til faqat ifoda vositasi emas, balki "inson psixikasining ko'zgusi" hamdir.

Antropotsentrik paradigmda insonning qanday o'rin tutishini taniqli olim N.Mahmudov quyidagi fikrlar bilan ifodalaydi: "Antropotsentrik paradigmda inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi" [5: 6-7]. Bu fikrlar bilan to'liq qo'shilish mumkin. Chunki, antropotsentrik yondashuvda til faqatgina ijtimoiy muloqot vositasi sifatida emas, balki insonning ongi, tafakkuri, ehtiyojlari va shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog'liq fenomen sifatida qaraladi.

Bu haqda mulohaza bildirganida Sh.M.Iskandarova quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: Nutqiy muloqotda inson faktori muhim rol o'ynaydi va bu faktor muloqot faoliyatini rejalashtirish, uni voqelantirish, uning shakllanishini amalga oshirish kabi amallarini boshqaruvchi ko'rsatkichlardan biridir. Struktur tilshunoslikda ham "inson faktori" tushunchasi amalda bo'lganligini bilamiz, ammo strukturalistlar ushbu tushunchani "bir xil nutqiy sharoitdagi ideal so'zlovchi"ga nisbatan talqin qiladilar va uni "lisoniy qobiliyat" tushunchasi ta'rifi bilan bog'laydilar. Pragmalingsvistik talqinda esa "inson faktori" tushunchasi batamom o'zga ko'rinish oladi. Muloqotning shart-sharoiti turlicha bo'lganligi kabi unda "so'zlovchi va tinglovchining idroki, maqsad, asos, aloqa vositalari, xulq-atvorning maxsus belgilangan shakllari, ifoda mavzusi, so'zlashuvchilarning o'zaro munosabatlariga xos xususiyatlar"[6: 9]. Sh.M.Iskandarovanning bayon etilgan fikri, "inson faktori"ni shakl tuzilish bilan cheklash emas, balki har tomonlama interpretatsiya qilish zamonaviy tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri ekanligidan dalolat beradi. Zotan, antropotsentrik paradigmalarning asosi ham mana shuni taqozo etadi.

Atoqli tilshunos olim M.Hakimov pragmatikaga quyidagi ta'rifni beradi: Pragmatika lingvistik belgilarning nutqdagi funksional qo'llanishini o'rganadi [7: 6]. Bu pragmatikaning nazariy asoslari va amaliy vazifalarini ixcham va mazmunli tarzda ifoda etuvchi ta'rif hisoblanadi. M.Hakimov pragmatikani til birliklarining nutqdagi vazifasi, maqsadi, ta'siri bilan bog'laydi, ya'ni ularning: *kim tomonidan, qachon, qay tarzda, qanday maqsad bilan* qo'llanilayotganini o'rganishni nazarda tutadi. Bu ta'rif semiotikaning uch bo'g'inidan biri pragmatik darajaga to'la mos tushadi.

Masalan: *“Ishdan ketasiz”* – shakli bir, lekin vaziyatga ko‘ra buyruq, tahdid, maslahat yoki ogohlantirish bo‘lishi mumkin. Ya’ni bitta lisoniy belgi (so‘z, ifoda) turli vazifalarni bajarishi mumkin.

“Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so‘zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo‘llanishini tavsiflaydi. Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shug‘ullanadi, deyish demakdir” [8: 829]. Berilgan fikrda pragmatikaning eng muhim vazifasi sanalgan. Pragmatika so‘zlarning shakl tarzidagi ma’nolaridan ko‘ra, ularning voqeyiy nutqiy faoliyat jarayonidagi vazifasi, ta’siri va ijtimoiy rolini o‘rganadi. Masalan, bir so‘zlovchi *“Eshik ochiq qolibdi”* deb aytsa, bu grammatik jihatdan faktni bildirsa-da, pragmatik jihatdan iltimos yoki tuhmat, isnod kabi maqsadni ifoda etishi mumkin.

Pragmatika faqat gap qurilishini emas, balki nutqiy faoliyat orqali ijtimoiy ta’sir o‘tkazish, turli xil munosabatlarni bildirishni ham qamrab oladi. Bu esa fikrda bildirilgan “tinglovchiga axborotni so‘zlovchi istagandek qabul qildirish” g‘oyasini to‘la tasdiqlaydi. Demak, pragmatika faqat *“nimani aytildi, nega aytildi, kimga aytildi, qanday ta’sir qilish uchun aytildi”* degan savollarga javob izlaydigan tilshunoslik sohasidir.

Sh.Safarov nutqiy akti so‘zlovchining ma’lum maqsad bilan amalga oshirayotgan harakati sifatida ta’riflaydi: Nutqiy akt so‘zlovchining ma’lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir [9: 80]. Bu ta’rif J.L.Austin va J.Searle asos solgan nutqiy aktlar nazariyasi bilan uyg‘undir. Unga ko‘ra, har bir so‘zlovchi faqat ma’lumot yetkazmaydi, balki amaliy harakat buyruq beradi, iltimos qiladi, va’da beradi, kechirasiz deydi va hokazo amalga oshiradi.

Sh.Safarov ta’rifidagi “ma’lum muhitda, aniq maqsadda” iboralari nutqiy aktning matn doirasi xususiyatiga urg‘u beradi. Mazmuniy grammatikada pragmatik tahlilda nutq hech qachon nutqiy faoliyat doirasidan uzilgan holda ko‘rilmaydi.

Nutqiy akt tinglovchisiz mavjud bo‘lolmaydi. Sh.Safarov bu jihatni ham aniq belgilaydi, nutqiy akt tinglovchiga yo‘naltirilgan murojaat sifatida qaraladi. Bu ta’rif nutqiy akti bir tomonlama nutq emas, ikki shaxs o‘rtasidagi aloqa, grammatik yoki semantik qurilma emas, funksional harakat, matn doirasidan uzoq emas, ma’lum muhitdagi ikki tomonlama nutqiy voqelik sifatida tasvirlaydi.

Nutqda har qanday gap yoki ibora buyurish, so‘rash, iltimos qilish, ogohlantirish, ma’qullash yoki rad etish kabi kommunikativ maqsad bilan ishlatiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Попова Е.А. Человек как основополагающая величина современного языкознания // Филологическая науки, 2002, № 3. – С. 69.
2. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojayeva S. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992. – B.14.
3. Nurmonov A. Lingvistik ta’limotning yangi bosqichi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2008, № 6 (50 – 54 b.).
4. Hakimov M. Nutqiy aktlar nazariyasi. – Farg‘ona, 2020. 24-bet.
5. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab. / O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshknet. 2012. № 5. – B 6-7.
6. Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. НДА, – Самарқанд, 1993. 9-б.
7. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Монография. – Тошкент, 2013. 6-бет.

8. Proceedings of the 12th International Congress of Linguists. Vienna, 1977 (ed. By Dressler W.) Meid W. – Innsbruck: Inst. Für Sprachwissenschaft, 1978. – 829 p.

9. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008. 80-бет.

Maxmudova Komila Sobirjanovna
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

BRITAN VA AMERIKA INGLIZ TILI O'RTASIDAGI MADANIY FARQLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada Britaniya va Amerika ingliz tillari o'rtasidagi asosiy farqlar tahlil qilinadi. Ingliz tilining xalqaro miqyosda keng qo'llanilishi u turli mintaqalarda turlicha rivojlanishiga olib kelgan. Xususan, Britan va Amerika variantlari o'rtasida lug'at, imlo, talaffuz hamda madaniy yondashuvlarda sezilarli tafovutlar mavjud. Maqolada kundalik hayotdagi leksik farqlar, yozuvdagi soddalashtirish jarayonlari, talaffuzdagi o'ziga xosliklar va madaniyatning tildagi aks-sadosi yoritilgan. Xulosa qismida esa bu farqlarning ingliz tilini o'rganishda qiyinchiliklar tug'dirishi bilan birga, uni yanada qiziqarli va mazmunli qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Britaniya ingliz tili, Amerika ingliz tili, lug'at farqlari, imlo, talaffuz, madaniy ta'sir, xalqaro muloqot.

CULTURAL DIFFERENCES BETWEEN BRITISH AND AMERICAN ENGLISH

Abstract. This article analyzes the main differences between British and American English. The wide international use of English has led to its diverse development across various regions. In particular, noticeable distinctions exist between the British and American varieties in vocabulary, spelling, pronunciation, and cultural perspectives. The paper highlights lexical differences in everyday life, the tendency towards simplification in American spelling, pronunciation peculiarities, and the reflection of culture in language use. The conclusion emphasizes that while these differences may pose challenges for learners, they also make the study of English more engaging and meaningful.

Keywords: British English, American English, vocabulary differences, spelling, pronunciation, cultural influence, international communication.

КУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ БРИТАНСКИМ И АМЕРИКАНСКИМ АНГЛИЙСКИМ ЯЗЫКОМ

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные различия между британским и американским вариантами английского языка. Широкое международное использование английского привело к его разнообразному развитию в разных регионах. В частности, между британским и американским английским наблюдаются заметные различия в лексике, орфографии, произношении и культурных особенностях. В работе освещаются лексические различия в повседневной жизни, тенденция к упрощению в американской орфографии, особенности произношения и отражение культуры в языке. В заключении подчеркивается, что данные различия, несмотря на определённые трудности для изучающих, делают процесс освоения английского языка более интересным и содержательным.

Ключевые слова: Британский английский, американский английский, различия в лексике, орфография, произношение, культурное влияние, международное общение.

Ingliz tili globallashuv davrida o'z ta'sirini har bir soxaga o'tkazmoqda va turli terminlar va jumlar xalqaro so'z sifatida zamonaviylashib borayotgan dunyo bo'ylab eng ko'p

qo'llanilmoqda. Biroq, uning turli mintaqalardagi ishlatilishi o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Ayniqsa, Britaniya ingliz tili va Amerika ingliz tili o'rtasida lug'at, talaffuz va hatto madaniy nuqtai nazardan turli xil tafovutlar uchraydi. Bu farqlarni bilish nafaqat til o'rganishda, balki xalqaro muloqotda ham to'g'ri muloqotga kirishish uchun juda muhimdir.¹ Ushbu tezisda bir necha turlari muhokama qilinadi va ikki til o'rtasidagi farqlar qiyosiy tahlil etiladi:

1. Lug'atdagi farqlar

Britaniya va Amerika ingliz tilida bir xil turdagi narsalarga turlicha so'zlar ishlatiladi. Masalan: Britaniyada "lift", Amerikada esa "elevator" deyiladi.

Britaniyada "flat", Amerikada esa "apartment" ishlatiladi.

Kundalik hayotdagi bunday farqlar ingliz tilini o'rganuvchilar uchun qiziqarli lekin ba'zan chalkash bo'lishi mumkin, va natijada muloqot jarayonida turli leksik xatoliklar kuzatiladi.

2. Imlo (yozuv) farqlari

Amerika ingliz tilida so'zlar ko'proq soddalashtirilgan holda yozilgan bo'lsa, Britaniya ingliz tilisida buning aksini ko'rishimiz mumkin:

Britaniya ingliz tilida: "colour", "centre", "theatre."

Amerika ingliz tilida: "color", "center", "theater"

Bu imlo farqlari tarixiy sabablarga ko'ra yuzaga kelgan, chunki Amerika ingliz tili ko'proq yangilanish va oddiyashtirilishi ko'p sonli immigrantlar tashrifi tufayli yuzaga kelgan.

3. Talaffuzdagi farqlar

Britaniya ingliz tilida tovushlar yumshoqroq va aniqroq talaffuz qilinadi. Masalan, britanacha talaffuzda so'z oxiridagi "r" ko'pincha aytilmaydi: "car" → [ka:]. Amerikacha ingliz tilida esa "r" kuchli talaffuz qilinadi: [kar].

4. Madaniy ta'sir

Til farqlari madaniyatda ham aks etadi. Masalan, Britaniyada odamlar rasmiyroq va muloyimroq gapirishga moyil, Amerika esa odatda bevosita va do'stona uslubni afzal ko'radi.² Shuningdek, sport nomlarida ham farqlar bor: Britaniyada "football" bu biz biladigan futbolni bildirsa, Amerikada esa u "American football"ni anglatadi.

Xulosa

Britan va Amerika ingliz tillari o'rtasidagi farqlar til o'rganuvchilar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin, lekin shu bilan birga, ularni qiziqarli qiladi. Har ikkisi ham boy madaniyatni ifodalaydi va global muloqotda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, ingliz tilini o'rganishda bu farqlarni yaxshi bilish tilni yanada samarali o'zlashtirishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Algeo, J. (2006). *British or American English? A Handbook of Word and Grammar Patterns*. Cambridge University Press.
2. Crystal, D. (2012). *The Story of English in 100 Words*. Profile Books.
3. Crystal, D. (2003). *English as a Global Language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
4. Trudgill, P., & Hannah, J. (2013). *International English: A Guide to Varieties of English Around the World*. Routledge.

¹ Esirgapov, M., & Abduxakimova, U. (2024). YEVROPA, AMERIKA VA AVSTRALIYA XALQLARI TILI VA ADABIYOTI. SYNAPSES: Insights across the disciplines, 1(3), 138-142.

² Trudgill, P., & Hannah, J. (2013). *International English: A Guide to Varieties of English Around the World*. Routledge.

5. Mencken, H. L. (1963). *The American Language: An Inquiry into the Development of English in the United States*. Knopf.

6. McArthur, T. (2002). *The Oxford Guide to World English*. Oxford University Press.

7. Boboqulova, R., & Zubaydova, N. (2024, October). INGLIZ TILINING SHEVALARI: TARIXIY RIVOJLANISH VA GLOBAL FARQLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 1, No. 11, pp. 69-73).

8. Esirgapov, M., & Abduxakimova, U. (2024). YEVIROPA, AMERIKA VA AVSTRALIYA XALQLARI TILI VA ADABIYOTI. SYNAPSES: Insights across the disciplines, 1(3), 138-142.

9. Alibekova, D., Xolbayev, F., Shermatova, D., & Ikromova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF THE FICTION BOOKS IN READING AND WRITING SKILLS. Теоретические аспекты становления педагогических наук, 3(23), 36-40.

Salomova Gavhar Abdinazarovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Xorijiy til va adabiyoti kafedrasida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA REKLAMA QISQARTMALARIDAN FOYDALANISHNING PRAGMATIK JIHATI

Annotasiya

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida reklama qisqartmalaridan foydalanishning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Reklama diskursida qisqartmalarning asosiy vazifalari — iste'molchi e'tiborini tortish, matni ixchamlashtirish, zamonaviylikni ifodalash va prestij yaratishdir. Ingliz tilidagi reklama qisqartmalari (masalan, BMW, KFC, VIP) asosan xalqaro brendlash va global bozorda tanilish vositasi sifatida qo'llanilsa, o'zbek tilida (masalan, O'zMTV, UzAuto, SMS, TV) ular milliylikni va zamonaviylikni birgalikda ifodalaydi. Ikkala til reklama matnida qisqartmalardan foydalanish pragmatik jihatdan o'xshash bo'lib, ularning kommunikativ samaradorligini oshiradi va auditoriyaning xotirasida esda qolarli obraz yaratadi.

Kalit so'zlar: reklama tili, qisqartma, lingvopragmatika, ingliz tili, o'zbek tili, ixchamlik, prestij.

Abstract

This article analyzes the linguo-pragmatic features of using abbreviations in English and Uzbek advertising. The main functions of abbreviations in advertising discourse are to attract consumer attention, make the text more concise, express modernity, and create prestige. Abbreviations in English advertising (e.g., BMW, KFC, VIP) are mainly used as a tool for international branding and global market recognition, while in Uzbek advertising (e.g., O'zMTV, UzAuto, SMS, TV) they simultaneously reflect national identity and modernity. In both languages, the use of abbreviations in advertising is pragmatically similar, as it enhances communicative effectiveness and creates a memorable image in the audience's mind.

Keywords: advertising language, abbreviation, linguo-pragmatics, English language, Uzbek language, conciseness, prestige.

Аннотация

В данной статье анализируются лингвопрагматические особенности использования аббревиатур в английской и узбекской рекламе. Основные функции аббревиатур в рекламном дискурсе заключаются в привлечении внимания потребителей, сокращении текста, выражении современности и создании престижа. Аббревиатуры в английской

рекламе (например, BMW, KFC, VIP) в основном используются как инструмент международного брендинга и глобального рыночного признания, тогда как в узбекской рекламе (например, O'zMTV, UzAuto, SMS, TV) они одновременно отражают национальную идентичность и современность. В обоих языках использование аббревиатур в рекламе прагматически схоже, поскольку оно повышает коммуникативную эффективность и создает запоминающийся образ в сознании аудитории.

Ключевые слова: язык рекламы, аббревиатура, лингвопрагматика, английский язык, узбекский язык, краткость, престиж.

Kirish (Introduction). Zamonaviy ingliz tilida grammatik va leksik tarkibiga turli lisoniy va nolisoniy jarayonlar bilan bog'liq ko'plab o'zgarishlar kuzatilgan. Bu kabi holatlar deyarli barcha tirik va taraqqiy etib kelayotgan tillarda kuzatiladi¹. Shu jihatdan qisqartmalar har bir tilning leksikasida keyingi yillarda faollashayotgan til birliklaridir.

Dunyo tillari orasida keng tarqalgan abbreviaturalarning paydo bo'lishi uzoq o'tmishga borib taqaladigan murakkab, ko'p qirrali jarayondir. Dastlabki vaqtlarda, ya'ni zamonaviy leksik abreviatsiyadan oldingi bosqichlarda abreviaturaning ilk ko'rinishlari mavjud bo'lgan – bular grafik qisqartmalardir. Har bir yangi abbreviatura eski leksik tizim imkoniyatlari asosida, shu leksikaning ichki qismida quyi tizim sifatida, asosiy qisqartirish usullaridan biri sifatida paydo bo'ladi.

Reklama tilining asosiy vazifasi — iste'molchini jalb qilish, e'tiborini tortish va mahsulot yoki xizmatni tezkor hamda samarali tarzda targ'ib qilishdir. Shu bois reklama matnlarida qisqartmalardan keng foydalaniladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi reklama qisqartmalari o'ziga xos pragmatik vazifalarga ega bo'lib, ular til ixchamligi, tezkorlik, zamonaviylik, ijtimoiy maqom ko'rsatkichlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Metodologiya (Methods)

Tahlil usuli: taqqoslash, lingvopragmatik tahlil, kontekstual tahlil.

Material: ingliz tilidagi reklama (TV, internet-banner, ijtimoiy tarmoqlar) va o'zbek tilidagi reklama (gazeta, banner, internet) matnlari.

Nazariy asos: qisqartmalarining sistem-struktural va lingvopragmatik tasniflari

Natijalar (Results). Reklama tilida qisqartmalar alohida kommunikativ vosita sifatida muhim o'rin tutadi. Ularning vazifasi nafaqat matnni ixchamlashtirish, balki iste'molchida tezkor assotsiatsiya uyg'otish va reklama xabarini esda qolarli qilishdir. Har bir tilshunoslikda lisoniy birliklarni qayd etish va tartibga solish qonun-qoidalari shakllanib bo'lgach, shakli qisqartmalarni ham lingvistikada belgilangan qat'iy me'yorlarga ko'ra, ma'lum grammatik toifalari tanlanadi, yozma ko'rinishi shakllantiriladi. O'zlashma shartli qisqartmalarni bunday grafik-grammatik, orfoepik-orfografik qoidalashtirib qo'yish til egalarining ulardan nutqning turli shakllarida foydalanishni qulaylashtiradi, bir xil ishlatilishi va bir xil tushunilishini ta'minlaydi. **Ingliz tilidagi reklama qisqartmalari** asosan xalqaro brendlarni ifodalashda qo'llaniladi. Ular qisqa, oson talaffuz qilinadigan va global miqyosda tanilgan bo'lib, iste'molchining e'tiborini darhol tortadi.

Ingliz tilida reklama qisqartmalari ko'pincha brend ixchamligi va global standartlashuvga qaratilgan²:

BMW (Bayerische Motoren Werke) – avtomobil reklamasida xalqaro brendni ifodalaydi.

¹Вольнова Д.Н. Иностранные заимствования как один из источников словарного состава английского языка. //http://web.snauka.ru/issues/2014/12/39354.

² Krisin, L. P. (2007). *Sovremennyy russkiy yazyk: Abbreviatsii v yazyke SMI*. Moskva: Flinta.

KFC (Kentucky Fried Chicken) – fastfood reklamasida tezlik va tanishlik yaratadi. VIP (Very Important Person)¹ – reklama matnida xizmatning yuqori sifatini bildiradi.

1. **O‘zbek tilida** qisqartmalar ko‘proq **milliy va zamonaviylik unsurlarini** o‘zida aks ettiradi:

O‘zMTV (O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi) – media reklamalarda.

UzAuto – avtomobil ishlab chiqarish reklamasida xalqaro moslashuvni ko‘rsatadi.

SMS, TV, Wi-Fi kabi global qisqartmalar milliy reklama tiliga ko‘chib kelgan.

2. **Pragmatik funksiyalar:**

E’tibor tortish: qisqartma matnni ixcham va esda qolarli qiladi.


Zamonaviylik ifodasi: reklama zamonga mos va “trend”²ga aylanishi uchun qisqartmalar ishlatiladi.

Prestij yaratish: inglizcha qisqartmalardan foydalanish reklamada xalqaro maqom beradi.

Ekonomiya: reklama maydoni ixcham bo‘lgani uchun qisqartmalar joyni tejaydi.

Muhokama (Discussion). Ingliz tilidagi qisqartmalar ko‘proq global brendlash va xalqaro bozorda tanilish uchun ishlatiladi. O‘zbek tilida esa qisqartmalar rasmiylashtirish va milliy o‘zlikni aks ettirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ikkala til reklama diskursida qisqartmalar iste’molchiga tez, ixcham va zamonaviy xabar yetkazishni ta’minlaydi. Shuningdek, qisqartmalar reklamanning psixolingvistik ta’sirini kuchaytiradi, chunki ular auditoriyaning eslab qolish jarayonini osonlashtiradi.

1-rasm.



1-rasm. Ingliz tilidagi qisqartma so‘zlarning etimologiyasi va qo‘llanish doirasining foizlarda ko‘rsatkichlari

Xulosa (Conclusion). Ingliz va o‘zbek tillaridagi reklama qisqartmalari lingvopragmatik jihatdan o‘xshash bo‘lib, ular reklamanning ixchamlik, zamonaviylik va prestij yaratish kabi funksiyalarini bajaradi. Biroq ingliz tilida qisqartmalar ko‘proq global brendlar bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek tilida ular milliy mazmun va davlat tizimi bilan integratsiyalashgan holda qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

¹ Bauer, L. (1983). *English Word-Formation*. Cambridge: Cambridge University Press.

² Mankova, I. V. (2000). *Lingvopragmaticheskiye osobennosti ispol'zovaniya abbreviatsiy v reklame*. Moskva.

1. Krisin, L. P. (2007). *Sovremennyy russkiy yazyk: Abbreviatsii v yazyke SMI*. Moskva: Flinta.
2. Mankova, I. V. (2000). *Lingvopragmaticheskiye osobennosti ispol'zovaniya abbreviatsiy v reklame*. Moskva.
3. Pokrovskaya, T. N. (2005). *Abbreviatsii v sovremennom angliyskom yazyke*. Voronezh.
4. Chernyak, V. D. (2003). *Abbreviatsii v yazykovoy sisteme i rechi*. Sankt-Peterburg.
5. Bauer, L. (1983). *English Word-Formation*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Mackwardt, H. (1958). "Abbreviations in English: A Morphological Analysis." *Language*, 34(1), 92–98.
7. Mogilevskiy, G. A. (1984). *Abbreviatsii i sokrashcheniya v russkom yazyke*. Moskva.
8. Zemskaya, E. A. (2000). *Slovoobrazovanie sovremennogo russkogo yazyka*. Moskva: Nauka.

Axmedjanova Farida Djavairovna
axmedjanovafarida@gmail.com
SamDCHTI, Ingliz tili tarixi va
grammatikasi kafedrası o'qituvchisi

MARGARET DREBBL ASARLARIDA AYOL OBRAZINING LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr mobaynida ayol obrazining shakllanish jarayonlari o'rganilib, ayollikka oid qarashlarni belgilab bergan ijtimoiy, madaniy hamda siyosiy o'zgarishlar tahlil qilinadi. Unda, xususan, ikki jahon urushi oqibatlarini va feministik harakatlarning kuchayishi kabi muhim tarixiy jarayonlar yoritiladi. Shuningdek, tahlil davomida ommaviy axborot vositalari va adabiyotlarda ayollarning tasviri qanday aks etgani, bu jarayon jamoatchilik ongiga qay tarzda ta'sir ko'rsatgani hamda gender tengligi borasidagi davomli islohotlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ayol, ayol obrazi, taraqqiyot, filologiya, XX asr.

Margaret Drebbel Britaniyaning taniqli yozuvchi ayollari qatorida turadi. Uning asarlari o'z hayotiy kechinmalariga asoslangan bo'lib, zamonaviy bilimlar asosida ayollarning jamiyatdagi muammolari va ularning taraqqiyot yo'llarini badiiy uslubda uch qismda tasvirlaydi. U ayollarning ijtimoiy mavqeyi va roli masalasini chuqur tahlil qiladi, jamiyatning dolzarb masalalarini o'rganib, ayollar uchun jamiyatdagi qiyinchiliklardan chiqish imkoniyatlarini izlaydi. Drebbel asarlari ayol shaxslarning individual rivojlanishi va o'sishiga qaratilgan badiiy nasriy asarlar bo'lib, asosan feministik mavzularni yoritadi, odatda feministik nuqtai nazar bilan yondashadi. Ushbu tadqiqot Margaret Drebbel ijodini ayol konsepti nuqtai nazardan keng ko'lamda o'rganadi. Birinchi navbatda, tadqiqotda Drebbelning tarjimai holi va shaxsiy tajribalari, ularning romanlarini yaratishga qanday ta'sir qilgani ko'rib chiqiladi. Ikkinchidan, yozuvchining asarlarini o'rganishda, uning nozik adabiy uslub bilan feministik mavzularni qanday aks ettirishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot Drebbel romanlarida aks etgan feministik g'oyalarga qaratilgan. Drebbel ayollarning mustaqilligi va o'zini anglashining muhimligini ta'kidlaydi, ayollarni patriarxal jamiyat kishanlaridan chiqib, tenglik va erkinlikka intilishga chaqiradi.

XX asr Britaniya adabiyotida zamonaviy ayol obrazlari muhim mavzu bo'lib, Margaret Drebbel bu borada o'ziga xos hissa qo'shgan yozuvchilardan biridir. Uning asarlari ayollarning

shaxsiyati, jamiyatdagi o'rnini va ichki kurashlarini tez o'zgarib borayotgan dunyoda yoritadi. "The Millstone"¹ va "The Waterfall"² kabi romanlarida Drebbel o'zining qahramonlarini an'anaviy jinsiy rollarni tanqid qilish, ichki nizolarni hal qilish va o'zgarayotgan ijtimoiy sharoitlarda yashashni o'rganishga undaydi. Uning boy personaj tasvirlari mustaqillik, munosabatlar va o'zini anglash mavzularini o'rganadi. Drebbelning zamonaviy ayollarni tasvirlashi faqat bitta shaxsning kurashlari va o'sishiga ta'sir qilib qolmay, balki XX asrning keng ijtimoiy o'zgarishlarini aks ettiradi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin, jahon hamjamiyati tizimi va madaniyatiga bo'lgan munosabat inqilobiy o'zgarishlarga duch keldi, Britaniya ham bu jarayondan chetda qolmadi. Urush oqibatlari jamiyatning an'anaviy gender tushunchalari va rollariga qarshi norozilikni kuchaytirdi. Jamiyatni qayta qurish jarayoni, restoratsiya bilan bir vaqtda, britaniyalik ayollarni uy-ro'zg'ordan tashqariga, kengroq ijtimoiy harakatlarga jalb qildi. Maktab ta'limi va mehnat qilish imkoniyatlarining kengayishi ayollarga rasmiy ta'lim olish imkoniyatini yaratdi, bu esa ularning bilim darajasi va qobiliyatlarini oshirishga xizmat qildi. Jamiyatning aksini ifoda etuvchi adabiyotda ham, odamlarning jamiyat o'zgarishlariga bo'lgan munosabati namoyon bo'ldi. Avvalgi adabiyot maydonida erkaklar hukmronlik qilgan bo'lsa-da, jamiyatning rivojlanishi bilan birga adabiyot ayollarni ham o'quvchi, ham yozuvchi sifatida qabul qila boshladi. Ushbu davrning zamonaviy ayol yozuvchilari, o'z qalamlari bilan ayollar hayoti va qiyinchiliklarini tasvirlab, adabiy olamga yangi ovozlari va yangi qarashlarni olib kirishdi.³

Drebbel – bu ijtimoiy fonda tug'ilgan zamonaviy ayol yozuvchi. U yarim asrdan ortiq adabiyot olamida ko'plab mumtoz romanlar yaratdi. "A Summer Bird-Cage"⁴ va "The Millstone"⁵ kabi romanlar ayollarning shaxsiy yo'qotilgan ichki dunyosini chuqur tasvirlagan. U o'z hayotiy qadriyatini izlovchi zamonaviy bilimdon ayollarni muvaffaqiyatli tasvirlab, ayollarning o'sishi, turmush qurish va martaba kabi rivojlanish masalalarini turli nuqtai nazardan muhokama qilgan. Yozuvchi patriarxal jamiyatdagi ayollarning hayotiy qiyinchiliklari haqidagi zamonaviy bilimlarni o'rganib chiqdi va ayollarning hozirgi qiyinchiliklarni yengib o'tish yo'llarini qidirdi. Drebbelning romanlarida aks etgan zamonaviy ayollarning muammolari va kelajagi, asosan, zamonaviy ziyoli ayollarning hayotda qolish va rivojlanish istiqbollarini ochib beriladi. Ikkinchi qism Drebbelning asarlarida feministik qarashlarining tahlili bo'lib, Drebbel romanlarida ayol mavzusini va feministik yozuv uslubini ochib beradi. Uchinchi qism ushbu tadqiqotning asosiy natijalari va istiqbollarini umumlashtiradi hamda uning feministik nazariya va amaliyotga ta'sirini o'rganadi. Drebbelning adabiy asarlarida ayollarning jamiyatdagi mavqeiga urg'u berilib, zamonaviy ziyoli ayollar haqidagi chuqur fikrlar, ayollarning ijtimoiy hayotdagi omon qolishini adabiy vositalar orqali tahlil qilish va ayollarning rivojlanish yo'llarini izlashga qaratilgan. Drebbel yashagan davrda gender va ijtimoiy masalalarda ko'plab nohaqliklar kuzatilgan bo'lib, ayollarga nisbatan kamsitish holatlari ham tez-tez uchray turgan. Shu sababli, Drebbel o'z asarlarini yoritishda doimo ayollar nuqtai nazaridan yondashgan. U har doim ayollarning jamiyatdagi mavqeini o'ylab, zamonaviy bilimga ega bo'lgan ayolning jamiyatdagi o'rnini muhokama qilgan, ayollarning hayotdagi o'rnini masalasiga adabiy nuqtai nazar bilan qaragan. Ijtimoiy qiyinchiliklar va zamonaviy bilimga ega ayollarning hayotda o'z o'rnini

¹ Margaret D. "The Millstone". London: Weidenfeld & Nicolson, 1965. – P. 192.

² Margaret D. "The Waterfall". London: Weidenfeld & Nicolson, 1969. – P. 208.

³ Durdevic M. Challenging the genre: Margaret Drabble's a summer bird-cage as a female bildungsroman. Филологический форум, 2020. – P. 31-40.

⁴ Margaret D. "A Summer Bird-Cage". London: Weidenfeld & Nicolson, 1963. – B. 192.

⁵ Margaret D. "The Millstone". London: Weidenfeld & Nicolson, 1965. – B. 192.

topishiga oid qiyinchiliklar Drebbning romanlarida o‘z aksini topgan. Ayollarning martaba cho‘qqisiga intilishi va oilaviy hayotining ikki tomonlama fojiasi ayollarning ijtimoiy omon qolish jarayonida ichki tushkunlik va yolg‘izlik hissini yanada kuchaytiradi. Bu ayollarning hayotini ham, qalbidagi dardini ham aks ettiradi.¹

Ijtimoiy hayotning yuksalishi britaniyalik ayollarga sifatli ta‘lim va ko‘proq o‘z-o‘zini band qilish imkonini yaratdi. Ijtimoiy mehnatning taqsimotiga nisbatan, ayollar asta-sekin oilaviy chegaralardan chiqib, jamiyatga kirib borishdi va oxir-oqibat oila va ish yuklamalarini teng taqsimlash imkoniyatiga erishdilar.²

Ijtimoiy taraqqiyotning fonida, ijtimoiy struktura va tizimning o‘zgarishi ayollarning pozitsiyasini muntazam ravishda mustahkamladi, ularning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokini oshirdi va o‘z kasbiy yo‘llariga ega bo‘lishlariga turtki berdi. Lekin, o‘sha davrlarda Britaniya jamiyati hali ham an‘anaviy fikrlash uslublariga rioya qilib, ayollarni oilalariga chambarchas bog‘lab, fazilatli turmush o‘rtog‘i va ona sifatidagi an‘anaviy rollari ta‘kidlab kelingan edi.³

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Margaret D. “The Millstone”. London: Weidenfeld & Nicolson, 1965. – P. 192.
2. Margaret D. “The Waterfall”. London: Weidenfeld & Nicolson, 1969. – P. 208.
3. Margaret D. “A Summer Bird-Cage”. London: Weidenfeld & Nicolson, 1963. – B. 192.
4. Margaret D. “The Millstone”. London: Weidenfeld & Nicolson, 1965. – B. 192.
5. Buran S. An identity of one’s own: Feminist ideology and identity crisis of an academic woman in a postmodern feminist fiction. *Söylem Filoloji Dergisi*, v. 5, n. 2, 2020. – P. 605-628.
6. De Bruyn B. The great displacement: Reading migration fiction at the end of the world. *Humanities*, v. 9, n. 1, 2020. – P. 25-40.
7. Durdevic M. Challenging the genre: Margaret Drabble’s a summer bird-cage as a female bildungsroman. *Филологический форум*, 2020. – P. 31-40.
8. Matthews G. Clinical empathy and the ethics of “Detached Concern” in mid-twentieth-century British literature. *Literature and Medicine*, v. 38, n. 1, 2020. – P. 113-140.
9. García A. Body, corporality and maternity in Margaret Drabble’s ‘The Millstone’. *Epos: Revista de filología*, v. 2020, n. 36, 2020. – P. 109-122.
10. Delucia J. E. Dream and literary creation in women’s writings in the eighteenth and nineteenth centuries ed. by isabelle hervouet and anne rouhette. *Eighteenth-Century Fiction*, v. 34, n. 5, 2022. – P. 630-631.

Raxmonova Gavhar Nuritdinovna
Karshi Economics and Pedagogy University
Assistant Lecturer at the Department of Foreign Languages

¹ Buran S. An identity of one’s own: Feminist ideology and identity crisis of an academic woman in a postmodern feminist fiction. *Söylem Filoloji Dergisi*, v. 5, n. 2, 2020. – P. 605-628.

De Bruyn B. The great displacement: Reading migration fiction at the end of the world. *Humanities*, v. 9, n. 1, 2020. – P. 25-40.

² Matthews G. Clinical empathy and the ethics of “Detached Concern” in mid-twentieth-century British literature. *Literature and Medicine*, v. 38, n. 1, 2020. – P. 113-140.

García A. Body, corporality and maternity in Margaret Drabble’s ‘The Millstone’. *Epos: Revista de filología*, v. 2020, n. 36, 2020. – P. 109-122.

³ Delucia J. E. Dream and literary creation in women’s writings in the eighteenth and nineteenth centuries ed. by isabelle hervouet and anne rouhette. *Eighteenth-Century Fiction*, v. 34, n. 5, 2022. – P. 630-631.

THE USE OF IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS IN NATIONAL, HISTORICAL, AND CULTURAL CONTEXTS

Abstract. This paper analyzes the semantic and functional characteristics of idioms and phraseological units within national, historical, and cultural frameworks. Idioms and phrasemes are regarded as linguocultural phenomena that reflect the cultural heritage, historical experience, and worldview of a people. The study presents a comparative analysis of Uzbek and English phraseological units, focusing on their national and cultural components, their reflection of collective thinking, and their communicative functions in discourse.

Keywords: idiom, phraseological unit, national-cultural context, linguoculturology, semantics, collective thinking, historical connotation.

Language is not merely a means of communication but also a repository of a nation's historical memory and cultural heritage. Idiomatic expressions and phraseological units form a distinctive layer of the linguistic system, embodying the national colour, worldview, and values of a community. Therefore, the study of idioms and phraseological expressions within national-historical and cultural contexts plays an essential role in the field of linguoculturology.

Idioms and phraseological expressions are the product of collective thought and cultural experience. Their origins are closely linked to historical events, folk traditions, and oral narratives such as myths and legends. For instance, Uzbek expressions such as "*O'tgan ishga salavot*" ("Let bygones be bygones") and "*Otning o'limi – itning to'yi*" ("One's misfortune brings benefit to another") reflect the people's endurance, philosophy of fate, and historical worldview.

In English, idioms such as "*Every cloud has a silver lining*" convey optimism and positive perception, illustrating the cultural mentality of resilience.

The national specificity of phraseological units is revealed through their semantic and cultural underpinnings. The imagery found in phraseological expressions originates from the historical and cultural experiences of each nation. For example, the English idiom "*Carry coals to Newcastle*" ("to do something unnecessary") derives from the historical context of coal trade in Britain, while the Uzbek expression "*Cho'pon ko'rgan bo'ri*" ("a shepherd has seen a wolf") traces its roots to folklore and oral tradition.

Furthermore, the **cultural connotation** of idioms and phrasemes plays a crucial role in their interpretation and use. Expressions from one language and culture are often not understood literally in another, which creates challenges for translators when searching for equivalent meanings. For instance, the English idiom "*Kick the bucket*" meaning "to die" finds its closest equivalents in Uzbek as "*Ko'z yumdi*" or "*Olami dunyodan o'tdi*." These examples demonstrate how idiomatic equivalence requires both semantic and cultural adaptation.

The **communicative function** of idioms and phraseological expressions lies in their ability to enrich speech with imagery, emotional depth, and expressiveness. They preserve the national mentality and transmit historical and cultural memory from generation to generation. Thus, idioms serve not only as linguistic elements but also as symbolic vessels of cultural continuity.

To conclude, idioms and phraseological units represent more than lexical items; they serve as mirrors of a nation's culture and worldview. Through idiomatic expressions, one can trace the historical memory, customs, moral values, and philosophical outlook of a people. Studying idioms within national-historical and cultural contexts contributes to a deeper understanding of language as a cultural system and enriches linguistic and cultural analysis alike.

References

1. Kunin, A. V. *Course in Modern English Phraseology*. Moscow: Vysshaya Shkola, 1996.
2. Teliya, V. N. *Phraseology as a National and Cultural Phenomenon*. Moscow: Languages of Russian Culture, 1999.
3. Khojjeva, Sh. *Semantic Features of Phraseological Units in Uzbek*. Tashkent: Fan, 2015.
4. Cowie, A. P. *Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*. Oxford: Oxford University Press, 1998.
5. Karasik, V. I. *The Language of Social Status*. Volgograd: Peremena, 2002.
6. Kunin, A. V. *English–Russian Phraseological Dictionary*. Moscow, 1984.
7. Nematov, A. *Language and Culture Relations: A Linguoculturological Study*. Tashkent: National University of Uzbekistan Press, 2020.

Shoyimova Komila O‘rol qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi

TERMIZ VA VINCHESTER TOPONIMLARINING METAFORIK VA LINGVOMADANIY TALQINI

Annotatsiya. Mazkur tezisda Termiz va Vinchester shaharlaridagi toponimlarning metaforik hamda lingvomadaniy talqini tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida toponimlarning xalq tafakkuri, tarixiy xotira va madaniy qadriyatlarni aks ettirishdagi o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, metaforik nomlash jarayonida o‘zbek va ingliz madaniyatiga xos ramziylik, milliy qahramonlar, diniy-ma’naviy meros hamda tarixiy voqealarning nomlarda ifodalanish usullari qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Termiz va Vinchester misolida olib borilgan tahlil natijalari toponimlarning milliy identitetni shakllantirish va saqlashdagi ahamiyatini yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: Toponim, chog‘ishtirma tahlil, lingvomadaniyat, etnolingvistika, semantika, Termiz, Vinchester, metafora, madaniy xotira, milliy identitet.

Kirish. Til va madaniyat o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari hamda tarixiy xotirasini aks ettiruvchi asosiy vositalardan biridir. Shu jihatdan qaralganda, toponimlar – geografik obyektlar nomlari – faqatgina joylashuvni belgilash bilan cheklanib qolmay, balki xalq tafakkurining o‘ziga xos ko‘zgusi sifatida ham xizmat qiladi. Toponimlarda xalqning tarixiy-ma’naviy merosi, diniy qarashlari, qahramonlik an‘analari, tabiatga munosabati va madaniy qadriyatlari mujassam holda namoyon bo‘ladi. Toponimlarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan o‘rganish ularning nafaqat til birliklari sifatidagi, balki milliy-madaniy xotirani saqlovchi ramziy belgilar sifatidagi xususiyatlarini ochib berishga imkon yaratadi. Ayniqsa, toponimlarning metaforik talqini xalq tafakkurining obrazlilik darajasini ko‘rsatib, joy nomlari orqali ma’lum bir ramziy ma’nolar shakllanishini yoritadi.

Termiz shahri O‘zbekiston tarixida qadimiy sivilizatsiya va diniy-ma’naviy markaz sifatida shakllangan bo‘lsa, Vinchester shahri Angliyaning qadimiy qirollik markazlaridan biri sifatida mashhurdir. Shu sababli, har ikki shahar toponimlari milliy xotira, tarixiy jarayonlar va madaniy ramziylikni o‘zida mujassam etgan boy lingvokulturologik manba hisoblanadi

Analiz va tahlil. Toponimlarning metaforik va lingvomadaniy talqinini o‘rganish orqali biz xalq tafakkurining ramziy qatlamlariga nazar tashlaymiz. Har bir shahar toponimlari o‘ziga xos tarixiy jarayonlar, milliy qadriyatlar va ma’naviy-mafkuraviy omillar asosida shakllangan. Shu jihatdan Termiz va Vinchester shaharlarining toponimlari o‘ziga xoslikka ega bo‘lsa-da, ular

orasida umumiyliklar ham mavjud. **Termiz toponimlarining metaforik xususiyatlari:** Termiz shahridagi toponimlar qadimiy tarix, diniy-ma'naviy meros va xalq og'zaki ijodiga tayanadi. Masalan: **“Alpomish xiyoboni”** – xalq dostonidagi qahramon obrazi asosida nomlangan bo‘lib, milliy qahramonlik, matonat va jasorat timsoli sifatida ramziylik kasb etadi. **“Hakim Termiziy maqbarasi”** – mashhur mutasavvif va olim nomi bilan bog‘liq bo‘lib, diniy-ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. **“Surxon”** – Surxon daryosi nomi asosida shakllangan bo‘lib, tabiat va geografik muhit bilan bevosita aloqador. Bu nomlarda metaforik elementlar xalq tarixiy xotirasini jonlantiradi va shahar identitetini belgilaydi. **Vinchester toponimlarining metaforik xususiyatlari:** Ingliz shaharlarida ham tarixiy va diniy qatlam toponimlarda yorqin ifodalangan. Vinchester bunga yorqin misol bo‘la oladi: **“King’s Gate”** – qirollik darvozasi ramziylik jihatidan monarxiya va hukmronlik timsolidir. **“St. Swithun’s Way”** – diniy shaxs, aziz Swithun nomi bilan bog‘liq bo‘lib, xalqning diniy qadriyati va e’tiqodini aks ettiradi. **“Winchester Cathedral”** – Yevropaning eng qadimiy ibodatxonalaridan biri bo‘lib, bu nom orqali diniy-ma'naviy meros va tarixiy jarayonlar ifodalangan. Vinchester toponimlarida ko‘proq monarxiya, diniy ramziylik va tarixiy an‘analarga urg‘u berilganini ko‘ramiz. **Lingvomadaniy jihatlar:** Har ikki shahar toponimlarining lingvomadaniy talqini shuni ko‘rsatadiki, ular xalq tafakkurining ramziy tasvirlari sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Termiz toponimlarida xalq qahramonlari va diniy mutasavviflar markaziy o‘rin tutsa, Vinchester toponimlarida qirollik va xristian dini arboblari asosiy timsollardan biri hisoblanadi. Toponimlardagi metaforik va ramziy qatlamlar xalq xotirasini saqlash, milliy identitetni mustahkamlash hamda madaniy an‘analarni kelajak avlodlarga yetkazishda beqiyos o‘rin tutadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Termiz va Winchester shaharlarining toponimlari nafaqat geografik obyektlarning oddiy nomi, balki xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari va madaniy merosini aks ettiruvchi muhim lingvistik birlikdir. **Termiz toponimlari** xalq og'zaki ijodi, diniy-ma'naviy qadriyatlar va tarixiy shaxslar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ramziylik va milliy qahramonlikni yoritadi. **Vinchester toponimlari** esa monarxiya, diniy arboblari va tarixiy an‘analarni ifodalaydi hamda ingliz xalqining milliy identitetini aks ettiradi. Chog‘ishtirma tahlil natijalariga ko‘ra, har ikki shahar toponimlarida **metaforik ramziylik** va **lingvomadaniy boylik** yaqqol namoyon bo‘lib, ular xalq tafakkurining madaniy ko‘zgusi vazifasini bajaradi. Ushbu tadqiqot tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik yo‘nalishlarida dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Эназаров Т.Ж. Топонимика асослари. – Тошкент: Fan, 2006.
2. Холмуминов Х. Ўзбек тилида жой номларининг тарихий-лингвистик хусусиятлари. – Тошкент: Fan, 1993.
3. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1973.
4. Миңбаев Н.Я. Топонимика терминлари изоҳли луғати. – Тошкент: Fan, 1988.
5. Mills A.D. A Dictionary of British Place Names. – Oxford: Oxford University Press, 2011.
6. Room A. Placenames of the World: Origins and Meanings. – London: Macmillan, 2006.
7. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: CUP, 2010.

Xoliqova Zahro Arol qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘zbek tili ixtisosligi
2-kurs tayanch doktoranti

O‘ZBEK XALQ TOPISHMOQLARIDA RANG KONSEPTINING KOGNITIV-PRAGMATIK TALQINI

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq topishmoqlarida rang konseptining kognitiv-pragmatik talqini lingvokulturologik yondashuv asosida o‘rganilgan. Rang birliklari xalq og‘zaki ijodining muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat predmetning tashqi belgisini, balki xalq tafakkurida shakllangan ramziy ma’nolarni ham ifodalashi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot davomida oq, qora, qizil, ko‘k kabi asosiy rang konseptlari tanlab olinib, ular asosidagi topishmoqlar lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan. Oq rang sof-lik, yorug‘lik va tezkorlik ramzi sifatida; qora rang kuch, tuproq, baraka va sirli hodisalar timsoli sifatida; qizil rang hayotiylik, go‘zallik, baraka va xavf belgisi sifatida; ko‘k rang esa tabiat, yangilik va osmon timsoli sifatida talqin etilgan. Shu tariqa, topishmoqlardagi rang birliklari xalqning milliy dunyoqarashi, qadriyatlarini va estetik qarashlarini ifodalashda muhim konseptual vosita ekanligi isbotlangan. Maqolada xalq tafakkurida ranglarning badiiy obraz yaratishdagi o‘rni, ramziy mazmuni va kognitiv asoslari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari rang konseptologiyasi, folklorshunoslik va o‘zbek tilshunosligi uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: rang konsepti, o‘zbek xalq topishmoqlari, lingvokulturologiya, kognitiv-pragmatik tahlil, ramz, xalq tafakkuri, estetik qarash.

Xalq og‘zaki ijodi insoniyat tafakkuri, dunyoqarashi va milliy qadriyatlarini asrlar davomida saqlab keluvchi bebaho manbalardan biridir. Uning muhim janrlaridan biri bo‘lgan **topishmoqlar** xalqning tasavvur doirasi, mantiqiy tafakkuri, tabiat va jamiyat haqidagi qarashlarini aks ettiradi. Topishmoqlarda xalqning kundalik turmushi, mehnat faoliyati, diniy e’tiqodlari, urf-odatlarini bilan bir qatorda rang tasavvurlari ham o‘z ifodasini topgan.

Lingvokulturologik yondashuv shuni ko‘rsatadiki, rang birliklari nafaqat predmetning tashqi belgisini bildiradi, balki xalq tafakkurida muayyan ramziy ma’no, ijtimoiy-estetik va psixologik mazmun kasb etadi. O‘zbek xalq topishmoqlarida ranglar ko‘pincha oq, qora, qizil, yashil, sariq kabi asosiy ranglar atrofida jamlangan bo‘lib, ular turli obrazlar orqali xalqning qadimiy dunyoqarashini ifodalaydi. Masalan, oq rang topishmoqlarda soflik, poklik, yorug‘lik va hayotiylik ramzi sifatida uchrasa, qora rang ko‘proq qorong‘ulik, sirli hodisalar, yer, tuproq, tun va ba’zan balo-qazo timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Qizil rang esa hayotiylik, issiqlik, qon va energiyaning ramziy belgisiga aylanadi. Demak, rang birliklari topishmoqlar matnida o‘z ma’no (real predmet yoki hodisani ifodalash) bilan bir qatorda ko‘chma ma’no (xalqning ramziy qarashlari, qadriyatlarini va milliy mentalitetini ifodalash)ni ham yuzaga chiqaradi. Shu jihatdan, topishmoqlardagi rang birliklarini lingvokulturologik tahlil qilish xalqning ranglar orqali shakllangan milliy dunyoqarash va qadriyatlarini tadqiq etish imkonini beradi. Bu nafaqat o‘zbek tilshunosligi va folklorshunosligi, balki umumiy til va madaniyat munosabatlarini o‘rganishda ham muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Oq konsepti ishtirok etgan topishmoqlar va ularning lingvokulturologik tahlili:

*1. Oq kuchugim ang etdi, tovushi Qo‘qonga yetdi. (miltiq o‘qi).*¹ Bu topishmoqda oq rang ramziy belgi sifatida ishlatilgan. Miltiq o‘qi oq kuchukka qiyoslanmoqda, bu yerda “oq” – tezlik, chaqnash, tovushning uzoqqa borishini tasvirlaydi. O‘zbek xalqida oq rang sof, yorug‘lik va

¹ Topishmoqlar “My farzand” ilovasidan olindi.

tezkorlik timsoli sifatida qadrlangan. Oq kuchuk metaforasi orqali xalq tafakkuri o'qning tezligini kuchaytirib ifodalaydi.

2. *Oq g'ozim uchdi ketdi... (varrak)*. Varrakning osmonga ko'tarilishi oq g'oz obrazida berilgan. Oq rang bu yerda osmon bilan uyg'unlik, yengillik va erkinlik ramzi bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalqining madaniy tasavvurida oq g'oz – go'zallik va erkin uchish ramzi.

3. *Oq yer ochdim, qora bug'doy sochdim. (qog'oz, yozuv)* Bu topishmoq o'zbek xalqining tafakkuridagi eng chuqur ramziy ko'rinishlardan biridir. Oq yer – qog'oz, qora bug'doy – yozuv belgilaridir. Oq va qora ranglar qarama-qarshiligi yozuv madaniyatining lingvokulturologik ma'nosini beradi: oq – poklik, qog'oz, bilim maydoni; qora – bilim, so'z, yozuvning ramzi. Bu o'zbek xalqining yozuvni hayotiy qadriyat sifatida qadrlaganini ko'rsatadi.

4. *Qora biyam qalt etdi, qobirg'asi yalt etdi. (qilich¹)* Bu yerda qora rang “biyaga” qiyoslangan qilich tasvirida ishlatiladi. Qora rang – kuch, qudrat va xavf ramzi. O'zbek madaniyatida qora rang ko'pincha jiddiylilik va xavfni bildiradi, qilich esa jang, himoya va mardlik timsoli.

5. *Oqqina tuya kulga cho'kar. (elak)* .Oq rang bu yerda sof va bejirim ko'rinishdagi elakka qiyoslanmoqda. “Tuya” esa xalq tafakkurida sabr va mehnat ramzi. Elakning ishlatilishi (unni elash) oq rang orqali poklik va tozalik bilan bog'lanadi.

6. *Oppoqqina, yumaloqqina, hammaning ko'ziga yaxshigina. (pul)* Bu topishmoqda oq rang pulga nisbat berilgan. O'zbek xalqining qadimiy tasavvurida pul – oppoq kumush tangaga ishora. Oq rang bu yerda tozalikka emas, balki moddiy boylik va zaruriy vosita sifatida ishlatiladi.

Qora konsepti ishtirok etgan topishmoqlar va ularning lingvokulturologik tahlili:

1. *Qora echki sakrar-sakrar, bir joyidan ketmas. (Qozon)* Bu yerda qora rang qozon obrazida ifodalangan. Qozon xalq maishiy hayotining markaziy buyumlaridan biri bo'lib, u deyarli doimo qora rangda tasavvur etiladi (temirdan yasalganligi sababli). “Echki” obrazi esa xalqning kundalik turmushidagi hayvon tasavvuridan olingan. Qora rang bu topishmoqda og'irlik, mustahkamlik va doimiylik timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

2. *Qora qiz yerga kirar. (Bug'doy doni)* Bu topishmoqda bug'doy donining tuproqqa ekilishi “qora qiz” obrazida berilgan. Qora rang tuproq ramzi bilan bog'liq bo'lib, hayotning boshlanishi, urug'ning baraka topishi va yangilanish jarayonini anglatadi. “Qiz” so'zining qo'llanishi esa urug'ning hayot manbai sifatidagi qadrlanishini ko'rsatadi. Bu yerda qora rang hayotning boshlanishi va barakasi ramzi.

3. *Qora otim bor, yugursa ham, yugurmasa ham iz qoldirar. (Qalam)*

Qalam qora otga qiyoslangan. Qora rang – siyohning belgisi. O'zbek xalq tafakkurida ot – harakat va kuch timsoli, qalam esa ilm va ma'rifat ramzi. Iz qoldirish esa yozuvni bildiradi. Bu yerda qora rang ilm, xotira va meros ramzi sifatida talqin qilinadi.

4. *Qora echkim bor, dumida o'n ikki qo'ng'iroq'i bor. (Yil/oylar taqvim)* Bu topishmoqda qora echki yil/oylar taqvimiga qiyoslangan. Dumidagi “o'n ikki qo'ng'iroq” yilning o'n ikki oyini bildiradi. Qora rang bu yerda vaqtning abadiyligi va sirli oqimi bilan bog'liq. Xalq dunyoqarashida vaqt ko'pincha qorong'ulik yoki qora rang orqali timsollanadi, chunki u nazorat qilib bo'lmaydigan, sirli kuch sifatida ifodalangan.

5. *Qora sochim to'kildi, oq sochim ko'rindi. (Yerning qor qoplashi va yoz kelishi)* Bu obrazli topishmoqda tabiatning mavsumiy o'zgarishi ranglar orqali ifodalangan. Qora soch – kuz va qishdagi tuproq, oq soch – qor qoplami. Bahor va yoz kelganda qor erib, tuproq ochiladi. Bu

¹ Topishmoqlar “My farzand” ilovasidan olindi.

yerda oq rang – hayotiylik, yangilanish, sof-lik timsoli; qora rang esa yer va baraka manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Ko‘k konsepti ishtirok etgan topishmoqlar va ularning lingvokulturologik tahlili:

1. *“Mayda-mayda uzunchoq, tashi ko‘k, ichida zirachak” (Bodring)* – ko‘k rang tabiatning yangiligi, yozgi taom va rohatning ramzi sifatida qo‘llanadi. Bodringning tashqi ko‘kligi xalq turmushida bevosita tabiat bilan bog‘lanish ifodasidir.

2. *“O‘zi ko‘m-ko‘k, yuzi qip-qizil” (Olma)* – ko‘k va qizil rang qarama-qarshiligi orqali mevaning yetilish jarayoni tasvirlanadi. Bu yerda ko‘k rang xomlik, boshlanish, qizil rang esa yetuklik, barakani bildiradi.

3. *Oqligi sutday, ko‘kligi nilday, o‘tirishi bekday (Zag‘izg‘on)* – bu topishmoqda ko‘k rang qushning tabiiy ko‘rinishini tasvirlash uchun ishlatilgan bo‘lsa-da, xalq tasavvurida ko‘k rang qushga chiroy, orastalik, osmon bilan bog‘liqlik ma‘nosini beradi.

Qizil konsepti ishtirok etgan topishmoqlar va ularning lingvokulturologik tahlili:

1. *Tashi qizil anorday, Ichi oq — unday, O‘tirishi gulday. (Jiyda)* Bu yerda qizil tashqi ko‘rinish (anor qobig‘i) orqali qiyosiy obraz sifatida ishlatilgan. Qizil — sharqona madaniyatda hayot, qon va go‘zallik ramzi. Jiyda tashqi qobig‘i qizil, ichi oq bo‘lishi esa qarama-qarshi ranglarning uyg‘unligini ifodalagan.

2. *Qirq hujrada qizil qizlar. (Anor)* Bu topishmoqda “qizil qizlar” anor donalarining ramziy tasviri. Qizil — sharqona tasavvurlarda nafaqat sevgi va go‘zallik, balki Baraka, serhosillik belgisi hamdir. “Qirq hujra” — anorning donalari qobiq ostida tartibli joylashganini, “qizil qizlar” esa uning serjilo qizil donalarini ifodalaydi.

3. *Qizil qiz yer ostida, Sochlari yer ustida. (Sabzi)* Sabzi yer ostida o‘sadi va uning ildizi qizil tusda tasvirlangan. Qizil rang sabzida hayotiylik, sog‘liq, to‘yimlilikni ifodalaydi. “Sochlari yer ustida” iborasi sabzining yashil barglari orqali sabzi tanasining yashirin va ko‘rinadigan qismini metaforik tarzda bog‘lab beradi.

4. *“Bir barmoqcha bo‘yi bor, Qizil baxmal to‘ni bor.” (Garmdori)* Bu yerda qizil rang o‘simlikning tashqi qobig‘iga nisbatan ishlatiladi. “Baxmal” so‘zi bilan qo‘shilib, qizilning nafaqat oddiy rang, balki nafislik, go‘zallik, muloyimlik ramziga aylanganini ko‘rsatadi.

5. *“Oq otdim, Qizil oldim.” (Yopgan non)* Bu yerda oq — xamir, qizil — tandirdan chiqqan nonning qizarib pishgan holati. Qizil rang xalq dunyoqarashida mehnat natijasi, rizq va baraka timsoli sifatida ishlatiladi.

6. *Bir qo‘shnim bor avval boshdan, Soqoli uning qizil go‘shdan. (Xo‘roz)* Xo‘rozning qizil dumi va soqoli xalq tasavvurida, tong ramzi sifatida ishlatilgan. Qizil rang bu yerda quvvat va uyg‘oqlik ramziga aylangan.

7. *Qizil yulg‘unning tagida Qizlargul opam yotibdi. (Qirg‘ovul).* Bu topishmoqda qizil rang qirg‘ovulning qizg‘ish tuslarini ifodalashda ishlatilgan. Qizil bu yerda tabiatning jozibasini, yovvoyi hayotning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida kelgan.

8. *Qirli tog‘dan qizil ko‘ylakli qiz yumalab tushdi. (Burun qoni).* Bu topishmoqda qizil rang burundan oqayotgan qon*ni ifodalash uchun obrazli tarzda qo‘llangan. Qizil rangning hayotiy kuch, sog‘liq va ba‘zan xavf ramzi sifatida ishlatilishining yorqin misoli bo‘lgan.

9. *Temir qo‘rg‘on ichida, Qizil toychoq o‘ynaydi. (Til).* Temir qo‘rg‘on — tishlar, “qizil toychoq” — til. Qizil rang tilning tabiiy rangiga asoslangan bo‘lsa-da, tilning harakatchanligi va jonlilik xususiyati ham ramziy kuch bilan ta’riflanadi.

10. *Qizil buzog‘imni og‘ildan haydasam, chiqmaydi. (Til).* Til bu yerda qizil buzog‘iga qiyos qilingan. “Og‘il” — og‘iz, “qizil buzog‘im” esa til. Bu yerda asosan faqat rang ma‘nosida ya’ni tashqi belgi bo‘lib kelgan.

Topishmoqlarda ranglar orqali insonning tabiat bilan munosabati, kundalik hayotidagi qadriyatlari va estetik qarashlari badiiy obrazlarda aks etadi. Shunday qilib, rang konseptlari xalq tafakkurida nafaqat tashqi belgini, balki chuqur ma'naviy mazmunni ham ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamarajabova Z. O'zbek tilida sifatlarning konnotativ ma'nolari. Filol. fan. nom. diss. – Toshkent, 2004. – 18 b.
2. Rahmatullayev Sh. va boshq. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 520 b.
3. Johanson L., Csato E. (eds.) *The Turkic Languages*.* – London: Routledge, 1998. – 44 p.

Shamsiyeva Surayyo,
Samarqand davlat chet tillar instituti
2-bosqich magistr

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OILAVIY QADRIYATLAR KONSEPTINING LINGVOMADANIY TAHLILI

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila, an'ana va madaniyat tushunchalarining o'zaro bog'liqligi, ularning insoniyat hayotidagi o'rni hamda til va madaniyat munosabati masalalari tahlil etiladi. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy birligi sifatida xalqning ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlar, marosimlari va milliy o'zligining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. An'ana tushunchasining tarixiy shakllanishi, madaniy merosni avlodan-avlodga yetkazishdagi o'rni, shuningdek, o'zbek va ingliz tilidagi oila, an'ana hamda madaniyatga oid frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili yoritilgan. Maqolada tilning madaniyatni ifodalash va uzatishdagi o'rni, uning ijtimoiy-madaniy mohiyati, shuningdek, tilshunos olimlar — V. fon Gumboldt, E. Sepir, L. Lixachyov, Sh. Safarov kabi tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: oila, an'ana, madaniyat, til, lingvomadaniyat, frazeologiya, milliy qadriyat, madaniy meros, Gumboldt, Sepir.

Oila jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim bo'g'ini sifatida inson hayotida ijtimoiy, axloqiy va madaniy qadriyatlarni shakllantiruvchi markazdir. Oila bilan bog'liq an'ana va munosabatlar millatning qadimiy ruhini, milliy tafakkurini va madaniy merosini ifodalaydi. Oila an'analari — bu asrlar davomida avlodan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlar, marosimlar, axloqiy me'yorlar, san'at, madaniyat va turmush tarziga oid qadriyatlarning jamlanmasidir. Cambridge lug'atida "tradition" so'zi "ma'lum bir jamiyat yoki guruhda insonlarning ishonch, tamoyil va xulq-atvor usullarining uzoq vaqt davom etib borishi" sifatida izohlanadi.

Mazkur maqolada oila an'analari va ular bilan bog'liq munosabatlar o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar misolida lingvomadaniy va sotsiopsixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Maqolaning asosiy maqsadi — o'zbek va ingliz tillarida oila va an'analardan bog'liq frazeologik birliklar orqali milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar va til tafakkuri o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berishdir. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Lingvomadaniy yondashuv nazariy asoslarini tahlil qilish;
2. O'zbek va ingliz tillaridagi oila an'analarni ifodalovchi frazeologik birliklarni solishtirish;
3. Milliy o'ziga xoslikni til vositasida ifodalash mexanizmlarini aniqlash;
4. Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ko'rsatish.

Madaniyat inson tomonidan yaratilgan, avloddan-avlodga o'tib keladigan ma'naviy va moddiy qadriyatlar majmuidir. Olim Q. Usmonov ta'kidlaganidek, "madaniyat orqali har bir shaxs jamiyatda uzoq yillar davomida to'plangan tajribani, an'ana va urf-odatlarini, turmush tarzini o'zlashtiradi va ularni boyitib kelajak avlodlarga yetkazadi."

Madaniyatni anglashda til hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Til — madaniyatning ifoda vositasi, u orqali milliy ruh va tafakkur shakllanadi. A. Radugin bu haqda shunday yozadi: "Boshqa madaniyatlarni o'rganish bizni nafaqat yangi bilimlar bilan boyitadi, balki yangi ijodiy tajriba ham beradi." Shu jihatdan, lingvomadaniy yondashuv inson tafakkuri, nutq faoliyati va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi.

Til va madaniyat o'zaro ta'sirda rivojlanadi. L.S. Lixachyov fikricha, "madaniyat — ma'naviy qadriyatlarni yaratish, asrash va yoyish jarayonidir; aynan til esa jamiyatni turli bilim tizimlari bilan ta'minlaydi." Demak, til millat madaniyatining konsentrat sifatida xizmat qiladi.

Professor N. Mahmudov bu munosabatni quyidagicha izohlaydi: "Til — ruhiy, ma'naviy va estetik hodisadir; u orqali biz madaniyatni anglaymiz, madaniyat orqali esa tilni tushunamiz."

Sh. Safarov esa til va madaniyat orasidagi murakkab aloqani "inson tafakkurining lisoniy faoliyati jarayonida madaniy elementlarning aks etishi tabiiydir" deya ta'riflaydi.

Madaniyat va milliy qadriyatlarning eng yaqqol ifodasi til birliklarida — so'z va frazeologizmlarda namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida "beshik" va "belanchak" so'zlari chaqaloqni uxlatish vositasi sifatida ishlatiladi, ammo "beshik" xalq madaniyatining ramziga aylangan qadimiy tushunchadir. Ingliz tilida esa faqat "cradle" so'zi mavjud. Bu farq ikki xalqning turmush tarzi va madaniy qarashlarini ifodalaydi.

Yana bir misol — "tuman" so'zining ifodalanishidir. Ingliz tilida "fog", "mist", "haze", "brume" kabi so'zlar mavjud bo'lib, bu ingliz tabiatining o'ziga xos iqlimiy sharoitlari bilan bog'liq madaniy jihatlarni aks ettiradi. O'zbek tilida esa bu tushuncha yagona "tuman" so'zi bilan ifodalanadi. Bu holat milliy dunyoqarashning til orqali shakllanishini ko'rsatadi.

Til va madaniyat bir-birini to'ldiruvchi tizimlardir. G.O. Vinokur "tilshunos har qanday tilda uning madaniy mahsulotini o'rganar ekan, u o'sha madaniyat tadqiqotchisiga aylanadi" deb yozgan.

I. Herder esa "til, madaniyat, jamiyat va milliy ruh"ni bir butun tizim sifatida talqin etadi. V. fon Gumboldtning qarashlariga ko'ra, tilning ichki shakli "xalq ruhi"ning ifodasidir. E. Sepir bu g'oyani rivojlantirib, tilni madaniyatning ijtimoiylashgan qismi deb ataydi: "Jamiyatning nima qilishi va nimani o'ylashi madaniyatni, qanday o'ylashi esa tilni belgilaydi."

Demak, til millat tafakkurining oynasi, madaniyat esa uning ijtimoiy va ma'naviy mazmunini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov Q. Madaniyat falsafasi asoslari. – Toshkent, 2012.
2. Радугин А. Культура и общество. – Москва, 2008.
3. Лихачёв Л.С. Культура и коммуникация. – Москва, 1999.
4. Mahmudov N. Til va madaniyat munosabati. – Toshkent, 2010.
5. Safarov Sh. Til va tafakkur. – Toshkent, 2007.
6. Humboldt W. von. Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues. – Berlin, 1836.
7. Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York, 1921.
8. Cambridge Dictionary (Online).

SUGGESTIV NUTQDA SOMATIZMLARNING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada suggestiv nutqda somatizmlarning assotsiativ maydon sifatida qo‘llanilishi va bunday birliklar nutq ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilishi o‘zbek, rus va ingliz tillariga oid misollar yordamida tahlilga tortilgan.

Ma’lumki, so‘zlar o‘z ma’nosi bilan inson psixikasiga ta’sir etish xususiyatiga ega. Inson o‘z xotirasida so‘zlarning ma’nolari bilan birga ularning obyektiv olamda o‘z sezgi a’zolari orqali his etgan xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni ham saqlaydi. Shu sababli muayyan so‘z uni eshituvchi odam xotirasida muayyan assotsiatsiyalarni paydo qiladi. Agar matnda bir assotsiativ maydonga kiruvchi so‘zlar qo‘llangan bolsa, ular o‘quvchi psixikasiga yanada kuchliroq ta’sir qiladi¹. Suggestiv nutqning ta’sirchanligini oshirishda assotsiativ birliklar ham ahamiyatli sanaladi. Xususan, psixoterapevtik muolajalarda somatizmlarning ketma-ketlikda, o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilishi bemor uchun tanasini bir butunlik sifatida yaxlit holda ko‘rish, ong va tana uyg‘unligi haqida tasavvur paydo qilish, jismoniy va hissiy holatni o‘zaro muvofiqlashtirish uchun xizmat qiladi.

Suggestiv nutqning asosiy maqsadlaridan biri tinglovchini fiziologik va psixologik jihatdan bo‘shashgan, xotirjam holatga keltirishdir. Bunga erishishda tanaga oid leksik birliklar, ya’ni inson organizmining alohida qismlarini til orqali nomlash, tasvirlash va ularni izchil ketma-ketlikda tilga olish muhim vositadir. Ushbu leksik birliklar nafaqat anatomiya darajasida tasvirni bildiradi, balki ongosti faoliyatida assotsiativ, kognitiv va sensor-motor reaksiyalarni faollashtiradi.

Gipnoz nutqida tana bo‘ylab ketma-ket harakat qilish texnikasi keng qo‘llaniladi. Bu texnikada tana qismlari yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga qarab tartibli ravishda sanaladi:

O‘zbek tilida: *bosh, bo‘yin, yelkalar, qo‘llar, ko‘krak, qorin, bel, son, tizza, boldir, oyoqlar, oyoq barmoqlari.*

Ingliz tilida: *top of the head, forehead, jaw, neck, shoulders, arms, chest, stomach, hips, knees, legs, feet, toes.*

Rus tilida: *Расслабь **лицо, лоб** пусть станет гладким, **челюсть** отпусти, пусть немного приоткроется, как будто ты наконец можешь ничего не говорить. Расслабь **плечи, спину, живот**, позволь дыханию быть, как оно есть, не мешая телу делать то, что оно умеет лучше всех, усыплять тебя, восстанавливать, исцелять. Почувствуй, как твои **руки** тяжелеют, как **ноги** становятся теплее и мягче, ты будто погружаешься в ванну из собственного покоя, и он укутывает тебя, слой за слоем, слой за слоем.*

¹ Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадкики. -Тошкент, 2013. -Б.68.

Bu birliklarning tartibli sanalishi kinestetik idrok mexanizmini ishga soladi: tinglovchi tanasining ushbu qismlarini ichki sezgi orqali “his qilayotgan” bo‘ladi. Bu esa autogen reaksiyalarni, ya’ni yengillik, iliqlik, og‘irlik, erkinlik hissiyotlarini faollashtiradi.

Tana a’zolariga oid leksik birliklar, odatda, neytral sanaladi, ammo gipnoz matnida ular hissiy-psixologik bo‘yoq bilan yuklanadi. Masalan, *bo‘shashmoqda, iliq, og‘irlashgan, yoqimli, sokin, his qilinmayapti* kabi sifatlar va fe’llar bilan birga qo‘llanilganda, bu birliklar sensor tuyg‘ularni ongosti darajasida tasvirlaydi. Ingliz tiliga oid matnlarda *your shoulders are heavy and relaxed, a wave of calm is flowing down to your chest, you feel warmth spreading into your legs* kabi iboralar yordamida tananing har bir qismi alohida “hissiy diqqat”ga olinadi.

Tana qismlarini sanab borish psixofiziologik hissiyotlarni yuzaga keltiradi, tinglovchi so‘zlovchi tomonidan aytilgan so‘z orqali o‘z tanasining muayyan qismini “eslaydi”, “sezadi”, unga diqqatini qaratadi. Bunday diqqat orqali miyada hujayraviy darajada bo‘shashish, qon aylanishi sekinlashishi, nafas chuqurlashishi kabi reflektor javoblar ishga tushadi.

Sokin holatni tasdiqlovchi leksik birliklar gipnoz matnlarida ko‘pincha assotsiativ tarzda, takroriy, bayon qiluvchi va tasdiqlovchi uslubda qo‘llaniladi: *Ko‘z mushaklaringiz bo‘shashdi..., Yelkalarinigiz juda og‘irlashdi..., Tizzangizni his qilmayapsiz...; Your jaw is soft and slack..., Your legs feel heavier and heavier..., Your fingers are completely at ease...* Bunday assotsiativ birliklar orqali autosemantik holat yaratiladi: tinglovchi eshitgan narsasini o‘z holatiga moslashtiradi yoki aksincha, o‘z holatini matn bilan sinxronlashtirishga intiladi.

Shunday qilib, tanaga oid leksik birliklar suggestiv nutqda tasavvur va idrok o‘rtasidagi ko‘prik rolini bajaradi. Ular matnga sezgi, harakat va xavfsizlik elementlarini olib kiradi. Har bir tana a’zosining sanalishi tinglovchining e’tiborini ichki holatga yo‘naltiradi, bu esa trans holatining chuqurlashuvi uchun zamin yaratadi. Bu birliklar orqali so‘zlovchi nafaqat tasvirlaydi, balki tinglovchining ruhiy-fiziologik reaksiyalarini chiqarishga erishadi. Shu sababli, tana segmentlariga oid leksik vositalar suggestiv matnlarning asosiy semantik tayanchi va psixolingvistik jihatdan muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Худойберганава Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. -Тошкент, 2013.

Xasanova Madina
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va
madaniyati instituti 3-bosqich talabasi

“KO‘NGIL” KOMPONENTLI POLISEMANTIK IBORALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada frazeologik birliklarda uchraydigan polisemiya hodisasi, xususan “ko‘ngil” komponentli iboralar misolida tahlil etilgan. Frazeologik polisemiya leksik polisemiyadan farqli o‘laroq, bosh ma’noning o‘zi ham ko‘chma ma’no ekanligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot davomida “ko‘ngil” komponentli ayrim iboralarning bir necha ma’no kasb etishi, bu ma’nolarning shakllanish mexanizmlari va kontekstdagi qo‘llanish holatlari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologik polisemiya, ko‘ngil komponentli iboralar, ko‘p ma’nolik, semantik tahlil, frazeologik birlik.

Frazeologik polisemiya. Bittadan ortiq ma’noni anglatadigan til birliklariga xos xususiyat bo‘lib, iboralarning ham talay qismida uchraydi. Polisematik iboralarning ko‘pi ikki ma’noli; uch ma’noli iboralar anchagina; to‘rt, besh ma’noli iboralar ham uchraydi

Frazeologik polisemiya ham, xuddi leksik polisemiya bo‘lganidek, bosh ma’no va yasama (hosila) ma’no farq qilinadi. Leksik polisemiya bosh ma’no to‘g‘ri ma’noga, hosila ma’no esa ko‘chma ma’noga teng; frazeologik polisemiya, bundan farqli ravishda, bosh ma’no ham ko‘chma (obrazli) ma’no bo‘ladi, chunki har qanday frazeologik ma’no ustama, ko‘chma ma’no sifatida yuzaga keladi.

Ko‘p ma’noli iborada uning ma’nalari asosan biri ikkinchisidan o‘ziga chiqqan bo‘ladi. Ba’zi iboralarning ma’nalari biri ikkinchisi uchun asos vazifasini o‘tamaydi, har biri o‘zicha shakllangan bo‘ladi, voqelikdan har gal har xil obraz olish asosida tug‘iladi¹.

Bizga ma’lumki, ko‘p ma’noli so‘zni ham, iborani ham kontekstdan kelib chiqqan holda belgilaymiz. “Ko‘ngil” komponentli iboralarni matn tarkibida ko‘rib chiqamiz. Masalan, *ko‘ngil to‘lmoq* iborasi quyidagicha: *Uzrimni aytib xayrlasharkanman, izlanuvchan o‘qituvchi bolamga ta’lim berayotganidan ko‘nglim to‘ldi* (Majlis — ustoz ko‘zgusi). *Yo‘q, baribir, ulardan ko‘nglim to‘lmadi.* (Xudoyberdi To‘xtaboyev (1932). Birinchi gapda *mamnun bo‘lmoq*, ikkinchi gapda *qoniqmoq* ma’nosini ifodalab kelmoqda.

Ko‘ngil(i)dan chiqarmoq iborasi manbaalardan keltirilganidan ham ko‘proq o‘rinlarda omonim bo‘la oladi. Bu ibora izohlarini gaplar misolida tahlil etamiz: **Butkul unutilib yubormoq, o‘ylamay, eslamay qo‘ymoq** - *Sultonali mirzo bu bemaza gapni Anvarning ko‘nglidan chiqarishqa tirishib haligidek yupatishlarni og‘zidan qo‘ymas, eshitkuchi esa qisqag‘ina jumla bilan uning fikriga qo‘shular yoki iljayib, tasdiq ishorasini berar edi* (Mehrobdan chayon, 112); **O‘z roziligi bilan berishni ma’qul ko‘rmoq** - *Xonadon egasi ko‘nglidan chiqargan narsasini hadya etgach, bolalar uy sohiblarini alqab, an’anaviy ramazon olqishini ijro etganlar* (Ramazon qo‘shig‘i); **Ko‘nglidagi g‘uborni tarqatmoq** - *Kechgacha mashinasida olib yurib kechagi xafagarchilikni ko‘nglidan chiqarib yuborardi* (Yo‘qotganlarim va topganlarim); Yuqoridagilar lug‘atda keltirilgan izohlardir. *Zebi bu so‘zni chin ko‘ngildan chiqarib va jerkib turib aytgan bo‘lsa ham, qizlar hammasi birdan kulishib yubordilar* (Kecha va kunduz, 22). Kecha va kunduz romani bu ibora o‘zi xohlamoq ma’nosini ifodalamoqda.

“Ko‘ngil” komponentli iboralar ichida polisemiya hodisasi keng tarqalmagan. Ularning soni to‘rttadan oshmaydi.

“Ko‘ngil” komponentli iboralar orasida eng ko‘p polisematik xususiyatga ega bo‘lgan FB **ko‘ngil(i)ga tugmoq** frazemasi hisoblanadi, u quyidagi ma’nalarni anglatadi: **1** («gap»ni) o‘rni kelganda aytishni mo‘ljallab qo‘ymoq: *Dodxoh ko‘pdan, Rum yurti parchalab yuborilmay, yaxlit hoida saqlanib, amirzoda Xalil Sultonga tobshirilishi lozim, degan fikrni ko‘ngliga tugib yurardi* (Ulug‘ saltanat); **2** ahd qilmoq: *Pulini berib, ko‘chib kelgach, boshdan-oyoq qayta ta’mirlovchi ko‘ngliga tugdi*: “*Shu ming‘irni eslatadigan hech narsa qolmasin*” (Ajdarko‘l): **3** fikran belgilab qo‘ymoq; **4** unutmay ichda saqlamoq [O‘TFL, 294]: *Kunlarning birida Akbarshoh ammasiga ko‘p vaqtdan beri ko‘ngliga tugib yurgan taklifni aytadi* (Sakson yoshda vafot etgan Gulbadanbegim).

Ba’zan polisematik iboraning bir ma’nosi juda kam ekspressivlikka, funksional xoslanganlikka ega bo‘lsa, keyingi ma’nosi yuqori ekspressiv bo‘yoqqa, kitobiy xususiyatga ham

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 5

ega bo‘lishi mumkinligi B. Yo‘ldashev asarlarida keltirib o‘tilgan. Undan tashqari olim o‘z asarlarining birida ko‘p ma’noli iboralar uslubiy jihatdan yaxlit xarakterga ega bo‘lishini, chunki polisemantik iborada ko‘pincha to‘g‘ri, nominativ ma’no bo‘lmasligini, uning barcha ma’nolari ko‘pincha yaxlit bir ichki obrazga birlashishini ta’kidlab o‘tishi, yuqoridagi fikrlarimizni ochiq-oydin izohlab ko‘rsatadi¹.

Yakuniy natija sifatida aytish mumkinki, o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar tarkibida polisemiya holati mavjud bo‘lib, bu hodisa tildagi iboraviy boylik va obrazlilikni ta’minlaydi. “Ko‘ngil” komponentli iboralar orasida ba’zi frazemalar bir nechta ma’noga ega bo‘lib, ularning semantik tafovutini faqat kontekst orqali aniqlash mumkin. Bu iboralarning ma’nolari ba’zan bir-biridan o‘sib chiqqan, ba’zan esa alohida obrazlarga tayangan holda shakllangan. Shu bois, frazeologik polisemiyaning o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim bo‘lib, tilshunoslikdagi semantik tahlil va badiiy matnlarni chuqur anglashda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumanazarova X. Badiiy matndagi frazeologizmlarda polisemiya masalasi. Maqola. 3-b
2. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.
3. Uzschoolcorpara.uz elektron sayti.
4. Қодирий А. Меҳробдан чаён. – Тошкент: Гафур Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 149 б.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 407 б.
6. Чўлпон А. Кеча ва Кундуз. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 287 б.

¹ Jumanazarova X. Badiiy matndagi frazeologizmlarda polisemiya masalasi. Maqola. 3-b.

IV SHO‘BA
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MATN NAZARIYASI VA TA‘LIM USLUBIYATI
MASALALARI

N.Abdumannatova
SamDCHTI o‘qituvchisi

LINGVOFOLKLORISTIKA - TILSHUNOSLIKNING ALOHIDA YO‘NALISHI
SIFATIDA

Annatsiya. *Ushbu maqolada lingvofolkloristika tilshunoslikning alohida sohasi ekanligi, uning jahon, shuningdek, o‘zbek tilshunosligidagi o‘rni haqida fikr bildirilgan. Lingvofolkloristikaning folklorshunoslikdan farqli xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *Lingvofolkloristika, jonli so‘zlashuv tili, og‘zaki ijod, paradigmaticizm.*

Folklor asarlari barcha davrlarda olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ularda sujet, obrazlar xarakter qirralarini tasvirlashda asosiy tendensiyalar yaratilgan. Bu xalq og‘zaki ijodi asarlarining sujeti, ularni harakatga keltiruvchi motivlar, obrazlar gallereyasi, qardosh va qardosh bo‘lmagan xalqlar og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan sayyor sujetlarning o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilishda ko‘zga tashlanadi. Bugun jahon, shuningdek, o‘zbek tilshunosligida ham folklor asarlari tilining o‘ziga xosliklarini turli aspektlarda tadqiq qiluvchi yangi yo‘nalish – lingvofolkloristikaning taraqqiyoti natijasida folklor asarlari nafaqat sof folkloristik nuqtayi nazardan, balki lingvofolkloristik jihatdan ham tahlil qilinayotganligi quvonarli holat.

O‘zbek adabiy tili taraqqiyotining hozirgi bosqichida uni rivojlantirishning biri tashqi ta’sir bo‘lsa, ikkinchisi uning ichki rezervlaridan hisoblangan xalq tili va uning dialektlaridir. [5:140]

Adabiy til va jonli so‘zlashuv tili o‘rtasidagi munosabat, ularning bir-biriga ta’siri masalasini o‘rganish til va madaniyatlar umumlashuvi kuchayayotgan bugungi murakkab davrda har qachongidan ham dolzarb. Sababi xalq tilini, xalq og‘zaki ijodi asarlari tilini o‘rganish til tarixining, shu bilan birgalikda til sohibi bo‘lgan xalq tarixining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishda, adabiy tilning imkoniyatlarini namoyon etishda katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, boy va uzoq tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalq og‘zaki ijodi asarlari tilshunoslik uchun qimmatli materiallar beradi. Chunki og‘zaki ijod namunalarini yaratilish tarixi, uslubi jihatidan juda uzoq davrga taqaladi. Folklor tilida xalqning butun orzu-istaklari bilan birga, tildagi barcha o‘zgarishlar ham o‘z ifodasini topgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini tilimiz tarixining ma’lum bir davrida qo‘llanilgan umumiy til ko‘rinishida yaratilgan. Shu sababli folklor tilining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslikda muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Lingvofolkloristik tadqiqotlar tilshunoslikka nima beradi degan savolga XX asrdayoq rus tadqiqotchilari tomonidan javob topilgan edi. Xususan, “Xalq og‘zaki ijodi matnlaridagi so‘zlar ma’nosining bir qancha tarbiyaviy jihatlari bor. Folklor tili milliy tilning o‘ziga xos xususiyatlarini saqlovchi mezondir. Xalq tili o‘z mohiyatiga ko‘ra qanday bo‘lsa, barcha tabiiy xususiyatlari bilan shundayligicha xalqning og‘zaki ijodida saqlanib qoladi”[4:40], – deb yozadi Bodyanskiy. Atoqli rus pedagogi Ushinskiy folklorga axloqiy tarbiyaning ishonchli vositasi, uning tiliga esa (ona) milliy tilni o‘rganish va milliy madaniyatni shakllantirishning mukammal usuli sifatida yondashadi.

“M.A.Vengranovich fikriga ko‘ra, xalq og‘zaki ijodi asarlari tili tabiati to‘g‘risida aytilgan hukmlarni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

1) “folklor tili – dialekt nutqining funksional va stilistik tiplaridan biri, dialektning adabiy shakli;

2) folklor tili dialektdan yuqori tildir;

3) folklor tili shevaning adabiy shakli bo‘lib, badiiy adabiyot tilidan tubdan farq qilmaydigan tizimli xarakterdagi ancha murakkab hodisadir” [3:38].

Bizningcha, folklor tili shevadan hamda adabiy tildan farq qiladi. Unga sheva va adabiy til o‘rtasidagi milliy tilning o‘ziga xos shakli deb qarash lozim.

Shuningdek, lingvofolkloristikada haligacha yakuniy yechimini topmagan muammolar anchagina. Jumladan, folklor tili hodisasining mohiyati, folklorning turli janrlari lug‘atining o‘ziga xos xususiyatlari, xalq poetik nutqining hududiy tabaqalanishi hamda ijrochi idiolektiga oid masalalar tadqiqi dolzarflik kasb etib turibdi. Lingvofolkloristika alohida soha sifatida o‘ziga xos terminlar tizimidan ham foydalanadi. Bu esa uning boshqa ilmiy yo‘nalishlararo o‘z o‘rni borligini isbotlaydi.

M.A.Serdyuk lingvofolkloristikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, o‘ziga xosligini izohlar ekan, u zamonaviy lingvofolkloristika kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, lingvokonseptologiya, matn nazariyasi, germenevtika, nutq aloqasi nazariyasi bilan chambarchas bog‘liq ekanini qayd etadi. M. A.Serdyuk fikriga ko‘ra, unda bir qator fanlarning ma‘lumotlari, ilmiy apparati, tadqiqot metodologiyasi mujassamlashgan bo‘lib, bu folklor matnlarini tahlil qilishning optimal texnologiyasini yaratish hamda folklor tilini chuqur va ko‘p qirrali obyekt sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Folklor asarlari tilini o‘rganishga bag‘ishlangan izlanishlar global muammolar davrida folklor matnlari orqali turli lisoniy hamjamiyatlarning madaniy merosini chuqurroq tushunish hamda til va folklor munosabatlarini ilmiy talqin qilish, folklorning tilda qanday aks etishi, til elementlarini folklorlarda namoyon bo‘lishi va ularning madaniyatga ta‘sirini tahlil qilish, dialektlarni tadqiq qilish orqali til taraqqiyotiga doir ehtimollarni ilgari surish, shu bilan birgalikda, folklor asarlarining badiiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. [1:24] Lingvofolkloristika sof folklor hodisasi emas. Unga oid tahlilda til, dialektologiya, pragmatika, lingvokulturologiya, folklor motivlari, sayyor syujetlar, qahramonlar nutqi pragmatikasi, syujet qurilishi singarilarni tahlil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, folklor motivlarida sehrlil raqamlar (uch, yetti, to‘qqiz, qirq), mifologik obrazlar (jin, ajina, pari, dev va h.k.), mistik tasvir (sehrgarlik, sehrlil buyumlar, karomatli shaxslar), giperbolizatsiya (bo‘rttirilgan obraz va tasvir)ning qo‘llanilishi, uslubiy xususiyatlari, pragmatik mazmunining tahlili orqali folklor asariga xos jihatlarni aniqlash mumkin. Shuningdek, lakonizm va alogizmlar, xalq qo‘shiq-lari, dostonlarida faol qo‘llaniluvchi paradigmatalar ham lingvofolkloristik tahlilda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, folklorshunoslikni – folklor asarlari kompozitsiyasini o‘rganuvchi, janr xususiyatlarini tahlil qiluvchi, obrazlar sistemasini shakllantiruvchi, folklor syujetlarini harakatga keltiruvchi motivlarni tadqiq qiluvchi soha, lingvofolkloristikani esa keng mazmun kasb etib, folklor asarlarining pragmatik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik, dialektologik xususiyatlarini tahlil qiluvchi, folklor matni atributlarini shakllantiruvchi va asar tili haqidagi umumiy xulosani shakllantirishga xizmat qiluvchi tilshunoslikning alohida sohasi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdumannatova N.A. “Hotamnoma” asarining lingvofolkloristik tadqiqi (“Hotamnoma” asari misolida): filol. fan bo‘yicha falsafa dok. ... diss. avtoref. - Samarqand, 2024. -48.
2. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент, 1979. – 24 б.
3. Сердюк М.А. Актуальные проблемы изучения фольклорных текстов. // Гуманитарные науки. Филология. № 25.
4. Хроленко А.Т. Что такое лингвофолклористика? / А.Т. Хроленко // Русская реч. - 1971. - № 1. – 36-41 с.
5. Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза, –Тошкент, 1973. – 158 б.;

Shomurodova Shaxlo Jaxonovna
Samarqand davlat chet tillar instituti professori

MATN LINGVISTIKASI VA INTERAKTIV METODLAR: TIL O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada matn lingvistikasi nazariyasining o‘quv jarayonidagi o‘rni hamda uni xorijiy tillarni o‘qitishda qo‘llashning samarali jihatlari yoritiladi. Til ta‘limida matndan foydalanishning afzalliklari, u orqali kommunikativ malakalarni shakllantirish usullari, shuningdek interfaol metodlarning didaktik imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Matn asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarni faollikka undashi, mustaqil izlanishga yo‘naltirishi va ijodiy tafakkurni rivojlantirishi alohida tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion yondashuv sifatida matn lingvistikasi va interfaol metodlarning uyg‘unligi ta‘lim jarayonida qanday natijalar berishi izohlanadi.*

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllangan matn lingvistikasi tilshunoslikda yangi bosqichni boshlab berdi. An‘anaviy tadqiqotlarda so‘z, so‘z birikmasi yoki gap alohida birlik sifatida tahlil etilgan bo‘lsa, matn lingvistikasi bu birliklarni yaxlit kommunikativ tuzilma sifatida ko‘rib chiqadi. Matn faqat grammatik va semantik munosabatlarning yig‘indisi emas, balki pragmatik va madaniy jihatdan ham bir butun hodisadir. Shu boisdan ham tilni o‘rgatishda matndan asosiy manba sifatida foydalanish ta‘lim samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda xorijiy til o‘qitishda o‘quvchilarni faol jarayonga jalb qiluvchi metodlarga ehtiyoj katta. Interfaol metodlarning keng qo‘llanilishi ham ayni shu zaruratdan kelib chiqadi. Ular o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilim yaratuvchi va muloqot ishtirokchisiga aylantiradi. Shu ma‘noda, matn lingvistikasi va interfaol metodlar uyg‘unligi til o‘qitishda innovatsion yondashuv sifatida katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Asosiy qism. Matn lingvistikasi matnning ichki tuzilishi, mazmuniy bog‘liqligi va kommunikativ yo‘nalishini o‘rganadi. Har qanday matn o‘zaro mantiqiy aloqadorlikka ega bo‘lgan segmentlardan tashkil topadi va yakuniy mazmun birligiga xizmat qiladi. Masalan, T. A. van Deykning tadqiqotlariga ko‘ra, matn nafaqat til birliklarining ketma-ketligi, balki ijtimoiy muloqotda qo‘llaniladigan ma‘nodor tizimdir. Shu sababli o‘quvchilar uchun matn ustida ishlash tilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni mashq qilishning eng tabiiy usullaridan biri hisoblanadi.

Ta‘lim jarayonida matndan foydalanish nafaqat o‘qib tushunish, balki uni qayta hikoya qilish, tahlil qilish, qisqa mazmun chiqarish, asosiy g‘oyalarni izohlash kabi topshiriqlarni ham qamrab oladi. Bu faoliyatlar natijasida o‘quvchilarning nutqiy, grammatik va mantiqiy

ko'nikmalari shakllanadi. Matn asosida mashg'ulotlar tashkil etish o'quvchilarda mustaqil va izchil fikrlashni kuchaytiradi, ularni turli kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi.

Interfaol metodlarning joriy etilishi ta'lim sifatini oshirishda muhim omildir. "Rol o'yinlari" orqali o'quvchilar matndagi g'oyalarni hayotiy vaziyatlarga tatbiq etadilar, bu esa ularda erkin so'zlashish ko'nikmasini rivojlantiradi. "Debat" metodida esa matndagi asosiy g'oyalar asosida bahs-munozaralar olib boriladi, o'quvchilar dalillar bilan o'z pozitsiyasini himoya qilishni o'rganadilar. Bundan tashqari, "aqliy hujum" yoki "klaster" kabi metodlar o'quvchilarning kreativ fikrlashini rag'batlantiradi.

Interfaol yondashuvning yana bir samarali shakli — loyiha usulidir. O'quvchilar matnga tayanib kengroq mavzular bo'yicha tadqiqot olib boradilar, ma'lumot yig'adilar va taqdimot shaklida namoyish etadilar. Bu jarayon ularda nafaqat til ko'nikmalarini, balki izlanish, tahlil qilish va jamoada ishlash malakalarini ham rivojlantiradi. Shu tariqa, interfaol metodlar ta'lim jarayonini yanada jonlantiradi, o'quvchilarni faol va ijodiy ishtirokchiga aylantiradi.

Matn lingvistikasi bilan interfaol metodlarning uyg'unligi o'quvchilar uchun ikki tomonlama samaradorlik beradi: bir tomondan, ular matnni yaxlit birlik sifatida chuqur anglyadilar, ikkinchi tomondan esa uni muloqot jarayonida faol qo'llashni o'rganadilar. Matn asosida tashkil etilgan bahslar og'zaki nutqni rivojlantirsa, yozma topshiriqlar yozma nutqni mustahkamlaydi. Shu orqali kommunikativ kompetensiya bosqichma-bosqich shakllanadi.

Shuningdek, matn lingvistikasi asosidagi interfaol yondashuv o'quvchilarda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki har bir matn muayyan xalqning turmush tarzi, qadriyatlari va dunyoqarashini ifodalaydi. O'quvchilar bunday matnlarni tahlil qilish orqali boshqa madaniyatlarni tushunishga o'rganadilar. Bu esa til o'rganish jarayonini nafaqat lingvistik, balki madaniy tajriba sifatida ham boyitadi.

Umuman olganda, matn lingvistikasi asosida interfaol metodlardan foydalanish ta'lim jarayonini samarali, qiziqarli va innovatsion qiladi. O'quvchilar bu yondashuv yordamida nazariy bilimni amaliy muloqotga tatbiq etishga o'rganadilar, tilni hayotiy vaziyatlarda erkin qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa. Matn lingvistikasi va interfaol metodlar uyg'unlashganda, tilni o'qitish jarayoni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi. Bu yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, muloqotda erkin ishtirok etishini, yozma va og'zaki nutqini rivojlantirishini ta'minlaydi. Shuningdek, matn orqali boshqa xalqlarning madaniyatini anglash imkoniyati ham yaratiladi. Natijada til nafaqat bilim sifatida, balki amaliy hayotiy ko'nikma sifatida o'zlashtiriladi. Shu bois matn lingvistikasi va interfaol metodlarning uyg'unligi til o'qitishda innovatsion yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. New York: Pearson Education.
2. Ellis, R. (2008). *The Study of Second Language Acquisition* (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press.
3. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). *Cohesion in English*. London: Longman.
4. Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching*. Harlow: Pearson.
5. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). *Techniques and Principles in Language Teaching*. Oxford: Oxford University Press.
6. Lotman, Yu. M. (1990). *Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture*. London: I. B. Tauris.
7. Nunan, D. (1999). *Second Language Teaching and Learning*. Boston: Heinle & Heinle.

8. Oxford, R. L. (1990). *Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know*. Boston: Heinle & Heinle.
9. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
10. van Dijk, T. A. (1980). *Text and Context: Explorations in the Semantics and Pragmatics of Discourse*. London: Longman.

Alibekova Dilrabo Abdiraimovna
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

USLUB VA TILDAGI MILLIY-ESTETIK TAFOVUTLAR: GEKTOR MALO VA TEODOR DRAYZER ASARLARI ASOSIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada Gektor Maloning “Sans Famille” (“Oilasiz”) hamda Teodor Drayzerning “Jennie Gerhardt” asarlari asosida uslub va tildagi milliy-estetik tafovutlar tahlil qilingan. Fransuz adabiyotiga xos romantik-realistik yoʻnalish hamda amerika adabiyotidagi naturalistik-realistik oqim qiyosiy jihatdan oʻrganilgan. Muallif Gektor Malo asarlarida lirizm, obrazlilik va hissiy tasvirlar ustunligini, Drayzer uslubida esa sodda, hujjatli-realistik ohang va fojeilik ustuvorligini taʼkidlaydi. Qahramonlar taqdiri orqali milliy adabiy maktablarning estetik qarashlari namoyon etiladi. Tadqiqot natijasida fransuz va amerika adabiyotlarining badiiy-estetik xususiyatlari, yozuvchilarning uslubiy individualizmi hamda davr ruhining ularning ijodiga taʼsiri ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: romantik-realistik yoʻnalish, estetik qarashlar, naturalistik-realistik oqim, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar.

NATIONAL AND AESTHETIC DIFFERENCES IN STYLE AND LANGUAGE: BASED ON THE WORKS OF HECTOR MALOT AND THEODORE DREISER

Abstract. This article analyzes the national and aesthetic differences in style and language based on Hector Malot’s “*Sans Famille*” (“*Nobody’s Boy*”) and Theodore Dreiser’s “*Jennie Gerhardt*.” The study comparatively examines the romantic-realistic trend characteristic of French literature and the naturalistic-realistic approach of American literature. The author emphasizes the dominance of lyricism, imagery, and emotional description in Malot’s works, while highlighting Dreiser’s use of a plain, documentary-realistic tone and the prevalence of tragedy. Through the destinies of the protagonists, the aesthetic perspectives of different national literary schools are revealed. The research concludes by identifying the artistic and aesthetic features of French and American literature, the stylistic individuality of the writers, and the influence of the spirit of their time on their creative works.

Keywords: romantic-realistic trend, aesthetic views, naturalistic-realistic movement, socio-economic problems.

НАЦИОНАЛЬНО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ РАЗЛИЧИЯ В СТИЛЕ И ЯЗЫКЕ: НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ГЕКТОРА МАЛО И ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА

В данной статье анализируются национально-эстетические различия в стиле и языке на материале произведений Гектора Мало «*Sans Famille*» («*Без семьи*») и Теодора Драйзера «*Jennie Gerhardt*». Сравнительно рассматриваются романтико-реалистическое направление, характерное для французской литературы, и натуралистически-реалистическое течение американской литературы. Автор подчеркивает преобладание лиризма, образности и эмоциональных описаний в произведениях Мало, а также отмечает простоту, документально-реалистический тон и трагичность стиля Драйзера. Через судьбы главных героев раскрываются эстетические позиции различных национальных

литературных школ. В результате исследования выявлены художественно-эстетические особенности французской и американской литературы, стилевое своеобразие писателей, а также влияние духа времени на их творчество.

Ключевые слова: романтико-реалистическое направление, эстетические взгляды, натуралистически-реалистическое течение, социально-экономические проблемы.

Kirish. Adabiyot har bir xalqning ma'naviy-ruhiy olamini, estetik qarashlarini hamda ijtimoiy-ma'naviy muhitini o'zida mujassam etuvchi yo'nalishdir. Yozuvchi ijodida milliy tafakkur, davrning falsafiy-estetik qarashlari va til vositalarining o'ziga xosligini integrallashtirgan holda, o'ziga xos badiiy manzara yaratadi. Shu jihatdan Gektor Malo va Teodor Drayzer ijodi turli milliy-estetik adabiy maktablarni qiyoslash imkonini beradi va ularning asarlaridagi o'ziga xos jihatlarni tadqiqot qilishga undaydi. Malo fransuz adabiyotida romantik-realistik yo'nalishning namoyandasi sifatida tanilgan bo'lib uning asarlarida optimizm yetakchilik qiladi, Drayzer esa amerika adabiyotida naturalistik-realistik oqimning asoschilaridan biridir. Mazkur maqolada Gektor Maloning "Sans Famille" ("Oilasiz") hamda Teodor Drayzerning "Jennie Gerhardt" asarlari misolida uslub va tildagi milliy-estetik tafovutlar tahlil qilinadi.¹

Asosiy qism. Fransuz adabiyotidagi estetik yo'nalish va Gektor Malo uslubi. XIX asr fransuz adabiyotida insoniylik, sadoqat va ijtimoiy tengsizlik masalalari badiiy yondashuvda yetakchi mavzular sifatida ko'rinadi. Malo o'zining "Oilasiz" romanida Remining taqdiri orqali jamiyatdagi tengsizlik, yetimlik va mehr-oqibat masalalarini yoritadi.

Malo uslubining asosiy belgisi — romantik lirizm va hissiyotlarning chuqur tasviri. Yozuvchi qahramonlar ruhiy olamini tabiat manzaralari, hissiy detallar orqali ochib beradi. Til vositalarida obrazlilik, poetik tasvirlar va samimiy dialoglar ustunlik qiladi. Bu fransuz adabiyotining an'anaviy estetik qarashlari — ezgulikning ustuvorligi va umidning g'alabasiga ishonchni aks ettiradi.²

Amerika adabiyotida realizm va Teodor Drayzer uslubi. XX asr boshidagi amerika adabiyotida industrial jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, inson va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar asosiy mavzuga aylangan edi. Drayzerning "Jennie Gerhardt" romani kambag'al oiladan chiqqan qizning hayoti orqali ijtimoiy tengsizlik va jamiyatning qattiq qonunlarini ochib beradi.

Drayzer uslubida naturalistik realizm yetakchilik qiladi. Yozuvchi qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ularga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'lab tasvirlaydi.³ Til vositalarida sodda, hujjatli ohangga yaqin ifodalalar qo'llanadi. Dialoglar ko'proq ijtimoiy mavqe va shaxsiy imkoniyatlarni ifodalovchi vosita sifatida yozilgan bo'lib ular orqali asar qahramonlarining aniq statusi alohida ajralib turadi. Estetik qarashlarda esa fojeiylik ustun bo'lib, insoniy orzularning jamiyat sharoitida barbod bo'lishi va asar qahramonlarining real hayotdan olinganligi tasvirlanadi.

Milliy-estetik tafovutlar. Gektor Malo va Teodor Drayzer asarlarini qiyosiy tahlil etish orqali quyidagi milliy-estetik tafovutlarni ko'rish chiqish va ulardagi o'ziga xosliklar va o'xshashliklarni alohida ta'kidlash mumkin:

1. Estetik yo'nalish

Malo — romantik-realistik yo'nalishga yaqin bo'lib, ezgulikning g'alabasini targ'ib qiladi.

¹ Алибекова, Д. (2025). Teodor Drayzer va Gektor Malo asarlaridagi stilistik qurilmalarning tarjima asarlardagi tahlili. *Лингвoспектр*, 3(1), 297-301.

² Day, A. (2011). *Romanticism*. Routledge.

³ Pigden, C. (1991). *Naturalism*.

Drayzer — naturalistik-realistik uslubni qo‘llab, insonning jamiyat qonunlari oldidagi ojizligini ko‘rsatadi.

2. Til va uslubiy vositalar

Malo — lirik, tasviriy va hissiyotlarga boy tilda yozadi.

Drayzer — sodda, lo‘nda va faktlarga asoslangan tilda ifoda etadi.

3. Qahramonlar taqdiri

Malo qahramonlari sinovlardan o‘tib, umid va ezgulik orqali kelajakka intiladi.

Drayzer qahramonlari ko‘pincha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar qurboniga aylanib, fojeaviy yakunga yuz tutadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ikki turli davlat va millat yozuvchisi Gektor Malo va Teodor Drayzer asarlarida uslub va tildagi milliy-estetik tafovutlar ularning yashagan davri, jamiyat sharoitlari hamda adabiy maktablari bilan chambarchas bog‘liqdir. Malo fransuz adabiyotining romantik va optimizmga boy an‘analarini davom ettirsa, Drayzer amerika adabiyotida realizm va naturalizmni chuqurlashtirdi. Shu bois, “Sans Famille” va “Jennie Gerhardt” asarlari qiyosiy tahlili ikki milliy adabiy maktabning estetik farqlarini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi va adabiy jarayonda har doim namuna bo‘lib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Pigden, C. (1991). *Naturalism*.
2. Алибекова, Д. (2025). Teodor Drayzer va Gektor Malo asarlaridagi stilistik qurilmalarning tarjima asarlardagi tahlili. *Лингвоспектр*, 3(1), 297-301.
3. Day, A. (2011). *Romanticism*. Routledge.
4. Qosimov, B. (2005). *Adabiyotshunoslikka kirish*. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Nazarov, B. (2010). *Adabiy-estetik tafakkur masalalari*. Toshkent: Fan.
6. Bradbury, M. & McFarlane, J. (1976). *Modernism: 1890–1930*. London: Penguin.
7. Cuddon, J. A. (2013). *A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory*. Oxford: Wiley-Blackwell.

Axmedjanova Farida Djavairovna

axmedjanovafarida@gmail.com

SamDCHTI, Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrası o‘qituvchisi

O‘TKIR HOSHIMOV VA MARGARET DREBBL ASARLARI NEGIZIDA AYOL KONSEPTINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr davomida ayollarning rivojlanayotgan obrazining shakllari o‘rganilib, ayollik haqidagi tasavvurlarni shakllantirgan ijtimoiy, madaniy va siyosiy o‘zgarishlarni tahlil qilinadi. Maqolada ikki jahon urushining ta’siri va feministik harakatlarning kuchayishi kabi muhim tarixiy voqealarni ko‘rib chiqiladi. Tahlil shuningdek, ommaviy axborot vositalari va adabiyotlarda ayollarning obrazini ko‘rib chiqadi va bu jamoatchilik fikriga qanday ta’sir qilganini va gender tengligi bo‘yicha davom etayotgan islohotlar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: ayol, ayol obrazi, taraqqiyot, filologiya, XX asr.

O‘tkir Hoshimov va Margaret Drebbel ijodida ayol konsepti muhim markaziy mavzu sifatida namoyon bo‘ladi, ammo ularning yondashuvlari tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstga qarab farqlanadi. Hoshimov – an‘anaviy, sabrli, oila va e’tiqodga tayanadigan ayol obrazlarini yaratgan bo‘lsa, Drebbel – shaxsiy erkinlikka intilayotgan, mustaqillikka ega, ammo ichki

tortishuvlar bilan yashaydigan zamonaviy ayollarni tasvirlaydi. Bu ikki turli dunyoqarash ayol konseptining murakkab va serqirra tusini ochib beradi.

Adabiyotda ayol obrazi – bu jamiyatdagi ayolning o‘rni, ichki dunyosi, ijtimoiy majburiyatlari hamda shaxsiy hayotdagi his-tuyg‘ularining san’atkorona aksidir. O‘zbek va ingliz adabiyotlari o‘rtasida madaniy, tarixiy va sotsiologik tafovutlar mavjud bo‘lsa-da, har ikki adabiy maktabda ayol obrazlari o‘ta muhim ideologik va estetik yuklamaga ega. O‘tkir Hoshimov va Margaret Drebbel o‘z xalqlarining ruhiy hayotini ayol timsollari orqali ko‘rsatgan yozuvchilardir. Quyidagi jadvalda O‘tkir Hoshimov va Margaret Drebbel asarlarida ayol konsepti qaysi jihatlariga ko‘ra farqlanishini ko‘rishimiz mumkin:

| Jihat | O‘tkir Hoshimov | Margaret Drebbel |
|-------------------------------------|--|---|
| Ayolga gumanistik yondashuv | Ayolni mehr, sabr, fidoyilik timsoli sifatida tasvirlaydi. | Ayolning ongli, mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida ko‘rsatadi. |
| Ruhiy kechinmalar | Ko‘pincha ijtimoiy bosim, oila muammolari bilan bog‘liq. | Ichki konfliktlar, mazkur jamiyatdagi izolyatsiya bilan bog‘liq. |
| Yozuvchi e‘tiborida ayol | Ayol oilaning tayanchi sifatida — asosiy markazda. | Ayol individuallik va erkinlik timsoli — intellektual markazda. |
| Ijtimoiy adolat uchun kurash | Ayol obrazlari orqali adolatsizlikka norozilik bildiradi. | Ayol orqali patriarxatga, ijtimoiy cheklovlarga tanqidiy munosabat. |

Aynan shu jihatlar ularning ijodida ayol obrazlari orqali jamiyat, insoniyat va ma’naviyat haqida chuqur mushohadaga undaydi. Shu sababli, bu qiyosiy tahlil nafaqat ayol obrazlarini, balki butun jamiyat mentaliteti va madaniyatini solishtirish imkonini ham beradi. O‘tkir Hoshimov va Margaret Drebbel ijodida milliy mentalitetlar, madaniy tarix va sotsial sharoitlar farqli bo‘lsa-da, ayol konsepti badiiy-estetik jihatdan teran ifodalagan. Hoshimovda ayol – ma’naviy tayanch, sabr va iroda timsoli bo‘lsa, Drebbelda ayol – individuallik, tanlov va ichki kurash obrazidir. Ularning asarlari ayollar orqali jamiyatni tahlil qilishga, adabiyotda inson psixologiyasining nozik qatlamlarini ochishga xizmat qiladi.

O‘tkir Hoshimov o‘zbek adabiyotida ayol qiyofasini hayotiy realizm mezonlariga tayanib yoritgan yozuvchilardan biri hisoblanadi. Uning asarlarida ayollar, asosan, qadriyatlar, jamiyatning ta’siri hamda turmush va oilaviy muammolar bilan kurashayotgan kuchli, lekin bardoshli shaxslar sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchining “Ikki eshik orasi”¹ romanida ayol obrazlari quyidagicha tasvirlangan. Bu asarda Robiya, Qora Amma kabi ayollar obrazi mavjud. Robiya - hayot sinovlariga duch kelgan, lekin farzandining kelajagi uchun har qanday mashaqqatga dosh beruvchi ayol. Bu obraz orqali Hoshimov o‘zbek ayolining sabr-toqat, fidoyilik, mehr-oqibat hamda or-nomus tuyg‘ularini ifoda etadi. Qora Amma esa xalq donoligi, ayollarga xos mas’uliyat va tajribaning ramzidir.²

O‘tkir Hoshimovning so‘nggi yillarda yozilgan hikoya va romanlarida ayol obrazida ijtimoiy faol, zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lgan, o‘z haqiqatini qidiradigan ayol siymosi aks etadi. Bu esa yozuvchining zamon bilan hamohangligini ko‘rsatadi.

¹ Hoshimov O‘tkir. *Ikki eshik orasi*. Toshkent: Nurli dunyo, 2022. – B. 704.

² Alimova M. “O‘tkir Hoshimov romanlarida ijtimoiy masalalar va ayol qiyofasi”. *Adabiyotshunoslik izlanishlari*, №4, 2018. – B. 55-60.

Drebbning romanlarida ayollar avvalo inson sifatida, ularning ichki dunyosi, kasbiy intilishlari, onalik, yolg'izlik hamda jamiyatning bosimi fonida tasvirlanadi. U feminist yozuvchi bo'lmasa-da, uning asarlarida gender masalalari, ayollarning erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo'lishga intilishi ochiq-oydin ifodalanadi. "The Realms of Gold"¹ romanidagi Frances Wingate obrazida Drebb ilm-fanga bag'ishlangan, onalik baxtini tatib ko'rgan, sevgi va kasbiga sodiqlik o'rtasida tanlovga duch kelgan ayol qiyofasini yaratadi. U onalik, ilmiy faoliyat va shaxsiy hayot o'rtasidagi ziddiyatlarni boshidan kechiradi. Frances zamonaviy ayolning kuchli, lekin nozik qiyofasidir. Drebbning asarlarida onalik asosiy mavzulardan biridir. Ayollar onalik orqali o'z shaxsiyatini anglaydi, o'zgaradi va jamiyatdagi o'z o'rnini qayta ko'rib chiqadi. Ayniqsa, "The Millstone"² romanida yolg'iz ona obrazi orqali jamiyatdagi gender zo'ravonligi ko'rsatib beriladi.³ O'tkir Hoshimov va Margaret Drebbning romanlari orqali o'zbek va ingliz adabiyotlarida ayol konsepsiyasining umumiy va milliy jihatlari aniqlanadi. Ularning obrazlarida sabr, fidoyilik, onalik muhabbati bilan birga, ayolning shaxs sifatidagi qiyofasi teran ifoda etilgan. Ikki yozuvchi turli madaniy muhitda ijod qilgan bo'lsa-da, ularning asarlarida ayolga hurmat, mehr va uni anglash muhim o'rin egallaydi. Hoshimov asarlarida ayol obrazlari milliy an'analar va qadriyatlar asosida tasvirlansa, Drebb romanlarida ayolning zamonaviy, intellektual va mustaqil qiyofasi yaratgan.

Drebb asarlarida ayol qahramonlarning oila va martaba borasidagi tanlovlari o'sha davrdagi ingliz ayollarining patriarxal jamiyatdagi qiyinchiliklarini chuqur aks ettirgan. Drebb, ijtimoiy vaziyatini hisobga olib, o'z asarlarida ayollarning muammolariga urg'u berdi, zamonaviy bilimga ega bo'lgan ayollarning ijtimoiy va hayotiy tanlovlaridagi qiyinchiliklarni adabiy usulda tasvirladi va ayollarning rivojlanishini o'rgandi. Oilaviy aloqalar ham Drebbning adabiy ijodining asosiy yo'nalishlaridan biri edi. Patriarxal jamiyatda ayollar otalari yoki oilalarining ta'siri ostida bo'lishgan. Drebb, qizlarning o'sish muhitini va patriarxal jamiyatdagi qizlar va onalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib chiqdi, bu jarayonni o'z oilasi orqali asoslab berdi.⁴

Drebb badiiy asarlarida onalar hamda qizlar o'rtasidagi munosabatlarning murakkab tomonlari ochib berilgan. Adabiyotdagi "Virgin Mary" obraziga mos kelmaydigan onalar tasvirlari uchraydi, onalarning qizlariga salbiy ta'siri, buzilgan oilaviy aloqalar, sog'lom bo'lmagan oilaviy muhit muammolari keng muhokama qilinadi. Ayniqsa, Drebbning "Jerusalem the Golden"⁵ asari onalar va qizlar munosabatlarini tadqiq qiluvchi eng yaxshi namunadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Alimova M. "O'tkir Hoshimov romanlarida ijtimoiy masalalar va ayol qiyofasi". Adabiyotshunoslik izlanishlari, №4, 2018. – B. 55-60.
2. Hoshimov O'. *Ikki eshik orasi*. Toshkent: Nurli dunyo, 2022. – B. 704.
3. Margaret D. "The Realms of Gold". London: Weidenfeld & Nicolson, 1975. – P. 336.
4. Margaret D. "The Millstone". London: Weidenfeld & Nicolson, 1965. – P. 192.
5. Margaret D. "Jerusalem the Golden". London: Weidenfeld & Nicolson, 1967. – B. 223.

¹ Margaret D. "The Realms of Gold". London: Weidenfeld & Nicolson, 1975. – P. 336.

² Margaret D. "The Millstone". London: Weidenfeld & Nicolson, 1965. – P. 192.

³ Shukla B. *Women in the Novels of Margaret Drabble: A Critical Study*. New Delhi: Sarup & Sons. 2006. – P. 165-170.

⁴ Leeming Glenda. "Margaret Drabble: Career and Critics." In Margaret Drabble, Cambridge University Press, 2020. – B. 1-8.

⁵ Margaret D. "Jerusalem the Golden". London: Weidenfeld & Nicolson, 1967. – B. 223.

6. Leeming Glenda. "Margaret Drabble: Career and Critics." In Margaret Drabble, Cambridge University Press, 2020. – B. 1-8.
7. Shukla B. Women in the Novels of Margaret Drabble: A Critical Study. New Delhi: Sarup & Sons. 2006. – P. 165-170.

*Oysanam ESHBOYEVA,
SamDCHTI Assistent o'qituvchisi
Nafisa BOLIBOYEVA,
SamDCHTI Sharq tillar fakulteti
Kompyuter lingvistikasi
yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

SUN'IY INTELEKTNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi o'rni, uning afzalliklari va imkoniyatlari yoritilgan. Ta'limda AI texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini individuallashtirish, avtomatik baholash, virtual yordamchilar orqali samaradorlikni oshirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maxfiylik va axloqiy me'yorlarga oid muammolar ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt ta'lim sifatini oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishda muhim omil hisoblanadi

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim texnologiyalari, avtomatik baholash tizimlari, moslashtirilgan o'quv dasturlari, virtual yordamchilar, ma'lumotlar tahlili, raqamli ta'lim, samaradorligi, kelajak istiqbollari.

XXI asr texnologiyalar asri sifatida e'tirof etilayotgan bir paytda. Har bir sohada bo'lgani kabi ta'lim tizimi ham zamonaviy innovatsiyalar bilan chambarchas bog'lanib, yanayam yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi o'qitish usullarini tubdan o'zgartirmoqda. SI — bu inson tafakkuri va aql-idrokiga xos vazifalarni bajarishga qodir dasturiy tizimlar majmui bo'lib, ma'lumotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish, mustaqil o'rganish va tajribalardan xulosa chiqarish imkoniyatiga ega.

Ta'lim sohasida SI texnologiyalarining qo'llanilishi kengayib bormoqda. Intellektual o'quv platformalari, moslashtirilgan o'quv dasturlari (adaptive learning), avtomatik baholash tizimlari, virtual o'qituvchilar, ovozli yordamchilar va boshqa zamonaviy vositalar o'quvchilarga o'z bilimini samarali rivojlantirish, o'qituvchilarga esa dars jarayonini yanada interaktiv qilish imkonini bermoqda. Bu jarayon ta'lim sifatini oshirish, talabalar uchun individual yondashuvni kuchaytirish, o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, SI texnologiyalarining ta'limga tatbiq etilishi bir qator yangi masalalarni ham yuzaga keltirmoqda: maxfiylik, axloqiy me'yorlar, texnik infratuzilma va pedagoglarni yangi sharoitlarga moslashishga tayyorlash zaruriyati shular jumlasidandir. Mazkur maqolada sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi o'rni, uning afzalliklari, cheklovlari va istiqbollari keng yoritiladi.

Sun'iy intellektning asosiy imkoniyatlari

Sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonida ko'plab innovatsion yechimlarni taqdim etmoqda. Quyida ularning eng muhim yo'nalishlari keltiriladi:

1. Avtomatik baholash tizimlari. SI asosida ishlab chiqilgan dasturlar testlar, yozma ishlar va hatto nutqiy topshiriqlarni ham tezkor va aniq baholash imkonini beradi. Bu

o'qituvchilarga ko'p vaqtni tejash, talabalar esa o'z bilim darajasini tezda bilib olish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

2. Moslashtirilgan o'quv dasturlari. Bunday tizimlar har bir o'quvchining bilim darajasi, qiziqishlari va o'rganish tezligini tahlil qilib, unga mos materiallarni taklif etadi. Natijada, o'quv jarayoni shaxsiylashadi va samaradorlik ham yanada oshishi kuzatiladi.

3. Chatbotlar va virtual yordamchilar. Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan chatbotlar barcha talabalar uchun 24/7 rejimida yordam ko'rsata olishi mumkin. Ular dars jadvali, topshiriqlar bo'yicha ma'lumot berish, murakkab mavzularni tushuntirish kabi vazifalarni juda a'lo darajada bajarishini kuzatishimiz mumkin.

4. Ma'lumotlarni tahlil qilish. SI katta hajmdagi o'quv ma'lumotlarini tahlil qilib, o'qituvchilarga o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatib, tahlil qilib, samarali pedagogik strategiyalarni tanlashda yordam beradi. Bu jarayon o'qituvchining to'g'ri qaror qabul qilishini anchagina osonlashtiradi.

5. Multimediya vositalar bilan integratsiya. Virtual reallik va kengaytirilgan reallik texnologiyalari bilan uyg'unlashgan sun'iy intellekt o'quvchilarga mavzuni yanada jonli va qiziqarli tarzda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt qo'llanilishining ustunlik jihatlari.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy qilinishi ta'lim tizimida ko'plab ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Quyida uning asosiy afzalliklari keltirilgan:

1. O'qituvchilar mehnatini yengillashtirish. SI yordamida avtomatik baholash, o'quv materiallarini tayyorlash va tahlil qilish jarayonlari soddalashadi. Bu esa o'qituvchilarning asosiy vaqtini o'z ustida ishlashi hamda ijodi va tashkiliy ishlarga ajratishida yordam beradi.

2. Talabalar uchun individual yondashuv. Moslashtirilgan o'quv dasturlari har bir talabaning o'zlashtirish darajasi, qiziqishlari va o'rganish uslubini inobatga oladi. Natijada esa o'quvchilar o'z tezligida o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. Ta'lim samaradorligini oshirish. SI asosidagi dasturlar o'quv jarayonini optimallashtirib, murakkab mavzularni tushuntirishni soddalashtiradi. Bu esa bilimlarni mustahkamlash va natijalarni yaxshilashga katta yordam beradi.

4. Onlayn o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish. Masofaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari o'quv jarayonini jonlantiradi: virtual yordamchilar, interaktiv topshiriqlar va avtomatik maslahat tizimlari talabalarga qulay sharoit yaratadi.

5. Raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish. SI bilan ishlash jarayoni o'quvchilarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantiradi. Bu esa kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyat uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi

Muammolar va cheklovlar

Sun'iy intellektning ta'lim tizimida qo'llanilishi ko'plab qulayliklarni taqdim etayotgan bo'lsa-da, uning joriy etilishi bilan bog'liq ayrim muammolar va cheklovlar ham mavjud. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Axloqiy va huquqiy masalalar. SI tizimlaridan foydalanishda o'quvchilar ma'lumotlarining maxfiyligi, shaxsiy hayot daxlsizligi va intellektual mulk huquqlari bilan bog'liq savollar yuzaga keladi. Bundan tashqari, baholash jarayonlarida algoritmlar xolislikni ta'minlay olishi lozim.

2. Texnik infratuzilma muammolari. Ko'plab o'quv muassasalarida SI yechimlari uchun kutubxonalar hamda baza yetarli emas. Barqaror internet, kuchli serverlar va sifatli qurilmalar bo'lmasa, bunday tizimlardan samarali foydalanish mushkul bo'lib qoladi.

3. O'qituvchilarni tayyorlash zaruriyati. SI texnologiyalarini o'qituvchilar samarali qo'llashi uchun ularni maxsus tayyorlash lozim. Aks holda, noo'rin qo'llash yoki noto'g'ri foydalanish hollari ham kuzatilishi va mavjud vositalar to'liq imkoniyatini ko'rsata olmasligi mumkin.

4. Moliyaviy cheklovlar. Sun'iy intellektga asoslangan dasturlar va uskunalarni xarid qilish, ularni yangilab turish katta mablag' talab qiladi. Bu, asosan kichik ta'lim muassasalari uchun jiddiy muammo bo'lishi mumkin.

5. Tizimlarning moslashuvchanligi. Ba'zi SI yechimlari faqat umumiy ma'lumotlar asosida ishlaydi va barcha o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olishda qiynaladi. Bu esa individual yondashuv imkoniyatini cheklashi mumkin.

Sun'iy intellektning ta'lim jarayonida qo'llanilishi kelgusida yanada kengayib, yangi imkoniyatlar yaratishi kutilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Kelajakda SI asosida ishlovchi platformalar o'quvchilarning bilim darajasini real vaqt rejimida tahlil qilib, ularning ehtiyojiga mos o'quv materiallarini taklif etadi. Bu o'quv jarayonini to'liq individuallashtirishga yordam beradi.

Yaqin kelajakda o'qituvchi va sun'iy intellekt o'rtasidagi hamkorlik yangi pedagogik modelni shakllantiradi. SI yordamchi vazifani bajarib, o'qituvchilarning ijodiy yondashuvini kuchaytirishda yordam beradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari turli mamlakatlardagi o'quvchilarga bir xil sifatdagi ta'lim olish imkonini beradi. Bu esa xalqaro hamkorlikni mustahkamlab, bilim almashinuvini ham yengillashtirishda katta hissa qo'shadi.

Kelajakda SI o'quvchilarning yuz ifodasi, ovoz ohangi va xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularning kayfiyatini ham baholay oladi. Bu esa o'quv jarayonida yanada qulaylikni ta'minlash imkonini beradi.

Xulosa

Sun'iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda ta'lim tizimining deyarli ajralmas qismiga aylanib bo'ldi. Ular o'qitish jarayonidagi bilvosita (o'qituvchi orqali) samarali tashkil etish, o'quvchilarning bilimini baholash va individual yondashuvni kuchaytirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Avtomatik baholash tizimlari, moslashtirilgan o'quv dasturlari, virtual yordamchilar va ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin egallaydi.

Biroq sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga keng miqyosda joriy etish bilan bog'liq ayrim muammolar ham mavjud. Axloqiy me'yorlar, texnik infratuzilma, o'qituvchilarni tayyorlash va moliyaviy resurslar kabi omillar bu texnologiyalarning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, SI texnologiyalarini tatbiq etishda ularning ijobiy va salbiy jihatlarini puxta o'rganish, ta'lim jarayoniga moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqish zarur.

Kelajakda sun'iy intellekt asosidagi innovatsion yechimlar yanada rivojlanib, ta'lim tizimini shaxsiylashtirilgan, qiziqarli va samarali qilishga xizmat qilishi kutilmoqda. To'g'ri yondashuv va mas'uliyatli boshqaruv orqali sun'iy intellekt ta'lim sohasining rivojlanishida muhim omil bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2020-yil 28-aprel, PQ-4699. <https://lex.uz/docs/4807557>
2. Karimov, M. (2022). *Sun'iy intellekt va ta'lim integratsiyasi: imkoniyatlar va muammolar*. Toshkent: O'zMU Ilmiy axborotlari, №3, 45–52-b.
3. Abdullayeva, Z. (2023). *Raqamli transformatsiya jarayonida ta'lim sifatini oshirish omillari*. Samarqand davlat universiteti ilmiy jurnali, №2, 60–66-b.

4. UNESCO. (2021). *AI and Education: Guidance for Policy-makers*. Paris: UNESCO
<https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000376709>

5. OECD. (2020). *Artificial Intelligence in Society*. Paris: OECD.
<https://doi.org/10.1787/eedfee77-en>

**Eshboyeva Oysanam Sokhatmurotovna,
Teacher of the Samarkand State
Institute of Foreign Languages**

INTERPRETATION OF THE TRANSFORMATION PHENOMENON IN WORLD LINGUISTICS

Annotation. This article presents theoretical ideas on the study of the transformation phenomenon in world linguistics, the linguistic essence of syntactic transformation and the description of the theory of transformation in linguistics. Some linguists define the characteristics of transformation that are different and similar to such phenomena as derivation, transposition, and parcellation in different ways. The article analyzes the search for a common meaning that unites the specific linguistic features of this phenomenon and a deeper understanding of the linguistic nature of transformation.

Keywords: Syntactic transformation, transform, derivation, transposition, transformational grammar, basic structure, base structure, derived structure, theories of E. Sapir, L. Bloomfield, N. Chomsky, Z. Harris.

The linguistic features of transformation theory and its research have been extensively studied by world scientists. In particular, we observe that this issue has been given some attention in the studies of Z.Harris, N.Chomsky, R.B.Liz, E.V.Severtyan, L.S.Barkhudarov, Apresyan, S.K.Shaumyan, P.A.Soboleva, V.S.Khrakovsky, V.N.Kodukhov, Y.V.Paducheva, Yu.S.Stepanov, V.G.Admoni, L.N.Zasorina, Y.S.Kubryakova, and S. Samarenkina.

First, let us dwell on the linguistic essence of the theory of transformation. The word transformation means a transformation from one state to another. This word serves as a term in various fields. For example: in electronics, alternating current represents an increase or decrease in voltage [7,P.603]. In linguistics, transformation is the method of changing the basic, central device of a language based on the laws of language and forming a secondary device [3, P.94].

Transformation is a change in linguistic components or units. The most basic changes in the elements of a syntactic unit occur by rearranging, replacing, adding, shortening, and deleting them. Transformational analysis of the syntactic approach became popular in the world of structural linguistics in the 1960s. The basis of the transformational approach to analysis is that the syntactic system of a language can be divided into several subsystems, with the original text being the core system and the rest being its derivatives [6, P.47].

The specific features of the theory of transformation have been studied in various studies by world scientists. In particular, the transformation method was one of the first to be introduced into science by Z.Harris as a special system of analytical structures. The initial list of transformations in the English language is described in his work "Discourse Analysis". At the same time, his student N.Chomsky, interested in studying transformations and their place in linguistic analysis, developed the theory of transformation in world linguistics. In his opinion, in order to understand language facts, it is necessary to create a grammar, and for this, first of all:

1. A grammar of definite quantities of events;
2. A grammar of direct participants;

3. A grammar of derivation (transformation grammar) based on the rules of transformation at the core of both [10,P.81].

N. Chomsky's ideas have been recognized in world linguistics, and now it has become clear that linguists should not limit themselves to dividing the text into various segments, but also study the text as a result of various transformations [10,P.18]. The holding of large conferences devoted to the problems of the transformational analysis method is a clear proof of this. V.S.Khrakovsky emphasizes that by transformation, a certain semantic state is expressed in one way or another in the language [11,P.63]. In such a situation, of course, he expresses the opinion that the commonality of meaning between the main clause and the derived clause is preserved. L.S.Barkhudarov, while discussing sentence models, also provides information about transformational models of sentences. According to the scientist, the transformational model serves to determine the relationship at the syntactic level between basic constructions and constructions (transforms) that are formed by changing them using certain rules, that is, restructuring them.

This work provides examples that reflect the transformation of two simple sentences, but we observe that the mechanism of such transformation is not described.

In this work, many ideas created by L.S.Barkhudarov are significant for us, the scientist states that in a syntactic task, along with a word, a syntactic construction also occurs, and emphasizes with several examples that a syntactic construction is equal to a compound or sentence. In general, this work, written on the basis of the theory of direct participants and in which the occurrence of more than one word in a syntactic task is widely described, is worthy of our in-depth study and clarification.

The use of a transformational approach in the analysis of units of other language levels and the study of syntactic models is noted in the textbook "General Linguistics" by V.N.Kodukhov. Through this work of the scientist, the transformational methodology can be used in the study of syntactic models in the textbook "General Linguistics" [6, P. 95].

Transformational text analysis mainly covers traditional issues of synonymy, primarily syntactic issues. Y.V.Paducheva in her work "On the semantics of syntax" offers the definition of syntactic synonymy given by Apresyan: "Syntactic synonymy is given by a transformation that does not change the content of the essential lexemes of a sentence, but only changes their grammatical forms.

Structural linguistics systematically uses the technique of transforming text units, identifying the potential properties of linguistic elements.

Y.V.Paducheva's work "On the semantics of syntax" is devoted to the study of Russian grammar using the method of transformational analysis. This method is used to describe the content of a sentence, and various synonymous substitutions and changes are introduced instead of synonyms. This work, written using a very complex method of analysis, describes the transformation of a construction that is equivalent to a sentence in its entirety into another form. Y.V.Paducheva also considers substitutions as a form of transformation. One of the important points for us in this work is that syntactic transformation has its own characteristic features in each language.

Yu.S.Stepanov, based on the object of his scientific work, understands transformation as the replacement of a predicate by a noun and a noun by a predicate, and describes it in relation to the process of word formation [7, P.92.].

Thus, the desire to study the dynamic nature of language in a synchronous state gave rise to two main directions in linguistics: one of them is transformational grammar, and the other is psycholinguistics.

As we have said above, the founders of transformational grammar, based on the study of the dynamic nature of language, are Z. Harris and N. Chomsky. They consider the grammar they have created as a cybernetic device for generating sentences in a given language [10, P. 105.]

The work of R.B. Lees entitled "What is Transformation?" also contains thoughts about these scientists. According to Z. Harris's theory, transformation is simply a relationship between two types of sentences, often involving concepts common to both sentences. However, what is usually called transformation in the work of N. Chomsky is a completely different concept. In general, N. Chomsky's transformation is a certain type of grammatical rule within the generative grammar of a sentence: this rule serves to produce trees of a certain type from other trees by rearranging elements, adding them, or ellipsis.

In fact, it is emphasized that the transformation rule can be considered as an ordered unity of the following three elements:

- 1) a derivation tree;
- 2) a certain analysis or a section of the last branch of the tree;
- 3) an elementary transformation.

S.K. Shaumyan and P.A. Soboleva, speaking about the transformation theory of the linguist N. Chomsky, note the following: "...Transformation means determining an invariant relationship between the complexes A and V. In this case, V is a derivative of A. If the complex A is an operand, then V is considered a transform" [12, P. 209].

According to N. Chomsky, language is a creative activity that follows certain rules.

Therefore, the main task of linguistic theory should be to explain the mechanism, grammar, that governs the speech activity of speakers. However, no matter how remarkable N. Chomsky's transformational grammar is, the lack of a clear mechanism for defining nuclear units and the subjectivity of studying sentences taken out of context show its weaknesses. These 191 weaknesses in N. Chomsky's concept were eliminated by the applicative model developed by S.K. Shaumyan and P.A. Soboleva. A characteristic feature of this model is deductiveness [12, P. 32].

REFERENCES:

1. Apresyan Yu.D. Ideas and methods of modern structural linguistics. - Moscow: Prosveshchenie, 1966. -332 p.
2. Bloomfield L. Yazyk. - M.: Progress, 1968. - 608 p.
3. Bushuy T, Safarov Sh. Language construction: analytical methods and methodology. Tashkent: "Fan" publisher. 2007. 278 p.
4. Fillmore Ch.Dj. Ob organizatsii semanticheskoy informatsii v slovare // Novoe v zarubezhnoy linguistics. - To V. 14,-Lexicography of problems and methods. - M.: Progress, 1983.-S. 23-60.
5. Kodukhov V. N. Obshie yazykoznanie. — M.: "Visshaya Shkola", 1974, 240.
6. Stepanov Yu.S. Osnovy obshchego yazykoznaniya. - Moscow: Prosveshchenie, 1975. - 271 p.
7. Stepanov Yu.S. Imena. Predicate. Predlogenia (Semiological grammar). -Moscow: Nauka, 1981.- 360 p.
8. Shaumyan S.K. i Soboleva P.Ya. Application production model and implementation informatsii v russkom yazyke. - Moscow: Nauka, 1963. - 125 p

**Ibragimova Muqaddas
SamDCHTI o'qituvchisi**

SO'Z-GAP VA TO'LIQSIZ GAPLARNING SINTAKTIK TABIATINI QIYOSIY O'RGANISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada so'z-gaplar hodisasi turli jahon tilshunoslari qarashlari asosida tahlil qilingan. Avvalo, rus tilshunosligida N.S.Valgina va V.V.Babaytseva so'z-gaplarning sintaktik tabiatini aniqlashga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, ularning fikricha, bunday birliklar gap bo'laklariga bo'linmaydigan, biroq mustaqil predikativlik va kommunikativ vazifa kasb etadigan alohida maxsus birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Valgina izlanishlarida sodda gaplar tizimida bir so'zdan yoki ajralmas yuklamalar birikmasidan tashkil topgan gaplar alohida struktur-semantik guruh sifatida farqlanishi ko'rsatib o'tiladi, Babaytseva esa so'z-gaplarning o'ziga xos sintaktik mustaqilligini ta'kidlab, ularni boshqa gap tiplari bilan aralashtirish mumkin emasligini qayd etadi.

O'zbek tilshunosligida esa bu masalani maxsus o'rganib chiqqan E. Shodmonov so'z-gaplarning morfologik asoslari, predikativlik, modallik va intonatsiyaning o'rni haqida batafsil ma'lumot beradi hamda ularni, asosan, dialogik nutqqa xos sintaktik hodisa sifatida ta'riflaydi. U modal so'zlarning bir qismini so'z-gap sifatida tasniflaydi va intonatsiyani so'z-gaplarning shakllanishida hal qiluvchi mezon deb belgilaydi.

B. O'rinboyev esa so'z-gaplarning gap bo'laklariga bo'linmasligini ularning eng muhim belgisi sifatida ajratadi, vokativ gaplarni ulardan farqlash zarurligini ta'kidlaydi hamda inkor, tasdiq, so'roq va emotsional tiplarga ajratib izohlaydi. R. Bobokalonov bu hodisani yangi nuqtayi nazardan yoritib, ularni "semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar" deb ataydi va ularning ikki tomonlama — lug'aviy-semantik hamda sintaktik-funksional tabiatini asoslaydi. Xulosa qilib aytganda, N.S.Valgina va V.V.Babaytseva nazariyalari o'zbek tilshunoslari qarashlari bilan uyg'unlashib, so'z-gaplarni mustaqil sintaktik kategoriya sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi. Ularning umumiy xususiyati — gap bo'laklariga bo'linmaslik, intonatsiya orqali grammatik maqom kasb etish va nutqda qisqa, ixcham, ammo to'liq kommunikativ yuklama bajarishdir. Bu esa so'z-gaplarning sintaksis va kommunikatsiya nazariyasida alohida o'rni borligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: so'z-gaplar; to'liqsiz gaplar; emotsional-baholovchi gaplar; sintaktik soddalik va bo'linmaslik; predikativlikning minimal shakli; dialogik nutqdagi ixchamlik; ellipsis hodisasi; kontekstual va situativ nutq; semantik butunlik; pragmatik funksiyalar; ekspressivlik va uslubiy rang-baranglik; kommunikativ samaradorlik.

Kirish

Gap sintaksisi masalalari tilshunoslikning eng qadimiy va barqaror muammolaridan biri bo'lib, uning chegaralari, minimal birliklari hamda grammatik va kommunikativ mohiyati haqida turli qarashlar mavjud. An'anaviy grammatikada gap ikki bosh bo'lak asosida qurilishi shart bo'lgan sintaktik birlik sifatida talqin qilingan. Biroq real nutq amaliyoti bu tasnifdan tashqarida

qoladigan ko‘plab birliklarni namoyon etadi. Shunday hodisalardan biri — so‘z-gaplar va to‘liqsiz gaplardir.

Rus tilshunosligida bu masala keng muhokama qilingan. V.V. Babaytseva so‘z-gaplarni mustaqil sintaktik kategoriya sifatida talqin etib, ularning gap bo‘laklariga ajralmasligini asoslaydi. N.S.Valgina esa ularning pragmatik-kommunikativ mohiyatiga urg‘u berib, so‘z-gaplar gapning alohida bo‘laklariga ajralmaydi va nominatsiya vazifasini bajarmaydi, chunki ular hech narsani atamaydi. Demak, rus tilshunoslari fikricha, so‘z-gaplarning sintaktik hodisa sifatida mavjudligi shubhasizdir.

O‘zbek tilshunosligida ham ushbu masala ko‘plab izlanishlarga sabab bo‘lgan. E. Shodmonov so‘z-gaplarni predikativlik va intonatsiyaga asosanib izohlagan bo‘lsa, B. O‘rinboyev ularning gap bo‘laklariga bo‘linmasligini hamda emotsional va modal yuklamasini alohida ta’kidlagan. R. Bobokalonov esa so‘z-gaplarni semantik-funksional birlik sifatida talqin qilib, ularning nafaqat sintaktik, balki uslubiy jihatdan ham muhimligini ko‘rsatgan.

Shunday qilib, so‘z-gap va to‘liqsiz gaplarni tadqiq etish nafaqat sintaksis doirasidagi nazariy qarashlarni boyitadi, balki tilning muloqotiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ayniqsa, dialogik nutqda ular tabiiylik, ixchamlik va emotsionallikni ta’minlovchi vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola ushbu birliklarning turli tillardagi tadqiqini qiyosiy tahlil qilish, ularning o‘ziga xos sintaktik va pragmatik vazifalarini yoritishga qaratilgan.

Tilshunoslik nazariyasida gapning chegarasi va uning minimal tarkibini aniqlash masalasi har doim bahsli bo‘lib kelgan. An’anaviy tasnifda gap ikki asosiy turga — ikki bosh bo‘lakli va bir bosh bo‘lakli gaplarga bo‘linadi. Biroq zamonaviy sintaksisda gapning boshqa ko‘rinishlari ham mavjudligi qayd etilgan. Jumladan, **so‘z-gaplar** va **to‘liqsiz (elliptik) gaplar** alohida struktur-semantik hodisa sifatida ajratib ko‘rsatiladi.

Rus tilshunosligida bu masalani chuqur tadqiq qilgan N.S.Valgina V.V.Babaytseva va boshqa olimlarning ishlari shuni ko‘rsatadiki, so‘z-gaplar odatiy sintaktik qurilmalar doirasiga sig‘maydi. Ular na ikki bosh bo‘lakli, na bir bosh bo‘lakli gaplarga kiritilishi mumkin. Chunki so‘z-gaplar tarkibida ajratib ko‘rsatiladigan sintaktik bo‘laklar mavjud emas, ular mustaqil nominatsiya qilmaydi, balki **rozilik, inkor, taajjub, buyruq, emotsional munosabatni** ifodalaydi. Ushbu xususiyatlari tufayli so‘z-gaplar, asosan, **dialogik nutqda** qo‘llanib, jonli muloqotning tabiiyligi va emotsional rang-barangligini ta’minlaydi.

To‘liqsiz gaplar esa boshqa hodisani anglatadi. Ular grammatik strukturada muayyan bo‘shliqlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi: gapning bosh yoki ikkinchi darajali bo‘laklari bevosita aytilmasa-da, ular **kontekst yoki nutqiy vaziyatdan anglashiladi**. Shu bois to‘liqsiz gaplar, bir tomondan, **kontekstual** (matnning oldingi yoki keyingi qismiga tayanadigan), ikkinchi tomondan, **situativ** (nutqiy vaziyat bilan to‘ldiriladigan) turlarga bo‘linadi. Bu hodisalar matnning izchilligini, nutqning ixchamligi va tabiiyligini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, ellipsis va to‘liqsizlik fenomenlari ayniqsa **dialogik nutqda** kuchli namoyon bo‘ladi. Suhbat jarayonida ma’lum ma’nolar nutqdan chiqarib tashlanadi, biroq ular suhbatdosh uchun tushunarli bo‘lib qoladi. Masalan, savol-javoblarda “— Ты кто такой? — Проходящий...” kabi qisqartirilgan gaplar fikrni tez, ixcham va kommunikativ jihatdan samarali yetkazishga yordam beradi.

Shu tariqa, so‘z-gap va to‘liqsiz gaplar **struktur jihatdan o‘ziga xos, kommunikativ jihatdan esa faol ishlatiladigan sintaktik birliklar** hisoblanadi. Ularni o‘rganish tilning muloqotiy imkoniyatlarini ochish, shuningdek, badiiy nutqda obrazlilik va ekspressivlikni tahlil

etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola ana shunday nazariy asoslardan kelib chiqib, soʻz-gap va toʻliqsiz gaplarning lingvistik tabiatini, ularning turli nutqiy sharoitlarda tutgan oʻrnini hamda stilistik vazifalarini tadqiq etishga qaratilgan.

Soʻz-gaplarning qoʻllanish doirasi va ularning grammatik tabiati turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlarda izohlangan. Masalan, yuqoridagi matnda qayd etilganidek, undovlar va partikulyar birliklarning bir boʻlakli gaplarda qoʻllanishi ularni toʻliqsiz gaplar qatoriga emas, balki soʻz-gaplar sifatida koʻrib chiqish zarurligini koʻrsatadi. Masalan, A. Chexovning *“Naxlebniklar”* asarida berilgan: *“— Von! — zakrichal on, — Von iz moego doma!...”* misolida *“Von!”* soʻzi mustaqil gap maqomiga ega boʻlib, *“Uzoqlash!”*, *“Ket!”* kabi feʻl-gaplarning maʼnodosh ekvivalenti sifatida chiqadi. Demak, soʻz-gaplarning semantik qiymati koʻpincha kengroq, ular nutqiy vaziyatda maʼlum bir soddalashtirilgan, lekin pragmatik jihatdan toʻliq ifodaviy birlik vazifasini bajaradi.

Shuningdek, soʻz-gaplarning morfologik belgilari ham diqqatga sazovordir: ular, odatda, modal soʻzlar, undovlar va partikulalardan tarkib topadi. Bu birliklar orqali fikr, his-hayajon yoki iroda ifodalanadi. Ammo tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, mazkur belgi oʻquv qoʻllanmalarida qayd etilgan boʻlsa-da, izchil qoʻllanilmagan. Masalan, N.S. Pospelov sifat-emosional soʻz-gaplarni (*Nevejstvo! Krasota!*), E.M. Galkina-Fedoruk esa vokativ gaplarni, A.N. Gvozdev esa *“Chay da saxar!”*, *“Xleb da sol!”* kabi tarixiy boʻlinuvchilik alomatlarini saqlagan gaplarni soʻz-gaplar jumlasiga kiritadi.

Emotsional-baholovchi gaplar alohida toifa sifatida oʻrganiladi. Ular oʻzining leksik-morfologik tarkibiga koʻra turlicha boʻlsa-da, umumiy semantik vazifasi — hodisa yoki voqelikni baholashdir. Bu yerda emotsional baholash *“Chudesno! Izumitel’no!”* kabi sifatlar bilan ham, *“Nevejstvo! Krasota!”* kabi otlar orqali ham ifodalanadi. Bunday gaplar, odatda, kontekst bilan uzviy bogʻliq boʻladi, yaʼni ular mustaqil ravishda emas, balki oldingi voqeaga yoki kuzatilayotgan hodisaga berilgan munosabatni ifodalaydi. Shu jihatdan, ular koʻpincha toʻliqsiz ikki boʻlakli gaplar bilan aralashib ketadi.

Ammo farq shundaki, toʻliqsiz gaplar nutqiy vaziyatda tiklanishi mumkin boʻlgan, grammatik struktura jihatidan boʻlinadigan birliklar hisoblanadi. Masalan: *“Qachon kelding? — Kecha”* kabi misolda ikkinchi gap aslida *“Men kecha keldim”* toʻliqlashuvi mumkin boʻlgan konstruksiyadir. Soʻz-gaplar esa morfologik tabiatiga koʻra boʻlinmaydi, ularning semantik butunligi yagona soʻzning nutqiy kuchida mujassam boʻladi (*“Ha!”*, *“Yoʻq!”*, *“Voy!”*, *“Eh!”*, *“Albatta!”*).

Matnda alohida urgʻu berilganidek, vokativ gaplar (*“Ey doʻst!”*, *“Aziz ustoz!”*) morfologik va sintaktik belgilariga koʻra soʻz-gaplar qatoriga kiritilmaydi. Chunki ularda asosiy boʻlak ot yoki olmosh bilan ifodalanib, qoʻshimcha aniqlovchilar bilan kengayishi mumkin. Bu ularning morfologik-sintaktik jihatdan boʻlinuvchanligini koʻrsatadi.

V.V. Babaytseva esa bu borada alohida eʼtibor qaratib, soʻz-gaplarni **gap boʻlaklariga boʻlinmaydigan, ammo muloqot jarayonida mustaqil predikativlik kasb etuvchi birliklar** sifatida taʼriflaydi. Uning fikricha, soʻz-gaplar til tizimida fikrning ixcham, emotsional va vaziyatga mos shaklini taʼminlab, nutqda tezkorlik va taʼsirchanlikni oshiradi. Babaytseva ularni aynan shu boʻlinmaslik xususiyati orqali toʻliqsiz gaplardan ajratadi.

Oʻzbek tilshunosligida soʻz-gaplar masalasi E.Shodmonov va B.Oʻrinboyev, R. Bobokalonov tadqiqotlari asosida atroflicha yoritilgan. E.Shodmonov soʻz-gaplarni alohida sintaktik kategoriya sifatida qarab, ularning morfologik asosi, predikativlik, modallik va intonatsiya bilan bogʻliq jihatlarini ilmiy asosda tahlil qiladi. U, ayniqsa, soʻz-gaplarning dialogik nutqqa xosligini, ularning shakllanishida kontekst, situatsiya va mimikaning oʻrnini

muhim deb hisoblaydi. Olimning fikricha, intonatsiya so‘z-gaplarni gap sifatida belgilaydigan yetakchi mezon hisoblanadi.

B. O‘rinboyev esa so‘z-gaplarning mohiyati, grammatik belgilari, ma’no turlari va strukturasi

haqidagi muhim ilmiy xulosalari bilan mazkur masalaning o‘rganilishiga hissa qo‘shgan. Shuningdek, Shodmonov modal so‘zlarning so‘z-gaplar bilan bog‘liq holatini ikki turga ajratish zarurligini ta’kidlab, ularning semantik ma’nolarini hisobga olish masalasini ilgari surgan.

R. Bobokalonov so‘z-gaplarning o‘ziga xos belgilarini aniqlab, ularni boshqa leksik birliklardan farqlab beradi. Olimning ta’kidlashicha, so‘z-gaplar mazmuniy tizimida doimo o‘ziga xos sememaga ega bo‘lib, unda kesimlik ma’nosi mujassam bo‘ladi. Bu jihat ularni oddiy leksik birliklardan ajratib turadi, chunki boshqa so‘zlarda kesimlik ma’nosi grammatik vositalar orqali ifodalanadi.

Demak, Bobokalonov ta’rifida so‘z-gaplar tilning leksik va grammatik sathlari o‘rtasida o‘ziga xos o‘rin egallovchi, semantik va sintaktik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi birlik sifatida talqin etiladi.

Xulosa qilib aytganda, so‘z-gap va to‘liqsiz gaplarni tadqiq etish nafaqat sintaksis doirasidagi nazariy qarashlarni boyitadi, balki tilning mulqotiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ayniqsa, dialogik nutqda ular tabiiylik, ixchamlik va emotsionallikni ta’minlovchi vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola ushbu birliklarning turli tillardagi tadqiqini qiyosiy tahlil qilish, ularning o‘ziga xos sintaktik va pragmatik vazifalarini yoritishga qaratilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Бабайцева В.В. Избранное. 1955 – 2005: Сборник научных и научно-методических статей / Под ред. проф. К.Э. Штайн. –М., – Ставрополь: Издательство СГУ, 2005. –С. 103-114.
2. Бобокалонов Р.Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 63.
3. Валгина, Н.С. Современный русский язык: Синтаксис: Учебник/ — 4-е изд., испр. — М.: Высш. шк., 2003 — С.191.
4. Шодмонов Э. Ҳозирги замон ўзбек тилида сўз-гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1970. – Б. 50–61.
5. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. – Тошкент:Фан., 1974. – Б. 91

*Qo‘shbaqova Muhayyo Azamatovna,
doktorant,*

Samarqand davlat chet tillar instituti

tel.: +998330950705

e-mail: kushbakovamukhayyo@gmail.com

MATNDA KOHEZIYA VA KOGERENSIYA ELEMENTLARINING KOMMUNIKATIV FUNKSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada matnning kommunikativ yaxlitligini ta’minlovchi asosiy omillar — koheziya (grammatik va leksik bog‘liqlik) hamda kogerensiya (mazmuniy izchillik) elementlari tahlil qilinadi. Ushbu elementlarning turlari, lingvistik va pragmatik funksiyalari,

shuningdek, zamonaviy diskurs va kompyuter lingvistikasi doirasidagi ahamiyati yoritilgan. Matnning tushunarligi, izchilligi va axborot yetkazishdagi muvaffaqiyati, ko'p jihatdan, aynan shu ikki omilning uyg'unligiga bog'liq ekani asoslanadi.

Kalit so'zlar: koheziya, kogerensiya, kommunikativlik, matn yaxlitligi, diskurs tahlili, NLP, axborot oqimi.

Abstract. This article analyzes the key components that ensure the communicative integrity of a text — cohesion (grammatical and lexical connectivity) and coherence (semantic consistency). It explores the types, linguistic and pragmatic functions of these elements, as well as their significance within modern discourse analysis and computational linguistics. The clarity, consistency, and effectiveness of information delivery in a text largely depend on the interplay of these two factors.

Keywords: cohesion, coherence, communicativeness, text integrity, discourse analysis, NLP, information flow

Аннотация. В данной статье анализируются основные элементы, обеспечивающие коммуникативную целостность текста — когезия (грамматическая и лексическая связность) и когерентность (семантическая последовательность). Рассматриваются виды этих элементов, их лингвистические и прагматические функции, а также значение в контексте современного дискурсивного анализа и компьютерной лингвистики. Обосновано, что понятность, логичность и успешность передачи информации в тексте во многом зависят от гармоничного взаимодействия этих двух факторов.

Ключевые слова: когезия, когерентность, коммуникативность, целостность текста, дискурсивный анализ, НЛП, информационный поток

Hozirgi zamon tilshunosligida matnni nafaqat grammatika va leksika birliklari yig'indisi, balki kommunikativ jarayon sifatida tahlil qilish tendensiyasi kuchaymoqda.[1,342] Matnning mazmunan yaxlitligi va shaklan bog'liqligi uning kommunikativ muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardandir.[2,389] Shu nuqtayi nazardan, koheziya (grammatik va leksik bog'liqlik vositalari) va kogerensiya (mazmuniy va mantiqiy izchillik) elementlarini o'rganish tilshunoslikda muhim masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.[3,297] Koheziya va kogerensiya tushunchalari asosan matnning struktura va mazmun darajasidagi bog'liqligini ta'minlovchi vositalar sifatida qaraladi. Matnning shakliy tuzilishi koheziv elementlar orqali, mazmuniy izchilligi esa kogerent vositalar yordamida amalga oshadi. Bu ikki omil o'zaro uyg'un holda matnning kommunikativ funksiyalarini – ya'ni axborot uzatish, ta'sir ko'rsatish va o'rgatish kabi vazifalarini samarali bajarishiga xizmat qiladi.

Matn tahlilida faqat sintaktik yoki leksik birliklarni emas, balki bu birliklar o'rtasidagi munosabatlar tizimini aniqlash zarurati zamonaviy lingvistikada, ayniqsa diskurs tahlili, pragmatika, psixolingvistika va kompyuter lingvistikasida o'z ifodasini topmoqda. Ayniqsa sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlarida matnning koheziv va kogerent xususiyatlarini aniqlash, ularni modelga kiritish kommunikativ samaradorlikni oshirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada matndagi koheziya va kogerensiya elementlarining turlari, ularning lingvistik va pragmatik funksiyalari, shuningdek, kommunikativ jarayondagi o'rni xolis va tizimli yoritiladi. Asosiy e'tibor ularning matnning tushunarli, mantiqan izchil va kommunikativ jihatdan samarali bo'lishidagi rolga qaratiladi. Matnning ichki tuzilishini bog'lab turuvchi vositalar orasida koheziya (yopishqoqlik, yaxlitlikni ta'minlovchi shakliy vositalar) alohida o'rin tutadi. Koheziya, ingliz tilshunosligida *cohesion* atamasi bilan yuritilib, M. A. K. Halliday va R. Hasan tadqiqotlarida atroflicha tahlil qilingan.[4,135] Ular koheziya vositalarini matnning formal sathida ko'rinadigan grammatik va leksik bog'liqliklar tizimi sifatida talqin qiladilar.

Koheziya elementlari matndagi gaplar va iboralarni o‘zaro grammatik va semantik jihatdan bog‘laydi. Ular quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

Referens (ko‘rsatish vositalari): olmoshlar, artikllar, ko‘rsatkichlar orqali matnning oldingi yoki keyingi qismiga ishora qilish. Masalan: *Ali maktabga keldi. U juda erta kelgan edi.*

Substitutsiya (almashtirish): bir birlikni boshqa birlik bilan almashtirib, takrorning oldi olinadi. Masalan: *Men kitob o‘qidim. Boshqalari ham shunday qilishdi.*

Ellipsis (tushirib qoldirish): takrorlanuvchi birlikni tushirib qoldirish orqali qisqa va aniq ifoda hosil qilish. Masalan: *Men kinoga bordim, u esa (kinoga) bormadi.*

Konnektorlar (bog‘lovchilar): gaplar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi: *lekin, shuning uchun, biroq* va h.k.

Leksik koheziya: sinonimiya, antonimiya, repetitsiya, assotsiativ munosabatlar orqali yuzaga chiqadi.

Koheziya elementlari matnda strukturaviy uyg‘unlikni yaratadi va o‘quvchiga axborotni tizimli va tushunarli tarzda qabul qilish imkonini beradi. Ular, aslida, matnning “suyak sistemi” bo‘lib, gaplar va fikrlar ketma-ketligini bir butun kontekst ichida uyg‘unlashtiradi. Koheziya, tilshunoslar fikricha, faqat shakliy bog‘liqlik emas, balki nutq egasi bilan auditoriya o‘rtasidagi axborot oqimini boshqaruvchi mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi.[5,356] Ayniqsa, og‘zaki nutqda koheziya vositalari eshituvchining e‘tiborini yo‘naltirish, muhim axborotni ajratib ko‘rsatish, kontekstni aniqlashtirish kabi vazifalarni bajaradi. Matnning kommunikativlik darajasi, ko‘p hollarda, undagi koheziya vositalarining joyida va to‘g‘ri qo‘llanganiga bog‘liq bo‘ladi. Bu jihat, ayniqsa, pedagogik matnlar, siyosiy chiqishlar va diplomatik nutqlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuningdek, NLP tizimlarida matnlarni avtomatik tahlil qilishda koheziya elementlari asosida matn segmentatsiyasi, kontekstni aniqlash, savol-javob tizimlarini optimallashtirish kabi jarayonlar amalga oshiriladi.

Agar koheziya matnning tashqi sathidagi grammatik va leksik bog‘liqlikni ta‘minlasa, kogerensiya esa matnning ichki, mazmuniy izchilligini tashkil etadi.[6,248] Kogerensiya (inglizcha *coherence*) — matn qismlari o‘rtasida mantiqiy, semantik, va konseptual bog‘liqlik mavjudligini bildiradi. Bu bog‘liqlik o‘quvchi yoki eshituvchining matnni tushunish jarayonida hosil bo‘ladi. Tilshunoslikda kogerensiya tushunchasi ko‘proq psixolingvistik va pragmatik yondashuvlar doirasida izohlanadi.[7,292] Unga ko‘ra, matnning har bir segmenti o‘zidan oldingi yoki keyingi segment bilan mazmuniy muloqotda bo‘ladi. Masalan: *U darsga kech keldi. O‘qituvchi undan sababini so‘radi.* Bu yerda har ikki gap alohida aytilganda mustaqil bo‘lishi mumkin, biroq birgalikda ular bitta mantiqiy kontekst hosil qiladi – bu kogerensiyadir. Kogerensiya quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: Mantiqiy kogerensiya – voqealar yoki fikrlar ketma-ketligidagi sabab-oqibat, shartli yoki qarama-qarshi munosabatlar orqali yuzaga keladi.

Tematik kogerensiya – butun matn davomida bitta mavzu yoki asosiy g‘oyaning saqlanishi.

Referensial kogerensiya – matnning turli qismlarida bir ob‘ekt yoki shaxsga tegishli ishoralarning mantiqiy izchillikda qo‘llanishi.

Intensional kogerensiya – matnning muallifga xos niyati, bahosi va pozitsiyasining izchil aks etishi.

Kogerensiya matnning semantik yaxlitligini ta‘minlab, o‘quvchiga axborotni nafaqat tushunish, balki uni kontekstual jihatdan talqin qilish imkonini beradi. Ayniqsa, dialogik nutq, ilmiy matnlar, publitsistik va reklama janrlarida kogerensiyaning roli beqiyosdir. Bu holatda kogerensiya matnni o‘quvchi uchun mantiqan tushunarli va izchil qiladi. Kogerensiya ko‘pincha ochiq ifodalanmaydi; u ko‘proq kognitiv jarayonlar, ya‘ni o‘quvchining tajribasi, bilimi va

intuitsiyasiga tayangan holda hosil bo‘ladi.[8,59] Shu bois, yaxshi tashkil etilgan matn o‘z-o‘zidan “kuchli” kogerensiyaga ega bo‘ladi. Zamonaviy kompyuter lingvistikasi tizimlarida, xususan, koherens analiz, diskurs segmentatsiyasi va avtomatik matn yozish kabi sohalarda kogerensiyani modellashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Koheziya va kogerensiya – matn yaxlitligi va izchilligini ta‘minlaydigan ikki asosiy element bo‘lib, ular matnning nafaqat strukturaviy, balki kommunikativ sifatini ham belgilaydi. Bu ikki tushuncha ko‘pincha bir-biriga bog‘liq holda yoritiladi, biroq ular o‘rtasida muhim farqlar mavjud. Koheziya elementlari mavjud bo‘lib, ammo kogerensiya yetarli bo‘lmasa, matn grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, lekin o‘quvchiga mazmun tushunarsiz bo‘ladi. Aksincha, ba’zida kogerensiya kuchli bo‘lsa-da, koheziya yetarlicha bo‘lmasa, matn chala yoki noaniq tuyuladi. Masalan: *U kutubxonaga kirdi. So‘nggi maqolani topishga umid qildi.* Bu yerda koheziya vositalari kam (olmoshlar, bog‘lovchilar ishlatilmagan), ammo kogerensiya (mantiqiy bog‘liqlik) mavjud: birinchi gapdagi sub’ekt va ikkinchi gapdagi harakat mantiqan bog‘langan. Koheziya va kogerensiya birgalikda matnning kommunikativ yaxlitligini ta‘minlaydi. Koheziya matnning tashqi bog‘lovchi “skeleti”ni yaratadi, kogerensiya esa mazmuniy “jon”ni beradi. Yaxshi matn – bu ikki elementning muvozanatli uyg‘unligidir.

Tilshunos T. A. van Deyk va U. Kinch nazariyalarida bu ikki birlik matnni semantik tarmoq sifatida qabul qilishda asosiy omillardan biri sifatida ko‘riladi.[9,173] Ular matnni faqat grammatik birliklar zanjiri emas, balki kognitiv va pragmatik struktura deb baholaydilar. Zamonaviy NLP modellarida (masalan, transformer arxitekturasi asosidagi tizimlarda) matnning koheziyasi maxsus belgilar va so‘zlar zanjiri orqali aniqlansa, kogerensiya esa matn segmentlari o‘rtasidagi semantik aloqalar asosida modellashtiriladi.[10,263] Koheziya va kogerensiya birgalikda matnning kommunikativ aniqligi va mazmuniy izchilligini ta‘minlaydi. Ular alohida ko‘rilsa, to‘liq matn yaxlitligi hosil bo‘lmaydi; integratsiyalashgan holda esa axborot aniq, silliq va tushunarli uzatiladi. Misol: *Oybek mashinani haydab ketdi. U juda shoshilayotgan edi.* Bu yerda “u” so‘zi koheziya (referensiya), harakatlar izchil berilishi esa kogerensiyani bildiradi. Ikkisi uyg‘un bo‘lib, muloqot samaradorligini oshiradi. Kommunikativ jihatdan qaralganda: Koheziya – til vositalari orqali bog‘laydi, Kogerensiya – g‘oyaviy mantiqni saqlaydi. Zamonaviy tilshunoslikda matnni tahlil qilishda bu ikki unsur integratsiyasi kommunikativ model asosida ko‘riladi: matn → kodlash → uzatish → qabul qilish → tushunish.

Matnning kommunikativ samaradorligi, avvalo, uning ichki va tashqi bog‘liqlik darajasiga - ya’ni koheziya va kogerensiyaga bog‘liq. Koheziya matndagi grammatik va leksik vositalar orqali sathiy izchillikni ta‘minlasa, kogerensiya esa mazmuniy, mantiqiy bog‘liqlik orqali o‘quvchi tafakkurida yaxlit manzara hosil qiladi. Ushbu ikki element birgalikda ishlaganda matn to‘liq muloqot birligiga aylanadi: g‘oya aniq, izchil va tushunarli tarzda ifodalanadi. Tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi doirasidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, matn birliklarini samarali identifikatsiyalash va tushunish aynan shu ikki omilning uyg‘unligiga bog‘liq. Shu bois, matn tahlilida koheziya va kogerensiyaning integratsiyasi, ularning kommunikativ vazifasi nuqtai nazaridan yondashuv zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridandir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Beaugrande, Robert-Alain, and Wolfgang Dressler. *Introduction to Text Linguistics*. London: Longman, 1981.
2. De Beaugrande, R. A. “Text, Discourse and Process.” In *Text and Discourse Theory*, 173–188. London: Longman, 1997.
3. Halliday, M. A. K., and Ruqaiya Hasan. *Cohesion in English*. London: Longman, 1976.

4. Hasan, Ruqaiya. "Cohesion, Coherence and the Contribution of the Text." *Linguistics and Education* 5, no. 3 (1993): 263–280.
5. Sanders, Ted, and Eve Sweetser, eds. *Causal Categories in Discourse and Cognition*. Berlin: Mouton de Gruyter, 2009.
6. Tanskanen, Sanna-Kaisa. *Collaborative Conversation in English: The Pragmatics of Dialogue*. Amsterdam: John Benjamins, 2006.
7. van Dijk, Teun A. *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
8. van Dijk, Teun A., and Walter Kintsch. *Strategies of Discourse Comprehension*. New York: Academic Press, 1983.
9. Vaswani, Ashish, Noam Shazeer, Niki Parmar, Jakob Uszkoreit, Llion Jones, Aidan N. Gomez, Łukasz Kaiser, and Illia Polosukhin. "Attention Is All You Need." *Advances in Neural Information Processing Systems* 30 (2017): 5998–6008.
10. Widdowson, H. G. "The Deep Structure of Discourse." *Language and Literature* 4, no. 2 (2005): 135–147.

Rabbimova Gulchehra Toyir qizi,
Samarqand davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrası
ilmiy-tadqiqotchisi
 Tel: +998902969923
 gulchehraqoshmonova@gmail.com

MILLIY TIL KORPUSI LINGVISTIK TA’MINOTI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. Mazkur tezisda so‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida yil sayin rivojlanib borayotgan yangi yo‘nalish – korpus lingvistikasining ahamiyati, lingvistik ta‘minot masalasi, olib borilayotgan tadqiqotlar haqida umumiy fikr-mulohazalar beriladi.

Tayanch so‘zlar. Korpus lingvistikasi, korpus, lug‘at, milliy korpus, lingvistik ta‘minot, olmosh.

Olmoshlarning morfologik xususiyatlari ularning til tizimidagi o‘rnini belgilaydi. Ular shaxs, son, kelishik va egalik kabi grammatik kategoriyalarni ifodalaydi hamda gapda turli sintaktik vazifalarni bajaradi. Bu xususiyatlar olmoshlarni o‘zbek tili grammatikasining muhim bo‘g‘iniga aylantiradi. Ularning tahlili nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy grammatikada ham dolzarb ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda olmoshlar korpus lingvistikasi asosida ham o‘rganilmoqda. O‘zbekiston milliy til korpusida (uzbekcorpora.uz) olmoshlar PRON yoki olm. belgisi bilan ajratiladi. Korpus asosida ularning matnlarda ishlatilish chastotasi, morfologik shakllari va kontekstual funksiyalari tadqiq qilinmoqda. Bu esa zamonaviy tilshunoslik uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Olmoshlar o‘zbek tili grammatik tizimida asosiy so‘z turkumlaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega. Ularning morfologik shakllari, semantik turlari va sintaktik funksiyalarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy tilshunoslik uchun ham dolzarbdir. Ayniqsa, zamonaviy korpus lingvistikasida olmoshlarning roli va ishlatilish xususiyatlarini aniqlash til tizimini chuqur tahlil qilishga imkon beradi.

Til korpusini shakllantirishda tilshunosning roli aniq nazariy maqsadni qo‘ya bilishida, vazifalarni aniq shakllantirishida, qanday va qancha hajmdagi materialdan foydalanish haqida qaror qabul qilish, to‘plangan materialni saralash, dastur ishining oraliq natijalarini baholash,

zarurat tug‘ilganda maqsad va vazifalarni tahrir qilish, xulosa qilish hamda natijalarni tavsiflashdan iboratdir. Dasturchi esa aniq masalalarga javob topish uchun vositani tanlaydi, dastur tuzadi va tahrir qiladi, lingvistga ishonarli ko‘rsatkichlarni taqdim qiluvchi statistikani amalga oshiradi.

O‘zbek tilining milliy korpusini shakllantirish va boyitish filologlar tomonidan dasturchilar yordamida amalga oshiriladi. Shunisi ham borki, filolog ma’lumotlar bazasi, lingvistik ta’minot, annotatsiyalash, razmetkalash, morfologik, sintaktik, semantik razmetka tushunchalari haqida muayyan bilimga ega bo‘lishi lozim. O‘z navbatida, dasturchi ham morfologik, sintaktik, grammatik shakl, semantik analiz, lug‘aviy ma’no, matn, grammatik ma’no, ilmiy, rasmiy, publisistik stil xususiyatlari haqida bilishi lozim. Korpus lingvistikasida Samarqand davlat universiteti tilshunos olimlari va Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali olimlari tomonidan ishlab chiqilgan o‘zbek tili milliy korpusi – uzbekcorpora.uz dasturida morfologik razmetkalash quyidagi model va teglarga asosan amalga oshirilgan:

Morfologik razmetkalashning lingvistik teglari

Olmosh = [olm.]

I. Ma’nosiga ko‘ra:

- a. kishilik = [kish.olm.];
- b. ko‘rsatish = [ko‘r.olm.];
- c. o‘zlik = [o‘z.olm.];
- d. belgilash = [belg.olm.];
- e. gumon = [gum.olm.];
- f. so‘roq = [so‘r.olm.];
- g. bo‘lishsizlik = [b-siz.olm.].

II. Tuzilishiga ko‘ra turi:

- a. sodda olmosh = [sod.olm.];
- b. qo‘shma olmosh = [qo‘sh.olm.];
- c. juft olmosh = [juft_olm.];
- d. takror olmosh = [tak.olm.].

Olmoshlar o‘zbek tilining muhim va funksional jihatdan faol qatlamlaridan biri. Ular nafaqat semantik yuklamasi, balki morfologik va sintaktik holatlari bilan ham tilshunoslikda chuqur o‘rganilayotgan so‘z turkumidir. Zamonaviy tilshunoslik, xususan korpus lingvistikasi asosida olmoshlarning tahlili fan uchun dolzarb masalalardan biri sanaladi. Shuningdek, ilmiy izlanish o‘zbek tilida olmosh so‘z turkumining milliy korpus uchun morfologik razmetkalangan (teglangan) tahlilini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda olmoshlarning turlari, ularning sintaktik vazifalari, korpusga mos belgilash mezonlari, morfologik atributlar va ularni avtomatik teglashdagi muammolar tahlil qilinadi. Morfologik jihatdan olmoshlar ot yoki sifatga o‘xshash bo‘lib, egalik va kelishik qo‘shimchalarini oladi ya’ni turlana olish imkoniyatiga ega. Milliy korpusda olmoshlarning o‘rni salmoqli. Milliy korpus -janridan qat’iy nazar tilning milliy boyliklari jamlangan elektron qidiruv tizimi. [1. 39]. Olmoshlar milliy korpusda gapning strukturasi, shaxslararo munosabatlar va kontekstual bog‘lanishni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ular matnlarning sintaktik va semantik tahlili uchun tayanch birliklardan biri hisoblanadi. Korpusda ularni aniqlash, morfologik atributlar bilan teglash va sintaktik munosabatlarda joylashtirish zarur. Quyida tekshirish vositasi sifatida Abdulla Qahhorning “Daxshat” hikoyasining bir qismi tanlandi. Natija dasturda quyidagicha aks etdi:

Dodxo darchani zichlab yopib, joyiga o'tirib tasbeh o'g'irishga kirishdi. Uning barmoqlari tasbeh donalarini tez-tez o'tkazayotgan bo'lsa ham, qulog'i g'uvillayotgan shamolda, xayoli go'ristonda edi: "Hozir go'riston qanaqa vahimali bo'lsa ekan..."

O'zbek go'ristoni o'zi xunuk, buning ustiga, go'riston haqida aytilmagan xunuk gap, to'qilmagan vahimali mish-mish qolgan emas. Haqiqatan, bunday kechalarda go'riston esiga tushgan har qanday odam, ayniqsa, dodxo singari payg'ambar yoshidan oshib, kafanligini sandiqqa solib qo'ygan kishi o'lishdan ham ko'ra go'ristonda yotishini o'ylaganida tiligacha sovuq ter chiqaradi.

Dodxo boshidan go'riston xayolini chiqarib tashlash uchun tasbehini qo'yib undan-bundan gapirgan bo'ldi, lekin hech kim bu gaplarga gap ulamadi. [2. 48].

Avtomatik teglashdagi murakkabliklar

Olmoshlar kontekstga bog'liq holda o'zgaruvchan bo'lishi mumkinligi sababli ularni avtomatik aniqlash va teglashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Masalan, "o'zi" so'zi har doim o'zlik olmoshi bo'lmasligi mumkin, u sintaktik konstruksiyada o'zgara oladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan korpus bazasiga faqatgina bitta o'z so'zi kiritiladi va bu so'z olmosh turkumiga mansub lemma sifatida razmetkalanadi. U matnda qanday ma'noni ifodalashidan qat'iy nazar olmosh sifatida namoyon bo'laveradi. Sababi hozircha korpus faqat shakl jihatidan matnlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega, bizningcha. Yuqoridagi kontekstda keltirilgan o'zi so'zi ham aslida ma'noni kuchaytirishga xizmat qilayotgan bo'lishiga qaramasdan o'z shaklida qidiruv berilganda uni oddiygina olmoshning bir turi sifatida ta'riflaydi.

Qanaqa –

so'roq = [so'r.olm.];

sodda olmosh = [sod.olm.].

Bunday –

ko'rsatish = [ko'r.olm.];

sodda olmosh = [sod.olm.].

Undan-bundan –

ko'rsatish = [ko'r.olm.];

takror olmosh = [tak.olm.].

Tilshunosligimizda har + so'roq olmoshlari yoki hech + so'roq olmoshlari belgilash va bo'lishsizlik olmoshi sifatida belgilab kelinadi. Lekin dastur matndagi faqatgina har va hech so'zlarini o'zinigina taniy oladi. Birikma holatdagi olmoshlarni umumiy holatda olib, olmosh deb aks ettirmaydi. Masalan, yuqoridagi matn parchasida keltirilgan har qanday va hech kim olmoshlarini alohida teglaydi va izoh beradi.

Olmoshlar morfologik jihatdan murakkab bo'lmasa-da, ularning kontekstual funksiyasi va ko'p ma'noliligi sababli milliy korpusda alohida e'tibor bilan teglanishi zarur. Zamonaviy korpus texnologiyalarida ularni aniq identifikatsiya qilish uchun sun'iy intellekt va mashinaviy avtomatik o'rganish yondashuvlari joriy etilmoqda. Bu, ayniqsa, stilistik va sintaktik munosabatlar tahlilida juda muhim qism sanaladi. Til korpuslari doirasida olmoshlarning avtomatlashtirilgan tahlili ularning shakliy va ma'noviy jihatlarini aniq belgilashni talab etadi. Bu esa avtomatik morfologik tahlilda noaniqliklarga olib keladi. Shu bois, olmoshlarning korpus lingvistikasi doirasida chuqur tahlili, ularni aniq belgilash va klassifikatsiya qilish korpus sifatini belgilovchi muhim omillardandir. Hozirgi zamon lingvistikasi, ayniqsa, hisoblash tilshunosligi va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) yo'nalishlarida olmoshlarning aniqligi va funksional yuklamasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, korpuslar tuzishda olmoshlar uchun

maxsus belgilar tizimini ishlab chiqish, ularning kontekstual rolini aniqlash va avtomatik tahlil vositalari orqali modelga kiritish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хамроева Ш.М. Корпус лингвистикаси атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Камалак, 2018.
2. Qahhor A. Anor. – Toshkent, 2021.

**Sotvoldiyeva Sadoqat,
QDU, mustaqil tadqiqotchi**

AYOLLAR SHE'RIYATIDA ANTROPOETONIMLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada ayollar she'riyati badiiy tilining ayrim bir xos xususiyati borasida so'z yuritilgan. Unda xotin-qizlar she'riyatida istifoda etilgan antroponimlar haqida so'z borib, adabiy taxallus, talmeh, allyuziya bo'lgan leksemalarning lingvopoetik vazifasi to'g'risida mulohaza bildirilgan. Zikri borgan poetik vositalar ayollar she'riyatida qay tariqa rol o'ynab, erkaklar she'riyatida ham badiiy vosita bo'lgan bu usullar bilan qanday mushtaraklik va tafovutlar kasb etishiga e'tibor qaratilgan. Shu jarayonda antroponimlarning ayollar she'riyatidagi vazifasi asosan mualliflar dunyoqarashi, hasbi holini badiiy aks ettirishda ishlatilishi, ayrim o'rinlarda an'anaviy timsolarning ruhiy kechinmalarini ta'sirchanlik fonida ochib berishiga xizmat qilishi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Badiiy til, lingvistika, poetika, lingvopoetika, antroponim, allyuziya, pretsident birlik, shoirlar nomi, taxalluslar, ittifoq, iyhom, timsollar, obrazli vositalar, metafora, obrazlilik, ta'sirchanlik, hazinlik, tagma'no, ma'nodoshlik, shakldoshlik, mahorat.

Bugungi kun tilshunosligida badiiy asarning lisoniy qatlami, bu qatlamning asarda shakllantirgan nafosatiyu fasohati, tarbiyaviy kuchi, adiblarning tildan, so'zdan ustalik bilan foydalanish yo'llari va natijalari individual nutqiy butunlik – badiiy matnni yuzaga keltirishini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Badiiy matnni ayni badiiy til aspektida tadqiq qilish muayyan asar sohibining tildan foydalanish mahoratini va muallifning bu orqali yuzaga chiqqan estetik didini, o'ziga xos uslubi va estetik idealini aniqlash imkonini yaratdi. Bu esa tilshunoslikda lingvopoetikaning fan sifatida to'la shakllanib, uning tadrijiy takomilini belgilashga sabab bo'ldi. Bir so'z bilan aytganda, badiiy matn tili, undagi mazmun va shakl munosabati, til birliklarining badiiylikni yuzaga chiqarishdagi vazifasi, estetik qimmatini hamda uning o'quvchiga emotsional ta'sirini o'rganish lingvopoetikaning asosiy vazifasiga aylandi.

O'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biri mumtoz va zamonaviy adabiyot ijodkorlari qalamiga mansub badiiy matnlarni lisoniy tadqiq qilishdan iborat bo'lar ekan, asarning lingvopoetik qatlamini o'rganish ham bardavom bo'laveradi. Buning ikki sababi bor: birinchisi, tilimizning ma'naviy jihatdan g'oyat serqatlam, sinonimlarga juda boyligi hamda serjiloligini ko'rsatish va unga muhabbat uyg'otish bo'lsa, ikkinchi tomondan, har bir qalamkashning dunyoqarashi, estetik didini, uslubi, tilning turfa ko'rinishlaridan foydalanish usulining turlicha ekanligini ilmiy tasdiqlashdan iborat bo'ldi. Bu jarayon, ayniqsa, antroponimlardan foydalanishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Lingvopoetikani nazariy va amaliy tomonlarini chuqur tadqiq qilgan f.f.d. prof. M.Yo'ldoshevning ko'rsatishicha, "lingvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashgan til

vositalarini aniqlash ham muhim tamoyillardandir. Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin”. [Yo‘ldoshev; 8 172] Shu jihatdan qaralganida, badiiy matnda onomastik birliklardan antroponimlarning badiiy vosita sifatidagi tadqiqi ham qalamkash mahoratini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Onomastik birliklarning lingvopoetikasini tadqiq qilgan D.Andaniyozovaning qayd etishicha ham, badiiy matndagi antroponimlar onomopoetikaning alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan qism hisoblanadi. Bu til birliklarini lingvopoetik yondashuv asosida o‘rganish orqali ijodkorning badiiy niyati va asar qatlamlaridagi yashirin ma’nolar teranroq anglanadi”. [Andaniyozova D.; 5, 42] Antroponimlarning matn qatlami bilan aloqadorligi tufayli, mutaxassislar buni “tagmatnli antroponim” atamasini qo‘llashni lozim topganlar. Yana D.Andaniyozovqa qarashiga ko‘ra, badiiy matndagi barcha antroponimlar muayyan bir xalqning ism qo‘yish madaniyati, uning mezon va maromlaridan xabar beradi. Ishimizga tekshirish ob‘ekti bo‘lib xizmat qilgan ayollar she‘riyatining mualliflarining nomlari ana shunday xususiyatdan xoli emas. Samar Bonu – muallif ismining birinchi qismi “samar” so‘zi arabcha bo‘lib, uning lug‘aviy ma‘nosi “meva”, “hosil”, “natija” ma‘nosini beradi. Ko‘chim qilinganida nutqda “samara” shaklida ishlatilib, bunda asosan “foйда”, “hosil”, “natija”, “naf” kabi ma‘nolarda qo‘llavnadi. “Befoyda” ma‘nosini beradigan “besamar” shakli ham bor: A.Oripov bir g‘azalida shu so‘zning “samar” shaklini ishlatgan va “naf” ma‘nosini bergan.: Yaxshi qol, ey dilbarim, dilda kadar ketmoqdaman, Ketmog‘imdin ushbu kun yo‘qtir samar ketmoqdaman. [Oripov;] “Bonu” so‘zi esa qizlar, asosan, obro‘-e‘tiborli oilaning qiz farzandlari nomiga izohlovchi sifatida qo‘shib aytilgan. Ayni chog‘da, bu so‘z shoira, otincha, quvvayi hofizasi bor, hofiz (qur‘oniy bilimga ega qoriya) qizlar ismiga qo‘shib aytiladi). Samar Bonuning taxallus sifatida shu so‘zni tanlagani bejiz emas ekan. Bonu ham ayrim g‘azallarining maqtasida shu so‘zni matn qatlamiga mazmun ifodalash niyatida ishlatgan: “Bu Bonu holiga rahm etmadi ul bag‘ri tosh dilbar”. [Bonu; 13, 215] Mazkur o‘rinda ishtibohga bormaslik kerak. Ya‘ni “dilbar” so‘zini faqat ma‘shuqa ma‘nosida anglamaslik lozim. Agar shunday tafakkur qilinsa, “Bonu” antroponimining ikkinchi – badiiylik va ta‘sirchanlikni yuzaga keltiruvchi funktsiyasi yo‘qoladi. Bu o‘rinda oshiq ma‘nosida tushunmoq o‘rinli. SHundagina mikromatndan “ana shunday komilaning holiga oshiq rahm etmadi”, degan ma‘no anglashiladi.

Dilshod Barno deyilganida ham, ana shunday ma‘no tafakkur qilinadi. “Dilshod” uning ismi. “Barno” - taxallusi. “Dilshod” – tojikcha so‘z. Lug‘aviy tomondan “xursand”, “shodmon”, “shodon”, “ko‘ngli chog” kabi ma‘nolarni bersa, “barno” – “go‘zal”, “husndor”, “chiroyli”, “yosh yigit”, “navjuvon” demakdir. Ana shu ma‘nolar “Barno” antroponimini turli ma‘noviy aspektlarda qabul qilish imikonini beradi. Dilshodi Barnoning “Tanlangan asarlar”ida bir qator g‘azallar borki, ularning maqta’sida “Barno” antroponimi poetik so‘z sifatida “go‘zal”, “husndor”, “chiroyli” ma‘nolarida sifat so‘z turkumi bo‘lib keladi va ayni shu ma‘nosi bilan ham taxallus, ham sifatlash, ayrim o‘rinlarda boshqa turkumga mansub poetik so‘z bo‘lib keladi va she‘r orqali shoir demoqchi bo‘lgan fikrni ta‘sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Bir g‘azalida ko‘p ko‘rguliklar ko‘rganiga ishora qilib, “Biror kun bo‘lmadim umrimda Dilshod...” [Dilshod; 7,21] deyar ekan, Dilshodi Barno o‘zining hasbi holini bayon etayotgaligiga ishora qiladi. Darhaqiqat, Dilshod o‘z yurti, yaqinlaridan ayrilib, tavallud manzili Istravshan (Tojikiston hududidagi tog‘li yurt. Amir Umarxon davrida taqdir taqozosi bilan ko‘p qatori Xo‘qandi latifga haydab kelingan, bu yerda xonning g‘azabiga duchor bo‘lgan. Undan qochib, tong pallasi taqdir taqozosi bilan bir ziyoli xonadonga kirib borgan. Bu xonadon qizlarni o‘qitadigan maktab bo‘lgan. Savodi bo‘lganligi tufayli shu xonadonda qolib ketgan; salkam yuz yoshga kirgan

qaynonasiga yaqindan yordam berib, qizlarni o'qitgan. Xonadon sohibi bo'lgan, o'zidan salkam qirq yosh katta Qori domlaga (o'shanda 57 yosh bo'lgan) turmushga chiqqan. Qori domla bilan qirq yil umrguzaronlik qilgan. - M.T.; S.S.)ni tark etgan. O'z vatanidan mosuvo bo'lishiga sababchi bo'lgan Amir Umarxondan norizo Dilshodi Barno "Tarixi muhojiron"da unga nafratini bayon qilgan bo'lsa-da, Ho'qandda yozgan bir qator she'rlarida uning ta'rifiga iliq so'zlar aytadi. Bu jihatdar uning "Amir" radifli she'ri e'tiborga loyiq. Yoki "urush" radifli she'rida xonning soddaligi tufayli urushga qo'shilgani, bunda mag'lubiyatga uchrab, obro'si to'kilgani haqida so'z yuritganidan ham bilsa bo'ladi.

Boshqa g'azallarida ham "Dilshod" antroponimini ikki xil vazifada qo'llaganini uchratish mumkin. Anbar otinga bag'ishlangan g'azalida "Barnolar zulmatda..." [Dilshod; 7, 23]; "ruh" radifli g'azalida "SHul sabab Barno ekansan, deb bazmin qurdi ruh" [Dilshod; 7,29]; "g'azaliyot" radifli she'rida Xati xunuk, mag'zi Barno bo'lmasa, Xorib qolg'uchi choparg'a g'azaliyot" [Dilshod; 7, 25]; "Inson payrovi bo'l, Dilshod o'lg'aysan" [Dilshod; 7, 21] Ta'bi Barnosig'a boqsangiz agar, SHoirlikda zarrin kuloh Amir" [Dilshod; 7,36] va hokazo.

"Anbar Otin" birikuvidagi har ikki so'z poetik tomondan bag'oyat ta'sirchanlikka ega ekanligini bir o'qishdayoq sezish mumkin. Lug'atlarda "anbar" leksemasiga quyidagicha izoh beriladi: "xushbo'y modda", "anbar". Katta lug'atlarda bu so'z yuqorida havola qilingan ma'nosidan tashqari, kasholotlar (juda ulkan bo'lgan kit baliqlari) tanasidan chiqadigan mumsimon xushbo'y modda bo'lib, parfyumeriyada atr hidiga turg'unlik berishda ishlatiladi. [Ensikloped. lug'at; 17, 121] Ulug' Navoiy mazkur o'zakni -soro affiksi bilan birgalikda qo'llab, "toza, xolis anbar; xushbo'y hidli; juda yoqimli his ma'nolarida ishlatgan, "Nasim" (shabboda) so'zi bilan ishlatib esa, "anbar hidini keltiruvchi", "anbarin hid taratuvchi" ma'nolarida istifoda etganligiga shohid bo'lish mumkin. Bundan tashqari, ulug' shoir ana shu asosdan foydalanib, o'nlab yangi so'zlar yasagan. CHunonchi, "anbar bo'yin sochuvchi", "anbar isin taratuvchi" ma'nolarida "anbarafshon", "anbar sochilgan", "xushbo'y", "muattar" ma'nolarida "anborbez", "anbar yog'diruvchi", "anbar hid tarqatuvchi" ma'nolarida "anbarbor"; "anbarga o'xshash", "anbar isli" ma'nolarida "anbarvash"; "anbar tusli", "isli", "xushbo'y", "muattar"; "anbar aralashgan" ma'nolarida "anbarin" singari so'zlar yasab, asosan lirikasida ma'shuqa tavsifi doirasida ishlatgan. [NATIL; 2] Shoira Anbar Otin mazkurlardan faqat "anbar" hamda "anbarin" so'zlarini g'azallarida qo'llagan: "Anbar ish qilib yur" [Anbar Otin; 4, 61]; "Anbarim yerga ko'milsa, ushbudir baxti qarom" [Anbar Otin; 4, 33]; Ko'p o'rinlarda esa "hid", "bo'y" sinonim so'zlari bilan birgalikda qo'llagan; "mushk", "kokil", "zulf", "soch" leksemalari bilan qo'llash nisbatan kam uchraydi: "Mushki Anbar bergay kuylagan ash'orim" [Anbar Otin; 4,18]; Anbar hidin hidlabon qoshi qarodan o'rgilay [Anbar Otin; 4,28]; Bahor nasimi essun, Anbar hidini hidlab [Anbar Otin; 4, 35]; "Anbarin kokillarim" [Anbar Otin; 46]; "Mushk Anbar hid socharlik dostonga o'xshamas" [Anbar Otin; 41] va h.

Yuqorida keltirilgan misollarimiz va ularning ma'no tovlanishlaridagi ayrim bir tafavutlar bir masalaga oydinlik kiritishni taqozo qiladi.

Poetikada ittifoq otlig' san'at bor. Bu tasvir ifodasining lug'aviy ma'nosi "o'zaro muvofiqlashish" bo'lib, she'rdan muallif taxallusini ham o'z lug'aviy ma'nosida, ham taxallus ma'nosida qo'llash ittifoq deb yuritiladi. Sirdan qaralganida, ittifoq iyhomga ham o'xshab ketadi. Zero, ittifoqda bir so'z (ko'proq taxallus bo'lgan antroponimlar) ikki xil maqsadda ishlatiladi: "Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar" [Cho'lpon; 19, 45.] misrasidagi "Cho'lpon" so'zining atoqli ot (taxallus) ekanligi va "go'zal yulduz" ma'nosida kelib, ikki xil mazmunda anglash uning ittifoq ekanligini ko'rsatib turadi. Iyhomda esa har qanday so'z (ko'proq turdosh otlar) ikki xil ma'noga ishora qiladi: "Ulus ichinda turur o'zbe'gim qiyo ko'zlik"

misrasida “*o‘zbekim*” so‘zini “*o‘zinning begim*” hamda “*o‘zbek millatiga mansub kishim*” ma’nosida tushunish mumkinligi uni iyhom deyishga izn beradi.[Lutfiy;] Amiriy, Yoriy, Cho‘lpon, Erkin Vohidov, Omon Matjon singari o‘nlab shoirlar o‘z taxalluslarini va ismlarini antroponim doirasida qo‘llash bilan bir qatorda, mikromatnga aloqador turdosh ot (yoki boshqa so‘z turkumi) o‘rnida ham ishlatib, uni poetik so‘z darajasiga ko‘targanlar va o‘quvchiga estetik zavq berishga erishganlar. Masalan, Amiriy bir qator g‘azallari maqta’sida “ishq mulkinging Amiriman” [Amiriy;], deyar ekan, garchi so‘z bugungi grafikada bosh harf bilan yozilsa-da, uni turdosh ot ma’nosida tushunishga to‘g‘ri keladi. Yoki Boburning mashhur g‘azallaridan birining maqta’sida “oyog‘im yetganCHA Boburdek ketar edim...” [Bobur] misrasi keladi. Agar undagi antroponimni taxallus ekanligini (arab yozuvida harflar bir xil kattalikda bo‘lganidan, “bosh harf” atamasi ishlatilmaydi – M.T., S.S.) anglash bilangina kifoyalansa, shoirning badiiy niyatiga putur yetadi. Uni lug‘aviy ma’nosida tushunilsa, so‘zning ma’nosida qo‘shimcha effekt hosil qilib, o‘quvchiga estetik zavq beradi. Ya’ni Bobur uni o‘xshatish etaloni darajasiga ko‘tarib, “sherdek qaytmas bo‘lib ketardim” degan mazmunni yuzaga keltirgan. Shunga o‘xshash Yoriyda ham antroponimni ikki xil maqsadda qo‘llangani ko‘p kuzatilgan. Masalan, “Etur Yora arz, ey nasimi sabo, Xabar ber: “Qachon xushshiorim kelur?” [Yoriy; 51-a] Yoki: “Bazmidan yondirmangizlar nomuvofiq Yor deb, Ishqidan sizlarga tuhfa nolayi zori turur” [Yoriy; 52-b] tarzida ham taxallus, ham ma’shuqa ma’nosida ittifoq qilinganini bir necha o‘rinlarda uchratamiz. Erkin Vohidov, Omon Matjon singari shoirlar o‘z ismlarini ittifoq san’ati vazifasida ishlatganlar: Senga o‘n to‘rtida bog‘landim, hanuz Erkin bo‘lolmas dil [Vohidov; 6, 125]; Damlar shikvasiga uchma, Omon bo‘l [Matjon; 10, 158]. Ko‘rinadiki, erkaklar she’riyatida so‘zning ikki ma’no qirrasini bir so‘zshakl zimniga singdirish va bu orqali so‘z o‘yinlari hosil qilish biromuncha o‘ng‘ayroq. To‘g‘ri, ayollar she’riyatida bu borada mushtaraklik yo‘q emas. Biroq ayollar she’riyatidagi antroponimlar biroz chegaralanganlik, haddini bilish odobi bilan tafovut qilib turadi.

Ayollar she’riyatida ham taxallus va ismni ikki xil ma’noda ishlatish hollari uchrab turadi. Oldindan bir o‘ziga xoslikni aytib o‘tishimiz kerak. Ayollar she’riyatining qator vakillari, xuddi erkaklar she’riyatida bo‘lgani kabi, o‘z ismlarini taxallus o‘rnida ham qo‘llaganlar. Bunday usuldan Anbar Otin ham mustasno emas. Ismi tarkibiga kirgan “otin” so‘zi (o‘tmishda uyida maktab tutgan, o‘qituvchilik qilgan ayol; xotinlar yig‘inida ishqiy-diniy g‘azallar o‘qiydigan ayol; ayollarning diniy marosimlarida har turli va’zlar qilib, tilovatlar qiluvchi ayol) uning quvvayi hofizasi, shoirlik layoqatidan darak bergan. Xususan, shoira Anbar Otinning “Tanlangan asarlar”iga kirgan aksariyat g‘azallarida “anbar” so‘zi o‘z ma’nosida va taxallus maqsadida ishlatilganligining shohidi bo‘lish mumkin. Ayrim bir misollarga murojaat qilaylik. Bir she’ri yakunida “Bahor nasimi essun, Anbar hidini purkab” [Anbar Otin; 4,35] misrasi mavjud. Zohiran qaralsa, “anbar” leksemasi bugungi grafikada bosh harf bilan yozilgani sababli, uning taxallus ekanligini anglab bo‘ladi. Agar arab grafikasiga asoslangan o‘zbek yozuvida ifodalansa, bu leksemaning taxallus ekanligini sezmay qolish mumkin. CHunki misrada “anbar” so‘zi sifatlash vazifasiga tamomila o‘tib bo‘lgan. Demak, shoira bu misrada antroponimdan badiiy tasvir yaratgan va misraga poetiklik yuklab, emotsionallikni ta’minlagan. Mana bu misrada esa “Mushk Anbar hid socharlik dostonga o‘xshamas” [Anbar Otin; 4,41] degan shoira taxallus bo‘lgan antroponimni yana turdosh ot ma’nosida qo‘llab, forsiy izofa doirasiga kiritadi. Natijada an’anaviy she’riyatda keng qo‘llangan “mushki anbar” izofaviy birligi ma’nosi oldingi rejaga chiqadi. “Mushki Anbar bergay kuylagan ash’oringiz” [Anbar Otin; 4,16] satrida bo‘lsa, she’rning mazmuniga ishora qilinmoqda. “Anbar hidini sohib, kuylab o‘tirar doim” [Anbar Otin; 4, 14] misrasida bo‘lsa, avvaliga taxallus bo‘lgan antroponim, keyin sifatlash ma’nolari

anglashiladi. “Anbar ro‘yi zebosiga ko‘zgular kelar qachon?” [Anbar Otin; 4,27] misrasida antroponim chuqur ma’no anglatmoqdaki, buni uch tomonlama anglash mumki. Ya’ni a) taxallus ma’nosi; b) anbardek yoqimli va chiroyli yuziga; d) aynan Anbaroyning chiroyli yuziga. Taxallusni bu kabi ma’noviy qavatlash orqali shoira metaforik usulni yuqori darajada emotsionallik hosil qilishga yo’naltirgan. “Anbarin kokillarim” [Anbar Otin;4,46] birikmasida taxallus ma’nosi butunlay yo‘qolib, sifatlash ma’nosi birlamchi ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o‘rinda antroponimlarni bu tariqa ikki xil ma’noda ishlatilishiga aniqlik kiritishga to‘g‘ri keladi. Tilshunoslikda antroponimlar ma’nisiga ikki xil yondashuv borasida turli qarashlar mavjud.. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ayrim o‘rinlarda onomastik birlik semantik jihatdan turdosh otga yaqinlashadi yoki “dilshod”, “anbarin” singari sifatga yaqinlashadi. Ushbu holatni rus tilshunosi Y.A.Naximova “poluantropoimlar” kontsepsiyasi” deb ataydi va bu birliklarni “onomastik metafora” deb atashni ma’qul topadi. [Naximova; 15,81.]

Shoiralar she’riyatida antroponimlar ham allyuziya hosil qilishi ko‘p kuzatiladi. Onomastik birliklar allyuziv nom sifatida qo‘llanilganida yozuvchining badiiy maqsadi birmuncha aniq ifodalanadi [Andaniyozova D.; 37]. “Tarixiy voqealar, mashhur asarlar, diiniy, mifologik rivoyatlar va shu kabi keng ommaga ma’lum bo‘lgan narsalarga ishora qilish yoki ulardagi turg‘un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish” [Yo‘ldoshev; 9,124] usuliga allyuziya deyiladi. Allyuziyaga adabiyotshunoslar talmehning egizi, deb qaraydilar. Faqat talmeh bilan allyuziya orasida biroz tafovut bor. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.S.Heralievalarning “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da ayni shu tafovut aniq ko‘rsatiladi. Talmehda ko‘proq mashhur tarixiy va badiiy faktlarga ishora qilinsa, allyuziyada ijodkor o‘z zamonasidagi siyosiy, maishiy va badiiy faktlarga ishora qilishi ham mumkin [Quronov va b.; 19,27]. Tilshunos D.Xudoyberganova allyuziya ko‘rsatkichi vazifasida keluvchi onomastik birlikni assotsiativ tarzda idrok qilinuvchi pretsident matnning tarkibiy qismi, deb hisoblaydi va ikki madaniy semiotik maydonni tutashtiruchi vosita deb hisoblaydi. [Xudoyberganova; 15, 19]

Allyuziya ishtirok etgan matnda ekspletsit matndan tashqari yana bir boshqa – implitsit matn ham mavjud bo‘ladi. Uning mazmuni matn o‘quvchilarining zahiraviy bilimlari vositasida qayta tiklanadi. [Andaniyozova D.; 5, 36]

Allyuziv nomlar muammosi ilgari ham, bugun ham ham adabiyotshunoslikda talmeh sifatida, tilshunoslikda zahiradagi bilimlarni yuzaga chiqaruvchi allyuziv vosita sifatida matn tahlilida e’tiborda tutiladi. Xususan, allyuziv hodisani matn tahlili jarayonida chetlab o‘tmay, doimiy e’tibor qaratish zarur vazifa sanaladi. [Yo‘ldoshev; 8, 126-150]. D.Andaniyozova ayni shu masalaga yondashuvni rus tilshunosi M.A.Solovyova fikrlari bilan dalillashga harakat qilgan. Bizningcha ham, har uchala tilshunosning quyida havola etiladigan qarashlarida mushtaraklik, hamfikrlik mavjud: a) pretsident va gorizont matn ishtiroki; b) allyuziv manbasining mashhurligi; d) allyuziv antroponimning ishtiroki; pretsident matnda tarixiy-madaniy axborotning mavjudligi. [Solovyova; 14, 23] Bulardan kelib chiqadigan bir yorqin qarash borki, bu allyuziya qatnashgan matnda asosiy matndan tashqari yashirin matni ifoda etuvchi noverbal xarakterga ega bo‘lgan matn ham mavjud bo‘ladi. Allyuziya orqali ifodalangan axborot vertikal, ya’ni asosiy matndan tashqari bo‘lgan qo‘shimcha axborotdir. [Andaniyozova; 36] Dilshodi Barno adabiy merosida talmeh va allyuzalar juda ko‘p uchraydi. Kezi kelganda yana bir karra ta’kidlashni istardikki, talmeh badiiy san’at sifatida bir narsa yoki hodisani ikkinchi narsa hodisaga o‘xshatish asnosida paydo bo‘ladi. Umuman olganda, she’rshunoslikda qayd etilgan yuzdan ziyod badiiy tasvir vositalarining aksariyati o‘xshatish asosiga quriladi. Allyuziya esa qo‘shimcha ma’lumot berishi bilan talmehdan farq qilib turadi. SHuni eslatish o‘rinliki, she’rda qo‘llangan allyuziyadan bexabar o‘quvchi baytga yuklangan muallif niyatini

anglamlasligi ham mumkin. Talmehda ham shunga yaqin niyat yashiringan bo'ladi. Masalan, Dilshodning bir g'azalida Yusuf (a.s) nomi ko'p bora talmeh qilingan. Samar Bonuda ham bu kabi talmeh qilish kam emas. Bonu bir g'azalida Yusuf jamoling davosin etdi, uch yilg'a sotdi o'n bir ag'olar [Samar Bonu; 13,181], der ekan bunda "Yusuf jamoling" birikuvidagi antroponim o'xshatish ma'nosiga ko'chmoqda. Bu – allyuziya emas, aynan tashbehning o'zi. Zero, bundagi antroponim o'xshatish hosil qilish maqsadida istifoda etilgan. Yana bir misol. "Devoni Nihoniy"da Hamza Hakimzoda "Manam Mansuram, dilimda xavf-u tor-u dor yo'q" deb yozganida "manam Mansuram" antroponimi o'xshatishli birikma bo'lib, "men ham Masurdekman" deyayotganini sezish qiyin emas. Qolaversa, xavf, tor, dor so'zlari uning taqdiridan oz bo'lsa-da darak berib turadi.

Antroponimda maqsad boshqacharoq bo'ladi. Qachonki, she'riyatda qo'llangan antroponimlarning qo'llanishi anglagandagina o'quvchi muallif niyatini tushunib yetadi. SHoira Dilshodning "o'zimiz" radifli g'azalida Mansuri Halloj va Boborahim Mashrab antroponimlari ishtirok etadi. Modomiki, Dilshod bu o'rinda ilohiy ishqdan mast bo'lgan lirik qahramonning ruhiy holatini berayotgan ekan, she'r tolibi ham Mansuri Halloj kim-u Boborahim Mashrab kim ekanligini to'la anglasagina allyuziya o'z vazifasini to'kis ado etgan bo'ladi. Dilshod bunday yozgan:

Shayx Mansuri analhaq ila Mashrab pirimiz,

Ishqsiz shayx ko'zini pirpiratgan o'zimiz. [Dilshod; 7, 37]

Agar kishi Mansuri Halloj va uning analhaqligi, uning mutassiblar tomonidan qatl etilganligi va qatl davomida Mansuri Hallojning aytgan gaplaridan xabardor bo'lmasa, qo'shmisrada yashiringan lavhalarni tafakkur qila olmaydi. Manbalarda Mansuri Halloj va uning so'zlari ko'p tilga olinadi. Jumladan, "Tazkirayi avliyo" (Shayx Farididdin Attor) Mansuri Halloj haqida tubandagi eskartishlar keladi: "Uning so'zlari juda ishtiyoqli, o'zi dardli, doimo jidd-u jahd ichida, riyozat va karomat bobida komillik darajasiga yetgan, olihimmat va balandqadr, haqoyiq va daqoyiqda, ma'oniyy va ma'orifda, fashohat va balog'at ichida tengi yo'q, tafakkuri va farosati kuchli edi..."[Attor; 3,455-457]

Bundayin tavsif Alisher Navoiyda ham bor: "...Oncha da'vo bila bir kecha kunduzda ming rak'at namoz qilur erdi. Ul kechakim, kunduzi maqtul bo'ldi, besh yuz rak'at namoz qilib erdi... Shayx Shibliy debdurlar: ulcha ul dedi, men ham deyirmen. Ammo meni telbalik qutqardi va uni aql giriftor qildi. Ul bir kuni Junaydning eshigini qoqti. Junayd so'rdiki, kimsan? Dediki, Haq! Junayd dedi: Haq emassen, ammo haq bilasen! Qaysi dor og'ochini saning bila bog'lag'oylar..." [Navoiy; 1,106]

Attor tazkirasida naql qilinishicha, uni zindonband qiladilar – u karomat bilan zindondagilarni ozod etadi. O'zi ikki kun g'oyib bo'ladi. So'rganlarida "birinchi kun Xudoning oldida edim, ikkinchi kun Xudo mening oldimda edi. SHuning uchun meni topmagansizlar", deydi. Uni dor tagiga olib boradilar. "Osilmoq erlar me'rojidir", deydi. Uni toshbo'ron qiladilar. Shibliy unga gul otadi; gul toshdek tegdi, deb "oh" tortadi Halloj. Ikki qo'lini kesadilar – Mansur kuladi. Ikki oyog'ini kesadilar. Mansur ularni duo qiladi: "Bularning gunohidan kech. Sening rizoliging uchun mening oyoq-qo'limni kesdilar". Urrib ko'zlarini chiqaradilar. Ikki qulog'ini kesib, so'ng toshbo'ron qiladilar... Oqshom namozi vaqtida, qazo kuni, rizo maydonida, ishq bozorida, muhabbat yozida Husayn Mansur Halloj aziz jonini o'z zavqi va shavqi bilan Alloh hazratiga topshirdi. Undan keyin muborak tanini jallodlar bo'lak-bo'lak qildilar. Uning har bir bo'lak a'zosidan "Haq, Haq, an al-Haq", degan ovoz keldi... Ertasi kuni kelib ko'rdilarki, maydonning ichi "An al-Haq" degan ovoz bilan to'lib turibdi". [Attor; 3; 455-457]

N.Komilov ham yozadi: “Attor “Javhar uz-zot” asarida Mansuri Hallojning “An-al-haq”ning asl ma’nosini baytlararo bayon qilib bergan: “An-al-Haq” dedi va buni oshkor qildi, natijada, o’zini pora-pora qildi. “Anal-Haq” deb birlik – vahdatdan so’z ochdi, darhaqiqat, u haq edi va hech shubhaga bormay, Haq dedi”.

Ana shu eslatishlardan ogoh bo’lgan shaxsgina Dilshodi Barnoning nima sababdan “Mansuri analhaq” allyuziyasini istifoda etganligini mohiyatan anglab yetadi. Qolaversa, g’azalning ayrim bir misradagi ifoda ham Mansur bilan bog’liq hodisotlar zamiridan o’sib chiqqanligini tushunadi.

Allyuziya bo’lgan birliklar xalqning ayrim urf-odatlariga bilan ham bog’liq bo’ladi. Ular etnopoetizm sifatida bayt mazmunini yoritadi va tafakkurda hayajonli rezonans hosil qiladi. Xalq orasida yangi tug’ilgan farzandlariga “Tursunboy”, “Tursunoy”, “To’xtasin”, “To’xtaxon”, “Turg’unboy”, “Turg’unoy”, “Turdiyoy”, “Turdiyox”, “Ko’paysin” singari ismlarni qo’yish odati bor. Bu antroponimlar ko’proq oiladagi farzandlarining o’lmay (o’tmishda bolalar o’limi juda ko’p kuzatilgan), umrlarining ziyoda bo’lishlarini tilab tabu qilingan. Mazkur antroponimlar mustasno hollarda havf-xatardan saqlanish niyatida ham ishlatilganini sezish mumkin. Dilshodi Barno “suv” radifli g’azalida bunday satrlar uchraydi:

To’g’onni to’smog’ingni(ng) xiylasig’a
Odam yerman diyurmish shayton suv.
Topib Tursunbo-yu Turdinisoni
Bosilib, to’xtar emish begumon suv. [Dilshod; 7,59]

Demak, Dilshod satrlarida qo’llanilgan allyuziyalar etnopoetizm sifatida, “Agar suv sarkashlik qilib, to’g’onlarni buzgan holda qishloqlarni bosib, kishilarning mol-joniga xavf solsa, suv boshida Tursunbo-yu Turdinisolarni qurbonlik qilish lozim ekan”, deya zaharxanda qiladi. Bid’at bo’lgan bu odatlarni qoralaydi.

Antroponimlar pretsedent birlik sifatida ishtirok etishida allyuza bilan birlik hosil qiladi. Ya’ni pretsedent birlik (mashhur so’zlar) vazifasini antroponim bajarganida el orasida nomi mashhur bo’lgan kishilar, ularning ma’naviy qiyofasi, muallifning bunga simpatiyasi aniq sezilib turadi. Shu jihatdan qaralganida Dilshodi Barnoning ushbu satri pretsedent birlikning bir namunasi sifatida ko’zga tashlanadi:

Qo’shiqni Nodira she’riga bog’lab,
Bo’laylik sozig’a bizlar hamovoz.

Uvaysiy birla Mahzuna qoshida
Turaylik suhbat aylab birga damsoz. [Dilshod; 7,38]

Matnda kelgan shoirlar nomi ayollar she’riyatining peshvolari sifatida mashhur. Bu nomlarni talmeh deyish o’rinsiz. Chunki ularda o’xshatish oqsadi, ko’proq mashhurlar nomlarini tilga olish orqali she’riyatga bo’lgan ehtiromni, ayni paytda mashhur shoiralarga bo’lgan cheksiz hurmat ifodalanyapti. SHuning uchun mazkurni pretsedent antroponim sifatida baholash o’rinli bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz she’riyatda antroponimlarni qo’llash an’anaviy tus olgan. Agar erlar she’riyatida ko’proq payg’ambar va adabiy qahramonlar ismlari antroponim qilingan bo’lsa, ayollar she’riyati payg’ambar nomlari (Yusuf alayhissalom ismi mustasno) juda kam ishlatilgan; adabiy qahramonlardan Laylo, SHirin, Zulayho, Uzro ismlari antroponim vazifasida kelgan. Ayrim hollarda Majnun antroponimi ham uchrab turadi. Bir qator o’rinlarda antroponimlar ittifoq san’atini hosil qilib, ham taxallus, ham turdosh ot (ba’zan sifat) vazifasida kelib, ikki tomonlama ma’no kasb etgan. Bundayin usul Dilshod va Anbar otin she’riyatida ko’p

uchraydi. Ular g'azallar maqta'sida she'ni nafaqat muallifini tasdiqlashga, balki undagi ta'sirchanlik va qo'shaloq ma'noni ta'minlashga xizmat qilgan.

Antroponimlar talmeh san'atini hosil qilishda kamroq ishtirok etgan bo'lsa-da, ularning allyuziya sifatidagi roli kuchliroq bo'lgan. Talmeh san'atini hosil qilgan antroponimlar o'xshatish zaminida matnda ishtirok qilib, qo'shimcha ma'noni muxtasar bayoniga turtki bersa, allyuzada kattaroq hajmdagi bir fikrni ixcham tarzda taxayulan yuzaga chiqishini ta'minlagan va intertekstuallikni hosil qilgan. Allyuziv birlik keltirilishi natijasida she'rxon ikki tomonlama bilimga ega bo'lgan. Bir tomondan, she'ning nafosatidan bahra olgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, antroponim xotiraga keltiradigan ma'lumotdan ogoh bo'lgan. Zero qo'llanilgan deyarli barcha antroponimlar savodxon va she'riyat shaydosi bo'lgan xalq shuurida saqlanib turgan, degan ishonch mazkur antroponimlarni matnga olib kirishlariga turtki bergan.

Pretsedent birliklar ham she'ning jozibasini ta'minlashda, muhimi esa, antroponim qo'llangan har qanday she'ning hayotiyiligini ta'minlay olishda muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, she'riyat shaydolariga tanish bo'lgan shoir-u shoiralarning nomini pretsedent birlik tarzida ishlatilishi bunda muhim ahamiyat kasb etgan. Yoki xalq orasida juda keng tarqalgan qur'oniylar (Yusuf, Nuh, Muso, Iso alayhissalomlar), mifologik (Jamshid, Kayumars), folkloristik (Xotam, Tohir, Zuhro, Gulandom, Zulxumor, Zebo), adabiy (Farhod, SHirin, Majnun, Layli, Vomiq, Uzro), shoir va shoiralarning (Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy, Nodira, Amiriy, Uvaysiy, Mahzuna va boshqalar) ismlari antropoetizm maqomiga evrilib, muayyan bir she'rga fayz bergan, ularning serma'no va fikran serqatlam bo'lishini, unda emotsionallikni ta'minlashga xizmat qilgan deyilsa, adolatdan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат// Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами 10 жиддик, 9-жилд. – Т. Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
2. Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. 4 жиддик. 1-4. жилд. Т.: Фан, 1984.
3. Аттор Фаридиддин. Тазкират ул-авлиё. Т.: Шарқ, 1999.
4. Анбар отин. Танланган шеърлар. – Т.: Ўзадабийнашр, 1963.
5. Анданиёзова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопозитикаси. // Фил.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) диссерт. – Т.: 2017.
6. Воҳидов Эркин. Сайланма. 1-жилд. – Т.: Шарқ, 2001.
7. Дилшоди Барно. Танланган асарлар. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр. – Т.1972.
8. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопозитик тадқиқи. // Филол.фан.док... диссерт. – Т.: 2009. – Б.172.
9. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопозитикаси. – Т.: Фан,2008. – Б.124.
10. Матжон О. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2003.
11. Нахимова Е.А. Прецедентные онимы в современной российской массовой коммуникации; Теория и методика когнитивно-дискурсивного исследования. – Екатеринбург, 2011. - Стр.76.
12. Орипов А. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2001.
13. Самар Бону ғазаллари.// Жалолов Т. Нафосат жиллолари. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр. 1974.
14. Соловьёва М.А. Роль аллюзивного антропонима в создании вертикального контекста. // АР к.ф.н. диссерт. – Екатеринбург, 2004. – Стр. 23.

15. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: Туронзаминзиё, 2015.
16. Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. . -Т.: Академнашр, 2013.
17. Энциклопедик луғат. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси тахририяти. – Т.: 1988.
18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1-том. – М.: Русский язык, 1981.
19. Қуронов Д. Мамажонов З., Шералиев М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010.
20. Ҳамза Ҳақизода Ниёзий. Девони Ниҳоний. //Тўла асарлар тўплами. 4 жилдлик, 1-жилд. –Т.: Фан, 1988.
21. Ёрий. Қўлёзма девон.

Джуракулова Диёра Алишер кизи,
докторант, Самаркандский государственный
институт иностранных языков
<https://orcid.org/0009-0002-8173-9319>

СОВРЕМЕННЫЕ СТРАТЕГИИ ВНЕДРЕНИЯ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫХ ЗАДАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В статье анализируются возможности применения лично-ориентированного подхода в обучении английскому языку в университетах. Рассматриваются теоретические основы подхода, а также практические методы его реализации, среди которых особое место занимает обучение через задачи (Task-Based Language Teaching, TBLT). Показано, что использование лично-ориентированных заданий способствует развитию учебной автономии, формированию критического мышления, повышению мотивации студентов и усилению их коммуникативной компетенции. Преподаватель в этой системе выступает не столько источником знаний, сколько фасилитатором и наставником. Опора на современные исследования позволяет сделать вывод о значительном потенциале лично-ориентированного подхода для повышения эффективности языкового образования.

Введение. Современное высшее образование в условиях глобализации и цифровизации предъявляет новые требования к качеству подготовки специалистов. От студентов ожидается не только знание иностранного языка, но и умение использовать его в профессиональной и межкультурной коммуникации, а также способность к самообразованию и самостоятельному принятию решений. В этой связи всё большую значимость приобретает лично-ориентированный подход, ориентированный на развитие индивидуальных особенностей обучающихся и активизацию их познавательной деятельности.

Как отмечают исследователи, данный подход обеспечивает переход от традиционного преподавания, основанного на объяснении и воспроизведении знаний, к модели, где студент становится активным субъектом образовательного процесса [1]. В последние годы всё большее количество публикаций посвящено исследованию

возможностей личностно-ориентированного обучения в языковом образовании. Авторы подчёркивают, что именно эта стратегия позволяет соединить когнитивное развитие студентов с формированием их профессиональных и личностных компетенций [2][3].

Теоретические основы. Личностно-ориентированный подход базируется на признании индивидуальных различий студентов, учёте их интересов, уровня подготовки и образовательных целей. Согласно современным концепциям, задача преподавателя состоит не в передаче готовой информации, а в создании условий, стимулирующих познавательную активность и самостоятельное мышление. Следовательно, образовательная среда должна строиться таким образом, чтобы студент имел возможность принимать решения, выбирать стратегию выполнения задания и нести ответственность за результат [4].

Исследования показывают, что внедрение личностно-ориентированных методик в университетах способствует повышению учебной мотивации, развитию метапознавательных стратегий и формированию устойчивых навыков самообразования. Более того, они оказывают прямое влияние на качество языковой подготовки: студенты начинают активнее участвовать в дискуссиях, проявляют инициативу и демонстрируют более высокие результаты на итоговых контрольных этапах [2][5]. Одним из наиболее эффективных инструментов реализации личностно-ориентированного подхода считается методика обучения через задачи (Task-Based Language Teaching, TBLT). Её принципиальное отличие от традиционных методов заключается в том, что центр учебного процесса смещается на выполнение коммуникативных заданий, максимально приближённых к реальным ситуациям общения.

Примеры таких заданий включают: подготовку групповых проектов, проведение интервью, организацию дискуссий, моделирование профессиональных ситуаций. Согласно исследованиям, TBLT способствует развитию не только языковой компетенции, но и так называемых «навыков XXI века» — критического мышления, креативности, коммуникации и сотрудничества [3][6].

Более того, TBLT тесно связано с формированием автономии студентов. Выполняя задания, требующие поиска информации, обсуждения и принятия решений, обучающиеся учатся брать на себя ответственность за процесс и результат. Как отмечают Soali и соавт. (2023), именно через выполнение грамматически и коммуникативно ориентированных задач студенты достигают большей точности и беглости речи [7]. Не менее значимым элементом личностно-ориентированного подхода является трансформация роли преподавателя. В традиционной модели педагог выступал главным источником информации и контролёром её усвоения. Однако в современных условиях он выполняет функции фасилитатора, наставника и организатора образовательного процесса. Lu (2024) подчёркивает, что успешный преподаватель должен сочетать в себе несколько ролей: консультанта, мотиватора, эксперта и организатора совместной деятельности [5]. Такое распределение ролей позволяет выстроить доверительные отношения между студентом и преподавателем, усиливает диалогичность обучения и создаёт атмосферу сотрудничества.

Заключение. Подводя итог, следует отметить, что личностно-ориентированный подход в обучении английскому языку представляет собой важное направление развития современной методики. Его внедрение позволяет повысить качество языковой подготовки студентов, развить у них навыки самообразования, критического мышления и ответственности. Наиболее результативной формой реализации данного подхода является методика обучения через задачи (TBLT), которая обеспечивает глубокое вовлечение

студентов в процесс обучения и способствует формированию коммуникативной компетенции.

Таким образом, систематическое использование личностно-ориентированных заданий является не только актуальной педагогической задачей, но и необходимым условием успешной интеграции национальной системы образования в мировое образовательное пространство.

Библиографические ссылки:

1. Hadiyanto H. Application of student-centered learning in improving TEFL students' 21st-century skills performance // *Education Sciences*. 2024. Vol. 14(9). – P. 938–950.
2. Ismaylova A. Embracing a learner-centered approach in teaching English // *Science and Research International Scientific Journal*. 2025. №3(1). – P. 112–118.
3. Keo V., Lan B., Rouet W., Roeun S., Ron S. Optimizing English teaching strategies: A review of TBLT, CLIL, and PBL // *International Journal of Instruction*. 2024. Vol. 17(2). – P. 45–62.
4. Enablers and constraints of learner-centred education // *Language Learning Journal*. 2025. Vol. 53(1). – P. 98–114.
5. Ly C.K. Teachers' roles on English language teaching for promoting learner-centered language learning: A theoretical review // *International Journal of TESOL & Education*. 2024. Vol. 4(2). – P. 78–98.
6. Task-based language teaching: A systematic review of research and applications // *Language Teaching Review*. 2024. Vol. 31(3). – P. 215–240.
7. Soali M., Ashadi A., Hepriansyah A. The implementation of task-based language teaching to develop students' grammar accuracy // *Journal of English Language Teaching*. 2023. Vol. 11(1). – P. 64–73.

**Abdirazakova Zilola,
SamDCHTI tayanch doktoranti**

MORFEMIK TAHLILNING O'QUV-USLUBIY MATERIALLARDA QO'LLANILISHI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV

Annotatsiya. Mazkur maqolada morfemik tahlilning o'quv-uslubiy materiallarda qo'llanilishi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Morfema tushunchasi, uning tasnifi hamda grammatik, semantik va stilistik funksiyalari yoritilib, o'zbek tilining agglutinatив xususiyati kontekstida morfemik tahlilning lingvistik sathlardagi roli ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, tilshunos olimlarning qarashlari asosida morfemik tahlilning o'quv jarayonidagi metodik ahamiyati ochib beriladi. Maqola nazariy yondashuvni amaliy misollar bilan boyitib, lingvistik kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik asoslarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: morfemik tahlil, o'quv-uslubiy material, grammatik morfema, semantik yuk, lingvistik kompetensiya, tilshunoslik metodikasi, agglutinatив til, darsliklar, metodik qo'llanma, o'zbek tili morfologiyasi

Tilshunoslikda morfemik tahlil til tizimini anglash, grammatik shakllanishni tushunish va semantik qatlamlarni aniqlashda muhim metod hisoblanadi. Morfema — tilning eng kichik ma'noli birligi sifatida so'zning shakli va mazmunini belgilashda asosiy komponent bo'lib xizmat qiladi.

Morfemik tahlil nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy tilshunoslikda ham keng qo'llaniladi. O'quv-uslubiy materiallarda morfemik tahlilni qo'llash orqali o'quvchilarda grammatik shakllanishni anglash, semantik o'zgarishlarni tushunish va stilistik farqlanishlarni ajratish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Sh. Rahmatullayev morfemani grammatik shakllanishni ta'minlovchi birlik sifatida ko'rib, morfemik tahlilni grammatik kategoriyalarni aniqlashda nazariy asos sifatida belgilaydi. G'. Zunnunov esa grammatik morfemalarning kontekstdagi semantik yukini tahlil qilish orqali morfemik tahlilni semantik tahlil bilan bog'laydi. Bu yondashuvlar morfemik tahlilni o'quv-uslubiy materiallarda qo'llash zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Q. Sapaev morfemik tahlilni o'quv-uslubiy materiallarda amaliy misollar orqali yoritib, uni tilni o'rgatish metodikasining ajralmas qismi sifatida ko'radi. T. Qudratov esa morfemik tahlilni lingvistik tahlil metodikasi bilan bog'lab, uni fonetik, morfologik, sintaktik va stilistik tahlil bilan birgalikda olib borishni taklif etadi.

Mazkur maqolada morfemik tahlilning o'quv-uslubiy materiallardagi qo'llanilishi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — morfemik tahlilni o'quv jarayonida qo'llashning metodik asoslarini aniqlash, tilshunoslar qarashlarini sintez qilish va konkret misollar orqali amaliy yondashuvni taklif etishdir.

Tilshunoslikda morfemik tahlil til tizimini anglashning nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Morfema — tilning eng kichik ma'noli birligi sifatida — grammatik shakllanish, semantik yuklanish va sintaktik pozitsiyani belgilovchi komponent bo'lib xizmat qiladi. Morfemik tahlil orqali tilning strukturaviy qatlamlari, grammatik kategoriyalari va semantik komponentlari aniqlanadi.

Morfemalar odatda uch turga bo'linadi:

Leksik morfemalar — so'zning asosiy ma'nosini ifodalaydi

Grammatik morfemalar — grammatik shakllanishni ta'minlaydi

Yasovchi morfemalar — yangi so'zlar hosil qiladi

Sh. Rahmatullayev morfemani grammatik shakllanishni ta'minlovchi birlik sifatida ko'rib, uni grammatik va yasovchi morfemalarga ajratadi. U morfemik tahlilni grammatik shakllarning funksional yukini aniqlash orqali amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

G'. Zunnunov morfemik tahlilni semantik tahlil bilan bog'lab, har bir grammatik morfemaning kontekstdagi semantik yukini aniqlash zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, kelishik qo'shimchalari — ayniqsa “-dan”, “-ga”, “-ni” — bir necha semantik komponentni ifodalaydi, bu esa morfemik tahlilni kontekstual tahlil bilan birlashtirishni talab qiladi.

Morfemik tahlil fonetik, morfologik, sintaktik, semantik va stilistik tahlil bilan uzviy bog'liq. M. Bekchanov morfemik tahlilni struktural sathli tahlil bilan bog'lab, morfemani fonetik, morfologik va sintaktik birliklar bilan integratsiyalashgan holda o'rganishni taklif etadi. Bu yondashuv morfemik tahlilni ko'p sathli lingvistik tahlil bilan bog'lashga imkon beradi.

T. Qudratov morfemik tahlilni lingvistik metodika doirasida ko'rib chiqadi. U morfemani fonetik, morfologik, sintaktik va stilistik tahlil bilan birgalikda o'rganishni taklif etadi. Bu metodologik yondashuv morfemik tahlilni boshqa lingvistik tahlil turlari bilan integratsiyalashga asos yaratadi.

Morfemik tahlil tilshunoslikda quyidagi nazariy funksiyalarni bajaradi:

Grammatik shakllanishni aniqlash

Semantik qatlamlarni ochish

Sintaktik pozitsiyani belgilash

Stilistik variantlarni ajratish

Soʻz yasash mexanizmini tushuntirish

Bu funksiyalar morfemik tahlilni til tizimini anglashda nazariy asos sifatida mustahkamlaydi. Ayniqsa oʻzbek tilining agglutinatив xususiyati morfemik tahlilni sathlararo integratsiyalashgan metod sifatida qoʻllashga imkon yaratadi.

Morfemik tahlil tilshunoslikda nazariy jihatdan muhim metod boʻlishi bilan birga, oʻquv-uslubiy materiallarda amaliy qoʻllanilishi orqali tilni oʻrgatish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bu tahlil orqali oʻquvchilar soʻzning tarkibiy qismlarini — leksik, grammatik va yasovchi morfemalarni — aniqlash, ularning semantik yukini tushunish va grammatik shakllanishni anglash koʻnikmalarini egallaydilar.

Q. Sapaev morfemik tahlilni oʻquv-uslubiy materiallarda amaliy misollar orqali yoritib, uni tilni oʻrgatish metodikasining ajralmas qismi sifatida koʻradi. U darsliklarda morfemik tahlilni soʻz tarkibini tahlil qilish, grammatik shakllarni aniqlash va semantik oʻzgarishlarni tushuntirish vositasi sifatida qoʻllaydi.

Oʻquv-uslubiy materiallarda morfemik tahlilni oʻrgatish uchun quyidagi mashq turlari samarali hisoblanadi:

Ajratish mashqlari — soʻzdagi morfemalarni ajratish

Tasniflash mashqlari — morfemalarni leksik, grammatik, yasovchi turlarga ajratish

Semantik tahlil mashqlari — har bir morfemaning maʼnosini izohlash

Sintaktik pozitsiya mashqlari — morfemalarning gapdagi funksiyasini aniqlash

T. Qudratov bu mashq turlarini lingvistik tahlil metodikasi bilan bogʻlab, morfemik tahlilni fonetik, morfologik, sintaktik va stilistik tahlil bilan birgalikda oʻrgatishni taklif etadi.

Morfemik tahlilni oʻquv-uslubiy materiallarda samarali qoʻllash uchun nazariy bilimlar amaliy metodlar bilan uygʻunlashtirilishi zarur. Bu yondashuv oʻquvchilarda grammatik shakllanishni anglash, semantik oʻzgarishlarni tushunish va stilistik farqlanishlarni ajratish koʻnikmalarini shakllantiradi. Tilni oʻrgatish jarayonida morfemik tahlilni bosqichma-bosqich, kontekstual va interaktiv metodlar asosida qoʻllash tavsiya etiladi.

Morfemik tahlilni oʻrgatish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. **Tushuncha berish bosqichi** — morfema, morfemik tahlil, morfema turlari haqida nazariy maʼlumot beriladi

2. **Ajratish bosqichi** — oʻquvchilar soʻzdagi morfemalarni ajratadi

3. **Tasniflash bosqichi** — morfemalar leksik, grammatik, yasovchi turlarga ajratiladi

4. **Semantik tahlil bosqichi** — har bir morfemaning maʼnosi kontekstdan kelib chiqib izohlanadi

5. **Sintaktik va stilistik tahlil bosqichi** — morfemalarning gapdagi funksiyasi va uslubiy yuklanishi aniqlanadi

Bu bosqichlar oʻquvchilarning lingvistik kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi¹.

Morfemik tahlilni stilistik va semantik tahlil bilan bogʻlash orqali oʻquvchilar soʻz shakllarining uslubiy konnotatsiyasini anglaydi. Masalan:

“boradi” — neytral uslub

“borur” — poetik uslub

“boribdi” — ogʻzaki nutq

Bu shakllar morfemik tahlil orqali stilistik jihatdan farqlanadi. Bekchanovning fikricha, grammatik shakllarning stilistik yuklanishini tahlil qilish tilni chuqur anglashga xizmat qiladi.

Morfemik tahlilni o'quv-uslubiy materiallarda qo'llash orqali quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

Grammatik kompetensiya — grammatik shakllanishni anglash

Semantik kompetensiya — ma'no qatlamlarini ajratish

Stilistik kompetensiya — uslubiy farqlanishlarni tushunish

Tahliliy kompetensiya — lingvistik hodisalarni tahlil qilish

Bu kompetensiyalar tilni o'rgatish jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, morfemik tahlil tilshunoslikda nazariy va amaliy jihatdan muhim metod bo'lib, u til hodisasini ko'p sathli tahlil qilishga imkon yaratadi. Ushbu maqolada morfemik tahlilning o'quv-uslubiy materiallarda qo'llanilishi nazariy asoslar, amaliy misollar va metodik tavsiyalar orqali yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, morfemik tahlilni o'quv jarayoniga tatbiq etish tilni o'rgatish metodikasini chuqurlashtiradi, o'quvchilarda grammatik, semantik va stilistik anglashni shakllantiradi.

Rahmatullayev morfemani grammatik shakl belgisi sifatida ko'radi va grammatik kategoriyalarni aniqlashda asosiy vosita deb hisoblaydi.

Zunnunov morfemik tahlilni semantik tahlil bilan bog'lab, grammatik morfemalarning kontekstdagi ma'no yukini ochib beradi.

Bekchanov morfemik tahlilni struktural sathli tahlil bilan bog'lab, fonetik, morfologik va sintaktik birliklar bilan integratsiyalashgan holda o'rganishni taklif etadi.

Sapaev morfemik tahlilni o'quv-uslubiy materiallarda amaliy misollar orqali yoritib, uni tilni o'rgatish metodikasining ajralmas qismi sifatida ko'radi.

Qudratov morfemik tahlilni lingvistik metodika doirasida ko'rib chiqadi va uni boshqa tahlil turlari bilan birgalikda olib borishni taklif etadi.

Bu qarashlar morfemik tahlilni nazariy pluralizm asosida yoritadi va tilshunoslikda ko'p sathli yondashuvni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Rahmatullayev, *O'zbek tilining morfologiyasi*, O'qituvchi, Toshkent, 1980, 45–48-betlar.
2. G'. Zunnunov, *O'zbek tilining grammatikasi*, Fan, Toshkent, 2002, 90–94-betlar.
3. Q. Sapaev, *Hozirgi o'zbek tili*, O'qituvchi, Toshkent, 2005, 115–118-betlar.
4. T. Qudratov, T. Nafasov, *Lingvistik tahlil metodikasi*, SamDUKF, Samarqand, 1981, 58–61-betlar.
5. M. Bekchanov, *Hozirgi o'zbek adabiy tili*, O'qituvchi, Toshkent, 1995, 102–106-betlar.

Nasimova Sohiba Yaxyayevna
Samarkand State Medical University
Assistant of Department of Languages

FUNCTIONAL PROPERTIES OF DIMINUTIVES AND EXAMPLES FROM ENGLISH LITERATURES

Annotation: Based on the derivational and semantic features of diminutives, one can conclude about the wide functional diversity of this linguistic phenomenon. The connotative aspects of diminutives cause many difficulties. This creates some problems in expressing

common ideas about the functions of diminutive forms. The versatility of diminutives, in most cases, consists in expressing in the text only one of their many variant meanings as a special case.

Key words: diminutive, idea, phenomenon, aspect, connotative, feature.

Having considered some ideas about the functional features of diminutives existing in modern science, we will try to describe the functions of this language category as fully as possible. Below we will focus on the features of diminutives given by Rodimkina:

1. The function of expressing diminutiveness, which can be based on objective reality (if the object is really smaller than the rest of the objects described in the speech - a small bee) or a function based on a subjective idea of the size of the described object (for example, if the object itself is large, but there are objects in the statement that significantly exceed its size - a hill).

2. The function of expressing a negative attitude to the subject of the statement or the interlocutor, the speech situation, when the speaker wants to intentionally offend someone: olimcha, Salimcha, etc.

3. On the contrary, the function of expressing a positive attitude to the speech situation: dog doggie / doggy small or cute dog

Cat- kitty little cat

Book- booklet small book

Duck- duckling baby duck

Pig- piglet baby pig

ring - ringlet small ring or curl of hair

drop - droplet tiny drop

cloud- cloudlet small cloud

4. The function of softening the speech situation, making the speaker's speech more convincing. In this case, the communication distance with the interlocutor is further reduced. This function is often manifested in diminutives used by doctors who seek to calm the patient, convince him of the painless nature of the procedure, or soften the perception of medical information:

Arteriole – small artery

Venule – small vein

Tubule – small tube

Nodule – small node or lump

Follicle – small sac or cavity in the body

Pupilla (Pupil) – small 'doll'; originally the reflection seen in the eye

5. The function of speech expression, in which the signs of the subject of the statement are enhanced.

6. The function of enhancing the nature of the object, emphasizing its high degree of intensity: calculated to the last detail, measured to the smallest detail, any document is also significant.

7. The function of the attitude of a certain person, the hero of a work of art to the speech situation (helps to reveal the image of the speaker from the point of view of social characteristics) trifles, various sayings.

In our opinion, the functional diversity of diminutives in any language is wide, since many cases of the use of diminutives in speech include not only emotional and subjective assessments, but also specific pragmatic goals. Such goals include, among others, the fourth function described by A.M. Rodimkina - to smooth the process of receiving information or to calm the interlocutor. - the function of demonstrating a friendly attitude towards the interlocutor (for example, in the speech of buyers and sellers, diminutives can be a sign of politeness and

good mood, or an indicator of a friendly mood towards the interlocutor, or one of the forms directed at customers: We have beautiful red apples, Can you put them in a package?


- the function of influencing the interlocutor (for example, in the case of four or five female students living in a rented house, when discussing issues related to the housing conditions of the house, etc., when the owner is dissatisfied with the use of diminutives: for example, there may be a call to leave this house and change residence. Let's give an example of such a situation from direct observation: "Let's leave this house! He came and checked every day and harassed us. He has only one house, so that's all!" In this case, the diminutive of the house, in addition to its derogatory function, is used as a means of speech influence);

- inanimate the function of communicating with objects or the animal world (for example, in speech addressed to pets - this is a very promising and currently unexplored area of linguistic research, which proves that the functional diversity of diminutives is very wide. Thus, studies have shown that diminutives used by owners when addressing pets often have an affectionate function. For example "Doggie," "Puppy," "Pup," "Puppykins"

Example: "Come here, my little doggie! Who's a good boy?"

— Common in children's books like *The Adventures of Spot* by Eric Hill

Diminutive forms like "doggie" and "puppykins" make speech tender and friendly, showing affection toward the pet.

 2. "Kitty," "Pussycat," "Kittie-pie"

Example: "Poor little kitty, you must be hungry."

— From *Alice's Adventures in Wonderland* by Lewis Carroll

Carroll often uses "kitty" when Alice talks to her cat Dinah — it conveys warmth and tenderness.

3. "Bunny," "Bunnykins," "Flopsy," "Mopsy," "Cottontail"

Example: "Now, my dears," said old Mrs. Rabbit one morning, "you may go into the fields or down the lane, but don't go into Mr. McGregor's garden."

— From *The Tale of Peter Rabbit* by Beatrix Potter

Potter uses cute diminutive names like "Flopsy" and "Mopsy" for baby rabbits — soft sounds and -y endings make them sound loving and childlike.

 4. "Mousey," "Little one," "Tiny thing"

Example: "Run along now, little mousey," said Mrs. Tittlemouse.

— From *The Tale of Mrs. Tittlemouse* by Beatrix Potter

Beatrix Potter again uses diminutives to express endearment and a sense of safety in talking to small animals.

5. "Teddy," "Pooh Bear," "Little bear" Example: "Oh, bother," said Winnie-the-Pooh. "Silly old bear," said Christopher Robin affectionately.

— From *Winnie-the-Pooh* by A. A. Milne

"Pooh," "Teddy," and "silly old bear" are diminutive-style nicknames that show love between a child and his stuffed animal.

6. "Birdie," "Tweetie," "Chickie" Example: "The birdies are singing already," said Mary.

— From *The Secret Garden* by Frances Hodgson Burnet

Burnett's use of "birdies" softens the tone and shows the character's growing affection for nature.

LIST OF LITERATURES:

1. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. – Toshkent, 1989, 304 b.
2. Abdullaev F. Ism. Dushanbe, 1972
3. Abdurahmonov G‘. A. Qo‘shma gap sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1964, – 246 b.
4. Abdurahmonov G‘. A. O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996, – 246 b.
5. Nasimova, S. Y. (2024, August). ANTROPONIM SARLAVHALAR. In *Conference on Applied and Practical Sciences* (pp. 149-151). Open Journal Systems.
6. Ёрова, С. К., & Насимова, С. Я. (2024). ТИББИЙ НУТҚДАГИ ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ ДИСКУРСИВ ХУСУСИЯТЛАР. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 5(1), 440-442.
7. The Tale of Peter Rabbit (1902) — by Beatrix Potter
8. The Tale of Mrs. Tittlemouse (1910) — by Beatrix Potter

Xudayberdiyeva Orifa
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
1-bosqich doktoranti

YANGI LEKSIK BIRLIKLARNI SAMARALI O‘RGATISH

Annotatsiya. Mazkur mqola asosan yangi so‘zlarni taqdim etish jarayoniga qaratilgan. Ushbu faoliyatlarning aksariyati o‘qish matnlari, reklama materiallari, yangiliklar eshittirishlari hamda audio yozuvlardan foydalanib, tashqi dunyoni sinf xonasiga olib kirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. So‘z, leksika, chastota, yuqori chastotali, past chastotali, antonim, sinonim, omonim.

Til o‘rganuvchilarga yangi so‘zlarni taqdim etishda ikki muhim jihat mavjud. Birinchisi — so‘zlarni tanlash masalasidir. Bu o‘quv jarayonida qaysi so‘zlarga e‘tibor berilishi bilan bog‘liq. Ikkinchisi esa — so‘zlarni taqdim etish ketma-ketligi, ya‘ni ularning o‘quv jarayonida qanday tartibda o‘rganilishi bilan bog‘liqdir.

Tilshunoslikda so‘zlarning chastota tadqiqotlariga ko‘ra, lug‘at tarkibi yuqori chastotali va past chastotali so‘zlarga bo‘linadi. Yuqori chastotali so‘zlar kundalik muloqotda, tilning barcha to‘rt ko‘nikmasida (o‘qish, yozish, tinglash va gapirish) tez-tez ishlatiladigan birliklardir. Bular o‘zbek tilidagi eng ko‘p qo‘llanadigan yordamchi so‘zlar (masalan, keyin, bilan, ham) hamda umumiy ma‘noli so‘zlarni (vaqt, sekin, yaxshi, bormoq) o‘z ichiga oladi.

So‘nggi tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, yuqori va past chastotali so‘zlarni farqlash uchun eng maqbul nuqta — O‘zbek tilining alfavitli chastotali lug‘ati (taxminan 200.000 ta so‘z mavjud). Ushbu yuqori chastotali so‘zlar o‘zbek tili matnlarida eng faol ishlatiladigan birliklardir: lekin bu lug‘at 1982-yilda yaratilganini hisobga olsak, undagi ba‘zi so‘zlar hozirgi kunda faolligini yo‘qotgan va yangi so‘zlar kirib kelgan.

Past chastotali so‘zlar esa kundalik hayotda kamroq uchraydigan birliklardir. Biroq ular uzluksiz matnda ishlatiladigan umumiy so‘zlarning juda kichik qismini tashkil etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori chastotali so‘zlarni o‘qitishdan o‘quvchiga keladigan foyda past chastotali so‘zlarni o‘qitishdan ancha yuqori. Shu bois o‘qituvchilar tildagi

yuqori chastotali soʻzlarini yaxshi bilishlari juda muhimdir. Shuningdek, oʻqituvchilar dars vaqtining asosiy qismini aynan shu yuqori chastotali soʻzlarni oʻrgatishga bagʻishlashlari lozim.

Yuqori chastotali soʻzlar oʻzlashtirilgach, oʻqituvchilar past chastotali soʻzlarga ham eʼtibor qarashlari mumkin. Biroq odatda oʻquvchilarga bu soʻzlarni oʻzlarini mustaqil oʻrganishlari uchun zarur usullarni oʻrgatish maqsadga muvofiqdir. Bunday usullarga kontekstdan maʼnosini aniqlash, soʻz qismlarini tahlil qilish, soʻz kartalaridan foydalanish hamda “keyword” usuli kabi mnemonik texnikalar kiradi.

Oʻqituvchilar har bir lugʻat oʻzlashtirish jarayonini tahlil qilib, oʻquvchilarning vaqtini asosan yuqori chastotali soʻzlarga sarflayotganliklarini tekshirishlari kerak. Agar oʻrganilayotgan soʻzning aksariyati past chastotali boʻlsa, oʻquvchilarning vaqti yanada foydali boʻlgan boshqa elementlarga yoʻnaltirilgan maʼqul.

Higa (1963) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga koʻra, sinonimlar, antonimlar yoki erkin assotsiatsiyalarni bir dars davomida birgalikda oʻrganish jarayonini murakkablashtiradi. Masalan, issiq – sovuq, ochmoq – yopmoq, oldini olmoq – himoya qilmoq, stol – stol kabi soʻz juftliklarini birgalikda oʻqitish oʻrganishni qiyinlashtiradi. Bu kabi juftliklarni birgalikda oʻrgatish oʻquvchilarda chalkashlikni kuchaytiradi. Buning sababi — ushbu soʻz juftliklarining oʻzaro semantik yaqinligi, ularning assotsiativ bogʻliqligi kuchli boʻlishi va bir-biriga halaqit berishidir. Masalan, oldini olmoq va himoya qilmoq soʻzlarini birgalikda oʻrgatganda, oʻquvchilar koʻpincha chalkashib ketadi. Natijada ular himoya qilmoq soʻzini “oldini olmoq” maʼnosida yoki oldini olmoq soʻzini “himoya qilmoq” maʼnosida tushunishlari mumkin (sovuqdan oldini olmoq va sovuqdan himoya qilmoq kabi holatlar). Bu holat ayniqsa ikkala soʻz ham oʻquvchi uchun yangi boʻlganida sodir boʻladi.

Bunday maʼnoviy chalkashlikni oldini olish uchun sinonim yoki antonim juftliklarni bir vaqtning oʻzida emas, balki bosqichma-bosqich oʻrgatish maqsadga muvofiqdir. Masalan, avval oldini olmoq soʻzi, oradan bir necha hafta oʻtgach esa himoya qilmoq soʻzi oʻrgatilishi mumkin.

Tinkham (1993) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham bu fikrni tasdiqlaydi. Unga koʻra, leksik toʻplamlar (mevalar nomi, hafta kunlari, oshxona jihozlari, hissiy holat bildiruvchi sifatlar) ichida soʻzlarni birgalikda oʻrgatish ularning oʻzaro aralashib ketishiga va oʻrganishni qiyinlashtirishga olib keladi. Bunday interferensiyani kamaytirishning eng samarali yoʻli — soʻzlarni chastotasiga koʻra tartiblab oʻqitish, yaʼni avval yuqori chastotali, keyin past chastotali soʻzlarni oʻrgatishdir. Shuningdek, soʻzlarni tabiiy matnlardagi yoki nutqdagi ishlatilish tartibida oʻqitish ham bu muammoni kamaytiradi.

“Qayta ishlash darajalari” nazariyasi (Craik & Lockhart, 1972; Craik & Tulving, 1975) oʻrganish jarayonida eng muhim omillardan biri sifatida oʻquvchi ongida sodir boʻlayotgan aqliy faoliyat sifati va chuqurligini taʼkidlaydi. Mazkur nazariyaga koʻra, agar axborot ustida amalga oshirilayotgan kognitiv faoliyat chuqur, tafakkuriy va maʼnoli boʻlsa, unda mazkur axborot doimiy xotirada mustahkam saqlanadi. Aksincha, agar faoliyat yuzaki va mexanik boʻlsa, oʻzlashtirilgan bilim qisqa muddatda unutiladi yoki umuman yodda qolmasligi mumkin.

Shu bois, pedagoglar uchun har bir taʼlim jarayonida, xususan, leksik birliklarni oʻrgatish jarayonida, oʻquvchida qanday darajadagi kognitiv ishlovni yuzaga keltirishi mumkinligini hisobga olish muhimdir. Agar yangi soʻzlar yuzaki metodlar asosida oʻrgatilsa, bu samaradorlikni pasaytiradi. Aksincha, mazkur soʻzlarni chuqur fikrlashga asoslangan jarayonlar orqali oʻrgatish yanada samaraliroq boʻladi.

Soʻzlar ustida chuqur va samarali ishlash quyidagi usullar orqali yuzaga kelishi mumkin:
yangi soʻzlarni mavjud bilimlar bilan bogʻlash;
mazkur soʻzlar uchun kontekstual (mazmunli) vaziyatlar yaratish;

soʻzlarni eslab qolish uchun turli xil semantik, fonetik yoki vizual ishoralardan foydalanish;

soʻzlarni boshqa soʻzlar bilan semantik jihatdan bogʻlash (masalan, sinonim, antonim, kategoriyalar asosida);

yangi oʻrganilgan soʻzlarni hayotiy vaziyatlarda yoki amaliy topshiriqlarda faol ishlatish.

Shu tarzda yondashuv oʻquvchining bilimni chuqur anglashiga, mustaqil fikrlashga va oʻrganilgan bilimlarni faol qoʻllashga olib keladi. Bu esa nafaqat lingvistik bilimlarning, balki umumiy kognitiv malakalarning ham rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Higa, M. 1963. *Interference effects in the learning of synonyms*. Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior, 2(2), 170–175.
2. Tinkham, T. 1993. *The Effects of Semantic Clustering on the Learning of Second Language Vocabulary*. System, 21(3), 371–380.
3. Craik, F. I. M., & Lockhart, R. S. 1972. *Levels of processing: A framework for memory research*. Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior, 11(6), 671–684.
4. Craik, F. I. M., & Tulving, E. 1975. *Depth of processing and the retention of words in episodic memory*. Journal of Experimental Psychology: General, 104(3), 268–294.
5. Oʻzbek tilining alfavitli chastotali lugʻati. 1982. Toshkent: Fan nashriyoti.

F.Sadinov, SamDCHTI oʻqituvchisi

OʻQUVCHI TAFAKKURINING SHAKLLANISHIDA BAYONNING OʻRNI

Annotatsiya. Ushbu maqola bayonni oʻtkazish bilan bogʻliq jarayonlar tahliliga bagʻishlangan. Unda bayonni oʻtkazishga oid tavsiyalar ham berilgan.

Kalit soʻzlar: bayon, ijodiy bayon, matn, dars, tahlil, nutq, topshiriq, tekshirish.

Аннотация. Данного статья посвящен анализ связи процесса проведение изложение. В том числе статье рекомендован проведение изложение.

Ключевые слова: изложение, творческий изложение, текст, речь, задание, проверить.

Annotation. This article is devoted to the analysis of the connection process of the presentation. Including the article, the presentation is recommended.

Key words: presentation, creative presentation, text, speech, task, check.

Yozma ishning muhim turlaridan biri boʻlgan bayon oʻquvchilarning imlo savodxonligini oshirish bilan birga ularning fikr doirasini kengaytirish, oʻz fikrini badiiy tarzda bayon qilish, soʻz boyligini oshirish, til lugʻat boyligidan oʻrinli foydalanish qobiliyatining oʻsishiga yordam beradi. Ayniqsa, ijodiy bayonlar xarakter xususiyatiga koʻra inshoga yaqin tursa-da, lekin yozilish jihatidan inshodan farq qiladi. Yozma ishning bu turi orqali oʻquvchilar nutqidagi jumla, gap tuzishdagi nomukammalikka barham berilib, xotirada saqlash qobiliyatini oʻstirishda ahamiyati katta. Kichik hajmli hikoyalar, katta badiiy asarlardan olingan mustaqil syujetli parchalar, syujetli rasmlar asosida ijodiy bayon olish mumkin.

Oʻqituvchi qaysi sinfda ishlashidan qatʼi nazar, u bogʻlanishli nutqning bu turini oʻrgatishdagi tadrijiylikni aniq tasavvur etish uchun shu paytgacha oʻtilgan mavzular bilan

tanishib chiqishlari lozim bo'ladi. O'qituvchi avvalo o'tilgan materiallar asosida choraklik va taqvimiy reja tuzganda quyidagilarga amal qilishi lozim bo'ladi:

1. Bayon turi o'quvchilar bilim darajasiga qarab belgilanadi.
2. Bayon mazmuni o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi lozim.
3. Bayon ustida ishlash o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishga qaratilgan mashg'ulotning boshqa turlari bilan chambarchas bog'liq bo'lishi lozim.

Bayon yozishga tayyorgarlik ko'rish dastlab o'quvchilarga sodda gaplar tuzishga o'rgatishdan boshlanadi. O'quvchilarga gapda so'zlar tartibini, gap o'rtasida va oxirida tinish belgilarining qo'yilishi singarilar haqida ma'lumot beriladi. Yozma nutq malakalarini mustahkamlash uchun o'quvchilarni bayonda o'zlari yoza oladigan so'zlardan foydalanishga o'rgatish lozim bo'ladi.

Bayon yozish jarayonida uning mazmunini ochuvchi savollar orqali tahlil qilish lozim bo'ladi. Matn mazmunini tahlil qilish o'quvchilarning asosiy fikrini va matn qismlari o'rtasidagi bog'lanishni bilib olishga yordam beradi. Bu esa mazmunni tushunmasdan shunchaki eslab qolishning oldini oladi.

Bayon yozishga tayyorlanishda maxsus dars soati ajratilishi talab qilinmasa-da, lug'at ishlari bajarish o'rinlidir. Chunki o'quvchida ongli ravishda matndagi har bir so'z yoki birikmaning lug'aviy ma'nosini tushunish ehtiyoji tug'iladi. Ko'pgina holatlarda o'quvchilar hayotiy tajriba hamda darsda o'rgangan bilim, malaka va ko'nikmalariga tayanib ish ko'rishadi. Asta-sekinlik bilan o'quvchilarga matnda takrorlanadigan so'zlarni almashtirish ko'nikmasini o'rgatib borish ham foydalidir.

Agar boshlang'ich sinflarda o'quvchilar matn asosida erkin bayon qilish, hikoya qismlariga birgalikda sarlavha qo'yish, rasmi rejadan foydalanib bayon yozish asosida bayon yozsalar, quyi sinflarda esa matnni qisqartib bayon qilish, mustaqil reja asosidagi tasvirli, grammatik topshiriqli hamda tekshiruv singari bayon turlarida bayon yoza boshlashlari maqsadga muvofiqdir.

Ta'limiy bayon olishdan oldin o'quvchilarga uni yozish talablari va qoidalari tushuntiriladi, zaruriy bilimlar berilgandan keyin bayon yozish ishi boshlanadi.

Ilg'or metodistlarning bu boradagi tajriba va mulohazalariga asoslanib, ularni quyidagicha turlarga ajratish mumkin:

1. Matnga yaqinlashtirib bayon yozish. Bunday paytda badiiy til xususiyatlari bilan ajralib turuvchi asarlar bayon uchun tanlanadi. O'quvchilar bayon yozishda asar muallifiga xos so'z va iboralardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Matn mazmuniga yaqinlashtirib yozilgan bayon o'quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi va lug'at boyligini oshiradi.

2. Qo'shimcha topshiriqli bayon. Bayonning bu turi grammatik qoida yuzasidan olingan bilimni ko'nikma va malakalarga aylantirish maqsadida o'tkaziladi. Grammatikaning biror mavzusi o'rganilgach, qo'shimcha tarzda topshiriqli bayon o'tkazilishi mumkin.

3. Saylanma bayon. Bunda bayon matnining butun qismi to'liq yozilmaydi. O'quvchilar erkinlik asosida o'zlariga yoqqan, qiziqtirgan biror qismni saylab oladilar. Bundan maqsad o'quvchilar keng qamrovli asar haqida yaxlit bir ma'lumotga ega bo'ladilar. Saylab olingan qism mazmuniga ijodiy munosabatda bo'ladilar.

4. Qisqartirib, ixcham bayon yozish. Bunda biror matn mazmuni umumlashtirilib, asosiy g'oya qisqa ifodalanadi. Maqsad matn mazmuniga zarar yetkazmagan holda voqeaning muhim tomonlari bayon qilinadi.

5. Ijodiy bayon. Bayonning bu turida matn mazmuniga munosabat bildiriladi.

Ko‘pincha dialoglar, shaxslar o‘zgartirilib bayon qilishga e‘tibor beriladi.

6. Ixcham bayon. Bunda o‘n-yigirma daqiqali qiziqarli kichik mashg‘ulotlar o‘tkazilib, o‘quvchining mavzuni tez o‘zlashtirishiga yordam beradi. Uning bir marotaba o‘qib berilishi ham o‘quvchilarning eshitish qobiliyatini oshirishga, xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

7. Tekshiruv-sinov bayoni. O‘quvchilarning nutq malakalarini aniqlash, sinash maqsadida o‘quv yilining har choragida bir-ikki marta o‘tkaziladi. Bunda o‘quvchilarga tanish bo‘lmagan, darsda tahlil qilinmagan mavzu olinishi maqsadga muvofiqdir.

Bayon quyidagi uch bosqichda o‘tkaziladi:

1. Bayon yozishga tayyorgarlik, matn mazmuni ustida ishlash. Bu jarayon o‘qituvchining ish rejasida belgilangan mavzu bilan o‘quvchilarni tanishtirish, maqsad va vazifalarni aniqlash, rejani tuzish, lug‘at ustida ishlash singarilardan iborat bo‘ladi.

2. Bayonni yozish jarayoni. Bunda o‘quvchining mavzu mazmunini qay darajada tushunib olganligini bilish uchun savollar berish bilan aniqlanib olinadi. Shundan keyin mavzuni yozishdan oldin uni mustaqil o‘qib olishlari uchun uch-besh daqiqa vaqt beriladi.

3. Bayonni tahlil qilish, tuzatish va baholash. O‘quvchilar yozgan bayonlari o‘qituvchi tomonidan puxta o‘rganilib, baholanadi va sinfda tahlil qilinadi. Jumladan, o‘quvchilar mavzuni qanchalik o‘zlashtirganligi va reja asosida bayon eta olganligi, savodli, grammatik qoidalarga mos ravishda yozganliklariga e‘tibor beriladi. Bayon tekshirilganda aniqlangan xatolar aniqlanib, ularga quyidagicha belgi qo‘yiladi: imlo xatosi bor harf tagiga to‘g‘ri (_), ortiqcha yozilgan harf tagiga ikki (=), jumlada sintaktik aloqa buzilgan bo‘lsa, bir uzun to‘g‘ri (_), uslubiy xato, ya‘ni so‘z takror yozilsa yoki o‘z o‘rnida yozilmagan bo‘lsa, to‘lqinli (~ ~ ~) chiziq qo‘yiladi. Bir yoki bir necha uslubiy xatolar bo‘lsa qo‘sh tik (||), jumlar orasida aloqa bo‘lmasa bir tik (|) chiziq ishorasi va so‘roq belgisi (?), yangi fikr yangi qatordan boshlanmagan bo‘lsa, yangi qatordan boshlash ishorasi (Z), so‘z yoki gap qoldirilgan fikrni tasdiqlaydigan dalil bolmasa, ayirib hamda qo‘shib yozish lozim bo‘lsa ildiz (/) ishorasi qo‘yiladi.

Xullas, o‘quvchilar bayoniga qo‘yiladigan baho har tomonlama asoslab berilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki o‘quvchilar o‘zi yo‘l qo‘ygan xatolarini tushunib yetishlari hamda kelajakda ularni bartaraf etishga harakat qiladi. Bu esa ularning tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi, shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 б.
2. Muslixiddinova R. Bayonlar to‘plami. Navoiy. 2022. – 61 b.
3. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. - T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
4. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. - T: Fan va texnologiyalar, 2012.

Qodirova E‘tibor
Samarqand davlat chet tillar instituti
Sharq tillar fakulteti talabasi

XITOIY TILINI O‘QITISHDA INSON HIS-TUYG‘ULARINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TAHLILI

Annotatsiya: Shaxs tirik mavjudot bo'lishi bilan birga jamiyat a'zosi hamdir, shuningdek, inson sifatida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarga munosabatini xolisona aks ettiradi. Shaxsning faoliyati, xulq-atvori, muomalasi hamda jamiyat uchun ahamiyatli hisoblangan narsa va hodisalarni aks ettiruvchi munosabati his-tuyg'ularda mujassamlashadi. Ushbu maqolada frazalarning tilda tutgan o'rni, shuningdek, ularning xitoy va o'zbek tillarida taqqoslanishi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Frazologik birliklar, o'zbek va xitoy tilidagi inson his-tuyg'ulariga oid frazalar, madaniyat, his-tuyg'u.

Abstract: A person, being a living being, is also a member of society, and as a person, he objectively reflects his attitude to the surrounding things and phenomena. A person's activities, behavior, behavior, and attitude to things and phenomena considered significant for society are embodied in emotions. This article analyzes the role of phrases in language, as well as their comparison in Chinese and Uzbek languages.

Keywords: Phraseological units, phrases related to human emotions in Uzbek and Chinese, culture, emotions.

Аннотация: Человек, будучи живым существом, также является членом общества, и как личность он объективно отражает своё отношение к окружающим вещам и явлениям. Действия, поведение, поступки человека, а также отношение к вещам и явлениям, считающимся значимыми для общества, воплощаются в эмоциях. В данной статье анализируется роль фразеологизмов в языке, а также проводится их сопоставление в китайском и узбекском языках.

Ключевые слова: Фразеологизмы, фразеологизмы, связанные с эмоциями человека, в узбекском и китайском языках, культура, эмоции.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida xorijiy tillarni, xususan, Xitoy tilini o'rganish va o'qitish jarayonida tilshunoslikning turli jihatlarini chuqur o'rganish zaruriyati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev quyidagi fikrni alohida ta'kidlagan edi:

“Bizning maqsadimiz – zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni puxta egallagan, mustaqil fikrleydigan, yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashdir”.

Xitoy tili o'zining murakkab yozuv tizimi, boy leksik zaxirasi va chuqur madaniy qatlamlarga ega bo'lgan frazeologizmlari bilan boshqa tillardan keskin farq qiladi. Ayniqsa, inson his-tuyg'ularini ifodalovchi frazeologik birliklar (masalan, quvonch, g'am, qo'rquv, g'azab kabi holatlarni aks ettiruvchi iboralar) Xitoy xalqining dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va milliy tafakkuri haqida muhim ma'lumot beradi.

Muhokama va natijalar. Frazologik birliklar — har qanday tilning obrazli ifoda vositalari hisoblanib, ular orqali tilni chuqurroq anglash, o'z fikrini ravon va ta'sirchan yetkazish imkoniyati kengayadi. Xitoy tilini o'rgatishda ushbu frazeologik birliklarni chuqur tahlil qilish va o'quvchilarga ularni to'g'ri, kontekstga mos holda o'rgatish — til o'rgatishning samaradorligini oshiradi. Shu bois, maqolada Xitoy tilidagi inson his-tuyg'ularini ifodalovchi frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari, ularning tarjimai, madaniy jihatlar va o'qitish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Insonning ruhiy holati va his-tuyg'ulari uning nutqi va tashqi ko'rinishi orqali namoyon bo'ladi. Nutqning ta'sirchanligi va emotsionalligini oshirishga xizmat qiladigan so'zlar, shuningdek, frazeologik birliklar o'z ma'nolari bilan inson ruhiyatiga ta'sir etish xususiyatiga ega. Shu boisdan fikrni tinglovchiga yetkazishda frazeologizmlar ham boshqa til birliklari singari voqea-hodisalarni aks ettirishda o'ziga xos ta'sirchanligi bilan ajralib turadi.

Ularning asosiy ahamiyati nutqni ifodalashda unga hissiy rang berish va uning ma'nosini mustahkamlashdan iboratdir.

Insonning his-tuyg'ulari til va madaniyat orqali ifodalanishi, shu bilan birga xalq tafakkurining muhim qismi hisoblanadi. Maqolalar va frazeologik birliklar bu jarayonda asosiy rol o'ynaydi, ular orqali xalqning axloqiy qadriyatlari, hayotiy tajribalari, hissiy dunyosi ochilib beradi. O'zbekiston va Xitoy xalqlarining maqollari inson his-tuyg'ularini ifodalashda o'ziga xosliklarni ko'rsatadi.

O'zbek xalqining maqollari ko'pincha odamning ichki holatlari, tabiat va jamiyat bilan munosabatini yoritadi. Quyidagi maqollar inson his-tuyg'ularining turli jihatlarini ifodalashda keng qo'llaniladi:

Ko'ngil ko'ngildan suv ichar— *Insonlar bir-biriga mehr bilan yondoshsa, munosabatlar mustahkam bo'ladi.*

Ko'ngilni olgan — odam olgan.— *Inson qalbini qozonish eng katta yutuq.*

Yuraksiz so'z — shamolsiz tutun. *Hissiz aytilgan so'zlar ta'sirli bo'lmaydi.*

Yurakka buyruq o'tmaydi - *His-tuyg'ular majburlik bilan boshqarilmaydi.*

Muhabbat — ko'ngil ishi, ko'ngil esa — erkin.— *Sevgi va hislar hech kimga bo'ysunmaydi.*

Frazeologik birliklar orqali inson his-tuyg'ularini aniq, ta'sirchan ifodalash mumkin. Xitoy tilida bunday birliklar juda ko'p va rang-barang bo'lib, ular til o'rganuvchilarga nafaqat lug'aviy, balki madaniy bilimlarni ham beradi. Xitoy tilidagi frazeologik birliklar insonning ichki kechinmalari, kayfiyati va ruhiy holatini chuqur aks ettiradi. Quyida ular orasidan ba'zilarini tahlil qilamiz:

怒发冲冠 (nù fà chōng guān) Ma'nosi: “G'azabdan sochlari tikka bo'ldi” nihoyatda g'azablangan holat. **Tarixiy kelib chiqishi:** Bu ibora qadimgi Xitoy adabiyotida jangchilarning g'azab holatini tasvirlashda ishlatilgan.

喜出望外 (xǐ chū wàng wài) Ma'nosi: “Kutilmagan darajada xursand bo'lish”, **Izoh:** Odatda o'ylamaganda yaxshi natijaga erishgan paytda ishlatiladi. Misol: Talaba HSK imtihonidan yuqori ball olgach, u 喜出望外 holatga tushdi.

心惊肉跳 (xīn jīng ròu tiào) Ma'nosi: “Yurak qo'rquv, tana titraydi”, **Izoh:** Bu ibora insonning kuchli qo'rquv, xavotir holatini ifodalaydi. Qo'llanishi: Til o'rganishda o'quvchi noto'g'ri gapirib qo'yishdan cho'chisa, shu holatga tushadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, xitoy tilidagi frazeologik birliklar — xalqning madaniyati, tarixiy tajribasi va inson ruhiyatining nodir ifodasidir. Inson his-tuyg'ularini aniq va badiiy ifodalashda ular katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur frazeologizmlar yordamida o'quvchilar nafaqat lug'at boyligini oshiradi, balki tilning chuqur madaniy kontekstini anglaydi va hissiy jihatdan boyiydi.

Xitoy tilini o'qitishda ushbu frazeologik birliklarni o'z vaqtida va maqsadli qo'llash, o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning nutq madaniyatini, his-tuyg'ularni aniq ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, insoniy kechinmalarni o'zida aks ettiruvchi bunday birliklarni o'rganish nafaqat til o'rganish jarayonini boyitadi, balki madaniyatlararo muloqotda ham chuqur tushuncha hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston",2016,- 56 b.
2. 王力,《古代汉语》,中华书局,2015.
- 3.《现代汉语词典》,商务印书馆,第7版,2016.
4. 符淮青《现代汉语词汇》,北京:北京大学,2004年,P.-254. Fu Humi-qing. Hozirgi xitoy tili leksikasi. - Pekin: Pekin universiteti, 2004. B.-254.
5. 胡裕树《现代汉语》,商务印书馆香港馆,1979年,P.-373. Hu Yu-shu. Hozirgi xitoy tili. - Shangwu yinshuguan xianggang guan, 1979. B.-373.
6. 马国凡《汉语的成语》,呼和浩特:内蒙古人民出版社,1958年,P.-28.Ma Guo fan. Xitoy idiomalari, - Huhehaote: Neiminggu xalq nashriyoti, 1958. B.-28.
- 7.《现代汉语词典》,上海:汉语大词典出版社1997年. Hozirgi xitoy tili lug'ati.
8. Shanhay: Xitoy tili katta lug'atlar nashriyoti, 1997. B. -1767
9. 马国凡《谚语,歇后语,惯用语》,呼和浩特:内蒙古人民出版社,1954年,P- 299. Ma Guo-fan. Yanyu, xichouyu, guanyongyu. -Huhehaote: Neiminggu xalq nashriyoti, 1954. B.-299.
10. www.baidu.com

Xudaynazarova Charos Sharifjonovna
Angren shahar 13-maktab
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

BADIIY MATNDA MA'NODOSH VA ZID MA'NOLI SO'ZLARNING USLUBIY IMKONIYATLARI (NORMUROD NORQOBILOV QISSALARI MISOLIDA)

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali yozuvchi Normurod Norqobilovning “Oqbo‘yin” va “Yuzma-yuz” qissalari misolida leksik birliklardan, ya’ni sinonim hamda antonim so‘zlardan o‘rinli va unumli foydalanish mahoratini ochib berishga e’tibor qaratilgan. Ma’nodosh so‘zlar bir umumiy ma’no asosida birlashsa-da, lekin ular bir-biridan o‘ziga xos ma’no ottenkasi orqali farq qilishi mumkinligi ko‘rsatib berilgan. Turli ifoda semalari adibning badiiy-estetik maqsadini qay darajada namoyon etganligini bilishimiz mumkin. Shuningdek, tilda zid ma’noli so‘zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta’sirchanligini ta’minlashda qulay vositalardan biridir. Yozuvchi zid ma’noli so‘zlarni vaziyatlarni oydinlashtirish uchun ishlatadi. Zid ma’noli so‘zlarni juft holda qo‘llash orqali vaziyatga oydinlik kiritadi.

Tayanch so‘z va iboralar: leksik birlik, badiiy-estetik maqsad, ifoda semasi, emotsional-ekspressivlik, sinonimik qator, antonim, ottenka, frazeologik birlik.

Ma’lumki, biror asar matnini lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli, k o‘p ma’noli, tarixiy va arxaik so‘zlar, yangi

yasalmalar, shevaga oid soʻzlar, chet va vulgar soʻzlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi. Binobarin, maʼnodosh soʻzlar tilning lugʻaviy jihatdan boylik darajasini koʻrsatib beruvchi oʻziga xos vositadir. Biz shu nuqtayi nazardan, «Yuzma-yuz» va «Oqboʻyin» qissalaridagi maʼnodosh soʻzlarni ishlatilishini koʻzdan kechiramiz. Yozuvchi tilimizdagi maʼnodosh soʻzlardan tasvir jaryonida eng munosiblarini topib ishlatgan. Ayniqsa, qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha ifodalashda sinonim soʻzlarning ahamiyati katta. Masalan, *Oqboʻyinning chumchuq poylagan mushuk singari yer bagʻirlab gʻalati alpozda harakatlanayotganini koʻrib kuldi, uni tez qutirtirmoq niyatida Qoplonni battarroq tayoqlay boshladi.* (II, 95)¹ matnidagi *kulmoq* feʼlining sinonimlaridan yozuvchi personajlarning turli ruhiy holatini anglatishda unumli foydalanadi. Misollar keltiramiz: *Shodiyor uni mutlaqo kutmagan, dovdirab qoldi. Qoʻlidagi bir tutam novdani qayerga yashirishini bilmaganday bir muddat garangsib turdi-da, soʻng ularni bir chetga uloqtirib, kaftlarini bir-biriga urib, qoqdi. Manosiz ishshaydi.* (I, 7) *Shodiyor uning oʻngʻaysizlanganini koʻrib, iljaydi.* (I, 8) *-Nimaga irshayasan? Nima, ochib qoʻyibdimi?* (I, 8) *-Tishing oʻtmaydi, bola. - Mamat qassob tirjaydi.* (I, 34).

Koʻrmoqdamizki, *kulmoq* feʼlining bu oʻrinda *ishshaymoq, irshaymoq, iljaymoq, tirjaymoq* kabi salbiy ottenkaga ega boʻlgan maʼnodoshlari ishlatilmoqda. Chunki tavsirlanayotgan holatda salbiylik boʻyogʻi mavjudligi sababli yozuvchi ushbu variantlardan foydalangan. Bu oʻrinda *tabassum qildi, jilmaydi* kabi maʼnodoshlarni qoʻllash mantiqsizlikni yuzaga keltiradi. Yozuvchi matndan anglashiladigan maʼnoni taʼkidlash uchun maʼnodosh soʻzlarni juft holda ishlatadi. Masalan, *Avvallari ahvol aytarli darajada yomon emasdi, salgina poʻpisa-yu qutqu bilan jondor otini daf etmoq mumkin edi.* (II, 44) *Chor atrofi baland devor bilan oʻralgan tor joyida uning aqli etmaydigan ajoyibotlar toʻlib-toshib yotibdi.* (II, 46); *Rasul uni yerdan koʻtarib bagʻriga bosdi. Lat yegan oyogʻini silab-siypadi.* (II, 47) *Jarohatiga tili yetganida sen bilan menga kuni tushib turmasdi, yalab-yulqab oʻzi tuzatib olardi.* (II, 70) *Tabiat kuch-quvvat bobida Oqboʻyinga qanchalik himmat qilgan boʻlsa, makkorlig-u tadbirkorlik, ziyraklig-u hushyorlik borasida Yoldordan ham oʻz sahovatini ayamagan edi.* (II, 84) Matnlardagi *poʻpisa-yu qutqu, toʻlib-toshib, silab-siypab, yalab-yulqab, kuch-quvvat* kabi maʼnodoshlar anglashiladigan mazmunni boʻrttirish uchun ishlatilgan.

Ayrim oʻrinlarda yozuvchi soʻzlarning soʻzlashuv nutqidagi variantlaridan foydalanadi. Masalan: *Negaki, qish kezlari qir oshib keladigan boʻrilardan kuygan - jondor desa yetmish yetti tomiri tortishadi, boʻrilarga yemish boʻlgan tomday-tomday novvoslari koʻz oldiga kelib, ichitashi baravar yonadi.* (II, 44). *Rasul qimtinibgina unga yaqinlashdi. - Kuchugimiz oʻlyapti, - dedi tomogʻiga yigʻi tiqilib. - A! – hayratdan Salom doʻxtirning qoshlari chimirildi. Bu bolaning esi joyidami oʻzi, degan maʼnoda unga boshdan-oyoq tikildi. Shu damgacha unga hech kim itim kasal deb kelmagani.* (II, 67). Birinchi matnda *boʻri* soʻzining soʻzlashuv nutqiga xos *jondor* soʻzi, ikkinchi matndagi *it* soʻzining soʻzlashuvdagi variant *kuchuk* soʻzi ishlatilgan. Maʼnodosh qoʻshimchalar bir matn doirasida ishlatilgan holatni ham uchratishimiz mumkin: *Shundan eʼtiboran, Oqboʻyinning notinch va behalovat tunlari boshlandi.* (II, 80). Yozuvchi qissalardagi voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon koʻzi oʻngida aniq va toʻla gavdalantirishda frazeologik iboralarning maʼnodoshligidan ham keng foydalaniladi. Masalan, *qaramoq* maʼnosida «*koʻz tashlamoq*», «*koʻzi tushmoq*», «*koʻz solmoq*», «*koʻz qirini*

¹ Норқобилов Н. Юзма-юз (қиссалар). - Тошкент: Чўлпон, 1993. 175 б. Bundan keyingi oʻrinlarda «Yuzma-yuz» qissasidan olingan misollar qavs ichida I raqami va «Oqboʻyin» qissasidan olingan misollar II raqami va misollar sahifasi bilan birga koʻrsatiladi.

tashlamoq», «ko‘zdan kechirmoq», «ko‘z yugurtirmoq» kabi iboralarni qo‘llagan: *Yo‘l kimsasiz edi. Otasining hovlisidan tortib qishloqdagi barcha hovlilarga bir-bir ko‘z tashlab chiqdi* (I, 29); *Mamat qassob chora istab tevarakka alanglarkan, chor tarafdan shu tomonga kelayotgan kishilarga ko‘zi tushdi* (I, 42); *Mamat qassob kishi bilmas tevarakka ko‘z solib, ko‘cha-ko‘yda paydo bo‘layotgan xotin-xalaj, bola-chaqalarni ko‘rdi* (I, 38); *U mixda osig‘liq turgan qo‘shdig‘ miltiqqa ko‘z qirini tashladi* (I, 14); *Shodiyorning rangi quv oqarib ketdi. Kuchini chamalayotgan bir qiyofada uni boshdan-oyoq ko‘zdan kechirdi* (I, 8); *Keyin najot qidirganday, hovli yuziga bir sira ko‘z yugurtirib chiqdi* (I, 3).

Shu bilan birga asar tilida «qo‘rqmoq», «hayiqmoq» ma‘nosida qo‘llanilgan quyidagi iboralar ham turli xil sinonimik shakllarda uchraydi: «yuragi uvushmoq», «qotib qolmoq», «eti uchmoq»: *Tog‘ay safni eshigi tomon qayrilgan so‘qmoq boshida k o‘rdi. Yuragi uvushib, ichib turgan choyini unutdi.* (I, 3); *Uning shoxini shunday qayiradiki, Mamat qassob deganda dir-dir eti uchadigan bo‘ladi.* (I, 18); *Marhamat, qo‘lida yog‘i chakkillayotgan kapkir, dahshatda qotib qolgandi.* (I, 37).

Qissalarda kishining ko‘tarinki kayfiyatini, xursandligini ifodalash uchun: «bir qop semirmoq», «ko‘ngli chog‘ bo‘lmoq», «og‘zining tanobi qochmoq» kabi sinonimik frazeologik birliklar qo‘llangan: *To‘y egasi, oldindan shu fikr xayoliga kelmaganligiga hayron bo‘lib, ichida qassobning tadbirkorligiga tan beradi. Boshqalarning yuzida ham shu ma‘no zohir. Mamat qassob bundan bir qop semiradi.* (I, 24); *Hovli yuzida g‘ala g‘ovur... Samad chol ko‘ngli chog‘, kelguchilardan hol ahvol so‘rab qo‘yadi.* (I, 21); *Tog‘ay, og‘zining tanobi qochgan, hamon sanchib og‘riyotgan bo‘ynini uqalay-uqalay ketiga tisarildi.* (I, 42). Ko‘rmoqdamizki, yozuvchi tilimizdagi ma‘nodosh so‘zlardan unumli foydalangan.

Shu o‘rinda yozuvchining zid ma‘noli so‘zlardan foydalanishi xususida to‘xtalib o‘tsak. Tilda zid ma‘noli so‘zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta‘sirchanligini ta‘minlashda qulay vositalardan biridir. Yozuvchi zid ma‘noli so‘zlarni vaziyatlarni oydinlashtirish uchun ishlatadi. Masalan, zid ma‘noli so‘zlarni juft holda qo‘llash orqali vaziyatga oydinlik kiritadi. Masalan: *Malla nima qilarini bilmay tahlika og‘ushida turarkan, shu payt fermaxona tomondan eshikning g‘ijirlab ochilib-yopilgan elas-elasi eshitildi.* (II, 67); *Oqb o‘yin itnikiga o‘xshab- o‘xshamay ketadigan bu nido zamirida yurakka vahima soluvchi nimadir borligini ilg‘ar-ilg‘amas, qishloq itlari jazavaga tushib qolishdi.* (II, 79); *Bu tarzda muloqot odamlarga bir xil tuyulsa-da, ovoznining baland-pastligiga qarab, turli ma‘noni anglatadi.* (II, 80); *Aftidan, qorinlari xiyla to‘q ,shekilli, qadam olishlari lanjroq, hatto uzoq-yaqindan eshitilayotgan ham-jinslarining uvlashlariga ham ko‘pda e‘tibor berishmasdi.* (II, 88) misollardagi *ochilib-yopilgan, o‘xshab- o‘xshamay, ilg‘ar-ilg‘amas, baland-past, uzoq-yaqin* antonim juftliklari o‘quvchini jozibali mavhumotga ishora qiladi.

Matnda zid ma‘noli so‘zlarni juft holda qo‘llash orqali yangi semantik ma‘no ifodalangan. Masalan, *Oqbo‘yin bu xil tashriflarga ko‘nikkan, har keldi-ketdidan so‘ng og‘a-inilaridan birortasi g‘oyib bo‘ladi, keyin onasi tuni bilan g‘ingshib chiqadi.* (II, 43); *...bo‘rilarga yemish bo‘lgan tomday-tomday novvoslari ko‘z oldiga kelib, ichi-tashi baravar yonadi.* (II, 44). Birinchi gapdagi *keldi-ketdi* «mehmondorchilik» ma‘nosini anglatasa, ikkinchi gapdagi *ichi-tashi* inson «borlig‘i» ma‘nosini anglatadi.

Yozuvchi bir gap doirasida zid ma‘no anglatuvchi so‘zlarni qo‘llaydi. Masalan: *Oqbo‘yin olg‘a borishniyam, chekinishniyam bilmay turganida notanish itning jiddiy nigohlarida, kimsan, bu yerga qanday kelib qolding, degan ma‘noni uqdi.* (II, 79) kabi. Yozuvchi mazmuniy qarama – qarshi tushunchalarni ifodalovchi so‘zlardan ham unumli foydalangan. Masalan: *Oqbo‘yin tabiatan og‘ir emasmi, jizzakilik qilmadi.* (II, 79); *Z o‘r oldida dum qisishdek itlarga xos zaiflik*

bo‘rilarga ham yot emas. (II, 84); *Tog‘a qanjiqni yo‘qotib, arlon it asrashni maslahat berarkan, kuchukvachchalarni choponi bariga solib, tomorqa adog‘iga oborib tashladi.* (II, 44); *Oqbo‘yin soyga enib, yalanglikka ko‘tarilganda, do‘ngda jon asari ko‘rinmasdi.* (II, 80) misollaridagi *og‘ir – jizzaki, qanjiq – arloni it, z o‘r-zaiflik, enib – ko‘tarilgan* semantik zidlikni hosil qilmoqda.

Yozuvchi bir gap doirasida antonim iboralarni qo‘llab, uslubiy jozibadorlikni ta‘minlaydi. Masalan: *Gurungda it egasining qanchalik bahri-dili ochilgan bo‘lsa, Karim podachiniki shunchalik xufton tortdi.* (II, 92); *Oqbo‘yin jon olish qasdida harchand urinmasin, raqibi ham jonini asrash g‘amida undan jadalroq harakat qilardi.* (II, 86); *Har kech derazadan shu‘la so‘nar-so‘nmas, dashtga chiqib ketar va tong-azonda bir ahvolda qaytar edi. Hovliga kirishi bilan deraza tagiga kelar, nafasini ichiga yutib, ichkariga quloq tutar va Rasulning bir maromda pishillashini eshitgandan so‘nggina ko‘ngli xotirjam tortib, pinakka ketardi.* (II, 81) kabilar. Birinchi misoldagi *bahri-dili ochilmoq* iborasi *xufton tortmoq* bilan, ikkinchi gapdagi *jon olish* iborasi *jonini asrash* bilan, uchinchi gapdagi *nafasini ichiga yutib* iborasi *ko‘ngli xotirjam tortib* iborasiga zidlikni yuzaga keltirmoqda. Umuman, yozuvchi qissalarida zid ma‘nolilikdan unumli foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – 260 б.
2. Юлдашев М.М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан. док... дисс.автореф. – Т., 2009. – 48 б.
3. Ўринбоев Б. Бадий матнинг лингвистик таҳлили. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 220 б.
4. Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари.–Т.: Фан, 1982.–87 б.
5. Норқобилов Н. Юзма-юз (қиссалар). - Т.: Чўлпон, 1993. - 175 б.

Xujanova Nilufar Do‘smat qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

TALABALARDA RAQAMLI SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya: Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida ta‘lim sohasida raqamli savodxonlik alohida dolzarb masalaga aylandi. Zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun yoshlarning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga, balki raqamli kompetensiyalarga ega bo‘lishi ham zarurdir. Shu bois, raqamli savodxonlikni shakllantirish, uni ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish va barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir. Raqamli savodxonlik keng ko‘lamli kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi: ma‘lumotlarga kirish, ularni tahlil qilish, baholash, turli raqamli vositalar orqali samarali muloqot qilish va tanqidiy fikrlash. Ushbu maqolada talabalarning raqamli savodxonlik ko‘nikmasini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: raqamli savodxonlik, sun‘iy intellekt, texnologiyalar, raqamli kompetensiya, raqamli media.

Abstract: In today's globalization and digital transformation, digital literacy has become a particularly urgent issue in education. To succeed in the modern labor market, young people need to have not only professional knowledge and skills, but also digital competencies. Therefore, the formation of digital literacy, its integration into the educational process and ensuring equal opportunities for all students are one of the priorities of today. Digital literacy includes a wide range of competencies: accessing information, analyzing it, evaluating it, communicating effectively through various digital tools, and critical thinking. This article discusses modern approaches to developing students' digital literacy skills.

Keywords: digital literacy, artificial intelligence, technologies, digital competence, digital media.

Аннотация: В условиях современной глобализации и цифровой трансформации цифровая грамотность стала особенно актуальной проблемой в образовании. Для успеха на современном рынке труда молодым людям необходимо обладать не только профессиональными знаниями и навыками, но и цифровыми компетенциями. Поэтому формирование цифровой грамотности, её интеграция в образовательный процесс и обеспечение равных возможностей для всех учащихся являются одними из приоритетов современности. Цифровая грамотность включает в себя широкий спектр компетенций: доступ к информации, её анализ, оценку, эффективное общение с помощью различных цифровых инструментов и критическое мышление. В данной статье рассматриваются современные подходы к развитию навыков цифровой грамотности учащихся.

Ключевые слова: цифровая грамотность, искусственный интеллект, технологии, цифровая компетентность, цифровые медиа.

Raqamli savodxonlik — bu shaxsning raqamli muhitda samarali faoliyat yuritishi, axborotni izlab topishi, baholashi, undan foydalanishi, shuningdek, raqamli vositalar orqali muloqot va hamkorlik qilish ko'nikmalarini qamrab oluvchi kompetensiyalar majmuidir. Yates va boshqalar (2015) ta'kidlaganidek, raqamli savodxonlik talabalarda tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish va texnologik o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, Chanda va Phiri (2024) o'z tadqiqotlarida raqamli resurslardan foydalanishda ijtimoiy-iqtisodiy omillar muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi. Ularning fikricha, barcha talabalar uchun teng imkoniyatlarni yaratish, texnologiyalardan foydalanishda adolatli sharoitlarni ta'minlash raqamli savodxon jamiyatni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Ta'lim texnologiyalari (EdTech) bugungi kunda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Mumbi va Nyirenda (2024) EdTech vositalari qatoriga Moodle, Blackboard kabi o'quv jarayonini boshqarish tizimlarini kiritib, ular ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish, talabalar bilimni baholash va muloqotni ta'minlash imkonini berishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Zohaib va boshqalar (2024) sun'iy intellektning ta'limga integratsiyasi orqali individual yondashuv, adaptiv ta'lim va ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirish imkoniyatlari mavjudligini qayd etadilar. Onlayn platformalar kabi vositalar yordamida talabalarda bilim olish jarayonini qiziqarli, samarali va individual ehtiyojlarga moslashtirilgan tarzda tashkil etish mumkin.

Chanda (2024) EdTech imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun avvalo raqamli tengsizlikni bartaraf etish, barcha o'quvchilarni zarur qurilma va internet bilan ta'minlash, shuningdek, o'qituvchilarni raqamli kompetensiyalarga o'rgatish zarur deb hisoblaydi.

Raqamli kompetensiya — bu shaxsning raqamli texnologiyalar va vositalardan shaxsiy, ta'limiy va kasbiy faoliyatida samarali foydalanish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ventayen (2019) ning ta'rificha, raqamli kompetensiya axborot bilan ishlash, muloqot qilish, raqamli

kontent yaratish, shuningdek, xavfsiz va mas'uliyatli foydalanish kabi ko'nikmalarni qamrab oladi. Wahyuddin (2017) esa "raqamli kompetensiyani talabalarda shakllantirish zamonaviy mehnat bozorining talabidir" deya ta'kidlaydi. Unga ko'ra, nafaqat asosiy kompyuter savodxonligi, balki kodlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va raqamli loyihalarni boshqarish kabi kengroq ko'nikmalar ham zamonaviy yoshlarning raqobatbardoshligini belgilaydi.

Chanda va boshqalar (2024) ta'kidlaganidek, ta'lim jarayoniga texnologiyani integratsiya qilish — bu raqamli vositalar va resurslarni ta'lim-tarbiya jarayonlariga uyg'un va samarali tarzda tatbiq etish bo'lib, uning asosiy maqsadi ta'lim natijalarini yaxshilashdan iboratdir. Ushbu yondashuv an'anaviy pedagogik usullarni qo'llab-quvvatlash, boyitish va kengaytirishda texnologiyadan foydalanishni nazarda tutadi. Texnologiyani samarali integratsiya qilish o'quv dasturlari maqsadlari bilan raqamli vositalarni uyg'unlashtirishni, ular orqali talabalarning qiziqishini oshirishni, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni talab etadi. Bunda interaktiv doskalar, ta'limiy ilovalar, onlayn resurslar va hamkorlikka mo'ljallangan raqamli platformalardan foydalanish muhim tarkibiy qismlardan hisoblanadi. Texnologiyani muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun o'qituvchilar tegishli tayyorgarlik va metodik qo'llab-quvvatlashga ega bo'lishlari zarur, ta'lim muassasalari esa ishonchli infratuzilma va resurslarga sarmoya kiritishi lozim. Shuningdek, texnologiya integratsiyasi aniq maqsadlar asosida yo'naltirilishi, muntazam baholanishi va turli xil ta'lim ehtiyojlarini qondira olishi kerak. Bunday kompleks yondashuv talabalarning texnologiyaga asoslangan jamiyatga tayyorlanishiga yordam beradi va ularni kelajak mehnat bozorida zarur bo'ladigan ko'nikmalar bilan qurollantiradi.

Raqamli savodxonlikda tanqidiy fikrlash raqamli vositalar va platformalardan samarali foydalanish orqali ma'lumotni tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu ko'nikma internetda mavjud bo'lgan ulkan hajmdagi ma'lumotlar ichida yo'l topishda hamda asosli qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari foydalanuvchilarga ishonchli va ishonchsiz kontentni farqlash, raqamli mazmun qanday ishlab chiqilishi va manipulyatsiya qilinishini tushunish, shuningdek, muammolarni hal qilish va yangi bilim yaratishda raqamli vositalardan foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli savodxonlikda tanqidiy fikrlash raqamli muloqotning axloqiy jihatlarini, masalan, shaxsiy ma'lumotlarning daxlsizligi va raqamli izlarni boshqarishni baholashni ham qamrab oladi. Ushbu ko'nikmalarning rivojlanishi shaxslarning raqamli muhitlarda mas'uliyatli va ongli ravishda ishtirok etishini ta'minlaydi hamda ularning raqamli jamiyatda faol va samarali hissa qo'shishiga zamin yaratadi.

Lankshear va Knobel (2006) ushbu mavzu bo'yicha raqamli media bilan samarali ishlash uchun dastlab matn savodxonligi va texnik ko'nikmalarni o'rganishni, keyinchalik esa kognitiv va ijtimoiy-madaniy malakalarni o'rganishni taklif qildilar. Bu yondashuv raqamli savodxonlikning murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligini ko'rsatadi. Faqatgina texnologik vositalardan foydalana olish kifoya emas, balki bu vositalarni maqsadga muvofiq, tanqidiy fikrlash asosida va ijtimoiy kontekstda qo'llay olish ham muhim sanaladi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida raqamli savodxonlik talabalarning axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va uni samarali tarzda taqdim eta olish qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, bu ko'nikmalar o'quvchilarning mustaqil o'rganish, muammolarni hal qilish va zamonaviy jamiyatda faol ishtirok etishlariga zamin yaratadi. Ayniqsa, sun'iy intellekt vositalari keng joriy etilayotgan bugungi ta'lim muhitida raqamli savodxonlik o'quv jarayonining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Shu bois, raqamli savodxonlikni nafaqat texnik ko'nikmalar majmuasi, balki madaniy, ijtimoiy va kognitiv malakalarning uzviy uyg'unligi sifatida talqin

qilish zarur. Buni amalga oshirish uchun esa universitet darslarida raqamli savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirishga oid seminarlar tashkil qilish samarali hisoblanadi.

Xulosa. Talabalarda raqamli savodxonlikni rivojlantirish bugungi kunda ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Zamonaviy yondashuvlar — masofaviy ta'lim, interaktiv platformalar, sun'iy intellektga asoslangan dasturlar, onlayn hamkorlik vositalari va media-ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish — talabalarning mustaqil o'rganish, ijodiy fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli savodxonlik faqat texnik ko'nikmalarni egallash emas, balki axborot madaniyatini shakllantirish, internet xavfsizligi va mas'uliyatli foydalanish qoidalarini o'zlashtirishni ham o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar:

1. Chanda, C. T., & Phiri, E. (2024). The Efficacy and Acceptance of Online Learning vs. Offline Learning in Higher Learning Institutions: A Systematic Review. *International Journal of Research (IIR)*, Vol. 11. Issue 08, 149-170, August 2024, Available: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13299777>, e-ISSN: 2348-6848.
2. Chanda, C. T. (2024), "Service Learning and Civic Engagement: Exploring the Linkages". *International Journal of Research Publication and Reviewa*, Vol 5, no 4. pp 7056-7064.
3. Lankshear, C. and Knobel M. (2006). Digital literacies: policy, pedagogy and research considerations for education. *Digital Kompetanse: Nordis Journal of Digital Literacy*, 1(1), 12-24.
4. Mumbi, M., & Nyirenda, M. (2024). Towards Automated Assessment of Learning Management Systems in Higher Education Institutions in Zambia.
5. Yates, S., Kirby, J., & Lockley, E. (2015). Digital Media Use: Differences and Inequalities in Relation to Class and Age: *Sociological Research Online*, 20(4), 71-91
6. Ventayen, R. J. M. (2019). Educator's Competencies on the Application of Technological Tools in Teaching, *International Journal of Scientific & Technology Research*, 8(11).
7. Wahyuddin, W. (2017). Headmaster Leadership and Teacher Competence in Increasing Student Achievement in School. *International Education Studies*, 10(3), 215-226.
8. Zohaib, H. S., Asokan, V., Chanda, C. T., & Asfahani, A. (2024). Harnessing ChatGPT for Effective Assessment and Feedback in Education. *Journal of Computer Science and Informatics Engineering (COSIE)*, VOL 03, NO. 2, APRIL 2024: 74 82, Available: , e-ISSN 2827-8356, p-ISSN 2827-9999

No'monjonova Robiyakhon Umidjonovna
Student of SamSIFL
Istamova Shoxista Rustamovna
Teacher of SamSIFL

THE EFFECTIVENESS OF TECHNOLOGY-ASSISTED LEARNING IN ENGLISH LANGUAGE EDUCATION

ABSTRACT

The use of technology in English language education has a crucial aspect in enhancing learning effectiveness with the appearance of digital platforms, online resources, and interactive applications, students now have greater access to authentic materials and communicative opportunities. This study focuses on the productivity of technology-assisted learning in English language education, drawing on relevant theories, previous research, and practical applications.

In the following paragraphs both the advantages, such as improved learner autonomy, motivation, and access to resources, and the challenges, including digital literacy gaps and overdependence on technology will be analyzed.

Key words: technology-assisted learning, online resources, interactive application, digital platforms, access to authentic materials.

In this day and age, it is inevitable that technology is in every field, including education. In terms of the technologies' effect on education, many inventions help students and teacher in the learning and teaching process. In other words, technology in the education is pretty common these days. The increasing development of technology has significantly transformed the way students learn language and teachers' teaching methods. In this paper, I will answer the following questions:

1. How does technology improve the effectiveness of English language learning?
2. What challenges exist in technology-assisted learning?
3. What role should teachers and students play in balancing technology with traditional methods?

Literature review

A number of researchers have studied the role of technology in language education. According to Smith (2020), digital platforms provide immediate feedback to learners, which accelerate their language acquisition process. Mobile applications, such as Duolingo and Memrise, encourage daily practice and gamify the learning process, which makes it enjoyable for students (Brown, 2019).

In addition, students are more eager to learn new languages with the latest technology. For instance, there are applications on smartphones that enable the users to listen to the foreign language that they want to acquire. There is also an application and site that allows the users to listen to the current radio on that language, on that region. The site is: <http://radio.garden/>. It also lets the learners listen to the real-life language that native speakers use, not the ones that are recorded in the studios for the textbooks. Lee (2021) emphasizes that this authentic input improves listening comprehension and cultural understanding.

However, researchers take also challenges into consideration. Digital inequality remains a problem in many countries. Students from rural areas may not have access to stable internet connections or advanced devices (Ahmed, 2022). Apart from this, digital tools may reduce face-to-face interaction, which is necessary for speaking fluency and social communication skills. As Jones (2020) points out, overreliance on technology may lead to passive learning habits.

Methodology / Discussion

This paper adopts a descriptive and analytical approach rather than an experimental one. The discussion is based on secondary data, including scholarly articles, case studies and practical examples from classroom worldwide.

1. Advantages of Technology-Assisted Learning

a) Increased Motivation and Engagement

Digital tools often provide interactive elements, such as gamification, quizzes, and real-time feedback. Platforms like Duolingo or Quizlet motivate learners by turning lessons into challenges and competitions. Besides that, technology reduces student language learning anxiety as it gives them the chance to practice language in their comfort zone without being embarrassed of making mistakes, which would reduce their "affective filter" (Al-Mahrooqi and Troudi, 2014).

b) Access to Authentic Materials

Technology provides students with authentic input which means that unlike textbooks, digital platforms allow students to interact with real-life English through podcasts, YouTube lectures,

Ted Talks and online newspapers. This, in turn, helps students grasp different accents, cultural references and modern vocabulary.

c) Collaboration and communication

Platforms like Zoom, Microsoft Team and Google Classroom give users a chance to participate in virtual lessons, group projects and discussions. Therefore, students can communicate with native speakers through language exchange websites, which improve their speaking skills and cultural awareness.

2. Drawbacks of Technology-assisted learning

a) Digital divide

Not all students do have the very same access to technology. Education inequality can be made by few devices, socio economic gaps, and no internet access.

b) Overdependence on technology

Relying excessively on apps with online platforms may reduce critical thinking skills. Students might not prioritize deep learning. Instead, students may seek for quick answers now.

c) Teacher training and readiness

Some of the teachers may have a lack of complete preparation. Effective technology integration may not be quite possible for some of them. Without suitable education, technology might be used shallowly not pedagogically.

d) Distractions and Misuse

Technology can be like a double-edged sword. It may distract students while it supports learning since many entertain themselves with devices rather than education.

Findings and analysis

The analysis suggests that customary methods with technology-assisted learning integrated are most effective. Learning mixes varied teaching methods. It combines all of the strengths from both systems. Classroom instruction in grammar and writing can occur, while online platforms for listening and speaking can provide practice.

Also, improved learner outcomes will result when guidance for students is given so they use technology in an effective way. For example, a case study Stockwell (2010) conducted in Japan found that students who used mobile devices to practice briefly as well as often acquired vocabulary better than those who studied customarily.

Teacher roles, furthermore, remain important still. Teachers are not being replaced; rather, they serve as guides helping students choose helpful digital tools. Educators give input and keep inspiration going.

Technology enables student-centered learning to be able to become much more achievable while finding another important one. Active participants are those who can explore and collaborate, and they can create content, for they are no longer passive receivers of knowledge.

Conclusion

In a nutshell, the advent of technological tools and resources such as computers smartphones, online learning environments accelerate the way language acquisition. In addition to this, this phenomena opens up new avenues for language learners to involve in interactive activities, collaborate with peers and instructors from all walks of life.

References

1. Al-Mahrooqi, R. & Troudi, S. (2014). Using Technology in Foreign Language Teaching. Cambridge Scholars Publishing . 0–24.
2. Brown, J. (2019). Mobile applications in language learning. Oxford University Press

3. Smith, R. (2020). *Technology in English language classrooms*. Routledge.
4. Lee, S. (2021). *Digital learning in challenges in higher education*. Cambridge Scholars Publishing
5. Stockwell, G. (2010). Using mobile phones for vocabulary activities: Examining the effect of platform. *Language Learning & Technology*, 14(2), 95–110.
6. Jones, L. C. (2003). *Supporting listening comprehension and vocabulary acquisition with multimedia annotations: the students' voice*. *CALICO Journal* 21.41–65.
7. Amed, K. (2022). *Digital divide in education: Challenges and solutions*. Palgrave Macmillan.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВОПЛОЩЕНИЕ ШЕЛКОВОГО ПУТИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ
«ХАМСА» АЛИШЕРА НАВОИ

Мусурманов Эркин Раббимович
доктор филологических наук,
Самаркандский государственный
институт иностранных языков.

alper25@mail.ru

тел: +998 87 025 29 92

***Аннотация.** В статье рассматривается «Хамса» Алишера Навои как уникальная литературная версия Великого Шёлкового пути, пролежавшего из Китая в Европу. Следует отметить, что герои «Хамсы», такие как сын китайского императора Фархад, а также художница Мани и луноликая красавица Дилорам, были выходцами из Китая и стояли у истоков символического Великого Шёлкового пути Алишера Навои. Этот литературный маршрут Великого Шелкового пути из Китая, пролегающий через Центральную Азию (Давань, Самарканд, Термез и др.), интерпретируется в «Хамсе» Алишера Навои такими образами и символами, как магический буддийский храм в Шахрисабзе, персидский шах Бахрам, образ индийского султана Джуны и принца Фарруха, красавица Закавказья Ширин, пламенно влюбленные юные Лейли и Меджнун, византийский ювелир Зайд Заххоб, царь Александр Македонский и др. В статье на примере этих образов и персонажей своеобразно реконструируется литературный Шелковый путь.*

***Ключевые слова:** Навои, Хамса, Шелковый путь, Фархад, Ширин, Меджнун, Александр Македонский.*

***Abstract.** The article considers Alisher Navoi's "Hamsa" as a unique literary version of the Great Silk Road, which went from China to Europe. It should be noted that the heroes of "Khamisa", like the son of the Chinese emperor Farhad, as well as the artist Mani, the moon-faced beauty Diloram, were from China and are at the beginning of the symbolic Great Silk Road of Alisher Navoi. This literary route of the Great Silk Road from China passing through Central Asia (Davan, Samarkand, Termez, etc.) is interpreted in Alisher Navoi's "Khamisa" by such images and symbols as the magical Buddhist temple in Shakhrisabz, in the Persian shah Bahram, in the image of the Indian Sultan Djuna and Prince Farrukh, in the beauty of Transcaucasia Shirin, in fieryly in love young Leyli and Majnun, in the Byzantine jeweler Zayd Zahhob, in Tsar Alexander the Great, etc. In the article, using the example of these images and characters, the literary Silk Road is reconstructed in a peculiar way.*

***Key words:** Navoi, Hamsa, Silk Road, Farhad, Shirin, Majnun, Alexander the Great.*

***Аннотация.** Мақолада Алишер Навоийнинг "Хамса"си Хитойдан Марказий Осиё орқали Европага йўл олган буюк Ипак йўлининг ноёб адабий тимсоли сифатида кўриб чиқилган. "Хамса" қаҳрамонлари: Хитой хоконининг ўғли Фарҳод, шунингдек, наққош Моний, гўзал Дилором каби образларнинг ватани Хитой бўлиб, бу юрт Алишер Навоий талқинидаги адабий буюк Ипак йўлининг бошида турибди. Адабий Ипак йўлининг Хитойдан қадимги Турон юртига ўтиши Алишер Навоий "Хамса" сида Шахрисабздаги буддавийлар ибодатхонасида, форс шоҳи Баҳром, Ҳинд султони Жуна ва шаҳзода Фаррух*

образларида акс этган. Марказий Осиёдан Европага йўналган бу адабий йўл Кавказ ортида Ширин тимсолида, Арабистонда Лайли ва Мажнун муҳаббатида, Европада насронийлар ибодатхонасида, Зайд Захҳоб, подшоҳ Искандар Зулқарнайн каби каби тасвир ва тимсолларда талқин этилган. Мақолада ушбу образ ва тимсоллар мисолида адабий Ипак йўли ўзига хос тарзда қайта тикланган.

Калит сўзлар: Навоий, Хамса, Ипак йўли, Фарход, Ширин, Мажнун, Искандар.

Из важных особенностей «Хамсы» [Навои Алишер, 23.04.2021]. Алишера Навои состоит в том, что она сыграла важную роль в формировании, образно говоря, Великого Литературного Шелкового пути. Такие герои Хамсы, как сын китайского императора Фархад, а также, художник Мани, луноликая красавица Дилорам были родом из Китая и находятся в начале символического Великого Шелкового пути Алишера Навои.

Данный литературный маршрут Великого Шелкового пути из Китая прошедший через Среднюю Азию (Давань, Самарканд, Термез и т.д.) интерпретируется в “Хамсе” Алишера Навои таких образах и символах как магический буддийский храм в Шахрисабзе, в персидском шахе Бахраме, в образе индийского султана Джуны и принца Фарруха, в красавице закавказия Ширин, в пламенно влюблённых молодых людей Лейли и Меджнун, в византийском ювелире Зайд Заххоб, в царе Александре Великом и т.д. Объединяя эти образы и понятия можно образно представить своеобразный литературный шелковый путь.

Миссия “Хамсы” Алишера Навои как Великого Литературного Шелкового пути на этом не заканчивается. Если главные герои этого произведения систематически отображают художественных персонажей народов расположенных от Китая до Европы, то древние религиозно- мифологические представления регионов, населенных этими народами, сыграли важную роль в сути произведения. Сказать, что Хамса Алишера Навои была основана исключительно на идеях ислама или суфийского мистицизма было бы исключительно однобоко. Благодаря тому что этот великий труд был также создан под влиянием китайской философии, концепциях шаманизма, манихейства, буддизма и христианства, персидского фольклора и, наконец, мифологии древних шумеро-аккадских и семитских народов благодаря которым произведение было признана и высоко оценена разными народами, усовершенствовано художественная мощь и композиционная мудрость.

Арабско-ивритское слово Хамса - обозначает понятие “пять”. Разумеется, это не только литературный жанр, но и символ в еврейской и арабской мифологии талисман из пятипальцевой руки, именующийся как “Рука Мириама”, “Рука Фатимы”, а также “Божественная рука” [Хамса, : 12.02.2021]. Пять пальцев в иудаизме символизирует пять книг Торы, или пять чувств, которые должны были пережить приверженцы Моисея.

В исламе пять пальцев на талисмানে символизируют пророка Мухамеда (с.а.в.) и его семью: Фатиму, Имама Али, Имама Хусейна, Имама Хасана [Ипполитов А. .: 2013. — С. 496.]. Не зря Алишер Навои писал эти строки где подразумевал эту мифическую лодонь:

Но на ристалище со мной не он, — Я с Низами бороться принужден.

Рукой схватив такую «Пятерню», В руке надолго ль силу сохранию?

Алишер Навои поэт не только узбекского народа, он как великий поэт и мыслитель востока занимает почётное место в мировой художественной литературе, ярким примером тому может послужит литература Яркентского ханства, где вклад Алишера

Навои в её развитие трудно переоценить. Благодаря ей литература Северно-Восточного Китая пережила прогресс не только в жанровом, смысловом и тематическом уровне, но и в методических применениях художественного слова.

Наши комментарии о том, что “Хамса” Алишера Навои сослужила Великим Литературным Шелковым путем среди разных народов на примере литературы народов Китая, это только начало или введение в тему.

Мифологические образы и понятия, возникшие в Индии и Средней Азии при воздействии Буддизма, были переосмыслены в призме стереотипов китайской национальной среды и менталитета. В эпоху перемещения буддизма из Центральной Азии на территорию Китая, а оттуда в другие соседние страны как Япония или Корея, вместе с религиозно-философскими идеями культурно-духовными понятиями, мифологические взгляды нашего края также занимали важное место и в формировании художественной фантазии народов Дальнего Востока.

Де-факто, можно увидеть такие же тесные международные литературные отношения на примере Алишера Навои с персидскими, индийскими, дашти-кипчакскими, закавказскими народами и в будущем создать целый магистраль литературных связей. Думается, что этот Литературный Великий Шелковый путь, прежде всего, будет мотивировать людей, независимо от их религии, расы и национальности, объединяться вокруг великих человеческих идей и творить только добрые дела.

Литература

1. Навои Алишер – Поэмы. [Электронный ресурс]. URL // Электронная библиотека Royallib.com https://royallib.com/read/navoi_alisher/poemi.html#20480 (время обращения: 23.04.2021).
2. Хамса, или Рука Фатимы: значение талисмана. . [Электронный ресурс]. URL // <https://mistika.temaretik.com/1230046596708698542/hamsa-ili-ruka-fatimy-znachenie-talimana/> (время обращения: 12.02.2021).
3. *Инполитов А.* Особенно Ломбардия. Образы Италии XXI. — Азбука- Аттикус, 2013. — С. 496.
4. *Фарибий.* Шоҳ Баҳром ва Дилором. (нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи ф.ф.д. проф. М. Муҳиддинов) ЎзР ФА “Фан”нашриёти.2008. – С.150.

Aslanova Hafiza Abduraximovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
Qiyosiy adabiyotshunoslik dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
hafi@mail.ru +99893-999-52-71

POSHSHOXOJA IJODINING TILI BA BAYON QILISH USLUBI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Poshshoxoja hikoyalarining tilshunoslik nuqtai nazaridan o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. So'z qo'llash mahorati va leksik qatlamlardan foydalanganlik uslubi yuzasidan fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: hikoya, omonim, sinonim, antonim, leksik qatlam, ibora, tasviriy vosita, rivoyat, afsona.

Аннотация. В статье анализируются языковые особенности рассказов Пошшоходжи. Автор высказывает своё мнение о мастерстве использования слов и методе использования лексических пластов.

Ключевые слова: рассказ, омоним, синоним, антоним, лексический пласт, фраза, образные средства, повествование, легенда.

Annotation. This article analyzes the linguistic features of Poshshokhodzha's stories. The author expresses her opinion on the mastery of wordplay and the method of exploiting lexical layers.

Keywords: story, homonym, synonym, antonym, lexical layer, phrase, figurative devices, narrative, legend.

Poshshoxoja Abdulvahobxoja tomonidan yozilgan “Gulzor” va “Miftohul-adl” asarlari XVI asrda yaratilgan. Bu davrga kelib o‘zbek-turkiy adabiyot va turkiy til dunyoda o‘zining yuqori mavqeyiga erishgan, bu sohalarda ham dunyo adabiyoti xazinasini boyitgan ko‘plab durdona asarlaryaratilgan edi.

Jumladan, o‘zbek-turkiy til adabiy til sifatida o‘z mavqeyini egallay boshlagan XI-XII asrlardan keyingi davr ayniqsa ahamiyatli. O‘zbek tili va adabiyotini yuksak darajaga ko‘tara olgan buyuk shoir va olim Alisher Navoiy asarlarining alohida o‘rnini ta’kidlash lozim. O‘zigacha bo‘lgan turkiy va forsiy adabiyotni chuqur o‘rgangan Poshshoxoja o‘zining bu asarlarini pandnoma sifatida yaratadi. Demak, yozuvchi bu asarini yaratishda o‘zigacha bo‘lgan an‘aviy uslub, obraz-timsollardan ham ijodiy foydalanadi. Xoja “Miftohul-adl” va “Gulzor” asarlarining syujeti va kompozitsion tuzilishiga ko‘ra yirik epik obrazlar yaratish imkoniyatiga ega bo‘lmagan, lekin bu asarlarda juda ko‘p va xilma-xil timsollarni turli tabaqaga mansub bo‘lgan, turli xarakter, turli dunyoqarashdagi shaxslar timsolini yaratgan.

Asar boshlanishidan ko‘ringan muallif timsoli asar tugaguncha o‘z g‘oyasi, pand-nasihatlar bilan qatnashadi va o‘z dunyoqarashi chegarasida qator ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy masalalarni hal etadi. Ayniqsa, tasavvufiy g‘oyalar bilan sug‘orilgan hikoyatlar ahamiyatlidir. Ushbu masalalar Xoja hikoyalarida o‘ziga xos uslubda bayon etilgan bo‘lib, bu bilan u o‘zidan oldin o‘tgan ijodkorlardan ancha foydalanadi. Lekin, bu holat Xojaning individual uslubini belgilashni inkor etmaydi. Uning hikoya qilish uslubi sodda, ravon va tushunarli tilda ifodalangan.

“Miftohul-adl” va “Gulzor” asarlarida badiiy nutqning uch xil turi mavjud: biri muallif nutqi, ikkinchisi timsollar nutqi, uchinchisi timsollarning muallif tomonidan o‘zlashtirilgan nutqi. Asarlarda muallif nutqi sodda, ravonligi bilan ajralib turadi va u asar matnlarida asosiy o‘rinni egllaydi. Muallif o‘z tilidan kitobxonni hikoya qahramonlari bilan tanishtiradi, voqea va hodisalarni hikoya qiladi, obrazlar-timsollarning harakat va xarakteridan xabar beradi. Hikoya oxirida esa, yakunlovchi xulosalar chiqaradi. “Miftohul-adl”da muallif har bir hikoya voqeasini o‘z tilidan bayon etadi. Masalan, “Kunlardan bir kun No‘shiravoni odil Ozarbayjon shahriga o‘z kishisini amaldor qilib yubordi, ul kishiga ko‘p nasihatlar qildi...”. “Gulzor”da esa, hikoya uchinchi shaxs tilidan aytiladi: “Ayturlarkim, No‘shiravoni odil bir ayvoni oliy bino qildikim, anga “Toqi kisri”od qo‘yib erdi”.

Yuqorida keltirilgan ikkita kichik parchadan yana shu aniqlanadiki, muallifning tili har ikkala asarda ham usluban juda yaqin va birdek. Bu ayniqsa, ikkala asar hikoyalaridagi muallif nutqining syujetini bayon qilish, personajlar nutqini bir-biriga ulash, hikoyalar mazmunidan chiqariluvchi g‘oyaning xulosalarga faol qatnashishida yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

Prozaik til bilan yasalgan xulosalarda - bu “Miftohul-adl” asariga tegishli muallif nutqi uslub jihatidan hikoyaning umumiy matnidagi tildan farqlanmaydi. Masalan, Bahromgo‘r, uning

zolim vaziri va cho‘pon haqidagi hikoyaga yasalgan xulosa: “Emdi Sulton yo bek bo‘lgan kishi vaziriga ishonib, g‘ofil bo‘lmoq kerakmas”. Sodda qilib aytilgan bu nasihatgo‘ylik didaktik asarlarga xos uslubda bayon etilgan. Ba‘zi hikoyalarga yasalgan xulosalardagi muallif tili esa ma‘lum darajada badiiyligi bilan ajralib turadi, ular ba‘zan oforistik xarakter kasb etadi. Masalan:

Tiriklik yoz-u dildor ila hushdur,
Tiriklikni netarsan bo‘lmasa yer...

Yoki:

Kishi yolg‘iz, jahonda bo‘lmadi shod,
Nechakim bo‘lsa olamda namudor.

Umuman olganda, “Miftohul-adl” va “Gulzor” asarlaridagi muallif tilida bitta umumiy xususiyat - didaktik asarlar uslubi va tiliga xos soddalik, ravon va silliqlik mavjuddir.

Odatta, muallif tili asar qahramonlarining xarakterini ochishda muhim rol o‘ynaydi. Yozuvchi o‘z qahramonlarining portretini chizadi, ularga xos muhim xususiyat va harakatlarni tasvirlaydi, asar qahramonlari yashayotgan muhit, personajlar kechinmalari haqida ma‘lumot beradi. Muallif tilidan yozuvchining o‘z asari qahramonlariga bo‘lgan salbiy yoki ijobiy munosabatini, ularga xayrixohligi yoki noroziligini bilib olishi mumkin bo‘ladi. Lekin, Xoja u yoki bu hikoyadagi shaxs haqida gapirar ekan, ular haqida faqat umumiy ma‘lumotlar berish bilan chegaralanadi. Bunda ham ko‘pincha asar qahramonining yaxshi yoki yomon kishi ekanligini qayd etadi, xolos. Masalan, “Kunlardan bir kun bir podshoh bor erdi, bisyor odil erdi...” yoki “Kunlardan bir kun Sulton Mahmud G‘aznaviy zolim erkan. Oning bir vaziri bor erkan, Xoja Hasan otlig‘, bisyor oqil va dono ham odil”.

Xoja hikoyatlarida peyzaj, tabiat tasviri deyarli uchramaydi. Bu hol ham Xoja hikoyatlari tili va uslubiga xos belgi bo‘lib qolaveradi, albatta.

Xoja o‘z hikoyalari qahramonlarini gapirtirish, harakatga keltirish orqali asar mazmunini ochadi. Bu jihatdan personajlar tili alohida ahamiyatga egadir.

Podshoxoja hikoyalaridagi obrazlar tili, asosan dialogik shaklga, ya‘ni savol-u javob shakliga ega va ular tili badiiy til talablari nuqtai nazaridan kam individuallashtirilgan, lekin shuni ham ta‘kidlash kerakki, ayrim hikoyalarda timsollar tilida hikoya ichida hikoya qilish, monalogik nutqning elementlari ham uchraydi. Umuman olganda esa ular dialogik shaklga ega. Hikoyatlarda bir obrazning ikkinchi bir timsol yoki personajning javob berishi orqali asar mazmuni, undagi voqea va hodisalar konkretlasha boradi, qahramonlar xakteri ochiladi, muallifning hikoya mazmunidan kelib chiquvchi ma‘lum xulosaga kelishi uchun imkoniyat tug‘iladi.

Qahramonlar tilidagi nutqdan oldin yo keyin keluvchi “aydi”, “tedi”, “aytdiki”, “tegoch”, “deb erdim”, “so‘rdi” kabi so‘z va iboralar ishlatilishiga ko‘ra ham ikkala asarda bir xildir.

Poshshoxojaning “Miftohul-adl” va “Gulzor” asarlari XVI asr o‘zbek-turkiy tilining ajoyib yodgorliklaridan hisoblanadi. Bu asarlarni o‘sha davrda yaratilgan boshqa asarlar ayniqsa, Alisher Navoiy asarlari bilan til nuqtai nazaridan solishtirilsa, bu asarlarning xalqona uslubda yozilgan bu adabiy yodgorlik ahamiyati darhol ko‘zga tashlanadi. Asar tili juda oson o‘qiluvchi uslubda, keng xalq ommasi uchun tushunarli tilda bitilgan. Agarda asarda uchrovchi juda kam miqdordagi ayrim so‘zlarni istisno qilganda, hikoyalarda qo‘llanilgan barcha so‘zlar hozirgi zamon kitobxonlari uchun tushunarli ekani ko‘rinib turadi. Lekin, Xoja asarlarida o‘sha davr xalq tiliga xos bo‘lgan turli leksik va morfologik vositalar ham mavjuddir. Masalan, hozirgi zamon o‘zbek tilidagi “ga” jo‘nalish kelishigi o‘rnida -g‘a, -na, tushum kelishigi o‘rnida -in, dek o‘rnida -tek shakllari qo‘llanilgan. Bular va hikoyatlar tilidagi so‘zlarning ayrim shakllari, masalan, tedi

(dedi), taqi (yana), nimarsa (biror narsa), holo (hali), ertan (ertasiga), qiloli (qilaylik) va boshqalar Poshshoxojaning xalq og‘zaki ijodidan, uning dialektal xususiyatlaridan umumli tarzda foydalanib ijod qilganini ko‘rsatadi.

Hikoyatlar leksikasida qadimiy tilimizdagi ayrim so‘zlar ham uchraydi - qapug‘, uchmoq, yozuq, cherik, eksuk, ushr singari so‘zlar.

Yozuvchi o‘z asarida umumxalq tilining boy uslubiy imkoniyatlaridan, undagi emotsional leksikaning go‘zal durdonalaridan qanchalik ko‘p va muvaffaqiyatli foydalana olsa, u yaratgan ijod namunasi shunchalik mazmundor, shaklan ko‘rkam, badiiy pishiq bo‘ladi. Bu jihatdan tilning muhim uslubiy qatlamlari bo‘lmish omonim, sinonim, antonimlar, so‘zning asl va ko‘chma ma’nolari qo‘llanilishi ahamiyatlidir.

Xoja o‘z hikoyatlarida bir tushunchani ifodalovchi, ma’no jihatdan yaqin, ammo shaklan boshqacha bo‘lgan so‘zlar - sinonimlardan barakali foydalangan. Bu esa, muallifga bitta so‘zni takrorlab ishlataverish, nutqda g‘alizlik, qaytariq bo‘lmasligiga imkon beradi va hikoyatlar tilining badiiyligini, pishiqligini ta’minlaydi. Masalan, hikoyatlarda xalq-xaloyiq, raiyat, ulus, el kabi sinonimik variantlarga ega. Oltin so‘zi esa - tillo, qizil tanga, qizil tillo birliklari orqali ham ifodalanadi. Mol-davlat, ganj-saodat, bisyor-ziyod ko‘p, faqir-miskin-bechora kabilar ham bunga misol bo‘la oladi.

Xoja hikoyatlari tiliga xalqning xilma-xil oforistik ibora va maqollari ustalik bilan singdirilgan. O‘z navbatida Xoja ham ayrim hikmatli so‘z, maqol xarakteridagi satrlar yaratgan. Hikoyatlarga yasalagan nasriy hamda nazmiy xulosalarning ko‘pchiligi, hikoyatlar tahlilida aytilganiday, oforistik xarakterdagi siqiq hikmatli gaplardan iborat. Ular xalqning u yoki bu maqolini eslatib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зоҳидов В. “Мифтоҳ ул-адл” ва “Гулзор” ҳақида. Ўзбек адабиёти тарихидан. Т. 1961
2. Иброҳимов А. Ҳожа ҳаёти ва ижоди ҳақида баъзи маълумотлар. “Ўзбек тили ва адабиёти”.Т., 1965.
3. Мирзаахмедова М. Хожа.- Тошкент: Фан, 1975, 35-45-бетлар
4. Мирзаахмедова М. Подшохожа ва унинг “Мифтоҳул – адл” ҳамда “Гулзор” асарлари. Филология фанлари кандидати илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. Тошкент. 1966. Б- 5.
5. Нисорий Ҳасанхожа. Музакири аҳбоб.-Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
6. Пошшоҳўжа. “Мифтоҳ ул-адл” ва “Гулзор” дан парчалар”. Нашрга тайёрловчи Зоҳидов. В, Фаниева С. Т. 1962.
7. Фаридуддин Аттор. Мантиқут-тайр. (насрий баён) – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи. 2006.

D.Sh.Mamirova (SamDCHTI, dotsent)

SON SO‘Z TURKUMINING REKLAMA MATNLARIDA QO‘LLANILISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada reklama matnlarida informatsion vazifa bajaradigan son so‘z turkumlarining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan bo‘lib, reklama beruvchi potensial iste‘molchiga pragmatik ta‘sir o‘tkazishga intilishi misollar asosida tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** pragmatik ta‘sir, ismlar, uslubiy xususiyat, kommunikator, axborot, idrok etish.*

Har qanday reklama matni reklama qilingan tovarlar yoki xizmatlar, ishlab chiqaruvchilar yoki yetkazib beruvchilar to‘g‘risida ma‘lumot beradi. Shuning uchun tegishli nomlardan foydalanish axborot funksiyasini amalga oshiradigan vosita hisoblanadi (tovarlarning nomlari, ishlab chiqaruvchilar, savdo markalari va boshqalar). Deyarli har qanday reklama matnida tegishli nomlar mavjud.

D.YE.Rozental ismni «...so‘zlarni obyektivlikning grammatik ma‘nosi bilan birlashtiradigan nutqning bir qismi, bu jins, son, ish, jonli va jonsiz mustaqil toifalari yordamida ifodalanadi»¹ deb tushuntiradi. P.A.Lekant quyidagi ta‘rifni beradi: «Ism – bu obyektни bildiradigan va jonli / jonsiz, jins, son va ishning ma‘lum grammatik kategoriyalarida obyektivlikning kategorik ma‘nosini ifodalaydigan nutq qismidir»². Shunday qilib, nutqning bir qismi sifatida ismlar ma‘lum narsalar (divan, poyabzal, halqa), moddalar (kislota, kumush), tirik mavjudotlar va organizmlar (sher, chivin), haqiqiy tabiat hodisalari (qor, bahor), mavhum fazilatlar va xususiyatlar (noziklik, oqlik), harakatlar va holatlar (ish, qadam), joy nomlari (Samarqand, Buxoro), shaxslar (chaqaloq, bola) kabilar. Barcha ismlar obyektivlikning mavhum grammatik ma‘nosiga ega.

Reklama matnlarida shunday ismlardan biri son so‘z turkumining ham o‘ziga xos vazifasi va o‘rni bor. Ma‘lumki, reklama jarayonida reklama beruvchi potensial iste‘molchiga pragmatik ta‘sir o‘tkazishga intiladi, natijada reklama qilinayotgan obyektga boshqasining munosabati ma‘lum yo‘nalishda o‘zgaradi. «Ko‘pincha reklama matnlarining tadqiqotchilari reklama matnining leksik, sintaktik va uslubiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, matnda qo‘llanadigan raqamlardan foydalanishning pragmatik xususiyatlariga kerakli e‘tibor bermaydilar»³. Ayrim tadqiqotchilar sonlarni asosan, reklama matnining ma‘lumot qismida, firmaning yoki do‘konning aniq manzilini ko‘rsatadigan ma‘lumot manzili sifatida ishlatiladi deb hisoblashadi: «Estaya ko‘chasi 58., Tel. 32-87-91», «50-zargarlik salonlari – Dunyo oltini», «Sug‘urta markazi – st. 1, 14 may, tel. 55-87-50» «Metro do‘konidagi narxlar: tovuq 1 kg – 470 tanga, grechka 800 g – 285 tanga». Ammo til – fikrlash, idrok etish jarayoni mahsuli ekani bois haqiqatning miqdoriy xususiyatlarini ham aks ettiradi. Son so‘z turkumini zamonaviy reklama matnining ajralmas elementi deb hisoblash zarur, chunki raqamlar adresatni o‘ziga jalb qiladi va reklamaning iste‘molchilarga ta‘sirini kuchaytiradi, shu bilan birga, ijtimoiy hayot voqealari haqida gapirishda raqamlar faktlardan ko‘ra matnni ravshanroq ifoda etadi: O‘zbekistonda birinchi raqamli shokolad pastasi Chococream – millionlar tanlovi.

Demak, reklama matnlarida qo‘llangan sonlarning asosiy maqsadi obyektiv va xolis ma‘lumotlarni aks ettirishdir. Shu bilan birga ijtimoiy muloqotda kommunikatorlarning (ularning hissiyotlari, qarashlari, munosabatlari, qadriyat yo‘nalishlari va boshqalar) fon ma‘lumotlari

¹ <http://hi-edu.ru/e-books/xbook107/01/about.htm>. Валгина Н.С., Розенталь Д.Э., Фомина М.И. Современный русский язык: Учебник / Под редакцией Н.С. Валгиной. - 6-е изд. – Москва: Логос, 2002. – 528 с.

² Лекант П.А., Гольцова Н.Г., Жуков В.П. и др. Современный русский литературный язык: Учебник/ Под ред. П.А. Леканта. – 5-е изд. – Москва: Высшая школа, 2001. – С.195.

³ <http://articlekz.com/article/13381/> Филиппова Д.Н., Антонова Н. Лексикология. Реклама. Художественный текст. Журнал: Вестник Инновационного Евразийского университета. – Павлодар, 2012.

talqinini amalga oshirishda ma'lum bir kontekstdagi raqamlar nutqni ifodalash manbai bo'lib xizmat qiladi: Samsung Galaxy S7 30 daqiqada to'liq quvvat olish imkoniga ega bo'ladi.

Son so'z turkumini ishlatish chastotasi (yuqorida keltirilgan jadvaldagidek) reklama matnidagi barcha leksik birliklarning juda kam foizini tashkil qiladi. «Chunki sonlar yordamida amalga oshirilgan faktlar bilan matnni ortiqcha to'yinganligi o'quvchini charchatadi»¹. Son turkumiga mansub so'zlar miqdoriy qiymatlarni ifodalash, raqamlash, raqamlar qatoridagi joyni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Masalan, ijtimoiy reklamalarda son miqdori taxminiy ham bo'lishi mumkin: Shu kungacha 15 mingga yaqin odamlar bu kasallikdan vafot etishdi. Keltirilgan matnda mavhumlik mavjud, garchi raqam ishlatilsa-da, u aniq miqdorni emas, balki taxminni ko'rsatyapti. Savdogarlar tilida keltirilgan reklamada taxminlar emas, keltirilgan miqdor isboti bilan namoyon bo'lishi kerak: Eng yaxshi damlarni yo'tal sabab qo'ldan chiqarmang, Lozalvan – yo'talga qarshi uch tomonlama ta'sir: balg'amni suyultiradi, nafas yo'llarini tozalaydi va o'pkani himoya qiladi. Lazolvan – eng yaxshi damlar siz bilan. Bu misoldagi uch tomonlama ni isboti sifatida: balg'amni suyultiradi, nafas yo'llarini tozalaydi va o'pkani himoya qiladi kabilar dalil qilib keltiriladi. Reklama xabari bir xil turdagi xabarlar oqimida ajralib turishi kerak, shuning uchun juda tez-tez bu ma'lumotlarning miqdoriy jihati e'tiborga olinadi.

Sonlardan foydalanish reklama matnida muallifining obyektiv va ishonchli ma'lumot berish, e'tiborni jalb qilish istagi bilan bog'liq raqamlardan foydalangan holda ma'lumotlar bo'yicha o'quvchi va reklama beruvchining marketing maqsadlariga erishishida yordam beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, reklama matnlarida qo'llangan mavhum ismlar har xil holatlarni, predmetlarni va hodisalarni xarakterlash imkonini beradi. Nutqning eng chiroyli qismi reklama matnlarida qo'llangan sonlardir. Reklama matnlarida informatsion vazifa bajaradi. Reklamalar tilidagi fe'llar, sifatlar, olmoshlar ham qo'llanilsa-da, ammo yorqin ifoda manbai bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://hi-edu.ru/e-books/xbook107/01/about.htm>. Валгина Н.С., Розенталь Д.Э., Фомина М.И. Современный русский язык: Учебник / Под редакцией Н.С. Валгиной. - 6-е изд. – Москва: Логос, 2002. – 528 с.

2. Лекант П.А., Гольцова Н.Г., Жуков В.П. и др. Современный русский литературный язык: Учебник/ Под ред. П.А. Леканта. – 5-е изд. – Москва: Высшая школа, 2001. – С.195.

3. <http://articlekz.com/article/13381/> Филиппова Д.Н., Антонова Н. Лексикология. Реклама. Художественный текст. Журнал: Вестник Инновационного Евразийского университета. – Павлодар, 2012.

4. Кара Мурза Е.С. Преподавание и изучение русской коммерческой рекламы в медиавузе // Медиалингвистика. 2018. Т. 5. № 1. – С. 97-109.

Pardayeva Iroda Mamayunosovna,
Samarqand davlat chet tillari instituti
Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasi dotsenti
pardayevairoda74@mail.com

¹ Кара Мурза Е.С. Преподавание и изучение русской коммерческой рекламы в медиавузе // Медиалингвистика. 2018. Т. 5. № 1. – С. 97 109.

SHARQ EPIK AN'ANALARIDA ISKANDAR OBRAZI: NAVOIY TALQININING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XV asrning ikkinchi yarmida, xususan, Hirot madaniy muhitida Iskandar obraziga bo'lgan adabiy-falsafiy qiziqishning yangi bosqichga ko'tarilgani yoritiladi. Tadqiqotda Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy an'analari sintez qilingani ko'rsatiladi. Navoiy mavjud syujet va obrazlarni qayta talqin qilib, yangi epizod va g'oyalar bilan boyitadi hamda Iskandar timsolini falsafiy-axloqiy mazmunda yangicha yondashuv asosida ifodalaydi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Saddi Iskandariy, Iskandar obrazi, iskanadarnoma an'analari, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy.

Аннотация. В статье рассматривается новый этап литературно-философского интереса к образу Искандара во второй половине XV века в культурной среде Герата. Показано, что в поэме «Садди Искандари» Навои творчески использовал традиции Низами, Хосрова Дехлеви и Абдуррахмана Джамии. Поэт, переосмыслив сюжеты и образы, обогатил их новыми эпизодами и идеями, придав образу Искандара философско-нравственное звучание.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Садди Искандари», образ Искандара, традиции искандарнаме, Низами, Хосров Дехлеви, Абдуррахман Джамии.

Abstract. The article explores the literary and philosophical interest in the figure of Iskandar in the second half of the 15th century, particularly in Herat. It demonstrates how Alisher Navoi, in his Saddi Iskandariy, synthesized the traditions of Nizami, Khusraw Dehlavi, and Abdurrahman Jami. By reinterpreting existing plots and characters, Navoi enriched them with new episodes and ideas, presenting Iskandar as a figure with renewed philosophical and ethical dimensions.

Keywords: Alisher Navoi, Saddi Iskandariy, image of Iskandar, Iskandarnama traditions, Nizami, Khusraw Dehlavi, Abdurrahman Jami.

Alisher Navoiy o'zining "Saddi Iskandariy" dostonini yaratishda o'zidan avvalgi iskanadarnoma an'analarni chuqur o'rganib, ularning eng yetuk jihatlarini sintezlash yo'lidan bordi. U Nizomiy Ganjaviyning "Iskandarnoma", Xusrav Dehlaviyning "Oyinai Iskandariy" hamda Abdurahmon Jomiyning "Iskandarnoma"sidan ilhomlangan holda, mavjud syujet, obraz va g'oyaviy yo'nalishlarni o'zining badiiy-ma'naviy konsepsiyasiga muvofiq ravishda qayta ishladi. Bu jarayonda u nafaqat ilgari mavjud tafsilot va talqinlarni takomillashtirdi, balki yangi syujet chiziqlari, epizodlar va obrazlarni kiritib, ushbu adabiy-traditsiyaviy yo'nalishga yangi shakl va mazmun baxsh etdi.[3:123]

F.Sulaymonova bu xususta quyidagicha yozadi: "Navoiyning "Saddi Iskandariy"sida Iskandar obrazi Sharqiy tasavvufiy-falsafiy tafakkur mezonlari asosida qayta talqin qilinadi. Muallif G'arbda sarkarda va zafarkash timsolida tanilgan Iskandarga diniy-irfoniy, hikmatparvarlik va donishmandlik ramzini bag'ishlaydi. Bu bilan u Iskandarni Sharqning ideal hukmdorlaridan biri sifatida badiiy-falsafiy olamga olib kiradi." [12:158-159]

Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) obrazining G'arbdan Sharqqa transformatsiyasi jarayonida tarixiy asosdan ko'ra afsonaviy va ideologik jihatdan qayta ishlangan manbalar ustuvor ahamiyat kasb etgan. Ushbu manbalar orasida ayniqsa Psevdo-Kallisfen nomi bilan ataluvchi muallifning milodiy III asrga oid "Aleksandr romani" muhim o'rin tutadi. Bu asarning suryoniy, yunon, lotin, arab va boshqa ko'plab versiyalari mavjud

bo'lib, ularning har biri o'z davri mafkurasi va diniy-estetik qarashlariga mos tarzda shakllangan.[14:175] Ayniqsa, suryoniy va arabcha versiyalar keyinchalik islomiy tafsirlar va tarixiy asarlar orqali keng yoyildi. Bu rivoyatlarning tarkibiga kirgan xristian afsonalari, Talmuddagi Iskandar haqidagi hikoyatlar va mahalliy rivoyatlar Aleksandr obrazining mitologizatsiyasiga olib keldi.[11:23]

Sharq adabiyotida Aleksandr obrazining tarixiy emas, balki afsonaviy asosda shakllanishi va u haqidagi talqinlarning fantastik-hikoyaviy tus olishi ayni shu manbalar ta'sirida yuzaga kelgan. Bu holat adabiy merosga ham o'z ta'sirini o'tkazib, Iskandar haqidagi epik asarlarning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Ayniqsa, xamsanavislik an'anasi doirasida yaratilgan Iskandarnomalarda bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi.

Sharq adabiyotida Iskandar obrazining dastlabki asosli epik ifodasi Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asaridagi "Iskandarnoma" orqali yuzaga chiqdi. Firdavsiy bu dostonida Iskandarni fors shohlari nasabiga mansub, adolatparvar, donishmand va haqiqat izlovchi hukmdor sifatida talqin etdi.[6:56] Ushbu talqin ikki asosiy jihatdan muhim: birinchidan, Iskandar qissasining G'arb tarixshunosligidan Sharq epik an'anasiga transformatsiyasida oraliq bo'g'in vazifasini bajargan bo'lsa, ikkinchidan, keyingi davr xamsanavislariga — Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyga — badiiy-ilhomiy manba bo'ldi.

Xususan, Nizomiy Ganjaviyning "Iskandarnoma"si mazkur an'anani davom ettirib, Iskandarni nafaqat fotih sarkarda, balki falsafiy bilimga tashna orif hukmdor sifatida tasvirladi. Keyingi xamsanavislar bu model asosida yangi obrazlar, syujet chiziqlari va talqinlarni rivojlantirdilar. Shu boisdan Firdavsiyning Iskandar haqidagi dostoni bu yo'nalishdagi ilk va hal qiluvchi bosqich hisoblanadi.

"Saddi Iskandariy" dostonida Navoiy qomusiy xarakterdagi yondashuvni ilgari suradi. Doston doirasida u adabiy-estetik, axloqiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy g'oyalarini keng miqyosda badiiy talqin qildi. Ayniqsa, dostonning XXXIV bobi olamning yaratilishi, borliqning qonuniyatlari, unda insonning o'rni va shohlikka oid tartib-qoidalar, odil va ma'rifatli hukmdorning ideal obrazlari bilan ajralib turadi. Ushbu qismda ma'rifatli shahzoda, orif gado, himmatli sarkarda, kechiruvchi hukmdor, donishmand murabbiy kabi turfa obrazlar orqali insoniylikning eng yuksak mezonlari ifoda etilgan. Xususan, Navoiy:

Ul yor-u bo'ldi xushhol, ahli kamol,

Har necha bordur jahonda husn-u jalol,[1:291]

deb, jamiyatda ma'naviyatli rahbar va komil inson timsolini yarata olgan shaxslar orqali yuksak axloq va adolat g'oyalarini targ'ib etadi.

Asarda muallif tafakkurining serqirraligi – ziyofat madaniyati, qish faslining tasviri, ustoz-shogird munosabatlari, hatto asar yakunida "Xamsa" yaratgan adib sifatida o'z faxrini bildirgan ifodalariga qadar mujassam. Bunday keng qamrovli, ensiklopedik yondashuv Navoiy masnaviylariga xos bo'lsa-da, aynan "Saddi Iskandariy"da, ayniqsa, yorqin ko'rinadi. Bu jihat, xususan, Nizomiy, Xusrav va Jomiy ijodidagi Iskandar obrazlarida ko'zga tashlanmaydi.[9:75]

Navoiy o'z "Saddi Iskandariy" dostonida Nizomiy va Amir Xusravdek salafлари singari afsonaviy Iskandarning sarguzashtlarini hamda Jomiy singari Iskandarning donishmandona so'zlarini uyg'unlashtirib tasvirlashni, ya'ni sintez asosida uchinchi yo'lni tanlaydi.

Navoiy dostonni yozish qaroriga ilohiy inoyat orqali kelganini ochiq ifodalaydi, bu holat boblardan birining "Inoyat quyoshi vasfi" deb nomlanishida o'z aksini topadi. Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida "Saddi Iskandariy"ni Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy"sigа tatabbu sifatida ko'rsatadi, biroq bu ikki doston kompozitsiya, sujet va badiiy

yoʻsinda sezilarli darajada farq qiladi. Shuning uchun, olimlar fikricha, Navoiy bu yerdagi “tatabbu” atamasi bilan ustozining yoʻlidan ilhomlanganini emas, balki aynan kompozitsion yechim topishda Jomiyning yondashuvi muhim turtki boʻlganini nazarda tutgan boʻlishi mumkin.[10:56]

F.Sulaymonova bu borada shunday yozadi: “Sharq adabiyotida shakllangan Iskandarnoma anʼanasining muhim bosqichlaridan biri Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni hisoblanadi. Bu asarda Navoiy avvalgi salafilar – Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va Jomiy ijodini chuqur oʻrganib, tarixiylik, falsafiylik va badiiylik unsurlarini oʻzaro uygʻunlashtirishga erishadi. Ayniqsa, Jomiyning Iskandarga nisbatan faylasufona yondashuvi Navoiy uchun muhim turtki boʻladi. Shu boisdan Navoiy oʻz dostonida Iskandarning sarguzashtlaridan koʻra, uning donishmandlik va hikmat timsoliga aylanishiga koʻproq urgʻu beradi.”[12:145]

Ushbu fikrlar Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonini tarixiy haqiqat, badiiy mahorat va didaktik gʻoyalarni uygʻunlashtirgan holda, Iskandar obraziga yangi konseptual yondashuv asosida yaratganini koʻrsatadi.

Alisher Navoiy oʻzining “Saddi Iskandariy” dostonini yozishga kirishganida, Iskandarnoma yaratish anʼanasi allaqachon Sharq adabiyotida shakllangan va boy adabiy meros hosil boʻlgan edi. Ayniqsa, Nizomiy Ganjaviydan boshlab ushbu mavzuga boʻlgan qiziqish ortgan, turli mualliflar Iskandarning hayoti va faoliyatini turlicha talqin qila boshlaganlar. Bu holat, bir tomondan, ijodiy yangilik va mualliflik uslubining shakllanishiga xizmat qilgan boʻlsa, boshqa tomondan, tarixiy voqealar asosidagi qissa sujetining dezintegratsiyasiga, yaʼni voqelikdan uzoqlashuviga olib kelgan.

Xususan, Nizomiydan keyingi asarlarda Iskandar qissasining tarixiy asosga tayanuvchi epizodlaridan koʻra, muallifning shaxsiy qarashlari, falsafiy va tasavvufiy gʻoyalari ustuvorlikka ega boʻldi. Natijada Iskandarning tarixiy obrazi asta-sekin afsonaviy, simvolik timsolga aylana bordi. Ushbu oʻzgarishlar, har qancha badiiy jihatdan yuksak boʻlmasin, tarixiy asosdan chekinish hisoblanar edi.

Alisher Navoiy, nozik didli va tafakkurli ijodkor sifatida, bu jarayonni teran anglagan va ushbu yondashuvni maqsadga muvofiq deb hisoblamagan. Shu sababdan, u “Saddi Iskandariy” ustida ish boshlashdan avval mavzuning tarixiy manbalarini chuqur oʻrgangan. Navoiy uchun muhim boʻlgan jihat — Iskandar obrazini, avvalo, tarixiy kontekstda tiklash va keyin uni maʼnaviy-axloqiy jihatlar bilan boyitishdan iborat edi.

Navoiy mazkur niyatini ochiq bildiradi: “Bu gavharfishonliqdin chun ulugʻ maqsud tarix ilmi maxzanigʻa vuquf topmogʻliq... moziya holoti makshuf boʻlmogʻ erdi”.[1:389] Bu fikrlar, asosan, “Saddi Iskandariy” tarixiy asosga tayanilgan doston ekanini koʻrsatadi. Garchi Iskandarnomalarni “tarixiy xronika” sifatida toʻliq baholash toʻgʻri boʻlmasa-da,[4:125] Navoiy uni butunlay majoziy yoki toʻqima asar sifatida koʻrmagan. Aksincha, tarixiy asosni har jihatdan tiklashga intilgan. Shu bois u doston prologida Eron shohlarining toʻrt sulolasini sanab oʻtadi — bu esa tarixiy yondashuvga sodiqlik ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Navoiy dostonida ilgari surilgan asosiy yondashuv — bu Iskandarning tarixiy hayotini (biografiyasini) badiiy talqinda tasvirlash bilan birga, uni axloqiy-maʼrifiy konsepsiyalar bilan uygʻunlashtirishdir. U oʻzidan oldingi adiblar – Nizomiy va Xusrav Dehlaviy kabi – Iskandarning sarguzashtlarini, Jomiy esa uning soʻzlarini eʼtiborga olganini anglab, bu ikki yondashuvni sintez qilish yoʻliga kirgan. Natijada Navoiy “Saddi Iskandariy”da uchinchi — oʻziga xos yoʻlni yaratdi: tarixiy asosga tayanuvchi, falsafiy va maʼrifiy qatlamlarga ega universal qissa. Navoiy oʻzining bu dostonida quyidagi asosiy sujet yoʻnalishlarini ajratib oladi:

1. Eron shohlarining toʻrt sulolasi tarixi.

2. Iskandarning nasabi, ta'lim olishi va podsholik boshlanishi.
3. Iskandarning Doro bilan to'qnashuvi.
4. Hindistonga, Kashmirdan Chingacha yurishlar.
5. Mag'ribga safari va Ya'juj-Ma'jujga qarshi kurash.
6. Dengiz sayohati.
7. Iskandarning vafoti.

Navoiy, ayniqsa, tarixiy haqiqatni buzmaslik, ya'ni "kizb oloyishi"dan qochish tamoyiliga sodiq qolgan. U, muhim deb hisoblagan voqealarni tanlab olib, tarixiy voqeaga yaqin badiiy tafsilotlar orqali ifodalagan. Masalan, Doro bilan to'qnashuvni "asl" voqea sifatida ilgari suradi: "Alardin biri erdi Doro ishi / Kim, ul nav' ish yod bermas kishi".[1:96-97]

Shu tarzda, u mavjud manbaalarga (jumladan, Tabariy, Mas'udiy, Bal'amiy kabi tarixchilarga) tayanib, dostonning tarixiy zaminini mustahkamlaydi.[13:56]

Navoiy "Saddi Iskandariy" orqali bir necha maqsadlarga erishishni ko'zlagan:

1. Turkiy tilda tarixiy qissa yaratish — bu orqali turkiy tilning ilmiy va badiiy imkoniyatlarini isbotlash.
2. Turkiy xalqlarni ma'rifatli qilish — Iskandar obrazini vosita sifatida ishlatib, ularga tarixiy va axloqiy saboqlarni yetkazish.
3. Ideal hukmdor timsolini yaratish — Husayn Boyqaro kabi zamonaviy hukmdorlar uchun namuna taklif etish.
4. An'anani saqlagan holda, uni yangilash — "Xamsa"dagi doston sifatida mavzuni takrorlamasdan, yangi yondashuv orqali uni mukammallikka yetkazish.

Xullas, Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida tarixiy haqiqat, badiiy mahorat va didaktik-ma'naviy g'oyalarni uyg'unlashtirish orqali iskandarnoma an'anasini yangi bosqichga olib chiqdi. Uning bu yondashuvi, shubhasiz, Sharq adabiyotida tarixiy-badiiy sintezning eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi.

Alisher Navoiy tarixiy Iskandarning hayotini real voqealar ketma-ketligida emas, balki uni ideal hukmdor, donishmand olim, tabiat va insoniyat mohiyatini tadqiq etuvchi faylasuf timsolida tasvirlaydi. Navoiyning Iskandar obraziga yondashuvi uni tarixiy sarkarda emas, balki jaholatga qarshi kurashuvchi aql va hikmat timsoli sifatida ilgari suradi. Asarda Iskandarning harbiy yurishlari emas, balki uning axloqiy-falsafiy izlanishlari, adolat, haqiqat va ilm sari intilishi asosiy syujet chizig'ini tashkil etadi. Bu jihat asarni an'anaviy "fathnoma"lardan farqlaydi.

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni Sharq adabiyotida Iskandar obrazining shakllanishi va takomiliga yetishi jarayonida tub yangilik bo'lib, bu obrazni nafaqat sarkarda yoki afsonaviy qahramon, balki komil inson, axloqiy-falsafiy rahbar, ilm-fan homiysi sifatida talqin etgan ilk yirik turkiy manba hisoblanadi. Navoiy bu orqali Iskandar timsolini g'arbonsa bosqinchilik paradigmasidan butunlay farqli ravishda ilm, adolat va insonparvarlik asosidagi hukmdorlik idealiga aylantirdi.

Asarning falsafiy yondashuvi shundaki, unda Iskandarning dunyoqarashi, ma'naviy kamolot sari yurishi, ustoz-shogird munosabatlari (Arastu bilan), shaxsiy kechinmalari va hayot falsafasi sof badiiylik bilan uyg'unlashtirilib, Sharq tafakkurining universal qadriyatlarini mujassamlashtiradi. Navoiy uni afsonaviy belgilar (tobut, qo'l, Kashmir tilsimi va boshqalar) vositasida ramziy darajaga olib chiqib, uni ijtimoiy-axloqiy ideal, faylasuf-hukmdor, donishmand yetakchi sifatida gavdalandiradi.

"Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar obrazining Navoiy ijodidagi talqini — bu Sharq adabiyotida falsafiy-badiiy tafakkur evolyutsiyasining yangi bosqichi bo'lib, adabiy-tarixiy

obrazni ma'naviy-axloqiy ideal darajasiga ko'tarishda yangicha konseptual yondashuvni namoyon qiladi. Ushbu asar faqat xamsanavislik an'anasi doirasidagi yutuq emas, balki Sharq tafakkurining komil inson haqidagi yuksak qarashlarini ifodalovchi keng ko'lamli madaniy-falsafiy manba sifatida muhim ilmiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy. Xamsa. 2-kitob: Saddi Iskandariy. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – B. 388.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Fan, 1961. – 240 b.
3. Bertels, E. E. Navoi va uning ijodi. – Toshkent: Fan, 1965.
4. Бертельс, Е. Е. Низами и фарсакая литература. – Москва: Наука, 1962.
5. De Weese, D. Islamization and Native Religion in the Golden Horde. – Pennsylvania: Penn State Press, 1994.
6. Firdavsiy, A. Shohnoma. Tarj. N. Karimov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2007.
7. Mirvaliev, B. Alisher Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1991.
8. Qur'oni karim ma'nolari tarjimai. Tarjimon: Alouddin Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2010. – 632 b.
9. Saidov, A. Iskandar timsoli sharq va g'arb adabiyotida. – Toshkent: Yozuvchi, 2002.
10. Shukurov, Sh. Navoiy va Jomiy adabiy merosi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.
11. Stoneman, R. Alexander the Great: A Life in Legend. – New Haven: Yale University Press, 2008.
12. Sulaymonova, F. Sharq va G'arb: adabiy-madaniy qarashlar tarixidan. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2022. – B. 144.
13. Tabariy, Muhammad ibn Jarir; Bal'amiy. Tarixnoma (fors-tojik tarjimalarida).
14. Van Donzel, E. J., Schmidt, A. Qur'onda Aleksandr afsonasi. – Leiden–Boston: Brill, 2010. – 175 b.

*Eliboyeva Zarnigor Normuminovna,
SamDChTI tayanch doktoranti*

ERTAK JANRI VA ULARNING AYTUVCHILARI

Annotatsiya. Mazkur maqola ertak janri haqida ma'lumot berilgan. Ertaklarning aytuvchilari va ularning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot berilib, munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: folklor, ertak janri, kompozitsiya, sujet, mavzu va g'oya, axloqiy tarbiya, dunyoqarash.

Yosh avlodning dunyoqarashini shakllanishida ertak janrining o'rni va ahamiyati kattadir. Ertaklar xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan janrlardan biri bo'lib, to'qima voqealarni tasvirlaydi va ba'zan fantastik xarakterga ega bo'ladi. Ertak barcha xalqlar og'zaki ijodida eng qadimgi va eng keng tarqalgan bir janr bo'lib, u xalq hayoti, urf-odati, intilishi, kurashini, orzu-armonlarini aks ettiradi¹

¹ X.Хомидий, Ш.Абдуллаева, С.Иброхимова. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – Б. 256.

E'tiborimizni ertak janriga qaratadigan bo'lsak, ertaklar kim tomonidan aytilgani bilan ham farqlanadi. Chunki nutq tushunchasida ham genderlik xususiyati yaqqol o'z ifodasini topadi. Ularda erkak va ayol nutqi kuzatiladi. Masalan, "Tohir va Zuhra" ertagi Zovonbibi Sarimsoqova nutqi orqali yozib olingan. Yoki "Ahmoq poshshoning dono xotini" (aytuvchi Muharram Soburova), "Dono xotin" (aytuvchi Aminajon Iskandarova), "Navro'z qaroqchi" (aytuvchi T.Mahmudova), "Kenja o'g'il" (aytuvchi Tillabibi Dadaboy qizi), "Osma savat" (aytuvchi Mohfira Sobirova), "Otangga qilsang bolangdan qaytadi" (aytuvchi Odilaxon Ahmedova), "Hozirjavob vazir" (aytuvchi Mohfira Sobirova), "Yaxshisi ham til, yomoni ham til" (aytuvchi Guljon Momo), "Susambil" (aytuvchi Samanbibi) kabilar ayollar tilidan yozib olingan¹.

"Dono xotin" ertagiga e'tibor qaratilsa, unda aytuvchi ayol nutqida saj usuli ustunlik qilganligi kuzatiladi: "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir podsho bo'lgan ekan. Uning yomon bir xotini bor ekan. O'zi tug'mas ekan, podsho boshqa xotin olay desa qo'ymas ekan. Qitmir, bardirkor ekan.

Yuzi oq bo'lsa ham ichi qora ekan, undan ko'plarning ko'ngli yara ekan. Podshoning o'lgan xotinidan bir qiz qolgan ekan. Qiz podshoning yakka-yu yagona farzandi bo'lsa ham uni yomon ko'rar ekan. "Qiz bola – tuz bola", – deb qizini xafa qilaverar ekan. Lekin podshoning qizi juda chiroyli, dono va chevar ekan. Qiz podshoga ko'p aqli gaplar aytar ekan, lekin podsho xotining so'ziga kirib, qizning gapiga quloq solmas ekan, bir gapda turmas ekan. Qizi olim ekan, podsho zolim ekan"². Mazkur parchada ko'proq ayol ruhiyati orqali tasvirlar yoritilganligi ishlatilgan so'z va iboralardan ham sezilib turibdi. Nutq juda sodda, unda aytuvchining xalq og'zaki ijodini eshitish orqali o'zlashtirganligi yaqqol kuzatish mumkin. Unda ijodkorlik yoki impravizatorlik esa kuzatilmaydi. Portret tasviri, ijtimoiy va ruhiy konfliktlar ham juda sayoz berilgan. Ayol nutqida podshohning qiziga yon bosish holatlari seziladi. Bundan quyidagicha bir xulosa chiqarish mumkinki, ertaklarni so'zlovchi, aytuvchi ayollar bu ertaklarni og'zaki tarzda eshitganligi bois ham unda tilning tasviriy vositalaridan foydalanish va badiiy bo'yoqdorlikka urg'u berish biroz murakkablik tug'dirishi mumkin. Biroq bosh qahramon – ayollarning aql zakovati va ularning mehnatsevarligi ulug'lanadi.

Ertak janri ham genderlik xususiyatiga ega. Hatto arab adabiyotida ham ayollarga xos dunyoqarash ertaklarda o'z ifodasini topgan. "Ming bir kecha" ertaklarining asosiy sujet chizig'ini belgilovchi obraz Shahrizoda sanaladi. Biz Shahrizodani prototip obraz sifatida e'tirof etishdan yiroqmiz. Mana shu Shahrizoda obrazining o'ziyoq ayol dunyoqarashini naqadar keng planda ekanligidan dalolat beradi. Ertaklarda genderlik xususiyati haqida K.P.Estes o'z tadqiqotlarida ma'lumot beradi³. K.P.Estesdan tashqari bu borada Dj.Bolen⁴, E.Lauter⁵, S.Rowland⁶ singari olimlar ham bu haqda to'xtalishadi. K.P.Estesning olib borgan tadqiqotlari eng yaxshi tadqiqotlar sirasidan joy oldi hamda uning yaratgan asari bessellerga aylandi. Bu olim 20 yil umrini ayol ijodkorligini o'rganishga sarf qildi. Natijada, tibit, rus, yapon, hind, meksika, eskimoslar, island, venger, rumen, afrika, kilt, shotland, arab singari vakillarning

¹ Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Кўп томлик. Ойжамол. Ҳаётий эртақлар. Иккинчи китоб. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1969, – Б.137.

² O'sha asar. – B.60.

³ Estes C.P. Women Who Run with the Wolves: Myths and Stories of the Wild Woman Archetype. – NY: Ballantine Books, 1996.; Бегущая с волками. Женский архетип в мифах и сказаниях. – Москва: София, 2010.

⁴ Болен Дж.Ш. Богини каждое женщины: новая психология женщины, архетипы богинь (электронный ресурс) . – PSLYIB, 2006, URL: <http://psylib.ukrweb.net/>

⁵ Lauter E. Women as mythmakers: poetry an visual ar be twentieth-century women. Bloomington: IndianaUniversity Press, 2002.

⁶ Rowland S.Jung: a feminist revesion. Cambridge. Polity Press, 1984.

ijodkorligini tadqiq etdi. Ertak janrida ayol ijodkorligini o'rganar ekan "Ko'k soqol", "Vasilisa" singari ertaklar asosida isbotlashga harakat qildi. O'zbek xalq ertaklariga razm solinsa, "Olmos botir", "Kulsa gul, yig'lasa dur" singari ertaklar, bizningcha, ayollar ijodkorligidan dalolat beradi. Bu ertaklarda keskin dramatism yoki to'qnashuvlar, janrlarning yorqin tasvirlari yoki erkaklarga xos xarakterlarning to'qnashuvlari kuzatilmaydi. Ertak go'yo buvi tilidan (roviy tilidan) bayon etilayotgandek taassurot uyg'otadi. "Olmos botir" ertagida Olmos botirning Qo'hiqofga sayohati va uning yo'lida ikki kampirning uchrashi (biri ijobiy xarakterga ega, ikkinchisi salbiy (yalmog'iz) xarakterga ega) ham fikrimizni isbotlaydi. Genderlik xususiyatiga ko'ra Olmos botirning biror erkak shaxs bilan kurash olib bormasligi ertakni ayol dunyoqarashiga mos talqin deyinimizga asos bo'la oladi.

Xullas, eng qadimiy ertak syujetlari zamonaviy ertaklar yoki badiiy asarlar uchun manba bo'lgani kabi, ularning sal o'zgartirilgan shakllari butunlay boshqa-boshqa bo'lgan xalqlarning adabiyotida mavjud. Xususan, ingliz xalq og'zaki ijodi asosan millatni o'ziga bo'ysundirgan qabilalar adabiyoti hisobiga rivojlanganligi uchun ham ingliz xalq ertaklarida dunyoning turli xalqlari folklor namunalariga o'xshash jihatlar ko'plab uchrashi isbotlandi. Barcha xalqlarning ertaklarida o'sha xalqning milliy qadriyatlari, tarixi bilan birga milliy xarakteri, tafakkuri ham aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Болен Дж.Ш. Богини каждое женщине: новая психология женщины, архетипы богинь (электронный ресурс) . – PSLYIB, 2006, URL: <http://psylib.ukrweb.net/>
2. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Кўп томлик. Ойжамол. Ҳаётий эртақлар. Иккинчи китоб. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1969, – Б.137.
3. Estés C.P. Women Who Run with the Wolves: Myths and Stories of the Wild Woman Archetype. – NY: Ballantine Books, 1996.; Бегущая с волками. Женский архетип в мифах и сказаниях. – Москва: София, 2010.
4. Lauter E. Women as mythmakers: poetry an visual ar be twentieth-century women. Bloomington: IndianaUniversity Press, 2002.
5. Rowland S.Jung: a feminist revesion. Cambridge. Polity Press, 1984.
6. Ҳ.Ҳомидий, Ш.Абдуллаева, С.Иброҳимова. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – Б. 256.

Eshboyeva Tursuntosh Soxatmamatovna
SamDChTI "Ikkinchi chet tillar"
kafedrasi katta o'qituvchisi PhD

ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING FRANSUZ TILIGA TARJIMALARI TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy g'azallari fransuz tiliga tarjimalari tahlil qilinadi. Unda shoirning g'azal janrida yaratgan asarlari fransuz tarjimonlari tomonidan qanchalik to'liq va aniq ifodalangani, tarjimada milliy ruh, badiiy tasvir vositalari hamda ma'naviy-estetik mazmunning qay darajada aks ettirilgani o'rganiladi. Shuningdek, tarjimalar jarayonida uchraydigan lingvistik, madaniy va uslubiy muammolar ham tahlil qilinadi. Tadqiqotda Navoiy g'azallarining fransuz tilidagi talqinlari orqali sharqona badiiy merosning jahon madaniyatidagi o'rni va ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, g'azal, tarjima, fransuz tili, badiiy tahlil, lingvistik muammo, madaniy tafovut, estetik qiymat.

THE ANALYSIS OF NAVOIY'S GHAZALS TRANSLATED INTO FRENCH

Abstract. This article analyzes the translations of the ghazals of the great Uzbek poet and thinker Alisher Navoi into the French language. It examines the extent to which the poet's works in the ghazal genre have been fully and accurately rendered by French translators, as well as the degree to which national spirit, artistic imagery, and spiritual-aesthetic values are reflected in translation. Furthermore, the article explores linguistic, cultural, and stylistic challenges encountered in the translation process. Through the study of French interpretations of Navoi's ghazals, the place and significance of Eastern literary heritage in world culture are revealed.

Keywords: Alisher Navoi, ghazal, translation, French language, literary analysis, linguistic challenges, cultural differences, aesthetic value.

O'zbek mumtoz adabiyotining XV asrgacha bo'lgan tarixiy taraqqiyotiga yakun yasab, uni yanada yuqori pog'onaga ko'targan ulug' iste'dod sohibi, mutafakkir Alisher Navoiy o'z ijodiy faoliyati bilan jahon adabiyotining yirik namoyondalari safidan faxrli o'rin egallaydi. Alisher Navoiyning asarlari shu qadar ulkan ahamiyatga egaki, unga xos bo'lgan xususiyatlar va ularning fransuz tilida o'rganish va tahlil qilish zamonaviy tarjimashunoslik fani uchun g'oyat zarur ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Sharq she'riyatida fransuz adabiyoti uchun u qadar xos bo'lmagan ma'noning haddan tashqari serqirraligi, kinoya va majozning kuchliligi, ishoralarga o'ta moyillik va so'zning serma'no jilolariga egalik mavjud.

Har bir tarjima til imkoniyatlari va mezonlari darajasida amalga oshiriladi. Ma'noni saqlab qolishga urinish ohang, badiiyat, qofiyaning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Albatta, tarjimonning mumtoz adabiyotimiz durlari sanalmish Navoiy g'azallari tarjimasiga qo'l urishi, ya'ni, "Navoiy panjasiga panja urishi" ga intilishi ibratli. Alisher Navoiy hazratlari tavalludining 567 yilligi arafasida Fransiyadagi o'zbek mumtoz she'riyatining ixlosmandlari "Editions Georama" nashriyot uyidan ajoyib sovg'a oldilar-"Navoiy g'azallari" to'plami fransuz tiliga chop etildi.

Buyuk shoirning insonparvarlik, vatanga va go'zalikka muhabbat, komillikka intilish, rahm-shafqat g'oyalari bilan yo'g'rilgan g'azallari ushbu to'plam sahifalaridan joy oldi. Kitob ikki jonboz tashkilotchi – filolog, tarjimon Murodxon Ergashev va ko'p yillardan buyon buyuk Ipak yo'lida joylashgan mamlakatlarning adabiyoti va san'atini tadqiq etib kelayotgan fransuz sayohatchi san'atshunosi Jan Jak Gate ijodiy hamkorligining mahsuli sifatida dunyo yuzini ko'rdi. Mualliflarning qayd etishlaricha, ushbu to'plam Navoiy g'azallarini bevosita asliyatdan fransuz tiliga o'girish bilan bog'liq loyihaning hayotga tatbiq etilishidagi birinchi qaldirg'och bo'ldi.

Mazkur kitobda Alisher Navoiy biografiyasi, ijodi va lirikasi haqida hikoya qilinadi hamda g'azallarning fransuz tilidagi tarjimasini miniatyuralar bilan beriladi.

Miniatyuralar musavvir Jahongir Ashurov tomonidan ishlanganligi tahsinga sazovor. O'zbek adabiyotshunosi va tarjimoni M.Ergashev va J.J.Gate tomonidan A. Navoiyning "Mukammal asarlar" to'plami to'rtinchi tomidan 30 ta g'azal saralab olinib, "Gazels"ga joylandi.

Mazkur mo'jazgina to'plam muallifning beshinchi kitobidir. Navoiy ijodini o'rganar ekanmiz, uning g'azallarida leksik, fonetik, sintaktik va frazeologik kabi turli xil ifodali vositalar uchraydi.

Uslubiy vositalar orasida epitet, istiora, o'xshatish, kinoya, mubolag'a, kichraytirish, anafora va boshqalar Navoiyning ijodida eng mashhuridir. Alisher Navoiy tasviriy vositalar

yordamida ajoyib obrazlar, portretlar, hissiyotlar va manzaralarning nozik tomonlarini tasvirlashga muvaffaq bo'lgan, bu esa o'z navbatida tarjimondan ham ulkan mahorat talab qiladi.

Zero, "Badiiy asarni tarjima qilish tarjima faoliyatining eng murakkab turlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar orasida uslubiy vositalarni tarjima qilish muammosi dolzarb sanaladi". Ijodkorning har sohadan xabardor ekanligi, so'zlarni qo'llay olish mahorati, qo'llangan so'zlarning leksikasi, badiiy jihatdan barkamolligi kishini hayratga soladi.

Xususan, Navoiy ijodida qo'llanadigan har qanday so'zning badiiy jihatdan ko'zlagan maqsadi bor. Bu badiiy maqsad esa uning deyarli har bir g'azalida o'quvchiga anglashilib turadi. Keyingi yillar mobaynida Navoiy ijodi dunyoning qator tillariga, ingliz, rus, fransuz yana bir qator tillarga tarjima qilina boshlandi.

Quyida Navoiyning fransuz tiliga tarjima qilingan bir g'azalining tahlilini keltirib o'tamiz:

Asliyat:

*Ul pariypaykarki, hayron bo'lmish ins-u jon anga
Kimki, hayroni emas, men telbamen hayron anga.*

Pari so'zi mumtoz adabiyotimizda chiroyli, go'zal yor timsolini namoyon qiluvchi obraz sanaladi. Navoiy g'azallarida *pari* so'zi *paripaykar*, *parivash*, *pariro'y*, *huri paripaykar*, *pariy*, *pari-yu hur*, *huri pariyzodim* shakllarida uchraydi. Bu kabi birliklarning qo'llanishida qator semantik va uslubiy xususiyatlar ko'zga tashlanadi: *paripaykar*, *pariro'yda-qiyos*; *huri paripaykarda-kuchaytiruv*; *pariyda-tenglash*; *huri pariyzoda* – zurriyod tushunchalari namoyon bo'ladi. Ya'ni Navoiyning bu so'zni qo'llashdan maqsadi yor timsoliga alohida urg'u berib, uni barchadan yuqori qo'yish. Yor qiyos etilganda, uning o'xshashi yo'q, shuning uchun ham u *paripaykar*. Unga o'xshash timsolni hali inson-u jon ko'rmagan, agar o'sha yorni ko'rib ham hayron bo'lmaganlar bo'lsa, Navoiy ulardan juda ham hayratda.

Ba'zi bir mifologik obrazlar borki, ular inson ongida ayol yoki erkak qiyofasida gavdalanadi, masalan, *pari*, *hur*, *malak* kabi birliklarni ayol qiyofasida tasavvur etamiz. Navoiy g'azallarida afsonaviy shaxs nomlari ichida *pari* leksemasining qo'llanish chastotasi boshqalariga nisbatan ancha yuqori. *Pari* so'zi qo'llangan baytlarda devona va telba singari shaxsning ruhiy holati bilan bog'liq belgining substantlashishi hisobiga qo'llangan, shuningdek, tahlil etilayotgan leksema bilan jinsiy oppozitsiyadagi shaxs otlari ham ifoda etilgan.

Tarjimasi

*Sa beauté féerique
A surpris bien des hommes aussi bien que des djinns
Et qui n'est pas surpris me surprend follement.*

Tarjimada qo'llangan "beauté féerique" birikmasi fransuz tilidan o'zbek tiliga "sehrli go'zallik" tarzida tarjima qilinadi. Bu biz yuqorida badiiy jihatdan tahlilga tortgan "paripaykar" so'zi fransuz tilidagi tarjimasidir. Navoiy g'azallarida qo'llangan "ins-u jon" birikmasi "jamiki insonlar" ma'nosida qo'llangan. Bu birikma tarjimada to'g'ridan to'g'ri o'grilmagani bois "des hommes aussi bien que des djinns" tarzida, ya'ni "insonlar ham, jinlar ham" tarzida muvofiqlashgan.

*Ne ajab parvonadek kuysam yuzi sham'ig'akim
Ko'p bo'lubmen vasl ummidi birla sargardon anga.*

Baytda qo'llangan *parvona* so'zi turkiy adabiyotda asosan, "sham atrofida aylanib yuruvchi kapalak" ma'nosida oshiq timsoliga ta'rif berish uchun ifoda etiladi. Mazkur baytni "parvona shamga oshiq bo'ldi, shamni ko'rib kelaman, visolidan tuyaman deb, olovga uchrab

halok bo‘ldi. Parvonaning taqdiri ayanchli tarzda tugadi. Oshiqda ham xuddi shunaqa. Visolni tuyadi, kuyib halok bo‘ladi” tarzida sharhlasak, Navoiy ushbu baytda o‘zi kuyishni aniq bilsa ham, vasl umidida sargardon bo‘lib yurganini ta’kidlaydi. Bu jarayon, bu holat o‘zini ko‘ra-bila turib olovga otishdir.

*Est-ce de la surprise
Si je me brûle au feu de ce sourire d'ange
Comme le papillon attiré par la flamme?
J'ai tellement souffert à conserver l'espoir
Qu'enfin viendra le jour de m'unir avec elle.*

Tarjimada “parvona” so‘zi “papillon” tarzida berilgan. “Parvona” kapalaksimon hasharot, ya’ni kapalakning bir turi sifatida oshiq semasida ifodalangan. Qolgan so‘zlar izohi esa aynan o‘z shaklida ifodalangan.

*Toiri hajring buzug‘ ko‘nglumnim qilmish vatan
Chug‘zdek durkim, nishiman keldi bir vayron anga.*

Navoiyni his qilmagan inson, anglamaganlar inchunun ikkala misra talqinida biroz chalg‘ishlari tabiiy. Misrada sening hajring tufayli ko‘nglim obod bo‘ldi demoqchimikan muallif, deb o‘ylab qolasan kishi. Lekin ikkinchi satrda keltirilgan “chug‘z” timsoliga e’tibor qaratsak, talqin yengillashadi. Chug‘z timsolini adabiyotda juda ko‘p o‘rinlarda ishlatamiz. Masalan “Xalq ichida base bo‘ldum afsona, Chug‘z yanglig‘, so‘rma, joyim vayrona” deya Muqimiy ham bu so‘zni keltirib o‘tgan edi. Mumtoz adabiyotda bu istiloh “boyqush”, “boyo‘g‘li” ma’nosida qo‘llanadi. Ya’ni, misradan sening keltirgan hajr azobing mening uyimni chug‘z vatanidek qildi, degan ma’no kelib chiqadi.

*Ton oiseau s’est niché dedans mon coeur en ruines
Tout comme le coucou vient s’installer chez l’autre*

Yuqoridagi baytning fransuz tilidagi tarjimasida “vayron bo‘lgan ko‘nglimga sening qushing o‘rnashdi, xuddiki, kakku qushi bironing uyiga joylashgan kabi”. “Chug‘z” so‘zi fransuzcha izohda “coucou” tarzida berilgan.

Bu fransuzcha so‘zni tarjima qilsak, o‘zbekcha talqinda kakku tarzida uchratamiz.

*Hajrida tah-tah ko‘ngul qon bog‘lag‘andindur nishon,
Nomai shavqumki tim-tim tom di ko‘z din qon anga.*

Mumtoz adabiyotda bir-biriga o‘xshamaydigan, takrorlanmas timsollar qo‘llanadi. Ayniqsa, Navoiy g‘azallari qahramonlar ruhiyati, holatining badiiy tasviri o‘ziga xosligi bilan kishi xotirasida uzoq yillar saqlanadi. Yuqorida keltirilgan baytdagi shoirning poetik maqsadini qahramonlar misolida tahlilga tortsak. Yorning hajri oshiqqa shunchalar sitam yetkazdiki, buning natijasi qon misol ko‘rina boshladi. Hajr azobi oshiq uchun eng kuchli azob hisoblanadi.

Undan o‘tadigan qiynoq yo‘q. Hattoki bu qiynoqlar shu darajaga yetib keldiki, ko‘zdagi yosh misol uyg‘unlashib ketdi. Yorning holati ayni shu tarzda mubolag‘ali qo‘llangani muallifning mahoratidir. Ko‘zdan yosh emas, balki qon oqa boshladi. Qon shunchalar ko‘p oqdiki, nomalarga ham toma boshladi. Birgina hajr azobi oshiqni shunchalar xonavayron qilib, uni oh urmoqqa majbur qildi.

*Tarjimasi
Cette rupture blesse et c'est mon coeur qui saigne
Et les gouttes de sang s'écrasent sur ma lettre.*

Fransuzcha izohida birozgina o‘zgarish bor. Tarjimon mahorati tufayli bayt mazmuni quyidagicha tarjima qilingan: “Bu ajralishdan yuragim og‘riyapti va qonayapti, qon tomchilari

esa xatimga urildi”. Mantiqiy tarzda misralar yaxshigina bog‘lana olgan. Tanlangan so‘zlar ham tarjimon mahoratidan darak beradi, fransuzcha so‘zlar ham aynan muqobil variantda berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plmi. IV tom. – Toshkent, 1989. – 526 b.
2. [Ergashev M, J.J.Gaté](#). Alisher Navoiy. Gazels. – Brest: Géorama, 2007. – 72 p.
3. Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б.12.
4. Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 3-том. Хазойин ул-маоний. Фаройиб-ус-сиғар. – Тошкент: Фан, 1988. – 616 б.
5. [\(14.05.2023\)](http://e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/sheriyat/211-lirika.html)

**Holikulova Gulchexra Yorqulovna,
SamDCHTI o‘qituvchisi
Xayrullayeva Zahro Uyg‘un qizi,
SamDCHTI 2-bosqich talabasi**

QARLUQ VA QIPCHOQ LAHJALARINING LEKSIK QIYOSLANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiy tillar oilasiga mansub qarluq va qipchoq guruhlariga oid shevalar hamda ularning leksik jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Hamda bu ikki lahjaning ayrim hududlarda, xususan, Qashqadaryo va Samarqand viloyati hududida uchraydigan va hozirga qadar mavjud bo‘lgan so‘zlari talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: qarluq va qipchoq lahjasi, dialekt, sheva, leksik qatlam, guruhlanish.

Annotation. This article presents a comparative analysis of dialects belonging to the Qarluq and Qipchaq groups of the Turkic language family and their lexical aspects. Also, the words of these two dialects that are found in some regions, in particular, in the Kashkadarya and Samarkand regions and that still exist, are interpreted.

Keywords: Qarluq and Qipchaq dialect, dialect, dialect, lexical layer, grouping.

Аннотация. В статье представлен сопоставительный анализ диалектов карлукской и кыпчакской групп тюркской языковой семьи и их лексических особенностей. Также дается толкование слов этих двух диалектов, встречающихся в некоторых регионах, в частности, в Кашкадарьинской и Самаркандской областях, и существующих до сих пор.

Ключевые слова: карлукский и кыпчакский диалекты, диалект, говор, лексический слой, группировка.

Turkiy tillar oilasi ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, ichki guruhlarga ajralgan holda rivojlangan. O‘zbek adabiy tili rivojining asl ildizlaridan sanalgan qarluq va qipchoq lahjalari milliy til taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Ushbu lahjalarning dialekt tizimlari turli tarixiy, ijtimoiy va geografik omillar ta‘sirida shakllangan. Bundan ma‘lumki, o‘zbek milliy tilining muhim bir tarkibini tashkil etadigan sheva, lahjalar o‘zining umumiy leksik qatlamga egadir. Ular o‘zbek adabiy tilining ma‘lum bir hududida yashovchi aholi uchun hayotiy zarur ko‘rinishdagi mahalliy tuzilmasi. Aynan maqolada tadqiq etilayotgan Qashqadaryoning Kitob (qipchoq) va Samarqandning Oqdaryo (qarluq) tumanlari timsolida o‘rganib chiqiladi.

Qarluq guruhiga o‘zbek va uyg‘ur tillari kiradi. Bu tillar tarixan Markaziy Osiyoning janubiy va sharqiy hududlarida shakllangan. Samixon Ashirboyev dialektologik tadqiqida

O‘zbekiston hududida foydalaniladigan qarluq lahjasi shevalarini to‘rt guruhga bo‘lib ko‘rsatiladi:

- Toshkent shevalari;
- Farg‘ona shevalari;
- Samarqand-Buxoro shevalari;
- Turkiston-Chimkent-Sayram shevalari [1:71].

Qipchoq guruhiga esa qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, nog‘oy, tatar va boshqa tillar mansub. Ushbu tillar Markaziy Osiyoning shimoliy va g‘arbiy qismida tarqalgan. Ushbu guruh o‘zbek dialektologisidan Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Navoiy hududlarida keng foydalaniladi.

Qashqadaryo hududida ayni bir qipchoq lahjasidan foydalanibgina qolmay, qarluq va o‘g‘uz lahjasiga ham murojaat etishadi. Bu janubiy viloyatda adabiy til turli rasmiy tadbir, shahar hududida qancha muomalada bo‘lmasin sheva va dialektlar ba‘zan ustunlik beradi. Negaki, bu jarayon qadimiy an‘ana, madaniy boyliklarni saqlab qolish maqsadida ijro etilgan xalq og‘zaki ijodi va tub aholining doimiy nutqiy aloqada bo‘lgani bilan bog‘liq hodisa. Qashqadaryo shevasi to‘g‘risida shevashunos olimlardan T.Nafasovning “Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari lug‘ati” asarida keltirilgan ma‘lumotlar ayni gap isboti bo‘la oladi. Qarluq va qipchoq lahjasi tumanlararo ham farqlanadi. Masalan, Kitob va Yakkabog‘ shevalarida ayrim tafovutlarga duch kelish mumkin. Yo aksincha bo‘lib ushbu dialektlar o‘rtasidagi leksik o‘xshashliklar ham talaygina. Ko‘plab so‘zlar tarixiy ildiz jihatidan mushtarak bo‘lib, umumbashariy manbaga ega.

Ikkinchi tomondan tahlil ostiga olingan sheva Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanida azaldan rivojlangan qarluq lahjasi hisoblanadi. Hududda yoyilgan qarluq lahjasidagi antonimlar nutqqa badiiy nafasot, ta‘sirchanlik, jozibadorlik va uslubiy tus berish uchun ishlatiladi. Zid ma‘noli so‘zlar hayotdagi yangiliklar, boshqa tillarning ta‘siri va so‘zlarni o‘zlashtirish omillari, ma‘lum bir dialektning adabiy til bilan aloqasi asosida paydo bo‘lgan..

Bu sheva leksik tomonlama olib qaralganda biroz ikkinchi tomondagi shevadan yiroq tuyiladi.

| O‘zbek adabiy tili | Kitob qipchoq shevasi | Oqdaryo qipchoq shevasi |
|--------------------|-----------------------|-------------------------|
| Zirak | xalqa | siryā |
| Chelak | pāqir | sātil |
| Suzma | qātiq | čäkki |
| Narvon | nārvān | nārvān |
| Do‘ppi | qālpāy | toppi |

Bu ikki lahjani morfologik farqlaymiz:

Qashqadaryo shevalarini o‘rganishda shevashunos olim Bolta Jo‘rayev ko‘plab ilmiy ishlar olib borgan. Natijada sheva morfologiyasining bir qancha areal farqini tushuntirgan. Ulardagi e‘tiborni tortadigan holatlar so‘z turkumlari, kelishiklari va shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘llash bilan tasniflanadi. Ya‘ni kelishik qo‘shimchalarini noo‘rin qo‘llash yuzaga keladi. Masalan:

- Ānāñ qerda, qizim?
- Üjga.

Samarqand shevalarida ko'rsatish olmoshlariga -day, -dek qo'shimchalari qo'shilganda "undaq", "munnay", "o'shandaq" shaklida talaffuz qilinadi. Unaqangi, munaqangi variantlar esa "unnoy'chiyin", "munnaj'chigiyin" shaklida qo'llanilishi nutqda o'z isbotini topadi.

Xulosa qilib aytganda, har ikki lahja ham o'zbek adabiy tilini boyitishga, qadriyatlarni saqlab qolishga xizmat qiladi. Adabiy til shevalar, dialektlar hisobiga kengayadi. Shevalar adabiy tilning, umuman olganda, lug'atini boyituvchi asosiy omil sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashirboyev Samixon. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2021. 71-86 b/
2. Enazarov T., Karimjonova V. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, Universitet, 2012.
3. Jabborov Xo'jamurod. Qashqadaryo shevalarni o'rganish tarixidan, 2025. 140 b.
4. <http://sciencebox>, 2024.

IJTIMOYIY TARMOQLAR ORQALI AXBOROT TARQATISH VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Xudayberdiyeva Muxlisa Abduganiyevna
Samarqand davlat chet tillar instituti "O'zbek tili, jurnalistika va
kompyuter lingvistikasi kafedrasini o'qituvchisi
Xudayberdiyevam89@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot tarqatish jarayonining o'ziga xos jihatlari, afzallik va xavflarini ilmiy tahlil qiladi. Ishda axborotning tez tarqalishi, interaktivlik, algoritmik moslashuv, vizual va multimediyaga komponentlari, shuningdek foydalanuvchilarning faolligi va anonimligi kabi omillar o'rganilgan. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlarda axborot tarqatishning samaradorligi va axborot xavfsizligini ta'minlashning dolzarbligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, axborot tarqatish, virtual axborot, interaktiv kommunikatsiya, algoritmik moslashuv, axborot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash, multimedia, foydalanuvchi faolligi.

Kirish: So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat shaxsiy muloqot vositasi, balki axborot tarqatish, fikr almashish va jamiyatdagi muammolarni muhokama qilish uchun keng qo'llaniladigan platformalarga aylandi. O'zbekiston Respublikasida ham ijtimoiy tarmoqlarning roli tobora ortib bormoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bir qator qarorlar va farmonlar bu sohani rivojlantirish va tartibga solishga qaratilgan.

Masalan, 2019-yil 18-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi yagona davlat axborot siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida davlat axborot siyosatining asosiy vazifalari sifatida axborot texnologiyalarini rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash va axborot almashishning samaradorligini oshirish belgilangan. Ushbu qaror ijtimoiy tarmoqlarda axborot tarqatishning davlat siyosatidagi o'rni ko'rsatadi [1].

Shuningdek, 2018-yil 21-noyabrda qabul qilingan PQ-4024-sonli qarorda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining faoliyatini takomillashtirish, axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu qaror ijtimoiy tarmoqlarda axborot tarqatishning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini mustahkamlashga xizmat qiladi [2].

Prezident qarorlari ijtimoiy tarmoqlarda axborot tarqatishning nafaqat imkoniyatlarini, balki xavflarini ham inobatga olish zarurligini ko'rsatadi. Yolg'on axborot (fake news) va manipulyativ materiallarning tarqalishi jamiyatda noto'g'ri fikrlar shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, axborot xavfsizligini ta'minlash, foydalanuvchilarning huquqlarini himoya qilish va axborotning haqqoniyligini nazorat qilish dolzarb masalalarga aylangan.

Asosiy qism: Internet jurnalistining mahorati yangiliklarni baholay olishida bilinadi. Bu jurnalistdan talab qilinadigan asosiy narsalardan biri hisoblanadi. Yangiliklarni tanlash va ularni baholash internet jurnalisti kundalik faoliyatidagi eng qiyin yumushlardan biri hisoblanadi. Bu jurnalistning tajribasini ham ko'rsatib beradi. Masalan, "kun.uz" sayti jurnalistlari yangiliklarni baholashda mazkur saytning axborot siyosatiga, voqeaning ijtimoiy ahamiyati va dolzarbligiga e'tibor berishadi. Saytda berilgan "Nazorat qiluvchi idoralar mustaqil bo'lishi kerak. Davlat boshqaruvidagi muammolardan biri haqida" sarlavhasi ostida chop etilgan xabar 2 soat ichida 13 804 marta o'qilganini kuzatish mumkin, bu ham, albatta, auditoriyaning qiziquvchanligidan dalolat beradi. "Musulmonlar idorasining yo'l harakati qoidalariga rioya qilishga doir fatvosi e'lon qilindi" kabi xabarlar ham foydalanuvchilar diqqat-e'tiborini tortib kelmoqda. Internet jurnalistining mahorat qirralaridan yana biri uning tezkorligidir. Agarda 2-3 yil oldin respublikamizda faoliyat yuritayotgan saytlarning salkam 50 foizi muntazam yangilanmagan bo'lsa, bugungi kunda sifatli axborotga bo'lgan talabning oshishi, saytlarning ko'payishi va axborot bozori uchun kurash OAV maqomiga ega saytlarning har kuni yangilanib turishini taqozo etmoqda. Buni "Kun.uz", "Daryo.uz", "Gazeta.uz", "Qalampir.uz", "Xalq so'zi" saytlari misolida ko'rishimiz mumkin. Ularda berilayotgan bugungi kunning dolzarb muammolariga bag'ishlangan materiallar foydalanuvchilar xabardorligining oshishiga olib kelmoqda. Agarda saytlar kontenti bilan tanishish dinamikasini kuzatadigan bo'lsak, www.uz portalining xabariga ko'ra, bir kunda "Daryo.uz" saytiga 422 496 mingga yaqin foydalanuvchilar kirsak, reytingning uchinchi o'rnini egallagan "Qalampir.uz" saytiga 106 086 mingga yaqin foydalanuvchi kirib, uning mazmuni bilan tanishar ekan. Bu ko'rsatkichlar ham bugungi kunda insonlarning axborotga qanchalik kuchli ehtiyoji borligini ham ko'rsatib bermoqda.

Aslida jurnalistlar, o'z kasbiy vazifalariga muvofiq, axborot vakuumida yashashlari mumkin emas. Bloggerlardan olingan ma'lumotlar jurnalistlar tomonidan rasman e'lon qilinmasada, baribir ularni kundalik faoliyatlarida nazardan qochirmaydilar. Zero, an'anaviy OAVning axborotni yashirish odati ularga bo'lgan ishonchga putur yetkazadi. Natijada odamlar bloglarga o'xshagan axborot manbalariga murojaat etishga majbur bo'ladilar. Bunda auditoriyaning professional jurnalistlarga bo'lgan ishonchi pasayadi, bloggerlar mavqei esa oshib boraveradi. Natijada an'anaviy jurnalistikaning reytingi biroz tushib ketishi mumkin.

Internet jurnalistining mahorati avvalo jurnalistika konvergentsiyasi jarayonida o'quvchi uchun qiziq bo'lgan faktlarni zudlik bilan har tomonlama, ya'ni matn, video va audio jamlanmasi ko'rinishida yetkazishdir. Bugungi kunga kelib saytlarda ("Kun.uz", "Daryo.uz", "Gazeta.uz", "Human.uz") muhbir bilan birgalikda fotograf va operator faoliyatini kuzatishimiz mumkin, bu albatta, ularda faoliyat yuritayotgan jurnalistlar matn va surat bilan chegaralanib qolmay, axborotni video va audio shaklida ham aholiga yetkazib berishayotganliklarini ko'rishimiz mumkin.

Soha xodimlarini rag'batlantirish, yangidan-yangi ijodiy parvozlar sari da'vat etish, kasb malakasi va mahoratini yuksaltirish, zamon talabiga uyg'un mutaxassis kadrlar tayyorlash borasidagi ishlar ko'lami tobora kengaymoqda. Bu jihatlar jurnalistikamiz rivojiga xizmat qilayotgan turli ko'rik-tanlovlar, ijodiy bellashuvlar, grant-loyihalar, ijtimoiy dasturlarda ham o'z ifodasini topmoqda.

Bu borada jurnalistlar o'rtasida o'tkazib kelinayotgan "Oltin qalam" Milliy mukofoti, "Yilning eng faol jurnalisti", "Eng ulug', eng aziz" singari tanlovlar, "Jurnalistlar bahori", "Ijtimoiy media maxsulotlar milliy festivali", "Ozod yurt to'lqinlari" kabi mediafestivallar ijod ahlining jamiyatdagi faolligini oshirish, kasbiy mahoratini yuksaltirish, iqtidor sohiblarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

OAV uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishiga ham katta e'tibor berilmoqda. Xususan, o'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika, O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetlarida, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti, shuningdek, Samarqand davlat chet tillar institutida ham soha uchun kadrlar tayyorlanmoqda. Ushbu ta'lim dargohlarida hozirgi tez o'zgarayotgan globallashuv davrida jurnalistikaning o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlar samaradorligini ta'minlash hamda ushbu soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish yo'lida ish olib borilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan zararli axborotlar, jumladan, iqtisodiy va moliyaviy firibgarlik, diniy ekstremizm va siyosiy manipulyasiyalar oddiy foydalanuvchilar uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. Mutaxassislar ta'kidlashicha, yoshlar va axborotga tanqidiy yondashish ko'nikmalari yetarli bo'lmagan shaxslar bu kabi tahdidlarga nisbatan ko'proq osonlikcha ta'sirlanadi.

O'zini bank xodimi deb tanishtirib, odamlardan shaxsiy ma'lumotlarni so'rayotgan firibgarlar, soxta xabarlar orqali adashtiruvchi feyk akkauntlar, vahimali axborotlar bilan odamlarni ruhiy bosimga olayotgan kimsalar – bularning barchasi ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalmoqda. Eng xavfli esa – yoshlar orasida diniy va siyosiy ekstremistik g'oyalarning tarqalishi, ularni g'arazli guruhlar tomonidan "mafkuraviy qurol" sifatida ishlatishga urinishlaridir.

Bir qancha rivojlangan davlatlarda bu masalaga strategik darajada yondashilmoqda. Masalan, Finlyandiyada har bir maktab o'quvchisi axborot manbalarini tahlil qilishni o'rganadi. Ular axborot qanchalik ishonchli ekanini mustaqil baholay oladi. 2019-yili qabul qilingan "Media Literacy in Finland" siyosatiga muvofiq, media ta'lim maktabgacha ta'limdan boshlab barcha darajalardagi ta'lim dasturlariga kiritilgan. Bu orqali talabalar axborot manbalarini tahlil qilish, feyk yangiliklarni aniqlash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'lmoqda.

Germaniyada esa 2017-yili qabul qilingan "Network Enforcement Act" (NetzDG) qonuni ijtimoiy tarmoqlarda nafrat nutqi va soxta yangiliklarga qarshi kurashishni maqsad qilgan. Ushbu qonunga muvofiq, ijtimoiy tarmoqlar 24 soat ichida "ochiqdan-ochiq noqonuniy" kontentni o'chirishi shart, aks holda 50 million yevrogacha jarimaga tortilishi mumkin [3].

Yaponiyada hatto kichik yoshdanoq internet xavfsizligi asoslari o'rgatiladi, bu o'quv dasturiga kiritilgan va maktab darslariga o'quvchi telefon bilan kirish cheklangan.

O'zbekistonda ham bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. 2024-yili ilk bor umummiy axborot kampaniyasi muvaffaqiyatli tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi shafe'ligida "Yangi media ta'lim markazi" nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan o'tkazilgan axborot kampaniyasi doirasida qator universitetlar professor-o'qituvchilari, talabalari, milliy va mahalliy OAV vakillari, yetakchi blogerlar va inflyuenserlar faol ishtirok etdi.

Shuningdek, 2025-yil 3-mart kuni YuNESKO tomonidan tashkil etilgan ko'p tomonlama seminarda hukumat, universitetlar, OAV va fuqarolik jamiyati vakillari ishtirok etdi. Tadbirda

axborotni tanqidiy baholash va feyk kontentni aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari batafsil muhokama qilindi [3].

Ijtimoiy tarmoqlardagi zararli axborotlarga qarshi kurashish faqatgina davlat organlari yoki tegishli tashkilotlarning vazifasi emas. Bu jarayonda ta'lim muassasalari, OAV, fuqarolik jamiyati va har bir foydalanuvchining faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Axborotga tanqidiy yondashish, manbalarni tekshirish va media savodxonlikni oshirish orqali jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mumkin.

2025-yil 17-18-aprel kunlari Qozog'istonning Kaskelen shahridagi SDU universitetida "O'zgarayotgan dunyoda Markaziy Osiyo: agentlik, huquqiy muammolar va OAV manzarasi" nomli xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi. Unda dunyoning turli mintaqalaridan kelgan yetakchi olimlar va ekspertlarning ma'ruzalari tinglandi. Anjuman dasturiga muvofiq, "Dezinformatsiyaga qarshi kurashda nodavlat tashkilotlarning roli: O'zbekiston tajribasi" mavzuida ma'ruza qilingan va aholining media va axborot savodxonligini oshirish bo'yicha mamlakatimizda erishilayotgan natijalar batafsil muhokama qilindi.

Xulosa: Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida axborot tarqatishning eng asosiy vositasiga aylangan bo'lib, ular ma'lumotni tez qabul qilish va tarqatishda yetakchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga, zararli axborot, feyk yangiliklar va ekstremistik g'oyalar yoshlar uchun jiddiy xavf tug'diradi. Jahon tajribasi ko'rsatadiki, media savodxonlikni rivojlantirish, axborotni tanqidiy baholash va qonuniy tartibga solish ijtimoiy tarmoqlarda xavfsiz muhit yaratishga yordam beradi. O'zbekistonda ham axborot xavfsizligini ta'minlash va yoshlarning media savodxonligini oshirishga qaratilgan davlat va nodavlat tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Shu orqali jamiyatda axborotga tanqidiy yondashish va ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish madaniyati shakllanmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi yagona davlat axborot siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2019. URL: Kun.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4024-sonli qarori. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2018. URL: Lex.uz
3. Abdullayev Sh., Rasulov F. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xavfsizligi va media savodxonlikni rivojlantirish: O'zbekiston tajribasi // O'zbekiston axborot va kommunikatsiyalar agentligi. — Toshkent, 2025. — 24 s.
4. Nozima Muratova, Nargis Qosimova, Gulnoza Alimova, A'zam Dadaxonov, Azizaxon Ilyosxonova, Sitara Xolmatova, Nigina Xakimova: Jurnalistika "Onlayn jurnalistika va mediada yangi trendlar" -T.: o'zbekiston, 2019. 135-b.

*Komilova Farangiz Baxtiyorovna,
Samarqand davlat chet tillar instituti
1-bosqich magistr*

AMIR TEMUR SIYMOSINING SHARQ VA G'ARB ADABIYOTIDA AKS ETISHI

Annotatsiya: Maqolada buyuk sarkarda Amir Temurning shaxsiyati, harbiy sarkardalik faoliyati, davlat boshqaruvi va turkiy davlatchilik asoslarini shakllantirishdagi tarixiy xizmatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, temurshunoslik fani rivojining xalqaro miqyosdagi bosqichlari,

xorijiy va mahalliy olimlarning izlanishlari, oʻrta asr manbalarida Amir Temur siyomosining yoritilishi, zamonaviy tadqiqotlarda uning tarixiy merosining talqini ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Amir Temur, temurshunoslik, tarixshunoslik, sarkardalik, davlat boshqaruvi, ilmiy tadqiqotlar, manbalar.

Amir Temur (1336–1405) oʻz davrining yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda va Turon zaminida markazlashgan davlat tuzgan tarixiy shaxs sifatida jahon tarixida chuqur iz qoldirgan. Uning harbiy salohiyati, siyosiy zakovati va maʼnaviy merosi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun insoniyat madaniy taraqqiyotida muhim oʻrin egallaydi. Shu bois temurshunoslik alohida ilmiy yoʻnalish sifatida shakllanib, turli mamlakatlarda keng koʻlamli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda Amir Temur shaxsiyati va uning merosi Cambridge University (Buyuk Britaniya), Humboldt va Bonn universitetlari (Germaniya), Indiana University (AQSh), Fateh, Baskent, Istanbul va Gazi universitetlari (Turkiya), shuningdek M.V. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti (Rossiya) kabi nufuzli oliy taʼlim muassasalari va ilmiy markazlarda izchil oʻrganilmoqda; bu boradagi tadqiqotlar tarixiy manbalarni, mintaqaviy arxivlarni va transmilliy tarixiy-paradigma tahlillarini birlashtiradi.

Temuriylar tarixini va sanʼatini oʻrganishga bagʻishlangan xalqaro tadqiqotlar, shuningdek, ilmiy assotsiatsiyalar va konferensiyalar doirasida faol muhokama qilinmoqda; masalan, Fransiyada tashkil etilgan Temuriylar tarixi va sanʼatini oʻrganish assotsiatsiyasi (Association for the Study of the History and Arts of the Timurids) xalqaro tadqiqotlarni targʻib qilmoqda va u 30-yillik faollikni nishonlagan. Fransuz olimi L. Kerenning “Amir Temur saltanati” asarida Sohibqironning hayoti, uning siyosiy faoliyati hamda Yevropa qirollari bilan oʻrnatgan diplomatik munosabatlari batafsil yoritilgan.

Xalqaro maydondagi alohida nomlari qatorida Frederik Bressan, Ali Usmon Qoratoy, Akbar Rafeyi, Abdullo Beig, Helmut Dalov kabi tadqiqotchilar tilga loyiqdir. Shu bilan birga, Timurning hayoti va merosiga bagʻishlangan soʻnggi monografiyalar va tahliliy asarlar ham eʼtiborga sazovor: masalan, Rossiya olimlarining Temurga bagʻishlangan yirik tadqiqotlari va monografiyalari soʻngi yillarda xalqaro tadqiqot maydonida muhokama qilinmoqda.

Umuman olganda, zamonaviy temurshunoslik tarixiy-manba tadqiqi, diplomatik tarix, sanʼatshunoslik, harbiy tadqiqotlar va sotsiokultural tadqiqotlarorqali yangi dalillarni va talqinlarni kashf etmoqda va global ilmiy hamjamiyatda Amir Temurning tarixiy oʻrni qayta baholanmoqda.

XIV–XV asrlarda yaratilgan Sharfiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarlari Sohibqironning hayoti, harbiy yurishlari va davlat qurilishidagi siyosiy faoliyatini batafsil yoritadi. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning “Samarkandga, Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi” (1403–1406) asari esa Amir Temurning diplomatik faoliyatini Yevropa nigohi orqali tasvirlaydi.

Shuningdek, Abdulloh ibn Lutfulloh al-Xavofiy Hofiz Abru, Fasix Ahmad al-Xavofiy, Kamoliddin Abdurazzoq as-Samarqandiy, Shahobiddin Muhammad Munshiy, Muhammad ibn Amir Fazlulloh al-Musaviy, Mujiniddin Natanzʼiy, Ahmad ibn Xavandshoh al-Husayniy, Mirzo Ulugʻbek, Ahmad ibn Muhammad ibn Arabshoh, Mirxond kabi oʻrta asr muarrixlarining asarlarida Amir Temur davlati tarixiga oid qimmatli maʼlumotlar keltiriladi.

Arabshunos olim U. Uvatovning “Sohibqiron arab muarrixlari nigohida” nomli tadqiqotida esa Ibn Xaldun, Badriddin al-Ayniy, Ibn Iyos, al-Maqrizi, Ibn al-Furot, Ali ibn Dovud as-

Sayrofiy kabi muarrixlarning asarlari asosida Amir Temur siymosining arab manbalarida aks etishi tahlil qilingan.

XX asr sobiq sovet davrida mafkuraviy cheklovlarga qaramay, temurshunoslik fani shakllandi. G. Pugachenkova, I. Mo‘minov, R. Muqminova, B. Lunin, E. Rtveldze, P. Zohidov, L. Rempel, A. O‘rinboev, B. Ahmadov, D. Yusupova, O. Boriev, A. Saidov kabi olimlar tadqiqotlarida Sohibqiron saltanati tarixi o‘rganildi. Mustaqillik davrida esa bu yo‘nalish mafkuraviy to‘siqlardan xoli holda yangi bosqichga ko‘tarildi.

Zamonaviy tadqiqotchilar Sh. Uljaeva, F. Siddiqova, G. Ibragimova, R. Zulfiqorov, Sh. Ahadov, T. Egamov, B. Boltaev, D. Jiyanova, Z. Zoyirov, G. Sarmanova, M. Abdurahimov, F. Hasanov, O. Boriev kabi olimlar o‘z asarlarida Amir Temur davlatchiligi, iqtisodiy siyosati, harbiy iste‘dodi va xalqaro aloqalari masalalarini chuqur tahlil qilganlar. Temurshunoslik bugungi kunda keng qamrovli, interdiscipliner ilmiy yo‘nalishga aylangan. Bu boradagi xalqaro tadqiqotlar Sohibqiron Amir Temurning insoniyat sivilizatsiyasi tarixidagi ulkan o‘rni, uning siyosiy va madaniy merosini chuqur o‘rganishga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi tomonidan tayyorlangan “Amir Temur. Bibliografiya. Birinchi kitob” nomli manbada 5 mingdan ortiq nashr qayd etilgani temurshunoslik fanining keng ko‘lamini yaqqol namoyon etadi. Mazkur manbalar Sohibqiron shaxsining ilmiy, madaniy va ma‘rifiy ahamiyatini chuqur o‘rganishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Amir Temur shaxsiyati va faoliyati nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon tarixiy tafakkurida ham beqiyos o‘rin egallaydi. Sohibqironning davlat boshqaruvi, harbiy strategiyasi va madaniy siyosati bugungi kunda ham siyosatshunoslik, tarixshunoslik, falsafa, madaniyatshunoslik kabi fanlar kesishgan nuqtasida o‘rganilmoqda. Jahonning turli mamlakatlarida, xususan, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh, Turkiya, Rossiya, Fransiya, Eron, Pokiston va Ozarbayjon ilmiy muhitlarida olib borilayotgan tadqiqotlar Amir Temur merosining universalligini va uning global tarixiy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Zamonaviy temurshunoslik fani tarixiy manbalarni qayta talqin etish, yangi arxiv hujjatlarini ilmiy muomalaga kiritish, shuningdek, Amir Temur shaxsiyatini Sharq va G‘arb tarixiy tafakkuri doirasida qiyosiy o‘rganish orqali yangi ilmiy yondashuvlar shakllantirmoqda. Xususan, Cambridge, Humboldt, Indiana, Istanbul, Gazi, Moskva va boshqa yetakchi universitetlarda olib borilayotgan tadqiqotlar Sohibqironning siyosiy va diplomatik faoliyatini global tarix kontekstida tahlil etishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, mustaqillik yillarida o‘zbek temurshunosligi yangi bosqichga ko‘tarildi. Mahalliy olimlarning asarlarida Amir Temur davlatining ijtimoiy-siyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy hayoti ilmiy asosda tahlil qilinmoqda. “Amir Temur jahon tarixida” kabi nufuzli nashrlar, shuningdek, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi tomonidan yaratilgan bibliografik ko‘rsatkichlar Sohibqiron merosini tizimli o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur shaxsiyati va faoliyatiga oid tadqiqotlar bugungi kunda transmilliy ilmiy aloqalarni mustahkamlash, tarixiy merosni global miqyosda talqin etish va zamonaviy davlat qurilishi tamoyillarini tarixiy ildizlar bilan bog‘lash jarayonida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois temurshunoslik fani nafaqat o‘tmish ilmiy merosini saqlash, balki milliy va jahon tarixshunosligi o‘rtasida intellektual muloqotni rivojlantiruvchi strategik yo‘nalish sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yazdiy Sh.A. Zafarnoma. – Tehron, 1970.
2. Keren L. Amir Temur saltanati. – Paris, 1992.
3. Uvatov U. Sohibqiron arab muarrixlari nigohida. – Toshkent, 2017.
4. Pugachenkova G.A., Mo‘minov I.M., Rtveladze E.V. Temuriylar davri tarixi. – Toshkent, 1989.
5. Uljaeva Sh. Amir Temur va temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. – Toshkent, 2007.
6. O‘zbekiston FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi. Amir Temur. Bibliografiya. Birinchi kitob. – Toshkent, 2001.
7. Nation, I. S. P. 2001. *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Schmitt, N. 2000. *Vocabulary in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press.

Samarqand davlat chet tillar instituti
Saloxiddinov Manuchehr Sharofiddinovich
PhD, katta o‘qituvchi

TELICITY AND ITS RELATION TO ACHIEVEMENTS

Keywords: *temporal unit, dynamic aspect, transformation, aspectual semantics, frame*

Every language has a series of synonymous groups that form complete units, among which temporal units can be included. In many languages, temporal units express the beginning, duration, course, repetition, and time of events and actions, as well as their completion. Auxiliary verbs play an important role in the formation of the synonymous group of these units. The perfective meaning of temporal units does not stem from their modification with verbs, but rather from appealing to the polysemy of perfectiveness in cognitive processes, and they play an important role in the categorization and conceptualization of their various meanings. In verb lexicon, the dynamic aspect occurs in time and space, forming the core of the proposition by linking the subject and object to time through their function as predicates in a sentence. A proposition is a means of demonstrating knowledge. This knowledge is inextricably linked with time and space, and expresses a relationship to events.

One of the distinctions within the internal structure of verbs belonging to the dynamic class is their division into types such as processes (events) and achievements (the result of an action or event). The difference between them is related to temporal concepts: "achievement" is used to denote a transition from one state to another over a short period, while "process" refers to the development and gradual change of a state.

Verbs belonging to the "process" (events) group include "to run," "to play," "to work," while "achievement" verbs include "to jump," "to fall," and so on. Verbs belonging to the "events" group, in turn, form atelic predicates. As mentioned, the aktionsart of a verb (predicate) is determined based on its combination with an object and the use of linguistic tools in the context. Specifically, atelicity is explained by the expression of the continuous nature of an action or process. For example: "Henry, Sophia and Professor Phindikles rode donkeys up to the Lion Yate." (Ch. Friezer, 403); "'Why do not you ride with the transport?' I asked" (Ch. Friezer, 54).

Telicity, on the other hand, is associated with the completion of a dynamic action within a short period, a transition from one state to another, and expresses the aspectual phenomenon of "achievements." For example: "The hens had abandoned the little chicken house and roosted in trees and dropped their eggs wherever the mood struck them" (Ch. Friezer, 29). "He stepped away, keeping the pistol leveled at the man, who hopped up to his feet, his eyes never leaving the barrel ends" (Ch. Friezer, 115).

Telic predicates, while signifying the transformation of an action or situation and a change of state, simultaneously bring about the concept of completion. Verbs hold the most important place in the expressive content of any language. The lexical-semantic meanings of verbs are richer and more flexible compared to other parts of speech. In the same situation, the lexical meaning of a component with a single form can change under the influence of context. In many cases, verb units can combine with other categories to form unique meanings. These meanings can manifest differently in various languages and different combinations. The resulting meanings appear in situations related to the content of actions, states, and other characteristics of the components in the function of syntactic units, particularly with the subject.

Units in context also serve to enrich the aspectual semantics of telic predicates. They do not express a stable situation, but rather a transition from one state to another, signifying completion. The meaning of completion can vary depending on the speech situation and the use of different temporal units. For example: "She went to the other room and finally came into mine" (Hem, 132); "She went in and using her hands to funnel her voice, called the "stop work"" (E. Hem, 245). In the given examples, the verb semantics conveyed completion under the influence of temporal units. The repetition (iterativity) of certain completed actions occurred.

In the formation of the meaning of telicity that arises in minor situations, the lexical-semantic characteristics of the temporal means and the aktionsart semantics belonging to the verb are more important. For example: "Sophia moved up last, slowly, for her long woolen dress was having its woven threads pulled by briars" (Stone, 130). "The carter waved his hand and called Boboqul again." (L. Mahmudov, "Jasur bolalar," Tashkent, 1973, *Yosh gvardiya nashriyoti*, p. 31).

The ways in which the aspectual concept of telicity is expressed in the semantic structure are as follows: the subject's action and that action reaching the object, the change in the subject's state, the subject's action breaking the object. Within the predicate, the aspectual phenomenon of telicity is formed with the help of temporal units expressing the subject and its activity, and the quantity of the subject's action.

Semantically, the concept of telicity is divided into two types: completion and resultativity. The structural composition of these concepts also arises in the expression of complex and simple situations and in the activation of various temporal units. For example: "With the commencement of the rain the lightning gradually ceased" (Cronin, 56). "Throughout the interview she kept her temper perfectly, laughing and jesting in a slightly patronizing way at her husband, whereas Mor by the end of it was reduced to almost speechless anger" (Murdoch: 104). "All the walk was delightful and though it ended too soon its conclusion was delightful too" (Austen, 403). In the first of the given examples, the phase verb indicated the completion of a situation, while the gradual temporal means signified the path to its completion. The phase verb in the second example, however, expressed the result.

Although telicity, expressed by the perfect form in English, is dependent on grammatical form, the dynamic nature of the verb also plays its part. Only dynamic verbs convey a telic meaning in the perfect form. Therefore, situations, events, or processes in the present indefinite

tense can be interpreted as a mandatory application for alternative analysis. Such processes lead to the emergence of a completed and, in some cases, resultative telic aspectual situation.

In Uzbek, telic structures and grammatical indicators include the suffixes -gan, -gan edi, verb and complex verb constructions like bo'lmoq (to be/become), tugatmoq (to finish), nihoyasiga yetkazmoq (to bring to an end), as well as the limited characteristic of auxiliary verbs chiqmoq (to emerge/go out), qolmoq (to remain), olmoq (to take), yetmoq (to reach), tushmoq (to fall/understand) when combined with main verbs. It is worth noting that the expression of telicity through these means in Uzbek has semantic distinctions depending on the situation, such as purposeful, resultative, product of a certain action, accidental, or controlled.

Thus, concepts that determine the quantitative determination of an action or state manifest in two situations. The first demonstrates telicity with a certain limited meaning, while the second arises as a result of the subject's specific actions. This concept mainly refers to telicity that occurs as a result of the repeated occurrence of temporal situations. This telicity arises in simple, complex sentences and under the influence of text, and is formed in connection with syntactic, semantic, and thematic frames. The aspectual features of telicity, in turn, manifest in temporal units that clarify these situations.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bo'ronov J. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1973. – 284 b.
2. Mirsanov G'.Q. Ingliz va o'zbek tillarida yurish-harakat fe'llarining aksional va aspektual xususiyatlari. Filol.fan.n....diss. avtoref. –T.:, 2009. –21 b.
3. Плу́нган В. А. Введение в грамматическую семантику: грамматические значения и грамматические системы языков мира. М.: РГГУ, 2011. –672 с
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2008. – 286 b.
5. Langacker R.W. The English present tense //English Language and Linguistics, 2001.5 (2): –P. 251–272
6. Jude Deveraux. The awakening. –USA: Pocket books, 2007. –231 p.

Soxiba Rasulova
SmDCHTI “Ingliz tili”
kafedrası dotsenti v.b., PhD.

SATIRA VA YUMOR – KULGI ORTIDAGI HAQIQATNING BADIY IFODASI

Annotatsiya: Mazkur maqola satira va yumorning badiiy hamda ijtimoiy mohiyatini, ularning jahon filologiyasi tarixidagi shakllanish jarayoni va romantizm davridagi estetik o'rini tahlil etishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: satira, yumor, kulgi, romantizm, badiiy tafakkur, ijtimoiy tanqid, estetik vazifa, adabiyot, insonparvarlik.

Satira va yumor qadimgi Rim she'riyatidan boshlab adabiyotda mustahkam o'rin egallab, tarixiy taraqqiyot jarayonida shaklan ham, mazmunan ham o'zgarib borgan. U dastlab mustaqil ifoda vositasi sifatida, keyinchalik esa masal, epigrama, burlesk, pamflet, felyeton, komediya kabi janrlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lgan.

Tilshunoslikda satira va yumorning yaratilish yo‘llari, nazariy asoslarini tahlil etishda ularning ifoda vositalari, til bilan bog‘liqligi hamda satirik obrazlarni badiiy usullar orqali ifodalashdagi vazifalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada A. Makarin, A. Abdug‘afurov, H. A. Abdusamatov, S. Ahmad kabi olimlarning nazariy qarashlari, shuningdek, N. V. Gogolning “*O‘lik jonlar*”, A. Kornéychukning “*Front*”, A. Qahhorning “*Tobutdan tovush*”, N. Aminovning “*Yolg‘onchi farishtalar*” kabi asarlari muhim manba sifatida e‘tirof etiladi.

Yevropa adabiyotida satira va yumor. Uyg‘onish davrida satira va yumor janrlarining jonlanishi kuzatildi. Boccaccio (“*Dekameron*”), Cervantes (“*Don Kixot*”), Shakespeare komediyalari o‘sha davr ijtimoiy illatlarini ochib tashlashda kuchli badiiy vosita bo‘ldi. XVII–XVIII asrlarda esa Diderot, Volter, Monteske, Swift kabi ma‘rifatparvarlar satiraning mumtoz namunalarini yaratdilar. Rus adabiyotida N. G. Chernyshevskiy, Gogol, Saltikov-Shedrin, Propp, Baxtinlarning asarlari satira mohiyatini chuqur tahlil qilgan. G‘arbda esa Swift, Butler, Pope, Fielding, Hogarth; Fransiyada La Fonten, Molière, Volter; Amerikada esa Washington Irving, James Russell Lowell, Oliver Wendell Holmes va Mark Twain satira janrini yuqori bosqichga olib chiqishgan.

Sharq adabiyotida satira va yumor. Sharq xalqlarida satira qadimdan mavjud bo‘lib, u xalq og‘zaki ijodi bilan uzviy bog‘liq. Nasriddin Afandi, Aldarko‘sa, “Ming bir kecha” rivoyatlari, fors-tojik ruboiylari – xalq satirasining yorqin namunalari. O‘zbek adabiyotida esa hajviy ruh Navoiyning “Xamsa”sidagi kinoyaviy lavhalardan boshlab, Muqimiy, Zavqiy, Hamza, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, G‘afur G‘ulom ijodigacha uzluksiz rivoj topgan. XX asrda “Mushtum” jurnali, “Jangovar qalam” va “O‘zTAG oynasi” kabi nashrlar o‘zbek satirasining taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi.

Satira va yumorning mohiyati. Satira va yumor adabiy turga mansub bo‘lib, ular epik, lirik yoki dramatik shakllarda yaratilishi mumkin. Ularning farqi kulgining tabiati bilan belgilanadi:

Satira – o‘tkir, achchiq, kinoyali kulgi orqali jamiyatdagi illatlarni fosh etish vositasi;

Yumor esa – yengil, quvnoq, ammo tanqidiy ruhni saqlagan kulgi shaklidir.

L. N. Tolstoy kulgining 96 turini sanab o‘tganini inobatga olsak, satira va yumor kulgining ikki qutbini tashkil etadi: biri achchiq, biri yumshoq.

Satiraning ta‘riflari:

“Satira” so‘zi lotincha *satura lanx* – “aralashma”, “har xil narsalarning majmuasi” degan ma‘noni bildiradi. Turli manbalarda u:

“Hayotdagi yaramas hodisalarni masxaralaydigan o‘tkir hajviy asar” (O‘zbek adabiyoti);

“Ijtimoiy illatlarni tanqid va inkor etuvchi badiiy usul” (G‘arb manbalari);

“San’atda komillikni masxarali kulgi orqali ifodalovchi estetik yo‘sinda” deb talqin etiladi.

Satira kuchi ijodkorning **ijtimoiy pozitsiyasi** va **badiiy metodlar** – kinoya, mubolag‘a, parodiya, grotesk, allegoriyadan foydalanish mahoratiga bog‘liqdir.

Romantizm davrida satira va yumor. Romantizm davrida satira alohida badiiy kuchga ega bo‘ldi. Romantiklar satirani idealga erishish vositasi, jamiyatdagi riyo va qo‘rqoqlikni fosh etish quroli sifatida ko‘rdilar. Vashington Irving kabi romantik yozuvchilar yumor va satirani uyg‘unlashtirib, insoniyatdagi ziddiyatlarni achchiq kulgi bilan tasvirladilar. Romantik satira inson ruhiyatining ichki ziddiyatlarini ochib, insonparvarlik, haqiqat va axloqiy tozalik g‘oyalarini targ‘ib etdi.

Satiraning estetik va ijtimoiy vazifasi. Satiraning vazifasi – jamiyatdagi illatlarni ochib tashlash, ularni kulgi vositasi orqali tuzatish, insonni axloqiy jihatdan poklashdir. A. Qahhorning “*Ayajonlarim*”, Hamzaning “*Maysaraning ishi*”, Muqimiyning “*Pashshalar*”, Zavqiyning “*Hajvi ahli rasta*” kabi asarlari bu jarayonning o‘zbek adabiyotidagi namunalari.

Satirik asar inkor etish orqali tasdiqlashga asoslanadi (M. Qo‘shjonov). Ya’ni, yozuvchi jamiyatdagi salbiy hodisalarni inkor etish orqali yuksak insoniy qadriyatlarni tasdiqlaydi.

Xulosa. Satira va yumor – badiiy tafakkurning ikki muhim shakli bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Satira jamiyatdagi tubanlikni inkor etadi, yumor esa insoniylikni asrashga undaydi. Ularning har ikkisi ham kulgining turli ohanglari orqali inson ruhiyatiga ta’sir etadi, o‘quvchini o‘ylantiradi, tozalaydi, ruhlantiradi.

Romantik adabiyotda satira – go‘zallikka intilish yo‘lida insoniyatni poklash, yumor esa hayotdagi muvozanat va mehri saqlash vositasiga aylangan. Shu bois, satira va yumor romantizmning estetik tizimida nafaqat kulgi, balki ruhiy uyg‘onish va ma’naviy yuksalishning qudratli qurolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қўшжонов М. А.Қаҳҳор ижодида сатира ва юмор. – Тошкент: Фан, 1973. – 150 б.
2. Боброва М.Н. Романтизм в американской литературе XIX века; Изд-во: – Москва: Высшая школа, 1972. – 285 с.
3. Egamberdiyeva X. Satira mazmuni badiiy matnda voqealanishi // Magistrlik dissertatsiyasi.– Samarqand, 2017. –27 b.

Rashidova Feruza Rasulovna
Namangan davlat universiteti dotsenti
E-mail: feruza.rashidova.uz@gmail.com
Tel: (90) 552 02 58

ПСИХОЛОГИК ПОРТРЕТНИНГ БАДИЙ АДАБИЙОТДА ТАДҚИҚИ

Аннотатсия: Ushbu maqolada adabiyotda psixologik portret tushunchasi va uning qahramon shaxsiyatini ochishdagi o‘rni tahlil qilinadi. XIX asrdan boshlab yozuvchilarning inson ruhiyatiga bo‘lgan qiziqishi ortib, psixologik tasvir usullari keng qo‘llanila boshlandi. Bronte opa-singillar, Jorj Eliot, Lev Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiy kabi ijodkorlar asarlarida qahramonlarning ichki dunyosi, ichki monologlari va ruhiy kechinmalari alohida e’tibor markazida bo‘ldi. Maqolada psixologik portretning shakllanish jarayoni, uning nazariy asoslari hamda adabiyotdagi estetik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: psixologik portret, ruhiy tasvir, ichki monolog, qahramon psixologiyasi, adabiy tahlil.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОРТРЕТ И ЕГО ИССЛЕДОВАНИЕ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация: В статье рассматривается понятие психологического портрета в литературе и его роль в раскрытии личности персонажа. Начиная с XIX века, интерес писателей к внутреннему миру человека усилился, и методы психологического изображения стали широко использоваться. В произведениях сестёр Бронте, Дж. Элиот, Л. Толстого, Ф. Достоевского центральное место занимают внутренние монологи, эмоциональные переживания и духовные поиски героев. В работе освещены процесс формирования психологического портрета, его теоретические основы и эстетическое значение в литературе.

Ключевые слова: психологический портрет, внутренний мир, внутренний монолог, психология героя, литературный анализ.

ANALYSIS OF THE PSYCHOLOGICAL PORTRAIT IN LITERATURE

Abstract: This article explores the concept of the psychological portrait in literature and its role in revealing the personality of fictional characters. Since the 19th century, writers have shown growing interest in the human psyche, leading to the extensive use of psychological depiction techniques. The works of the Bronte sisters, George Eliot, Leo Tolstoy, and Fyodor Dostoevsky highlight inner monologues, emotional experiences, and the spiritual struggles of characters. The paper discusses the development of the psychological portrait, its theoretical foundations, and its aesthetic significance in literature.

Keywords: psychological portrait, inner world, inner monologue, character psychology, literary analysis.

Adabiyot inson shaxsiyatini, uning ruhiy dunyosini ochishda beqiyos ahamiyatga ega. Shaxsning tashqi faoliyati bilan bir qatorda ichki dunyosini, hissiyotlari va kechinmalarini yoritishda psixologik portret muhim badiiy vosita hisoblanadi. Psixologik portret yordamida yozuvchi qahramonning tashqi ko‘rinishini tasvirlash bilangina cheklanmay, balki uning ichki olamiga chuqur kirib boradi, o‘quvchiga uning his-tuyg‘ularini, ruhiy iztiroblarini, qarashlari va orzularini yaqqol ko‘rsatishga xizmat qiladi.

XIX asrdan boshlab adabiy jarayonlarda inson ruhiyati tasviri yanada kuchayib boradi. Realizm adabiyoti vakillari — Lev Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiy, Onore de Balzak, Bronte opa-singillar, Jorj Eliot kabi yozuvchilar qahramon ruhiyatini keng tasvirlash orqali badiiy asarni yangi bosqichga olib chiqdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Keyinchalik esa, XX asrda esa modernizm oqimi vakillari (Jeyms Joys, Marsel Prust, Frans Kafka) psixologik tasvirni ichki monolog, ong oqimi kabi yangi usullar orqali yanada chuqurlashtirdilar.

Psixologik portret bugungi kunda ham adabiyotshunoslik tadqiqotlarining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘libgina qolmay, balki badiiy adabiyotda inson ruhiyati tasvir vositalaridan muhim elementi hisoblanadi. U nafaqat badiiy obrazning real va ishonarli ko‘rinishini ta‘minlaydi, balki o‘quvchini inson ruhiyatining murakkabligi bilan tanishtirib, adabiyotning estetik va ma‘naviy qimmatini yuksaltiradi. Shu bois, psixologik portret tahlili adabiyotdagi shaxs va jamiyat munosabatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Adabiyotdagi psixologik portret masalasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, u asarning badiiy qiymatini oshiruvchi asosiy vositalardan biridir. Qahramon ruhiyatining ochilishi voqealarning ichki mantiqini, personajlarning qarorlari va xatti-harakatlarining sabablarini anglash imkonini beradi. Bu jihat adabiyotning insonshunoslikdagi rolini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, psixologik portret turli davr yozuvchilarida turlicha shakllangan. Realizm vakillari qahramonlarning ruhiy dunyosini ijtimoiy muhit bilan uyg‘un holda tasvirlasalar, modernizm vakillari ong oqimi va ichki monolog orqali inson tafakkurining yashirin qatlamlarini yoritishga intilgan. Shu sababli psixologik portret nafaqat badiiy usul, balki adabiyotning estetik-falsafiy yo‘nalishini belgilovchi omil sifatida ham ahamiyatga ega.

Bronte opa-singillar, Jorj Eliot, Fyodor Dostoyevskiy va Lev Tolstoy ijodida psixologik portret qahramonlarning hayotiylik darajasini oshirgan bo‘lsa, Jeyms Joys va Marsel Prust ijodida u inson ongining murakkab va noaniq tabiatini ifodalash imkonini berdi.

Fikrimizcha, psixologik portret adabiyotda qahramonni “jonlantiruvchi” asosiy vosita bo‘lib, u o‘quvchini nafaqat voqealar bilan, balki inson ruhiy olamining murakkabligi bilan ham

yuzlashtiradi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda psixologik portretni tadqiq etish inson tabiatini chuqurroq anglash, adabiy asarning estetik qimmatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Adabiyotda psixologik portret qahramonning tashqi tasviri orqali emas, balki uning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini ochib berishga qaratilgan badiiy usul sifatida qaraladi. Psixologik portretga adabiyotshunoslar turlicha ta'rif berib izohlashadi. Jumladan, rus adabiyotshunosi M. Baxtin ta'kidlaganidek, "inson shaxsi faqat voqealar oqimida emas, balki ichki monolog, suhbat va qarama-qarshiliklarda o'zini namoyon etadi".[2] Bu fikr psixologik portretni qahramon ruhiyatini ochishning asosiy kaliti sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shuningdek, XIX asr realizmi vakillari psixologik tasvir vositalarini keng qo'llashdi. Masalan, F. Dostoyevskiy qahramonlarining ichki monologlarini tasvirlash orqali inson qalbidagi ezgulik va yovuzlik kurashini yoritgan bo'lsa, Lev Tolstoy esa Anna Kareninaning ruhiy iztiroblarini tashqi tasvirlar, ichki kechinmalar va ijtimoiy muhit ziddiyatlari orqali ochib beradi. G'arb adabiyotiga kelsak, Bronte opa-singillar va Jorj Eliot asarlarida ham psixologik portret alohida o'rin egallaydi. Tadqiqotchi C. Aleksander ta'kidlaganidek, "Bronte romanlarida ruhiy portret voqealardan ko'ra ko'proq dramatik kuchga ega".[1]

Adabiyotshunos S. Gilbert va S. Gubar "psixologik portret ayol yozuvchilarning ijodida nafaqat individual shaxsiyatni, balki jamiyatdagi ayolning ijtimoiy o'rnini ham ochib beradi" deya ta'kidlaydi.[4] T. Iglton esa Bronte ijodini tahlil qilar ekan, psixologik portret orqali "insonning ong osti, ijtimoiy cheklovlar va shaxsiy ehtiroslar o'rtasidagi dramatik to'qnashuv"ni ko'rsatishini qayd etadi.[3]

Bizningcha, psixologik portret badiiy asarda qahramonning tashqi voqealardan mustaqil, ichki hayotga ega bo'lgan jonli shaxs sifatida shakllanishiga imkon beradi. Qahramon ruhiyatini tasvirlash orqali yozuvchi o'quvchini o'zining ichki dunyosi bilan yuzlashtiradi. Shu bois, psixologik portretni faqat tasviriy vosita emas, balki inson ruhiyatini anglash maktabi sifatida ham baholash mumkin. Bugungi kunda ham adabiy jarayonlarda psixologik portret o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha, zamonaviy asarlarda yanada murakkab shakllarda namoyon bo'lmoqda.

Keying asr, XX asr modernizm davrida psixologik portret yanada yangi shakllar kasb etdi. Jeyms Joys va Marsel Prust kabi yozuvchilar asarlarida "ong oqimi" usulini qo'llab, qahramonlarning ongida kechayotgan jarayonlarni to'g'ridan-to'g'ri ifodalashga intildilar. Shu bois, psixologik portret adabiy jarayonda inson ruhiyatini yoritishning eng ta'sirchan vositalaridan biriga aylandi.

Shunday qilib, psixologik portret adabiyotda qahramon obrazini to'laqonli ochishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. XIX–XX asrlarda bu uslubning badiiy adabiyotda shakllanishi va rivojlanishi inson ruhiy olamiga bo'lgan qiziqishning kuchayishi bilan bevosita bog'liqdir. Bronte opa-singillar, J.Eliot, F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy, J.Joys va M.Proust kabi yozuvchilar ijodida psixologik portret qahramonlarning ichki kechinmalari, ichki ziddiyatlari va ong jarayonlarini yoritishda asosiy badiiy vosita sifatida namoyon bo'lganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, psixologik portret bir vaqtning o'zida ham estetik, ham falsafiy, ham axloqiy vazifani bajaradi. U asarning badiiy qiymatini oshirish bilan birga, inson ruhiyatining murakkab tomonlarini ochib beradi. Zamonaviy adabiyotshunoslik uchun psixologik portretni o'rganish dolzarb bo'lib, u nafaqat tarixiy jarayonlarni, balki bugungi adabiy yo'nalishlar va yozuvchilik tajribalarini ham chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, psixologik portret adabiyotdagi insonni “tirik” qilish, uni ruhiy jihatdan o‘quvchiga yaqinlashtirishning eng samarali usullaridan biridir. Shu bois, mazkur mavzu kelgusida ham adabiyotshunoslikning dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Александр, С. Бронте и традиция английского романа. — Москва: Наука, 2000. — 254 с.
2. Бахтин, М. М. Проблемы поэтики Достоевского. — Москва: Современник, 1972. — 502 с.
3. Eagleton, T. Literary Theory: An Introduction. — Oxford: Blackwell, 1996. — 240 p.
4. Gilbert, S. M., Gubar, S. The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination. — New Haven: Yale University Press, 2000.

Kodirova Dilnoza Mamadiyarovna
Samaraqand davlat chet tillar instituti
mustaqil izlanuvchisi.
Email: fraudilka@mail.ru
Tel: 998970198206

MAQOLLARNI O‘RGANISHDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodining qadimiy va dolzarb janrlaridan biri bo‘lgan maqollarni o‘rganishning zamonaviy lingvistik, madaniy va kognitiv yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqollar xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar va tafakkur tarzi aks etgan qisqa va lo‘nda nutqiy birlik sifatida milliy tafakkur ko‘zgusi hisoblanadi. Bugungi kunda maqollarni faqat folklor yoki adabiy meros sifatida emas, balki lingvokulturologiya, pragmatika, kognitiv tilshunoslik hamda ta‘lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari bilan ham o‘rganish dolzarbdir. Maqolada maqollarni tadqiq etishdagi yangi nazariy yondashuvlar, ularning tilshunoslik va madaniyatshunoslikdagi ahamiyati hamda zamonaviy ilmiy izlanishlar yo‘nalishlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: maqol, xalq og‘zaki ijodi, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, paremiologiya, milliy tafakkur, zamonaviy yondashuvlar

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ПОСЛОВИЦ

Аннотация. В данной статье анализируются современные лингвистические, культурные и когнитивные подходы к изучению пословиц — одного из древнейших и актуальных жанров народного устного творчества. Пословицы, являясь краткими и ёмкими речевыми единицами, отражающими мировоззрение, ценности и образ мышления народа, считаются зеркалом национального сознания. В наши дни изучение пословиц актуально не только как элемента фольклора или литературного наследия, но и с точки зрения лингвокультурологии, прагматики, когнитивной лингвистики и их применения в образовательном процессе. В статье освещаются новые теоретические подходы к исследованию пословиц, их значение в лингвистике и культурологии, а также современные направления научных изысканий.

Ключевые слова: пословица, народное устное творчество, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, паремиология, национальное мышление, современные подходы.

MODERN APPROACHES TO THE STUDY OF PROVERBS

Abstract. This article analyzes modern linguistic, cultural, and cognitive approaches to the study of proverbs — one of the oldest and most relevant genres of folk oral creativity. Proverbs, as short and concise units of speech reflecting a people's worldview, values, and way of thinking, are considered a mirror of national consciousness. Today, the study of proverbs is important not only as an element of folklore or literary heritage but also from the perspectives of linguoculturology, pragmatics, cognitive linguistics, and their application in the educational process. The article highlights new theoretical approaches to the study of proverbs, their significance in linguistics and cultural studies, as well as current directions in scientific research.

Keywords: proverb, folk oral creativity, linguoculturology, cognitive linguistics, paremiology, national mentality, modern approaches.

Maqollar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biri bo‘lib, xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi va ijtimoiy qadriyatlarini mujassamlashtiradi. Ular qisqa, lo‘nda va obrazli bo‘lishi bilan ajralib turadi. Shu bois maqollarni o‘rganish har bir millatning madaniyati, tarixiy xotirasi va milliy tafakkur tarzini chuqur anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi globallashuv davrida xalq maqollarini yangicha metodlar bilan tadqiq qilish zarurati paydo bo‘ldi. Chunki zamonaviy lingvistik yo‘nalishlar, xususan, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va pragmatika maqollarni o‘rganishda yangi ilmiy asoslarni taqdim etmoqda.

Bugungi kunga kelib maqollarni o'rganishning an'anaviy yondashuvlari haqida bir qancha bahsli munozaralar bo'lib kelmoqda. Maqollar ko'p asrlar davomida folklorshunoslik, adabiyotshunoslik va tarixiy-lisoniy izlanishlarda o'rganilgan. An'anaviy tadqiqotlarda asosan ularning badiiy xususiyatlari, shakl va mazmun uyg'unligi, xalq ijodida tutgan o'rni yoritilgan. Bunda maqol va matal, hikmatli so'z va aforizmning umumiy va farqli tomonlari ham tahlil qilingan.

Maqollarga bo'lgan yondashuvlar lingvokulturologik yondashuvlarni ham o'rni beqiyos. Zamonaviy davrda maqollar millatning madaniy kodlari, urf-odatlar va dunyoqarashini aks ettiruvchi fenomen sifatida lingvokulturologik nuqtai nazardan o'rganilmoqda. Masalan, "El bilan borgan el bo'lar" yoki "Ona yurtning – oltin beshiging" kabi maqollar xalqning birlik, vatanparvarlik va bag'rikenglik qadriyatlarini ifodalaydi. Bu yondashuvda maqollar milliy mentalitetni ifodalovchi timsollar sifatida tahlil qilinadi. Bundan tashqari maqollarni o'rganilishid kognitiv va semantik yondashuvlar ham kognitiv tilshunoslik maqollarni inson tafakkurining mahsuli sifatida ko'rib, ularning metaforik tuzilishi, konseptual asoslari va dunyoqarashni aks ettirish xususiyatlarini o'rganadi. Masalan, "Ilm – chiroq, jaholat – zulmat" maqoli qarama-qarshi konseptlar asosida qurilgan bo'lib, bilimni nurga, jaholatni zulmatga tenglashtiruvchi metaforik modellar orqali inson tafakkurida shakllanadi. Maqolshunoslikning yana bir yondashuvi pragmatik yondashuv ham ahamiyatlidir. Pragmatik tahlilda maqollarning nutqiy vazifalari, muloqot jarayonidagi o'rni va ta'sirchanlik kuchi o'rganiladi. Maqollar ko'pincha muloqotda ishonch uyg'otish, dalilni kuchaytirish yoki ma'no ixchamligini ta'minlash uchun qo'llanadi. Masalan, o'qituvchi yoki notiq nutqida maqollardan foydalanishi tinglovchiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Maqollarni o'rganishda zamonaviy texnologiyalar. Bugungi kunda maqollarni korpus lingvistikasi asosida elektron bazalarga joylashtirish, ularni qiyosiy tahlil qilish va tarjima jarayonida qo'llash imkoniyatlari kengaymoqda. Xalqaro paremiologik tadqiqotlar ham turli xalqlar maqollarining o'xshash va farqli jihatlarini ilmiy asosda ko'rsatishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qolib aytadigan bo'lsak maqollar xalqning ma'naviy boyligi, madaniy merosi va milliy tafakkurining yuksak ifodasidir. Ularni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, psixologiya va ta'lim jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy lingvokulturologik, kognitiv, pragmatik va texnologik yondashuvlar maqollarni chuqurroq anglash va ularni bugungi globalashuv davrida milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda samarali qo'llash imkonini bermiqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov A. *O'zbek maqollari va ularning lingvistik xususiyatlari*. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Permyakov G. L. *Osnovy struktural'noy paremiologii*. – Moskva: Nauka, 1988.
3. Xolmonova M. *Folklor va xalq og'zaki ijodi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
4. Dundes A. *International Folkloristics*. – New York: Rowman & Littlefield, 1999.
5. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 2003.
6. Rahmonov H. *Til va madaniyat: lingvokulturologiya asoslari*. – Toshkent: TDSH, 2020.

Holikulova Gulchexra Yorqulovna
SamDCHTI o'qituvchisi
Nasriyeva Sadokat Farxodovna
SamDCHTI 2-bosqich talabasi

QIPCHOQ LAHJASINING O‘ZIGA XOS LEKSIK XUSUSIYATLARI **(Payariq tumani Vali qishlog‘i misolida)**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand viloyatining Payariq tumani Valijon qishlog‘ida yashovchi aholining nutqida uchraydigan sheva birliklarining leksik xususiyat tahlil qilingan. Maqolada tuman aholisi so‘z boyligining o‘ziga xosligi, umumxalq adabiy tilidan farqlanuvchi dialektal birliklar misollar orqali yoritilgan. Bundan maqsad o‘zbek tili dialektologiyasini boyitish va xalq tilining tarixiy qatlamlarini o‘rganishdir.

Kalit so‘zlar: dialekt, sheva, leksik xususiyat, xalq tili, o‘zbek tili, dialektologiya.

Dialektologiya so‘zi grek tilidan olingan bo‘lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to‘g‘risidagi bilim degan ma‘noni bildiradi. Milliy tilning asosini shevalar tashkil qiladi. O‘zbek tili lahjalari, xususan, qipchoq lahjasi masalasi ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, A.Shermatov, T.Nafasov, A.Jo‘rayev, A.Mamatqulov, A.Nosirov, Muhammadjonov, S.Rahimov va boshqalar o‘z tadqiqotlarida qipchoq lahjasining fonetik va leksik xususiyatlariga to‘xtalib o‘tganlar. O‘zbek tili rivojlanish jarayonida turli hududlarda o‘ziga xos shevalarga ega bo‘lgan. Har bir hududning hayot tarzi va urf-odatlarini natijasida shakllangan shevalarning lug‘aviy tarkibiga bevosita o‘z ta‘sirini ko‘rishimiz mumkin. Payariq tumanida ham shunday holatni kuzatish natijasida ularning tilida o‘ziga xos leksik va fonetik xususiyatlar ko‘zga tashlanib turadi. Tadqiqot davomida shevalarning leksik jihatlari tahlil qilinib, umumxalq tili me‘yorlari bilan solishtirildi va ularning o‘zbek tili dialektologiyasidagi o‘rni yoritildi.

Payariq tumani Vali qishlog‘i shevasidagi leksik so‘zlar va ularning transkripsiyasi:

Meva nomlari:

Olxo‘ri- qoroli- [qārāli]

Olcha- qizilsultan-[qizilsültān]

Qulupnay- jirtut-[žirtut]

Uzum-juzum[žüzüm]

Poliz va sabzavot so‘zlari:

Sabzi-so‘viz-[söviz]

Tarvuz-tarbiz-[tārbiz]

Qovoq- ashkadi-[āškadi]

Uy-ro‘zg‘or buyumlari:

Supurgi- shibirtqi,shvirtqi-[šibirtqi, švirtqi]

Gilamcha-olacha-[ālāča]

Suv idish- cho‘mich-[čömīč]

Ombur-kampirovuz-[kampirovuz]

Katta igna-juvoldiz,bigiz-[žuvāldiz,bīgiz]

Yostiq-dostiq,lolova-[dāstiq,lālāva]

Yaktak-jegda-[žegda]

Ovqat nomlari:

Beshbarmoq-kulcha-[kulčā]

G‘ilvindi-juxma-[žuxmä]

Achchiq osh-achchash[āččāš]

Shevaga xos bo‘lgan yana bir qancha so‘zlar:

Uycha-tomcha [tāmčā]

Bolaxona-nashaxona [nāšāxonā]

Nimjon- miyming,siypalaq [mijmiŋ] [sijpālāq]

Yelka-iyn-[iĵn]
 Tovuq- makish [mäkiš]
 Qaldirg‘och -qoraqush [qārāquš]
 Tovuq oyoqchasi- tutioyoq[tütiājāq]
 Molxona- sayirxona [säjirxonä]
 Uzuk-juzuk[žuzuk]
 Dala-zagan [zägän]
 Atirgul-baggul[bäggul]
 Rayhon- nozboy[nāzbāj]
 Devor-duol[duāl]
 Yomg‘ir -hova[hāvā]
 Telefon-tlpan[tlpän]
 Og‘ir- ovur [āvür]
 Kir,iflos- molapoya[mālāpājä]
 Soch- sach, chach [säč], [čäč]
 Homilador-buvoz ,jeqqat [bävāz][žeqqät]
 Bunday qilib-biytip-[bijtip]
 Birpas oldin-boynatta-[bājnättä]
 Ha shundaymi?-ho esa-[hā esä]
 Shunday qilib-shuytip-[šütjtip]
 Oldin,ilgari-jongog‘i- [žāñāyī]
 Ana(ko‘rsatish)-heyla-[hejlä]
 Shovqinli-pishqoq [pišqāq]
 Qazimoq-yertmoq-[jertmāq]
 Bu bola-bo‘loni-[böloni]
 Loyqa suv-chovdosh-[čävdiš]
 Kulcha non-ko‘zal-[közäl]

Keltirilgan shevalar shuni ko‘rsatadiki, Payariq tumani shevasi juda boy va tarixiy ildizlarga ega. Bu shevada qadimiy turkiy so‘zlar bilan bir qatorda fors-tojik hamda arab tili unsurlari uyg‘unlashgan. Shuningdek, yoshlar orasida ayrim so‘zlar asta-sekin unutilib borayotgani kuzatildi. Bu esa sheva leksikasini yozma shaklda saqlab qolish zaruratini tug‘diradi. Dialektologik tadqiqotlar nafaqat til boyligini o‘rganish, balki xalqning madaniy merosini asrashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev Samixon. “O‘zbek dialektologiyasi”. – Toshkent, 2013.
2. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
3. Аширбоев С.Ўзбек диалектологияси. –Тошкент, Наврўз, 2016.
4. Enazarov T., Karimjonova V., Ernazarova M., Mahmadiyev Sh., Rixsiyeva K. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, Universitet, 2012.
5. www.ziyouz.com kutubxonasi
6. <https://www.tsuull.uz>

Rajabboyeva Sarvinoz Xurshid qizi

G‘ARBIY YEVROPANING NAVOIY BILAN TANISHISH TARIXI

Annotatsiya. Ushbu maqolada G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodining o‘rganilish tarixi tahlil qilinadi. Asarda XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan boshlab Yevropa sharqshunoslik markazlarida Navoiy asarlarining tarjima, nashr va tadqiq etilish jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, fransuz, ingliz, nemis va rus olimlarining Navoiyning adabiy merosi haqidagi qarashlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Yevropa sharqshunosligi, tarjima, adabiy meros, G‘arb madaniyati, Sharq-G‘arb munosabatlari.

Alisher Navoiy nafaqat turkiy xalqlar, balki jahon adabiy tafakkuri tarixida ham alohida o‘rin tutadi. Uning falsafiy, ma‘naviy va badiiy qarashlari Sharq uyg‘onish davri tafakkurining eng yuksak bosqichini ifoda etadi. Navoiy insonni ruhiy poklanish, adolat, muhabbat va komillikka chorlovchi asarlari orqali Sharq falsafiy merosining markaziy nuqtasiga aylangan. Shoirning “Xamsa”si o‘z zamonasidagi ijtimoiy, axloqiy va siyosiy g‘oyalarni umumlashtirib, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirgan yuksak badiiy yodgorlikdir.

G‘arbiy Yevropaning Navoiy bilan tanishish tarixi, asosan, Yevropa sharqshunoslik ilmiy maktablarining shakllanishi bilan uzviy bog‘liqdir. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Yevropada “Oriental Studies” (Sharqshunoslik) nomi bilan tanilgan yangi ilmiy yo‘nalish shakllandi. Bu yo‘nalish dastlab fransuz, ingliz va nemis universitetlarida Sharq tillari, adabiyoti va madaniyatini o‘rganish ehtiyojidan tug‘ilgan edi. Ana shu davrda G‘arb olimlari arab, fors va turkiy adabiyotlarning o‘zaro aloqalarini tadqiq etar ekanlar, Alisher Navoiyning nomi, asarlari va g‘oyalari ularning e‘tiborini tobora torta boshladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Fransiya, Germaniya va Buyuk Britaniyada Sharq adabiyotini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy jamiyatlar tashkil topdi. 1822-yilda Parijda “Société Asiatique”, 1845-yilda Londonda “Royal Asiatic Society”, 1849-yilda esa Germaniyada “Deutsche Morgenländische Gesellschaft” (DMG) faoliyat boshladi. Aynan shu markazlarda Sharq adabiyotining buyuk namoyandalari — Nizomiy, Sa‘diy, Jomiy, va keyinchalik Navoiy asarlari ilmiy muhokamaga kiritildi.

Fransuz sharqshunosi Silvestre de Sacy, nemis olimi Joseph von Hammer-Purgstall, keyinchalik E. Browne va A. Krymskiylarning tadqiqotlari orqali Navoiy nomi Yevropa adabiy muhitida tilga olinadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Navoiyning ayrim asarlari fors tilidagi variantlar orqali G‘arb tillariga tarjima qilina boshlandi. Masalan, E. G. Browne o‘zining “A Literary History of Persia” (London, 1906) asarida Navoiy ijodini turkiy adabiyotning eng yuksak cho‘qqisi sifatida e‘tirof etadi. Shuningdek, rus sharqshunosi V. Bartold “Turk xalqlari tarixi” (1910) asarida Navoiy asarlarining madaniy-ideologik ahamiyatini ta‘kidlaydi.

Nemis olimi Hellmut Ritter esa Istanbul kutubxonalarida Navoiy qo‘lyozmalarini o‘rganib, turkiy adabiyotdagi sufiylik g‘oyalarning izchilligini ko‘rsatadi. Keyinchalik, ingliz tadqiqotchisi Geoffrey Lewis ham turkiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan Navoiy tilini o‘rganish zarurligini qayd etgan.

G‘arb olimlari Navoiyni faqat shoir emas, balki mutafakkir, davlat arbobi va milliy o‘zlik timsoli sifatida baholaganlar. Fransuz olimi Louis Massignon Navoiy tafakkurini “tasavvufiy

insonparvarlikning oliy darajasi” deb ataydi. Germaniyalik sharqshunos Annette Beveridge esa Navoiy obrazini “Sharq uyg‘onish davrining eng yorqin adabiy shaxsi” sifatida talqin etadi.

Yevropa tadqiqotchilari Navoiy ijodini uch bosqichda o‘rganib kelganini ko‘rish mumkin:

1. Orientalistik bosqich (XIX asr) – Navoiy asarlari Sharq adabiyotining umumiy manzara-sida tilga olinadi.

2. Tilshunoslik va tarjima bosqichi (XX asr o‘rtalari) – asarlar til jihatdan tahlil qilinib, qisman G‘arb tillariga tarjima qilina boshlaydi.

3. Madaniyatlararo tadqiqot bosqichi (XXI asr) – Navoiyning gumanistik va falsafiy g‘oyalari Yevropa humanitar tafakkuriga bog‘liq holda o‘rganilmoqda.

Bugungi kunda Cambridge, Humboldt, Sorbonne, Indiana University kabi nufuzli ilmiy markazlarda Navoiy merosini tadqiq etishga bag‘ishlangan seminar va ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda.

G‘arbiy Yevropaning Navoiy bilan tanishish tarixi — bu Sharq va G‘arb madaniyatlari o‘rtasidagi ilmiy, adabiy va falsafiy aloqalarning yorqin namunasi hisoblanadi. Navoiy asarlari g‘oyaviy chuqurligi, estetik mukammalligi va insonparvarlik ruhi bilan Yevropa olimlarini hamon o‘ziga jalb etmoqda. Bugungi global madaniyatlararo muloqot davrida Navoiy merosining G‘arbda o‘rganilishi o‘zbek adabiyati tarixini jahon kontekstida yanada yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bartold, V. V. *Turk xalqlari tarixi haqida ma’ruzalar*. – Moskva, 1910.
2. Browne, E. G. *A Literary History of Persia*. – London, 1906.
3. Massignon, L. *La Passion de Hallaj*. – Paris, 1922.
4. Mirzaev, T. *Sharqshunoslik an’analari va o‘zbek adabiyoti*. – Toshkent: Fan, 2002.
5. Naimov, H. *Alisher Navoiy va Yevropa adabiy an’analari*. – Toshkent: Universitet, 2012.
6. Raximov, B. *Sharq va G‘arb adabiy aloqalari tarixidan*. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
7. Ritter, H. *Studien zur Geschichte der islamischen Mystik*. – Hamburg, 1955.
8. Yusupov, O. *Alisher Navoiy merosining jahonshumul ahamiyati. // Navoiy va jahon madaniyati*. – Toshkent: Fan, 2016.

Bekmirzayeva Dilrabo

Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

diliandjony@gmail.com

“KENTERBERI HIKOYALARI” DA TURFA TABAQALAR: CHOSERNING IJTIMOYIY PORTRETI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Joffri Choserning “*Kenterberi hikoyalari*” asarida XIV asr ingliz jamiyatining turli tabaqalari aks ettirilishi tahlil qilinadi. Asardagi ritsar, ruhoni, savdogar, dehqon va ayol obrazlari orqali jamiyatning ijtimoiy portreti chiziladi. Choserning realizmga xos uslubi, uning yumor va ironiyadan foydalangan holda jamiyat kamchiliklarini ko‘rsatishi maqolada alohida yoritilgan. Choser bu asar orqali o‘z davridagi sinfiy tafovutlarni, adolatsizliklarni va diniy soxtalikni teran tahlil qiladi. Ayniqsa, ruhoniylar tabaqasining ikkiyuzlamachiligi, cherkovdagi poraxo‘rlik, zodagonlarning maqtanchoqligi va oddiy xalqning mehnatkashligi o‘rtasidagi farq muallifning tanqidiy realizmi orqali ochib beriladi. Shu bilan

birga, Choser insonni nafaqat ijtimoiy mavqe bilan, balki uning axloqiy fazilatlari orqali baholaydi. U mehnatsevarlik, sadoqat, halollik va insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etadi.

Kalit so'zlar: Choser, Kenterberi hikoyalari, o'rta asr ingliz adabiyoti, ijtimoiy portret, realizm, sinfiy tabaqalanish, ruhoni tabaqasi, oddiy xalq, ayol obrazi, Bathlik xotin, adabiy tahlil, xalq tili, axloqiy qadriyatlar, jamiyat manzarasi, insonparvarlik.

Jofferi Choser (1343–1400) Angliyada ijtimoiy o'zgarishlar kuchaygan, feodalizm inqirozga yuz tutgan davrda yashagan. Bu davrda yangi sinf — **burjuaziya** shakllanayotgan edi. Choserning asarlarida aynan shu o'zgarishlar, sinflararo qarama-qarshiliklar, ijtimoiy adolatsizlik va inson qadr-qimmatiga bo'lgan yangi munosabat aks etadi. U o'z davrining nafaqat adibi, balki o'tkir kuzatuvchisi sifatida xalq hayotini, ruhoniylar, dehqonlar, ritsarlar, savdogarlar va boshqa tabaqalarning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatadi. XIV asr ingliz adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biri bo'lgan Joffrey Choser o'zining mashhur asari — “Kenterberi hikoyalari” orqali o'rta asr ingliz jamiyatining keng ijtimoiy manzarasini yaratadi. Bu asar oddiygina haj safariga chiqqan ziyoratchilar hikoyalaridan iborat bo'lib, ular turli tabaqalarga mansub odamlar obrazida jamiyatning o'ziga xos ijtimoiy portretini taqdim etadi. Choser o'z zamonasidagi axloqiy qarashlar, insoniy fazilatlar va illatlarni satirik, ba'zan esa idealizatsiya qilingan tarzda ifodalaydi. “Kenterberi hikoyalari”ning eng muhim xususiyatlaridan biri — turfa tabaqalarni birlashtirgan “xalq kitobi” bo'lishidir. Unda nafaqat zodagonlar va ruhoniylar, balki hunarmandlar, savdogarlar, dehqonlar, hatto o'sha davr jamiyatida pastroq qatlamga mansub kishilar ham ishtirok etadi. Shunday qilib, Choser jamiyatni faqat bitta ijtimoiy qatlam nuqtayi nazaridan emas, balki ko'p ovozli manzara sifatida yoritadi. “Choser realizmi” deganda hayotni butun murakkabligi bilan ko'rsatish ma'nosi tushuniladi. U obrazlarini shunchaki idealizatsiya qilmaydi, balki inson fe'l-atvoridagi qarama-qarshiliklarni yoritadi. Masalan, ritsarning halolligi, monaxning riyo qilishi yoki bathlik xotinning ayollik jasorati orqali u jamiyatdagi axloqiy muammolarni ochib beradi.

Choserning ziyoratchilari ichida:

Ruhoniylar tabaqasi vakillari: Prioressa (rohiba), Parson (qishloq ruhoniysi), Friar (sayyor rohib). Bu obrazlar orqali Choser diniy tabaqaning ikki qirrasini ko'rsatadi — samimiy, halol xizmat qiluvchilar va manfaatparast, yolg'onchi ruhoniylar.

Zodagonlar va ritsarlar tabaqasi: Ritsar va uning o'g'li — squayer. Ritsar obrazi o'rta asr ritsarlik fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan ideal qahramon sifatida tasvirlanadi.

Savdogar va hunarmandlar tabaqasi: Savdogar, Millar (tegirmonchi), Carpenter (duradgor), Dyer (bo'yovchi), Weaver (to'quvchi). Ularning obrazlari oddiy xalqning kundalik hayoti, kasbi va ijtimoiy mavqeini ko'rsatadi.

Oddiy xalq vakillari: Plowman (dehqon) halol mehnatkash sifatida yuksak maqtovga sazovor bo'ladi.

Ayollar obrazi: “Wife of Bath” (Bathlik ayol) o'zining erkin xarakteri, hayotiy tajribasi va erksevarligi bilan jamiyatdagi ayolning o'ziga xos o'rnini namoyish etadi.

Choserning ijtimoiy portreti

Choser o'z asarida o'rta asr ingliz jamiyatining miniatyura portretini yaratadi. Ziyoratchilar birgalikda safarga chiqqan bo'lsalar-da, ularning har biri o'z tabaqasining qadriyatlari, hayotiy qarashlari va xulq-atvorini ifodalaydi. Asar orqali biz o'sha davr jamiyatining:

axloqiy qarama-qarshiliklari (halol dehqon vs. poraxo'r ruhoni),

ijtimoiy tengsizliklari (zodagon va oddiy xalq o'rtasidagi tafovut), *shaxsiy erkinlik masalalari* (ayolning jamiyatdagi o'rnini) kabi muammolarni ko'ramiz.

Choser nafaqat voqealarni hikoya qiladi, balki **satira va yumor** orqali o'z davridagi illatlarni fosh qiladi, shu bilan birga insoniy fazilatlarini ulug'laydi. Choserning asari kritik realizmning ilk namunalaridan biridir. U voqealarni xolis, ammo kinoyali ohangda tasvirlaydi. Har bir obraz orqali u insoniy fazilatlar bilan birga, inson nuqsonlarini ham ko'rsatadi. Shu tariqa, Choser o'rta asr jamiyatining axloqiy portretini yaratadi. Choser o'z asarini o'rta ingliz tilida yozgan. Uning tili xalq tiliga yaqin, jonli va hayotiy. U har bir qahramonning nutqini ijtimoiy maqomiga mos qilib beradi. Shu jihatdan u realistik portret yaratishning ustasi hisoblanadi. 1348-yildagi "Qora o'lat" (Black Death) butun mamlakat iqtisodiyotini o'zgartirdi: dehqonlar soni kamayib, mehnat kuchi qadrlana boshladi. Shu sababdan, jamiyatda sinfiy chegaralar siljishi yuz berdi. Aynan shunday murakkab davrda Choser o'z asarini yaratdi va o'zining "Kenterberi hikoyalari" orqali o'sha ijtimoiy siljishlar, axloqiy inqiroz va sinfiy ziddiyatlarni badiiy shaklda ifodaladi.

"Kenterberi hikoyalari"dagi ayollar obrazi ham alohida e'tiborga loyiq. Ayniqsa, Wife of Bath (Batalik xotini) — Choser davridagi ayol mustaqilligi, jinsiy erkinlik va nikohdagi tenglik g'oyalarini ifodalovchi noyob obrazdir. U besh marta turmushga chiqqan, hayotdan lazzat olishni ayb deb bilmaydigan, erkaklar ustidan fikran ustun ayol sifatida tasvirlanadi. Bu obraz o'rta asr adabiyotida ayolning ilk realistik portreti sifatida qaraladi. Choser ayolni shunchaki "axloqiy timsol" sifatida emas, balki insoniy istak va mustaqil fikrga ega shaxs sifatida ko'rsatadi — bu jihatdan u o'z davridan ancha oldinda turgan yozuvchi edi. Geoffrey Choserning "Kenterberi hikoyalari" o'rta asr Angliya hayotining adabiy ko'zgidir. U jamiyatdagi har bir tabaqaning axloqiy, madaniy va iqtisodiy holatini jonli obrazlar orqali aks ettirgan.

Choser o'z davrining eng ilg'or adabiy fikr egasi bo'lgan. U o'rta asr Angliyasida keng tarqalgan axloqiy, diniy va iqtisodiy muammolarni badiiy shaklda tahlil qilgan. Ayniqsa, churkov vakillarining ikkiyuzlamachiligi va ruhiy inqirozi uning ijodida asosiy tanqidiy yo'nalish sifatida ko'rinadi. Masalan, "Pardoner's Tale"da u cherkovning soxta "gunohdan poklash" amaliyotini fosh etadi. Pardoner odamlarning dindorlik tuyg'usidan foydalangan holda ularni aldov bilan puldan ayiradi. Bu obraz orqali Choser diniy tizimdagi poraxo'rlikni va ma'naviy buzqlikni ochiqchasiga fosh etgan. Choser jamiyatning mehnatkash sinfini e'tirof etadi. "Plowman's Tale"dagi dehqon obrazi mehnatsevarlik va sadoqat timsolidir. U o'z halolligi, soddaligi bilan zodagonlar va ruhoniylardan ustun ko'rsatiladi. Bu orqali muallif insonning ijtimoiy mavqeyi emas, balki axloqiy pokligi muhim degan g'oyani ilgari suradi.

Choser o'z asari orqali shunday xulosaga keladi: har bir inson — u kim bo'lishidan qat'i nazar — axloq, mehnat va vijdon bilan baholanadi. Shuning uchun ham "Kenterberi hikoyalari" nafaqat adabiy yodgorlik, balki ijtimoiy psixologik hujjat, xalq ruhining badiiy portretidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chaucer, Geoffrey. *The Canterbury Tales*. Edited by Larry D. Benson. Oxford: Oxford University Press, 1987.
2. Brewer, Derek. *Chaucer and His World*. London: Eyre Methuen, 1977.
3. Pearsall, Derek. *The Life of Geoffrey Chaucer: A Critical Biography*. Oxford: Blackwell, 1992.
4. Robertson, D. W. *A Preface to Chaucer: Studies in Medieval Perspectives*. Princeton: Princeton University Press, 1962.
5. Daiches, David. *A Critical History of English Literature*. Vol. 1. London: Secker & Warburg, 1960.

I.Yo.Beknazarova- Samarqand davlat chet tillar instituti assistent-o‘qituvchisi

D.U.Jo‘rayeva - Samarqand davlat chet tillar instituti 4-kurs talabasi

E-mail: irodabeknazarova77@gmail.com

BILVOSITA NOMLANISHNING MANTIQIY-SEMANTIK MUAMMOLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqola tilshunoslik va mantiq fanlarida dolzarb bo‘lgan bilvosita nomlanish (kosvennaya nominatsiya) hodisasining nazariy asoslari va mantiqiy-semantik muammolarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Bilvosita nomlanishda so‘z yoki ibora dastlabki lug‘aviy ma‘nosidan uzoqlashib, obrazli va ko‘chma ma‘noga ega bo‘lib, referensiyaning noaniqligi, talqinning subyektivligi va semantik transformatsiya mexanizmining murakkabligi kabi masalalarni yuzaga keltiradi. Tadqiqotda so‘zning haqiqiy obyektini aniqlashdagi qiyinchiliklar, yangi ma‘no hosil bo‘lishining kognitiv asoslari (metafora va metonimiya), hamda jarayonning samaradorligini ta‘minlovchi pragmatik talqin o‘rganilgan. Maqolada bilvosita nomlanish fundamental kognitiv-pragmatik mexanizm sifatida talqin qilinib, uning tanlanishi ko‘proq hissiy, badiiy va ekspressiv samaradorlikka erishishga xizmat qilishi ta‘kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *bilvosita nomlanish, metafora, referensiya, pragmatika, semantik transformatsiya, kognitiv lingvistika, polisemiya, nutq, diskurs*

Bilvosita nomlanishning mantiqiy-semantik muammolari tilshunoslik va mantiqning dolzarb sohasini tashkil etadi. Bu jarayonda so‘z yoki ibora dastlabki lug‘aviy ma‘nosidan uzoqlashib, o‘zi yaratilgan asl referentidan farqli bo‘lgan boshqa obyektini nomlash uchun moslashtiriladi. Ushbu transformatsiya odatda ma‘lum bir obrazga, funksional o‘xshashlikka yoki metonimiya-metaforaga asoslanadi. Natijada, so‘zning ma‘nosi ko‘chadi, bu esa referensiyaning noaniqligi, talqinning subyektivligi va semantik transformatsiya mexanizmining ilmiy izohlanishi kabi chuqur mantiqiy-falsafiy muammolarni keltirib chiqaradi.

N. D. Arutyunova “Metafora i Diskurs” [1] nomli maqolasi metafora va nutq (diskurs) o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tadqiq etishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda metafora bilishning (tafakkurning) va til qurilishining asosiy vositasi sifatida qaraladi va nutqiy makonni shakllantiradi. Arutyunova metaforik ko‘chishlarning yangi ma‘nolarni yaratish, inson tajribasini tashkil etish va reallikni idrok etishimizni shakllantirish uchun qanday qo‘llanilishini tahlil qiladi. Shuningdek, u nutqning - pragmatik, sotsiomadaniy va boshqa omillar bilan birgalikdagi bog‘liq matnning - o‘z navbatida, metaforaning yuzaga kelishi va faoliyat ko‘rsatishi uchun qanday sharoitlarni yaratishini ham o‘rganadi. V. N. Teliya ning “Metody analiza nominativnykh yedinitz yazyka” (“Tilning nomlash birliklarini tahlil qilish metodlari”) asari [2] bilvosita nomlanishning (*kosvennaya nominatsiya*) mantiqiy-semantik muammolarini o‘rganishda muhim metodologik asos yaratadi, zero, unda birlamchi (bevosita) va ikkilamchi (bilvosita) nomlanish turlarining mohiyati va chegaralari aniq farqlab berilgan. Ye. S. Kubryakova ning “Nominalnaya sistema russkogo yazyka” (“Rus tilining nominal tizimi”) asari [3] tildagi nomlanish jarayonlariga kognitiv nuqtai nazardan yondashib, bilvosita nomlanishning (*kosvennaya nominatsiya*) insonning bilish faoliyati (konseptualizatsiya) asosida shakllanishini, ya‘ni yangi

nomlarning borliq haqidagi bilimlarni uyushtirish vazifasidan kelib chiqishini nazariy jihatdan asoslab beradi. Жорж Лакофф ва Марк Жонсоннинг “Metaphors We Live By” (“Биз яшаётган метафоралар”) [4] fundamental asari bilvosita nomlanishni (metaforani) shunchaki til hodisasi emas, balki insonning borliqni konseptual idrok etishining asosi deb asoslab bersa, G. Fregening (Frege G.) “O smysle i znachenii” (“Ma’no va Ishora haqida”) [5] klassik ishi esa soʻzning obyektiv referentga (“ishora”ga) ega boʻlishi va uning subyektiv “ma’no”si oʻrtasidagi farqni belgilash orqali bilvosita nomlanishdagi referensiyaning noaniqligi muammosiga falsafiy-mantiqiy zamin yaratadi. Zoltan Kyovechshesh (Kövecses Zoltán) ning bilvosita nomlanishni (metaforani) tizimli kognitiv xaritalash (mapping) sifatida oʻrganuvchi asarlari [6], Uilyam Kroft (Croft William) va D. Alan Kruz (Cruse D. Alan) [8] ning bilish nazariyasi doirasida polisemiyaning kelib chiqishini tahlil qiluvchi tadqiqotlari hamda Jil Fokonye (Fauconnier Gilles) va Mark Tyornir (Turner Mark) [9] ning murakkab maʼnolar yaratuvchi konseptual aralashma (conceptual blending) nazariyasi, Lorens Xorn (Laurence Horn) va Gregori Uord (Gregory Ward) [10] tomonidan pragmatika va nutq aktlari nuqtai nazaridan bilvosita maʼnolarning talqinini oʻrganuvchi qoʻllanmalar Jon Teylor (John R. Taylor) [11] asarlarida tilning kategoriya yaratishdagi noaniqlik bilan bogʻliq muammolar birgalikda bilvosita nomlanishning kognitiv mexanizmi, referensiyaning noaniqligi va pragmatik talqinning roli kabi mantiqiy-semantik muammolariga keng qamrovli zamonaviy yechimlar taklif etadi.

Referensiyaning Noaniqligi bilvosita nomlanishning markaziy mantiqiy-semantik muammosi boʻlib, ayniqsa, metafora yoki metonimiya kabi obrazli nomlanishlarda, soʻzning dastlabki (haqiqiy) maʼnosi va kontekstdagi yangi (koʻchma) maʼnosi oʻrtasida sezilarli farq paydo boʻladi [12-14]. Buning oqibatida, bir shaklga (soʻz yoki iboraga) ega boʻlgan til birligining bir nechta real obyektga (referentga) ishora qilish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa yuzaga kelgan polisemiyaning (koʻp maʼnolilikning) qaysi maʼnosi aniq nazarda tutilayotganini toʻgʻri tushunishni nutq kontekstiga, vaziyatning pragmatik omillariga va kommunikatorlarning umumiy kognitiv bazasiga (borliq haqidagi bilimiga) toʻliq bogʻliq qilib qoʻyadi. Referensiyaning noaniqligi muammosi aynan mana shu kontekstga bogʻliqlikda yaqqol namoyon boʻladi: Metafora mos misol: Soʻz: “Kapalak”; Dastlabki referent: Hasharot (biologik tur); Bilvosita nomlanish (Metafora): “U juda kapalak boʻlib ketgan”; Noaniqlik: Bu yerda “kapalak” soʻzi hasharotga emas, balki yengiltak, beqaror, bir joydan ikkinchi joyga uchib yuruvchi odamni (shaxsning xususiyatini) nomlash uchun ishlatilmoqda. Tushunmovchilikka yoʻl qoʻymaslik uchun tinglovchi bu soʻzni shaxsga nisbat berilganidan kelib chiqib, uning faoliyati yoki xarakteriga ishora qilayotganini tushunishi kerak [12,13].

Metonimiyaga mos misol: Soʻz: “zal”, Dastlabki referent: Bino yoki xonaning ichki qismi (joy); Bilvosita nomlanish (Metonimiya): “Butun zal qarsak chaldi”; Noaniqlik: “zal” soʻzi bino joyini emas, balki shu joyda oʻtirgan odamlarni (tomoshabinlarni) bilvosita nomlash uchun ishlatilgan. Kontekst (“qarsak chaldi”) tinglovchiga referensiyani joydan odamlarga koʻchirishni talab qiladi. Bu misollar mantiqiy-semantik muammoning amaliy koʻrinishini aks ettiradi: mantiqiy nuqtai nazardan bir soʻz faqat bitta referentga ishora qilishi kerak, ammo tilning bilvosita nomlash funksiyasi bu qoidani ijodiy ravishda chetlab oʻtib, kontekstga asoslangan talqinni talab qiladi. Buning oqibatida, bir shaklga (soʻz yoki iboraga) ega boʻlgan til birligining bir nechta real obyektga (referentga) ishora qilish imkoniyati yuzaga keladi; bu esa yuzaga kelgan polisemiyaning qaysi maʼnosi aniq nazarda tutilayotganini toʻgʻri tushunishni nutq kontekstiga, vaziyatning pragmatik omillariga va kommunikatorlarning umumiy kognitiv bazasiga (borliq haqidagi bilimiga) toʻliq bogʻliq qilib qoʻyadi.

Semantik Transformatsiya Mexanizmi bilvosita nomlanishning eng murakkab mantiqiy-

semantik muammolaridan bo‘lib, u so‘zning dastlabki (asosiy) lug‘aviy ma‘nosidan butunlay yangi, bilvosita (ko‘chma) ma‘noga o‘tishining aniq kognitiv asoslari va izchil bosqichlari hali ham chuqur o‘rganiladigan masalaligini anglatadi. Nima uchun aynan shu obraz, assotsiatsiya yoki o‘xshashlik tanlandi? Eng muhimi, bu dastlab subyektiv, shaxsiy bo‘lgan obrazli bog‘liqlik qanday qilib ijtimoiy jihatdan umum qabul qilingan yangi nomlanishga aylanib ulgurdi? Bu jarayon ko‘pincha subyektiv obrazlar, madaniy-tarixiy omillar (an‘analar, mentalitet) va kommunikativ ehtiyojlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli, uning universal, qat‘iy mantiqiy qoidalarini topish va formalizatsiya qilish murakkab vazifa hisoblanadi. Semantik transformatsiya mexanizmi quyidagi misollarda kognitiv ko‘chish asosida qanday ishlashini ko‘rsatadi: “yurak” so‘zining transformatsiyasi (Metafora); Dastlabki (lug‘aviy) ma‘no: Qon aylanishini ta‘minlovchi biologik organ. Kognitiv zamin: Insonlar qadimdan hayot, energiya va hissiyotlarning markazi deb aynan yurakni bilishgan. Yurak tez urishi – hayajon, to‘xtashi – o‘lim bilan bog‘liq. Transformatsiya (Bilvosita ma‘no): “Uning yuragi toza odam”. Bu yerda biologik organ emas, balki inson ruhiy dunyosi, axloqi yoki asosiy mohiyati nomlanmoqda. Transformatsiya sababi: Organ *hayotning markazi* bo‘lgani uchun, u shaxsiyatning markazi sifatida qabul qilingan.

“Qoshiq” so‘zining transformatsiyasi (Metonimiya). Dastlabki (lug‘aviy) ma‘no: Oziq-ovqatni iste‘mol qilish uchun ishlatiladigan asbob. Kognitiv zamin: Qoshiq ovqatlanish harakati yoki bir martalik ovqat miqdori bilan uzviy bog‘liq. Transformatsiya (Bilvosita ma‘no): “U bizdan bitta qoshiq ovqat oldi”. Bu yerda asbob emas, balki asbob bilan olinadigan miqdor (hajm) nomlanmoqda. Transformatsiya sababi: Qoshiq va uni to‘ldiradigan miqdor makoniy yaqinlik (qo‘shnichilik) orqali bog‘liq bo‘lib, buyumning nomi miqdorning nomiga ko‘chirilgan. Bu misollar Semantik Transformatsiya Mexanizmi o‘xshashlik (metafora) yoki aloqadorlik (metonimiya) asosida nomlanishning mantiqiy chegarasini qanday kengaytirishini ko‘rsatadi. Bu jarayon ko‘pincha subyektiv obrazlar, madaniy-tarixiy omillar (an‘analar, mentalitet) va kommunikativ ehtiyojlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli, uning universal, qat‘iy mantiqiy qoidalarini topish va formalizatsiya qilish murakkab vazifa hisoblanadi.

Pragmatik talqinning roli bilvosita nomlanishning asosiy muammosi bo‘lib, uning muvaffaqiyatini faqatgina so‘zning semantikasi (lug‘aviy ma‘nosi) emas, balki nutq vaziyati (pragmatika) belgilaydi. Bu shuni anglatadi, tinglovchi notiqning shaxsiy niyatlarini va nutq maqsadini (masalan, hazillashish, tanqid qilish yoki emotsional ta‘sir ko‘rsatish) to‘liq tushunib yetgandagina, yangi bilvosita ma‘noni to‘g‘ri qabul qila oladi va so‘zning asl referentini aniqlaydi. Aks holda, bilvosita nomlanishda notiqning kommunikativ niyati va tinglovchining subyektiv talqini o‘rtasida nomuvofiqlik yoki zidiyat yuzaga kelishi, bu esa jiddiy kommunikativ tushunmovchilikka sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, bilvosita nomlashning to‘g‘ri yechimi ko‘pincha Graysning suhbat maksimalari (masalan, Me‘yor, Sifat, Aloqadorlik) va kontekstual bilimlar kabi pragmatik vositalar yordamida aniqlanadi. Pragmatik talqinning rolga oid misollar: Satira va Tanqid (Niyatni tushunish): Nutq: “Bu boshliq – haqiqiy generator”; Lug‘aviy ma‘no: Elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi qurilma (maqtov yo‘q); Bilvosita ma‘no (Taqqoslash): Yangi g‘oyalarni uzluksiz ishlab chiqaruvchi kishi. Pragmatik vaziyat: Agar nutq boshliqning yo‘qligida va achchiq kulgi bilan aytilsa, pragmatik talqin bu “generator” so‘zining aslida ma‘nosiz g‘oyalarni ishlab chiqaruvchi yoki keraksiz shovqin qiluvchi ma‘nosini (ya‘ni, tanqidiy satirani) anglatishini talab qiladi. Tinglovchi notiqning niyatini ushlamasa, so‘zni chinakam maqtov deb qabul qilishi mumkin.

Hajmli Ma‘no (Graysning Me‘yor Maksimalasini buzish): Nutq: “Men bu vazifani tugatish uchun asrlarga muhtojman.”; Lug‘aviy ma‘no: 100 yildan ortiq vaqt. (Bu Sifat maksimalasini

buzish ham hisoblanadi). Bilvosita ma'no: Juda ko'p va uzoq vaqt. Pragmatik talqin: Tinglovchi, notiqning haqiqatda 100 yil umr ko'rmasligini bilgani uchun, bu so'zning giperbola (mubolag'a) ekanligini va bu orqali notiq vazifaning murakkabligini yoki haddan tashqari ko'pligini bildirmoqchi ekanligini anglab yetadi. Pragmatika yordamida "asrlarga" so'zi "juda ko'p vaqt" ga tenglashtiriladi.

Bu misollar pragmatika til birligining referensiyasini lug'atdan uzib, uni subyektlararo munosabatlar maydoniga olib chiqishini ko'rsatadi, bu esa bilvosita nomlanishdagi subyektivlik muammosini keltirib chiqaradi.

Nomlashning motivatsiyasi - bilvosita nomlanishning asosiy pragmatik-kognitiv muammosi bo'lib, u quyidagi savolni o'rta tashlaydi: Yangi obyektни nomlashda bevosita (to'g'ridan-to'g'ri, lug'aviy) nomlash imkoniyati bo'lgani holda, nega aynan bilvosita (obrazli) nomlash usuli tanlanadi? Bu tanlovning asosiy sababi — nafaqat axborot uzatish, balki hissiy, badiiy yoki baholovchi ta'sir ko'rsatish zaruratidir, ya'ni ifodalilikni oshirish maqsadidan kelib chiqadi.

Bilvosita nomlanishning tanlanishi ko'pincha quyidagi kommunikativ-pragmatik maqsadlar bilan izohlanadi:

Hissiy va baholovchi ta'sir. Bilvosita nomlash so'zlovchining subyektiv munosabatini (salbiy yoki ijobiy bahosini) to'g'ridan-to'g'ri nomlashga qaraganda kuchliroq yetkazishga imkon beradi. Misol: "U – aqli odam" (bevosita, neytral) deyish o'rniga, "Uning miyasi – kompyuter" (bilvosita) deyilsa, bilim darajasiga nisbatan kuchli hayrat va yuksak baho hissi beriladi. Kompyuter obrazi aqlning tezkorligi va xotirasi bilan bog'lanadi. Yana bir misol: "U juda qizg'anchiq" (bevosita) deyish o'rniga, "Uning qo'lidan qor ham tushsa erimaydi" (bilvosita) deyilsa, baholashning ekspressivlik darajasi keskin oshadi.

Ta'sirchanlik va obrazlilik. Bilvosita nomlash tilning tejamkorligi va ixchamligini ta'minlagan holda, axborotni zichlashtiradi va tinglovchi tasavvurini ishga soladi. Misol: "O'qituvchi darsni yaxshi tushuntirdi" (bevosita) o'rniga, "O'qituvchining so'zlari xuddi suvdek oqib keldi" (bilvosita) deyiladi. "Suv" obrazi tushunarlilik va ravishtalikni ifodalab, axborotni obrazli, jonli yetkazib berish motivatsiyasini aks ettiradi.

Tarixiy-madaniy omillar. Ba'zi bilvosita nomlanishlar madaniy stereotiplar yoki tarixiy an'analar asosida tanlanadi. Misol: Qahramonlikni nomlash uchun "sher" obrazining tanlanishi. Bu kognitiv (kuchli) va madaniy (sher – jasorat ramzi) omillarining birla-shuvi bo'lib, bu obrazni bevosita "jasur odam" so'zidan ko'ra kuchliroq va madaniy jihatdan asoslangan nomlashga aylantiradi. Xulosa qilib aytganda, bilvosita nomlashning motivatsiyasi mantiqiy ehtiyojdan ko'ra, kommunikativ-pragmatik va emotsional samaradorlikka erishishga qaratilgan tanlovdir.

Xulosa qilib aytganda, bilvosita nomlanish shunchaki stilistik vosita yoki til qoidalaridan chekinish emas, balki nutqiy muloqot jarayonida inson tafakkuri va ongining o'ziga xos ishlash mexanizmlarini ifodalovchi fundamental kognitiv-pragmatik mexanizmdir. Uning motivatsiyasi mantiqiy ehtiyojdan ko'ra, asosan, hissiy, badiiy va ekspressiv samaradorlikka erishishga qaratilgan ongli tanlov bo'lib, insonning ichki maqsadlari va tashqi kommunikativ ehtiyojlariga mos keladi. Bilvosita nomlanish, birinchi navbatda, insonning borliqni konseptual idrok etishining asosiy tamoyillaridan biri sifatida xizmat qiladi, chunki u mavjud kognitiv baza (bilim, tajriba va tasavvurlar) asosida yangi tushunchalar, yangi semantik birliklar va ramziy obrazlarni yaratish hamda ularga nom berish imkonini beradi. Bu masalalarni to'liq anglab yetish tilshunoslik, mantiq va kognitiv fanlarning chuqur integratsiyasini talab qiladi. Zero, bilvosita nomlanishning har bir jihati mazkur sohalarning o'zaro kesishmasida namoyon bo'ladi:

referensiyaning noaniqligi muammosi mantiq va semantika o'rtasida bog'lovchi bo'g'in sifatida chiqadi; semantik transformatsiya mexanizmi esa kognitiv lingvistikaning asosiy tamoyillari orqali izohlanadi; pragmatik talqinning roli esa notiqning maqsadini, nutqiy niyatini va kontekstual bilimlarni o'z ichiga olgan holda, pragmatika sohasi bilan uzviy bog'lanadi. Shu tariqa, bilvosita nomlanish til tizimining ijodiy, dinamik va subyektiv tabiatini yorqin ifodalovchi murakkab jarayon bo'lib, u tilshunoslikda nafaqat nazariy, balki amaliy nuqtayi nazardan ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. U tilning estetik imkoniyatlarini kengaytiradi, badiiy matnlarning ta'sirchanligini kuchaytiradi, shuningdek, kundalik muloqotda nutqiy moslashuvchanlikni va ifoda erkinligini ta'minlaydi. Shu sababdan, bilvosita nomlanishni chuqur o'rganish inson tafakkurining ijodiy mexanizmlarini ochib berishga xizmat qiladi va tilni kognitiv hamda pragmatik nuqtayi nazardan yanada kengroq anglashga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Arutyunova, N. D. (1990). Метафора и дискурс. В: *Теория метафоры*. М.: Прогресс. (С. 5–32).
2. Croft, W., & Cruse, D. A. (2004). *Cognitive linguistics*. Cambridge University Press.
3. Fauconnier, G., & Turner, M. (2002). *The way we think: Conceptual blending and the mind's hidden complexities*. Basic Books.
4. Frege, G. (1997). О смысле и значении. В: *Избранные работы*. М.: Дом интеллектуальной книги. (С. 25–49).
5. Horn, L. R., & Ward, G. (Eds.). (2004). *The handbook of pragmatics*. Blackwell Publishing.
6. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A practical introduction* (2nd ed.). Oxford University Press.
7. Kubryakova, Ye. S. (1974). *Номинальная система русского языка*. М.: Наука.
8. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
9. Taylor, J. R. (2003). *Linguistic categorization* (3rd ed.). Oxford University Press.
10. Teliya, V. N. (1977). *Методы анализа номинативных единиц языка*. М.: Наука.
11. Beknazarova, I.Yo., & Jo'rayeva, D.U. (2024). General Theoretical Problems of Indirect Naming (Using the Example of English). *Scientific Bulletin of Samarkand State University*, Issue 6 (148/2), Humanities Series, 76–84.
12. Beknazarova, I.Yo., & Jo'rayeva, D.U. (n.d.). Problems of Indirect Naming Related to Metonymy in English. *Journal of Science, Education, Culture and Innovation*, 4(2), 61–64.
13. Beknazarova, I., & Jo'rayeva, D. (2025). Lexical Structure and Semantic Components of Language. *Young Scientists*, 3(1), 108–115.
14. Beknazarova, I. (2024). International Scientific and Practical Conference “Methodology of Teaching Foreign Languages – Innovations, Traditions, Problems and Their Solutions,” March 15, 2024. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10806523>

Jabborova Subhida Abdullayevna
Department of Foreign Languages and Literature,
Termez University of Economics and Service, Termez 190101, Uzbekistan
Email: jabborovasubhida@gmail.com
Orcid: <https://orcid.org/0009-0003-8445-8405>

THE LINGUISTIC FEATURES OF MEDICAL TERMINOLOGY: AN ANALYTICAL PERSPECTIVE

Abstract: Medical terminology constitutes a specialized lexical system that enables precision and universality in healthcare communication. This article investigates the linguistic characteristics of medical terms, focusing on their morphological, semantic, and etymological properties. Using descriptive and comparative methods, the study outlines the dominant features that distinguish medical terminology from general vocabulary. The findings suggest that medical terms are characterized by their Greek–Latin etymology, morphological transparency, semantic univocity, and systematic internationalization, making them a stable but adaptable lexical subsystem of language.

Introduction: Language plays a central role in the development and transmission of scientific knowledge. Among all scientific domains, medicine has one of the richest and most complex terminological systems. The need for accurate description of human anatomy, pathology, and therapeutic processes has given rise to a lexicon that is both highly specialized and remarkably consistent across languages.

Medical terminology is not only a tool for communication between healthcare professionals but also a linguistic phenomenon shaped by history, culture, and science. Most medical terms are based on Greek and Latin, which ensures cross-linguistic stability. However, the system also integrates modern coinages, acronyms, and eponyms. The purpose of this study is to analyze the linguistic features of medical terminology, focusing on its morphology, semantics, and standardization processes.

Methods: This study adopts a qualitative descriptive design rooted in linguistic analysis. Rather than testing hypotheses quantitatively, the research aims to describe, categorize, and interpret the distinctive linguistic features of medical terminology. The approach is primarily analytical, relying on comparison, etymological tracing, and morphological description.

Medical terminology is vast, therefore a focused corpus was established to ensure both depth and representativeness. Sources include:

1. Terminologia Anatomica (1998; revised 2019) — the official international standard for human anatomical nomenclature.
 2. International Classification of Diseases, 11th Revision (ICD-11) — providing diagnostic categories and disease terminology standardized by the World Health Organization.
 3. SNOMED CT — the world’s most comprehensive clinical terminology system, used in electronic health records.
 4. Specialized dictionaries and glossaries such as *Dorland’s Illustrated Medical Dictionary* and *Stedman’s Medical Dictionary*.
 5. Secondary literature in linguistics and terminology studies (e.g., Cabré, Sager, Wulff).
- Altogether, approximately 2,500 terms were reviewed to establish patterns of morphology, etymology, and semantics.

The analysis was conducted in four stages:

1. Etymological Analysis
 - Each selected term was traced to its root (Greek, Latin, or modern coinage).

- Borrowings and hybrid formations were identified (e.g., *tele-medicine*, where *tele-* is Greek and *medicine* is Latin-derived).
- 2. Morphological Analysis
 - Terms were decomposed into their affixal components: prefix, root, and suffix.
 - Patterns of productivity were identified (e.g., *-itis* as a recurrent marker of inflammation).
 - Word-formation models (compounding, derivation, blending) were recorded.
- 3. Semantic Analysis
 - The degree of univocity (one concept = one term) was tested by comparing terms across different languages (English, French, Latin).
 - Cases of polysemy, synonymy, and eponymy were noted.
 - Special attention was given to terms replaced in ICD-11 to avoid stigmatization (e.g., “gender incongruence” replacing “gender identity disorder”).
- 4. Comparative Cross-linguistic Analysis
 - Selected terms were compared with equivalents in German, French, and Russian, to highlight the stability of Greek–Latin roots across languages.
 - Differences in orthography, affixation, and adaptation were recorded.

To ensure validity, the corpus was drawn only from authoritative sources recognized internationally. Reliability was enhanced by cross-checking etymologies in at least two dictionaries or terminological databases.

The study is limited by its qualitative focus and by the size of the sample. A broader quantitative study could measure the frequency of morphological structures across millions of terms using computational linguistics tools. However, the chosen approach allows for depth of analysis and focuses on linguistic distinctiveness, which aligns with the research aim.

Results

1. Morphological Features

- **Prefix-root-suffix structure:** Most terms are constructed analytically.
 - Example: *cardiology* = *cardio-* (heart) + *-logy* (study).
- **High degree of compositionality:** Terms are semantically transparent for trained professionals.
- **Productivity:** The same affixes recur across multiple domains (*-itis* for inflammation, *-ectomy* for surgical removal).

2. Etymological Features

- Approximately **70–80% of medical terms** derive from **Greek and Latin**.
 - *Nephros* (Greek) → *nephrology*.
 - *Hepar* (Greek) → *hepatitis*.
- Borrowings ensure international comprehensibility.

3. Semantic Features

- **Univocity:** Medical terms strive for “one-to-one” correspondence between term and concept.
- **Polysemy avoidance:** Unlike general language, ambiguity is minimized.
- **Eponymy:** Terms such as *Alzheimer’s disease* or *Parkinsonism* exist but are gradually replaced by descriptive forms (*senile dementia*, *type Alzheimer*).

4. Standardization Features

Internationalization: Modern bodies such as WHO and IFAA maintain global standards (ICD-11, Terminologia Anatomica).

Adaptability: New technologies introduce terms like *telemedicine*, *genomics*, *COVID-19*.

Discussion: The results confirm that medical terminology possesses unique linguistic traits distinguishing it from ordinary vocabulary. Its reliance on Greek–Latin roots provides stability and international usability, reducing the risk of miscommunication in global healthcare. The productivity of morphological patterns ensures the efficient creation of new terms without disrupting systemic consistency.

Semantic univocity is particularly crucial in clinical settings, where ambiguity could endanger patients' lives. While eponyms preserve historical heritage, they can obscure meaning; thus, international standards increasingly favor descriptive terms.

Finally, the tension between conservatism and innovation defines medical terminology. Conservatism ensures continuity and global intelligibility, while innovation enables adaptation to scientific progress. From a linguistic perspective, this dual nature makes medical terminology a model of a controlled and semi-closed lexical subsystem.

Conclusion: Medical terminology is a linguistically rich, historically layered, and systematically regulated subsystem of language. Its defining characteristics—Greek–Latin etymology, morphological transparency, semantic univocity, and international standardization—demonstrate how language can serve as a precise instrument of science. Future linguistic research may focus on how digitalization and machine translation influence the evolution of medical terms, particularly in multilingual healthcare environments.

References

1. Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, methods, and applications*. Amsterdam: John Benjamins.
2. Dorland, W. A. N. (2012). *Dorland's illustrated medical dictionary* (32nd ed.). Philadelphia: Elsevier Saunders.
3. International Federation of Associations of Anatomists (IFAA). (1998). *Terminologia Anatomica: International anatomical terminology*. Stuttgart: Thieme.
4. International Federation of Associations of Anatomists (IFAA). (2019). *Terminologia Anatomica* (2nd ed., revised). Stuttgart: Thieme.
5. International Health Terminology Standards Development Organisation (IHTSDO). (2022). *SNOMED CT: The global clinical terminology*. London: SNOMED International.
6. Sager, J. C. (1990). *A practical course in terminology processing*. Amsterdam: John Benjamins.
7. Stedman, T. L. (2012). *Stedman's medical dictionary* (28th ed.). Philadelphia: Wolters Kluwer.
8. U.S. National Library of Medicine. (2020). *Medical Subject Headings (MeSH)*. Bethesda, MD: National Institutes of Health.
9. Wulff, H. R. (2004). The language of medicine. *Journal of the Royal Society of Medicine*, 97(4), 187–188. <https://doi.org/10.1258/jrsm.97.4.187>
10. World Health Organization (WHO). (2019). *International classification of diseases for mortality and morbidity statistics, 11th Revision (ICD-11)*. Geneva: WHO. Retrieved from <https://icd.who.int>
11. Crystal, D. (2010). *The Cambridge encyclopedia of language* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

12. Kittredge, R., & Lehrberger, J. (Eds.). (1982). *Sublanguage: Studies of language in restricted semantic domains*. Berlin: Walter de Gruyter.
13. McCray, A. T. (1989). The nature of lexical knowledge in medical informatics. *Proceedings of the American Medical Informatics Association Annual Symposium*, 826–830.
14. Peterfreund, H. A. (2000). Greek and Latin in scientific terminology. *Classical World*, 94(2), 123–138.
15. Temmerman, R. (2000). *Towards new ways of terminology description: The sociocognitive approach*. Amsterdam: John Benjamins.
16. Vihla, M. (1999). *Medical writing: Modality in focus*. Amsterdam: Rodopi.
17. Zeng, Q. T., & Cimino, J. J. (1999). Vocabulary and terminology issues in biomedical information systems. *Journal of the American Medical Informatics Association*, 6(6), 475–482. <https://doi.org/10.1136/jamia.1999.0060475>
18. Zirm, J., & Temnikova, I. (2016). Semi-automatic recognition of medical terminology. *Proceedings of the LREC Conference*, 321–327.

**Xalova Maftuna Abdusalamovna,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori**

MARINA SVETAYEVA IJODIDA LIRIK QAHRAMON

Annotatsiya. Mazkur maqolada rus shoirasi Marina Svetayeva ijodi haqida ma’lumot berilgan. Shoira lirikasida lirik qahramon maslasining o’ziga xos jihatlari tahlil qilinadi va munosabat bildiriladi.

Kalit soʻzlar: lirik qahramon, vafo, sadoqat, hayot va adabiyot, tarjima va talqin, hissiy munosabat.

XX asrning 60-yillaridan soʻng yetishib chiqqan oʻzbek shoir va shoirlariga poetik mahorat saboqlarini singdira olgan rus shoirlaridan yana biri Marina Svetayevadir. U uzoq yillar Parijda emigratsiyada yashaganligi, faqat 1941-yildagina Rossiyaga qaytgani bois uning ijodini oʻrganishga kechroq kirishildi. Marina Svetayevaning 1984-yil Moskvadagi “Художественная литература” nashriyotida chop etilgan ikki tomlik sheʼrlariga soʻzboshi yozgan adabiyotshunos Rojdestvenskiy shoira hayot va ijod yoʻlini batafsil tahlil qilib oʻtadi.

Marina Svetayeva oʻzining poetik gʻoyalarini diniy, falsafiy, real hayotiy qarashlarini sodda usulda ifodalaydi:

“Shayton haddan tashqari shayton,
Xudo haddan tashqari xudo” yoki
“Yashamoqlik koʻnikmoqlikdir,

Koʻnikmoqlik esa – jinoyat” singari murakkab boʻlmagan misralar aksariyat umri davr fojialari aro kechgan shoira ruhiy olamini koʻrsata oladigan misollardir.

Garchi Marina Svetayevaning bir qancha sheʼrlari oʻzbek tiliga tarjima qilingan boʻlsa-da, uning “Мне нравится...” deb boshlanuvchi sheʼrining original variantda koʻrib oʻtishga harakat qilamiz:

| She'ning asl matni | She'r tarjimasi (Trajima muallifi X.Davron) |
|---|--|
| <p>Мне нравится, что вы больны не мной, Мне нравится, что я больна не вами, Что никогда тяжелый шар земной Не уплывет под нашими ногами. Мне нравится, что можно быть смешной – Распущенной – и не играть словами, И не краснеть удушливой волной, Слегка соприкоснувшись рукавами.</p> <p>Мне нравится еще, что вы при мне Спокойно обнимаете другую, Не прочите мне в одовом огне Гореть за то, что я не вас целую. Что имя нежное мое, мой нежный, не Упоминаете ни днем, ни ночью – всуе... Что никогда в церковной тишине Не пропоют над нами: аллилуйя!</p> | <p>Qanday yaxshi, meni o‘ylab chekmasiz alam, Qanday yaxshi, sizni deya chekmasman ozor Va hech qachon bu muazzam kurrai olam Uchib ketmas oyog‘imiz ostidan bezor. Qanday yaxshi, qo‘rqmay yashash kulgu bo‘lmoqdan, Beorlarcha oshkor qilmoq pinhona so‘zim. Yenglarimiz bir-biriga tegib ketgan dam Nafaslarim tiqilsa-da qizarmas yuzim. Qanday yaxshi, menga aslo qilmasdan parvo, Siz bermalol begonani turgaysiz quchib. Menga Jahannam selini ko‘rmaysiz ravo Sizni quchib bo‘sa olmay turganim uchun. Siz, azizim, laziz ismim endi hech qachon Na kun, na tun, hech qaerda aytmaysiz, tamom. Va kaliso tinchin buzib endi bir zamon Boshimizda yangramagay ilohiy kalom.</p> |

Darhaqiqat, bu she'r Marina Svetayevaning eng mashhur she'rlaridan, romans bo'lib kuylangan misralaridir. 1915-yilda yozilgan she'r, lekin tuyg'ular doimo eskirmaydi deganlaridek, qalbga yaqin hislar mujassam. Bu she'ning, tuyg'ularning o'z tarixi mujassam. Mazkur misralarda javobsiz sevgi, hissiyot, ayol qalbining tug'yonli suroni mavjud. Lirik qahramonning muhabbati qanchalik kuchli bo'lmasin, ayollarga xos noziklik, oshkora hislarini bayon qila olmaslik jihatlari ham ko'rsatib bera olgan. Lirik qahramon tuyg'ulari rivojlanib, shakllanib, she'r yakunida, hattoki, muhabbatining javobsiz qolganidan afsuslanish, o'z-o'ziga achinish mujassam. Shu bois ham mazkur she'r o'zbek tarjimonlari nigohini o'ziga qarata olgan. Natijada, Xurshid Davron, Nodira Afoqova, Gulnoz Mo'minova, Gulbahor Said G'ani, Oygul Suyundiqovalar tomonidan tarjima qilinadi. Bizningcha, eng yaxshi tarjima Xurshid Davronnikidir. Chunki unda ayol qalbi, uning latofati aniq saqlanib qolgan. Tarjimadagi so'zlar ham asl mohiyatni bera olgan. Gulnoz Mo'minova, Gulbahor Said qizi hamda Oygul Suyundiqovalarning tarjima ishlariga nazar tashlansa, so'zma-so'z tarjimaga ko'proq ahamiyat qaratganligi oydinlashadi. Shu bois ham mazkur ishimizda Xurshid Davron tarjimasidan foydalandik.

| | |
|--|---|
| <p>Спасибо вам и сердцем и рукой За то, что вы меня – не зная сами! – Так любите: за мой ночной покой, За редкость, встреч закатными часами, За наши не – гулянья под луной, За солнце, не у нас над головами, - За то, что вы больны – увы! – не мной, За то, что я больна – увы! – не вами!¹</p> | <p>Minnatdorman, ammo, dilim, qo'lim haqi, Siz O'zingiz ham sababini bilmasdan nechun Meni sevib, tunlar orom baxsh etganingiz, Shomlar tuhfa qilgan qisqa visollar uchun. Oy ostida yuz bermagan sayrlar haqi, Boshimizdan shams sochmagan nuqra-zar haqi, Men roziman, garchi, afsus, siz o'zgaga yor,</p> |
|--|---|

¹ Цветаева М. Сочинения. Том первый. – Москва: Художественная литература, 1984. – С.44.

Mazkur misralarda mehr-muhabbatga to'la ayol qalbining inja kechinmalari o'ta san'atkorona va mahorat bilan hayotiy chizilganki, bunda shoira poetik uslubining bir qator muhim qirralari o'zligidan darak berib turibdi. M.Svetayeva lirikasiga xos munosabat, ruhiy kechinmani atrofda narsa-predmetlar bilan muqoyasa qilgan holda detallashtirib tasvirlash, mavhum va abstrakt tushunchalarni aniq ham konkret ifoda etish, ifoda manerasining soddaligi, intim lirikaning ruhiy drama asosiga qurilishi kabi qator xos alomatlar o'zbek shoiralariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdiki, Halima Xudoyberdiyeva, Farog'at Kamolova, Zebo Mirzolar ijodida buning ilhombaxsh izlarini ko'rish mumkin.

Erkaklar adabiyoti va ayollar adabiyoti deganimiz garchi bir shartli tushunchalardek tuyulsa-da, biroq ularning o'ziga xos bir qator jihatlari mavjud. Bu, eng avvalo, mavzuga bo'lgan munosabatda, uning qay jihatlarga e'tibor berilishida, umuman olganda, erkaklar yo ayollarga xos talqin etishda – chunki olamni qabul qilish, obyektiv voqelikka aralashish, unga hissiyot bilan yo aqlan yondashish masalasi ikkala jinsda, albatta, bir xil emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Султон Иззат. Адабиёт назарияси. –Т.: Ўқитувчи, 2005. – 270 б.
2. Умутов Х. Таҳлил чизгилари. Т.: “Muharrir” нашриёти, 2013. – 311 б.
3. Теория литературы: Учеб. пособие для студ. филол. фак. высших учебных заведений: В 2 т. / Под ред. Н.Д. Тмарченко. – М.: Изд. центр “Академия”, 2004. – 344 с.
4. Цветаева М. Сочинения. Том первый. Москва, “Художественная литература”, 1984. – 35 с.
5. Чуковская Л. Записки об Анне Ахматовой // Нева: 1989.-№6. - 38 с.
6. Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2004. –С.406.

Zayniddinov Ma'rufjon Farxodjon o'g'li
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchi
marufzayniddinov7@gmail.com
+99890.477-26-94

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA KINOYANING IJTIMOIIY TA'SIRI

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri — Abdulla Qahhor ijodidagi kinoya san'atining ijtimoiy funksiyasi tahlil qilinadi. Yozuvchining hikoya va qissalarida kinoya yordamida berilgan ijtimoiy muammolar, inson xarakterlari va jamiyatdagi illatlar ochib beriladi. Muallifning kinoya vositasida o'quvchida tanqidiy tafakkurni shakllantirishga qaratgan sa'y-harakatlari ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qahhor, kinoya, ijtimoiy tanqid, realizm, adabiy tahlil, xarakter, jamiyat.

Аннотация: В данной статье рассматривается социальная функция искусства иронии в творчестве одного из крупнейших представителей узбекской литературы — Абдуллы Каххара. В рассказах и повестях писателя посредством иронии раскрываются социальные проблемы, особенности человеческих характеров и недостатки общества.

Также научно анализируются усилия автора по формированию критического мышления у читателя с помощью иронических приёмов.

Ключевые слова: Абдулла Каххар, ирония, социальная критика, реализм, литературный анализ, характер, общество.

Annotation: This article analyzes the social function of irony in the works of one of the prominent figures of Uzbek literature — Abdulla Qahhor. Through irony in his short stories and novellas, the author reveals various social problems, human character traits, and societal flaws. The article also provides a scholarly examination of the writer's efforts to cultivate critical thinking in readers through the use of irony.

Key words: Abdulla Qahhor, irony, social criticism, realism, literary analysis, character, society.

O'zbek adabiyotida kinoya usuli orqali jamiyatdagi muammolarni ko'rsatishda katta mahorat bilan ishlagan ijodkorlar kam emas. Ammo bu yo'nalishda **Abdulla Qahhorning** tutgan o'rni alohida. U o'z asarlarida kinoyani kuchli adabiy vosita sifatida ishlatgan holda, faqat kulgi emas, balki ijtimoiy o'zgarishlarga undovchi vosita sifatida ham namoyon qilgan. Uning ijodi o'zbek realizmi taraqqiyotida muhim bosqich bo'lib, kinoyaning estetik va g'oyaviy yuklamasini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Kinoya va uning adabiy funksiyasiga qarasa. Kinoya – bu ikki qavatli ma'no ifodalovchi uslubiy vosita bo'lib, ochiq aytilgan fikr va yashirin, lekin tushunarli teskari ma'no orqali ijtimoiy tanqidni kuchaytiradi. Abdulla Qahhor bu uslubni o'z ijodida nafaqat kulgi uyg'otish, balki o'quvchini o'ylantirish, mavjud illatlarni ko'rsatish, ularni bartaraf etish zarurligini anglatish vositasi sifatida qo'llagan. Masalan: “Sinchalak” hikoyasida muallif jamiyatdagi tanqidiy kayfiyatni bir bola xarakteri orqali tasvirlaydi. Bola og'zidan chiqarilgan sodda, ammo chuqur kinoyaviy jumlar orqali kattalar olamidagi yolg'on, ikkiyuzlamachilik ochiladi. Bu yerda Qahhor kinoyani bolalarcha soddalik va samimiyat orqali kuchaytiradi, yoki “Mayiz yemagan xotin” hikoyasi olsak unda ayol obrazi tilidan berilgan bo'lib, voqealar uning o'zini halol, pok, e'tiqodli inson sifatida ko'rsatishga urinishlari orqali yoritiladi. Ayol doimiy ravishda “Men mayiz yemaganman” deya o'zini boshqa ayollardan ustun qo'yishga harakat qiladi. Aslida esa bu da'volarning ortida ikkiyuzlamachilik, riyokorlik va soxta or-nomus yashiringan.

¹Hammaning diqqati xotinchka kiyingan va eshik yonida yerga qarab turgan yigitga jalb bo'ldi. Yana jimlik hukm surdi. Bu sukunat og'ir tegirmon toshi bo'lib mulla Norqo'zini yanchib yubordi. U, devor ustidagi qizga qarab, bo'g'iq tovush bilan o'shqirdi:

– Sen gapirma! Senga kim qo'yibdi gapirishni! Usta Mavlonning o'g'lidan bir hovuch mayiz olganingni o'z ko'zim bilan ko'rganman!.. Hamma kulib yubordi. Tomdan kimdir qichqirdi:
– Ha, bu kishining xotini mayiz yemagan!

Muallif hikoyada bu holatlarni bevosita tanqid qilmaydi. Aksincha, xalqona til, yumor va badiiy kinoya orqali o'quvchini o'ylantiradi. Bu esa Qahhorning yozuvchilik mahoratini va kinoyadan foydalana olish uslubini ko'rsatadi. Ayol obrazi bu yerda shunchaki bir xotinning emas, balki **jamiyatdagi o'zini “halol” ko'rsatishga intilayotgan, ammo botini boshqa bo'lgan kishilarning umumiy timsoli sifatida talqin etiladi.** Uning “mayiz yemaganlik” da'vosi, aslida, o'zini oqlash va yashirish vositasiga aylangan. **Kinoyaning estetik va tarbiyaviy ta'siri haqida to'taladigan bo'lsak** Qahhor kinoyani nafaqat tanqid, balki **estetik zavq bag'ishlovchi** vosita sifatida ham ishlatgan. Uning yumori o'quvchini charchatmaydi, aksincha, o'ylantiradi.

¹ Abdulla Qahhor “Anor” Qissa va Hikoyalar Toshkent –2012 91-b

Bu kinoyaning **ta'sirchanlik kuchini** ko'rsatadi. Uning obrazlari orqali o'quvchi nafaqat kuladi, balki jamiyatdagi o'xshash holatlar ustida fikr yuritishga majbur bo'ladi. Xulosa qilib aytganda Abdulla Qahhor ijodidagi kinoya – bu oddiy kulgi emas, balki ijtimoiy tanqidning chuqur ifodasi, o'zbek adabiyotida tanqidiy tafakkurni rivojlantirgan muhim adabiy vositadir. Yozuvchining kinoyaviy uslubda yozilgan asarlari bugungi o'quvchini ham befarq qoldirmaydi. Bu uslub orqali u jamiyatdagi muammolarni ilgari surgan, insonni fikrlashga, o'zgarishga chorlagan. Shunday qilib, kinoya – Qahhor ijodining asosiy estetik kuchlaridan biri bo'lib, uning adabiy merosini chuqur anglashda kalit vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Qahhor “Anor” Qissa va Hikoyalar G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent –2012
2. Qahhor, A. (2009). *Tanlangan asarlar* (3 jildlik). 1-jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
3. Rajabov, A. (2012). *O'zbek adabiyotida kinoya va istehzo*. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Qo'chqorov, A. (2010). *Adabiy tahlil asoslari*. Toshkent: Yozuvchi nashriyoti.
5. [https:// wikipedia .uz](https://wikipedia.uz)

Kobilov Nomoz O'rolovich
Sharof Rashidov nomidagi SamDU AL
E-mail: nomozkobilov@gmail.com
Telefon:+998973985007

SOTSIOLINGVISTIKANING TIL VA JAMIYATDAGI O'RNI

Annotatsiya: Mazkur maqolada sotsiologvistikaning predmeti, vazifalari va uning til hamda jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Til jamiyat hayotining ajralmas qismi sifatida insonlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlash, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish hamda milliy o'zlikni shakllantirishda muhim o'rin tutishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Til va jamiyat, sotsiologvistika, tilning ijtimoiy funksiyasi, madaniy aloqa, til me'yori, jamiyat taraqqiyoti, tilshunoslik.

Ma'lumli, til insoniyat tarixining eng qadimiy va muhim ijtimoiy hodisalaridan biridir. U nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatni birlashtiruvchi, milliy o'zlikni shakllantiruvchi va madaniyatni avlodlarga yetkazuvchi asosiy omil hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti bilan birga til ham o'zgarib, rivojlanib boradi. Ana shu jarayonlarni o'rganuvchi fanlardan biri sotsiologvistikadir.

Sotsiologvistika - til va jamiyatning o'zaro aloqadorligini, tilning ijtimoiy qatlamlarda qanday ishlatilishini, jamiyatdagi turli guruhlar nutqidagi farqlarni o'rganadigan tilshunoslik sohasi. Tilning bu zamonaviy sohasi XX asrning ikkinchi yarmida alohida yo'nalish sifatida shakllangan bo'lsa-da, uning ildizlari qadimiy davrlarga borib taqaladi. Natijada 1963-yildan boshlab yangi bir tadqiqot yo'nalishlari shakllana boshladi. Bu yo'nalishning termin sifatida fanga kiritilishi G.Karri (AQSh 1952-yil) nomi bilan bog'liq. Karri bu yangi sohani Sotsiologvistika deb nomladi:

“Sotsiologvistika(lot societas - jamiyat va lingvistika) - tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, tilga ta'sir ko'rsatish mexanizmi hamda

tilning jamiyat hayotida tutgan o'rnini bilan bog'liq ko'plab muammolar majmuini o'rganuvchi ilmiy nazariy soha hisoblanadi" (1).

1950-yillardan keyingi sotsiolingvistik tadqiqotlar orasida Jon Gumpez va uning muloqotga bag'ishlangan etnografik nazariyalari, Joshua Fishman va uning til sotsiologiyasi, Vilyam Labovning "lingvistik variantlar" ta'limoti ushbu sohaning vujudga kelishiga asos bo'lgan izlanishlardan hisoblanadi. 1960-yillarga kelib esa tilni siyosiy aloqani muhim bo'lagi sifatida talqin qilishga urg'u berildi. Tilni siyosiy jihatdan talqin qilish va uni planlashtirishga doir ilmiy ishlarni Haugen (1966), Kloss (1966) va Fishman (1968)ning tadqiqotlarida kuzatish mumkin. Ulardagi asosiy umumiylik asarlarning barchasida tilni planlashtirish birinchi muhim vazifa sifatida qaralishi edi. Xususan, Risento shunday deydi: "men ataylab "til siyosati"ni "tilni planlashtirish" degan o'ta murakkab atama sifatida ishlataman. Chunki til siyosati tadqiqotlari nafaqat hukumat va boshqa siyosiy tashkilotlarning rasmiy va norasmiy hujjatlari bilan, balki tildan foydalanish va ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi tarixiy va madaniy jarayonlar bilan ham bog'liq". Risentoning so'zlariga ko'ra, bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan hal qilinishi kerak bo'lgan eng muhim savol: "nima uchun odamlar turli sohalarda belgilangan funksiyalar uchun ma'lum tillar va variantlardan foydalanishni afzal ko'rishadi (yoki ulardan foydalanishni to'xtatadilar) va bu tanlovlarga qanday omillar ta'sir qiladi, shuningdek qanday qilib ular rasmiy til siyosatiga oid qarorlarni qabul qilishga ta'sir ko'rsatadi (mahalliy, milliy yoki millatlararo)". Shubhasiz, mana shu savollarga javob topish orqali til siyosatining nima ekanligini, uning asosiy mazmun - mohiyati va maqsadlarini anglash mumkin (2).

Bugungi kunga qadar dunyo tilshunosligida bu sohaga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Bugungi globallashuv davrida sotsiolingvistikaning dolzarbligi yanada ortib bormoqda.

Sotsiolingvistikaning predmeti va vazifalari:

Sotsiolingvistikaning asosiy predmeti - tilning jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifalarini, jamiyatdagi turli qatlam va guruhlarining tilga munosabati hamda til orqali yuzaga keladigan ijtimoiy jarayonlarni o'rganishdir. U quyidagi masalalar bilan shug'ullanadi:

tilning ijtimoiy funksiyalari;

ijtimoiy dialektlar, jargonlar, shevalar;

ikki tillilik (bilingvizm) va ko'p tillilik (polilingvizm) masalalari;

til siyosati va til rejalashtirish;

til va milliy o'zlik masalalari;

tilning rasmiy va norasmiy uslublari.

Demak, sotsiolingvistika nafaqat tilshunoslikning nazariy sohasiga, balki jamiyat taraqqiyoti, ta'lim, davlat boshqaruvi, madaniyat va siyosatga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Til va jamiyat munosabati:

Til jamiyatda mavjud bo'lmaganida, insonlar o'rtasida aloqa qilish, tajriba almashish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish imkoni bo'lmagan bo'lar edi. Shuningdek, jamiyat ham tildan tashqarida shakllana olmaydi. Shuning uchun til va jamiyat bir-birini taqozo etuvchi tushunchalardir.

Til jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, kasbiy faoliyat, hududiy farqlar asosida turli ko'rinishlarga ega bo'ladi. Masalan, ishchi sinfi, ziyolilar, yoshlar yoki professional guruhlarining o'ziga xos nutq uslubi mavjud. Shu orqali til jamiyatning ijtimoiy strukturasi ham aks ettiradi.

Bilingvizm va polilingvizm masalalari:

Bugungi globallashuv davrida ikki tillilik va ko'p tillilik muammolari dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bilingvizm - bir shaxs yoki jamiyat doirasida ikki tilning faol qo'llanishidir. Masalan, O'zbekistonda o'zbek va rus tillarining keng qo'llanishi bunga misol bo'la oladi. Polilingvizm esa ko'p tillilik jarayoni bo'lib, xalqaro miqyosda ingliz, fransuz, arab, xitoy tillarining tarqalishi orqali ko'zga tashlanadi. Sotsiolingvistika bilingvizmning ijtimoiy va psixologik oqibatlarini, til o'rganish va til siyosatiga ta'sirini ham o'rganadi.

Til siyosati va til rejalashtirish:

Til siyosati - davlat tomonidan ma'lum bir til yoki tillarga nisbatan olib boriladigan siyosiy choralaridir. Masalan, O'zbekistonda o'zbek tilining davlat tili maqomini mustahkamlash, uni ta'lim va boshqaruv sohasida rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qonun va dasturlar til siyosatining amaliy ko'rinishlaridir.

Til rejalashtirish esa tilning lug'aviy boyligini kengaytirish, imlo qoidalarini takomillashtirish, sohalar bo'yicha terminologiyani rivojlantirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Sotsiolingvistikaning amaliy belgisi (ya'ni, amaliy xususiyati) shundaki, u tilning turli ijtimoiy guruhlarda, vaziyatlarda va sharoitlarda qanday ishlatilishini aniqlashga yordam beradi.

Til jamiyat hayotining ajralmas qismidir. Jamiyat tildan foydalanmasdan yashay olmaydi, til esa jamiyat ta'sirisiz rivojlana olmaydi. Sotsiolingvistika bu o'zaro bog'liqlikni chuqur o'rganib, til siyosatini shakllantirish, milliy o'zlikni mustahkamlash va nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim ilmiy asos yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, bugungi globallashuv davrida sotsiolingvistik tadqiqotlar nafaqat tilshunoslar, balki siyosatchilar, pedagoglar va jamiyatshunoslar uchun ham zarur. Chunki tilning jamiyatdagi o'rni - bu millatning o'zini anglash darajasi, madaniy merosi va kelajak taraqqiyotining poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Esonturdiyeva D. Jahon va o'zbek tilshunosligida sotsiolingvistik tadqiqotlar va ularda til siyosati tushunchasiga yondashuvlar. //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2024, №5. - b 145-156.
2. Ricento T. Historical and theoretical perspectives in language policy and planning. Journal of Sociolinguistics, 4(2). — London, 2015.
3. Usmanova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. — Toshkent, 2014.
4. ChatGPT.

Ochilova Noila Farmonovna
(SamSIFL)

THE IMPORTANCE OF REALIS AND IRREALIS CONSTRUCTIONS

Annotation: This article shows the constructions and functional differences between Realis and Irrealis in linguistics. the Realis / irrealis distinction noted in pronominal prefix forms of verbs in Uzbek (e.g.) may not be functionally compatible with other morphological differences in English. the distribution of irrealis information in English and Uzbek into lexical categories within a sentence is not considered to be the opposite of a verb. A pronoun meaning a subject can mean a secondary meaning to represent someone as a subject of speech.

Key words: prefix, lexical category, functional study, pronominal prefix, linguistic unit, irrealis category.

The functional differences between Realis/irrealis constructs make it possible to view many problematic-looking issues of cross-language comparison from a new perspective. That is, the functional properties of any given Realis/irrealis distinction not only depend on language, but also come from grammatical markers. Thus, the Realis / irrealis distinction recorded in the pronominal prefix forms of verbs in Uzbek (e.g.) may not be functionally compatible with other morphological differences in English. More precisely, what we expect from two systems is the basis for dividing some part of the conceptual space in modality into two opposite categories.

It is no coincidence that Reesink emphasizes the importance of accuracy in the use of terms that reflect the meanings inherent in linguistics in a given language (Reesink's 2008). The reason is, if linguists are convinced that the same terms are used to represent functionally distinct states, one can trace the origin of the problem of negating differences between other comparable systems. Linguists argue that the use of the terms "Realis" and "irrealis" in some languages is incorrect, a condition that can disrupt the process of analyzing the above terms. It is important to take into account this situation.

In his paper, Cristofaro warns of "misrepresentation of the distribution properties of categories defined in certain languages as" irrealis" " (Cristofaro 2012: 134). As with the use of many terms in linguistics, I agree with Cristofaro's argument that there are a number of grammatical ambiguities that lead to misrepresentation of information when using the terms "Realis" and (in particular) "irrealis". At the same time, when linguists use the descriptive labels "Realis" and (especially) "irrealis" in relation to certain constructions, it should usually be considered that it is possible to explain and compare what it means, even if not everything is defined as such.

Nevertheless, Cristófaró's view that caution should be exercised when using modal category terms is justified, the reason is that cases of the term "irrealis" being used when expressing different meanings can be observed. However, there is also a downside to this. If we consider the conceptual space of the Realis and irrealis categories only in terms of more theoretical categories (e.g., with respect to tense, aspect, mood and negation) and related concepts, we can take the opportunity to understand the Realis and irrealis category, among categories that are considered irrelevant in linguistics. For example: thagin comforted my face, but waited for the foot of those who came and went to be disgraced, I was here houses that bachki's mother would come to me for bulgapi and believe in Kurish. (Ghafur Ghulam, Yodgor, P. 141)

Her mother may have been Blatchford's third cousin and her father the younger son of a baronet, but that placed them firmly in the gentry. So why had she taken the attentions of Pembroke's son seriously? He had merely been amusing himself with a harmless holiday flirtation—harmless in his eyes. (Allison Lane, CHRISTMAS COLLECTION, 4)

For example, if one characterizes the use of a lexical slice with a suffix meaning "probable" in a sentence of a given language as an "irrealis" construct, it is incorrect to compare this with a language that does not consider Irrealis as a Category. The breakfast room was nearly full. By the time he had filled a plate, the only seat left was next to Victoria. (Allison Lane, CHRISTMAS COLLECTION, 12); as if taking the giraffe with Nina, the jinniying gag fell on the Jinnie, stopping from beating people. (Ghafur Ghulam, P. 159; When a wife leads, I lose the tip of kalavam! (Abdullah Qahhor. "Sinchalak", P. 83;

If only he had known she was going. They still would have partied, but at least he could have bidden her farewell. She had felt jilted, which must have hurt badly. He definitely owed her that apology. (Allison Lane, CHRISTMAS COLLECTION, 16). In the languages being

compared, the irrealis category refers to the general semantic components of situations, the constructive combination of linguistic units of different levels at different levels. In most cases, the meaning of irrealis is applied to units of language that represent different levels of event-phenomena that do not belong to Real reality. The variety of linguistic units representing the meaning of irrealis is also related to their expression in different terms.

The application of the Irrealis category can include meanings covering all types and levels of the negation meaning in different contexts: temporal or temporal reference (Future); Type and/or type of tense (unfinished states, processes in the media, recurring situations in the past or present); modality (hypothetical, instructive); and negation (imperfect perception). For instance, Sylvia giggled, recalling other incidents from the past. Alice basked in her amity for several minutes before Sylvia's children called her away to witness some daring feat. It had been years since she had been treated as an equal. Even the other governesses were wary of her, unsure whether she was one of them or one of the family. (Allison Lane, CHRISTMAS COLLECTION, 17). "I waited at the folly until after dark, but you never came," she admitted. "I could hardly ask where you were without revealing our assignation, but I overheard one of the grooms say that you had left the day before. (Allison Lane, CHRISTMAS COLLECTION, 19)

In modern linguistics, special attention is paid to the description of the meaning of a sentence. In this aspect, there are different approach methods in the analysis of sentences, but the system of specific concepts has not yet been developed to the end, and therefore the task of identifying and systematizing the semantic types of sentences is considered relevant.

Thus, the distribution of irrealis information in English and Uzbek into lexical categories within a sentence is not considered to be the opposite of a verb. A pronoun meaning a subject can mean a secondary meaning to represent someone as a subject of speech. This situation is greater than in all other referents in this segment of speech, that is, in the verb.

Used of literature:

1. Bybee J. 'Irrealis' as a Grammatical Category'. *Anthropological Linguistics* 40: 1998. –P 257—271.
2. Bybee, Joan L. (1995). 'The Semantic Development of Past Tense Modals in English;
3. Farmonovna O. N. *Semantic Structures of English Phraseological Units and Proverbs with Proper Names.* – 2014.

Axtamova Farangis
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi
axtamovafarangis@gmail.com

ADABIY XRESTOMATIYALARNING BADIY ADABIYOTDA TUTGAN O'RNI

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiy xrestomatiyalarning badiiy adabiyotda tutgan o'rni yoritilgan. Unda xrestomatiyalarning ma'naviy tarbiya, ilmiy-tadqiqot, estetik tafakkurni shakllantirish hamda ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, milliy va jahon adabiyotidagi xrestomatiyalar tajribasi qiyosiy ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xrestomatiyalar adabiy merosni avloddan avlodga yetkazuvchi, badiiy tafakkurni rivojlantiruvchi asosiy manba sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: adabiy xrestomatiya, badiiy adabiyot, ma'naviy tarbiya, estetik tafakkur, ta'lim tizimi, adabiyotshunoslik.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль литературных хрестоматий в художественной литературе. Анализируется их значение в духовно-нравственном воспитании, научных исследованиях, формировании эстетического мышления и образовательном процессе. Кроме того, сопоставляется опыт использования хрестоматий в национальной и мировой литературе. В результате исследования хрестоматии оценены как важный источник передачи литературного наследия и развития художественного мышления.

Ключевые слова: литературная хрестоматия, художественная литература, духовное воспитание, эстетическое мышление, система образования, литературоведение.

Annotation. This article examines the role of literary anthologies in fiction. It analyzes their significance in moral and spiritual education, academic research, the development of aesthetic thinking, and the educational process. The study also provides a comparative overview of anthologies in national and world literature. The findings show that anthologies serve as an essential source for preserving literary heritage and fostering artistic thinking.

Key words: literary anthology, fiction, moral education, aesthetic thinking, education system, literary studies.

Adabiy xrestomatiya — bu badiiy adabiyotning eng sara namunalaridan tuzilgan to‘plamdir. U turli davrlar, janrlar, uslublar va mualliflarning asarlaridan parchalar yoki to‘liq matnlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Xrestomatiyalar odatda o‘quv maqsadlarida, adabiyotni o‘rganish, badiiy tahlil qilish va adabiy didni shakllantirish uchun ishlatiladi.

Adabiy xrestomatiyalarning asosiy vazifalari:

Ma’rifiy: O‘quvchilarni adabiyotning eng muhim namunalari bilan tanishtirish.

• Ta’limiy: Badiiy asarlarni tahlil qilish, adabiy janrlar va uslublarni o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish.

• Estetik: O‘quvchilarda badiiy didni rivojlantirish, go‘zallikni his qilish qobiliyatini oshirish.

• Madaniy: O‘quvchilarni milliy va jahon adabiyoti merosi bilan tanishtirish, ularning madaniy savodxonligini oshirish.

Adabiy xrestomatiyalarning badiiy adabiyotda tutgan o‘rni:

1. *Adabiyotni ommalashtirish:* Xrestomatiyalar adabiyotning eng yaxshi namunalarini keng ommaga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Ular yordamida o‘quvchilar va kitobxonlar adabiyotning turli qirralari bilan tanishish, o‘zlariga yangi mualliflar va asarlarni kashf qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. *Adabiy ta’limni qo‘llab-quvvatlash:* Xrestomatiyalar maktablar, kollejlarda va universitetlarda adabiyot darsliklari sifatida keng qo‘llaniladi. Ular o‘quvchilarga adabiyotni tizimli o‘rganishga, adabiy asarlarni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

3. *Adabiy merosni saqlash:* Xrestomatiyalar adabiyotning eng muhim asarlarini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Ular yordamida unutilish xavfi ostida turgan asarlar qayta nashr etiladi va o‘quvchilar e’tiboriga havola qilinadi.

4. *Adabiy tanqidni rivojlantirish:* Xrestomatiyalarga kiritilgan asarlar odatda adabiyotshunoslar va tanqidchilar tomonidan tahlil qilinadi va baholanadi. Bu adabiy tanqidning rivojlanishiga, adabiy jarayonni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

5. *Adabiy didni shakllantirish:* Xrestomatiyalar o‘quvchilarga adabiyotning eng yaxshi namunalarini taqdim etish orqali ularning adabiy didini shakllantirishga, go‘zallikni his qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Xrestomatik asarlarning asosiy xususiyatlari:

1. Maqsadi: O'quvchilarga ma'lum bir sohadagi muhim asarlar bilan tanishish imkoniyatini berish.

2. Tarkibi: Turli mualliflar va janrlarga oid parchalar yoki to'liq matnlar.

3. Tuzilishi: Odatda tematik yoki xronologik tartibda tuziladi.

4. Izohlar: Matnlar odatda izohlar, lug'at va tushuntirishlar bilan birga beriladi.

5. Tanlash mezonlari: Matnlar sifati, ahamiyati va o'quv maqsadlariga mosligi asosida tanlanadi.

Xrestomatiyalarning turlari:

- Adabiy xrestomatiyalar: Badiiy adabiyot namunalarini o'z ichiga oladi (she'rlar, hikoyalar, romanlardan parchalar va h.k.).

- Til xrestomatiyalari: Tilni o'rganish uchun mo'ljallangan matnlar (grammatik qoidalar, so'zlashuv iboralari va h.k.).

- Ilmiy xrestomatiyalar: Ma'lum bir fan sohasidagi asosiy asarlardan parchalar (tarixiy hujjatlar, ilmiy maqolalar va h.k.).

Xrestomatiyalar tarixidan:

Xrestomatiyalarning kelib chiqishi qadim zamonlarga borib taqaladi. Qadimgi Gretsiyada ritorika va notiqlik san'atini o'rgatish uchun namunaviy nutqlar to'plamlari tuzilgan. O'rta asrlarda esa diniy matnlar va avliyo hayotlari xrestomatiya vazifasini o'tagan. Xrestomatiyalar ayniqsa XIX asrda, ommaviy ta'limning rivojlanishi bilan keng tarqaldi. Bu davrda turli fanlar bo'yicha ko'plab xrestomatiyalar nashr etildi, ular maktablar va universitetlarda asosiy o'quv qo'llanmalari sifatida ishlatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov B. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 248 b.
2. G'ulomov A. Adabiyot nazariyasi va tanqidchilik. – Toshkent: Fan, 2014. – 232 b.
3. Abdurahmonov A. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Universitet, 2017. – 320 b.
4. Jo'raev M. Adabiyot darslarida xrestomatiyalar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 150 b.
5. Nurmonov A. Badiiy tafakkur va milliy o'zlik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 205 b.

Bekmirzayeva Dilrabo
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi
diliandjony@gmail.com

“KENTERBERI HIKOYALARI” DA TURFA TABAQALAR: CHOSERNING IJTIMOIY PORTRETI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Joffri Choserning “*Kenterberi hikoyalari*” asarida XIV asr ingliz jamiyatining turli tabaqalari aks ettirilishi tahlil qilinadi. Asardagi ritsar, ruhoni, savdogar, dehqon va ayol obrazlari orqali jamiyatning ijtimoiy portreti chiziladi. Choserning realizmga xos uslubi, uning yumor va ironiyadan foydalangan holda jamiyat kamchiliklarini ko'rsatishi maqolada alohida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Joffri Choser, Kenterberi hikoyalari, ingliz adabiyoti, realizm, ijtimoiy portret, XIV asr.

Аннотация: В данной статье рассматривается отражение различных социальных слоёв английского общества XIV века в произведении Джеффри Чосера «Кентерберийские рассказы». Через образы рыцаря, духовенства, торговцев, крестьян и женщин автор создаёт яркий социальный портрет эпохи. Особое внимание уделяется реалистическому стилю Чосера, его использованию юмора и иронии для раскрытия недостатков общества.

Ключевые слова: Джеффри Чосер, Кентерберийские рассказы, английская литература, реализм, социальный портрет, XIV век.

Annotation. This article explores the representation of various social classes of 14th-century English society in Geoffrey Chaucer's "*The Canterbury Tales*." Through the depictions of the knight, clergy, merchants, peasants, and women, Chaucer constructs a vivid social portrait of his age. Special attention is given to Chaucer's realistic style, as well as his use of humor and irony to highlight the flaws of society.

Key words: Geoffrey Chaucer, The Canterbury Tales, English literature, realism, social portrait, 14th century.

XIV asr ingliz adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biri bo'lgan Joffrey Choser o'zining mashhur asari — "Kenterberi hikoyalari" orqali o'rta asr ingliz jamiyatining keng ijtimoiy manzarasini yaratadi. Bu asar oddiygina haj safariga chiqqan ziyoratchilar hikoyalaridan iborat bo'lib, ular turli tabaqalarga mansub odamlar obrazida jamiyatning o'ziga xos ijtimoiy portretini taqdim etadi. Choser o'z zamonasidagi axloqiy qarashlar, insoniy fazilatlar va illatlarni satirik, ba'zan esa idealizatsiya qilingan tarzda ifodalaydi. "Kenterberi hikoyalari"ning eng muhim xususiyatlaridan biri — turfa tabaqalarni birlashtirgan "xalq kitobi" bo'lishidir. Unda nafaqat zodagonlar va ruhoniylar, balki hunarmandlar, savdogarlar, dehqonlar, hatto o'sha davr jamiyatida pastroq qatlamga mansub kishilar ham ishtirok etadi. Shunday qilib, Choser jamiyatni faqat bitta ijtimoiy qatlam nuqtayi nazaridan emas, balki ko'p ovozli manzara sifatida yoritadi. Choserning ziyoratchilari ichida:

Ruhoniylar tabaqasi vakillari: Prioressa (rohiba), Parson (qishloq ruhoniysi), Friar (sayyor rohib). Bu obrazlar orqali Choser diniy tabaqaning ikki qirrasini ko'rsatadi — samimiy, halol xizmat qiluvchilar va manfaatparast, yolg'onchi ruhoniylar.

Zodagonlar va ritsarlar tabaqasi: Ritsar va uning o'g'li — squayer. Ritsar obrazi o'rta asr ritsarlik fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan ideal qahramon sifatida tasvirlanadi.

Savdogar va hunarmandlar tabaqasi: Savdogar, Millar (tegirmonchi), Carpenter (duradgor), Dyer (bo'yovchi), Weaver (to'quvchi). Ularning obrazlari oddiy xalqning kundalik hayoti, kasbi va ijtimoiy mavqeini ko'rsatadi.

Oddiy xalq vakillari: Plowman (dehqon) halol mehnatkash sifatida yuksak maqtovg'a sazovor bo'ladi.

Ayollar obrazi: "Wife of Bath" (Bathlik ayol) o'zining erkin xarakteri, hayotiy tajribasi va erksevarligi bilan jamiyatdagi ayolning o'ziga xos o'rnini namoyish etadi.

Choserning ijtimoiy portreti. Choser o'z asarida o'rta asr ingliz jamiyatining miniatyura portretini yaratadi. Ziyoratchilar birgalikda safarga chiqqan bo'lsalar-da, ularning har biri o'z tabaqasining qadriyatlarini, hayotiy qarashlari va xulq-atvorini ifodalaydi. Asar orqali biz o'sha davr jamiyatining: *axloqiy qarama-qarshiliklari* (halol dehqon vs. poraxo'r ruhoniysi), *ijtimoiy tengsizliklari* (zodagon va oddiy xalq o'rtasidagi tafovut), *shaxsiy erkinlik masalalari* (ayolning jamiyatdagi o'rni) kabi muammolarni ko'ramiz.

Choser nafaqat voqealarni hikoya qiladi, balki **satira va yumor** orqali o'z davridagi illatlarni fosh qiladi, shu bilan birga insoniy fazilatlarini ulug'laydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chaucer, Geoffrey. *The Canterbury Tales*. Edited by Larry D. Benson. Oxford: Oxford University Press, 1987.
2. Brewer, Derek. *Chaucer and His World*. London: Eyre Methuen, 1977.
3. Pearsall, Derek. *The Life of Geoffrey Chaucer: A Critical Biography*. Oxford: Blackwell, 1992.
4. Robertson, D. W. *A Preface to Chaucer: Studies in Medieval Perspectives*. Princeton: Princeton University Press, 1962.
5. Daiches, David. *A Critical History of English Literature*. Vol. 1. London: Secker & Warburg, 1960.

Tursunmuratova Marjona Farhod qizi

SamDChTI, Sharq tillar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
3-bosqich, 2323-guruh talabasi
farhodovnamarjona3@gmail.com
+998995768505

BUGUNGI KUNDA TILSHUNOSLIK VA TIL SOHASIGA MUNOSABAT

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikka bo‘lgan yondashuvlar, ularning nazariy asoslari va texnologik rivojlanishlar kontekstida tildagi o‘rni tahlil etilgan. Tilshunoslikning tarixiy rivojlanish bosqichlari, xususan, Ferdinand de Sossyur va V. fon Gumboldtning til haqidagi qarashlari yoritilgan hamda bu nazariyalar bugungi kunda qanday ilmiy va texnologik yo‘nalishlar, xususan, kompyuter lingvistikasi bilan bog‘lanayotganiga e‘tibor qaratilgan. Kompyuter lingvistikasi matnni tahlil qilish, tarjima qilish, tilni avtomatik tushunish jarayonlariga qanday ta‘sir ko‘rsatayotgani yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: til, tafakkur, til nazariyasi, lingvistika, kompyuter lingvistikasi, semantika, raqamli til, Sossyur, Gumbolt.

Annotation: This article explores modern approaches to linguistics, analyzing their theoretical foundations and the role of language in the context of technological development. It examines the historical evolution of linguistic thought, particularly focusing on the ideas of Ferdinand de Saussure and Wilhelm von Humboldt, and how these theories are being connected to current scientific and technological directions, especially in the field of computational linguistics. The paper highlights the role of computational linguistics and artificial intelligence in processing language, analyzing texts, translating, and enabling automatic language comprehension.

Keywords: language, thinking, language theory, linguistics, computational linguistics, semantics, digital language, Saussure, Humbolt

Аннотация: В данной статье проанализированы современные подходы к лингвистике, их теоретические основы и роль языка в контексте технологического развития. Рассмотрены этапы исторического развития лингвистики, в частности, взгляды Фердинанда де Соссюра и Вильгельма фон Гумбольдта на язык, а также уделено внимание тому, как эти теории связываются с современными научными и технологическими направлениями, в особенности с компьютерной лингвистикой.

Освещается влияние компьютерной лингвистики на процессы анализа текста, перевода и автоматического понимания языка.

Ключевые слова: язык, мышление, теория языка, лингвистика, компьютерная лингвистика, семантика, цифровой язык, Соссюр, Гумбольдт.

Til — bu kishilik jamiyati mahsuli bo‘lib, jamiyatda kishilarning aloqa qilishiga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Mashhur nemis tilshunos olimi Gumboldt tilga “Til — bu inson tafakkurining doimiy yaratuvchisi (energiya) bo‘lib, u borliqni aks ettirish vositasi emas, balki uni yaratadi va shakllantiradi.”- deb ta’rif beradi. Uning fikricha “Til — tafakkurni shakllantiruvchi organ.” [3, 2] Shu sababli u tilni nafaqat ifoda vositasi, balki tafakkurning faol manbai sifatida ko‘radi. Tilshunoslik, tilni o‘rganadigan ilmiy soha sifatida faqatgina kommunikatsiya vositasi bo‘lib qolmay, balki insoniyat tarixining, madaniyatining va psixologiyasining chuqur tushunchalarini aks ettiruvchi muhim soha hisoblanadi. Bugungi kunda tilshunoslikda til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki madaniyatni shakllantiruvchi va aks ettiruvchi vosita sifatida qaraladi.

Misol uchun, tilshunoslar Edward Sapir va Benjamin Lee Whorfning fikrlarini ko‘rib chiqsak, ular til va tafakkur o‘rtasidagi aloqani tahlil qilib, tilning dunyoqarashni qanday shakllantirishini o‘rganishdi. [1,1] Ularning fikricha, tilning tuzilishi va so‘zlarning ma’nosi muayyan madaniyatning asosiy jihatlariga, ularning hayot tarziga va qarashlariga bog‘liq bo‘ladi. Til ayrim shaxslargagina emas, balki butun jamiyatga xizmat qilganda namoyon bo‘ladi. Bu tilshunoslarning "til — insonning dunyoqarashini aks ettiruvchi vosita" degan fikrlarini isbotlaydi. Ko‘pchilik olimlar tilni biror hodisa deb tushunishadi va uni shu hodisaga bog‘lab o‘rganishadi. Ammo shveysariyalik olim Ferdenand de Sossyur, tilni o‘z qurilishiga ega bo‘lgan, tamomila mustaqil hodisa deb bilgan. [2,1] U tilga aniq bir ta’rif berilmaganligini ta’kidlab, tilni o‘zining o‘rganadigan alohida fani bo‘lishi kerak degan fikrni ilgari surdi. Bu nazariya tilshunoslikning mustaqil fan sifatida shakllanishiga turtki bo‘ldi. F. de Sossyur o‘z ta’limotlarida tilni boshqa fanlar emas, balki o‘zining alohida fani bo‘lishi kerak degan g‘oyani ilgari surdi. Uning fikricha, til — bu tizim, unda har bir element boshqa elementlar bilan bog‘langan holda ishlaydi. [4,3] Sossyurning bu g‘oyasi tilshunoslikni mustaqil fan sifatida shakllanishiga olib keldi va bugungi tilshunoslik nazariyasining poydevorini yaratdi. Shunday qilib, tilshunoslik yoki lingvistika (lotin tilida lingua — til) til nazariyasini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan fan bo‘lib, u tilning ijtimoiy tabiatini, vazifasini, ichki tuzilishini, tillarning faoliyat qonunlarini va tarixiy taraqqiyotini o‘rganadi. Tilshunoslikning bugungi kunda mustaqil fan sifatida shakllanishi davom etmoqda va uning nazariy asoslari rivojlanmoqda. Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot-texnologiyalari barcha sohalarga kirib bormoqda va bu sohalarning rivojlanishini tezlashtirmoqda. Shu sababli, tilshunoslik ham kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydigan sohalardan biriga aylangan. Kompyuter lingvistikasi, tilning imkoniyatlaridan foydalanishda bizga katta imkoniyat va qulayliklar yaratadi. Davr o‘tishi bilan tilda muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘ladi va bu tabii jarayon sifatida tushunilishi kerak. Bugungi kunda tilshunoslikda kompyuter tarjimasini, tahrir va tahlil dasturlari, elektron lug‘atlar kabi yangi imkoniyatlar yuzaga keldi. Internet imkoniyatlaridan to‘liq foydalanib, o‘zbek tilining lug‘at tizimini, iboralar lug‘atini chuqurroq tadqiq etish zarurati paydo bo‘lmoqda. Kompyuter lingvistikasi, kompyuter tizimi imkoniyatlarining tilshunoslik sohasiga tadbiiq qilinishi natijasida yuzaga kelgan fan bo‘lib, u tillar o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bugungi kunda o‘zbek tilining mavqeini yuksaltirish, nufuzli tillar qatoriga olib chiqish, til o‘rganish va

o'rgatishda kompyuter lingvistikasi fani muhim ahamiyat kasb etadi. Kompyuter lingvistikasi nafaqat tilshunoslik, balki boshqa sohalar taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, avtomatik tahrirlash, tarjima jarayonidan badiiy matnlarni tahlil va tarjima qilishda foydalanish mumkin. Bugungi kunda kompyuter lingvistikasi zamonaviy texnologiyalarning tilshunoslikda muvaffaqiyatli qo'llanilishini ta'minlaydi. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslik texnologik rivojlanishlar bilan uyg'unlashgan holda, tilni o'rganish jarayonini yanada samarali va kengaytirish imkonini yaratmoqda. Kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida tilni qayta ishlash, tarjima qilish, matnlarni tahlil qilish va tilni avtomatik tushunish kabi jarayonlar yanada tez va samarali bo'lmoqda. Shu bilan birga, o'zbek tilining rivojlanishi va uning global miqyosda tanilishi uchun kompyuter lingvistikasi muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Irisqulov M. Til umumiy nazariyasiga kirish. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2007. B.25-27
2. Gumboldt V. fon. Til va tafakkur ifodasi. – Moskva: Progress, 1999. B.13
3. Jurayeva G'. Zamonaviy tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. B. 45-46

Jabborova Subhida Abdullayevna

**Department of Foreign Languages and Literature,
Termez University of Economics and Service, Termez 190101, Uzbekistan**

Email: jabborovasubhida@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0009-0003-8445-8405>

THE LINGUISTIC FEATURES OF MEDICAL TERMINOLOGY: AN ANALYTICAL PERSPECTIVE

Abstract. Medical terminology constitutes a specialized lexical system that enables precision and universality in healthcare communication. This article investigates the linguistic characteristics of medical terms, focusing on their morphological, semantic, and etymological properties. Using descriptive and comparative methods, the study outlines the dominant features that distinguish medical terminology from general vocabulary. The findings suggest that medical terms are characterized by their Greek–Latin etymology, morphological transparency, semantic univocity, and systematic internationalization, making them a stable but adaptable lexical subsystem of language.

Introduction. Language plays a central role in the development and transmission of scientific knowledge. Among all scientific domains, medicine has one of the richest and most complex terminological systems. The need for accurate description of human anatomy, pathology, and therapeutic processes has given rise to a lexicon that is both highly specialized and remarkably consistent across languages.

Medical terminology is not only a tool for communication between healthcare professionals but also a linguistic phenomenon shaped by history, culture, and science. Most medical terms are based on Greek and Latin, which ensures cross-linguistic stability. However, the system also integrates modern coinages, acronyms, and eponyms. The purpose of this study is to analyze the linguistic features of medical terminology, focusing on its morphology, semantics, and standardization processes.

Methods. This study adopts a qualitative descriptive design rooted in linguistic analysis. Rather than testing hypotheses quantitatively, the research aims to describe, categorize, and interpret the distinctive linguistic features of medical terminology. The approach is primarily analytical, relying on comparison, etymological tracing, and morphological description [1]. Medical terminology is vast, therefore a focused corpus was established to ensure both depth and representativeness. Sources include:

Terminologia Anatomica (1998; revised 2019) — the official international standard for human anatomical nomenclature.

International Classification of Diseases, 11th Revision (ICD-11) — providing diagnostic categories and disease terminology standardized by the World Health Organization.

SNOMED CT — the world’s most comprehensive clinical terminology system, used in electronic health records [2].

Specialized dictionaries and glossaries such as *Dorland’s Illustrated Medical Dictionary* and *Stedman’s Medical Dictionary*.

Secondary literature in linguistics and terminology studies (e.g., Cabré, Sager, Wulff). Altogether, approximately 2,500 terms were reviewed to establish patterns of morphology, etymology, and semantics.

The analysis was conducted in four stages:

Etymological Analysis

Each selected term was traced to its root (Greek, Latin, or modern coinage).

Borrowings and hybrid formations were identified (e.g., *tele-medicine*, where *tele-* is Greek and *medicine* is Latin-derived).

Morphological Analysis

Terms were decomposed into their affixal components: prefix, root, and suffix [3].

Patterns of productivity were identified (e.g., *-itis* as a recurrent marker of inflammation).

Word-formation models (compounding, derivation, blending) were recorded.

Semantic Analysis

The degree of univocity (one concept = one term) was tested by comparing terms across different languages (English, French, Latin).

Cases of polysemy, synonymy, and eponymy were noted.

Special attention was given to terms replaced in ICD-11 to avoid stigmatization (e.g., “gender incongruence” replacing “gender identity disorder”).

Comparative Cross-linguistic Analysis

Selected terms were compared with equivalents in German, French, and Russian, to highlight the stability of Greek–Latin roots across languages.

Differences in orthography, affixation, and adaptation were recorded.

To ensure validity, the corpus was drawn only from authoritative sources recognized internationally. Reliability was enhanced by cross-checking etymologies in at least two dictionaries or terminological databases.

The study is limited by its qualitative focus and by the size of the sample. A broader quantitative study could measure the frequency of morphological structures across millions of terms using computational linguistics tools [5]. However, the chosen approach allows for depth of analysis and focuses on linguistic distinctiveness, which aligns with the research aim.

Results

1. Morphological Features

Prefix-root-suffix structure: Most terms are constructed analytically.

Example: *cardiology* = *cardio-* (heart) + *-logy* (study).

High degree of compositionality: Terms are semantically transparent for trained professionals.

Productivity: The same affixes recur across multiple domains (*-itis* for inflammation, *-ectomy* for surgical removal).

2. Etymological Features

Approximately **70–80% of medical terms** derive from **Greek and Latin**.

Nephros (Greek) → *nephrology*.

Hepar (Greek) → *hepatitis*.

Borrowings ensure international comprehensibility.

3. Semantic Features

Univocity: Medical terms strive for “one-to-one” correspondence between term and concept.

Polysemy avoidance: Unlike general language, ambiguity is minimized.

Eponymy: Terms such as *Alzheimer’s disease* or *Parkinsonism* exist but are gradually replaced by descriptive forms (*senile dementia*, *type Alzheimer*).

4. Standardization Features

Internationalization: Modern bodies such as WHO and IFAA maintain global standards (ICD-11, Terminologia Anatomica).

Adaptability: New technologies introduce terms like *telemedicine*, *genomics*, *COVID-19*.

Discussion. The results confirm that medical terminology possesses unique linguistic traits distinguishing it from ordinary vocabulary. Its reliance on Greek–Latin roots provides stability and international usability, reducing the risk of miscommunication in global healthcare [6]. The productivity of morphological patterns ensures the efficient creation of new terms without disrupting systemic consistency.

Semantic univocity is particularly crucial in clinical settings, where ambiguity could endanger patients’ lives. While eponyms preserve historical heritage, they can obscure meaning; thus, international standards increasingly favor descriptive terms [7].

Finally, the tension between conservatism and innovation defines medical terminology. Conservatism ensures continuity and global intelligibility, while innovation enables adaptation to scientific progress. From a linguistic perspective, this dual nature makes medical terminology a model of a controlled and semi-closed lexical subsystem [8].

Conclusion. Medical terminology is a linguistically rich, historically layered, and systematically regulated subsystem of language. Its defining characteristics—Greek–Latin etymology, morphological transparency, semantic univocity, and international standardization—demonstrate how language can serve as a precise instrument of science. Future linguistic research may focus on how digitalization and machine translation influence the evolution of medical terms, particularly in multilingual healthcare environments.

References

1. Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, methods, and applications*. Amsterdam: John Benjamins.
2. Dorland, W. A. N. (2012). *Dorland’s illustrated medical dictionary* (32nd ed.). Philadelphia: Elsevier Saunders.
3. International Federation of Associations of Anatomists (IFAA). (1998). *Terminologia Anatomica: International anatomical terminology*. Stuttgart: Thieme.
4. International Federation of Associations of Anatomists (IFAA). (2019). *Terminologia Anatomica* (2nd ed., revised). Stuttgart: Thieme.

5. International Health Terminology Standards Development Organisation (IHTSDO). (2022). *SNOMED CT: The global clinical terminology*. London: SNOMED International.
6. Sager, J. C. (1990). *A practical course in terminology processing*. Amsterdam: John Benjamins.
7. Stedman, T. L. (2012). *Stedman's medical dictionary* (28th ed.). Philadelphia: Wolters Kluwer.
8. U.S. National Library of Medicine. (2020). *Medical Subject Headings (MeSH)*. Bethesda, MD: National Institutes of Health.

*Turakulova Sitora Fazlidinovna,
SamDChTI mustaqil tadqiqotchisi*

BADIIY ADABIYOTDA MAHKUM ETILGAN O‘SPIRINLAR OBRAZI ORQALI JAMIYATGA BERILGAN SIGNAL

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy adabiyotda mahkum etilgan o‘spirinlar obrazi va ularning ruhiyatidagi evrilishlar haqida ma’lumot berilgan. Bu nazariy qarashlar koreys adibasi Kon Djon va o‘zbek adibi Tohir Malik asarlari tahlili orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tar’lim, tarbiya, inson tafakkuri, bola ruhiy olami, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy himoya, axloqiy qarashlar.

Adabiyotda o‘spirin obrazining keng yoritilishi bejiz emas. Yozuvchilar bu davrni inson ruhiyati va jamiyat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlik sifatida tasvirlaydi. Chunki o‘spirin hali to‘liq mustaqil emas, lekin erkinlikka intiluvchi, o‘zini namoyon etishga harakat qiluvchi yoshdir. Agar bu ehtiyojlar ijobiy yo‘nalishda qondirilmasa, u noto‘g‘ri yo‘llarga – jinoyat, zo‘ravonlik yoki radikal g‘oyalarga og‘ib ketishi ehtimoli yuqori. Tarbiya, e’tibor, mehr-muhabbat va sog‘lom ijtimoiy muhit – bu davrda eng muhim omillardir. O‘spirinlik davri inson hayotidagi eng nozik va muhim bosqichlardan biridir. Bu jarayon, ayniqsa, tashqi muhit – oila, maktab, do‘stlar va ommaviy axborot vositalari ta’siri bilan chambarchas bog‘liq. Psixologlar ushbu davrni “o‘zligini anglash” bosqichi deb ta’riflaydi. O‘spirin o‘z-o‘ziga savollar beradi: “Men kimman?”, “Qayerga tegishliman?”, “Qanday yashashim kerak?” Bu savollarga berilgan javoblar, atrof-muhitdan olingan ijobiy yoki salbiy ta’sirlar, o‘spirinning keyingi hayotdagi qarashlarini, yo‘lini belgilab beradi. Shu sababli bu davrda e’tiborsizlik, mehrsizlik yoki befarqlik – o‘ta og‘ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Adabiyot insoniyat hayotining badiiy in’ikosi sifatida nafaqat individual taqdirni yoritadi, balki jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy muammolarga ishora qiluvchi, unga ogohlantiruvchi signal beruvchi kuchli vosita sifatida ham xizmat qiladi. Ayniqsa, mahkum etilgan o‘spirin obrazlari orqali ijodkorlar jamiyatda mavjud bo‘lgan beparvolik, tarbiyaviy buzilishlar, zo‘ravonlik, ruhiy bo‘shliq va ijtimoiy adolatsizlik kabi chuqur muammolarni ochib beradilar. Bunday obrazlar – ogohlantiruvchi xarakterga ega bo‘lib, muammoning ildizi va oqibatini badiiy-falsafiy tahlil qilish imkonini yaratadi. Mahkum etilgan o‘spirinlar orqali jamiyatga berilgan signal juda chuqur va ko‘p qirrali masaladir. Bu hodisa nafaqat jinoyat sodir etgan yoshlarning shaxsiy taqdiri, balki butun jamiyatning tarbiyaviy, ijtimoiy va axloqiy holatini ham aks ettiradi. Quyida bu signalning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz:

1. Oilaviy va tarbiyaviy muammolarga signal. O‘spirinlarning jinoyatga qo‘l urishi, ko‘pincha oiladagi befarqlik, nazoratsizlik yoki zo‘ravonlik natijasidir. “Bizning baxtli damlar” asarida bu signal Mun Yujin hamda Chon Yunsu yashagan oilalar misolida tahlil qiladigan bo‘lsak, har ikkala qahramon ham oilaviy munosabatlar tufayli o‘zlarini yolg‘iz, keraksiz his qilishadi. Mun Yujin kamolga yetayotgan oila har tamonlama to‘kis. Boy-badavlat, ziyoli oila. Lekin bu oilada faqat obro‘-e’tibor birinchi o‘rinda. Hamma narsa, barcha ishlar faqat shu oilani

yuksaltirish uchungina amalga oshirilishi kerak. Mun Yujin yosh qizaloqlik paytidan onasi tomonidan eshitilmaydi. Onasi doimo uni o'zidan o'zoqlashtiradi. Yaqin qarindoshi tomonidan zo'rlanganida ham onasi buni oshkor etishni xoxlamaydi. Go'yoki bu holat ularning oilaviy nufuzini yerga o'radi. Mun Yujinning hayotidagi bu holatlar uni oilasidan, yaqinlaridan o'zoqlashtiradi. U o'zini keraksiz his qiladi. Bu oilada u faqat bir insongagina suyanadi. U ham bo'lsa – ammasi. “Bizning baxtli damlarda” Mun Yujin o'z oilaviy muhitini shunday tasvirlaydi: “모니카 고모와 나는 우리 집안의 이 방인들이었다. 이단이라고 하는 게 맞을까. 아니면 사생아라고 해야 옳을까? 우리는 거의 마흔 살쯤 나이 차이가 났지만 쌍둥이처럼 닮은 데가 있었다. 하 는 짓이 꼭 네 고모를 닮았구나, 라고 어머니가 어린 시절 내게 이야기했을 때 그건 분명 비아냥이었다. 아무리 어 린아이라도 그 이름을 부르는 당사자가그 이름을 호명당하는 사람을 좋아하는 지 싫어하는지 정도는 안다. 어머니는 왜 자신의 친구였던 고모를 미워했을까. 그러니 나도 어머니를 미워한 것이 먼저였을까, 아니면 고모를 닮아버리겠 다고 결심한 것이 먼저였을까. 나는 고 집이 셋고, 집안 분위기를 어색하게 만 들어놓았다. 당연히 나를 거북해하던 사람들의 평화로운 얼굴에 손톱자국을 북북 내듯이 독설을 퍼붓고는 어이없어 하는 그들을 가여워하며 깔깔 웃었다. 그러나 그것은 미개지에 들어선 점령군 이 부르는 승전가 같은 종류의 감정은 아니었다. 그것은 이를테면 건드리기만 하면 피를 흘릴 준비가 되어 있는 오래¹ – *Monika amma bilan men oilamizdagi begonalar edik. Buni bid'atchi deb atash to'g'rimi? Yoki nikohsiz tug'ilgan deb aytish to'g'rimi? Oramizda qariyb qirq yosh farq bo'lsa-da, egizaklardek o'xshash jihatlarimiz bor edi. “Qiliqlaring xuddi ammangnikiga o'xshaydi”, deb onam bolaligimda menga aytganida, bu shubhasiz istehzo edi. Qanchalik yosh bola bo'lmasin, o'sha nomni tilga olayotgan odamning o'zi... O'sha ism bilan chaqirilayotgan odamni yoqtiradimi yoki yoqtirmaydimi – hech bo'lmaganda shuni bilish mumkin. Onam nega o'zining bir paytlar do'sti bo'lgan ammamni yomon ko'rgan ekan? Xo'sh, unda avval men onamni yomon ko'rganmanmi, yo ammamga o'xshab qolishga qaror qilganmanmi? Men o'jar edim, oiladagi muhitni noqulay qilib qo'yardim. Mendan bezor bo'lgan odamlarning osoyishta yuzlariga tirnoq izlari qoldirgandek zaharli so'zlar yog'dirib, hayron bo'lib qolgan ularni achinib tomosha qilar, qah-qah urib kulardim. Ammo bu his-tuyg'u yovvoyi yerlarga kirib kelgan bosqinchilarning kuylaydigan g'alaba qo'shig'iga o'xshash emas edi. Bu, aytaylik, tegib yuborishsa, qon to'kishga tayyor bo'lib turgan eski qo'shiq (tarjima o'zimizniki). Mun Yujinning bu iqrorlari uning hayoti edi. U oilada mana shunday muhitda yashar edi. U yolg'iz edi. Xuddi shunday Yunsuning oilasi ham notinch, yetishmovchiliklar bilan yashaydigan, muntazam ichkilikka berilgan ota, otaning kaltaklaridan bezor bo'lgan ona ularni tashlab ketadi. Natijada bolalar qarovsiz, ochlikda, kaltaklanishlar, tahqirlar ostida yashashadi.*

Bu kabi holatlar Tohir Malikning “Alvido, bolalik” qissasida ham mavjud. “Alvido, bolalik” Tohir Malik ijodida alohida o'rin tutadi. Asardagi asosiy mavzu – hech kim jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi, bolani atrof-muhit, jamiyatdagi turli illatlar jinoyatchiga aylantiradi. Tohir Malikning “Alvido, bolalik” qissasining ilk sahifalarida esa shunday jumlar ko'zga tashlanadi: “Hozir qo'limga miltiq berib qo'yishsa-yu, darvozadan otam bilan onam kirib kelishsa, shartta otardim. Ana undan keyin o'zimni ham otib yuborishsa mayli. Yo'q avval sud bo'lishi kerak. Sudda gapirishim shart. “Bolasini tashlab ketgan ota-onaning jazosi shu”, deyman. Tirik yetimlar, hammangiz ablah ota-onalaringizni topib, otib yuboring. Yolg'on gaplar to'qib, ularni yaxshi odam qilib ko'rsatmang bir-birlaringizga. Ayamay, otib tashlang!” deyman. “Tirik

¹ 공지용 «우리들의 행복한 시간» 2005.

yetimlarga miltiq beringlar!” deyman. Ana shundan keyin meni otishsa ham mayli...”¹ Demak, xuddi mana shu dil tubidan chiqayotgan bola nidosining mohiyatida ham oilaviy munosabatlar, oilada ota-onaning o‘rni, farzand tarbiyasidagi o‘rni nihoyatda muhimligi ta’kidlanmoqda.

2. **Ta’lim tizimidagi bo’shliqlarga signal.** Ayrim o‘spirinlarning jinoyatchilik yo‘liga kirishi ta’lim tizimidagi muammolarga ham ishora qiladi. Yoshlar bilimga emas, ko‘proq daromadli va oson yo‘llarga intiladi. Ba’zi yoshlar imkoniyat tengsizligi tufayli jinoyat yo‘liga kirayotganini his qilishadi. Aynan “Bizning baxtli damlar” asarida Yunsuning maktabga borish holati tasvirlanadi: 학교가 끝나고 집으로 돌아가 보니 아버지가 잠든 은수 옆에서 라면을 먹고 있었습니다. 소주병이 뒹구는 방 한구석에서 잠든 은수를 살펴보니 온몸이 뜨거웠습니다. 깨워 흔들었지만 대답 대신 신음 소리가 들렸습니다. “아부지 은수가 아파요. 열이 펄펄 끓어요.” - *Maktab tugab uyga qaytsam, otam uxlab yotgan ukamning yonida ramyon yeb o‘tirgan ekan. Soju shishalari sochilib yotgan xonaning bir burchagida uxlayotgan ukamni ko‘rib chiqdim – butun tanasi lovullab yonayotgandek issiq edi. Uyg‘otish uchun silkitdim, ammo javob o‘rniga faqat ingragan ovoz eshitildi.*

– *Dada, ukam kasal. Isitmasi juda baland* (tarjima o‘zimizniki). Nega bola kasal bo‘ldi? Chunki u maktabga akasi bilan ergashib bordi. Maktabga esa uni kirgizishmadi. Yomg‘irning tagida akasini kuta boshladi. Ivib ketdi. Uyga kelsa otasining kaltaklashidan qo‘rqadi. Ochlik va sovuqdan u qattiq shamollagan edi.

Tohir Malikning “Alvido, bolalik” qissasida maktab muhitiga alohida e’tibor qaratilgan. Asarda maktab faqat bilim beradigan joy sifatida emas, balki inson xarakteri shakllanadigan, bolalikdan kattalikka o‘tish jarayoni kechadigan muhim hayot bosqichi sifatida tasvirlanadi. “Alvido, bolalik”da esa maktab tasviri, u yerdagi muhit, Qamariddin tarbiyalanayotgan mehribonlik uyidagi maktab – bularning barchasining qahramonlarimiz taqdirida o‘z o‘rni bor. Jumladan, Asrorning maktabida “Adabiyot” darsi tasvirlanadi. O‘qituvchi “Baxtli bolalik” mavzusida insho yozishni topshiriq beradi. Shunda bolalar, biz bolalikdan o‘tdik, “Alvido, bolalik” deb insho yozsakchi deganlarida, Baxtli bolalik menga emas, rayonadagilarga kerak², deyishi, bu holat Asrorni o‘yga toldiradi. Sinfidagi hamma bola baxtlimi? Ular baxt deganda nimani anglashadi? Albatta, bu mavhum va ayrim bolalar faqatgina orzusidagi “baxtli bolalik”ni yozishga majbur. Chunki baho olishi kerak. Yoki maktabda o‘quvchilar bilan o‘qituvchilarning din haqidagi suhbatlari va u yerda o‘quvchilarni ota-bobolarining xatti-harakatalari orqai baholashlari fikrimizning isboti. Demak maktab muhiti, u yerdagi o‘qituvchilarning o‘rni ham o‘spirin yoshdagi bolalar hayotida nihoyatda muhim ekanligini tahlil qilayotgan asarlarimizdagi ayrim voqeliklar orqali ham anglashimiz mumkin. Shuning bilan birga Qamariddin ta’lim olgan mehribonlik uyidagi maktab tasviri ham berilgan. Maktabdagi muhit Qamariddinning ta’limga bo‘lgan munosabatini sovitadi. U bilim olishdan ko‘ra, o‘z qadr-qimmatini saqlab qolish haqida ko‘proq o‘ylaydi. Natijada maktab Qamariddin uchun quvonchli xotiralar maskani emas, balki **ruhiy sinovlar maydoniga** aylanadi. Ramziy ma’noda, Qamariddin o‘qiydigan maktab – bu jamiyatning kichik modeli. Undagi adolatsizlik, zo‘ravonlik va befarqlik keyinchalik qahramonning hayot yo‘lini tanlashiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maktab muhiti Qamariddinning “bolalik bilan xayrlashuvi”da asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, **mahkum etilgan o‘spirin obrazlari jamiyat uchun ogohlantiruvchi belgi, ijtimoiy signaldir.** Bunday obrazlar orqali yozuvchi “kechikkan e’tibor — fojia”, degan haqiqatni badiiy shaklda ifoda etadi. Bu esa adabiyotning ogohlik, tarbiya va ijtimoiy mas’uliyat borasidagi o‘rni va ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 공지용 «우리들의 행복한 시간» 2005.

¹ Tohir Malik. Alvido... Bolalik. Qissa. – T., 2009, 3-bet.

² Tohir Malik. Alvido... Bolalik. Qissa. – T., 2009, 16-bet.

2. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение и проблема литературных влияний, «Изв. АН СССР. Отд. обществ, наук», 1936, № 3.
3. Tohir Malik. Alvido... Bolalik. Qissa. – T., 2009. – B.103.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – B.408.

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| I SHO‘BA | |
| TIL TARAQQIYOTINING DERIVATSION QONUNIYATLARI | |
| X.Z.Xayrullayev. FONEMATIK VA MORFEMATIK SATH BIRLIKLARI..... | 3 |
| Т.А.Бушуй. ДЕРИВАЦИЯ В РУССКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ..... | 7 |
| B.N.Turniyazov. KAUZATOLOGIYANING TARIXIY ILDIZLARI..... | 11 |
| N.A.Ne‘matova. O‘ZBEK VA XITOIY TILLARIDA PREDIKATIV TUZILMALAR DERIVATSIYASI: SINTAKTIK, SEMANTI K VA FUNKSIONAL JI HATLAR..... | 16 |
| I.O.Beknazarova, D.U.Jo‘rayeva. BILVOSITA NOMLANISHNING TIL VA TAFAKKURDAGI O‘RNI..... | 18 |
| G.F.Ochilova. TIL VA NUTQ BIRLIKLARINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDA BELGILANISHI..... | 23 |
| M.M.Ziyadullayeva. TIL BIRLIKLARINING IERARXIK MUNOSABATI..... | 25 |
| II SHO‘BA | |
| SISTEM VA STRUKTUR TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI | |
| X.Z.Xayrullayev. MORFEMA VA SO‘Z O‘RTASIDAGI POG‘ ANALI MUNOSABAT. | 28 |
| A.Turobov. “YOSH GRAMMATIKACHILAR” MAKTABI TADQIQI XUSUSIDA..... | 33 |
| A.B. Фалеева. ЭКСКУРС В ПРОБЛЕМУ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ И ФОНЕТИКО-ФОНОЛОГИЧЕСКОЙ УРОВНЕВОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ БРИТАНСКОГО ВАРИАНТА РАЗГОВОРНОГО АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА..... | 35 |
| D.Sh.Mamirova. OLMOSH SO‘Z TURKUMINING REKLAMA MATNLARIDA QO‘LLANILISHI..... | 39 |
| F.Nurmanov. QIPCHOQ LAHJASIDAGI YORDAMCHI SO‘ZLARNING O‘RNI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA..... | 41 |
| M.A.Rustamov. MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLAR ATAMASI VA TUSHUNCHASI..... | 44 |
| S.Abdullayeva. MATERIAL STATUS OF PERSON IN ENGLISH PHRASEOLOGICAL UNITS AND PROVERBS..... | 47 |
| S. Daminova. SO‘Z BIRIKMASINING PREDIKATIVLIKKA MUNOSABATI..... | 48 |
| G.B. Suyunova. THE HISTORICAL AND LINGUISTIC EVOLUTION OF THE ENGLISH VERB <i>HAVE</i> : FROM PROTO-INDO-EUROPEAN <i>KEH₂P</i> | 51 |
| D.Sohibova. HEADWEAR TERMS WITHIN ENGLISH AND UZBEK IDIOMATIC EXPRESSIONS..... | 55 |
| S.I.Anorqulov. O‘ZBEKISTON TOPONIMIK QATLAMLARINING MILLIY-MADANIY O‘ZIGA XOSLIGI..... | 57 |
| L.M.Sodiqov. NEMIS VA O‘ZBEK MAQOLLARINING STRUKTUR TALQINI..... | 59 |
| U.K.Gofurova. STRUKTUR TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTI VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA UNING SHAKLLANISHI..... | 61 |
| N.Y.Yodgorova. BADIY MATNLARDA SUBYEKTIV MODALLIKNI IFODALASHDA KICHRAYTIRISH-ERKALASH SHAKLLARINING O‘RNI..... | 65 |
| S.Sh. Nazarov. THE STRUCTURAL FEATURES OF MULTI-COMPONENT TERMS AND THE ROLE OF COMPOUND WORDS IN MODERN TERMINOLOGY..... | 67 |

| | |
|--|-----|
| N.B. Bakhrilloeva. LOGICO-SEMANTIC RELATIONS IN PARATAXIS IN ENGLISH LANGUAGE..... | 69 |
| N.K. Ruziyeva. FRANSUZ TILIDAGI SIYOSIY TERMINLARNI TARJIMASI RUS VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA..... | 71 |
| K.K.Sayfiyeva. FITONIM KOMPONENTLI O‘ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING MADANIYATLARARO QIYOSIY TADQIQI..... | 74 |
| E.B.Фелева. АНГЛИЙСКИЕ НЕОЛОГИЗМЫ В СОВРЕМЕННОМ ДИСКУРСЕ..... | 77 |
| X.Buriyev, T.Turovov. LEKSIKOGRAFIYA VA TILNI AVTOMATIK LUG‘AT TUZISH: TADQIQOTLAR, METODLAR VA AMALIY QO‘LLANILISHLAR..... | 81 |
| III SHO‘BA | |
| KOGNITIV, PRAGMATIK TILSHUNOSLIK MASALALARI | |
| Sh.J.Shomurodova. DISKURS TAHLILIDA KOGNITIV-PRAGMATIK YONDASHUV: MA‘NO HOSIL BO‘LISH JARAYONLARI..... | 84 |
| Sh.N.Turniyazova. ICHKI NUTQ XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR..... | 86 |
| U.M.Rashidova. FRAZELOGIZMLAR QADRIYAT IFODALOVCHI LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA..... | 89 |
| N.S.Sadinova. SO‘Z O‘YINI YUMORISTIK DISKURS VOSITASI SIFATIDA..... | 91 |
| F.U.Orzibekov. MULOQOTDAGI NUTQIY AKTLAR TAHLILI..... | 94 |
| K.S.Maxmudova. BRITAN VA AMERIKA INGLIZ TILI O‘RTASIDAGI MADANIY FARQLAR..... | 98 |
| G.A.Salomova. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA REKLAMA QISQARTMALARIDAN FOYDALANISHNING PRAGMATIK JIHATI..... | 100 |
| F.D.Axmedjanova. MARGARET DREBBL ASARLARIDA AYOL OBRAZINING LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK TALQINI..... | 103 |
| G.N.Raxmonova. THE USE OF IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS IN NATIONAL, HISTORICAL, AND CULTURAL CONTEXTS..... | 105 |
| K.O‘.Shoyimova. TERMIZ VA VINCHESTER TOPONIMLARINING METAFORIK VA LINGVOMADANIY TALQINI..... | 107 |
| Z.A.Xoliqova. O‘ZBEK XALQ TOPISHMOQLARIDA RANG KONSEPTINING KOGNITIV-PRAGMATIK TALQINI..... | 108 |
| S.Shamsiyeva. O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OILAVIY QADRIYATLAR KONSEPTINING LINGVOMADANIY TAHLILI..... | 112 |
| Sh.Yusupova. SUGGESTIV NUTQDA SOMATIZMLARNING QO‘LLANILISHI..... | 114 |
| M.Xasanova. “KO‘NGIL” KOMPONENTLI POLISEMANTIK IBORALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATI..... | 115 |
| IV SHO‘BA | |
| ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MATN NAZARIYASI VA TA‘LIM USLUBIYATI MASALALARI | |
| N.A.Abdumannatova. LINGVOFOLKLORISTIKA - TILSHUNOSLIKNING ALOHIDA YO‘NALISHI SIFATIDA..... | 118 |
| Sh.J.Shomurodova. MATN LINGVISTIKASI VA INTERAKTIV METODLAR: TIL O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR..... | 120 |
| D.A.Alibekova. USLUB VA TILDAGI MILLIY-ESTETIK TAFOVUTLAR: GEKTOR MALO VA TEODOR DRAYZER ASARLARI ASOSIDA..... | 122 |

| | |
|---|-----|
| F.D.Axmedjanova. O‘TKIR HOSHIMOV VA MARGARET DREBBL ASARLARI NEGIZIDA AYOL KONSEPTINING QIYOSIY TAHLILI..... | 124 |
| O.S.Eshboyeva, N.Boliboyeva. SUN‘IY INTELEKTNING TA‘LIM TIZIMIDAGI O‘RNI..... | 127 |
| O.S.Eshboyeva INTERPRETATION OF THE TRANSFORMATION PHENOMENON IN WORLD LINGUISTICS..... | 130 |
| M.A.Ibragimova. SO‘Z-GAP VA TO‘LIQSIZ GAPLARNING SINTAKTIK TABIATINI QIYOSIY O‘RGANISH MASALALARI..... | 133 |
| M.A.Qo‘shbaqova. MATNDA KOHEZIYA VA KOGERENSIYA ELEMENTLARINING KOMMUNIKATIV FUNKSIYASI..... | 136 |
| G.T.Rabbimova. MILLIY TIL KORPUSI LINGVISTIK TA‘MINOTI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR..... | 140 |
| S.Sotvoldiyeva AYOLLAR SHE‘RIYATIDA ANTROPOETONIMLAR..... | 143 |
| Д.А.Джурякулова. СОВРЕМЕННЫЕ СТРАТЕГИИ ВНЕДРЕНИЯ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫХ ЗАДАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА..... | 151 |
| Z.Abdirazakova. MORFEMIK TAHLILNING O‘QUV-USLUBIY MATERIALLARDA QO‘LLANILISHI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV..... | 153 |
| S.Y.Nasimova. FUNCTIONAL PROPERTIES OF DIMINUTIVES AND EXAMPLES FROM ENGLISH LITERATURES..... | 156 |
| O.Xudayberdiyeva. YANGI LEKSIK BIRLIKLARNI SAMARALI O‘RGATISH..... | 159 |
| F.P. Sadinov. O‘QUVCHI TAFAKKURININING SHAKLLANISHIDA BAYONNING O‘RNI..... | 161 |
| E.Qodirova. XITOIY TILINI O‘QITISHDA INSON HIS-TUYG‘ULARINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TAHLILI..... | 163 |
| Ch.Sh.Xudaynazarova. BADIY MATNDA MA‘NODOSH VA ZID MA‘NOLI SO‘ZLARNING USLUBIY IMKONIYATLARI (NORMUROD NORQOBILOV QISSALARI MISOLIDA)..... | 166 |
| N.D.Xujanova. TALABALARDA RAQAMLI SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI..... | 169 |
| R.U.No‘monjonova. THE EFFECTIVENESS OF TECHNOLOGY-ASSISTED LEARNING IN ENGLISH LANGUAGE EDUCATION..... | 172 |
| V SHO‘BA | |
| TIL VA ADABIYOT NAZARIYASI | |
| Э.Р.Мусурманов. ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВОПЛОЩЕНИЕ ШЕЛКОВОГО ПУТИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ХАМСА» АЛИШЕРА НАВОИ..... | 176 |
| H.A.Aslanova. POSHSHOXOJA IJODINING TILI BA BAYON QILISH USLUBI..... | 178 |
| D.Sh.Mamirova. SON SO‘Z TURKUMINING REKLAMA MATNLARIDA QO‘LLANILISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..... | 181 |
| I.M.Pardayeva. SHARQ EPIK AN‘ANALARIDA ISKANDAR OBRAZI: NAVOIY TALQININING O‘ZIGA XOSLIGI..... | 183 |
| Z.N.Eliboyeva. ERTAK JANRI VA ULARNING AYTUVCHILARI..... | 188 |
| T.S.Eshboyeva. ALISHER NAVOIY G‘AZALLARINING FRANSUZ TILIGA TARJIMALARI TAHLILI | 190 |
| G.Y.Holikulova, Z.U.Xayrullayeva QARLUQ VA QIPCHOQ LAHJALARINING | 194 |

| | |
|--|-----|
| LEKSIK QIYOSLANISHI..... | |
| M.A.Xudayberdiyeva. IJTIMOYIY TARMOQLAR ORQALI AXBOROT TARQATISH VA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI..... | 196 |
| F.B.Komilova. AMIR TEMUR SIYMOSINING SHARQ VA G‘ARB ADABIYOTIDA AKS ETISHI | 199 |
| M.Sh.Saloxiddinov. TELICITY AND ITS RELATION TO ACHIEVEMENTS..... | 202 |
| S.Rasulova. SATIRA VA YUMOR – KULGI ORTIDAGI HAQIQATNING BADIY IFODASI..... | 204 |
| F.R.Rashidova. PSIXOLOGIK PORTRETNING BADIY ADABIYOTDA TADQIQI... | 206 |
| D.M.Kodirova. MAQOLLARNI O‘RGANISHDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR..... | 209 |
| G.Y.Holikulova, S.F.Nasriyeva. QIPCHOQ LAHJASINING O‘ZIGA XOS LEKSIK XUSUSIYATLARI..... | 211 |
| S.X.Rajabboyeva. G‘ARBIY YEVROPANING NAVOIY BILAN TANISHISH TARIXI | 213 |
| D.Bekmirzayeva. “KENTERBERI HIKOYALARI” DA TURFA TABAQALAR: CHOSERNING IJTIMOYIY PORTRETI..... | 214 |
| I.Yo.Beknazarova , D.U.Jo‘rayeva BILVOSITA NOMLANISHNING MANTIQUIY-SEMANTIK MUAMMOLARI..... | 217 |
| S.A.Jabborova. The Linguistic Features of Medical Terminology: An Analytical Perspective..... | 222 |
| M.A.Xalova. MARINA SVETAYEVA IJODIDA LIRIK QAHRAMON..... | 225 |
| M.F.Zayniddinov. ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA KINOYANING IJTIMOYIY TA‘SIRI..... | 227 |
| N.O‘.Kobilov. SOTSIOLINGVISTIKANING TIL VA JAMIYATDAGI O‘RNI..... | 229 |
| N.F.Ochilova. THE IMPORTANCE OF REALIS AND IRREALIS CONSTRUCTIONS.. | 231 |
| F.Axtamova. ADABIY XRESTOMATIYALARNING BADIY ADABIYOTDA TUTGAN O‘RNI..... | 233 |
| D.Bekmirzayeva. “KENTERBERI HIKOYALARI” DA TURFA TABAQALAR: CHOSERNING IJTIMOYIY PORTRETI..... | 235 |
| M.F.Tursunmuratova. BUGUNGI KUNDA TILSHUNOSLIK VA TIL SOHASIGA MUNOSABAT | 237 |
| S.F.Turakulova. BADIY ADABIYOTDA MAHKUM ETILGAN O‘SPIRINLAR OBRAZI ORQALI JAMIYATGA BERILGAN SIGNAL | 243 |

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA DERIVATSION QONUNIYATLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI

Samarqand shahri, 2025-yil, 16-oktabr

Muharrir: G.Rahimova
Musahhah: Z.Usmanova
Tex.muharrir: H.Amirdinov

Nashriyot tasdiqnomasi:
№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655
Bosmaxona tasdiqnomasi:
№ 8376-525f-572d-f37b-0fd6-3529-7957

2025-yil 16-oktabrda bosishga ruxsat etildi:
Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}.
“Times” garniturasini. Raqamli bosma usulda bosildi.
Hisob-nashriyot t.: 26,0. Shartli b.t. 19,0.
Adadi 10 nusxa. Buyurtma №16/05.

SamDCHTI tahrir-nashriyot bo‘limida chop etildi.
Manzil: Samarqand sh., Gagarin, 43.